O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

O‘ZBEK FILOLOGIYASIDA MATNSHUNOSLIK VA MANBASHUNOSLIK MUAMMOLARI

mavzusidagi

II XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN

MATERIALLARI

2025-yil 13-14 iyun

2-kitob

Namangan – 2025

Mazkur to‘plamda “O‘zbek filologiyasida matnshunoslik va manbashunoslik muammolari” mavzusida xalqaro miqyosda o‘tkazilgan ilmiy-amaiy anjuman materiallari jamlangan. To‘plamdan respublikamiz va xorij olimlarining matnshunoslik va manbashunoslik muammolariga bag‘ishlangan maqolalari, shuningdek, yosh tadqiqotchilar, magistrant va iqtidorli talabalarning ilk tadqiqotlari ham o‘rin olgan.

Mas’ul muharrir:
Faridaxon KARIMOVA, filologiya fanlari doktori, dotsent

Muharrirlar:
Mo‘minjon Sulaymonov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Abbos Rohataliyev, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Saboxon Jo‘raboyeva, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Mahmuda Otaxonova, o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi
Gulnavoz Mamadaliyeva, o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi
Shamsiya Egamberdiyeva, o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi doktoranti

Taqrizchilar:
Maqsudbek Asadov, filologiya fanlari doktori, professor
Nosirjon Uluqov, filologiya fanlari doktori, professor

NamDU ilmiy-texnik kengashi yig‘ilishining 2025-yil 10-iyundagi 6- sonli qaroriga muvofiq nashr etishga tavsiya qilingan.

To‘plamdan o‘rin olgan maqolalarning ilmiy va uslubiy jihatlariga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

BADIIY MATNNI TAHLIL QILISH USULLARI

Axmedova Shoira Nematovna,
Osiyo xalqaro universiteti professori,
filologiya fanlaridoktori

Annotatsiya: Badiiy asarning san'at darajasiga ko‘tarila olishida uning mazmun-mohiyati, badiiy va lisoniy tarkibi va asar muallifining mahorati kabi masalalar har doim dolzarb bo‘lib kelgan. Badiiy asarni tahlil qilishda zamonaviy adabiyotshunoslikda turli usullar va yo‘llardan foydalanish uning g‘oyasi, mavzui, adibning mahoratini tahlil qilishda, baho berishda muhim hisoblanadi. Bahs munozara usuli bu yo‘lda badiiy matnni tahlil qilishda katta yordam beradi. Maqolada ana shu metodddan foydalanib, bahsni tashkil etish X.Do‘stmuhammadning “Donishmand Sizif” romani misolida ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: badiiy matn, yozuvchi, asar, obrazlar, g‘oya va mazmun, kompozitsiya, baho, tahlil.

Abstract: In order for a work of art to rise to the level of art, issues such as its content, artistic and linguistic composition, and the skill of the author of the work have always been relevant. In modern literary criticism, the use of various methods and approaches in analyzing a work of art is important in analyzing and evaluating its idea, theme, and the skill of the writer. The method of debate is of great help in analyzing a literary text in this way. The article shows how to organize a debate using this method on the example of Kh. Dostmuhammad's novel “The Wise Sisyphus“.

Keywords: literary text, writer, work, images, idea and content, composition, evaluation, analysis.

Adabiyotshunoslikda badiiy matn tahlil qilinganda ko‘proq uning tavsifi, badiiy matnning boshka matnlardan farqi, yozuvchi uslubi, badiiy matnning kompozitsion butunligi, butunlikni ta’minlovchi vositalarga e’tibor qaratish muhimdir. Bunda turli usullardan foydalanish samarali natija beradi va badiiy matn ichiga chuqurroq kirib borish imkoniyatini ochadi.Ana shunday usullardan biri bahs-munozara bo‘lib, badiiy asarni atroflicha tahlil qilishda qulay ekanligini tajribalar ko‘rsatmoqda.

“Bahs-munozara” usuli - biror mavzu bo‘yicha talim oluvchilar bilan o‘zaro bahs, fikr almashinuv tarzida o‘tkaziladigan o‘qitish metodidir. Har

qanday mavzu va muammolar mavjud bilimlar va tajribalar asosida muhokama qilinishi nazarda tutilgan holda ushbu metod qo‘llaniladi. Bahs-munozarani boshqarib borish vazifasini ta’lim oluvchilarning biriga topshirishi yoki o‘qituvchining o‘zi olib borishi mumkin. Bahs-munozarani erkin holatda olib borish va har bir talabani munozaraga jalb etishga harakat qilish lozim.

“Bahs-munozara” usulining afzalliklari:

- talabalarni mustaqil fikrlashga undaydi;
- talabalar o‘z fikrining to‘g‘riligini isbotlashga harakat qilishiga imkoniyat yaratiladi;
- talabalarda tinglash va tahlil qilish qobiliyatining rivojlanishiga yordam beradi.

“Bahs-munozara” metodini o‘tkazishda, asosan, talabalar quyidagi qoidalarga amal qilishi kerak:

- fikr-g‘oyalarni tinglash madaniyati;
- bildirilgan fikr-g‘oyalarning takrorlanmasligi;
- bir-birlariga o‘zaro hurmat.

Oliy ta’lim tizimida Adabiyotni o‘qitishda, badiiy asarlarni tahlil qilish va mohiyatini chuqur anglab yetishda bu metod samarali hisoblanadi. Masalan, yozuvchi Xurshid Do‘stmuhammadning yangi “Donishmand Sizif” romanini shu metoddan foydalanib, tahlil qilish mumkin.

“Bahs-munozara” metodining bosqichlarida quyidagilarga e’tibor qaratish lozim:

1.Mashg‘ulotni olib boruvchi o‘qituvchi munozara mavzusini tanlaydi: Xurshid Do‘stmuhammadning “Donishmand Sizif” romani talabalar nigohida.

Mavzuga oid quyidagi savollar ishlab chiqiladi:

A) X.Do‘stmuhammadning adabiy jarayonda tutgan o‘rni haqida nima bilasiz?

B) Adibning birinchi romani nima uchun “Bozor” deb nomlangan?

V) “Donishmand Sizif” romanining g‘oyasi nimadan iborat?

G) Sizif haqida qanday ma’lumotga egasiz? U qanday obrazlar sirasiga kiradi?

D) Adibning yangi romani o‘quvchining ongu tafakkuriga qanday ta’sir ko‘rsatadi deb hisoblaysiz? Unga qanday baho berasiz?

2.O‘qituvchi talabalarga muammo bo‘yicha savol beradi va ularni munozaraga taklif etadi. Shu o‘rinda talabalarning o‘zlari ham bir-biriga savol berishi mumkin.

3.O‘qituvchi talabalarni ikki guruhga bo‘ladi: oqlovchilar va qoralovchilar.

Oqlovchilar adibning mustaqillik davri romanchiligida erishgan yutuqlari haqida roman tahlili misolida fikr bildirsalar (*bu roman adibning yutuqlaridan biri hisoblanadi; asar o‘quvchini sabr-toqatga, eng muhimi, irodali bo‘lishga o‘rgatadi, inson o‘zini anglay olsa, har qanday qiyinchilikni yenga oladi va h.k.)*

Qoralovchilar esa asarning o‘zlariga ma'qul bo‘lmagan jihatlarini aytadilar: *an'anaviy romanlarga o‘xshamaydi, syujeti, voqyealar bayoni o‘quvchini zeriktiradi, qiziqarli emasday va h.k.)*

Shu tariqa bahs davom etadi. Talabalar orasidan tayinlangan ekspertlar munozarani kuzatib boradilar.

4.O‘qituvchi yoki ekspertlar berilgan savolga bildirilgan javoblarni, yani turli g‘oya va fikrlarni yozib boradi, bu vazifani bajarish uchun talabalardan birini kotib etib tayinlash mumkin. Bu bosqichda talabalarga o‘z fikrlarini erkin bildirishlariga sharoit yaratib berish kerak bo‘ladi: “Xatosi bo‘lsa ham bu sizning fikringiz”.

5.O‘qituvchi ekspertlar bilan birgalikda bildirilgan fikr va g‘oyalarni guruhlarga ajratadi, umumlashtiradi va tahlil qiladi. Tabiiyki, “Donishmand Sizif” romani haqidagi ijobiy fikr-mulohazalar ko‘pchilikni tashkil etadi *(biz bu metodni amaliyotda xuddi shu asar tahlili misolida qo‘llab ko‘rganmiz).*

6.Tahlil natijasida qo‘yilgan muammoning eng maqbul yechimi tanlanadi. Yuqoridagi bahs-munozaradan kelib chiqib, “Donishmand Sizif” romaniga ko‘pchilikning ovozi bilan shunday baho berildi: Ayrim kamchiliklariga qaramasdan. X.Do‘stmuhammadning yangi romani o‘z o‘quvchisini topa oladi. Chunki unda Insonning sabr-bardoshi nimalarga qodir ekanligi, ma'nisiz hayotdan ma'no topa bilish, buning uchun inson o‘zligini anglab yetishi zarurligi g‘oyasi ilgari suriladi. Asar garchand an'anaviy romanlarga o‘xshamasa-da, istiqlol davri kitobxonlarining qalbini zabt eta oladi degan xulosani bergan oqlovchilar guruhi rag‘batlantiriladi. Shu bilan birga, asarni sinchkovlik bilan tahlil qilgan qoralovchilar guruhi ham baholanadi.

“Bahs-munozara” usulining tuzilmasi.

“Bahs-munozara” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1.Munozara mavzusini tanlash va shunga doir savollar ishlab chiqish: “Donishmand Sizif” romani qanday romanlar sirasiga kiradi, roman haqidagi fikrlaringiz?

2.Muammo bo‘yicha savol berish va ularni munozaraga taklif qilish: Sizif qanday obraz.? Sizga nimasi bilan yoqadi. Roman sizga ma'qulmi? Qaysi jihatlari sizni qoniqtirmadi?

3.Berilgan savolga bildirilgan javoblarni, yani turli g‘oya va fikrlarni yozib borish yoki bu vazifani bajarish uchun talabalardan birini kotib etib tayinlash. Bu bosqichda talabalar o‘z fikrlarini erkin bildirishlariga sharoit yaratib berish zarur.

4.Talabalar bilan birgalikda bildirilgan fikr va g‘oyalarni guruhlarga ajratish, umumlashtirish va tahlil asosida xulosa chiqarish.

5.Tahlil natijasida qo‘yilgan muammoning eng maqbul yechimi tanlanadi.

Adabiyotga oid fanlarni o‘tishda akademlitsey, kasb-hunar texnikumlari, shu bilan birga oliy ta'limda filologik yo‘nalishlarda, badiiy asar tahlilida “Bahs-munozara” usulidan foydalanish muhim ahamiyatga ega ekanligi ko‘rinadi. Birinchidan, o‘quvchini mustaqil fikrlashga undaydi; ikkinchidan talabalar o‘z fikrining to‘g‘riligini isbotlashga harakat qilishiga imkoniyat yaratiladi; uchinchidan, talabalarda tinglash va tahlil qilish, og‘zaki nutqni o‘stirish qobiliyatining rivojlanishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ахмедова Ш. Ўзбек адабий танқиди жанрлари. – Тошкент: Фан, 2008.

2. Дўстмуҳаммад Х.Донишманд Сизиф. – Тошкент, 2018.

3. Йўлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Тошкент: Фан, 2007.

4. Худойқулова М. Ўзбек танқидчилигида баҳс: тараққиёти ва табиати. Ф.ф.б.ф.доктори (PhD). – Қарши, 2022.

MA’RİFATPARVARLAR – JADİDCHİLAR SERİYASİDAN: XOLİD SAİD XO‘JAYEV

Prof.Dr.Almaz Ulviy BINNATOVA,
Ozarbayjon Milliy Ilmlar akademiyasi
Nizomiy Ganjaviy nomidagi Adabiyot instituti
Ozarbayjon-Turkmaniston-O‘zbekiston
adabiy aloqalari bo‘limi mudiri, Bakı
E-mail: almazulvi1960@mail.ru,

Butun umrini pedagogik va ilmiy ishga bag‘ishlagan, millati o‘zbek bo‘lgan Xolid Said Xo‘jayev 1934-yili sobiq SSSR Fanlar akademiyasi

Ozarbayjon filialining Til, adabiyot va madaniyat institutida shartnoma bilan ishga qabul etilgan edi. Lekin oz vaqt o‘tgach, doimiy ishchi sifatida qabul etilishi uchun ariza bilan murojaat etadi. Turkologiya ilmining tadqiqotidagi, xususan, lotin alifbosining turkiy tilli respublikalarda yoyishdagi xizmatlari, o‘zbek yoshlarining Bokuda Oliy va o‘rta maktablarda tahsil olishlariga yaqindan ko‘rsatgan ko‘maklari e’tiborga olinib, arizasi ijobiy hal etildi. Oylik maoshini 300 manat olish sharti bilan I darajali ishchi sifatida buyruq chiqariladi.

Ma’lumki, o‘sha vaqtga qadar X.Said Xo‘jayev bajargan bir qancha ishlari hammaga ayon edi. Ana shularni ham asos qilgan holda bir-yildan so‘ng Bakir Cho‘ponzoda institutning direktori A.R.Zifeldt-Simumyaqiyga (millati eston) yozma murojaat etadi. U 1935-yilning 2-dekabrida yozgan maktubida shuni ma’lum qiladiki, “X.Said Xo‘jayev tilshunos-sharqshunos mutaxassislardan biridir. U faqat turkiy tillarni emas, arab, fors, rus tillarini ham puxta biladi”. Uning 14 ilmiy kitobi bor. Mahmud Koshg‘ariyning mashhur “Devoni lug‘otit turk”ini tarjimaetgan.

Shularni nazarda tutib, himoya qilmagan bo‘lsa-da, “Turk tilining sintaksisi” monografiyasi uchun unga filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasi va dotsent ilmiy unvoni berilsin.Lekin bu yuksalishning oxiri u qadar uzoq cho‘zilmadi. Bor-yo‘g‘i ikki yarim yil... keyin esa...

Turkologiya fani yo‘nalishida olib borilgan tadqiqotlarda X.Said Xo‘jayevning ismi boshqa bir mashhur turkologlar bilan – XX asrning girdoblari ila to‘la tarixida milliy-ma’naviy merosga posbonlik qilgan, shuningdek, ilg‘or fikrlari bilan yangi inkishof yo‘liga qadam qo‘ygan olimlar bilan bir qatorda va eng oldingi sahifalaridadir. X.Said Xo‘jayev bu tarixiy missiyaga 1910-17-yillarda “Sadoyi Turkiston”, Qrimda Ismoilbey G‘aspiralining “Tarjimon” gazetalarida nashr ettirgan maqolalari bilan, yangicha fikr va g‘oyalari bilan yo‘l ochgan edi. O‘sha davrlar Xolid Saidning Istanbulda tahsil olishi tasodif emasdi.

Xolid Said Xo‘jayevning hayot yo‘liga, ilmiy faoliyatiga nazar tashlaymiz: Turkistondan – tug‘ilib o‘sgan qishlog‘idan (Toshkent shahridan 40 km uzoqlikda joylashgan Chirchiq daryosi sohillarida joylashgan Qo‘shqo‘rg‘on qishlog‘i) xayolidagi orzulari ishqida Istanbulga ilm istab boradi. O‘sha vaqtda Xo‘jaevlar oilasida tug‘ilgan 5 aka-ukaning o‘rtanchasi Xolid Said avval eski maktab deb nomlangan kentning ibtidoiy maktabida, keyin esa Toshkent madrasalarida tahsil oladi.

U vrach bo‘lish istagida Istanbul universitetining tibbiyot fakultetiga kiradi. Lekin tez fursatda bu sohada o‘z qobiliyatini namoyish qila olmasligini his etadi va tanlagan kasbini o‘zgartirib, tezlik bilan

universitetning filologiya fakultetida o‘qishni davom ettiradi. Shunday qilib, adabiyot – tilshunoslikning boshlang‘ich ostonasiga qadam bosadi. X.Said Xo‘jayev Istanbulda ta’lim olayotgan yillarda Evropa va Osiyoning bir qancha o‘lkalarida inqilobiy xarakterdagi ijtimoiy-siyosiy hodisalar tug‘yon etayotgandi, bu “jabhada” yangicha fikrlarga boy yoshlar etishayotgandi, ajabmaski, uning adabiyotga mayl etishiga u tushgan muhit, do‘stlari sababchi bo‘lgandi (holbuki, uning kasallikdan qo‘rqqani uchun o‘z sohasini o‘zgartirgani qayd etilgan). Ismoilbey Gaspiralining “Tarjimon” maktabidan o‘tgan g‘ayrat aynan Xolid Said fitratida tug‘ilayotgan edi: ona tili, qardosh turkiy xalqlar madaniyati, milliy-ma’naviy merosimiz bo‘lgan adabiy obidalardan foydalanish, ularning kontekstida yangiliklarga boy milliy qadriyatlar yaratmoq va boshqalar.

1917-yilda oliy tahsilini tamomlab, Vataniga qaytishni istasa-da, o‘lkada, xususan Rossiyaning ta’siri bilan Ona-Turkistonida boshlanib ketgan qo‘zg‘olonlar uning Vatanga boradigan yo‘lida to‘siqlar paydo qildi, ayni shu vaqt – 1918-yilda Usmonlilar armiyasi generali Nuri Posho rahbarlik qilayotgan Kafkaz Turk Islom armiyasi Bokuga ketadi. Fursatdan foydalangan Xolid Said Xo‘jayev ham bu otryad bilan birga Bokuga, Bokudan esa ona Yurti Toshkentga ketish fikriga keladi. Lekin Ozarbayjonga kelgandan so‘ng yo‘llar bekilgan edi va 1920-yilga qadar vataniga keta olmaydi, shunday bo‘lgach, o‘zi kelgan otryad bilan Ganjaga Yuboriladi, ikki yil u erda muallimlik qiladi. 1920-yilda yo‘llar ochilgan zahotiyoq (Sovet hokimiyati tashkil etiladi va sovet Turkistoniga qarashli berk yo‘llar lang ochiladi) vataniga ketadi. Ikki yil Toshkent Oliy pedagogika maktabining rahbari vazifasida faoliyat olib boradi. Lekin 1922-yilda yana Bokuga qaytadi. Xolid Said taqdir taqozosi bilan bir umr shu shaharda qoladigan, yashaydigan bo‘ldi. U Talishinskiylarning qizi Sora xonim bilan turmush quradi va bu erda pedagogik faoliyatini boshlaydi. Bu nikohdan tug‘ilgan Bahija ismli qizi esa X.Said Xo‘jayevning davomchisi bo‘ldi (hozirda Bahija xonim bir necha-yildan buyon qizi Afro‘z xonim bilan Kanadada yashaydi).

Xolid Said Ozarbayjonga qaytib kelgandan so‘ng ishini maorif sohasida davom ettirdi – Bokuda, Qusarda, Boloxonida muallim bo‘lib ishladi. Ayni vaqtda ilmiy tadqiqot bilan mashg‘ul bo‘ldi. Bu shunday yillar ediki, S.Og‘amalio‘g‘li, V.Xulufli, H.Zeynalli, M.K.Aliakbarli, V.Tolibli, H.Jovid... va boshqa ziyolilar boshqa turkiy tilli o‘lkalarda o‘zlari taniydigan ziyolilarni Bokuga taklif etishardi. Shunday qilib, sovetlashishdan keyingi bu da’vatlar bilan bir qancha ulug‘ turkologlar – Bakir Cho‘ponzoda (tatar), Xolid Said Xo‘jayev (o‘zbek), Ismoil Hikmat

(usmonli turk), Nikolay Ashmarin (chuvash) va boshqalar Bokuda yangi ishtiyoq bilan, yangi inqilobiy ruh bilan faoliyatlarini boshladilar. Boku go‘yo turkiy xalqlarning madaniyat, til, alifbo, ta’lim muammolarini hal etadigan turkologiya markaziga aylandi. Shu tarzda 1926-yilda I Boku Turkologiya qurultoyining Bokuda o‘tkazilishiga ilk qadam qo‘yildi.

Xolid Saidning eng buyuk faoliyat jabhasi I Boku Turkologiya qurultoyiga tayyorgarlik – xoh tashkiliy tarafdan, xoh oldga qo‘yilgan maqsadlarga uyg‘un xilma-xil asarlar, tadqiqot mavzuli kitoblar yozish bo‘ldi. Bu ishga muhabbati uni abadiy shon-shuhratga noil etgan bo‘lsa-da, milliy-ma’naviy boyliklarning targ‘ibotchisi sifatida Stalincha qatag‘on qurboniga aylandi.

Bolsheviklar davlatining puxta o‘ylab, tashkil etilgan to‘g‘nog‘ich harakatlarini farq eta bilmagan turkologlar, ya’ni turk xalqlarining ilm va adabiyot odamlari, fidokor ziyolilari XX asrning II o‘nyilligida I Boku Turkologiya qurultoyini o‘tkazish tashaabbusi va takliflarini kuchli ruhiy ko‘tarinkilik bilan qarshilaydilar. Aslida bu tarixiy vaziyatning ikki maydoni bor edi: rus imperiyasi va buyuk turk namoyandalari, Turon yo‘lboshchilari. Imperiya bolshevik shineli ila paydo bo‘lgandi va ularga o‘z niyatlaridan uzoq bo‘lgan odamlarning, asosan, ziyolilarning, ilmiy tafakkur kishilarining, milliy ongi bor insonlarning aniq ro‘yxati lozim edi. Bunaqa pistirmadan tamoman xabarsiz turk oydinlari xudda o‘sha kunlardayoq maqsadlarini o‘rtaga tashladilar. Bir-birlarining ilmidan, adabiyotidan, hol-ahvolidan xabardor bo‘lmoq uchun mushtarak alifbo, uyg‘un til masalasi echimining yo‘llarini chuqur o‘ylab, mulohaza Yuritgan holda amalga oshirish kontseptsiyasini tayyorlashga kirishdilar.

Turkistondan, Turkiyadan, Qozondan, Qrimdan... xilma-xil turkiytilli xalqlar bir butun bo‘lib mazkur ishni amaliy hayotga tatbiq etish maqsadini qo‘ydilar. Ismoilbey Gaspirali va V.Radlov sharafiga bag‘ishlab o‘tkazilgan I Boku Turkologiya qurultoyiga da’vat etilganlar orasida mashhur sharqshunos olimlar F.Kuprilizoda, A.E.Krimskiy, N.N.Poppenin, L.Ligetinin, N.Ashmarinlarning ham borligi qurultoyning tarixiy ahamiyatini yanada orttirar edi. Ammo bu yig‘inda hal etilishi lozim bo‘lgan ishlar juda ko‘p edi. Tadqiqotlardan ma’lum bo‘ladiki, ishning asosiy og‘irligini o‘z elkalariga olganlardan biri Bakir Cho‘ponzoda bo‘lsa, uning qavatidaXolid Said Xo‘jayev bo‘ldi.

Qurultoyda kun tartibiga chiqarilgan etti asosiy masala shular bo‘lgan edi: 1.Alifbo masalasi; 2.Imlo-orfografiya muammosi; 3.Termin masalasi; 4.Ta’lim-metodika muammosi; 5. Qarindosh va qardosh tillarning o‘zaro munosabati; 6.Turkiy tillarning adabiy til muammolari,

jumladan, o‘rtoq adabiy til masalasi; 7. Buyuk til nazariyasi va turkiy tillarning tarixiy muammolari. Ushbu ro‘yxatni taqdim etishdan maqsadim X.Said Xo‘jayevning o‘z asarlariga qo‘ygan nomlari bilan qurultoyda ko‘tarilgan masalalar nechog‘li uyg‘unlik kasb etganiga bir qur nazar solmoqdir: 1.“Usmonli, o‘zbek, qozoq tillarining qiyosiy grammatikasi”; 2.“Yangi alifboga o‘tish yo‘llarida kechmish xotira va tuyg‘ularim”; 3. “Muxtasar uslubiyat” (Abdulla Tag‘izoda bilan hammualliflikda); 4. “Turk maktabi uchun rus tili”; 5. “Mufassal sintaksis”; 6.“Uslubiyat nazariyasi”; 7.“Turk tilining tarixiy grammatikasi”; 8.“Chig‘atoy adabiyoti haqida ma’ruzalar”; 9. “Turk adabiyoti nazariyasi”; 10. “Turkiston tarixidan qisqacha ocherk”; 11.“Eron tillarining grammatikasi”; 12.“Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘otit turk” asari matnining izohli, ilmiy tarjimasi”; 13.“O‘rxun kitoblarining izohli tadqiqi”.

I Boku Turkologiya anjumanida o‘rtaga qo‘yilgan masalalar bilan olimning asarlari yonma-yon qo‘yilganda, ayni shu tarixiy hodisaga aloqador yozuvlar ekanligi haqidagi gumonlarimizni tasdiqlaydi. (Kezi kelganda aytish kerakki, olimning Ozarbayjon Milliy Ilmlar Akademiyasi arxivida saqlanayotgan shaxsiy jildida chop etilgan va etilmagan 125 bosma taboq hajmidagi asarlarining har biri haqida ikki-uch jumla orqali ma’lumot beriladi).

Mirzo Fatali Oxundovdan boshlangan alifbo, ona tili va uning o‘qitilishi masalasi I.Gaspirali, U.Hojibeyli, J.Mammatqulizoda, M.Shahtaxtinskiy, A.To‘pchiboshli, F.Ko‘cherli, A.Shaiqin, V.Xuluflu... biroz keyinroq N.Shahtaxtli, S.M.Qanizoda, H.Jovidning maorifchilik, jadidchilik faoliyatlarida dolzarb fundamental muammolar bo‘ldi. 1920-yilda yaratilgan yangi alifbo komissiyasi (rahbari frantsuz turkologi P.Jyuze) Turkistonga, Idil (Volga) bo‘yi o‘lkalariga, Xiva hamda Qrim hukumatlariga murojaat etdi. Bu murojaatning asosida yangi alifboga o‘tish masalasi turar edi. X.Said Xo‘jayevning “Yangi alifboga o‘tish yo‘llarida kechmish xotira va tuyg‘ularim” asarida bu yo‘lda mavjud bo‘lgan muammolar qalamga olingan edi: “Ozarbayjonning “Yangi alifbo hayoti”ning sobiq Sovetlar Ittifoqidagi Qrimga va Turkistonga borib, mas’ul shaxslarga, mansabdorlar bilan uchrashuvlari, ayni damda, muallifning yo‘l xotiralaridan bahs etilgan. Aziz Qubaydulining “Sayohatnoma” deb nomlagan 145 sahifalik bu asar 1929-yilda Qrimda – Oqmasjid (Simferepol)da nashr etilgan edi. Mazkur fakt ham dalolat beradiki, X.Said Xo‘jayevning yangi alifbo o‘tish masalasini amalga oshirilishidagi xizmatlari buyukdir.

I Boku Turkologiya qurultoyida chiqish qilgan mashhur T.Manzelin (olmon), V.Radeboldun (olmon), Y.Massaroshun (major), I.Umarov (qozoq), X.O‘shaevin (chechen), A.R.Zifelt-Simumyaqinin (eston), M.P.Pavlovich (yaxudiy), M.P.Petrovun (chuvash), Sh.Rahimiy (o‘zbek), I.Sadriy (o‘zbek), Q.E.Sa’diy (tatar), A.Joniboev (no‘g‘ay), B.S.Sulevin (qozoq), Sh.Manatov (boshqird), MNodim (qrim-tatar), N.Q.Katanov (xakas), D.Qo‘rqmasov (qumiq), X.K.Kosiev (qalmiq), Z.K.Malsatov (ingush), V.B.Tomashevskiy (rus) singari olimlar bilan bir safda – X.Said Xo‘jayev (o‘zbek)ning nomini ko‘ramiz. 131 nafar namoyanda qatnashgan qurultoyda tinglangan 38 ma’ruzadan biri ham uning chekiga tushgan edi.

Bolshevizm ideologiyasi yangi novda chiqarayotgan bir davrda X.Said Xo‘jayev turkologiyaga bebaho asarlar tuhfa etdi. U 1930 yillarda O‘rxun-enasoy bitiklarini zamonaviy tilimizga moslashtirdi va sharhlari bilan mukammallashtirgan holda “O‘rxun bitiklarining izohli tadqiqi” asarini taqdim etdi.

X.Said Xo‘jayevning cheksiz xizmatlarining eng yuksak nuqtasini tashkil etuvchi eng e’tiborga molik ishi 80 bosma taboq hajmida nashrga tayyorlagan Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘otit turk” asaridir. 1930 yillarning boshlarida SSSR Fanlar akademiyasi Ozarbayjon filiali asarni yaxlitligicha ona tilimizga tarjima qilish uchun komissiya tashkil etadi va unga rahbarlik qilish X.Said Xo‘jayev zimmasiga topshiriladi.

Nihoyatda jiddiy bir vazifa qarshisidagi mas’uliyatini his etgan, ayni damda arab tilini mukammal bilgan X.Said Xo‘jayev birinchi bo‘lib “Devoni lug‘otit turk”ni bizning tilimizga uyg‘unlashtirish metodologiyasini tayyorlaydi va uni ilmiy jurnalda chop ettiradi. Alaloqibat, Mahmud Koshg‘ariyning 1071-yilda yozib tugallangan mazkur asari taxminan 850-yildan so‘ng ilk marta tarjima qilindi. X.Said Xo‘jayev ushbu asari turkologiya fanining yangi olam, yangi siyosat va metodlar bilan uzviylik kasb etgan zamonamizga armug‘on etdi. Va bu ishi bilan go‘yo xabar beradiki, ming yillik tarix shunday guvohlik beradiki, buyuk turk dunyosining poydevori juda mustahkam, ustunlari esa bukilmas, teran ildizlarga ega (qayd etishimiz kerakki, mazkur tarjimaning qo‘lyozma nusxasi Ozarbayjon Milliy Ilmlar akademiyasi Tilshunoslik institutining ilmiy arxivida mavjudligini tasdiqlovchi bir qancha manbalar bilan tanishdim). Asarning X.Said Xo‘jayev tomonidan tarjima qilingani haqida ma’lumot sovet Rossiyasidagi turkologlarga ayon edi. 1937 yilning aprelida Sankt-Peterburgda ishlayotgan mashhur turkologlardan akademik I.Krachkovskiy (1883-1954) va prof. S.Malova (1880-1957)larga yozgan maktubida “Devoni lug‘otit turk”ning tarjimasini tamomlaganini va taqriz

uchun ularga Yubormoqchi ekanligini yozadi. Olim 1937 yil iyun oyining birinchi sanasida “Devoni lug‘otit turk”ni yakunlangan holatda topshiradi, o‘zi esa 3 iyunda hibs etiladi. Undan bu asarni qumiq va qorachoy-balqar tillariga tarjima etilishini so‘ragan Kumikova javob maktubini esa yuborishga fursat topolmaydi va juda ko‘plab ko‘rib chiqiladigan ishlar chuvalanib ketadi. Tasodif emaski, tarjima qilingan asar S.E.Malov va A.N.Kononov tarafidan tahrir etilganda, Xolid Said Xo‘jayev hayot emas edi. Tarjima qilinganidan 80 yil o‘tgan bo‘lsa-da, mazkur tarjima kitob dunyo yuzini ko‘rmay kelayotgan edi. Ushbu zalvarli tadqiqotning qismati ham tarjimonning toleyi yanglig‘ og‘ir toshga bog‘langandek edi.

Bir faktga e’tibor beraylik: B.Cho‘ponzoda 1908-1918, Jadidchilik harakatining faollaridan bo‘lgan Abdurauf Fitratning 1909-1914 va X.Said Xo‘jayev 1914-1917 yillarda Turkiyaning Istanbul shahrida tahsil olgan sanalardir. A.Fitratning so‘nggi faoliyati faqat O‘zbekiston bilan bog‘liq bo‘lsa-da, B.Cho‘ponzoda va X.Said Xo‘jayevO‘zbekiston va Ozarbayjonda faoliyat ko‘rsatganlar. Har ikki mashhur tilchi olimning ilmiy Yutuqlari asosan Ozarbayjon – Boku ilmiy muhiti bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqadordir. Bu yaqinliklar uzviyligi o‘laroq XX asrning 20-yillaridagi misli ko‘rilmagan ilmiy faoliyatlarida, xususan, I Boku Turkologiya anjumani uchun tayyorgarlik arafasida bir necha martalab maslakdoshlari, turkologiyaning gullab-yashnashida beqiyos muvaffaqiyatlarni qo‘lga kiritgan A.Fitratga murojaat etishib, uning qo‘llab-quvvatlashidan yanada rag‘bat oladilar.

I Boku Turkologiya anjumani kunlari uchun nazarda tutilgan Alisher Navoiy, Husayn Boyqaro asarlarining nashr etilishida, shu bilan birga O‘zbekistonga uyushtirilgan safarlarida Fitratning bevosita yordamiga tayanganlar. Chunonchi, X.Said Xo‘jayevning qurultoy oldi Turkiy o‘lkalarga safarining natijasi shu ediki, O‘zbekistondan Inomov (sotsiolog), A.Abduljabborov (Markaziy O‘zbekiston ilmiy sho‘rosi raisi, Sh.Rahimiy (tilshunos), A.Alizohiriy (tilshunos), Elbek (tilshunos), I.Sadriy (tilshunos) kabi taniqli namoyandalar qurultoyga keladilar. II Turkologiya qurultoyining Samarqandda o‘tkazilishi haqida qaror qabul etilishi ham aynan shunday mustahkam aloqalarning hosilasi edi.

Qurultoyning I majlisidan keyin butun ishtirokchilarning barchasi Navoiyning 500 yillik Yubileyiga bag‘ishlangan tantanali kechani o‘tkazadilar. Turkistonning lotin alifbosiga o‘tishida X.Said Xo‘jayevning ulkan roli bo‘lganligi bu aloqalarning bir natijasi edi. Ammo qaror taniqli va fidokor turkologlarning istagiligicha tarix sahifalarida qoldi. Chunki rus

imperiyasiga II qurultoy – Majlis lozim bo‘lmadi: I yig‘inda nishonga olinadiganismlar aniqlab bo‘lingan edi.

O‘zbek yozuvchisi Abdulla Qodiriyning, hatto bugun ham sevila-sevila o‘qilayotgan “O‘tgan kunlar” romanini – o‘sha vaqtidayoq E.E.Bertels (1890-1957) o‘zbek nasrini Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romaniga tayanib dunyo (ingliz, nemis, frantsuz, rus va hind) nasrining “oltinchi maktabi” deya baholagan edi. Bu asarni X.Said Xo‘jayev ozar tiliga tarjima qilgach, ancha yirik so‘zboshi bilan birga 1928-1929 yillarda “Azernashr”da ikki kitobda chop ettiradi va kitob so‘zboshisida yozadi: “...uslub osoyishta, ... qahramon eng tahlikali daqiqalarda ham g‘ururini yo‘qotmaydi, qonli mujodalalardan keyin ham sovuqqonligini saqlab qoladi, sirini hech kimga oshkor etmaydi. Qahramon o‘zbek xalqining jamiki sajiyasini o‘zida mujassam etgan o‘zbek o‘g‘lonidir. Asar realist, ba’zi o‘rinlarda esa naturalist uslubda yozilgan. Shuning uchun ham “realist maslaki o‘zbek adabiyotiga shu asar orqali kirib keldi” deyish mumkin. Asarda o‘zbek xalqining milliy xususiyatlari, urf-odatlari, o‘tmishi aks ettirilgan. Ayni shu jihatdan ham asar X.Said Xo‘jayevning diqqattini tortgan edi. O‘rni kelganda aytish kerakki, samimiy va realist mazmun tashigan mazkur “O‘tgan kunlar” asarining muallifi A.Qodiriyni ham (1894-1938) Stalincha qatag‘onchilar hibsga oladi va hammasi bo‘lib bir necha kun ichida tergov, surishtiruvlarsiz otib tashlangan. Xuddi o‘sha yili Istanbulda tahsil olgan jadidchi Fitrat(1886-1937), Cho‘lpon (1897-1937)... kabi iste’dodli, yangicha dunyoqarashga ega, turkchilik an’analarini abadiylashtirish maqsadida kurashlar olib borgan qalam sohiblari ham “panturkist” tamg‘asi bilan otib tashlanadi. Xolid Saidning Istanbul universitetida ta’lim olgan bu o‘zbek maslakdoshlari O‘zbekistonda Turkchilik g‘oyalarini yoyish yo‘lida haqiqatan ham yirik munozaralar olib borgan, o‘lmas asarlarning mualliflari edilar. Bugun esa ular XX asr o‘zbek adabiyotining klassiklari safidadirlar.

Bundan tashqari, X.Said Xo‘jayev aynan Turkiyada olgan tahsilining minnatdorchiligi sifatida, shuningdek, o‘zi uchun bir ma’naviy burch deb hisoblagan holda mashhur “Choliqushi”ning (R.N.Guntekin) Ozarbayjon kitobxonlariga etkazish orqali ro‘yobga chiqardi. 1930-yilda “Azernashr”da chop etilgan bu asarda ham “O‘tgan kunlar”da bo‘lgani kabi Hanaviy Zeynalli muharrirlik qilgan edi. Har ikki asar ma’no go‘zalligi bilan bir qatorda aynan mahoratli va usta tarjimonning mohirligi ham e’tiborni tortadi, ya’ni asarlar ko‘ngillarga shu qadar sel qilib kirib boradiki, uni asliyatdan farqlash mushkul bo‘lib qoladi. Bu esa tabiiyki,

ularning turk tafakkurining teran mohiyati, nozik ruhiyati bilan xabardorligidan, turkiy tilli xalqlarning jon-jonidan bog‘liqligidan nishonadir.

Taniqli o‘zbek olimi Hodi Zarifning o‘sha vaqtda Bokuda tahsil olishiga sababchi bo‘lgan Xolid Said u bilan birga boshqa o‘zbek yoshlarining Bokuda ta’lim olishlari uchun oliy va o‘rta maxsus maktablariga da’vat etadi. Ilk marta Istanbulda keyinchalik mashhur folklorshunos sifatida tanilgan Hodi Zarifning tog‘asi bilan ketgan X.Said Xo‘jayev bu yaxshilik evaziga yosh Hodi Zarifning Bokuda tahsil olishligiga (1923-1926) ko‘maklashadi.

Turkiston SSR Xalq maorifi komissarligining yo‘llanmasi bilan H.Zarif Bokuda 1926-yil Dorulmuallim seminariyasini tamomlaydi. Ayni vaqtda Toshkentdan bir guruh yoshlarning teatr sohasida tahsil olishlari uchun Bokuga kelishlariga tashkilotchilik qiladi. Bu haqida mazkur guruh tarkibida Bokuga kelganlardan biri – keyinchalik SSSR xalq artisti unvoniga sazovor bo‘lgan Halima Nosirova “Sharqdan taralgan nur” nomli maroqli kitob yozib, nashr ettirgan edi. “Dastlab non shahri Toshkentda bo‘lganman, san’atning alifbosini esa yorug‘liklar yurtining quyoshli poytaxti go‘zal Bokuda boshlaganman. San’atdagi do‘stlarim Sayfi Alishov, Hakima Xo‘jaeva, Nazira Alieva, Zuhur Qobilov, Muhiddin Qori Yoqubov, Rahim Bobojonov, Isrofil Ismoilov va boshqalar bilan birgalikda Bokudagi teatr texnikumiga (1924-28) qabul etilganimda 12 yoshlarda edim”. Jamiki bu yoshlarning Bokuda yotoqxonaga joylashtirgan, ular uchun qayg‘uruvchi ham X.Said Xo‘jayev bo‘lgan edi.

X.Said Xo‘jayev she’riyat shaydosi bo‘lgan. Klassik Sharq poeziyasining xassos bilimdon edi. Talabalarining yozib qoldirgan qaydlariga qaraganda, uning Fuzuliy merosiga alohida muhabbati bo‘lgan.

Binobarin, X.Said Xo‘jayevning taqdiri sahifalarini bir maqola doirasida batafsil varaqlamoq imkoni yo‘q. Ravshanki, bolshevistik jamiyat qurilishi uchun tahlikali hisoblangan buyuk Turon g‘oyasi yalovbardorlari – ziyolilarning qamoqqa olinishi 1937 yilning yanvar oyidan boshlab ommaviy tus oldi. Bir-biridan xabarsiz kechaning zulmatidagi hibslar boshlanib ketadi vam“qora ro‘yxat”dagi boshqa ziyolilar borasida ulardan urib-surib, o‘ldirib ayblariga “iqror” ekanliklari to‘g‘risida qog‘ozga imzo chektirilardi. Mahkamalarda 5-10 daqiqalik shahidlik so‘zi kabi oxirgi so‘z berilar edi. Ularga etkazilgan ming bir musibat, kaltaklash-u so‘kish, oilalariga qilingan do‘q-po‘pisa, tahdidlar natijasida tahqirlovchilar istayotgan bo‘hton”lar to‘la ma’lumotnomalarga imzo qo‘yadilar.

1937 yilning 3 iYun kechasida Ozarbayjonning to‘rt buyuk ziyolisi bir vaqtda hibs etiladi: Husayn Jovid, Ahmad Javad, Mikoyil Mushfiq va Xolid Said Xo‘jayev. Xuddi o‘sha kunlarda chaqirilgan Ozarbayjon K(b)Pning XIII qurultoyida M.J.Bagirov ma’ruzasining so‘ngso‘zida shunday degan edi: “Bir qarang, Yozuvchilar Ittifoqida kimlar o‘tiribdi: hozirda fosh etilayotgan Husayn Jovid, Ahmad Javad, Mikoyil Mushfiq kabilar” (unda eng qizig‘i Xolid Said Xo‘jayevning ismini ham aytmadi, ammo qatl qilinuvchilar ro‘yxatidan chetlashtirmadi).

12493 raqamli Tergov ishining sohibi 72 sonli mahbus 49 yoshli Xolid Said Xo‘jayev.

Uni yagona Turk-tatar davlati tashkil etish uchun olimlar va olimlar va ijtimoiy-siyosiy xodimlar bilan tezkor tashkilot tuzishlikda va boshqa bir qancha uydirmalardan iborat moddalar bilan aylashib, 1937 yilning 12 oktyabrida maslakdoshlari bilan birgalikda otib tashlaydilar.

Mushfiq-u Fitrat kabi, Cho‘ponzoda-yu Cho‘lponlar singari Xolid Saidning ham qabri yo‘qdir, qaerda, qay tarzda otib yuborilganliklari haqida aniq bir ma’lumot yo‘qdir.

Xolid Said Xo‘jayevning xizmatlari o‘z davrida bo‘lgani kabi bugun ham ulkan mezonlarda ko‘rinadi.

ISTIQLOL VA ADABIY-ESTETIK TAFAKKUR TAMOYILLARI (ADABIYOT DARSLIKLARI MISOLIDA)

Usmonjon Qosimov,
filologiya fanlari doktori, professor
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Tel: +99893-829-48-20

Annotatsiya: Maqolada yangilanayatgan ta’lim tizimizdagi adabiyot darsliklari Istiqlol davri adabiy-estetik tafakkuri bilan bog‘liq tarzda tahlil etilgan. Shu bilan birga hozirgi kunda ham foydalanilib kelinayotgan “O‘zbek adabiyoti”, “Adabiyot nazariyasi” va “Adabiy tanqid” darsliklaridagi siyosiy mafkura bilan bog‘liq ayrim noobyektiv qarashlar, bahsli talqinlar Istiqlol davri adabiyoshunosligi talablari asosida qayta baholanishni taqazo etishi ko‘rsatib o‘tilgan. Istiqlolimizdan so‘ng darsliklarimiz va tanqid-adabiyotshunoslik sohasidagi mafkuraviy yondashuv va nigilizm asoratlari barham topmoqda. Bugungi kunda eng qadimgi yozma yodgorliklarimizdan boshlab, XI-asrdan XX-asrgacha bo‘lgan davrda yashab, ijod etgan deyarli barcha yirik shoir va adiblarimiz

hamda ulug‘ allomalarimiz bilan birga mashhur saroy malikalarimizning ham hayoti va faoliyati keng o‘rganilayotgani, ayniqsa, turkiy xalqlar adabiyotining 100 tomligi ham Istiqlolimiz sharofati va imkoniyatlari samarasi sifatida yuzaga kelganligi tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlar: Adabiy-estetik tafakkur, darslik, talqin, tamoyil, adabiyotshunos, mafkura, siyosat.

Abstract: The article analyzes the literature textbooks in our educational system, which are being updated, in relation to the literary and aesthetic thinking of the Independence period. At the same time, it is shown that some biased views and controversial interpretations related to political ideology in the textbooks “Uzbek Literature“, “Literary Theory“ and “Literary Criticism“, which are still used today, require reassessment based on the requirements of literary studies of the Independence period. After our independence, the ideological approach and nihilism in our textbooks and the field of criticism and literary studies are disappearing. Today, starting from our oldest written monuments, the lives and activities of almost all of our great poets and writers who lived and created from the 11th to the 20th centuries, as well as our great scholars, are widely studied, and it has been studied that 100 volumes of the literature of the Turkic peoples emerged as a result of the merits and opportunities of our Independence.

Keywords: Literary and aesthetic thought, textbook, interpretation, principle, literary critic, ideology, politics.

Yangilanayotgan O‘zbekistonning ta’lim tizimi va hozirgi davr ma’naviy va mafkuraviy talab-yehtiyojlari asosida barcha fanlar, jumladan, O‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishidagi “Adabiyotshunoslik asoslari” va “Adabiyot nazariyasi” fani dasturi, maqsad-vazifasi, o‘quv jarayonidagi o‘rnini qayta ko‘rib chiqish zarurati tug‘iladi. Xususan, adabiyot va san’atning ijtimoiy-estetik mohiyatini chuqur anglash tamoyillari barqarorlashib, Adabiyot darsliklarimizni takomillashtirish ehtiyoji ham ortmoqda. Mustaqillik yillarida “Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz-avliyolarimiz ning bebaho merosini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini kuchaytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jahon adabiyoti tarixi va zamona viy adabiyot taraqqiyotining asosiy tamoyillari keng o‘rganilib, yirik ilmiy tadqiqot lar, darslik va o‘quv qo‘llanmalari yaratiloqda” [Mirziyoev, 2019: 9-fevral]. Ayni vaqtda, sho‘rolar tuzumidagi siyosiy-mafkuraviy taqiqlar muhitida bo‘lsa-da, mutaxassis olimlarimiz tomonidan yaratilgan darslik-

qo‘llanmalar bir necha avlod qalbida adabiyotga mehr uyg‘otib, ularning ong-tafakkuri, dunyoqarashi shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatib kelganligini aslo inkor etib bo‘lmaydi. Shu bilan birga hozirgi kunda ham foydalanilib kelinayotgan “O‘zbek adabiyoti”, “Adabiyot nazariyasi” va “Adabiy tanqid” darslik laridagi siyosiy mafkura bilan bog‘liq ayrim noob’ektiv qarashlar, bahsli talqinlar Istiqlol davri adabiyoshunosligi talablari asosida qayta baholanishni taqazo etadi. Chunonchi, 1978-1979 yili yaratilgan va adabiy-estetik tafakkur rivojida jiddiy voqea bo‘lgan ikki tomlik “Adabiyot nazariyasi”dagi ayrim talqin-qarashlar bugungi kun adabiyotshunosligi mezonlariga muvofiq kelmasligi ayon. Yoki mualliflar jamoasining o‘zbek va rus tilida nashr etilib, ko‘p yillar asosiy darslik bo‘lib kelgan ikki tomlik “O‘zbek sovet adabiyoti tarixi ocherklari” (1962, 1967) va S.Mirzaev, X.Doniyorovning “O‘zbek sovet adabiyoti” (1967) hamda professorlar N.Xudoyberganov va A.Rasulovning “O‘zbek sovet adabiy tanqidchiligi” (1990) darsliklarida ham ayrim mavzu-muammolarni yoritishda marksizm-leninizm ta’limoti nuqtai nazaridan yondashilgan. Ularda Adabiyot va tanqid–adabiyotshunoslikning qator masalalari, asosan, hukmron siyosiy mafkuraga va Oktabr revolyutsiyasiga bog‘lab, biryoqlama o‘rganilgan. Ushbu darsliklarda va ko‘plab ilmiy-nazariy asarlarda XX asr o‘zbek adabiyoti va tanqidchiligi rivoji Oktabr inqilobi samarasi deb talqin etilgan: “Oktabr inqilobining o‘zbeklar yurtida g‘alaba qozongani haq!... Ilmiy-estetik ijod ning turi–adabiy tanqid va adabiyotshunoslik Oktabr inqilobidan keyin tug‘ila boshladi” [Xudoyberganov, Rasulov, 1990: 37], - deyiladi.

Xuddi shundayin, yirik olimlarimiz yaratgan “Adabiyot nazariyasi”ning 2-tomida “Satiraning taraqqiyot bosqichlari” bobida ham “O‘zbek sovet adabiyoti, shu jumladan, satira Ulug‘ Oktabrdan nur olib shakllandi va rivojlandi”, - deb yozilgan. Sotsializm mafkurasining stereotip-quyma shiorlariga moslashtirilgan bunday biryoqlama xulosalar ham tarixiy va ilmiy haqiqatga ziddir. Zero, satira va yumor-hajviyot qadimiy folklorimizda ham, Yassaviy, Navoiylar va keyingi asrlarda yashab-ijod etgan Turdi, Maxmur, Gulxaniy, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, So‘fizodalar ijodida ham muhim o‘rin tutganligi adabiyotimiz tarixidan kunday ravshan. Afsuski, sovet davridagi darsliklarimizda mumtoz adabiyotimiz, xususan, Navoiy davri tanqid-adabiyotshunosligi an’analariga va ilmiy-nazariy manbalariga yetarli e’tibor berilmagan. Natijada badiiy ijod va adabiyotshunoslikning ayrim mavzulari, xususan, ”shakl va mazmun birligi muammosi ham 19-asrda marksizm-leninizm klassiklari tomonidan hal etib berilgan” kabi uydirma ”haqiqat”lar ilgari

surildi. Ko‘plab adabiy-nazariy manbalarda va darslik-majmualarda “eng ilmiy, eng izchil ta’limot–marksizm-leninizm sovet adabiyoti, tanqid va adabiyotshunosligi uchun taraqqiyot yo‘lini ko‘rsatuvchi yo‘lchi yulduz”, - degan soxta shiorbozlik – madhiyabozlik avj oldi. Hatto eng yuqori martabali davlat arboblari, atoqli adiblar va ulkan tanqidchi-adabiyotshunoslarimiz ham “XX asr o‘zbek adabiyoti va she’riyati 1917 yil Oktabr revolyutsiyasi mevasi, Lenin va partiya dahosi bilan gurkirab o‘sdi” kabi biryoqlama xulosalarni yozishga majbur bo‘lganligi endilikda ziyrak o‘quvchi-talabalarimizga ham ayon. Ayniqsa, tariximizni va jadidlar faoliyatini ixlos bilan o‘rganayotgan bugungi yosh kitobxonlar atoqli adiblarimiz va adabiyotshunoslarimiz tomonidan yaratilgan “Adabiyotimizning yarim asri” kabi zalvorli to‘plamlardagi quyidagi hamdu sanolar ham tarixiy haqiqatdan yiroqligi va uning sababini ham anglay oladi: “Xarob va qashshoq Turkiston atigi ellik yil ichida farovon va badavlat o‘lkaga aylandi. Oktabr Vatanimizdagi boshqa xalqlar qatori o‘zbekni ham asriy zulmdan ozod qildi, uni jaholat va nodonlik iskanjasidan qutqarib, o‘z taqdirining xo‘jasiga aylantirdi. Adabiyotimiz Oktabr tufayli, Lenin partiyasining doimiy g‘amxo‘rligi ostida paydo bo‘lgan va kamol topgan. Biz adabiyotimiz ravnaqini haqli ravishda revolyutsiya samara lari bilan, sotsialistik tuzumning hayotbaxsh kuchi bilan izohlaymiz. Hamza va Ayniyning revolyutsion qo‘shiqlari va marshlari o‘zbek sovet poeziyasining rivojiga asos bo‘ldi” [Adabiyotimizning yarim asri, 1967: 160-167]. Albatta, mustabid tuzum, hukmron mafkura bosimi ostida yozilgan bunday soxta talqin va madhiyabozliklar uchun adabiyotimizning katta avlod vakillari va darsliklarimiz mualliflarini malomat qilish adolatdan bo‘lmaydi.

Bu mash’um davr siyosati va ulug‘ adiblarimiz ko‘rgan nohaqlik, tahqirlarning asl sabab-oqibati haqida armon bilan mushohada yuritgan Abdulla Oripov shunday yozadi: “Ular g‘oyat murakkab, g‘oyat ziddiyatli, tahlikali bir davrda yashab o‘tdi. Mustabid imperiyaning beomon mafkurasi, mustamlakachilik siyosati minglab haqgo‘ylar boshini eyishga ulgurdi, qanchadan-qancha iste’dod egalarining bo‘yniga bo‘yunturuq solishga erishdi. Nog‘orasiga o‘ynashni xohlamaganlarni qatl qildi, quvg‘in ostiga oldi. Shu tariqa o‘zbek xalqi o‘zining o‘nlab beqiyos farzandlaridan bevaqt ayrildi. Madhiyabozlik adabiyotning ommaviy taomiliga aylangan, ne-ne go‘zal tashbehlar, chaqmoqdek misralar somon orasidagi qahrabo bug‘doy donalaridek nazardan qolib ketar edi. Ushbu achchiq haqiqatni, ayniqsa, bugungi yoshlar teran tushunmoqliklari kerak” [Oripov, 2003: 6].

Hukmron kompartiyaning san’at va adabiyot tabiatiga zid siyosiy qarashlari sotsialistik realizm metodi prinsiplarini ham mafkuraviy qolip-quyushqonga aylantirdi. Yuqorida ko‘rsatilgan ikki tomlik fundamental “Adabiyot nazariyasi”da romantizm va realizm ijodiy metodlariga bag‘ ishlangan bobida Moskvada (Rossiya) chop etilgan “Теория литературы” (“Высшая школа”, 1970) darsligidagi noto‘g‘ri fikrlar muhim ilmiy-nazariy asos sifatida aynan takrorlangan: “Романтизм ижодий методи XVIII аср охири – XIX аср бошида Европа ва Америка адабиётида пайдо бўлди.”(Адабиёт назарияси. 2томлик, 2-том.– Тошкент: Фан,1979, 406-б.)

Xolbuki, romantizm va gumanizmning yuksak bir cho‘qqisi bo‘lgan Nizomiy, Dehlaviy, Lutfiy, Jomiy, Navoiy, Atoiy, Sakkokiy, Fizuliylar ijodi 14-17-asrlardayoq shuhrat qozongani va 16-asrda realizmning betakror bir namunasi sifatida yaratilgan “Vaqoe” (”Boburnoma”) dek asarlar dunyo adabiy jamoatchiligiga yaxshi ma’lum edi. Yoxud qator darsliklarimizning asosiy mualliflaridan bo‘lgan atoqli adabiyotshunos Baxtiyor Nazarovning “O‘zbek adabiy tanqidchiligi” (1979) nomli monografiyasida ham adabiyotimiz va tanqidchiligimiz shakllanishi va rivojida Oktabr revolyutsiyasi va marksizm-leninizm ta’limotining roli behad ulug‘langan. O’zbek tanqid-adabiyotshunosligi tarixiga doir ushbu yirik kitobda Marks, Engels, Lenin asarlari (anchayin xatlari gacha) o‘nlab sahifada yuqori baholanadi. Biroq turkiy (o‘zbek) tilimizda ilk bor yaratilgan va tanqid-adabiyotshunoslikning betakror namunasi bo‘lgan “Majolis un-nafois”dek ilmiy-adabiy va tarixiy jihatdan nodir asar esa bir o‘rindagina tilga olingan xolos. Boz ustiga hanuzgacha Adabiyot tarixi va tanqid-adabiyotshunoslik bo‘yicha eng mo‘tabar manba bo‘lib kelgan va to‘rt marta fors tiliga tarjima qilingan ushbu betakror tazkira xususida biror iliq so‘z aytilmay, aksincha, Navoiy davrida “badiiy asarning shakliga e’tibor berildi”, - deya bahsli fikr bildirilgan (9-bet). Sovet davrida bunday mafkuraviy talqinlar birgina akademik B.Nazarovning asarida emas, balki aksariyat adabiyotshunoslik tadqiqotlarida, darslik-qo‘lanmalarimizda ham asosiy o‘rin egallagan edi. Yangi darslik va tadqiqotlarimiz mumtoz adabiy merosimizga nisbatan shunday mafkuraviy biryoqlamaliklar va taqiqlar bilan bog‘liq jiddiy qusurlardan tozalanib bormoqda. Istiqlolimizdan so‘ng darsliklarimiz va tanqid-adabiyotshunoslik sohasidagi mafkuraviy yondashuv va nigilizm asoratlari barham topmoqda. Bugungi kunda eng qadimgi yozma yodgorliklarimizdan boshlab, XI-asrdan XX-asrgacha bo‘lgan davrda yashab, ijod etgan deyarli barcha yirik shoir va adiblarimiz hamda ulug‘ allomalarimiz bilan birga

mashhur saroy malikalarimizning ham hayoti va faoliyati keng o‘rganilayotgani, ayniqsa, turkiy xalqlar adabiyotining 100 tomligi ham Istiqlolimiz sharofati va imkoniyatlari samarasidir deyish mumkin.

So‘nggi yillar bir guruh katta tajriba-salohiyatli adabiyotshunoslarimizning sa’y-harakati bilan umumta’lim maktablari uchun tayyorlangan “O‘zbek adabiyoti” darsliklari sho‘ro davridagi darslik–xrestomatiyalardan tubdan farq qiladi. Istiqlol tufayli yuzaga kelib, mustabid tuzum mafkurasi tazyiqlaridan xalos bo‘lgan darslik-majmualarning yangi avlodi qator ijobiy fazilatlarga ega. Bu darslik-majmualarda ijod namunalariga sinfiylik va partiyaviylik nuqtai nazaridan emas, balki san’at asari sifatida yondashish va badiiylik mezonlari asosida o‘rganish ustivor jihatdir. Bunday ijobiy tamoyillar oliy o‘quv yurtlari uchun yaratilgan yangi darslik-qo‘llanmalarimizda ham asosiy mezonga aylanmoqda. Jumladan, N.Kariimov, S.Mamajonov, B.Nazarov, U.Normatov, O.Sharaf iddinovlar yaratgan “XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi” (1999) va B.Nazarov, A.Rasulov, Q.Qahramonov, Sh.Ahmedovalarning “O‘zbek adabiy tanqid tarixi” (2012) yangi darsliklari shu jihatlari bilan ajralib turadi. Ular misolida bugungi adabiy-estetik qarashlarimiz bilan yaqin o‘tmishdagi ilmiy pozitsiya, tushuncha-talqinlarimiz qiyoslansa, ijobiy o‘zgarish va farqlar ochiqlanadi.

Jumladan, professor Dilmurod Quronovning Istiqlol davri tafakkur mahsuli bo‘lib yzaga kelgan “Adabiyot nazariyasi asoslari” (Akademnashr, 2018) darsligi ham yangicha talqin-qarashlar va chuqur tahlillar bilan boyitilgan. Hukmron mafkura cheklovlaridan va “vulgar sotsiologizm”, “konfliktsizlik nazariyasi” kabi g‘ayriilmiy dogmalardan forig‘ bo‘lgan mazkur darslikda qator mavzular keng va izchil yoritilgan. Biroq darslikda (hajmi cheklanganidanmi) badiiy ijod va adrabiyotshunoslikning “Traditsiya va novatorlik”, “Adabiy ta’sir” masalalariga doir muhim fikrlar bo‘lsa-da, ular kengroq yoritilmagan. Darslik so‘ngida “O‘zbek adabiyotining aloqalari haqida so‘z yuritib, “deyarli barcha mumtoz shoirlarimiz shayx Sa’diy, Hofiz Sheroziy kabi mashhur forsiy zabon ijodkorlardan ta’sirlandilar, ularni o‘zlariga ustoz deb bildilar”- deya, qayd etilgan. Bu umumiy xulosa misollar tahlili bilan dalillanganda, adabiy ta’sir mohiyati bir qadar yoritilgan bo‘lardi. Ushbu yangi darslikdagi quyidagi nazariy fikr, bizningcha, bahsli tuyuladi: “shakl” va “mazmun” tushunchalarini farqlash, adabiy asar tarkibini shu ikki asosga tayangan holda anglash 18-asr oxiri – XIX-asr boshlarida nemis estetik tafakkurida, xususan, Gegel falsafasida qaror topgan”. Taassufki, 1978 yildagi “Adabiyot nazariyasi”da ham shakl-mazmun

muammosi 19-asrda Chernishevskiy, Plexanovlar tomonidan hal etildi” (413-b.) degan noto‘g‘rii qarash bayon etilgan edi. D.Quronovning 40 yildan so‘ng yaratilgan darsligida ham ana shunday bahsli talqin davom ettirilib, nemis estetikasiga va Gegel ”kashfiyoti”ga ortiqcha baho berilgan. Chunki Jomiy, Navoiylar ta’kidlaganidek, adabiyotda, “nazmda asl ma’no” ekanligi, ma’no va shaklning bamisli “jon va tan”dek mutanosibligi badiiyatning asosiy sharti ekanligi necha yuz yillar ilgari mumtoz she’r iyatimizda va ilmi naqd, ilmi g‘aribada ham ilmiy-nazariy va badiiy jihatdan isbotlanlgan. Bunga Navoiiyning shogirdi, mashhur munaqqid-adabiyotshunos Atoulloh Husayniyning “Badoyi’u-s-sanoyi’” kabi asari va unda 50 dan ortiq shoirlar ijodidan keltirilgan she’riy misollar tahlili ham yorqin dalil bo‘la oladi. “Alfozning ko‘p ozlig‘i jihatidin she’rning eng yuksak martabasi aning qisqasidur va shuning uchunki, alfoz necha oz bo‘lsa, she’rning husni ortiqdur”.

Yana bir qimmatli manba: Bobur mirzo ham o‘zining 15-16-asr voqealarini aks ettirgan “Boburnoma” asarida Mavlono Shayx Husaynning ilmi g‘aribaning asosiy tamoyili bo‘lgan shaklan qisqalik, mazmunan kenglikni ifodalash mahoratini shunday ta’kidlaydi: “kalom ilmini xo‘b bilur edi. Oz alfozda ko‘p so‘z (ma’no) topib, diqqat bilan gufto‘gu qilmoq aning ixtiroidur” fikrlari izoh talab etmaydi. Bu tarixiy-ilmiy haqiqat N.Shukurov, N.Hotamov, Sh.Xolmatov, M.Mahmudovlarning “Adabiyot shunoslikka kirish” (1984) darsligida to‘g‘ri talqin etilgan. Ya’ni adabiyot va san’at asari mukammalligi uning shakli (surati) va ma’no uyg‘unligi bilan belgilanishi, “nazmda asl ma’no” ustuvorligi va bunday teran aqida-qoidalarga izchil amal qilingani Rumiy va Sa’diy, Jomiy va Navoiy, Boyqaro, Bobur va A.Husayniylar tomonidan ham badiiy, ham ilmiy-nazariy jihatdan hal etib berilgani ayni haqiqatdir. Ammo bunday nodir asarlar, jumladan, Navoiyning “Majolis un-nafois” va boshqa ijodkorlarning tazkiralari va ularning adabiy-tarixiy jarayondagi o‘rni, so‘z san’ati va tanqid-adabiyotshunoslik rivojidagi muhim ahamiyatiga ham yetarli e’tibor berilmagan. Ba’zi olimlarning nazdida tazkira “zikr etish” ma’nosini anglatib, shoirlarning ismi-nasabi, manzili va ijodi haqidagi muxtasar ma’lumotlardangina iborat manba hisoblanadiki, bunday yuzaki, bepisand qarashlar tazkiralarning tanqid va adabiyotshunoslkning an’anaviy janri sifatidagi ilmiy-adabiy va tarixiy qimmatini yoritishga xalal beradi.

Darsliklarimiz uchun muhim manba sanalgan va adabiyotshunoslikning dolzarb mavzulariga bag‘ishlangan ayrim ilmiy tadqiqotlarda ham “Adabiyot nazariyasi”ga doir ba’zi muammolarni

o‘rganishda bahsli talqin-xulosalar uchraydiki, ularga ham zarur aniqlik kiritish ehtiyoji seziladi. Professor Sanobar To‘laganovaning “Ijodkor shaxsi va qahramon muammosi. Abdulla Qodiriy ijodi misolida” nomli doktorlik dissertatsiyasi o‘zining yangi talqin-tahlillari bilan muhim ahamiyatga ega. Ammo 2019-yili poytaxtimizdagi eng nufuzli Ilmiy kengashda muvaffaqqiyatli himoy qilingan ushbu tadqiqotdagi ayrim xulosalar jiddiy e’tiroz uyg‘otadi. Ya’ni “Abdulla Qodiriy romanini tanqid qilishni Sotti Husayn boshlab berdi va butun adabiyot rivojini noto‘g‘ri o‘zanga burib yubordi” degan mahobatli xulosaga qo‘shilish qiyin. Yoki “Afsuski, bugun turli yo‘llar orasida qolgan milliy adabiyotimizga yo‘qotilgan shaxslarning avlodi vorislik qilib turganligi achinarli hol”, - degan fikrlar ilmiy-nazariy, tarixiy jihatdan asoslanmagan, sub’ektiv bir mulohazaday noxush taassurot qoldiradi. Zero, dunyo miqyosida munosib o‘rin egallagan zamonaviy adabiyotimizni, buyuk daholar va fidoiy jadidlarimizning betakror merosiga haqli voris-izdosh bo‘lgan iste’dodli shoir-yozuvchilarimizning yorqin ijodini va samarali kechayotgan adabiy an’anaviylikni “achinarli hol” deb baholash o‘ta nomaqbul, havoyi bir xulosa. Stalinni “Xalqlar otasi” deb ulug‘lagani uchun G‘.G‘ulom, Oybek, H.Olimjon, A.Qahhor, Uyg‘un, A.Muxtor, Shukrullolar “yo‘qotilgan, qurbon bo‘lgan shaxslar” sanaladimi? Ular ijodiga “vorislik qilib turgan nomunosib avlod” deb kimlar nazarda tutilgan? Yoshlarimizni ham chalg‘ituvchi bunday mantiqsiz, dudmal fikrlar mamlakatimizning muazzam bir ilm-fan markazidagi oliy martabali Ilmiy kengashdagi alloma akademiklarimiz va atoqli adabiyotshunoslarimizning sinchkov nazarlaridan chetda qolganligi ham taajjublanarli va afsuslanarlidir. Adabiyotimiz va tanqid-adabiyotshunosligimizga siyosiy mafkuraning g‘arazli bosimi, g‘ayriilmiy talqinlarining salbiy oqibatlari endilikda ayon bo‘lmoqdaki, bunday qusurlar ham darsliklarimizni konseptual jihatdan yangilash va boyitishga muhim sabab-asosdir. Ayni vaqtda, ”ularga tanqidiy yondashib, foydalanish, yo‘l qo‘yilgan xatolarni bartaraf etish, takrorlamaslik, mavjud yutuqlarni rivojlantirish ilmiy izlanishlarimizning samarali bo‘lishi garovidir” (D.Quronov).

So‘nggi yillar milliy nasrimizdagi jiddiy yangilanishlar kabi lirika sohasida ham qator yangi she’riy turkumlar yaratildi. 70-80-yillar va Istiqlol yillari ijod olamiга янги поэтик тафаккuri, o‘ziga xos badiiy ифода йўллари ва ohorli uslubi билан кириб келган o‘nlab iste’dodli shoirlarimizning betakror шеърияти milliy тафаккур имконият ларини behad boyitishi ham yangi adabiy hodisadir. Ular o‘zlarining betakror ijodkor шахсi, yorqin she’riyati bilan kitobxonlarni янги интеллектуал-

эстетик юксаклик сари парвозга ундайди. Zamonaviy adabiyotimizda yangi sahifa ochgan bu she’riyatning janr xususiyatlari, shakliy-kompozitsion jihatlari va badiiy-estetik funksiyalari kabi yorqin qirralari va ularni istiqbolli tamoyillar sifatida e’tirof e’tgan I.G‘afurov, B.Akramov, Q.Yo‘ldoshev, A.Sabridinov, S.Meliyev, U.Hamdam, SH.Turdimov, G.Ashurova, G.Oripova, N.Afoqova, O.Fayzullayeva va R.Payzullayeva kabi tadqiqotchilarning muhim fikr-xulosalari ham darslik-qo‘llanmalar imizda aks etishi lozim deb o‘ylaymiz. Binobarin, tanqid-adabiyotshunoslik sohasidagi samarali ijodiy izlanish va tadqiqotlar bilan birga darsliklarimizni takomillashtirish borasidagi orzu-intilishlar, ilmiy-uslubiy, nazariy qarashlar ham muttasil davom etishi tabiiy.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirrziyoev Sh. Adabiyot, san’at va madaniyat yashasa, millat va xalq bezavol yashaydi. Xalq so‘zi, 2019-y. 9- fevral. 2.

2. Xudoyberganov N., Rasulov A.O‘zbek sovet adabiy tanqidchiligi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1990. – B. 37.

3. Adabiyotimizning yarim asri. – Toshkent, 1967. 160-167-bb.

4. Abdulla Oripov. O‘zbekning o‘z shoiri. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at, 2003. 6-b.

SHUHRATNING POETIK MAHORATI

Akbarali Sabirdinov,
filologiya fanlari doktori, professor,
Farg‘ona davlat universiteti, O‘zbekiston
Tel: +90 230-73-31

Annotatsiya: Maqolada Shuhrat she'riyati va badiiy mahoarti haqida so‘z yuritilgan. Shoir lirikasida mavzu va g‘oya, obraz, badiiyat masalalari she'rlari tahlili orqali yoritilgan. XX asr she'riyati taraqqiyotida Shuhrat ijodining o‘rni masalasi va shoir badiiy-uslubiy izlanishlari tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: lirika, poetik g‘oya, mavzu ko‘lami, shakl va mazmun, fikr va tuyg‘u, ohangdorlik.

Abstract: The article discusses Shukhrat's poetry and artistic skill. The issues of theme and idea, image, and art in the poet's lyrics are covered through the analysis of his poems. The issue of the place of Shukhrat's creativity in the development of 20th-century poetry and the poet's artistic and stylistic research are analyzed.

Keywords: lyrics, poetic idea, scope of the topic, form and content, thought and emotion, melodiousness.

XX asr o‘zbek she’riyatini Shuhrat (G‘ulom Alimov) ijodisiz tasavvur etish mumkin emas. U adabiyotga 1935-yilda shoir sifatida kirib keldi. Shoir ijodini kuzatar ekanmiz, uning she’rdan she’rga mahorati oshib borganligini ko‘ramiz. Asarni mazmun va shakl jihatdan mukammallashtirish borasida muttasil izlanishlar olib borgan Shuhrat bir qarashda oddiy voqelikdan ham go‘zal falsafiy fikr, xulosa chiqara oladi. Voqeabandlik shoir she’riyati uchun xos jihat bo‘lib, turli tasviriy ifoda va vositalar bilan ta'sirchanlikni yuzaga chiqaradi.

Adabiyotning o‘lmas mavzularidan bo‘lgan muhabbat Shuhrat she’riyatidan “o‘q tomir” bo‘lib o‘tgan. Shoir fikricha muhabbatgina mangu, u hyech qachon zavol bilmaydi. “Sevgi qarimas” (1946) she’rining asosida ham muhabbatning doimo navqiron va abadiyligi tarannumi yetakchilik qiladi:

Majnutol soyasi ilk bahor,
Sevgimizga belanchak bo‘ldi.
Men sevgimni etganda izhor
Barglar chapak chaldi, oy kuldi.
Yillar o‘tdi... Bizning sevgimiz
Hamon yashar, hamon navqiron.

Ammo o‘sha guvoh majnuntol
Qurib bitmish benomu nishon.

Shoir o‘xshatish, qiyos, jonlantirish, istiora, sifatlash kabi tasviriy, parallelizm, takror, izosillabizm kabi ritmik, turli band, qofiya tizimlari, vazn hamda evfonik vositalardan samarali foydalanib satrlar ta’sirchanligini yuzaga chiqaradi.

Shuhrat she’riyati xalqona ifoda va samimiy kechinmalarga to‘yingani, xushohangligi bilan ajralib turadi. Har bir so‘zning she'riy konteksga “uzukka qo‘yilgan qimmatli tosh yanglig‘” (Oybek iborasi – S.A.) mos tushgani, shaydo ko‘ngil tuyg‘ulari ifodasidagi tabiiylik ushbu misralarni o‘qigan kitobxon tilidan qo‘shiqqa aylanib jarang beradi. Shu ma’noda quyidagi satrlarni xalq og‘zaki ijodiga xos bo‘lgan an’analarning davomi deyish mumkin:

Oylar o‘tdi bedor, beshafqat,
Erkam, meni unutmadingmi?
Xayolimda hamon sen faqat,

Erkam, meni unutmadingmi?
Ko‘zim yumsam tushlarimdasan,
Yozu bahor, qishlarimdasan.
O‘qib olgan “besh”larimdasan,
Erkam, meni unutmadingmi?

(“Erkam, meni unutmadingmi?”)

She’rning keyingi satrlarida lirik “men” – oshiq tuyg‘ulari tasviridan yor qiyofasining o‘ziga xos ifodasiga o‘tiladi. Bu tabiatning betakror oniy holatlari chizgilari bilan uyg‘unlashib ketadi:

Bahor kelsa gulda ko‘raman,
Sen xush ko‘rgan yo‘ldan yuraman.
Ba’zan qirdan, cho‘ldan yuraman
Erkam, meni unutmadingmi?
Ko‘kda yongan sening ko‘zginang,
Menga madad doim so‘zginang,

Qachon ko‘rgum sening o‘zginang,
Erkam, meni unutmadingmi?

Murakkab tashbehlardan, jimjimador iboralardan holi, beg‘ubor kechinma va nozik tuyg‘ularning ifodasi bo‘lgan she'rning so‘nggi bandlari muhabbatni avaylash hamda qadrlashga chaqiriq bilan yakunlanadi:

Turna o‘tsa yo‘lga boqaman,
G‘ozlar uchsa ko‘lga boqaman.
Dilim yonsa gulga boqaman
Erkam, meni unutmadingmi?
Gulim qo‘lda so‘lmasidan kel,
Do‘stu dushman kulmasidan kel,
Ishqing dilda so‘nmasidan kel,
Erkam, meni unutmadingmi?

She’r ana shu tariqa vafo va sadoqatni tarannum etuvchi “muhabbat sinfoniyasi” bo‘lib jaranglaydi. Davrlar osha avloddan avlodga o‘tib qalblar mulkiga aylangan o‘lmas ijod namunasi bo‘lib yuz ko‘rsatadi.

Lirik kartinalar yaratishning ustasi bo‘lgan Shuhrat “Ko‘klam” (1970) she’rida izchil tasvirlar va tafsillar shodasi vositasida ilk bahor manzarasini chizadi. Tabiatning oniy holatlarini aks ettirish orqali esa yaxlit ko‘klam suratini yaratadi.

She’rning
Ilhomga to‘libdi yana bir tuproq,

Chechaklar, maysalar uning ijodi.
Sevgisin ko‘zidan sochadi buloq,
Bormi deb sevgining tilga hojati!
Sevinchi ichiga sig‘masdan g‘uncha
Labini tutolmay xandon kulibdi.
Ayvonga qaldirg‘och, tolga musicha
Jo‘jasi g‘amda xashak ilibdi.

misralarida ilk bahor kunlarida tabiatdagi jonlanish, uyg‘onish jarayoni batafsil yoritila boradi. So‘ng tasvirga “jahongir Amir Temurning boshiga soya tashlagan o‘limtik chinorning ham yaproq yoza boshlagani, saylni boshlagan qumursqa, o‘zidan katta qumaloqni yumalatayotgan qo‘ng‘iz, qorli yerga ketishga kechikkan nolasi baland qarg‘a, bulbullar bilan yoz bo‘yi yurmoqni orzu qilgan karqunoq, maysalar ostida jonini avaylab yotgan binafshani yulib ketgan berahm bolalar, qirdagi do‘stiga bug‘otdan qo‘l silkitayotgan lolaqizg‘aldoq, u bog‘dan bu boqqa havotir bilan yelib, o‘tgan yilgi yong‘og‘ini chaqayotgan zarg‘aldoq, oq baqbaqasini likillatib kovakdan chiqqan cho‘tir qurbaqa, yorini boqqa yetaklagan, lekin bir dasta gulga ham cho‘ntagida chaqasi yo‘q student yigit, qish bo‘yi dimiqqan sochlarini orqaga qirq kokil qilgan qizlar, bulutga qahrini sochib ustidan shiddatli chaqmoq yeldirgan osmon” tasvirlari kirib keladi.

She’rning so‘nggi “Taqdirin yer bilan chandigan dehqon Ona-yer boshida mag‘rur boqadi. Ko‘nglidan o‘tadi olov saraton, Serfayz kuz yo‘lidan karvon oqadi!” satrlarida kuz tashvishi bilan band dehqon obrazi namoyon bo‘ladi. Shoir tabiatdagi, qush va hashorotlardagi, nabotot va hayvonot olamidagi, insonlardagi o‘ziga xos uyg‘onishlarni birma-bir tasvirlash orqali ko‘klamning jonli kartinasini yaratishga muvaffaq bo‘ladi.

Polyak adabiyotining taniqli namoyandasi Yan Parandovskiy “So‘z kimyosi” kitobida “Yozuvchi tarbiyasidagi asosiy vazifa – so‘z haqidagi ilmni chuqur egallash hamda ijod qilayotgan tilni bilish va anglashdan iboratdir” deya yozadi. Shuhrat ham tilimizning lug‘at qatlamini yaxshi biladi. Har bir so‘zning she’riy kontekstdagi ma’no tovushlarini chuqur anglagan holda satrlarga olib kiradi. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalaridagi o‘ynoqi ohangdorlikni, nozik qochirimlarni o‘ziga jamlagan, sharq mumtoz adabiyotidagi murabba'ning qofiya tizimi asosidagi quyidagi band tizimlarida shoir oshiqning nozik kechinmalari hamda yor qiyofasini betakror chizgilarda aks ettirishga muvaffaq bo‘ladi:

Gulzoridan o‘tdi nogoh
Ko‘zi o‘ldirdi – o‘ldirdi.
Bir so‘z qildi kulib nogoh,

So‘zi o‘ldirdi – o‘ldirdi.
Aks-sadosi yonog‘imda,
Shirin so‘zi qulog‘imda,
Atir bo‘yi dimog‘imda,
O‘zi o‘ldirdi – o‘ldirdi.

(“Nozli jonon”)

Shuhrat ko‘z yoshlar rangini, ular orqali insonlar holatini ko‘ra olgan ijodkor. Nahotki, ko‘z yoshning ham rangi bo‘lsa, degan tabiiy savolga shoir shunday javob beradi:

Qadahdan to‘kilgan ko‘z yoshi qora,
Alamdan to‘kilgan zardob rangida.
Yurakka botdimi, balki, tobora
Bardoshing kuydirar mudhish zangida!
Shodlik ham yosh to‘kar nurdek musaffo,
Sevgidan oqqani otash tusdadir,
Bariga malhamdir sof ko‘ngil, vafo,
Kalidi shirin til, yoniq ko‘zdadir!

(“Qayg‘udan to‘kilgan...”)

Ana shu tariqa qayg‘udan, alamdan, sevgidan, to‘kilgan ko‘z yoshlarning o‘ziga xos rangi bo‘lishini uqtirgan shoir baxt haqida shunday falsafiy xulosaga keladi:

Baxt rangini bilsaydi odam,
Uni darrov tanib olardi,
Yo sharpasin sezsa o‘sha dam,
Orqasidan otin solardi.
Yaxshiyamki, rangi yo‘q aniq,
Turli rangda kelishi mumkin.
Uni faqat qalbi pok, yoniq
Sodiq kishi ko‘rishi mumkin!

(“Baxtning rangi”)

Shoir lirik qahramoniga ko‘kdagi yulduzlar jaranglab so‘zlaydi, toshlarning joni, devorning ko‘zi bordek, o‘tkinchining oddiy so‘zi qalbiga quvonchli lavha bitgandek tuyuladi. Shunday paytda unga “Dunyoda alam yo‘q, achchiq-chuchuk yo‘q, Dunyoda o‘lim yo‘q, hasad yo‘q go‘yo. Murodga yetmaydi yovuz otgan o‘q, Go‘yoki nur bilan yo‘g‘rilgan dunyo” bo‘lib ko‘rinadi. Ammo bu faqat orzu ekani ayon bo‘ladi. Qaerdandir “yo‘q” degan ovoz keladi. Bu ovoz dunyo kun va kecha, oq va qora, shirin va achchiq almashinuvidan iboratligi, dunyoning muqaddas siri shunda ekanligini ta'kidlaydi.

Butun ijodi davomida adolat, mehr-muhabbat, odamiylik, oqibat, vafo kabi insoniy tushuncha va fazilatlarni madh etgan Shuhrat turli qiyofada tovlanuvchi soxtakorlikni qoralaydi. Tabiatdagi har bir narsa va hodisani, shuningdek, odamni ham o‘z holicha ko‘rishni xohlaydi.

She’rning

Daryo bo‘lsang toshni toshga urib oq,
Quyosh bo‘lsang sen osmonga kulib boq,
Bulut bo‘lsang rahmating quy, chaqmoq chaq,
Chaman bo‘lsang gullaring soch xushchaqchaq.
Chashma bo‘lsang tinim bilmay qaynab tur,
Bulbul bo‘lsang sahar turib chaqchaq ur.
Ohu bo‘lsang ohu ko‘zing yashirma,
Arslon bo‘lsang bosgan izing yashirma.
Turna bo‘lsang yuksaklarda ber sado,
Burgut bo‘lsang qoyaga qil jon fido!
Odammisan ezgu ishdan qo‘l uzma,
Nokaslarga shafqat qilma, qo‘l cho‘zma!

(“Daryo bo‘lsang...”)

satrlarida insonning yashashdan maqsadi ezgulik ekani alohida uqdiriladi. She’r “Yaxshilarning yelkasida bu olam, Yaxshilikni niyat qilsin har odam!” degan so‘zlar bilan yakunlanadi.

Tasviriylikning o‘ziga xos namunasini shoirning “Tong mazarasi” (1977) she’rida ko‘rishimiz mumkin. Unda erta tong mahalida borliqda ro‘y beradigan o‘zgarish va holatlar izchil tasvirlanadi. “Milt-milt etgan yulduzlarning tun izini quvib ketishi”, “shudring bilan yuz yuvgan quyoshning ufqni ko‘zlashi”, “boboxo‘rozning tongni olqishlab so‘nggi marta qichqirishi”, g‘imirlab qolgan qumursqalar, uyasidan chiqayotgan bol ari, o‘tloq qir sari ketgan sigir izidan ma’rab qolgan buzoq, bosh ko‘targan quyosh, unga ta’zim qilayotgan kungaboqar, ariqdan oqib kelayotgan olma, tungi quyilgan sutning qaymog‘ini suzayotgan kampir, qo‘yniga issiq non solib ko‘chadan kelgan chol holatlarining birma-bir tasviri orqali ko‘z oldimizda sharqona tong manzarasi namoyon bo‘ladi.

She’ring so‘ngi satrlari

Tong ham oppoq,
Paxtazor oppoq,
Oppoq nurga chayilgan o‘lkam,
Shu o‘lkaning jamoliga boq,
Tong chog‘ida ayniqsa ko‘rkam!

tarzidagi “oppoq”, “tong”, “o‘lka” so‘zlari takroriga asoslangan tasvir bilan beg‘uborlik, musaffolik barq urib turgan o‘lkamiz kartinasi namoyon bo‘ladi.

Sharq mumtoz she’'riyatidagi “tajohuli orif” san'atini bir qadar yodga soluvchi “Bilolmadim” (1959) she’ri shoirning Gruziyaga qilgan safari taassurotlari asosida yozilgan. She’r boshdan oyoq so‘roqlar asosidagi satrlar bilan bezangan bo‘lib, shu orqali shoir Gurjistonning betakror, go‘zal manzaralarini so‘z akvareli vositasida mahorat bilan aks ettiradi. Satrlarning o‘ynoqi va ravonligi, sodda va yorqin ifodalarga boyligi Shuhratning o‘zbek xalq og‘zaki ijodi an'analaridan ta'sirlanganligini ko‘rsatadi.

Go‘zal Kavkaz, o, Gurjiston, aytaqol,
Men kelganda bahormidi, yozmidi?
Ko‘llaringda kuni bo‘yi bemalol
Suzib yurgan o‘rdakmidi, g‘ozmidi?
Yo‘llaringda qator-qator ko‘ringan
Surx qomatlar terakmidi, tolmidi?
Cho‘qqilarda oppoq bo‘lib suringan,
Bilolmadim, bulutmidi, qormidi?

misralarida Kavkaz tabiatining betakror manzaralari aks etsa, keyingi satrlarda lirik “men” nigohi nabotot, hayvonot va gruzin qizlariga tushadi. Yurt ozodligi uchun kurashgan qahramonlar siymosini shoir yodiga oladi.

She’rning
Tog‘dan toqqa yengil-yelpi sakragan
Tog‘ erkasi ohumidi, shermidi?
Choy bargida sal yel bilan titragan
Shudringmidi, mardlar to‘kkan termidi!
Qizlaringning ol labiga nur bergan
Adash tushgan nuqtamidi, xolmidi?
Lablarida qatra-qatra erigan,
Bilolmadim, shakarmidi, bolmidi?

bandlaridagi tasvir ishq mavzusining betakror talqini bilan yakun topadi.

So‘nggi satrlardagi
Anormidi, olmamidi to‘shida
Ko‘z-ko‘z qilib olib yurgan narsasi?
O‘tgan hafta, yangi oyning boshida
Sovg‘amidi menga bergan narsasi?
Bilolmadim. Bilolmasdan dog‘daman
Bilolmasdan qaytib ketdim yurtimga.

Izohlashga va’da bersang qaytaman,
Qor yog‘sa ham, do‘l yog‘sa ham ortimga!

tarzda so‘z takrorlari vositasidagi ifodalarda ta'sirchan fikr yuzaga keladi. Sharq mumtoz she'riyatidagi takrir san'atini yodga soluvchi so‘z takrorlaridan foydalanib shoir so‘z urg‘usiga, ohangdorligiga, ta’sirchanligiga va ifoda aniqligiga erishadi. She'rdagi fikr tadriji va ritmik izchillikni yuzaga chiqaradi:

O‘nging gul, so‘ling gul, gir atrofing gul,
Ko‘kdan gul yoqqanmi bahordan boshlab?
Ey ko‘ngil, mana gul, o‘yna, yayra, kul.
Armoning qolmasin kul xandon tashlab!
(“Gullar vodiysi”)

Yoki,

O, inson bilagi, inson bilagi,
Naqadar ulug‘vor kuch-qudrating bor.
O, inson idroki, inson yuragi,
Ming yillar yashagan shon-shuhrating bor.
(“Tamara qal’asi”)

Yoki,

Sokin Dunay, erkin Dunay,
Sohilingga qushdek qo‘nay.
Sohilingda bir kecha tunay,
Desam nima derkan Dunay!
(“Daryoga iltimos”)

tarzdagi tasvirlarda gullar yurti Bolgariyaning go‘zal manzaralaridan olgan shoir taassurotlari ifodalanadi. Dastlabki banddagi “gul” so‘zi takrori poyonsiz gullar og‘ushidagi borliq tasviri uchun asqotgan bo‘lsa, keyingi banddagi “inson” so‘zi takrori orqali gruzin malikasi Tamara topshirig‘i bilan barpo etilgan, qoyatosh bag‘rini o‘yib qurilgan muazzam qal'adan olgan shoirning hayrat tuyg‘ulari aksini topgandir. Uchinichi tahlilga tortilagn takror orqali daryoning sokin, poyonsiz, orombaxsh holati qabartma tarzda ifodasini topgan.

Shuhrat she'rlarini kuzatar ekanmiz, lirik qahramon davr to‘fonlarida, turmushning qaynoq qozonida toblanib, ma'nan va fikran yuksalib ishq gulxanida yongan yigitchadan hayotning pastu balandini teran anglagan qat’iyatli donishmand mo‘ysafid darajasiga o‘sib yetganini ko‘ramiz. Bu mo‘ysafid adolat uchun kurashuvchi, elning porloq istiqboli uchun jon tikkan, munofiqlik, sotqinlik, mehrsizlik, ikkiyuzlamalik kabi illatlarga qarshi ayovsiz kurashuvchi shaxs.

Shoirlarni payg‘ambarlarga mengzaydilar. Bu bejiz emas. Shuhratning “She’rim haqida o‘ylar” (1976) she'ridagi ushbu satrlar uning kelajak avlodlarga bashorati va vasiyati bo‘lib jaranglayda:

Men o‘tib ketaman, sen keyin qolib
Haqimda rost so‘zni aytib yur she'rim!
Do‘stimning bag‘riga boshingni olib,
Raqibga tosh qahrim otib tur, she'rim!
Hali sen necha uy, necha xonada
Meningsiz bir o‘zing mehmon bo‘lasan.
Ba’zilar talqinlab turli ma'noda
G‘ashingga tegadi, achchiq kulasan.

Shoir she'rlarida o‘z hayoti aks etganini, ular qalbining siri, yurak dardi ekanini, Kavkaz tog‘lari, Dunay bo‘ylari, jang maydonlarida ajralmas hamroh bo‘lganligini ta'kidlaydi. Nohaqlikka qarshi kurashda darddosh bo‘lib, xush kunlarga umid uyg‘otganini, doimo takabburlik, hasad, yolg‘ondan yiroq bo‘lganini uqtiradi. Ko‘ngil qushlari – she'rlari halol tug‘ilib, halol yashaganini, o‘zidan keyin qoladigan ishlari, umrining guvohi ekanini uqdiradi.

So‘nggi satrlar
Bir kosa suv bo‘lgin chanqoq qo‘lida,
Chiroq bo‘l safarga chiqsa yo‘lida...
Har shoir baxtidir o‘zidan so‘ngra
Dillarga yo‘l olsa she'ri elida!

tarzdagi da’vat bilan yakunlanadi. Shoirning she’rlariga ushbu murojaati kelgusi avlodlarga ham qaratilgandek tuyuladi.

Xullas bugungi kunda Shuhrat asarlari dolzarb mavzu va yuksak badiiyati bilan she'riyatga tashna kitobxonlarning chanqog‘ini qondirmoqda. Kelgusida ham ko‘plab ijodkorlar uchun ta'sir va ilhom manbai bo‘lishi shubhasizdir. Shuningdek, ular unib-o‘sib kelayotgan avlodlarni ma'nan yuksaltirishga, axloqan tarbiyalashga xizmat qilishi bilan ham ahamiyatlidir. Shu ma’noda ushbu ijod namunalari mangulikka daxldordir. Shoirning “Erkam, meni unutmadingmi?” degan so‘rog‘i nafaqat sevimli yoriga, balki kelgusi avlodlarga ham qaratilgandek tuyuladi. Ana shu so‘roq esa bizga Shuhrat va uning ijodini o‘lmas hamda abadiyligini eslatib turadi.

LIRIK SHE’RDA MILLIY O‘ZIGA XOSLIKNING TASVIRLANISHI

Abdug‘opir Qosimov,
FarDU professori, filologiya fanlari doktori
E-mail: qosimovabdugapir@gmail.com
Tel: +998916570824

Annotatsiya: Maqolada Ibroyim Yusupov lirikasida qoraqalpoq xalqining milliy o‘ziga xosliklari, tarixi va kundalik turmushi tasviridagi muhim jihatlar tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: Ibroyim Yusupov, qoraqalpoq she’riyati, milliylik, milliy ruh, milliy kolorit, mavzular ko‘lami, badiiy obraz, she’rlar.

Annotation: The article analyzes important aspects of the depiction of the national identity, history and everyday life of the Karakalpak people in the lyrics of Ibroyim Yusupov.

Key words: Ibroyim Yusupov, Karakalpak poetry, nationality, national spirit, national color, range of themes, artistic image, poems.

Milliylik masalasi adabiyotshunoslikning doimiy va dolzarb mavzularidan hisoblanib, barcha davrlarda ijodkor hamda olimlarning diqqat markazida bo‘lib kelgan. Mazkur muammoga qiziqish o‘zbek adabiyotshunosligida o‘tgan asr boshlaridan kuchayib borganini kuzatishimiz mumkin. Biroq mazkur yo‘nalishda siyosiy-mafkuraviy jarayonlar sabab jiddiy izlanishlar 70-80-yillardan so‘ng amalga oshirildi. Jumladan, naazariyotchi olim A.Rahimov o‘z tadqiqotida ushbu masalaning o‘zbek adabiyotshunosligida deyarli tadqiq etilmaganini e’tirof etadi. Shu bilan birga umuminsoniylik negizida milliylik yotishini, umuminsoniylik milliylikdan o‘sib chiqishini tahlil etadi[A.Rahimov,1982].

Qoraqalpoq xalqining suyukli farzandi Ibroyim Yusupov (1929-2008) ijodi nafaqat milliy adabiyotda, balki turkiy xalqlar adabiyotida ham o‘z o‘rniga ega hisoblanadi. Bu mohir so‘z san’atkori qoraqalpoq she’riyatida Jiyan Jirov, Kunxo‘ja, Ajiniyoz, Berdaq, O‘tesh shoirlar boshlab bergan, Ayapbergen Musayev, Abbos Dobilov, Sodiq Nurimbetov, Tilovbergan Jumamurodov, Jo‘lmirza Oymirzayevlar davom ettirgan xalqchil an’analarni munosib davom ettirdi. “Shoir qoraqalpoq she’riyatini yangi dovonlarga olib chiqdi va shu unutilmas xizmatlariga yarasha xalqning mehr-muhabbatiga sazovor bo‘ldi”[K.Allambergenov,2009:13]. Shu bois uning nomi zamonamizning

zabardast adib va shoirlari qatoridan o‘rin oldi.

Ibroyim Yusupov lirikasi qoraqalpoq xalqining kundalik turmushi va tarixiy taqdiri bilan chambarchas bog‘lanib ketgan milliy ruh, milliy bo‘yoqlarning ajoyib jozibasi bilan ajralib turadi.

Bir yog‘im suv, bir yog‘im cho‘l bo‘lmasa,
Jannat qurib bersang ham men bormayman.
Gul va yovshan hidi anqib turmasa,
Ul yerda men qoraqalpoq bo‘lmayman.

Bobolarining termalari kabi Ibroyim Yusupovning she’riyati butun o‘q tomirlari bilan qoraqalpoq zaminiga kirib boradi.

Xalqning tarixiy taqdiri, quvonchlari va qayg‘u-hasratlari, murakkab kurash sahifalariga boy, nozik romantik pafosga, vatanparvarlik tuyg‘usi bilan yo‘g‘rilgan she’rlar shoir ijodining yuksak mavqeini belgilab beradi.

Qayda yursam sog‘intirar,
Ona yurtim tomonlari,
Xayolimda sahar—sahar,
Esar Jayhun shamollari,
Atirgul terib cho‘llardan,
Gulirayxon chamanzordan,
Bizning bul go‘zal ellardan
Esar Joyhun shamollari.

Ibroyim Yusupovning “Ayoz qal’a”, “Qo‘biz”, “Ossuriylar”, “No‘g‘oylarga”, “Qoraqalpoq haqida so‘z” kabi she’rlarida ota-bobolarning ayanchli, og‘ir taqdiri, ularning sarson-sargardonliklari turmush qiyinchiliklari tufayli azob-uqubatda o‘tgan hayoti satrlarga jo qilingan.

Shoir ijodida qoraqalpoq xalqiga xos bo‘lgan xususiyatlar – keng fe’l, pok ko‘ngil, mehmondo‘stlik, soddalik, halollik, mardlik, sabrlilik singari fazilatlar “Tug‘ilgan yurt”, “Ovul, ovul!”, “Cho‘girma”, “Ko‘k tog‘idagi o‘ylar” singari she’rlarida mahorat bilan tasvirlanadi:

Bizda so‘z bor: mehmon – rizqu barakot,
Qo‘noq kutish – ziynati har odamning.
Agar uyga besh kun mehmon kelmasa,
Choyi qo‘nmas mening munis onamning.

Qoraqalpoq xalqining ming yillar mobaynida shakllanib kelgan milliy urf-odatlari, marosimlari, udumlari shoir she’rlari orqali manguga muhrlanganigiga amin bo‘lamiz.

Shumlik qilsa, sir oldirar boladay,
Ko‘ngilchanlik bo‘pti deya qo‘yaman.

Ammo uning keng jazira daladay
Mard va odil, keng fe’lini suyaman.

I.Yusupov she’rlarida mavzular ko‘lami keng va rang-barang. Unda xalqlar do‘stligi, muhabbat, hayot donoliklari singari mavzular qatorida ona yurt tasviriga bag‘ishlangan she’rlar muhim o‘rin tutadi. Shu bilan birga, u qoraqalpoq xalqining milliy xususiyat va belgilarini, uning ruhini, dunyoqarashidagi o‘ziga xosliklarini shu qadar teran va go‘zal ifodalaganki, natijada bu ifodalar tor doiradan chiqib, umuminsoniy hodisalarning uzviy bir bo‘lagi sifatida anglanadi. Shu ma’noda taniqli munaqqid I.G‘afurov ta’kidlaganidek, uning lirikasini qoraqalpoqning jahonga va jahonning qoraqalpoqqa qaratilgan tiniq oynasi deyish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Раҳимов А. Одамда олам ташвиши. – Тошкент: Ўзбекистон, 1982.
2. Аллambергенов К. Мангу булоқ // Жаҳон адабиёти, 2009, № 6. – Б. 13.
3. Ғафуров И. Халқ қалбининг теран томирлари / Ибройим Юсупов. Раҳмат сенга, замоним. – Тошкент: 1979. – Б. 3-8.
4. www.ziyonet.com

XX ASR ROMANCHILIGIDA ADABIY TA’SIR VA BADIIY MAHORAT

Soatova Nodira Isomitdinovna,
Jizzax davlat pedagogika universiteti professori, filologiya fanlari doktori

Annotatsiya: Maqola Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar”, Abdulla Qahhorning “Sarob”, Shuhratning “Oltin zanglamas” romanlari tahliliga to‘xtalingan. Natijada, romanlarda qahramonlarning dramatik holati, ruhiy kechinmalari haqqoniy va ta’sirchan qilib ko‘rsatilgani va adiblarimiz bunda ularning badiiy ifodasiga, qalb dramasi tasviriga, psixologik tahliliga ham alohida e’tibor berishgani maqolada isbotlandi.

Kalit so‘z: Roman, poetik tafakkur, poetik uslub, adabiy ta’sir, badiiy mahurat.

Abstract: The article focuses on the analysis of the novels “Bygone Days“ by Abdulla Qodiriy, “Sarob“ by Abdulla Qahhor, and “Oltin zanglamas“ by Shuhrat. As a result, the article proves that the dramatic state of the characters and their spiritual experiences are shown in the

novels in a truthful and touching way, and that our writers paid special attention to their artistic expression, depiction of the drama of the heart, and psychological analysis.

Keywords: Novel, poetic thought, poetic style, literary influence, artistic skill.

Adabiyot va san’atning nodir namunalari jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichida iste’dodli yozuvchilar tufayli yuzaga kelib, shu jamiyat hayotining rang-barang qirralarini o‘zida aks ettiradi. Lekin jamiyatning tanazzulga uchrashi va yangi tarixiy davrning boshlanishi bilan chinakam san’at asarlari o‘z qimmatini yo‘qotmaydi. Aksincha, u yashashda davom etib, keyingi avlodlar uchun ham ma’naviy boylik, estetik ta’sir va tarbiya vositasi sifatida xizmat qilaveradi. Mana shunday asarlar sirasiga Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar”, Abdulla Qahhorning “Sarob”, Shuhratning “Oltin zanglamas” romanlarini kiritish mumkin.

Sirasini aytganda, Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor va Shuhrat ijodi, badiiy mahorati haqida adabiyotshunos-tanqidchilar tomonidan juda ibratli fikr va mulohazalar bildirilgan va hanuzgacha ularning yangi qirralari e’tirof etilmoqda. Biz esa bu uch adibning romanlari xususida fikr yuritamiz.

O‘zbek xalqini yangi “zamonning “Tohir va Zuhro”lari “Chor darvesh”lari, “Farhod va Shirin”lari, “Bahromgo‘r”lari bilan tanishtirish”ni maqsad qilgan Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani Otabek va Kumush muhabbati asosiga qurilib, ularning baxtiga ko‘z tikkan xudbin Homid va kundoshlik balosi natijasida xazonga aylangan muhabbat tarixini yoritishga bag‘ishlangan bo‘lsa, Abdulla Qahhorning “Sarob” romani burjua millatchiligi g‘oyasini fosh qilish, ularning razil basharalarini ochish barobarida romanning asosini tashkil qiluvchi g‘oyaviy niyat xudbinlikni yohud individualizm illatini badiiy tadqiq qiladi. Shuhratning “Oltin zanglamas”si esa o‘zbek adabiyotida qatag‘on yillari haqidagi birinchi roman bo‘lib, u keskin to‘qnashuvlar, o‘tkir konfliktlar asosiga qurilgan asardir.

Xo‘sh bu uchala romandagi umumiylik va o‘ziga xoslik nimalarda ko‘rinadi? “O‘tkan kunlar”, “Sarob” va “Oltin zanglamas” romanlarini qiyosiy o‘rganish asnosida adiblarning xarakter yaratish mahorati, o‘ziga xos uslubini ko‘rsatish, asar poetikasi, kompozitsiyasi va syujeti, tili va badiiy tasvir vositalarini, xullas kalom romanlar orasidagi mushtarak, vobasta jihatlarini tadqiq qilishga harakat qilamiz.

Shu o‘rinda “O‘tkan kunlar” romanidagi salbiy qahramonlardan biri

Homid, “Sarob” romanidagi bosh qahramon Rahimjon Saidiy va “Oltin zanglamas” romanidagi Mirsalim obrazlari xususida to‘xtalishni lozim ko‘rdik. Chunki, Homid, Saidiy va Mirsalim obrazlarida o‘zaro o‘xshash, mushtarak jihatlar ko‘p.

Ma’lumki, xudbinlik insoniyat tarixidagi eng qadimiy va eng xavfli illatdir. Shu sababdan adiblar bu shaxslar timsolida riyokorlikning turli tovlanishlaridagi ko‘rinishlarini tasvirlaydi. Xalqda “Odobni odobsizdan o‘rgan” degan maqol bor. Nazarimizda, adiblar ham shu maqolga amal qilib, insoniyat ma’naviyatining ana shu azaliy dushmaniga qarshi qalam yalang‘ochlab jangga kirishgan. Demak, romanlarning asosiy g‘oyasi shundaki, ular bu obrazlar orqali xudbinlik, sotqinlikning halokati muqarrar ekanligini ko‘rsatish barobarida insonlarni hushyorlikka va ezgulikka chaqiradi.

Shu o‘rinda romandagi salbiy qahramonlarni qiyoslash to‘g‘rimi, degan o‘rinli savol tug‘ilishi tabiiy. Fikrimizcha, realistik adabiyotda qahramon ijobiy bo‘ladimi, salbiymi, baribir, birinchi navbatda to‘laqonli inson bo‘lishi kerak, uning har bir harakati, qilig‘i, so‘zlari ham baquvvat ichki mantiqqa ega bo‘lmog‘i, kitobxonni hech qanday gap-so‘zsiz ishontirmog‘i lozim. Bu to‘g‘rida atoqli adabiyotshunos olim Ozod Sharafiddinov shunday deydi: “Agar yozuvchi ijobiy obraz yaratayaman deb, uni maqtab ko‘klarga ko‘tarsa, faqat ajoyib fazilatlar-u, nodir sifatlarining egasi qilib tasvirlasa, obraz emas, chuchmal siropday ma’daga tegadigan farishta mijoz sxema tug‘iladi, xolos. Ijobiy qahramon ham salbiy qahramon ham mushtarak badiiyat qonunlari asosida yaratilmog‘i kerak” [Шарафиддинов,1986:63]. Chunki, asar o‘quvchini hayajonga sola olmasa, uning estetik dunyosini boyita olmasa, uning yaxshilikka va yomonlikka munosabatini o‘tkirlashtira olmasa, unda nimalar aytilmasin, qanday mavzu va mammolar qo‘yilmasin, u haqiqiy san’at namunasi bo‘la olmaydi. Shu sababdan ham bu uch romandagi salbiy xarakterdagi qahramonlarni tanqidiy ko‘z bilan o‘rganib, ulardagi nuqsonli xislatlarni ko‘rsatib berishni maqsadga muvofiq ko‘rdik.

Abdulla Qodiriy Homid obrazini yaratar ekan, roman boshidayoq uni shunday tasvirlaydi: “uzun bo‘yli, qora cho‘tir yuzli, chog‘ir ko‘zli, chuvoq soqol, o‘ttiz besh yoshlarda bo‘lgan ko‘rimsiz bir kishi edi. Bu yigit yaxshigina davlamand bo‘lsa ham, lekin shuhrati nima uchundir boyligi bilan bo‘lmay, “Homid xotinboz” deb shuhratlangan, kishilar Homid orqasidan so‘zlashganda uning otiga taqilgan laqabini qo‘shib aytmasalar, yolg‘iz “Homidboy” deyish ila uni tanita olmaydilar”. Yozuvchining shu so‘zlari o‘ziyoq, ko‘z o‘ngimizda uning qanday odam

ekanligini ko‘rsatadi. Romanda Homid ikki uylangan bo‘lishiga qaramay, yana o‘z shahvoniy hirsi yo‘lida yana uylanishni maqsad qilib, bu yo‘lda har qanday nojo‘ya yo‘ldan toymaydigan kimsa sifatida ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘ladi. Otabekning Marg‘ilonga kelishi munosabati bilan uni ko‘rgani kelgan Rahmat, Homidning o‘zaro suhbatida Homidning qiyofasi yozuvchi tomonidan to‘laligicha ochib tashlanadi: “Xotinga muvofiq bo‘lish va bo‘lmaslikning uncha keragi yo‘q,..Xotinlarga “er” degan ismning o‘zi kifoya...xotinni ikki qil! Bunisi ham kelishmasa, uchinchisini ol!..Qamchiningdan qon tomsa, yuzta xotin orasida ham rohatlanib tiriklik qilolasan! Men bu kungacha ikki xotin o‘rtasida turib janjalga to‘ygunimcha yo‘q, ammo xotinni uchta qilishga ham o‘yim yo‘q emas!” Abdulla Qahhor yaratgan obraz esa burjua xudbinligini o‘zida mujassamlashtirgan mukammal obraz bo‘ldi. “Sarob” ning boshlaridayoq yozuvchi Saidiy shaxsida xudbinlik nish urib turganligini ta’kidlaydi. Saidiy Munisxonni birinchi bor uchratganidayoq yaxshi ko‘rib qoladi. Uning ko‘nglidan o‘tkazgan birinchi niyati quyidagicha edi. “Shu qizning boshiga bir falokat tushsa-da, qutqaradigan kishi yagona men bo‘lsam”. Bu so‘zlar Saidiy shaxsining asosiy maqsad yo‘nalishini, ya’ni uning xudbinligini belgilaydi.

“Oltin zanglamas” dagi Mirsalim-chi?. Romanning bosh qahramoni Sodiq shaharga kelib ilk bor “surma rang do‘ppili sertakalluf” kishi Mirsalimga duch keladi. Mirsalimning himmatiga sazovor bo‘ladi.. Shundan keyin yozuvchi kelgusida yuz beradigan to‘qnashuvlar uchun zamin hozirlashga, avvalo Mirsalim shaxsiyatini ta’riflashga kirishadi. Mirsalim Sodiqqa o‘zini yaqin olib, iltifot ko‘rsatar ekan, bu tasodifiy emas, ko‘ngliga tug‘ilgan o‘y-rejalar uni shunga da’vat etadi. Mirsalim “ilonning oyog‘ini sanagan odam”, Sodiq shunchaki odamlardan emas, “axir qo‘lidan bir ish kelmas shunday shahri azimga kelarmidi..., bunda albatta bir hikmat bor, ko‘tarilishi mumkin, hozir uning hech kimi yo‘q, ayni payt”. Mana Mirsalimning o‘y- hayoli, xudbin qiyofasi.

“O‘tkan kunlar” romanida Otabekning ko‘z ostiga olib qo‘ygan Kumushga uylanganidan g‘azablangan “tusidan yirtqichlik, bir gunohsizning ustiga hujumga hozirlangan vahshiylik belgilari” ko‘ringan Homid o‘zining razil rejasini amalga oshirish uchun qo‘rboshinikiga boradi va Otabek, Mirzakarim qutidorga tuhmat qiladi. Bu ham ish bermagach u yana qulay fursat kutadi, shunda Otabekning Toshkentdan qayta uylanishi u uchun ayni mudao bo‘ladi. O‘ziga o‘xshagan sheriklar topib, ular yordamida o‘zining razil rejasini amalga oshiradi. Otabek tomonidan Kumushga soxta taloq xati kirgizib, natijada qaynotasi

tomonidan Otabekni quvib chiqarilishiga sababchi bo‘ladi. Bu ham yetmaganday Otabekning Sodiq va Mutal yordami bilan o‘ldirish rejasini tuzadi.

“Sarob” romanida Saidiy universitetda o‘qiy boshlagandan keyin kursdoshlarini nazar-pisand qilmaydi, guruhdagi studentlar o‘rtasida “qo‘pol, ming yil o‘qiganda ham nam o‘tmaydigan, aslida go‘yo jismoniy mehnat uchun yaratilganlari ham bor”... Bularni ko‘rganda Saidiy afsuslanar edi: “Shular ham student!... Saidiy ko‘pdan beri aytmoqchi bo‘ltb, aytishdan hayiqib yurgan bir gapni bir kuni darsda keksa, rangi zahil, lunjlari osilgan bir professor aytdi:

– Siz universitetga munosib emassiz,-dedi u, Saidiy “to‘ngak” deb nom qo‘ygan yigitga,-borib ketmoningizni choping!. Shunda Saidiy tor oyoq kiyimini yechib tashlagandek yayradi va shu professorni yaxshi ko‘rdi. Saidiyning yaxshigina tanish-bilishlari bor edi. Ehson, Sharif, Shafrin. Lekin Saidiy ular bilan qo‘shilishni istamaydi. Sharif bilan Shafrinni esa mutloqo yoqtirmas edi. Ular mabodo Ehsonni yo‘qlab (Saidiy Ehson bilan bir xonada turar edi) kelib qolsalar o‘zini uxlaganga solib yotib olardi, o‘qish haqida gapirishsa, unga ko‘p yoqavermas ham edi. Ulardan birontasiga maslahat ham qilmas, maslahat ham olmas, o‘z dardini ochib ham gapirmasdi. Saidiydagi bu kayfiyat, xususan, Ehsonnni Moskavaga jo‘natish paytida yaqqol ko‘rinadi “Ehsonni kuzatgani vokzalga ko‘p odam chiqadi. Poezd jo‘nab ketguncha Saidiy o‘lib bo‘ldi... Platformadan chiqqandan so‘ng Saidiy bulardan ajralib qochish yo‘lini izladi va evini qilib qochdi”. Mana, Saidiyning asl qiyofasi.

Hayotda, shunday kishilar bo‘ladiki, ular o‘zlarining xudbin niyatlarini yashira biladilar, ma’lum bir maqsadni ko‘zlagan holda parda orqasidan turib, asdoydil harakat qiladilar va shu sa’y harakatlari o‘laroq ko‘pgina muvofaqqiyatlarga erishadilar. Homid va Saidiy undaylardan emas, lekin “Oltin zanglamas” dagi Mirsalimga bu xislat juda mos.

Ha, Mirsalim hamisha o‘z foydasiga ish ko‘radi, bu gal ham shunday qiladi, ayni paytda Sodiqni tushovlab oladi, yonginasidan hovli-joy topib beradi, uyiga chaqirib, mehmon qiladi. Sodiq tez orada maktabda obro‘-e’tibor qozonadi, kattaga uka, kichikka aka bo‘lib oladi, buni ko‘rgan Mirsalim bir jihatdan hasad qiladi, ikkinchi jihatdan unga o‘zini yana ham yaqin oladi.

Adabiyotshunos olim, akademik Izzat Sulton “Men endi adabiyotimiz uchun muhim bo‘lgan bir masalaga diqqatingizni tortishni lozim topaman,-deydi f.f.doktori N. Rahimjonov bilan bo‘lgan suhbatida. - Bu masalaning biri hayotni adabiyotda qanday tasvirlash masalasi. Shuni

doim esda tutish kerakki, adabiyot hayotning fotonusxasi emas. Adabiyot badiiy obrazlar olami, “ikkinchi voqelik” ya’ni yozuvchining hayot haqidagi tasavvurining aksidir. Bu hayotning badiiy tasviri. Hayotga ham o‘xshashi, ham o‘xshamasligi kerak, degan so‘z. Yozuvchi hayotdan uzilmagan holda “uzoqlashishi” shart. Bu uzoqlashish hayotning mohiyatini ochib berishga xizmat etadi. Aslini olganda, bu uzoqlashish hayotga chuqurroq kirib borish demakdir”[Султон,.Раҳимжонов:1999:19].

Darhaqiqat “O‘tkan kunlar” romanida ham xuddi shunday holatga duch kelamiz. Salim sharbatdorning o‘g‘li Komilbek Kumush bilan nikohi bo‘ladigan kun Homid tomonidan o‘ldirganligini gumon qilgan usta Farfi usta Umarbekdan eshitgan siri haqida Olim va Otabekka gapirib beradi. O‘zining aybsiz dor ostiga keltirganligi va qayinotasi tomonidan besabab quvilgani sababini tushungan Otabek shundan so‘ng Homid kirdikorlarini ochishga jazm qiladi. Kumushga bir necha marta sovchi qo‘yib unga yetisha olmagan Homid endi yana bir qabih reja tuzib, uni o‘g‘irlash va kechasi shahardan chiqarib yuborish maslahatini Sodiq va Mutal bilan tuzadi. O‘z shaxsiy manfati yo‘lida har qanday pastkash yo‘ldan toymaydigan, ya’ni tuhmat qilish, hiylalariga chuv tushirish, hattoki odam o‘ldirish borib yetgan Homid oxir oqibatda Otabek tomonidan fosh etiladi.

“Sarob” romanida esa Saidiy shaxsiyatida xudbinlikning tug‘ilishi, uning xarakteridagi ikkilanishlar va nihoyat millatchilar tomoniga o‘tib olishi ajoyib dalillar bilan ko‘rsatilgan. Yozuvchi o‘z mahoratini, butun kuch-quvvatini Saidiy xarakteridagi mana shu etaplarni ko‘rsatishga sarf qilgan. Xudbinlik, o‘zining alohidaligiga, favquloddaligiga ishonish, o‘zining dohiy, boshqalarni omi hisoblash, o‘z shaxsiga mahliyo bo‘lib, butun olamni shunga moslashtirishga intilish Saidiyda yana bir xavfli kasallik-shuhratparastlikni avj oldiradi. Abdulla Qahhor Saidiydagi bu illat qanday kurtak yoza boshlaganini hayotiy detallarda, psixologik jihatdan asosli lavhalarda tasvirlaydi. Xudbinlik Saidiyga o‘qishda ham, do‘stlariga ham, atrofidagi hayotga ham loqaylik bilan qarash hissini tug‘diradi va uni hayotda katta maqsaddan, oliyjanob ezgu niyatdan mahrum qilib qo‘yadi. Yozuvchi roman oxirida Saidiyning o‘z-o‘zini o‘ldirishni, ya’ni jismoniy halokatini ko‘rsatadi, biroq undan avval roman voqealarining rivoji davomida uning allaqachonlar ma’naviy halok bo‘lganini chiroyli tasvirlab beradi.

“Oltin zanglamas” romanidagi Mirsalimda ham Xomid va Saidiy kabi xudbinlik, ko‘rolmaslik kuchli bo‘lib, u butun hiyla-makrini ishga solib soddadil Sodiqni laqillatadi. Jannatning tug‘masligi unga qo‘l keladi,

qisqasi uni Jannatdan sovutib, Musharraf ismli boshqa ayolga ro‘para qiladi. Egri yo‘llar orqali kun ko‘rishga odatlangan Mirsalim Sodiq ta’qibiga uchragandan keyin ham ana shunaqa yo‘l axtaradi va nihoyatda qabih ishga qo‘l uradi. Sodiqdan dakki yegan g‘alamislarni atrofiga to‘plab, uning ustidan ig‘vo tarqatadi, o‘sha yillardagi murakkab vaziyatdan foydalanib qoladi. Sodiqqa “xalq dushmani” yorlig‘ini yopishtirishga, uni asossiz qamashga muvofiq bo‘ladi. Sodiqni qamatib, o‘rniga maktab direktori bo‘lib olgach, maktabda o‘z rejimini o‘rnatadi. Shuhrat bosh qahramon Sodiq taqdiriga aloqador yangi konfliktlar tasviri bilan birga parallel ravishda Mirsalim taqdirini ham hikoya qilib boradi. Mirsalim uchun ham yangi ziddiyat maydonlarini belgilab oladi. Sodiqning ukasi Qodir va uning seviklisi, o‘z qizi Azizani ayirish uchun, bir-biridan judo etishga, Qodirni oradan yo‘q qilishga ko‘p urinadi, ig‘vo, fisqu fasodlar tarqatib Qodir boshiga og‘ir savdolar soladi, lekin u baribir ojiz qoladi, muhabbat qabihlik ustidan g‘olib keladi. Mirsalim esa o‘z qilgan xato gunohlarining qurboni bo‘ladi.

Demak, yuqoridagilardan ham ko‘rinib turibdiki, yozuvchilarimiz o‘z romanlaridagi qahramonlarning xudbin qiyofalarini bir necha ko‘rinishda: ko‘rolmaslik, hasad qilish oqibatida, tuhmat qilish, soxta xatlar uyushtirib dor tagiga keltirish yoki qamatish tarzda namoyon etishgan. Shu bilan birga bu xudbin kimsalarning o‘zlari qazigan go‘rga o‘zlari yiqilganlarini adiblar romanda ishonarli badiiy tasvirlab berishga erishishgan. Natijada, romanlarda qahramonlarning o‘sha damdagi dramatik holati, ruhiy kechinmalari haqqoniy va ta’sirchan qilib ko‘rsatilgan va adiblarimiz bunda ularning badiiy ifodasiga, qalb dramasi tasviriga, psixologik tahliliga ham alohida e’tibor berishgan, bu esa yozuvchilarimizning yuksak badiiy mahorati egasi bo‘lganliklarini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Soatova N. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida epik tasvir an’analari. –Filol.f.n.disser. – Toshkent, 2001.

2. Soatova N. XX asr o‘zbek adabiyoti taraqqiyotida Shuhrat ijodining o‘rni: Filol.f.d.disser. – Buxoro / 2023 Sharafiddinov O. Abdulla Qahhor. Esse. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1986.

3. Shuhrat. Oltin zanglamas. – Toshkent: Sharq, 1995 / Qayta tug‘ilish arafasi. (I.Sulton va N.Rahimjonov suhbati) // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati, 1999, 19 mart

4. Qahhor A. Asarlar. Sarob. 5 jildlik. 1 jild. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1987.

5. Qodiriy A. Tanlangan asarlar. O‘tkan kunlar. – Toshkent: Sharq, 2014.

HIKOYADA SHAKL VA MAZMUN BIRLIGI MASALASI (Qo‘chqor Norqobilning “Qishdagi lola” hikoyasi misolida)

Qahhorjon Yo‘lchiyev,
Farg‘ona davlat universiteti
dotsenti,filologiya fanlari doktori
tel: 998905806802

Annotatsiya: Maqolada iste’dodli yozuvchi Q.Norqobilning bir hikoyasi adabiyotshunoslikning doimiy masalasi bo‘lgan shakl va mazmun birligi nuqtai nazardan tahlil qilingan. Unda shaklning kompozitsiya, janr kabi, mazmunning esa badiiy g‘oya, epik kechinma, mavzu, muammo kabi komponentlarining uyg‘unligi hikoya badiiyatini ta’mingani ilmiy asoslangan.

Kalit so‘z va iboralar: hikoya, janr, kompozitsiya, mavzu, muammo, kechinma, portret, peyzaj, shakl va mazmun birligi,

Abstract: This article analyzes a short story by the talented writer Kuchkor Norkobil, focusing on the enduring literary-critical issue of the unity of form and content. It scientifically demonstrates how the harmonious interplay of formal components such as composition and genre and content elements including artistic ideas, narrative development, themes, and issues contributes to the artistic integrity of the story.

Keywords and phrases: short story, genre, composition, theme, issue, development, portrait, landscape, unity of form and content.

Zamonaviy o‘zbek hikoyachiligida iste’dodli yozuvchi Qo‘chor Norqilning alohida o‘rno bor. Uning “Qishdagi lola” nomli hikoyasida badiiy shakl va mazmun birligi muammosi o‘ziga xos tarzda hal etilgan. Biroq asar yetarli darajada tadqiq etilmagan [Q.Norqobilov, 2011. 606-617] . Zero, “Shakl narsaning biz bevosita ko‘rib turgan, his qilayotgan tomoni bo‘lsa, ayni shu shakl bizga o‘sha narsaning nima ekanligini — mazmun-mohiyatini anglatadi. Masalan, qarshimizda stul turgan bo‘lsa, biz uning shaklini ko‘rib “stul”, ya’ni, “o‘tirish uchun mo’ljallangan moslama” deb aytamiz. Stulga xos bo‘lgan tashqi ko‘rinish uning shakli bo‘lsa, mazmuni shu shakl ifodalayotgan “o‘tirish uchun mo‘ljallangan moslama” ekanligidir” [Quronov, 2007, 87]. Yuqoridagi fikrdan kelib chiqib aytish kerakki, shakl va mazmun birligini yuzaga keltiruvchi

tarkibiy qismlar ham bor.

Aslida shakl uzoq vaqt saqlanadigan hodisa sanaladi. Mazmun esa bir shaklning bir nechta ko‘rinishida o‘zgarib boradi. Masalan, hikoya janri shakl sifatida turli ijodkorlarda ijodida o‘z xususiyatlarini saqlab qoladi. Biroq ulardagi mazvu, muammo, an’ana, g‘oya turlicha bo‘lishi mumkin. Lekin bu bilan shakl yetakchi mazmun ikkilamchi degan fikrga bormaslik lozim. Mazmun shaklni, shakl esa mazmunni taqazo etadi. Bu ikki tushuncha falsafiy kategoriya sanalib, bir-birisiz mavjud bo‘lmaydi. Buni hikoyadagi syujet tahlili misolida aniqlash mumkin. Hikoya quyidagi ekspozitsiya bilan boshlanadi: “Derazaning bir qanotini ochib, to‘rtinchi qavatdan tashqariga qaradim. Uh, sovuq. Qahratonning qahri yumshamagan. Kechasi qatronday qotgan yo‘lak va keng ko‘cha, dov-daraxtlar – butun borliq ayozga taslim bo‘lgan. Qor desam qorga o‘xshamaydi, nimadir chirsillab yog‘yapti. Deraza oynalariga charsillab urilyapti. Tosh yomg‘ir sim-simlab, shig‘alab, yoqimli yog‘yapti. Ha, bu – toshyomg‘ir. Qor va yomg‘ir orasidagi qahru azob bu”[Q.Norqobil. 2011. 606]. Ekspozitsiyadan betaraf epik tasvir, biroz bag‘rikenglikni sezish mumkin. Keyingi tasvirda esa roviyning shamsiya tutmasligi va agar tutsa, yuragi siqilishi, bozordagi salat sotuvchi ayol esa unga va bosh kiyimiga achinishi haqida ma’lumot beriladi. Bir qarashda nima haqda so‘z borishi, nimalar gapirib berilishi ham aniq bo‘lmagan ushbu bayonlarda hikoya qahramoning xarakteri, u yashaydigan shahar va tabiat, zamon va makon haqida qisman xabar beriladi. Natijada o‘quvchi hikoya qahramoni haqida ma’lum tasavvur va tushunchga ega bo‘ladi. Asar shakliga xos bu bayonlar keyinchalik asar mazmunidagi mavzu, g‘oya, muammolarga bog‘lanishi tabiiy.

Hikoyada Moskvada yashovchi yirik savdo tarmoqlarining ega bo‘lgan Irina Mixaylovna va Toshkentlik yozuvchi Tohir (Tolik)ning 2003 yil 16 fevral kungi uchrasguvi, restorandagi suhbat va mehmonxona fiyesidagi xayrlashuv hamda amalga oshmagan uchrashuv haqida rivoy qilinadi. Bir qarashda tasodif tufayli uchrashgan ikki odamning bu kabi syujetlar qurshovida berilishi odatiy holdek tuyuladi. Biroq, roviy ta’kidlaganidek, Irinani Toshkentga olib kelgan narsa o‘n olti yil avval, aniqrog‘i, 1987 yil Fayzoboddaga afg‘on urushu davrida Tohirning ko‘rsatgan mardligi edi.

Hikoyada yozuvchi Toshkentning qahraton qishini tasvirlar ekan, sovuqda yurgan personajning bundan o‘n olti yil avval ko‘rsatgan ma’naviy jasorati, insonparvarligi bugungi kunda ham London, Moskva va Toshketn shaharlaridagi odamlarning qalbini ilitib turganini, dunyoga

insonparvarlik kuchini ko‘rsatib qo‘ygan. Hikoya guyo sovuq va issiq, yaxshi va yomon kabi ikki qutbli tushunchalar qurshovidagi shaxslarning real taqdiri haqida so‘z boradi. Garchi ulat shtrixlar, garchi ular turli yillardagi voqealarning uzuq-yuluq parchalaridagi taassurot qoldirsa-da, ular ortida umri Afg‘onistondagi urush bilan bevosita bog‘langan xotiradoshlar, qismatdoshlar hamda ularning rhiy dunyosida davom etayoygan fojea real hayotdan butunlay mustaqil ravishda yashyotganiga guvoh bo‘lamiz. Hikoyda sovuq qish kunlarida Tohir ishga nisbatan kechroq keladi. Kelgan zahoti kotiba uni kinoya bilan kutib oladi. So‘ngra bir rus ayoli telefonda kechadan beri so‘rayotganini aytadi. Telefonni ming hayrat va ikkilanish bilan olgan qahramonimiz, Tolik, men Irinaman, nihoyat, seni topdim, Moskvadan keldim, sening oldingga, pastga tush, degani unga boshqacha ta’sir qiladi. Hozir ham ayol foyeda uni kutayotganini aytadi. Tohir qish bo‘lishiga qaramasdan, palmtosini kiymasdan pastga tushadi. Foyeda esa uni bir ayol kutardi: “Mirshab ro‘parasidagi ayolga ko‘zim tushdi. Egnidagi mo‘ynayoqali paltosining bari yerga tegay-tegay deb turibdi. Boshiga qimmatbaho oq sur telpak kiyib, bo‘yniga yashil sharf tashlab olgan. Mirshab ayolga allanimalarni deb, men tomonga qo‘l cho‘zib imladi. Lahzada baland bo‘yli ayolning o‘ziga yarashiqli ust-boshi, qaddi-bastini ko‘zdan o‘zkazdim. U menga ilkis qaradi. Ko‘nglimda g‘ashlik aralash qiziqish uyg‘ondi. Oynvabd eshikka yaqinlashdim. U menga kimnidir eslatardi. [607]” Muallif mazkur parchada portret usuli orqali go‘zal va badavlat rus ayolini tasvirlaydi. Lekin uning tashrifdan maqsadi, Tohirning unga munosabatianiq emas. Ana shu narsa o‘quvchiga ham qiziq. Chunki muallif o‘zi e’tirof etganidek, yuragida g‘ashlik aralash qiziqish bor. Hikoyanining keyingi qismida biz ayolning portreti yanada ta’sirli etib chiziladiki, u o‘quvchiga yanada kuchli ta’sir o‘tkazadi: “Ko‘zlari kata-katta. Tim qora. Yoniq. Porlab turibdi. Chehrasi tip-tiniq. Qora, qalin qoshlari yoyday egilgan. Qirraburni yuziga mos, qalin lablariga xiyol tabassum ingan. Oq sur telpagi ostidan chiqib turgan bir tutam sochi silliq manglayini to‘sgan, shundan bo‘lsa kerak, ko‘zlari yanada charaqlab boqayotganga o‘xshaydi.Chehrasiga nurli tabassum yoyilgan bu ayolni ksvkazkiklarning go‘zal vakilasiga o‘xshatish mumkin edi. Ayolga mahliyo bo‘lib qarab turaverdim”[607].

Yozuvchi asarga portretga xos elementlarni juda ustalik bilan qo‘shganki, uning shakli mazmunga juda mos tushgan. Gap qurilishi ham parchadagi qahramonning ichki olami, ruhiy titrog‘I va hayratiga muvofiq ravishda tuzilgan. Deyarli ha bir ibora, so‘z alohida gap sifatida berilga, Bu

bir tomondan hikoyadagi fikr va his-tuyg‘uning qahramonga ta’siri bo‘lsa. Ikkinchi tomondan rasvirlanayotgan ayolning tom ma’nodagi go‘zallik ega ekanligini bildiradi. Uchinidan shunday go‘zal va iqtisodda anchayin qudratli ayolning oddiy yozuvchining oldiga shunchaki kelmaganini ham bildiradi. Asardagi voqealar tuguni, jumboq yanada qiziqarli tus oladi.

Ayolning portretini so‘z yordamida tasvirlar ekan, uning qoracgiqlarida allaqanday sirli armon va qahramonni o‘ziga tortuvchi kuch borligi e’tirof etiladi.Ekspozitsiyadagi tabiatning sovuqligi, bosh qahramonning shamsiya olib yurnrmasligi, kutilmaganda ma’lum ayol unga telefon qilishi hamda ayolning ko‘zidagi sirli jumboq barchasi asar mazmunida birlashib, o‘quvchiga ta’sir qiladi. Uning hikoyaga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi.

– Ana shunaqa!... Men esa seni unutmadim. – Ayol o‘ vazmin, ozgina gina- kudrat ohaggida so‘z qotdim. Ammo yuzidagi tabassum so‘lish olgani yo‘q. – Ha, mayli, eslab ko‘r… 1987 yil. Yoz. Fayzobod. Irina Mixaylovna. Endi yodingga tushgandir? ... [608]. Shu yerda voqealar rivojidagi ba’zi jumboqlarga, personajlarning g‘ayritabiiy holatlariga oydinlik kirgandek bo‘ladi. Hikoya kompozitsiyasida keltirilgan turli qismlarning vazifasiga oydinliklik kititadi. Buni personajning quyidagi iqrori ham isbotlaydi: “Miyamga chaqmoq urganday bo‘ldi. Chayqalib ketdim. Ichimda nimadir uzildi, go‘yo. Beixtioyr ixrab yubordim. Tizzalarim qaltirab, madorsizlandim. Qarshimdagi suluv hilqat, o‘sha – bundan o‘n olti yil avvalgi Irina Mixaylovna ekanligini hanuz tasavvurimga sig‘dirolmay gangib turardim. Tuyqus, oniy bir qudrat ko‘magida tasavvurimda o‘n olti yil avvalgi Irina gavdalandi. Ha, bu osha. Tim qora ko‘zlarida sehrli bir ma’no. Chehrasining charog‘onligi, qarashlari, kulgilari o‘sha-o‘sha. Biroz to‘lishibdi, chiroyi yanada ochilibdi. Ko‘rinishi anchagina salobatli. Ustidagi qimmatbaho kiyim boshlar yanada jozibali ko‘rsatib turibdi”.[608] Mazkur ruhy holat asarning umumiy qurilishida alohida o‘ringa ega. Chunki qachonlardir quroldosh sifatida jangga kirgan va urush dahshati ostida kun ko‘rgan ikki shaxs bir-birini o‘n olti yil o‘tgach qayta uchrashadi. Bu shunchaki uchrashuv emas, balki ayolning bosh qahramonga mehri-muhabbati, uning jasoratiga, ma’naviy qudratiga bo‘lgan ishonchi edi. Kundalik hayotda shaxsiy-maishiy hayotning turli muammolari bilan yashayotgan odamla ruchun urush va uning asoratlarini yeklasida ko‘tarib, qushdek yengil yurgan odamni ko‘rish, tushunish u qadar oson emas. Lekin urush, qabohat, qonli jasad, odamlar ko‘zidagi qayg‘u hamda o‘lim sharpasini his

etib yashganlar ongida u kundalik yumushdek har kuni o‘zini eslatib turuvchi dahshatning o‘zginasidir.

Qo‘chqor Norqobil hikoyada besamar urush va uning dunyo xalqlari taqdiridagi o‘rnini tasvirlar ekan, avvalo, tinchlikning ahamiyati, insonlar qanday bo‘lishi yoki qayerda yashashidan qan’iy nazar baxtli yashashga haqlari borligi, yashashning o‘zi ulkan baxt degan g‘oyalarni ilgari suradi. Aynan shu g‘oyalar real hayotiy mavzu asosida ishonarli tasirlangan. Urusning fojeaviy tasvirini berishda yozuvchi xarakter va voqealar oqimidan kelich chiqib shakllantiradi. Natijada hikoyaning shakl va mazmun birligida badiiy yetuklik namoyon bo‘ladi. Irina Mixaylovna ham, Tohir ham o‘z xarakterida urush odamlari ekanligi, urush odamlari esa hayotning qadriga yetish, tiriklikni asrab-avaylash, odamlarga mehr ulashish, tinchlikni asrash kabi masalalarda ulaning o‘z qarashlari mavjud.

Xullas, biz tahlilga olgan hikoyada shakl va mazmun birligini nisbatan yaxshi, hikoya janr talablariga javob beradi, asar kompozitsiyasi ham o‘ziga xos, mazmundagi g‘oya va ko‘tarilgan muammolar ham dolzarb hisoblanadi. Bu esa Qo‘chqor Norqobil iste’dodli yozuvchi ekanligini isbotlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Fan, 2007. 224 b.

2. Қўчқор Норқобил. Қишдаги лола. / XX аср ўзбек ҳикояси антологияси. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энцеклопедияси, – 2009. – Б. 606-617.

SHOIR G‘ALADONIDA QOLIB KETGAN “QUYOSH SOATI”NING QO‘LYOZMALARI HAQIDA

Marhabo Qo‘chqorova Xudoyberganovna,
filologiya fanlari doktori, professor
O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti
yetakchi ilmiy xodimi

Annotatsiya: O‘zbekiston xalq shoiri Omon Matjon xalqimiz orasida o‘zining muhabbat mavzusida yozilgan yuzlab o‘tli satrlari bilan mashhur. Ijodkor insoniy tuyg‘ulardan biri muhabbatni, sevgi izhorini nihoyatda ta’sirchan va obrazli qilib she’rga solganki, xalq uni muhabbat kuychisi o‘laroq o‘zining milliy shoiri sifatida tan olган. Mazkur maqolada O‘zbekiston xalq shoiri Omon Matjonning shaxsiy arxivida saqlanayotgan “Quyosh soati” nasriy sochmalrining qo‘lyozmalari nashr variant bilan

qiyoslanib, shoʻro senzurasi tufayli chop etilmay qolgan qismlari haqida yangi ilmiy maʼlumotlar taqdim etilgan.

Kalit soʻz: shoir arxivi, qoʻlyozma, nashr variant, davr senzurasi.

Annotation: The People's Poet of Uzbekistan, Omon Matjon, is famous among our people for his hundreds of passionate lines written on the theme of love. The creative person embodied one of the human feelings, love, and the expression of love in poetry in such a touching and figurative way that the people recognized him as their national poet as a singer of love. This article compares the manuscripts of the prose poems "Sun Hour" stored in the personal archive of the People's Poet of Uzbekistan, Omon Matjon, with the published version, and presents new scientific information about the parts that were not published due to Soviet censorship.

Key words: poet's archive, manuscript, edition version, censorship of the period.

Oʻzbekiston xalq shoiri Omon Matjon agar hayot boʻlganida, bu yil 14–fevral kuni 82 yoshga toʻlgan boʻlar edi. Shoir xalqimiz orasida oʻzining muhabbat mavzusida yozilgan yuzlab oʻtli satrlari bilan mashhur boʻldi. Uning soʻzlari bilan yozilgan koʻplab sheʼrlar taniqli hofizlar, sanʼatkorlar tomonidan qoʻshiq etib kuylandi. Natijada, Omon Matjonning sheʼr boʻlib yaralgan sanʼat asarlari endi qoʻshiq boʻlib, millionlab odamlarning qalbidan chuqur oʻrin oldi. Ijodkor insoniy tuygʻulardan biri MUHABBATni, SEVGI IZHORini nihoyatda taʼsirchan va obrazli qilib sheʼrga soldiki, xalq uni muhabbat kuychisi oʻlaroq oʻzining milliy shoiri sifatida tan oldi. Oshiqlar maʼshuqasiga Omon Matjonning sevgi satrlarini sevgi izhori oʻlaroq taqdim etgani ham bor gap!!

Shoirning vafotidan soʻng, uning oʻgʻli Diyor Matjonov ruxsati bilan Omon Matjonning shaxsiy arxividagi qoʻlyozmalar, qoralamalar, xatlar, telegrammalar, ijodiy rejalari yozilgan umumiy daftarlari, shaxsiy kutubxonasidagi kitoblari, hujjatlari bilan tanishish baxtiga muyassar boʻldik.

Shogirdim Jizzax davlat pedagogika universiteti tayanch–doktaranti Shohista Ahmedova Omon Matjonga tegishli barcha hujjatlarni oʻrganish jarayonida shoir shaxsiy arxivida saqlanib qolgan “Haqqush qichqirigʻi”, “Quyosh soati”, “Ming bir yogʻdu”, “Gaplashadigan vaqtlar”, lirik sheʼrlar va badia asarlarining qoʻlyozmalari borligini aniqladi va u “Omon Matjon ijodiy laboratoriyasini oʻrganish muammolari” nomli dissertatsiya ishini yozib tugalladi. Shu qoʻlyozmalar orasidan “Quyosh soati” nasriy

sochmalarining ikki qo‘lyozma nusxasiga to‘xatalamiz. Bilamizki, Omon Matjonning “Quyosh soati” nasriy sochmalar kitobi 1974–yilda chop etilgan. Kitob bor–yo‘g‘i 30 sahifadan tashkil topgan. Ammo qo‘lyozma nusxa nashr variantga nisbatan ancha katta. Masalan, birinchi qo‘lyozma variant jami 85 sahifadan iborat bo‘lib, sarg‘ayib ketgan A4 formatli qog‘ozga pechatlangan. Qo‘lyozmalar sarg‘ayib ketgan papkalarga solingan. Omon Matjon kitob janrini “miniatyuralar” deb belgilagan. Ikkinchi qo‘lyozma[Matjon, 1970; 3] jami 47 sahifadan iborat, A4 formatli sarg‘aygan qog‘ozda bo‘lib, mashinkada pechatlangan.

Har ikki qo‘lyozmada shoirning dastxati bilan amalga oshirilgan tuzatishlar, o‘chirib tashlangan parchalar, tahrir jarayonlari saqlanib qolgan. Bu tuzatish va tahrirlar ba’zi sahifalarda ruchkada, ba’zi sahifalarda qalam bilan amalga oshirilgan. Kitob qo‘lyozmasi 1970–yilda tartib berilgan. Demak, bu kitob yozilib, tayyorlangach, salkam uch yildan so‘ng o‘quvchilar qo‘liga yetib borgan.

Bu faktlar qo‘lyozmalarning ko‘rinishi, shakli saqlanishi haqida muhim ma’lumotlardir. Ammo qo‘lyozmalarda adib dastxati bilan tahrirlanib, dunyo yuzini ko‘rmay qolgan kitobning kattagina qismi g‘aladonda qolib ketgan satrlar bizni qiziqtirdi. Kitob nomi “Quyosh soati” deb nomlangan. Aynan shu nom bilan bog‘liq holda hikmatomuz tarzda yozilgan quyidagi nasriy sochma nashr variantda shafqatsizlarcha tahrirlanib kiritilgan. Bu nasriy sochmaning qo‘lyozma shaklidagi variantini o‘qib ko‘ramiz:

“Tabiat ODAMni yaratganini maqtab yurmaydi.

Tabiat okeanga ulkan kosa, fasllarga rang, yerga muvozanat, insonga til berib qo‘yipti. Lekin o‘ziga til olishni... Gapirmaydi.

Tabiatda na lavozim, na dohiylar, na piyodalar bor. Unda faqat bir–birovni tan olish, taqoza etish, qo‘llash urfi hokim. Bu – uning yashash qonuni...

ODAM ... o‘tqazgan bir tup niholini umri bo‘yi gapirib yuradi. Odamlar bir–biriga biz unday qiluvdik, biz bunday qiluvdik, shundan bo‘yi hamma narsa mana bunday, deb yurishadi.

O‘zini Yerning darg‘asi deb e’lon qilgan ey inson! O‘zingga QUYOSH SOATI yasab ol! Unda o‘z ahvolingni belgilab ol, keyin yo‘lga tush. Lekin quyoshga ko‘p yaqinlashaverma! Uning ishiga halaqit berasan!

Yaxshisi o‘zingga QUYOSH SOATI yasab ol!

Butun olamni yurgizib turgan Murabbiyning sirli bir soati borligiga ishonaman.

Men bu soatning qanday bo‘lishini bilmayman.

Balki uni yasash emas, uqib olish kerakdir!”[Matjon, 1970].

Shoir inson va uning hayotiga kinoyaomuz nigoh tashlar ekan, Olloh va uning yaratig‘i Odam hayotini tahlil etadi. Ammo ijodkor nasriy sochmaning biror o‘rnida “Olloh” degan so‘zni ishlatmaydi. Boshida “Tabiat”, oxirrog‘ida “Murabbiy” deydi. Ijodkor ushbu nasriy sochmada Ollohning buyukligi, yaratuvchanligi, karami kengligi va Insonning esa fe’li torligi, ojizligi, bandaligi, minnatchiligiga urg‘u beradi. Olloh va Insonning ojizligi haqidagi bunday falsafiy satrlar ateizmga asoslangan sovet hukumatiga yot tushuncha edi. Shuning uchun ham “Quyosh soati” nasriy sochmalaridan o‘rin olgan jamiyat va insoniyatga tanqidiy, badiiy–falsafiy obrazli tafakkur mushohadasi bilan yozilgan bunday satrlar qirqib olib tashlangan. Bu parcha kitobning nashr variantida 26–sahifada nihoyatda qattiq tahrirlanib, qaychilanib, oddiygina, anchayin ma’nosiz shaklda berilgan. Ya’ni quyidagicha: *“Tabiat okeanlarga ulkan kosa, fasllarga rang, yerga muvozanat, insonga aql–idrok ato etgan. Na urush, na talash, na boshqa ro‘yi siyohlikni ravo ko‘rmaydi u hech kimga!*

–O‘zini Yerning dag‘dag‘asi deb e’lon qilgan ey, Inson! O‘zingga quyosh soati yasab ol! Shunga qarab ish tutishni o‘rgan! Butun olamni yurgizib turgan Murabbiy Quyoshning sirli bir soati borligiga ishonaman! ” [Matjon, 1970]

Asosan, Olloh va Murrabiy ma’nosini tashigan obrazli aforistik badiiy talqinlar tahrirlangani ayon bo‘ldi.

“Quyosh soati” qo‘lyozmasi sahifalarida qolib ketgan quyidagi afsonani o‘qib ko‘ramiz:

“Ruh qabriston yonidagi yo‘lga sirg‘alib chiqdi. Shoshilib ketayotgan bir yo‘lovchining ko‘ziga “tanishi” bo‘lib, yo‘lini to‘sdi:

– Hoy, to‘xta, bir gap bor!

Yo‘lovchi bir qarab qo‘ydi–yu to‘xtashni xayoliga ham keltirmadi:

– E bor–e, yo‘ldan qo‘yma! Mamarayimga bir ko‘rsatib qo‘yay, meniki to‘g‘rimikin yo uniki! Kallani ishlatish kerak, kallani...

Ruh indamadi. Asta o‘z qabriga, suyaklari orasiga kirib yotdi. Ko‘zlarini yumayotib “Tuzuk, odamlar o‘z fikri, o‘z g‘oyalari uchun kurashayotgan ekanlar!” deb qo‘ydi.

Ruhlarni sukunat uyg‘otadi. Sukunat ruhlar tug‘yoni.

Bir yilmi, bir asrmi o‘tib, ruh yana uyg‘ondi. Yo‘lga chiqdi. Hech kim yo‘q. Uzoqdan kimdir ko‘ringanday bo‘ldi. U yuriptimi, bir joyni bosqilab turiptimi, bilib bo‘lmasdi. Ruh uning qarshisida paydo bo‘ldi – yo‘lovchi o‘z “tanishi”ga qaragisi ham kelmadi.

– Hoy, menga qara!

Jimlik.

– Menga qara deyapman, hoy!

Yo‘lovchi pinagini ham buzmadi. Faqat, “Nega baqirasan?” deganday beparvogina bir qarab qo‘ydi.

– Hoy qayoqqa ketyapsan...

Yo‘lovchi loqayd edi. Javob beradimi yo‘qmi – noma’lum, faqat lablarining qayeridir qimirlaganday bo‘ldi, xolos.

– Hoy, qayoqqa ketyapsan axir?!

Yo‘lovchi ag‘rayib turar, og‘zini ochishga ham tobi yo‘q, goh–goh birmi yarim odim otib qo‘yardi. Kallasiga esa “Tavba, kim bilan kimning ishi bor...” deganday yalqov bir fikr kelib–ketib turardi.

– Uyg‘on! Uyg‘on... Uyg‘on...

... Ruh larzaga keldi. U dahshatli hayqiriq, ayanchli faryod sola qabriston sari uchdi:

– O‘liklar! Turaveringlar! Qo‘zg‘oling! Yerning yuzida ham tiriklar qolmabdi” [Matjon, 1970].

Yuqoridagi afsona “Quyosh soati”ning nashr variantida uchramaydi. Ammo qo‘lyozmada saqlanib qolgan. Omon Matjon o‘tgan asrning 70–yilllarida turib, sovet jamiyatining “o‘lik saltanat” yaratishga urinishini to‘g‘ri baholagan ekan. Zero, afsona mohiyatida yashirin g‘oya shunday deyishimizga asos beradi. Yozma adabiyotda afsonalar doimo yashirin badiiy niyatni ifodalash uchun muhim shartli vosita bo‘lib xizmat qilib keladi. Qolaversa, afsonalar mavjud jamiyat hayotiga ramzli ishoralar, metaforalardir. Afsonadagi Ruh va Yo‘lovchi obrazlari orqali Omon Matjon fikrlayotgan va fikrlamayotgan, loqayd, befarq odam obraziga kitobxon diqqatini qaratadi. Nazarimizda, mazkur afsona mohiyati fikrsiz, qullik psixologiyasiga tushib qolgan Sovet hukumatining qolipdagi sovet kishisi yaratiqlariga ramziy ishora edi. Ruh ilk bor qabridan chiqib, Yo‘lovchining “*– E bor–e, yo‘ldan qo‘yma! Mamarayimga bir ko‘rsatib qo‘yay, meniki to‘g‘rimikin yo uniki! Kallani ishlatish kerak, kallani...*” – degan javobidan so‘ng, u qabristonga qaytib kelib, yana qaytadan tobutiga kirib yotadi. Necha yuz yillar o‘tib, yana Ruh tobutidan chiqib, Yo‘lovchiga ikkinchi marta gap tashlaganida, u umuman javob qaytarmaydi. Eshitib, eshitmaganga oladi. Ana shunda Ruh tiriklar saltanatida fikrlaydigan odamning o‘zi qolmabdi, degan xulosaga kelib, qabristonga qaytib kelib, barcha o‘liklarni qabringizdan chiqing, Tiriklar saltanatini ham egallaymiz, deb xitob qiladi. Bunday isyonkor fikrni o‘zida ifodalagan afsona sovet adabiyoti uchun yot tushuncha edi. Dushman fikr

edi. Shuning uchun ham bu afsona to‘liq shaklda “Quyosh soati”ning nashr variantidan olib tashlangan. Quyidagi nasriy parcha ham sovet hukumati siyosatiga nisbatan turgan–bitgani tavqi la’nat edi: *“Millat xissi bo‘lmagan joyda haqiqiy vatanparvarlik tuyg‘ulari bo‘lmaydi. Ya’ni, mayda qavmlar o‘rtasida bo‘lib turgan nizolar yuksak e’tiqodlarni himoya qiladi deyish qiyin.”* Milliy qiyofasizlik, shaxssizlik ijtimoiy illatlarini bolalatgan hukumat uchun bunday aqlli gaplar, tabiiyki, dushmanchilik kayfiyatida yozilgan satrlar bo‘lib tuyulishi aniq. Millatparvarlik alqangan bunday hikmatomuz satrlar “Quyosh soati”ning sahifalaridan yulib olingan.

Nasriy sochmalarda ijodkorning olam va odam, jamiyat va shaxs, adabiyot va ijodkor, iste’dod va iste’dodsizlik haqida nihoyatda siqiq, obrazli assotsiativ fikrlar uchraydiki, ularning har biri Omon Matjonning keyingi bosqichdagi ijodiga xom–ashyo, ilk ijodiy shtrixlar bo‘lganini anglash qiyin emas. Jumladan, “Quyosh soati”dagi kichik parchalar, satrlar keyinchalik “Haqqush qichqirig‘i”, “Gaplashadigan vaqtlar”, “Ming bir yog‘du”, “Beruniy”, “Najmiddin Kubro” kabi katta polotnodagi asarlar uchun xomaki chizgilar vazifasini o‘tagan.

Quyidagi satrlarda ijodkorning adabiyot haqidagi haqqoniy falsafiy fikrlari aks etgan: *“Havaskor qalamkash balki qamrovi ko‘plar hamda... o‘zida Kolumb ko‘radi. Lekin kashfiyotining ahamiyatini emas... ranggini o‘ylaydi.*

O‘z ovozim bu... deb o‘ylaydi.

– Adabiyot tur–turfa ovozlar yig‘indisi emas... adabiyot ulug‘vor bir simfoniya! Uni anglash ulug‘ ruh...” Mazkur parcha nashr variantda uchramaydi. Ba’zi nasriy sochmalar tahrirlanib, sovet mafkurasiga moslashtirilganini ham aniqladik. Masalan, birinchi qo‘lyozma varinatda: *“Kimlardir quyoshga, kimlardir olovga, kimlardir sigirga, kimlardir osmonga sig‘inib yashashadi.*

... Kimlardir taxtaga mixlangan, qo‘li–oyog‘i bog‘liq bir odamga topinadi...”. Mazkur parcha nashr variantda quyidagicha tuzatilib, sovet mafkurasiga moslashtirilib kitobxonga taqdim etilgan: *“Kimlardir quyoshda, kimlardir sigirda, kimlardir olovda o‘z xudosini ko‘radi. Kimlardir qo‘li–oyog‘i mixlangan mahkum bir odamda...*

***Men erkin va muzaffar, o‘z baxtining bunyodkori bo‘lgan Insonga tiz cho‘kman*”.** Nashr variantda oxirgi jumla birinchi qo‘lyozma variantda uchramaydi. Shubhsiz, mana shu jumlaning orttirilish bilan “o‘z baxtining bunyodkori” bo‘lgan ishchi–dehqon, ya’ni proletar sinfi ulug‘lanyapti. Aynan mana shunday ijtimoiy–mafkuraviy shiorlar sovet hukumatiga xush

yoqar edi. Shu bois bunday zamonasoz, mafkuraboz satrlar davr siyosati tufayli Omon Matjonning nasriy sochmalariga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmay qo‘ymadi. Tahrirlanib, tuzatilgan bu variant ikkinchi qo‘lyozmada aynan shunday shaklda uchraydi.

Qo‘lyozma variantdagi quyidagi marsiya she’r ham nashr variantda uchramaydi:

“Bir “tirik shoir”ga marsiya:
U tog‘ Xayol bir ... edi.
Tez–tez boqar edi yo‘liga.
Bir kuni bir ko‘chki sezib,
Tesha oldi darhol qo‘liga...
O‘lmay qoldi – u shoir emas,
Tosh yo‘nuvchi chiqdi undan chin:
Endi uning “shoh asar”lari
Bezab turar shoirlar qabrin”[Matjon, 1974].

Omon Matjon tirik yurgan shoirga marsiya she’r bitar ekan, qizil imperiyaning ikki qatag‘on davrida iste’dodli safdoshlarining o‘limiga, qatl etilishiga sababchi bo‘lgan maddoh, sotqin shoir hayotiga tanqidiy–kinoyaomuz yondoshadi. Tabiiyki, bunday fosh etuvchi misralar “Quyosh soati” sahifalaridan zudlik bilan tag–tomiri bilan yo‘q qilinishi kerak edi. Shuning uchun, ijodkorning jamiyat, shaxs, adabiyot, san’at haqidagi ilg‘or fikrli badiiy falsafiy satrlari anchayin tahrirlanib, qaychilanib, davr senzurasidan chala tirik holda mo‘jazgina qismi chop etilishga muvaffaq bo‘lindi.

Nasriy sochmalar orasida quyidagi satrlarni adabiyotshunoslar va Omon Matjon ijodining ixlosmandlari bot–bot takrorlab yurishadi: *“Xorazmda tog‘lar yo‘q emas, bor:– Xorazm tog‘lari vohani tongda quyoshdan to‘sib qo‘ymaslik uchun odamlar qiyofasida yashashadi:*

– Xorazmiy, Beruniy, Pahlavon Mahmud, Ogahiy, Hojihon...”. Bu nasriy sochma nashr variantda shunday shaklda berilgan. Ammo ikkinchi qo‘lyozma variantda Omon Matjon dastxati bilan qora ruchka bilan tuzatish qilinib, Najmiddin Kubro familiyasi ham qo‘shilgan. Biroq, nashr variantda “Kubro” nomi uchramaydi. Chunki, avliyo va kubroviya tariqatining asoschisi bo‘lgan Najmiddin Kubro nomi sovet xalqiga tog‘ qiyofasida, ulkan shaxs sifatida taqdim etilishi mumkin emas edi. Shu bois Omon Matjonning tahririy tuzatishlari ham nashr variantda aks etmagan.

Xulosa qilib aytganda, *“adabiyotni ulug‘vor simfoniya”* deb ta’riflagan, butun umrini, ruhini adabiyotga, haqiqiy ijodga baxshida etgan O‘zbekiston xalq shoiri Omon Matjon shaxsiy arxivida saqlanib qolgan

“Quyosh soati” nasriy sochmalar kitobining yangi nashri mukammal holda bugungi Istiqlol davri zamondoshlarimizga to‘la holda yetkazish maqsadida ushbu kitobni qaytadan to‘ldirib (qo‘lyozma variantlar asosida), nashrga hozirlash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Matjon O. Quyosh soati. – Toshkent, 1974.
2. Shoir shaxsiy arxividagi “Quyosh soati”ning 1 qo‘lyozmasi. 85 sahifa (mashinkada pechatlangan).
3. Shoir shaxsiy arxividagi “Quyosh soati”ning 2 qo‘lyozmasi. 47 sahifa (mashinkada pechatlangan).

SIROJIDDIN SAYYID SHE’RIYATIDA NAVOIY OBRAZI TALQINI

Gulbahor Ashurova,
ToshDO‘TAU, *filologiya fanlari doktori*
Muhammad Fuzuliy nomidagi
ilmiy tadqiqot markazi rahbari
E-mail: gulbahora777@gmail.com
Tel: +998903464717

Annotatsiya. Mazkur ma’ruzada Navoiy obrazining badiiy talqini masalasi Sirojiddin Sayyid she’riyati misolida tadqiq etiladi. Shuningdek, mutafakkir shoir siymosining ijodkorlar uchun o‘ziga xosligi xususan, mustaqillik davri ijod namunalariga e’tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: Navoiy obrazi, Navoiy shaxsi va siymosi, Abdulla Oripov ijodi, Sirojiddin Sayyid she’riyati, mahorat, san’at, tafakkur, g‘oya, usul, o‘ziga xoslik.

Alisher Navoiyning benazir shaxsiyati ijodkor ahli uchun hamisha ibrat maktabi bo‘lgan. Hazrat Navoiy shaxsiyati har jihatdan nodir va benazir ekanligi bilan alohida ajralib turadi. Uning keng qamrovli ijtimoiy faoliyati, tengsiz ijodiy quvvatiga doir haqiqatlar hayotlik paytidayoq yozilgan tarixiy manbalarda muhrlanib qolgan. Ularda Navoiy dahosi, olijanob insoniy fazilatlari vasf etiladi. Ular bilan yaqindan tanishish natijasida Amir Navoiy ijodkor sifatida ham, tarixiy shaxs sifatida olamdagi barcha odamlarning ehtiromiga munosib va hakli, degan xulosaga kelingani kuzatiladi.

Mustaqillik davri o‘zbek she’riyatida Alisher Navoiy timsolining badiiy talqini haqida so‘z ketar ekan, bu davr she’riyati Oybek, G‘afur

G‘ulom, Maqsud Shayxzoda, Mirtemir, Hamid Olimjon singari zabardast ijodkorlar maktabidan o‘sib chiqqanligini ta’kidlash kerak.

Mamlakatimizda olib borilayotgan yangicha siyosat tufayli Alisher Navoiy siymosining adabiyot va san’atdagi ifodasi katta miqyoslarga ko‘tarilayotganligi ayni haqiqatdir. So‘z mulkining sohibqironi sifatida o‘z davridayoq yuksak e’tirof va e’tibor qozongan bobokalonimiz obrazining zamonaviy adabiyotimizdagi talqinlarini o‘rganish shu jihatdan ham dolzarbdir. Zero, ijodkorlarning bugungi avlodi buyuk mutafakkirni ma’naviy-axloqiy kamolotning cho‘qqisi sifatida e’tirof etadi. Turli janrlardagi asarlarida hazrat Alisher Navoiy obrazini o‘zga xos badiiy talqin etishga intilib keladi.

Albatta, o‘z asarlarida Alisher Navoiy siymosini yaratishga urinish ijod ahlining deyarli barchasi uchun xosdir. Ularning ayrimlari faqat bir asarini Navoiyga bag‘ishlagan bo‘lsa, ba’zi shoiru adiblar ijodida buyuk mutafakkir obrazi etakchi o‘rin tutadi. Ular orasida ixcham lirik lavhalar ham, yirik epik asarlar ham mavjud. Muhimi, bu asarlarning aksariyatida Alisher Navoiyning sermazmun hayoti hamda serqirra faoliyati butun rang-barangligi bilan namoyon bo‘lgan. Ularni o‘ziga xos navoiynomaning alohida-alohida sahifalari sifatida tasavvur etish mumkin.

Agar shoirlarning Navoiy haqidagi eng ixcham va jajji ta’riflari yig‘iladigan bo‘lsa, so‘zsiz, bu anjumanda Sirojiddin Sayyidning quyidagi misralari munosib joydan o‘rin olgan bo‘lar edi:

O‘zim tuproqmanu pirim – samoviy,
Mening dorulfununimdir Navoiy.

Alisher Navoiyning ustoz sifatida tilga olinishi ko‘plab ijodkorlarga xos. Bu borada mumtoz adabiyotimizda ham, zamonaviy adabiyotimizda ham misollar oz emas. Ammo, shunisi aniqki, ularni birortasida Sirojiddin Sayyiddagi ifoda uchramaydi. To‘g‘ri, Navoiyni pir deb atash bor, ammo pirning “samoviy”, ya’ni ilohiy fazilatlar egasi ekanligini alohida ta’kidlash mutlaqo yangidir.

Talabalar uchun atalgan “Mutolaa” she’riga Navoiy yosh avlod uchun hamma narsani bera olishi mumkin degan aqida singdirilgan. Muhimi, bu fikr chinakam badiiy talqin etilgan:

Dovonlaring nurdan yarqirar,
Osmonlaring bunchalar moviy.
Yuragingga ummon bo‘lib ham
Osmon bo‘lib kirar Navoiy.

Sirojiddin Sayyid talqinida Vatan tushunchasi buyuk bobokalonlarning nomi bilan chambarchas bog‘liqdir. Xuddi shuning

uchun ham o‘z she’rlaridan birini “Vatan nadir” degan so‘roq bilan boshlar ekan, uning javobi uchun buyuk ajdodlarning ikkita vakilini keltiradi:

Vatan nadir –
Shoh shoirini
Sog‘inchda yig‘latgan bir qovunidir.
Shoir kimdir –
Mir Alisher boboning
Birinchi va mangu muovinidir.

SHundan keyin badiiy asarning, shu o‘rinda she’riy misralarning inson hayotidagi, xususan, uning ruhiyatitdagi o‘rni va ahamiyati haqidagi she’riy mulohazalarini bayon etadi:

She’r garchi shoirning ko‘ksida yongan,
Bo‘g‘zini kuydirgan olov unidir.
She’riyat – gul emas, chechakmas asli
Ruh va ko‘ngillarning kir sovunidir.

Demak, Navoiy va Bobur misolida aytilayotgan asosiy fikr shundan iboratki, ular qoldirgan meros, inson tafakkurini boyitadi, uning ruhiyatidagi ayrim notugal va kemtikliklarni bartaraf etadi, “kir” o‘rinlarni tozalaydi. Bir so‘z bilan aytganda, badiiy adabiyot inson ruhining poklanishi uchun eng muhim va birinchi omil vazifasini ado etadi. SHe’rdagi “kirsovun” detali shu ma’noda o‘ziga xos poetik kashfiyot vazifasini ado etadi.

Sirojiddin Sayyid uchun Alisher Navoiyning ijodi poetik dalil va tasdiqlarning buyuk manbasidir.

Navoiyda “Nahr ul-hayot”,
Beruniyni bergan Qiyot.
Qoraqalpoqdan to Hirot
Esar jayhun shamollari...
Senda yo‘rgaklandi qanchalar adib,
Ne-ne shoirlarning tilagi bo‘lding.
Ma’rifat tarqatib, ziyo tarqatib,
O‘zing ham yurtning bir bo‘lagi bo‘lding.

Hazrat Navoiyning abadiy yodi,
“O‘zbekiston adabiyoti...”

Sirojiddin Sayyid shoirlikning andozasini ham Navoiydan oladi. Haqiqiy shoir qanday bo‘lmog‘i kerak? Birinchi talab shundan iboratki, u har doim nurli va taftli bo‘lishi shart:

Mening shoirligim — orzu, falakdin gar talab qo‘ysa,

Sochib ko‘nglimga oy nurin, quyosh ham o‘t qalab qo‘ysa...

SHu quyosh taftida kuysa, sahro yoki daryoga aylanganida ham, boshqalarning emas, balki aynan hazrat Navoiyning eng ashaddiy oshiq va jonkuyar qahramonlari: Farhod bilan Majnun unga beparvo bo‘lmasalar bas:

Kuyib sahroga aylansam, yana daryoga aylansam,
Ki Farhod birla Majnun ham bu kim deb bir so‘rab qo‘ysa...

Nihoyat, oxirgi mezon shuki, ulug‘ bobo uni bir nabira shogird sifatida ko‘rsa-yu, unga bir imo bilan qarab qo‘ysa kifoya qilar edi:

Na bo‘lg‘ay menga ham imlab, meni ham bir nabiram deb,
Qiyomat tongida bobo Navoiy bir qarab qo‘ysa.

Sirojiddin Sayyidning bugungi avlodga – zmonamiz yoshlariga hazrat Alisher Navoiy haqida aytadigan gaplari ko‘p. Quyidagi she’r – g‘azal ham shu silsilaga mansub:

Ulug‘ bobong Navoiyning yotar joyi Hirot bo‘lgay,
Va lekin bilmasang ul zotni sen, og‘ir uyot bo‘lgay.

YOshlar oldidagi eng muhim vazifa, uningcha, hazrat Navoiyni bilish, o‘rganishdir. Baytda “ulug‘ bobong”, “bu zot” singari ifodalar Navoiy haqidagi tushunchalar mazmuni va mag‘zini tashkil etadi. Buyuk bobomizning Hirotda mangu qo‘nim topgani, uning o‘zi va butun merosini tom ma’noda o‘rganish zarurligi uqtiriladi. Bolalar uchun “uyat bo‘ladi” singari xalqonata’sirchan ibora bilan murojaat etish she’rda ifodalangan mazmun ta’sirchanligining ortishini ta’minlagan.

Keyingi baytda ham shu uslub saqlanadi. YAna og‘zaki nutqqa xos unsurlarga asosiy o‘rin aratiladi. “Senga muhtoj emas”, “dil ko‘zlarin och”, “hayoting ham hayot bo‘lgay” kabi ifodalar sodda, samimiy va tushunarliligi bilan diqqatga sazovordir. Eng muhimi, u yalang‘och pand-o‘gitlarning yig‘indisi emas, balki katta kishining o‘zidan kichikka nisbatan samimiy istak va maslahatlari o‘laroq jaranglaydi:

Senga muhtoj emas hazrat, ulug‘ maqsad, ulug‘ mehnat
Bilan dil ko‘zlarin ochkim, hayoting ham hayot bo‘lgay.

SHe’r davomida ona yurt uchun, uning rivoji, kamoli uchun kamarbasta bo‘lish, o‘zida yuksak ma’naviy fazilatlarni egallashga kuch va rag‘bat topish, o‘zaro ahil va hamjihatlikka undash, Vatan muhabbati bilan yashashga, muhimi, o‘zidan yaxshi va munosib nom qoldirishga da’vat ohanglari namoyon bo‘ladi. Bularning barchasini egallash uchun esa Navoiyning she’riyati kifoya qiladi. SHoir ta’rifida “Navoiy nazmi – iymondir”, demak, har bir kishi unga sodiq bo‘lishi, so‘zni sotmasligi kerak. Zero, iymonning kemtikligi oxir-oqibatda mo‘min kishining qiyin

ahvoliga, oxirat yo‘lida sinov bo‘lishiday, u ham sirot ko‘prigiga ro‘para qiladi:

Navoiy nazmi – iymondir, agarchi So‘zni sotgaysan,
Uning bir satri oxir tab’i nazmingga sirot bo‘lgay.

Bularning hammasi Navoiy shaxsini, shaxsiyatini ulug‘lashga, u buyuk ajdodimiz bilan faxru iftixor qilishga undab turadi. Filologiya fanlari doktori, professor Nurboy Jabborov qayd etganiday: “Sirojiddin Sayyid she’rlaridagi yana bir fazilat – ularda ulug‘ salaflarga bo‘lgan ehtiromning yorqin ifodalanishidir. Ahmad YAssaviy, Navoiy, Maxtumquli, Bobur, Mashrab, Furqat kabi ijodkorlarga bag‘ishlangan she’rlar, ular g‘azallariga bog‘langan muxammaslar ham buni tasdiqlaydi”.

Sirojiddin Sayyid “Mir Alisher” she’rida Alisher Navoiy dahosiga kengroq nuqtai nazar bilan yondashadi. U tiriklikning mazmun va mohiyatini, buyuklikning belgi va alomatini Navoiyda ko‘radi, Navoiy bilan bog‘liqlikda deb biladi:

Tiriklikning bongi Navoiy,
Buyuklikning rangi Navoiy.

Navoiy butun turkiy xalqlar uchun bayroq, ularning qorong‘i kechasini yoritguvchi beqiyos manbadir:

Bir yorishdi zim-ziyo olam,
Turkiylarning tongi Navoiy.

Navoiy sarob bilan haqiqatning ayirg‘ichi hamdir:

Besh asrlik ro‘yodir dunyo,
Besh asrlik o‘ngi Navoiy.

Navoiyni boshqalar ko‘z oldida aniqroq, yaqqolroq tasvirlab berish ishitiyoqi Sirojiddin Sayyidni yangi-yangi o‘xshatish va sifatlashlarni, epitet va qiyoslarni izlashga undab turadi. “Ibtidosi ham, intihosi ham bo‘lmagan ummon” mana shu izlanish natijalaridan bittasidir:

Bir ummonkim, ibtidosi yo‘q,
Yo‘qdir uning so‘ngi – Navoiy.

Zamon ayirmasi unga daxl qilmaydi, aksincha, yangi zamonlar Navoiyning yangi qirralarini inkishof etadi:

O‘tgan sayin ildamlab ketgay,
Borgan sayin yangi Navoiy.

SHu silsilada yana bir yangi tashbih paydo bo‘ladi. Navoiy – Vatan timsoli, degan qiyos har jihatdan o‘zini oqlaydi:

Vatan kabi poyoni yo‘qdir,
Vatan kabi mangu Navoiy.

CHinakam she’rda badiiyatning barcha unsurlari mujassam bo‘ladi. Mazkur she’rda qo‘llangan badiiy tasvir vositalari, she’r san’atlari ham o‘ziga mos va munosib bo‘lgan.

Sirojiddin Sayyidning “Navoiyni o‘qish” she’ri kitobxonlar orasida ancha mashhurdir. SHoir Navoiy asarlari har qanday xurofot va jaholatga qarshi kuch berishiga ishonadi. SHuning uchun ham uni “har bir kalla, har bir bosh” o‘qishi kerak. SHoir bir sinonimik qatordagi ikki so‘zni (kalla, bosh) qo‘llash bilan anglatishi lozim bo‘lgan qamrov doirasini nihoyatda kengaytirib yuborgan. Natijada, xuddi juft so‘zlarga o‘xshab, ular ham shu holatda hamma, barcha degan ma’nolarga yaqinlashib qoladi:

Har bir kalla,
Har bir bosh
Jaholatdan qo‘rqishi kerak.
Har bir bola,
Har bir yosh Navoiyni o‘qishi kerak.

Navoiyni o‘qish jarayoniga hamma daxldor bo‘lishi lozim. Bu jarayonda otalar va bobolarning ham ishtirok etishi talab etiladi. Ular hayotiy hikmatni egallaganligi kabi nafs arqonlarini qirqishni uddalasalar, ya’niki, Navoiy o‘gitlariga amal qilsalar, farzandlari va nabiralariga Navoiy asarlarini o‘qib berish bilan o‘z zimmalaridagi vaifalarni ado etishlari mumkin:

Har bir ota,
Har bir mo‘ysafid
Umr hikmatlarin ko‘rsatib,
Nafs arqonlarin qirqishi kerak,
Farzandlari, nabirasiga Navoiyni o‘qishi kerak.

Bolalar Navoiyni qachon o‘rganishi kerak? SHoirning javobi shunday: ular “beshiklardan tushiboq” shu ishga mashg‘ul bo‘lganlari ma’qul:

Bir bolaga — butun mamlakat,
Ba’zan esa qirq kishi kerak.
Beshiklardan tushib bolalar
Navoiyni o‘qishi kerak.

Kattalarning nazarida bolalarning hayot yo‘laklaridagi tutumlari boshqacharoq bo‘lgani yaxshidir. Ammo asl haqiqat shundan iboratki, yoshlarimiz Navoiyni o‘qimaslikning oru nomussizlik ekanligini anglashlari lozim:

Siz deysiz: Yo‘l topishi kerak,
Uy qurib, pul topishi kerak,

Yo‘q-yo‘q, u or qilishi kerak
Navoiyni o‘qishi kerak!

Navbatdagi bandda O‘zbekistoning qadimiy va yirik shaharlari sanog‘i keltiriladi. Ular “biz o‘zbekmiz” degan haqiqatni barqarorlashtirish uchun xizmat qiladi. Biz hech kimdan kam bo‘lmasligimiz uchun esa Navoiyni o‘qish zarurati eslatiladi:

Samarqandu Buxoro, Termiz
To‘ylarida barchamiz jammiz.
Bizlar axir kimlardan kammiz?!
Elga olam olqishi kerak,
Olamga tik boqishi kerak,
Navoiyni o‘qishi kerak!

Navbat buyuk mutafakkirlarga keladi. Beruniy, Ibn Sino, Ulug‘bek, Bobur Mirzo nomlari ko‘plik qo‘shimchasini olgan holda qo‘llangan. Bu ham ongli ravishda qilingan. SHunda ularning qamrov doirasi kengayadi, ular minglab va o‘n minglab o‘zlariga o‘xshaganlarni ham ifodalaydi. Maqsad “yosh ko‘ngillar”ni qalqitishdan, shu asosda Navoiyni o‘qishga rag‘bat uyg‘otishdan iborat:

Beruniylar, ibn Sinolar,
Ulug‘beklar, Bobur Mirzolar
Qurib ketmish qanday binolar!
YOsh ko‘ngillar qalqishi kerak,
Navoiyni o‘qishi kerak!

Vatan va uning ravnaqi yurtning har bir farzandiga bog‘liq. Agar u bir chaman bo‘lsa, bu chaman hech qachon so‘lmasligi ham kerak. Demakki, bugundan, ya’ni “bola chog‘lardan”, “lola chog‘lardan” boshlab Navoiyni o‘qishi,toki ularning ko‘ngillariga nimadir yuqishi kerak:

Vatan azal bitta Vatandir,
U biz uchun so‘lmas chamandir
Sul sababdan bola chog‘lardan,
Maysa chog‘lar, lola chog‘lardan
O‘zni urib, yulqishi kerak,
Navoiyni o‘qishi kerak,
Dilga nedir yuqishi kerak!

Professor Boqijon To‘xliev shu she’r haqida gapirib turib, jumladan, quyidagilarni ham ta’kidlagan edi: “Badiiy adabiyotning inson ruhiyatini, hatto uning shaxsiyatining shakllanishi va rivojidagi o‘rni beqiyosdir. Agar Sirojiddin Sayyid aytganidek, bola «diliga nedir yuqtirsa», adabiyot

muallimi o‘z vazifasini ado etgan, adabiyot darslarining samarasi ta’minlangan bo‘ladi. Ko‘plab buyuk shaxslarnng mashhur bo‘lishlarida, o‘zlari erishgan va etishgan oliy darajalarda badiiy adabiyotning o‘rni va ahamiyatini e’tirof etishadi. Masalan, Alisher Navoiy yuz mingdan ortiqroq baytni yoddan bilgan. Bu baytlarning eng sara, eng nodir badiiy durdonalar bo‘lganligiga shubha yo‘q”. Navoiyga etib borish yo‘llari olis. Navoiyga etmoq uchun har bir shaxs, har bir o‘zbek hech bo‘lmasa, Navoiyni bilish, anglash darajasiga etish uchun urinishi zarur. Xalq shoiri Sirojiddin Sayidning she’rida bu haqiqat teran ochib berilgan. SHoirning talqinicha, Navoiydan odamiylikni o‘rganamiz. Undan ko‘ngillar taskin, tuyg‘ular esa halovat topadi, chehralarga nur taraladi go‘yo. SHu sababdan:

Navoiy senga har tun kerak bo‘lg‘ay,
Agar shodsan va yo mahzun – kerak bo‘lg‘ay.
Navoiyning vatan yanglig‘ qiyosi yo‘q,
Vatan yanglig‘ senga har kun kerak bo‘lg‘ay.

Navoiy she’riyatining rango-rang ohanglarga boyligi, mavzu doirasining nihoyatda keng va dolzarbligi ushbu misralar mazmuniga singdirilgan. Ularda muayyan dam va daqiqalarda insonning qaysi bir kayfiyati hukmron bo‘lsa, o‘sha ruh va kayfiyat uchun uyg‘un bo‘ladigan misralarni topish imkoni shoirona nuktadonlik bilan ko‘rsatib berilgan. Navoiyni vatanga, vatan kabi beqiyoslikka o‘xshatilishi ham o‘ziga xos bo‘lgan yangicha tashbih, yangicha poetik kashfiyotdir. Hali hech kim Navoiyga bunday ta’rif bermagan edi.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy obrazi – zamonaviy she’riyatimiz idealining asosi. Ulug‘ shoir obrazini yaratish borasida o‘zbek she’riyati chin ma’noda yuksalishga erishdi. Mustaqillik davri milliy she’riyatimizning badiiy-estetik ideali sifatida buyuk mutafakkir obrazi bugungi kun yoshlarini insoniy komillikka, Vatan va millat manfaatlarini har narsadan ustun bilishga chaqirishi jihatidan ham qimmatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Саййид Сирожиддин. Сўз йўли. Икки жилдлик танланган асарлар. 1-жилд. Тошкент: Шарқ, 2008. – 384 б.

2. Саййид Сирожиддин. Сўз йўли. Икки жилдлик танланган асарлар. 2-жилд. – Тошкент: Шарқ, 2008. – 384 б.

3. Мустақиллик даври адабиёти. Адабий-танқидий мақолалар, бадиалар. Ғафур Ғулом номидаги нашриёт - матбаа ижодий уйи. – Тошкент, 2006. – 288 б.

4.Ashurova, G. (2020). Artistic Interpretation of Alisher Navoi's Image in Uzbek Literature of the Independence Period. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24*(04).

BADIIY ADABIYOTDA FARISHTA OBRAZI VA UNING BADIIY ESTETIK AHAMIYATI

Rustamova Ibodatxon Ikramovna,
FarDU professori v/b., filologiya fanlari foktori
E-mail: *ibodatrustamovna@gmail. com.*
Axmedova Xonzoda,
Farg'ona davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Maqolada badiiy adabiyotda farishta obrazi va uning o'ziga xosligi xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: obraz, farishta, badiiylik, mahorat, ilohiylik, zamonaviy asarlar.

Abstrakt: The article discusses the image of an angel in fiction and its uniqueness.

Keywords: image, angel, artistry, skill, divinity, modern works.

Adabiyot insoniyat tafakkurining eng nozik, eng teran qatlamidir. U o'zining obraz, ramz, timsollar orqali nafaqat bir jamiyat, balki butun insoniyatning ruhiy tarixini yozib boradi. Shu sababli, adabiyotda takror va takror yuzaga keladigan universal obrazlar - arxetiplar alohida ahamiyat kasb etadi. Ular zamon o'zgarishiga, madaniyatlar almashishiga qaramay, ichki ma'no va axloqiy yukini yo'qotmaydi, aksincha, yangilanadi, shakllanadi, teranlashadi. Shunday ramzlardan biri, balki eng muqaddasi - farishta obrazidir.

Farishta - qadimdan ilohiy, pok, xatodan holi, ezgulik timsoli sifatida tasvirlangan mavjudot bo'lib, diniy manbalarda ilohiy xabar yetkazuvchi, nurli himoyachi, najotkash sifatida talqin etiladi. Ammo adabiyot bu obrazni diniy dogmadan chiqarib, estetik-falsafiy o'lchamda qayta tiriltirdi. U klassik adabiyotda — osmonga olib chiquvchi ruhiy yo'lboshchi, realizmda — insoniy yurakda yashovchi sabr, postmodernizmda — ong va xotirada yashirin sezgi, she'riyatda esa — ilhom, umid, qushdek sokin najot sifatida namoyon bo'ldi.

Bugungi globallashuv, ma'naviy izlanish va ruhiy bo'shliq davrida bu obraz yana qayta talqin qilinmoqda. Farishta — bu endi osmondagi mavjudot emas, ichimizdagi nurga bo'lgan ehtiyojdir. Shu boisdan,

farishta obrazining badiiy adabiyotdagi talqinini tahlil qilish — bu shunchaki estetik izlanish emas, balki inson qalbining eng sof istaklarini adabiyot vositasida anglashdir. Asosiy qism. “Farishta” so‘zi aslida arab tilidan o‘zlashgan bo‘lib, ilohiy, pok, gunohsiz, nurli mavjudot degan ma’nolarni bildiradi. Diniy va an’anaviy adabiyotda farishtalar Allohning amrini bajaruvchi, yomonlikdan pok, insonlardan ustun xilqatlar sifatida tasvirlanadi. Farishtalar — ko‘p madaniyatlarda muhim rol o‘ynagan va o‘ynashda davom etayotgan g‘ayritabiiy mavjudotlar obrazidir. Ular odatda ilohiy kuchlarga xizmat qiluvchi vositachilar, himoyachilar yoki jazolovchilar sifatida tasvirlangan. Farishta obrazining shakllanishi faqat diniy emas, balki mifologik ildizlarga ega bo‘lib, turli xalqlarning tasavvurida farqlanuvchi, ammo o‘xshash funksiyalarga ega shakllarda paydo bo‘lgan. Bibliya va Qur’on asosidagi diniy matnlarda farishtalar aniq funksiyalarga ega: xabar yetkazish, himoya qilish, jazolash. Bu obrazlar dastlab jiddiy, sadoqatli va ilohiy kuchga to‘liq bo‘ysunuvchi sifatida tasvirlangan.

San’atning obraz vositasida fikrlashi uning spetsifik, ya’ni, tur sifatida belgilovchi xususiyatidir. San’atkor badiiy obraz vositasida dunyoni anglaydi, o‘zi anglagan mohiyatni va o‘zining anglanayotgan narsaga hissiy munosabatini ifodalaydi. Shu ma’noda obraz adabiyot va san’atning fikrlash shakli, usuli sanaladi; obrazlar vositasida fikrlagani uchun ham adabiyot va san’atga xos fikrlash tarzi “obrazli tafakkur“ deb yuritiladi. Farishta obrazi insoniyat madaniyatining eng boy va qadimiy timsollaridan biridir. Mifologik ildizlardan boshlab, u din, adabiyot, falsafa va san’atda turlicha shakllarda ifodalanib, zamonaviy tafakkurda ham o‘z o‘rnini topgan. Farishta – bu faqat osmonda parvoz qiluvchi pok mavjudot emas, balki insoniyat ruhiyatining chuqur ramzi, axloqiy va falsafiy muammolarning badiiy timsolidir. Badiiy obraz borliqning (undagi narsa, hodisa v.h.) badiiy asardagi aksi. Biroq badiiy obraz o‘sha borliqning oddiygina aksi emas, yo‘q, u borliqning san’atkor ko‘zi bilan ko‘rilgan va ideal asosida ijodiy qayta ishlangan aksidir. Bu aksda borliqning ko‘plab tanish izlarini topasiz, biroq bu endi biz bilgan borliqning ayni o‘zi emas, balki tamoman yangi mavjudlik — badiiy borliqdir.

Mifologik obrazlar metaforizatsiyasida so‘zlovchining narsa, belgi, voqelikka nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabati orqali his-tuyg‘usi aks etgan bo‘ladi. Masalan, ochko‘z, zolim, qonxo‘r bosqinchiga nisbatan ajdar obrazini metaforizatsiya qilish orqali nafrat ifodalansa, beozor, pokiza qalb egalariga nisbatan farishta obrazi metaforizatsiya qilinib, hurmat va mehr hissi ifoda etiladi. Ba’zan mifologik obraz bir o‘rinda

salbiy, boshqa o‘rinda ijobiy munosabatni aks ettirishi ham mumkin. Masalan, ochko‘z, qonxo‘r ma’nosida salbiy bo‘yoqqa ega bo‘lgan ajdar obrazi boshqa bir kontekstda o‘tli nigoh ma’nosida go‘zal qizning ko‘zlariga, qop-qora, baquvvat, jilokor ma’nosida zulfiga nisbatan metaforizatsiya qilinganda, go‘zallik ramziga aylanadi. Yoxud dev obrazi badiiy ijodda ham yovuzlik, vahm, ham jasurlik, pahlavonlik ramzi sifatida metaforizatsiya qilinishi mumkin. Bunga sabab ushbu obrazlarning afsonalarda epik qahramonga avval raqib bo‘lib, uni bo‘ysundirgandan yoki sehrlangan tilsimni ochgandan keyin yordamchi, madadkor, homiy bo‘lishi bilan bog‘liq qarashlarning mavjudligi bilan bog‘liqdir. Mazkur maqolada Omon Muxtorning “Ko‘zgu oldidagi odam” hikoyasida farishta obrazining badiiy-falsafiy talqinini tahlil qilish, uning adabiyotdagi o‘rni va ahamiyatini ochib berishdir. Shu bilan birga, ushbu obrazning boshqa adabiy manbalardagi talqinlari bilan qiyosiy tahlili ham amalga oshirildi. Demak, farishta obrazi ham aynan shu obrazlar qatorida bo‘lib, bugungi zamonaviy adabiyotimizda ham bu obrazni uchratamiz. Masalan, Omon Muxtorning “Ko‘zgu oldidagi odam” asarida aynan kuzgu vositasida farishta obraziga murojaat etiladi. Omon Muxtor – XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshlarida faoliyat yuritgan, falsafiy-estetik fikr bilan sug‘orilgan asarlar yozgan o‘zbek yozuvchisi. Uning ijodida insoniylik, ruhiy azob, ma’naviy iztirob va haqiqatga intilish kabi mavzular alohida o‘rin tutadi.

Yozuvchi uslubida: ramziy obrazlar, psixologik aniqlik, ichki monolog, sukut orqali ko‘proq narsa aytish, va tashqi voqealardan ko‘ra ichki kechinmalarni tahlil qilish asosiy o‘rin tutadi. “Ko‘zgu oldidagi odam” hikoyasi ham ana shunday ruhiy-falsafiy izlanish mahsulidir. Unda yozuvchi bir qarashda oddiy, ammo chuqur ichki dramatizmga boy holatni – odamning o‘z ruhiy olami bilan qarama-qarshiligini badiiylashtiradi. Asar syujeti jihatidan soddaligi bilan ajralib turadi: bir odam oynaga (ko‘zguga) qaraydi va o‘zini tanimay qoladi. Ammo aynan shu oddiy holat orqali inson va uning vijdoni, o‘zlikni anglash va inkor qilish, ichki tozalanish kabi murakkab falsafiy masalalar ochib beriladi. Ko‘zgu oldidagi odam – bu har bir o‘quvchi o‘zini topishi mumkin bo‘lgan universal qahramon. U o‘zini oqlamoqchi bo‘ladi, avvalgi xatolarini unutmoqchi, lekin “ko‘zgu” unga “o‘tmishdagi o‘zini” eslatadi. Va shu paytda vijdon timsolida farishta “ko‘zgu ortida” paydo bo‘ladi. Bu farishta undan qochib bo‘lmaydigan haqiqatni bildiradi.

Asarning asosiy g‘oyasi: inson o‘zini unutgan sayin, vijdon va ezgulik uni yana o‘ziga qaytarishga urinadi.

“Ko‘zgu” timsoli va uning mantiqiyligi

Ko‘zgu – bu hikoyaning eng muhim ramzlaridan biridir. U:o‘zlikni aks ettiruvchi vosita, haqiqatni yashirib bo‘lmaydigan sirt, va vijdonning aksi sifatida talqin qilinadi. Ko‘zgu orqali qahramon o‘tmishdagi o‘zini ko‘radi – bolaligini, begunohligini, pok yuragini. Ammo bu obraz zamonaviy dunyoviy kirdikorlar, yolg‘on va ikkiyuzlamachilikka to‘la hayotiga zid turadi.

Ko‘zgu bu yerda nafaqat aks, balki ruhiy refleksiya vositasidir. Qahramon unga qarab, o‘zini tanimaydi. Bu tanimaslik – aslida ma’naviy begonalashuv holatidir.

Farishta va ko‘zgu: bir-birini to‘ldiruvchi ramzlar sifatida hikoyada namoyon bo‘ladi. Asarda farishta bevosita tasvirlanmaydi. U ko‘zgu ortidan turib qaraydigan mavjudot sifatida noaniq, timsolli shaklda tasvirlanadi. Bu yondashuv asarni chuqur psixologik-falsafiy qatlamga olib chiqadi. Farishta bu yerda: Qahramonning vijdoni; Uning bolalikdagi pok tabiatining ovozi; Va ayni paytda pushaymonlikning ovozidir. Ko‘zgu bu farishtaning ko‘rinish joyi, ya’ni u ko‘zgu orqali insonni tanib, unga qarata baho beradi. “Badiiy obraz borliqning (undagi narsa, hodisa v.h.) badiiy asardagi aksi. Biroq badiiy obraz o`sha borliqning oddiygina aksi emas, yo`q, u borliqning san'atkor ko`zi bilan ko`rilgan va ideal asosida ijodiy qayta ishlangan aksidir. Bu aksda borliqning ko`plab tanish izlarini topasiz, biroq bu endi biz bilgan borliqning ayni o`zi emas, balki tamoman yangi mavjudlik — badiiy borliqdir.

Bu ikki ramzning birligi – ko‘zgu va farishta – asarda ichki muhokama jarayonini yaratadi.

Qahramon ko‘zgu qarshisida yolg‘iz emas. U bilan birga turgan mavjudot – bu uning mukammal “men”i – farishtadir. Zamonaviy adabiy tafakkurda bu obraz ko‘pincha tashqi emas, balki ichki haqiqat sifatida paydo bo‘ladi. Ayniqsa, psixologik adabiyotda farishta – insonning o‘ziga bergan savollariga javob beradigan, uni ruhiy azob va pushaymonlikdan qutqarishga intiladigan kuch sifatida talqin etiladi.. Shuningdek, farishta ko‘pincha qarama-qarshilikka qurilgan obraz bo‘lib, uning fonida yovuz kuchlar, nafs, jin yoki shayton obrazi mavjud bo‘ladi. Bunday ziddiyatlar orqali adabiyot insoniyatning abadiy tanlovi – ezgulik va yovuzlik kurashini badiiy shaklda ifodalaydi. Adabiy jarayonda farishta faqat diniy obraz emas, balki ko‘p qatlamli badiiy timsolga aylangan. U inson ruhiyatining: вijdoni, umidi, ichki ovozi, ma’naviy uyg‘onishi yoki ichki kurashi sifatida ishlatiladi. O‘zbek zamonaviy adabiyotining yirik vakili Omon Muxtor o‘z asarlarida insoniylik, ruhiy poklanish, hayot ma’nosi

kabi falsafiy mavzularga murojaat qiladi. Uning “Ko‘zgu oldidagi odam” nomli hikoyasi inson va vijdon, nafs va halollik, o‘zlik va o‘zgarish kabi tushunchalarni farishta obrazi orqali badiiy ifodalaydi. Ushbu hikoya zamonaviy o‘zbek adabiyotida farishta obraziga falsafiy yondashuvlardan biri hisoblanadi.

“Men yoshlikdan yuragim zardobga to‘lib, atrofimdagi odamlardan qachon, kim bilan so‘zlashmay, bizning barchamiz osiy bandalarmiz, inson farishta emas, beayb Parvardigor, hammaning ham o‘ziga yarasha gunohi bo‘ladi, qabilidagi turli fatvolarga duch keldim! Bu - bilganingcha yasha, ildam bosaver, degan gap edi... Hamma «goh xudoyu rasul, goh g‘amzayu usul» mazmunidagi aqidaga rioya qilib, davraga kirib, qiroatga qo‘shilib, o‘tgan-ketganlarni xotirlab, yuziga fotiha tortib, shu ondayoq qo‘liga qadah olganicha, zahri qotilni ichib, maza-bemaza suhbatga aralashib yurganini ko‘rdim. Poklik, vafo, nomus to‘g‘risidagi hikoyatlar bilan birga, yonma-yon beparda, behayo so‘zlarni eshitdim... Bunday xudojo‘ylardan keyin, o‘ylardan keyin, ochiq xudosizlarni uchratdim”

Bu yerda “inson farishta emas” iborasi majoziy ma’noda ishlatilgan. U orqali insonning kamchiliklarga moyil, gunohkor tabiati nazarda tutilmoqda. Bu qarash, hayotiy tajriba asosida shakllangan, ya’ni muallif diniy yoki axloqiy fatvolarga duch kelganini aytib, odamlarning ikkiyuzlamachiligini tanqid qilmoqda. Farishta bu yerda mutlaq poklik, beayblik, xatodan xoli mavjudot sifatida qaraladi, va unga qarama-qarshi qilib insonning ojizligi ko‘rsatiladi.

Xullas, o‘zbek adabiyotshunosligid farishta obrazi o‘rganilmagan nazariy muammo sanlib, ko‘plab ilmiy tadqiqotlarga manba bo‘lishi tabiiy.

O‘ZBEK SHE’RIYATIDA MEDITATIV LIRIKA XUSUSIYATLARI (ABDULLA ORIPOV IJODI MISOLIDA)

Oripova Gulnoza Murodilovna,
Farg‘ona davlat universiteti,
filologiya fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya: Maqolada medidativ lirikaga xos spetsifik jihatlar, ularning nazariy asoslari tadqiq etilgan. Lirik subyektning mushohada yuritishi, ichki dunyosiga nazar solishi lirik meditatsiyani yuzaga chiqarishi Abdulla Oripov she’rlari tahlili asosida struktural-poetik usul orqali tahlil etilgan. Falsafiy lirikaning meditativ lirikadan farqli jihatlari asoslangan.

Abstract: The article examines the specific aspects of meditative lyrics and their theoretical foundations. The observation of the lyrical subject, his or her reflection on his or her inner world, which gives rise to lyrical meditation, is analyzed using the structural-poetic method based on the analysis of Abdulla Oripov's poems. The different aspects of philosophical lyrics from meditative lyrics are based on.

Kalit so‘zlar: medidativ lirika, lirik subyekt, lirik meditatsiya, struktural-poetik usul, ijodkor ongi va shaxsiyati, falsafiy lirika, adabiy jarayon, ijodiy tafakkur.

Keywords: meditative lyrics, lyrical subject, lyrical meditation, structural-poetic method, creative consciousness and personality, philosophical lyrics, literary process, creative thinking.

Borliq haqida fikr-mushohada yuritish, voqelik va hodisalarni baholash, subyektiv idrok orqali dunyoning obyektiv manzarasini poetik aks ettirish lirik she’rlarning meditativlik xususiyatini belgilaydi. Lirik subyektning mushohada yuritishi, ichki dunyosiga nazar solishi lirik meditatsiyani yuzaga chiqaradi. Bu esa meditativ she’r yaralishiga asos bo‘ladi.

Professor N.Rahimjonov “Falsafiy lirika” nomli risolasida quyidagi fikrni bildirgan: “Falsafiy lirika o‘z mohiyatiga ko‘ra olam va odam taqdiriga, “borliq va abadiylik sirlari” (V.B.Belinskiy)ga, inson va tabiat, shaxs va jamiyat munosabatlariga doir teran mushohadalarga berilishdir. Falsafiy lirika ifoda yo‘sinidagi quyuqlashgan fikr sintezi voqelik va inson umri mohiyatini ochishga qaratiladi va bu ifoda abstarkt va mavhum holda emas, davr ruhini, xalqimizning ma’naviy-axloqiy hayoti tajribalarini o‘ziga singdirgan holda namoyon bo‘ladi”[2; 4]. Falsafiy lirika XX asrning 30-yillaridan boshlab yangi olam va yangi odam haqidagi umumbashariy tushunchalar xususida yangicha badiiy talqinlarga tayangan falsafiy-estetik umumlashmalar chiqarishga imkon berganligi haqida fikr yuritadi.

Falsafiy, ishqiy, siyosiy kabi mazmun jihatdan ajratiluvchi she’r ko‘rinishlari ijroviy lirika mazmuniga ham, personajli lirika mazmuniga ham singib ketaveradi. Meditativ lirika ham falsafiy lirika tushunchasi bilan o‘xshashdek, ya’ni emotsionallik va tafakkur nisbatidagini yaralayotgandek tuyuladi, lekin “intellektual (falsafiy) lirikada obyekt (mavjudlikning konkret masalasi – hayot va o‘lim, inson taqdiri yoki fe’l-atvori, jamiyat v.b.) haqidagi mushohadalar subyektning o‘ylovlari tarzida ham, uning tavsifi (tasviri) orqali ham ifodalanaverishi mumkin” [3;274]. Meditativ lirikada esa “ko‘ngil” kechinma obyekti, tavsifiy lirikada esa

voqelik kechinma obyektidir. Ya’ni lirik subyekt kechinmalari voqelik (obyekt)ni tavsiflash asosida namoyon bo‘ladi. Ayon bo‘ladiki, “meditativ lirikada shoir ko‘nglida ayni damda kechib turgan kechinmalar, doim ham mantiqiy idrok etib bo‘lmaydigan, anglash va tushuntirish mushkul tuyg‘ular ifodalanadi (shu bois hozirda uni “ko‘ngil she’riyati” deb ham atamoqdalar.) Umuman lirikaga xos bo‘lgan lirik meditatsiya (hissiy to‘yingan, his-tuyg‘uga yo‘g‘rilgan mushohada) meditativ she’riyatning asosini tashkil qiladi, unda voqelik – obyektiv olam unsurlari minimumga, his-tuyg‘uni yuzaga keltirgan omillarni ilg‘ay olish, yorqin va ta’sirli ifodalash uchun yetarli me’yorga keltirilgan” [3; 274].

Kuzatishlarimiz asosida aytish mumkinki, meditativ she’rlarda lirik “men” ustuvorlik qiladi, shuning uchun ham bunday she’rlar ijodkor shaxsiyati bilan bog‘liqdir. “Lirik “men”ni iste’dodli IJODKOR bilan yuksak ma’naviyatli SHAXSning sintezlashuvidan, monumental qiyofasidan dunyoga kelgan kashfiyot sifatida qabul qilish o‘rinlidir” [4; 10]. Chunki meditativ she’rlarda ijodkorning ongi va shaxsiyati muhim ahamiyatga ega. Shoirning obrazli nigohi orqali idrok etilgan voqelik uning hissiyotlari va individual ongidan o‘tib, o‘ziga xos rangda tovlanadi. Moddiy borliqqa murojaati va uning detallaridan obrazlar yaratishi his-tuyg‘ularini ifodalash imkoniyatini kengaytiradi. Ko‘rinadiki, meditativ lirika ijod jarayoni va ijodkor shaxs tushunchalari bilan bevosita bog‘liq. Ijod har bir muhim ijtimoiy ko‘tarilishlar davrida tubdan yangilanadi, yangi poetik imkoniyatlarni kashf etadi. Bu davr nafaqat adabiy jarayon, adabiy muhit, balki ijodkor ruhiyati va ijodiy tafakkurga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu xususiyatlari bilan mustaqillik davri lirikasida ham meditativlik o‘ziga xos tusda ifodalanmoqda.

Falsafiy lirikaga xos jihatlarni Abdulla Oripovning “Baxtsiz farishta” she’ri misolida ko‘rish mumkin. Shoirning tashqi dunyoga individual munosabati o‘ziga xos chizgilarda namoyon bo‘ladi.

Ma’sum farishtalar – go‘daklar bari
Bulutlar ustida uchib yuribdi.
Jannatning hayotbaxsh shabbodalari
Parquv qanotlarin yelpib turibdi [5; 155].

She’rning boshlanma satrlaridanoq gap ma’sum go‘daklar haqida borayotganligi, ularning “bulutlar ustida uchib yurishi”dan bu dunyoni tark etganliklarini anglab olish mumkin. Ular shunchalar ma’sum ediki, “parquv qanotlari”ni jannat shabbodalari yelpib turardi. Xalqimiz orasida bevaqt nobud bo‘lgan bolakaylar farishtaga qiyoslanadi. Chunki farishtalar gunohlardan forig‘, ruhiy-ma’naviy dunyosi pok, qalbida faqatgina ezgulik

tuyg‘ulari mavjlangan hilqat.

Shoir she’rda “jajji farishtalar” – go‘daklarning har bir kuni baxtli va shodon kechishini, ular abadiy rohatda yashashini tasvirlar ekan, ular orasida faqat bittasi qayg‘uga cho‘mganini, “mungli ko‘zlarida dunyoviy alam” borligini o‘kinch bilan ifodalaydi. Shoirning asl poetik maqsadi quyidagi misralarda ochiladi:

Bir kun so‘radilar: – Mayussan nechun?
Axir sen begunoh, sen yaxlit savob!
Bolakay farishta uh tortdi uzun,
So‘ng sekin shivirlab ayladi javob:
– Meni ota-onam ketgandi tashlab,
Do‘zaxda yonmoqda ular beomon.
Shul sabab g‘amginman ko‘zimni yoshlab,
Ularga tilayman shafqat va imon [5; 155].

Shoir “bolakay farishta uh tortdi uzun” misrasi orqali uning ruhiy holati manzarasini ifodalarkan, go‘dakning mudhish qismatidan o‘quvchi his-tuyg‘ulari titrab ketadi. Shoir ushbu lirik holat orqali ota-onasi tomonidan tashlab ketilayotgan barcha go‘daklarni nazarda tutadi. Go‘dak iztiroblari, alamlari, uzun “uh” tortishlari kitobxon qalbining tub-tubiga chuqur “sanchiladi”. Ma’sumgina go‘dakning ko‘zlarida ota-onasi o‘z qilmishi tufayli do‘zax olovida beomon yonayotganligidan g‘am yoshlari oqadi. Shuning uchun ham u “sekin shivirlab” javob aylaydi. Bolakayning ota-onasiga “shafqat va imon tilashi” – she’rning tayanch nuqtasi. Shoir shu birgina nuqta orqali umumbashariy muammoni ko‘rsatishga erishgan. U jajji farishtaning o‘kinch to‘la nutqi orqali uning ruhiy manzarasi tasviridagi falsafiy mushohadani bashariyat haqidagi fikrlari bilan bir nuqtaga jamlarkan, umuminsoniy qadriyatlar, bugungi davrning axloqiy-ma’naviy olami, jamiyatning og‘riqli nuqtalari haqida bugungi zamondosh kishilarni chuqur o‘yga toldiradi. Kitobxonni fikr yuritishga undaydi. Ingliz faylasufi U.O.Kuayn “Til va tafakkur uchun bizning o‘xshash tuyg‘ularimizdan ko‘ra muhimroq narsa yo‘q” [6; 157], deganda haq edi.

Meditativ lirikaga xos jihatlar Abdulla Oripovning 1992-yilda yozilgan “Haj daftari” turkumiga kiruvchi she’rlarida uchraydi. Olam va odamni anglash, teran nigoh bilan tashqi dunyoga boqish, ezgulik va yovuzlik, hidoyat va razolat, gunoh va savob, to‘g‘rilik va egrilik kabi inson botiniy olami tuyg‘ularini hissiy idroki va individual ongidan o‘tkazarkan, hodisalarni qalb prizmasi orqali baholaydi. Turkumdagi “Ona” nomli she’r lirik “men”ning Ka’ba eshigi yonida turgan posbonga murojaati bilan boshlanadi:

Ka’ba qopqasida turgan, ey posbon,
Avval onalarning ochgin yo‘llarin.
Onalar poyiga tiz cho‘k o‘shal on,
Tavof qil, ko‘zga surt, o‘pgin qo‘llarin.

Ona buyuk zot, sharif hilqat. Hadislarimizda ham “Jannat onalar oyog‘i ostida”, deyilgan. Professor N.Jabborov Hazrat Navoiy asarlaridagi ona obrazi tasviri haqida fikr yuritib, “birinchidan, milliy ruhga, millatimizning asl tabiatida azaliy bo‘lgan onaga ehtirom tuyg‘usiga; ikkinchidan Qur’oni Karim va hadisi sharif ahkomlariga tayanadi” [7; 158], – deydi. Abdulla Oripov ham Hazrat Alisher Navoiy an’analarini davom ettirgan holda onaga ehtirom tuyg‘usini hadisi sharif ahkomlariga tayangan holda ifodalaydi. Lirik “men” “ona” degan muqaddas kalom ortida o‘tmishni yodga olarkan, posbonga iltijo qilish orqali butun bashariyat ahliga yuzlanadi:

Hojar onamizning nidosi sabab,
Ka’bada ko‘z ochgan Obi Zam-zam ham.
Bir umr talpinmish onaga qarab,
Ne-ne payg‘ambarlar ko‘zlarida nam.

Shoir keyingi bandda “tobut” va “beshik” zid ma’noli so‘zlar asosida tazod san’atini qo‘llab, onaning ulug‘vor qiyofasini ko‘z o‘ngimizda namoyon etadi:

Qavmimni ranjitib qo‘ymayin, ammo
Tobut yasab kelgan er zoti doim.
Onalar bag‘riga faqat beshik jo,
Hayotbaxsh allalar aytgan, muloyim.

Lirik “men” onaning yaratuvchi buyuk siymosini gavdalantirib, she’rning asosiy mushohadaviy nuqtasi orqali kelajakka ishora qiladi. Dunyoning ertangi manzarasi haqida o‘quvchi fikr yurita boshlaydi. Shoir dunyoni onalar duosi qutqara olishi haqidagi fikr orqali globallashuv davri iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy muammolarga mushohadaviy munosabat bildiradi.

Sho‘rlik odamzotning toleyi uchun
Eng avval onalar qilsin ibodat.
Zora, gunohlardan pok bo‘lgay ochun,
Onalar o‘tinchi topib ijobat.

Yuqoridagi satrlar kompozitsion jihatdan fikrlar zanjirining bir halqasini hosil qilishi ham shoir poetik maqsadiga mos tarzda amalga oshgan. Chunki birinchi bandning she’r oxirgi bandida yana qayta

takrorlanishi avlodlarga hamisha onalarga e’zoz va ehtiromda bo‘lishlarini qayta-qayta takrorlayotgandek ohang baxsh etadi.

Abdulla Oripovning to‘rtlik janriga mansub she’rlarida ham insonni chuqur o‘y-fikrlarga toldiradigan lirik “men”ning individual mulohazalari ifodalangan:

Chinor soyasidan bahramand bo‘lib,
Turfa xil ertaklar to‘qimoq oson.
O‘zing ham ertaning tashvishin qilib,
Qaydadir bir nihol ekdingmi, Inson.

Shoir bizni o‘rab turgan tashqi olamdan “chinor” va “nihol” detallarini tanlaydi. Bu badiiy detallar orqali borliq chizgilarini yaratadi. Lirik “men” chinor orqali buyuk ajdodlarimizga ishora qiladi. Ma’lumki, chinor ildizlari va shoxlari baquvvat, eng uzoq yashaydigan daraxt. Insonga qarata aytgan “qaydadir bir nihol ekdingmi” tarzidagi so‘rovi kitobxonni o‘yga toldiradi. To‘rtlik orqali shoir dunyoda bir iz qoldirib o‘tish, berilgan umr mohiyatini anglash haqida fikr yuritadi.

Abdulla Oripovning 1996-yilda yaratilgan “Jeneva daftari” turkumidagi “Bulutli bir kuni” she’rida Jenevadagi bulutli havo lirik “men”ning ruhiyatida ham go‘yo “bulutli” manzarani paydo qiladi. U ruhiyatida horg‘inlik va siniqlikni his etadi. Tashqaridagi havo butun yotog‘ini ham “g‘urbat maskaniga” aylantiradi. Shu lahzalarda negadir shoir O‘zbekiston haqida o‘ylay boshlaydi:

Soat necha hozir O‘zbekistonda,
Balki uxlagandir nabiralarim.

Horg‘inlik sezaman vujudda, jonda,
Ruhimda siniqlik, ko‘ngil ham yarim.

Shoir boshqalarni shod, xurram ko‘radi. Hammaning labida kulgu. Lekin lirik “men” qalbi taskin topmaydi. Endi u o‘z holatini anglab yetadi. Vatandan yiroqda bo‘lgan lirik qahramonning ko‘ngil manzaralari tabiat hodisalari bilan mushtaraklikda ifodalanadi:

Boshqalarning esa labida kulgu,
Bulut parvoyiga kelmaydi taqir.
Axir men bir holni unutibman-ku,
Ular vatanida yuribdi, axir.

Abdulla Oripovning marsiya yo‘sinida yozilgan she’rlari ham meditativ lirikaning go‘zal namunasidir. O‘lmas Umarbekov xotirasiga bag‘ishlangan “Yo‘qlov” she’ri quyidagi misralar bilan boshlanadi:

Chehrangda tabassum balqirdi doim,
Ko‘ngil bog‘ing edi chechakli, gulli.
Arshi-a’loga ham sendek muloyim,
Xushsurat bandalar darkor shekilli.

Lirik “men” do‘sti haqida chuqur o‘yga tolarkan, uning sifatlarini madh etadi. Inson o‘z o‘limini kutib yashashi dahshatli his ekani haqida fikr yuritib, do‘stining so‘nggi lahzalaridagi ruhiy kayfiyatini suratlantiradi: “*Har zumda o‘limni kutib yashamoq uning o‘zidan ham dahshatliroq his. Senga shunday yurak bermishdi Halloq, boqding ajalning ham ko‘ziga munis”*. Shoir do‘stining hayot tarziga o‘z munosabatini ifodalash orqali mushohada yuritadi. She’rdagi marsiyaviylik ohanglari quyidagi bandda yig‘i-yo‘qlovlarga xos ifodalarda lirik “men” qalbini o‘rtaydi:

O‘lmas deb qo‘ymishlar ismingni, biroq
O‘lim to‘lg‘izdi-ku umr jomingni.
Falakning bu ajib o‘yiniga boq,
O‘lmas deb turibman endi nomingni!

Shoirning do‘stini xotirlashi, uning fazilatlarini yodga olib eslashi “Inson bolasiga sharafdir g‘oyat, Xalqi rozi bo‘lib, xotirga olsa” misralarida meditatsiyani yanada kuchaytiradi. Marsiyaviylik ohanglari bilan uyqash fikrlar, his-tuyg‘ular lirik “men” qalb prizmasidan o‘tib, sintezlashgan holda individullashgan idrokka aylanadi. Shoirning “Xotira” nomli she’rida ham marsiyaviylik ohanglari kuzatiladi:

Ona yurt bag‘ridan juda ham yiroq,
O‘zga manzillarda topshirdingiz jon.
Hanuz ko‘ksimizni tirnaydi firoq,
Garchi siz muzaffar, g‘olib, qahramon.
Garchi Vatan sizni hamisha yodlar,
Lekin armoningiz sig‘mas qabrga.
Hali tug‘ilmagan ne-ne zuryodlar,
Barchasi ketdilar siz bilan birga.

Umuman olganda, medititiv lirika xususiyatlari subyektning his-tuyg‘uga yo‘g‘rilgan mushohadalari va voqelikka individual munosabatida namoyon bo‘ladi. Shoir ko‘nglidagi kechinmalar ijtimoiy ongi bilan sintezlashib, lirik meditatsiyani hosil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Аҳимжонов Н. Фалсафий лирика. – Тошкент: Ўзбекистон, 1983. – Б. 4.

2. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Noshir, 2019. – B. 274.

3. Поспелов Г.Н. Лирика среди литературных родов. – М.: Изд-во Моск. ун-та, 1976. – С. 68.

4. Солижонов Й. Адабиёт хиёбони. – Фарғона: Фарғона, 2020. – Б.10.

5. Орипов А. Танланган асарлар. Тўрт жилдлик. Иккинчи жилд. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001. – Б.155

6. Quine W. O. Natural kinds. – In: Naming, necessity and natural kinds. Ithaca – London, 1977. – p.157.

7. Жабборов Н. Маоний аҳлининг соҳибқирони. – Тошкент: Adabiyot, 2021. – Б. 158.

MAKSIM GORKIYNING “ONA” ROMANI CHO‘LPON TARJIMASI XUSUSIDA

Shahlo Hojiyeva,
O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: sh.hojiyeva@mail.ru
Tel: +998974469468

Annotatsiya: Maqolada Maksim Gorkiyning “Ona” romanini, “Tong” va “Ilgaklar” hikoyalarini o‘zbek tiliga mahorat bilan tarjima qilgani Cho‘lponning adib ijod laboratoriyasini chuqur o‘rganganidan dalolat berganligi haqida so‘z boradi. Cho‘lpon nasridagi shafqatsiz realizm, adibning peyzaj va xarakter yaratish mahorati haqidagi e’tiroflari ijodda Gorkiyni ustoz deb bilgani va undan ta’sirlangani isbotidir. Yozuvchining adabiyotdagi xizmatlarini “katta maktab egasi”, “ulug‘ ustod”, “odam do‘sti”, “buyuk san’atkor” deya baholagani zamirida Gorkiy timsolida rus nasrini teran bilgani haqida fikr yuritilgan.

Cho‘lponning nosir sifatida shakllanishiga ta’sir etgan omil – rus nasrining yetuk vakili Gortkiy ijodi namunalari misolida asoslab mufassal yoritishga harakat vqilindi. Cho‘lponning rus tilini mukammal bilgani, uning nasrdagi ijodiy yutuqlari rus prozasi, xususan, Maksim Gorkiy asarlaridan qilgan tarjimalaridagi mahorati haqida fikr yuritilgan. Avvaldan rus nasrini ijodiy o‘rganib kelayotgan adib tarjima orqali rus yozuvchilari ijodiy laboratoriyasiga kirib borgani, ulardan puxta ijodiy saboqlar olgani to‘g‘risida mulohaza yuritilgan.

Kalit so‘zlar: realizm, peysaj, xarakter, ijodiy laboratoriya, badiiy estetik tafakkur.

Annotation: This article discusses how Cho‘lpon’s skillful translations of Maxim Gorky's novel Mother and the short stories The Dawn and Hooks into Uzbek reflect his deep engagement with the Russian writer’s creative laboratory. The presence of stark realism in Cho‘lpon’s prose, along with his acclaimed mastery in depicting landscapes and character development, serves as evidence that he regarded Gorky as a mentor and was significantly influenced by him. Cho‘lpon’s recognition of Gorky as a “great master,” “noble teacher,” “friend of the people,” and “eminent artist” illustrates his profound understanding of Russian prose through the figure of Gorky.

The article aims to substantiate and thoroughly analyze the role of Russian prose specifically, Gorky’s works in shaping Cho‘lpon’s development as a prose writer. It emphasizes Cho‘lpon’s command of the Russian language and his literary achievements in prose, particularly through his masterful translations of Gorky’s texts. It is argued that by creatively studying Russian prose from an early stage, Cho‘lpon accessed the artistic laboratories of Russian writers through translation and derived substantial creative insights from them.

Keywords: realism, landscape, character, creative laboratory, artistic and aesthetic thought.

Cho‘lpon ongida yangicha tafakkur shakllanishida, ijtimoiy tuzumni anglashida O‘sh shahrida ochilgan rus-tuzem maktabida olgan bilimlari sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Ma’rifatarvar ijodkor rus madaniyatini o‘rganib, xalqlar orasidagi ijtimoiy jarayonni qiyosan tahlil qilar ekan, unda milliy qadriyatlarni e’zozlash, ona tili ravnaqi uchun qayg‘urish, Vatani, millati sha’nini yuksakka ko‘tarish tuyg‘ulari yanada alanga oldi. Cho‘lponning zamondoshi Laziz Azizzoda bu haqda shunday yozadi: “Yoshligidan mutolaasi kuchli bo‘lgan Cho‘lpon 1912 yillardan boshlab rus adabiyotidan ham samarali foydalanib, til, adabiyot, tarix, falsafa, ilmi bade’ kabi fanlarni o‘zining ijtihodi va otasining jiddiy tarbiyasi natijasida o‘zlashtirib olgan” [Азиззода, 1998:23].

Jahon badiiy-estetik tajribalarining yangi dostonlarda namoyon bo‘lganligini tadqiq etgan adabiyotshunos D.Quvvatova yozadi: “Ijodiy o‘rganish shoir dunyoqarashi, badiiy tafakkur tarzi, uslubida namoyon bo‘ladi. XX asr ikkinchi yarmi o‘zbek dostonchiligini kuzatadigan bo‘lsak, Pushkinning Mirtemirga, Bayronning M.Ali, O.Matjonga, Dante va

L.Ukrainkaning A.Oripovga, Gyotening E.Vohidovga, Nozim Hikmatning M.Shayxzoda, I.Otamurodga ijodiy ta’sir ko‘rsatganligini kuzatish mumkin. Buning natijasida o‘sha shoirlar ijodiga xos badiiy shakllar, uslub o‘zbek shoirlari ijodida u yoki bu shaklda namoyon bo‘ldi, dostonlar tarkibi yangi unsurlar va elementlar bilan boyidi” [Кувватова, 2016:82].

Darhaqiqat, Cho‘lpon ijodi ham jahon, ayniqsa, rus, hind va turk adabiyoti sarchashmalaridan suv ichgan. Jumladan, u rus tilini o‘rganish barobarida bu xalq adabiyoti bilan ham tanisha bordi. U rus shoiru adiblarining sara asarlarini sinchiklab o‘qidi, qiziqib mutolaa qildi. Yozuvchi ijodiy tajribasini orttirish va o‘zbek kitobxonini rus adabiyoti bilan yaqindan tanishtirish maqsadida yozuvchi Maksim Gorkiyning “Ona” romanini, “Tong” va “Ilgaklar” hikoyasini, Anton Pavlovich Chexovning “Vanka”, “Eski qo‘ra”, “Bitayotgan avlodning so‘nggi qizi”, “Yegor”, “Bo‘yinga osilgan Anna”, “Xunuk ish”, “G‘am”, “Xotin” hikoyalarini, tarjima qildi. Tarjimonlik zahmati Cho‘lponning ijodiy tajribasi, undan tashqari Aleksandr Serafimovich, Yuriy Krukovskiy, Yelena Zart, Lidiya Sayfullina singari adiblarning asarlarini mahorat bilan tarjima qildi.. Ushbu tarjimalar badiiy mahorati o‘sishida beqiyos maktab vazifasini o‘tadi. Natijada shoir tafakkurida Sharq adabiyoti an’analarini o‘zga xalqlar badiiy-estetik tajribalari bilan boyitish uchun puxta zamin tayyorlandi. Shu jihatdan, Cho‘lponning ijodiy yuksalishida jahon adabiyotidan amalga oshirilgan yetuk tarjimalarning o‘rni katta bo‘ldi.

Cho‘lpon Moskvada yashab yurgan kezlarda rus adabiyotining yirik vakili, “katta maktab egasi” (Cho‘lpon ta’biri) Maksim Gorkiy bilan uchrashadi. U o‘zining “Katta maktab egasi” maqolasida shunday yozadi: “Buyuk Gorkiyni ko‘rish va so‘zlarini eshitish sharafiga erishganlardanman. 1935 yilning mart oyida edi, shekilli (agar yanglishmasam), SSSR sovet yozuvchilari soyuzining plenumida Gorkiyning so‘nggi so‘zi bo‘ldi. O‘zi qarig‘an sari ruhi va inqilobiy g‘ayrati orta borgan bu ulug‘ chol kuchli olqishlar ostida minbarga chiqdi. Olqishlar, nihoyat, to‘xtadi-da, sekin va past ovoz hamda Nijgorod lahjasining ba’zi bir ta’sirlari bilan so‘zga boshladi. Ovozida qariliq ta’sirlari o‘zini ko‘rsatardi, ya’ni orqa qatorlardan tovushini eshitish qiyinroq edi. Bu keksa ovoz bilan aytilgan so‘zlarda ajoyib bir yosh jonlilik bor edi” [Чўлпон, 2016:50].

Demak, bu fikrlar o‘zbek adibining ulug‘ rus yozuvchisiga, uning ijodiga ixlosi, muhabbati baland bo‘lganligini bildirib turadi. Cho‘lpon yana Gorkiy haqida “Katta maktab egasi” (1936), “Ustodning xislatlari”(1936) maqolalar va “Yaxshi bor, Ustoz!” nomli marsiya bitadi:

Yaxshi bor, bizni yetim qo‘ygan buyuk ustozimiz!
Yaxshi borkim, sendan olgay ruhini ijodimiz.
Sen o‘zing ko‘rdingki, turmush chirkidan topdik najot,
Endi bir erkin Vatan, yuksak Vatan avlodimiz [Чўлпон, 2016:326].

Cho‘lpon M.Gorkiyni “buyuk ustoz” deya yuksakka ko‘taradi. Shu e’tirofning o‘ziyoq uning Gorkiy ijodiy maktabidan o‘rganganligini asoslab turadi. To‘g‘ri, bu satrlar oktabr to‘ntarishidan keyin yozilgan va unda yangi tuzumga qaysidir darajada ishonch ruhi ko‘zga tashlanib turadi.

Cho‘lpon Maksim Gorkiyning “Ona” romanini tarjima qilar ekan, undan juda katta taassurotlar oladi. Ijodkor “Ustodning xislatlari” maqolasida buni quyidagicha e’tirof etadi: “... Men ravshan sezamanki, ulug‘ ustod Gorkiy o‘zining klassik ijodi bilan menga, o‘sha ijodning maftun tarjimoniga, o‘zim sezmaganim holda ta’sirini o‘tkazib qo‘yg‘an. Bu ta’sir mening romanlarimda o‘zimga ko‘runib turadi” [Чўлпон, 2016:59]. Demak, Cho‘lpon nasridagi shafqatsiz realizm ulug‘ rus yozuvchisi ijodidan mutaassir bo‘lganligi bilan chambarchas bog‘langan. Shuning uchun bo‘lsa kerak, u Gorkiyni “katta maktab egasi”, “ulug‘ ustod”, “odam do‘sti”, “buyuk san’atkor” deya yuksak baholaydi. Yuqoridagi maqolada adib shunday yozadi: “Gorkiy har qanday tabiat manzarasini jonlantirib, unga jon kiritib, uni ko‘z oldimizga shundoqqina kelib to‘qtaydigan qila oladi. Uning jonli ro‘monlari jonli soyalarini u yoq-bu yoqqa yuboradilar: u tasvirlagan olovning alangasi yonib turgan quruq havo emas, u o‘ynaydi, o‘ynab, qimirlab siz-bizga o‘xshagan yashab turadi..” [Чўлпон, 2016:60]., – deydi. Ma’lum bo‘ladiki, Cho‘lpon rus adibi Maksim Gorkiy asarlari bilan yaqindan tanishgan va uning ijodiga yuqori baho bergan, undan ta’sirlangan, badiiy-estetik tajribalarni o‘zlashtira borgan. Bu haqda o‘zi ham quyidagilarni e’tirof etadi: “Gorkiy – shoir. Uning asarlarida faqat bir nasrchi (ro‘monchi) ko‘rulmaydi, har yer-har yerdan nozik ko‘ngulli, go‘zallik sevguchi va tabiat maftuni bir shoir kelib chiqadi” [Чўлпон, 2016:60].. Demak, Cho‘lponning nozikta’b shoir va mohir nosir sifatida nom qozonishi asosida Gorkiy ijodiy maktabining ta’siri kuchli bo‘lgan. Chunki bu davrda M.Gorkiy rus adabiyotining katta namoyandasi sifatida ma’lum va mashhur edi. Shundan bo‘lsa kerak, Cho‘lpon ham “nasr tilini tarashlashni” Gorkiydan o‘rganganini, “Ona” uning uchun katta maktab bo‘lganini va o‘zining “Kecha va kunduz” romanida “buyuk uslubchining” unumli ta’sirini sezganini ta’kidlaydi [Чўлпон, 2016:60].

Darhaqiqat, Cho‘lpon va rus adabiyoti mavzusining ijodiy ta’siri jiddiy ilmiy xulosalarga kelishga imkon beradi. U yangi o‘zbek

she’riyatining tamal toshini qo‘yar ekan, o‘zbek xalq og‘zaki ijodi va mumtoz adabiyoti an’analari bilan bir qatorda rus she’riyati va nasri tajribalaridan ham samarali foydalandi. Bu esa, o‘z navbatida, she’riyatga va nasriy asarlariga o‘ziga xos ijodiy uslub, yangicha obraz va ohanglarni olib kirdi.

Cho‘lponning zamondoshi hisoblangan, “O‘zbek shoirlari Cho‘lpon” maqolasining muallifi Olim Sharofiddinov (Ayn) shunday degan edi: “Cho‘lpon ming qabat ko‘klarga yuradi. Yerga tushgan onlarida juda qattiq millatchi bo‘lib ketadi. Chunki bu tubanlikka, safolashga sabab bo‘luvchi ajnabiylarni ko‘radi. Ular ruslardan iborat. Ruslarni hech qanday guruhga, qavmga ajratmaydi, butun ruslar uning nazarida mustamlakachilardir” [Чўлпон, 2016:60].Yuqoridagi fikrlardan anglashiladiki, Cho‘lpon ruslarga g‘araz bilan qaramagan, ularning madaniyati va adabiyotiga ixlosmand bo‘lgan. Cho‘lpon rus madaniyatini hurmat qilganligi bois shu millatning ayoliga uylanganligi ham haqiqatdir. U Moskvada yashaganida, o‘nlab mashhur rus yozuvchilari, teatrshunoslari va artistlari, rejissyorlari bilan do‘stlashadi. Umuman, Cho‘lpon rus adabiyotini yaxshi bilgan, yirik rus yozuvchilari ijodiga muhabbati baland bo‘lgan. “Kecha va kunduz”ni o‘qigan ziyrak kitobxon Cho‘lpon Lev Tolstoyning “Tirilish” romanidan ijodiy ta’sirlanganini payqamasdan qolmaydi. Aytish kerakki, bu ta’sir faqat tashqi syujet o‘xshashliklarigina (masalan, Miryoqub – Maryam zaharlanishi, sud jarayoni ta’siri) bo‘lmay, balki xarakterlar ruhiyati talqinida ham sezilarli iz qoldirgan” [Қуронов, 1991:6]. Cho‘lponshunos olim Dilmurod Quronovning yuqoridagi fikrlariga qo‘shilish mumkin. Ayni choqda adabiyotshunos Lev Tolstoyning “Tirilish” romani bilan Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanini qiyosan tekshirgan. Shu jihatdan XX asrni badiiy hodisasi bo‘lgan bu ikki asarlardagi yana mushtarak va ijodiy ta’sir nuqtalarni topish va tahlil etishimizda ustoz-olimning kuzatishlari ilmiy asos bo‘lib xizmat qildi. “Rus va Ovrupo adabiyoti namunalari bilan yaxshigina tanishgan yosh adib realistik adabiyotning jozibasini, uning ijtimoiy hayot muammolarini anglash va anglatish imkoniyatlarini teran his qiladi, ayni shunday adabiyot yaratish, uning vositasida millatining ravnaqi yo‘lida xizmat qilish niyatlarini diliga tugadi” [Қуронов, 1997:6]. Maksim Gorkiyning “Ona” romani ana shunday adabiyot safidan o‘rin egallay oladigan asardir. Shuning uchun Cho‘lpon ushbu romanni mahorat va qiziqish bilan tahlil qilganki, asar uning estetik tafakkurini ochgan, ijodiy laboratoriyasida pishib yetilgan badiiy g‘oyalarini ifoda etishga yo‘l ochgan, o‘ylab yurgan muammolariga yechim topganday bo‘lgan va undan

ilhom olgan.

Maksim Gorkiy rus adabiyotining yirik vakili, uning asarlari yetib bormagan mamlakat bo‘lmasa kerak. Chunki Gorkiy asarlari markazida oddiy mehnatkashlar obrazi turadi, ular markaziy qahramon sifatida bo‘y ko‘rsatadi. Shunday asarlaridan biri “Ona” romanidir. Cho‘lpon Gorkiy bilan birinchi marta 1935 yilda Moskvada, SSSR sovet yozuvchilari plenumida uchrashadi. U shunday lahzalarni: “o‘zi qarig‘an sari ruhi va inqilobiy g‘ayrati orta borgan bu ulug‘ chol kuchli olqishlar ostida minbarga chiqdi”, – deya hayratlanib eslaydi. Cho‘lponning: “Bu notiqning turmushni qanday yaxshi bilganini ko‘rsatib turar va bizlarni ham shunga o‘rgatar edi” [Чўлпон, 2016:50] deganidan Gorkiyning kuchli notiq, tafakkur olami teran, yuksak salohiyatli ijodkor bo‘lganligi anglashiladi.

Cho‘lponning “Ona” romanini o‘qib, mutolaa qilganligini quyidagi e’tiroflardan bilish mumkin: “Men Gorkiyning eng zo‘r va to‘ng‘ich asarlaridan bo‘lgan “Ona”ni tarjima qilish sharafiga ham erishganlardanman. Tarjumaning sifati to‘g‘risida boshqalar gapirar. Men o‘zim faqat shuni aytaman: nasr tilini tarashlarni men boshlab Gorkiydan o‘rgandim. U, menimcha, o‘zi ishlatadigan tilni juda yaxshi ko‘radi, uni har qanday kamchilikdan ozoda holda ko‘rmak istaydi. “Ona”ning tili mana shunday bir til. “Ona” men uchun katta bir maktab bo‘ldi. O‘zimning “Kecha va kunduz” nomli ro‘monimni men ham bu buyuk uslubchining unumli ta’sirini doim sezib turdim” [Чўлпон, 2016:50]. Bu Cho‘lponning badiiy tarjimonlik mahoratini ko‘rsatish barobarida nasriy ijodda uning ulug‘ rus yozuvchisiga ergashganligini, undan ijodiy ta’sirlanganligini asoslab turadi. Qolaversa, Gorkiy asarlari mahoratli nosir sifatida nom qozonayotgan (“Kecha va kunduz”ga qadar 10 ga yaqin realistik hikoyalar yaratgan) Cho‘lponga “katta bir maktab” bo‘ldi.

Maksim Gorkiyning “Ona” romani tarjimasi Cho‘lponning “Kecha va kunduz” asarini yaratishiga ko‘prik vazifasini o‘tadi. Buni har ikki asardan olingan hayotiy lavhalar qiyosi orqali asoslash mumkin bo‘ladi. “Ona” romanida: “Ota-onalar bolalarni qattiq so‘kib, juda yomon ursalar ham, lekin yoshlarning ichkilik ichishlari bir-birlari bilan mushtlashishlari keksalarga tabiiy bir hodisaday ko‘rinar edi, chunki otalari ham yoshligida ichib, mastlik qilib, bir-birlari bilan mushtlashganlar, ularni ham ota-onalari kaltaklaganlar” [Горький, 1986:13]. Bunda Gorkiy rus xarakterini haqqoniy va real tasvirlagan. Chunki tabiiy ravishda kattalarning aybi ochiq aytilgan. Qolaversa, mazkur holat M.Gorkiy realizmining natijasi hamdir. Albatta, adabiyotda realistik prinsiplar qaror topayotgan bir paytda

Cho‘lpon ham unga ergashgan. Yuqorida asardan keltirilgan parcha Cho‘lpon tarjimasida quyidagicha: “Bolalarni juda yomon so‘kib-urardilar, shu bilan birga, yoshlarning mastlik qilishlari va bir-birlari bilan mushtlashmoqlari otalari qoshida tabiiy bir hol edi, chunki otalar o‘zlari ham yoshliklarida ichib mastlik qilib, bir-birlari bilan mushtlashganlar, ularni ham ota-onalar urib katta qilganlar edi”. (“Ona” romanidan, Cho‘lpon tarjimasi). Demak, mutarjim asliyatdagi mazmunni saqlagan va Gorkiy tasvir etgan rus voqeligini kitobxonga yetkaza olgan.

Gorkiy qahramonlaridan biri, butun umr xotiniga kun bermagan, qiynoqlar ostida yashashga mahkum etgan Mixail Vlasovning dafn marosimi achinarli tarzda o‘tganligini quyidagicha tasvirlaydi: “U tobutda og‘zi ochilgan holda yotar, qovog‘idan hamon qor yog‘ar edi. Uni xotini, o‘g‘li, iti, fabrikadan haydalgan eski aroqxo‘r o‘g‘ri Danilo Vesovshikov va posyolkaning bir necha qashshoqlari ko‘mishdi. Xotini tovush chiqarmasdan ozgina yig‘lab qo‘ya qoldi, o‘g‘li Pavel yig‘lamadi” [Горький, 1986:16]. Shunga yaqin tasvirni “Kecha va kunduz” romanidagi Razzoq so‘fi obrazida kuzatish mumkin. Ya’ni, Cho‘lpon ulug‘ rus yozuvchisining “unumli ta’sirini sezgan”: “Razzoq so‘fi shu qadar kamgap, indamas, damini ichiga solgan ziqna odam edi” [Чўлпон, 2013:10]. Darhaqiqat, Gorkiyning qahramoni “qovog‘idan qor yog‘gan”, Cho‘lponning qahramoni “ziqna odam” tarzida xarakteri ochiladi. Bu ikki holatda mantiqan yaqinlik bor. Chunki Cho‘lpon boshqa bir o‘rinda ham uning umr bo‘yi oilasiga, qiziga hatto tishining oqini ko‘rsatmaganligini – biror marta kulmaganligini aytadi [Чўлпон, 2013:10].

“Ona” va “Kecha va kunduz” romanidagi mushtarakliklardan biri va asosiysi – ona obrazi talqinida kuzatiladi. Buni har ikkala asardagi portret, qolaversa, Pavel Vlasovning va Zebining mushtipar onalari tasvirida kuzatish mumkin. “Ona”da: “Onasi novcha bo‘lsa ham, og‘ir mehnatdan va erining kaltaklaridan biroz bukchayib qolgan edi: xuddi bir narsaga tegib ketishdan qo‘rqqanday hamisha ehtiyot bo‘lib, sharpasiz, yoni bilan yurar edi. Yuzi keng, cho‘ziq, serajin, va shishinqiragan bo‘lib, ko‘zlaridan, posyolka xotinlarining ko‘plariniki singari, g‘am-anduh aks etib turardi. O‘ng qoshining ustida kattakon tirtig‘i bor edi, shu tirtig‘i qoshini biroz yuqoriga ko‘tarib turgani uchun o‘ng qulog‘i ham chap qulog‘idan bir oz balandroq bo‘lib ko‘rinar, shuning uchun doim bir narsadan cho‘chib quloq solib turganga o‘xshardi. Qalin, qo‘ng‘ir sochlariga bitta-yarimta oq oralagan. O‘zi ko‘ngli bo‘sh, mahzun va itoatkor bir ayol edi” [Горький, 1986:18].

“Qurvonbibi, so‘figa achchiq qilib bo‘lsami yo o‘zining yaratilish

hamrida shu narsa bormi, harqalay fitnalikdan, ya’ni makr va firibdan xoli emas. Erining xotin-xalaj oldida gapirmaganiga uncha xafa bo‘lmasa ham, lekin o‘z halol xotini oldida gapirmaganiga kuyadi va shu kuyish orqasida firib yo‘li bilan so‘fini gapirtiradi; ba’zida tillarini burro qildirib sayratadi. Buning uchun so‘fining achchig‘ini keltiradigan emas, uning biroz g‘ashini qo‘zg‘ataturgan bir gap aytib qo‘yadi” [Чўлпон, 2023:11].

Otasi o‘limidan bir-ikki hafta o‘tgach, Pavel Vlasov uyiga qattiq mast bo‘lib keladi va stolga qattiq mushtlab, “ovqat qani” deb onasiga baqiradi. Bu manzaraga duch kelgan kitobxon, otasidan o‘tib qayga borardi, “qush uyasida ko‘rganini qiladi”da degan fikrga boradi. Ammo Pavel tezda o‘zini o‘nglab oladi, o‘ylab gapiradigan bo‘ldi, kechki o‘tirishlardan o‘zini tortadi, garchi bayram kunlari biror joyga borsa ham uyga hushyor keladigan bo‘ldi. Ona o‘g‘lining fabrikadagi boshqa yigitlarga o‘xshamaganini ko‘rib sevinar edi, ammo bu o‘rinda tashvishda edi: “Pavel uyga kitob olib keladigan, bildirmasdan o‘qib, yana allaqaylarga yashirib qo‘yadigan bo‘lib qoldi. Gohida kitobdan ba’zi bir narsalarni alohida qog‘ozga ko‘chirib olib, uni ham berkitib qo‘yardi...” [Горький, 1986:19]. Onaning xavotiri kun sayin orta boshladi: “Nima bilan tamom bo‘lishi ma’lum bo‘lmagan bu xavotirlik allanechuk favqulodda bir narsani oldindan sezdirmoq bilan ona qalbini tobora ko‘proq timdalar edi” [Горький, 1986:20]. Shu o‘rindagi xavotir “Kecha va kunduz” romanida Zebining onasining tashvishlariga o‘xshab ketadi. Ona o‘g‘lining kundan kun fikrlashi teranlashganini ko‘rish mumkin. Ona bilan o‘g‘ilning suhbati fikrimizni dalillaydi: “O‘zing o‘ylab ko‘r, shu ham turmush bo‘ldimi? Sen, mana qirqqa kiribsan, shu damgacha biron yorug‘ kun ko‘rdingmi? Otam seni urar, endi o‘ylab qarasam, turmush og‘ir bo‘lganligi uchun nima qilishini bilmasdan, alamini sendan olar ekan, lekin o‘sha g‘amu kulfatlar qayoqdan chiqib kelganini bilmas ekan. O‘ttiz yil ishlabdi, fabrika ikkitagina korpusga sig‘ib turgan vaqtlardan boshlab yetti korpusli bo‘lganga qadar qomatini bukib ishlabdi!” [Горький, 1986:22]. Bunda Pavelning fikr doirasi o‘sib, dunyoqarashi kengayib borayotganini ko‘rish mumkin. O‘g‘lining: “onadan tug‘ilib sen nima ko‘rding? O‘tmishingda sog‘inib eslaguday biron narsa bormi? – degan so‘zlaridan ona mag‘rurlanadi, “unga achinadigan shunday o‘g‘ilga ona bo‘lganligi uchun qalbi iftixor hissi bilan to‘lganligi”dan baxtiyor bo‘ladi. Pavelning hayotga qarashlari vaqt o‘tgan sari o‘zgarib, qat’iylasha boshlagan edi. U: “yaxshi niyat bilan xalq orasiga haqiqat urug‘ini sepgan, shu sababli hayot dushmanlari tomonidan hayvonlar qatori tutib olingan, qamoqqa solingan, katorgaga yuborilgan odamlar to‘g‘risida onasiga

gapirib berardi", "dunyoda asil odamlar ana shular", – deb xitob qilardi. O‘g‘lining kundan-kun ozib ketayotganini, boshlagan ishi tufayli ancha qiynalib yurganini ko‘rgan ona o‘g‘liga shunday deydi: "Seni xudoga topshirdim! Bilganingni qil, senga xalal bermayman. Yolg‘iz birgina so‘rovim bor: odamlardan ehtiyot bo‘lgin, hammaga siringni aytaverma! Odamlar bir-birini ko‘rolmaydi! Butun umrlari ichqoralik, bir-birini ko‘ra olmaslik bilan o‘tadi. Hammasi yomonlik qilish payida. Agar ularning sirini ochib, qilmishlarini taroziga sola boshlasang, senga dushman bo‘lib qoladilar, payingga tushib nobud qiladilar". Bu holatni Cho‘lpon o‘zining "Kecha va kunduz" romanida boshqacharoq tarzda kitobxonga taqdim etadiki, bunday holat insonlarda uchrashi, bunday voqealar, ichki tug‘yonlar inson tiynatida borligini va u halokatga olib kelishini ta'sirli ko‘rsata olgan: "Uydan to‘ppa-to‘g‘ri baqqolning qizinikiga chiqdi. Anchagacha kundoshlari va o‘rtoqlari bilan gaplashib, o‘ynashib, kulishib o‘tirdi. O‘zi zahar berayotgan kundoshini bir quchoqlab o‘pdi... Zebining o‘pishlari issiq va astoydil bo‘lsa ham, Poshshaxon negadir halitdan uni o‘likning sovugan lablaridan olganday bo‘lar va nishab suvga tegib turgan maysa uchiday yengilgina qaltirardi" [Чўлпон, 2013:290]. Kundoshu o‘rtoqlari bilan kulishib, diydorlashib o‘tirgan Zebi ertaga o‘lishi kerak, uning yosh umri, go‘zal husni, shirin muomalasi hammasi xazon bo‘lishi kerak. Shunday toza qalbli xulq egasini Poshshaxonning qabih niyatlari tasvirini Cho‘lpon quyidagicha davom ettiradi: "Zebining shu mehribon, shu sodda, shu bolalarcha ma'sum ko‘zlarida samimiyatdan boshqa hech qanday ma'no bo‘lmasa-da, Poshshaxon unda quyidagi so‘zlarni o‘qidi: "Bir meni o‘ldirganing bilan maqsadingga yetolarmiding? Bekor mening yosh jonimni juvonmarg qilganing qoladi", – deydi. Bundan anglashiladiki, Poshshaxonga o‘xshagan qabih niyatli insonlar borki, ular insonning umri bilan hisoblashib o‘tirmaydi, niyatini baribir amalga oshiraveradi. Fikrimizni adabiyotshunos olim Dilmurod Quronovning quyidagi fikrlari bilan to‘ldirish joiz: "Mingboshi xonadonida bir qizni qurbonlikka keltirish uchun sharoit yetilib turgan (Poshshaxon bunga qanday bo‘lmasin erishardi), Zebining qishloqqa kelishi buni tezlatdi" [Қуронов, 2004:248]. Bundan ko‘rinib turibdiki, Poshshoxon tiynatidagi xarakter shunday, insonga ozor berish xususiyati yetarli. Cho‘lponda tasvir kuchli va ohorli.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Cho‘lpon "Kecha va kunduz" dilogiyasini yozar ekan, Gorkiyning "Ona" romani Cho‘lpon uchun ijodiy maktab vazifasini o‘tagani ayon bo‘ladi. Syujetdagi ayrim mutanosibliklar, Ona va Qurvonbibi, Pavel Vlasov va Sharafiddin Xo‘jaev, Mixail Vlasov

va Razzoq so‘fi kabi ma’naviy-ruhiy jihatdan uyg‘un obrazlar, peyzaj va qahramon ruhiyati tasviridagi uyg‘unlik Cho‘lponning Gorkiy an’analaridan o‘rgangani va individual ijodiy yondashganidan dalolat beradi. Rus adibi asarlaridan amalga oshirilgan tarjimalar Cho‘lpon nasriy ijodining jahon badiiy-estetik tafakkuri darajasiga yuksalishida asosiy omillardan bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Азиззода Л. Чўлпон ким эди? //Ёшлик, 1998, 10-сон. – Б. 23.
2. Горький М. Она. Жаҳон адабиёти дурдоналари. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1986. – Б. 19.
3. Мамажонов С. Чўлпоннинг насрий ижоди. Ўзбек тили ва адабиёти, 1992, 1-сон.
4. Чўлпон. Кеча ва кундуз. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2013. – Б. 290.
5. Чўлпон. Катта мактаб эгаси. //Асарлар. Тўрт жилдлик. IV жилд. – Тошкент: Академнашр, 2018. – Б.50.
6. Чўлпон. Устоднинг хислатлари. /Асарлар. Тўрт жилдлик. IV жилд. – Тошкент: Академнашр, 2018. – 59-бет.
7. Қувватова Д.Х. XX аср иккинчи ярми ўзбек достончилигининг тараққиёт хусусиятлари. ДД. – Тошкент: 2016. – Б .82-83.
8. Қуронов Д. Чўлпон насри поэтикаси. – Тошкент: Шарқ НМАК, 2004. – Б. 248.
9. Қуронов Д. Чўлпон ва Фрейд. Ўзбек тили ва адабиёти, 1991. 6-сон.
10. Қуронов Д. Жаҳон адабиётига йўл. Жаҳон адабиёти. 1997. 6-сон.

ABDULLA ƏVLANİNİN CƏDİDÇİLİK HƏRƏKATINDAKI ROLUNUN KONSEPSİYASI

Gülşən KƏNGƏRLİNSKAYA,
AMEA A.Bakıxanov adına Tarix İnstitutunun böyük elmi işçisi, Bakı
E-mail: gulshan27@mail.ru

Xülasə: XX əsrin əvvəllərində Türküstanda cədidçilik hərəkatının aparıcı simalarından biri Abdulla Əvlani təkcə şair və yazıçı kimi deyil, həm də maarifçi, pedaqoq və ictimai xadim kimi tanınırdı.

Açar söz: Abdulla Əvlani, ədəbiyyat və teatr, cədidçilik, “Birinchi muallim“,“Turan”, “G□ayrat”.

O, “Turan” teatr truppasını yaratmaqla milli dramaturgiyanın inkişafına töhfə vermiş, “G□ayrat”(“Qeyrət”) nəşriyyatını təsis edərək cədidçi ideyaların yayılmasına çalışmışdır. Ən önəmlisi isə onun “Birinchi muallim“ (“Birinci müəllim”) və “Ikkinchi muallim“ (“İkinci müəllim”) adlı dərslikləri maarifçilik baxımından böyük əhəmiyyət daşıyır. Abdulla Əvlani, cədidçilər kimi, qadın təhsilinə xüsusi önəm vermiş, məktəblərin dünyəvi əsaslarla qurulmasını müdafiə etmişdir.

1. Abdulla *Əvlaninin cədidçilik hərəkatındakı rolu*

2. Maarifçilik və təhsil islahatlarına töhfəsi

3. Ədəbiyyat və teatr sahəsində fəaliyyəti

4. Cədidçi ideyalar və onların Sovet dövründəki taleyi

Bu bölmələr arasında Abdulla Əvlaninin cədidçilik hərəkatındakı rolunu araşdırmaq elmi və tarixi baxımdan əhəmiyyətlidir. Elə təqdim etdiyimiz mövzuya belə bir strukturla yanaşa bilərik:

- Cədidçilik hərəkatının yaranma səbəbləri və məqsədləri; Türküstanda cədidçiliyin əsas nümayəndələri; Abdulla Əvlaninin bu hərəkatdakı yerinin aktuallığı – Cədidçilik hərəkatı XIX əsrin sonu və XX əsrin əvvəllərində Orta Asiya və Qərbi Türküstanda sosial və təhsil islahatları ilə bağlı başlanan bir hərəkattır. Cədidçilər, ənənəvi məktəb və təhsil sistemini tənqid edir, dünyəvi təhsili, elmi düşüncəyi və yenilikləri təşviq edirdilər.Təhsil və mədəniyyətin modernləşdirilməsi bu hərəkatın əsas məqsədi idi. Cədidçilər həmçinin dini cəhalətə qarşı çıxmış, sivilizasiyanın inkişafına xidmət edən müasir təhsil və mədəniyyət sisteminin qurulmasına çağırmışdılar. Abdulla Əvlani cədidçilik hərəkatında xüsusi yer tutan bir şəxsiyyətdir. Abdulla Əvlani yalnız təhsil sahəsində deyil, həm də ədəbiyyat və teatrda da inqilabi dəyişikliklərə imza atmışdır.
- Abdulla Əvlaninin maarifçilik fəaliyyəti – Məktəb və təhsil islahatları; Cədidçi məktəblərinin açılması; “Birinchi muallim” və “Ikkinchi muallim” dərsliklərinin hazırlanması; Dünyəvi və milli təhsil prinsiplərinin təbliği; Qadın təhsilinə münasibəti – Qızların təhsil almasının vacibliyini vurğulaması və bu istiqamətdəki fəaliyyətləri – Abdulla Əvlani, Türküstanın cədidçi məktəblərinin qurulmasında mühüm rol oynamışdır. O, ənənəvi təhsil sistemini tənqid edərək, daha müasir və elmi yanaşmaların tətbiqini təşviq etmişdir. “Birinchi muallim” və “Ikkinchi muallim” kimi dərsliklər, Abdulla Əvlaninin təhsil sahəsindəki əhəmiyyətli töhfələrindəndir. Bu dərsliklər, Türküstanda müasir təhsil

sisteminin formalaşmasında böyük rol oynamışdır. Abdulla Əvlani bu əsərlərində müəllimlərə təhsil metodlarını daha yaxşı başa düşmək üçün praktik tövsiyələr vermişdir. Dərsliklərdə həmçinin maarifçilik, vətənpərvərlik və millətçilik ideyaları önə çıxır. Cədidçi məktəbləri müasir təhsilin əsası sayılacaq, burada şagirdlərə yalnız din dərsləri deyil, həm də dünya elmləri, dil və ədəbiyyat dərsləri verilir, bununla da Abdulla Əvlani maarifçi və laqeyd olmayan təhsilin tərəfdarı idi.Qadın təhsilinə münasibəti – Abdulla Əvlaninin ən mühüm cəhətlərindən biri də qadın təhsilinə verdiyi önəmdir. O, qızların təhsil almasının vacibliyini vurğulayırdı və onların cəmiyyətdə fəal rol almasını istəyirdi. Cədidçilərin əksəriyyəti bu məsələyə diqqət yetirirdi, lakin Abdulla Əvlani bu mövzuya daha çox əhəmiyyət verərək, qadınların hüquqlarının təmin olunmasını ön plana çıxarırdı. Abdulla Əvlaninin nəzərindən, qadınların təhsili həm cəmiyyətin, həm də xalqın inkişafı üçün əvəzsizdir. O, qadın təhsilinin gələcəkdəki sosial islahatlar və cəmiyyətin modernləşməsi baxımından həyati vacib olduğunu düşünürdü.

- Ədəbiyyat və teatr sahəsində fəaliyyəti – Ədəbiyyatda cədidçi ideyalar: Şeirlərində və publisistik məqalələrində maarifçilik, milli birlik və inkişafa çağırış; Əsərlərinin əsas mövzuları və ideyaları; Teatrın inkişafında rolu: "Turan" teatr truppasının yaradılması və Teatrın milli şüurun formalaşmasındakı əhəmiyyəti Abdulla Əvlani, ədəbiyyatda cədidçilik ideyalarını ən yaxşı şəkildə ifadə edən yazarlardan biri idi. O, şeirlərində milliyyətçilik, inkişaf, ədalət və insan hüquqları kimi mövzuları işləmiş, öz əsərlərində xalqı maarifə çağırmışdır. Onun yazılarında sosial məsuliyyət, tərbiyə, vətənpərvərlik və insanlıq kimi dəyərlər əsas yer tuturdu. Eyni zamanda, Abdulla Əvlaninin əsərləri, həmçinin gənclərə yönələn motivasiya verici məqamlarla zəngin olmuşdur. Abdulla Əvlaninin ədəbiyyatında həmçinin din və maarifçilik arasındakı balansın qorunması məsələsi önə çıxırdı. O, dinin təhsilə mane olmaması, əksinə, maarifçiliklə birləşərək cəmiyyəti daha yaxşı hala gətirəcəyini düşünürdü. Teatrın inkişafında rolu – Abdulla Əvlani "Turan" teatr truppasını yaratmaqla Türküstanın mədəniyyət həyatında yeni bir səhifə açmışdır. Bu teatr, cədidçi ideyaların geniş kütlələrə çatdırılması baxımından böyük əhəmiyyət kəsb edir. Turan teatrı ilk dəfə olaraq, milli dəyərləri və cədidçi ideyaları səhnələndirərək insanları maarifləndirirdi. Bu, eyni zamanda millətin öz mədəniyyətini və dilini qorumaq məqsədini güdən bir fəaliyyət idi. Teatrın rolu yalnız əyləncəyə deyil, həm də təhsil və maarifçilik məsələlərinə diqqət çəkmək idi. Abdulla Əvlaninin teatrı, həmin dövrün

maarifçi baxış açısını səhnələşdirərək, xalqı düşünməyə və dəyişikliklərə yönəltməyə çağırırdı.

➢ Cədidçiliyin sovet dövründəki taleyi və Abdulla Əvlaninin sonrakı fəaliyyəti – Cədidçi İdeyaların 1920-ci illərdən sonra sıxışdırılması:1920-ci illərin sonlarından etibarən Sovet hakimiyyəti altında cədidçi ideyalar ciddi təqibə məruz qalmış, bir çox cədidçi alimlər və yazıçılar repressiyaya uğramışdır. Abdulla Əvlani də sovet dönəmində sıxışdırılmış və onun əsərləri müəyyən müddətlərdə yasaq edilmişdir. Lakin Abdulla Əvlani, ədəbiyyat və təhsil sahəsindəki irsini qorumağa və gələcək nəsillərə çatdırmağa çalışmışdır. Sovet hakimiyyəti ilə münasibətinə gəldikdə isə – Abdulla Əvlani, sovet dövründə bəzi islahatlara uyğunlaşmağa çalışsada, müstəqil milli vətəndaşlıq ideyalarından imtina etməyib. O, müstəqil Türküstanın gələcəyinə olan inamını heç vaxt itirməyib.1930-cu illərdəki repressiya və irsinin qorunması: Abdulla Əvlani, 1930-cu illərdə Sovet rejiminin repressiya dalğasından qorunmağa çalışmış, lakin sonradan repressiyaya məruz qalaraq uzun müddət unutulmuşdur. Lakin onun ədəbi və maarifçi irsi, sonralar Türküstan və Orta Asiyanın mədəniyyətində böyük əhəmiyyət kəsb etmişdir.

➢ Abdulla Əvlaninin cədidçilik fəaliyyətini daha aydın təsəvvür etmək üçün dövrün məşhur cədidçi lideri Münəvvarqarı Abdurrəşidovun fəaliyyəti ilə müqayisə etməli olsaq, belə bir nəticəyə gəlmiş oluruq:

Münəvvərqarı Abdurrəşidov və Abdulla Əvlani, hər biri öz dövründə müstəqil və mükəmməl cədidçi fəaliyyətləri ilə seçilən, maarifçilik və mədəni inkişafa yönəlmiş nəhəng şəxslərdir. Onlar, cədidçilik hərəkatının ideyalarını öz fərqli yanaşmalarında təcəssüm etdirmiş, həm təhsil, həm də mədəniyyət sahəsində böyük izlər buraxmışdırlar.

Abdulla Əvlani, cədidçilik hərəkatının ən önəmli simalarından biri olaraq, maarifçilik ideyalarının və müasir təhsil sistemlərinin inkişafında əvəzsiz rol oynamışdır. Onun təhsil islahatları, xalqı maariflənmə yönündə irəlilətmək məqsədini güdür və cəmiyyətdəki mənəvi tənəzzülə qarşı çıxmışdır. Abdulla Əvlani, özünəməxsus şəkildə həm Şərq, həm də Qərb mədəniyyətlərini sintez edərək, təhsilin və cəmiyyətin inkişafını mümkün edən ideallar ortaya qoymuşdur.

Münəvvərqarı Abdurrəşidov isə sovet dövrünün təhsil və mədəniyyət siyasətindəki xüsusiyyətlərə uyğun olaraq, daha çox ideoloji və dövlət yönümlü bir yanaşma sərgiləmişdir. O, cədidçi prinsipləri sovet sisteminə uyğunlaşdırmağa çalışmış, sosialist ideologiyasının mədəniyyətə tətbiqini dəstəkləyərək, təhsilin inkişafında praktiki addımlar atmışdır. Onun

fəaliyyəti, cədidçilik hərəkatının Sovet dövrü kontekstində necə reallaşdırıldığını göstərir və bu cür dövlətləşdirilmiş təhsil siyasətinin cəmiyyətdəki rolunu təhlil etməyə imkan yaradır.

Bununla yanaşı, hər iki şəxs də, dövrün mədəniyyətini və təhsil sistemini dəyişdirməyə yönəlmiş cəhdlərində zaman-zaman mübahisələrə yol açmış, lakin həm Abdulla Əvlani, həm də Münəvvərqarı Abdurrəşidov, öz fəaliyyətləri ilə cəmiyyətin maarifləndirilməsi və inkişafına əvəzsiz töhfələr vermişlər. Bu baxımdan, onların fəaliyyətləri yalnız cədidçilik hərəkatının inkişafında deyil, həm də ümumi mədəni inkişafda və sosial dəyişikliklərdə böyük təsirə malik olmuşdur.

Ümumiyyətlə, Abdulla Əvlaninin və Münəvvərqarı Abdurrəşidovun cədidçilik fəaliyyətləri, fərqli ideoloji yanaşmalar və dövrün tələbləri ilə olsa da, hər biri özünəxas şəkildə cəmiyyətdə dərin izlər qoymuş, mədəniyyət və təhsil sahələrində gələcək nəsillər üçün yol açmışdır. Onların işləri, cədidçilik ideyalarının dövrün şəraitinə uyğun olaraq inkişaf etdiyini və bu ideyaların mədəniyyətin və təhsilin inkişafında necə rol oynadığını bir daha təsdiq edir.

- Nəticə olaraq, bütün bunlarla belə, Abdulla Əvlani, Türküstanın cədidçi hərəkatında çox mühüm bir şəxsiyyət olaraq qalır. O, yalnız təhsil və mədəniyyət sahəsində deyil, həm də ədəbiyyat, teatr və qadın hüquqları kimi mövzularda da ciddi islahatçı fikirlərini ortaya qoymuşdur. Müasir dövrdəki əhəmiyyəti – Abdulla Əvlaninin ideyaları hələ də Türk dünyasında, xüsusən Orta Asiyada müasir maarifçilik və mədəniyyət hərəkatları üçün əsas ilham mənbələrindən biridir. O, həyatını millətinin maariflənməsi və inkişafı uğrunda sərf etmiş bir şəxsiyyət olaraq qalır.

Ədəbiyyat:

1. M. Hüseynzadə. Müasir Azərbaycan dili . Morfologiya, Şərq-Qərb , Bakı 2007.s, 279.
2. Mustafa Volkan Coşkun. Özbek Türkçesi Grameri.Türk dil Kurumu Yayınları, Ankara, 2017, s, 250.
3. Eynel, S. Özbək türkçesinde ünlemler, Doktora tezi, 2018, s.115 https:// www.academia.edu /62752549/%C3%96zbek_T%C3%BCrk%C3%A7esinde_%C3%9Cnlemler
4. Türk yazı dilləri, https://ets.anadolu.edu.tr/storage/nfs/TDE303U/ebook/TDE303U-11V3S1- 8-0-1-SV1-ebook.pdf s.176

OBRAZ YARATISHDA SARIQ RANG IFODASI

Tajibaeva Dilfuza Erkinovna,
Namangan davlat universiteti
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent,
Email: tojiboyeva.dilfuza66@gmail.com
Tel:(+998994304637)

Annotatsiya: She’riyatning vazifasi inson va uning muammolari, kundalik turmushdagi voqea-hodisalarni aks ettirishdan iboratdek tuyulgani bilan uning tushunib bo‘lmas, ko‘z ilg‘amas manzillari bisyor. Ana shu manzillarni ko‘zlash uchun ijodkorning rangin dunyosiga, individual olamiga kirib borish zarur. Shundagina uning o‘ziga xosligi, badiiy ijoddagi mahorati birma-bir o‘zligini namoyon qila boshlaydi.Har bir ijodkorning o‘ziga xosligini belgilovchi g‘oyaviy-uslubiy yo‘nalishi mavjud. Uslub bu insondir, degan fikrda haqiqat mujassam. Zamonaviy o‘zbek she’riyatida bugungi kunda ham faol ijod bilan mashg‘ul bo‘layotgan Xurshid Davron, Usmon Azimlar shoir sifatida o‘z individual uslublariga ega bo‘lgan ijodkorlardir. Bu o‘ziga xoslik ularning quyida tahlilga tortilgan she’rlarida, betakror misralarida va ifoda tarzida ko‘rinadi.

Xurshid Davron, Usmon Azim she’riyatida an’anaviy ramziy ranglarning o‘zgacha ma’nolari kashf qilinadi. Rang bilan bog‘liq ramziy-majoziy timsollarning o‘ziga xos ifodasi mavjud bo‘lib, qora rang – go‘zallik, oq rang – aybsizlik, samimiylik, sariq rang – eskirish, unutish, ayriliq, ko‘k rang – azadorlik ma’nolarini ifodalab keladi.

Ushbu maqolada esa sariq rang obraz yaratish vositasi sifatida qo‘llanilganligi tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: obraz, vosita, ramziy-majoziy, individual uslub, zamonaviy she’riyat, g‘oyaviy-uslubiy yo‘nalish, ma’no, badiiy ijod

Abstract: Although it seems that the task of poetry is to reflect a person and his problems, the events of everyday life, it has many incomprehensible, invisible destinations. To find these destinations, it is necessary to enter the world of color, the individual world of the creator. Only then will his uniqueness, his skill in artistic creation begin to manifest itself one by one.

Each creator has an ideological and stylistic direction that determines his uniqueness. The idea that style is a person is true. Khurshid Davron and

Usmon Azim, who are still actively engaged in creativity in modern Uzbek poetry today, are creators who have their own individual styles as poets. This uniqueness is visible in their poems, unique lines and manner of expression, which are analyzed below.

In the poetry of Khurshid Davron and Usman Azim, the unique meanings of traditional symbolic colors are discovered. There is a unique expression of symbolic and figurative images related to color, and black color represents beauty, white color represents innocence, sincerity, yellow color represents wear and tear, oblivion, separation, and blue color represents grief.

This article analyzes the use of yellow color as a means of creating an image.

Key words: image, medium, symbolic-figurative, individual style, modern poetry, ideological-stylistic direction, meaning, artistic creation

Xurshid Davronning “Basyo kitobining varaqlarida” deb boshlanuvchi she’rida sariq va alvon ranglar tilga olinadi:

Basyo kitobining varaqlarida
Sarg‘aygan yaproqlar, alvon yaproqlar.
Qadim ibodatgoh... Undan narida
Toqqa o‘rmalagan daydi so‘qmoqlar [X. Davron, 1997: 121].

Sariq rang – ayriliq, hijron, ba’zi o‘rinlarda bemorlikning belgisi, ramziy timsoli. O‘zbek mumtoz adabiyotida ham sariq rang tasvirini ko‘plab o‘rinlarda uchratish mumkin. Zahiriddin Muhammad Bobur “Xazon yaprog‘i yanglig‘ gul yuzing hajrida sarg‘ardim,” deya ta’kidlab, sariq rang, sarg‘ayish, xazon yaprog‘idek bo‘lishning go‘zal timsolini yaratgan. Xalq orasida bemor bo‘lish, kutish, intizorlik, eskirish ma’nolariga nisbatan ham sariq rang qo‘llaniladi. Xurshid Davronning yuqoridagi she’rida “sarg‘aygan yaproqlar” deganda inson umrining tushkun daqiqalari yoki unutilgan sahifalarini nazarda tutmoqda. Shoir ijod sahifalarida “alvon yaproqlar”ga ham duch kelish mumkin. “Alvon rang” – qizil, lovullab turuvchi, jo‘shqinlik kasb etuvchi rang. Demak, inson hayotining bir pallasi sariq rangdan iborat bo‘lsa, bir pallasi qizil rangdan iborat qilib ifodalanadi.

Xurshid Davron ijodida o‘tmish voqea-hodisalariga yuksak ma’naviy nazar bilan boqish, boshqalardan ham mana shu e’tiborni talab qilish kabi munosabatlar borki, bu har qanday insonni millat tarixini himoya qilishga, milliy qadriyatlarni e’zozlashga undaydi. U moziy sahifalarini bilmay turib bugunni anglab bo‘lmasligini yaxshi tushunadi. Shunday tuyg‘u va

kechinmalari uni Samarqanddagi ozodlik haykali qoshiga olib keladi:

Xazonlar...
Xazonlar boqqa hukmron,
Tillarang bo‘yoqqa bo‘yalgan olam.
Ozodlik haykalin qoshiga bu on
Ezgu o‘ylarimni olib keldim men. [X. Davron, 1984: 66.].

Shoirning tashrifi oltin kuz fasliga to‘g‘ri kelyapti. Chunki shoir tasvirlaganidek *Tillarang bo‘yoqqa bo‘yalgan olam* da, ya’ni kuzda inson xayollari uzoqlarga ketadi. U mana shu daqiqalarda ozodlik uchun, erk uchun kurashgan botirlar ruhi bilan suhbatlashishni maqsad qiladi.

Shoir ramziy timsolning yetakchi xususiyatidan foydalanadi. Ramz obrazli ifodaning bir ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘ladi. Haykal ostida yonib turgan olovni shoir *olov ozodlik undirgan giyoh* deb ataydi. Bu olovning taftidan yurak yonadi, olov yurak shakliga kiradi. Olov timsoli ham sariq rangda ekanligi ramziylik kasb etadi.

o‘rganilgan bo‘lsa, xalqaro maydonda ham Abdurauf Fitrat shaxsiyati, qarashlari, asarlari to‘g‘risida bir qancha ishlar amalga oshirilgan.

Ma’lumki, tariximizning qorong‘u yillarida milliy adabiyotimizga yetarli e’tibor qaratilmagan, ayrim she’rlarning taqdiri og‘izdan og‘izga yashirincha o‘tib borish bilan yakunlangan. Shunday bo‘lsa ham, butun Turkistonning ozodlik, erk talab qiluvchi sadosini o‘chirib qo‘yish mumkin emas edi. A.Subutoy ta’biri bilan aytganda, o‘sha davrda buni buxorolik Abdurauf Fitrat va uning she’rlari isbotlagan edi:

Ey Ulug‘ Turon, arslonlar o‘lkasi!

Senga ne bo‘ldi? Holing qalaydir? Nechuk kunlarga qolding?

… Dunyoni “urho”lari bilan titratkan yo‘lbars yurakli bolalaring qani? Yer tuprog‘ini ko‘klarga uchiratirg‘on tog‘ gavdali o‘glonlaring qani? Nechun tovushlari chiqmaydir?

…Yo‘q… yo‘q… Tangri haqqi uchun yo‘q!.. Sen kuchsiz emassan, sen kimsasiz emassan! Bugun yer yuzida sakson milyun bolang bor. Bularning tomirlaridagi qon chingizlarning, temurlarning qonidir. Bularning kuchlari sening kuchingdir!

Ey Ulug‘ Turon, arslonlar o‘lkasi!

A.Subutoy ayni misralarni kechmishi buyuk xalqning yashash istagidan darak beruvchi belgi sifatida atadi. Shuningdek, u aruzda ijod qilgan Miriy va Siddiqiydan farqli ravishda Fitratning barmoq vaznidan foydalanganini ham alohida e’tirof etadi. O‘z turkiy ona tilidan tashqari fors va arab tillarini ham xuddi shunday puxta bilgani, ravon fikr yuritgani uchun uning fors tilidagi she’rlari Afg‘onistonda ham yuqori baholangan. Lekin negadir 1917-yilda Fitrat Istanbuldan ona yurtiga qaytgach, Mahmudxo‘ja Behbudiy unga fors tilidagi she’rlarini nashr etishni ta’qiqlaydi. Olim Fitratning Turkiston uchun 1923-yil Berlinda nashr qilingan “Hind ixtilolchilari” asarini o‘z davrida Germaniya uchun Fridrix Shiller tomonidan yaratilgan “Vilgelm Tell” dramasi bilan bir xil ma’noga ega deb hisoblaydi. Fitrat ona shahri Buxoroga qaytgach, u yerdagi obro‘si ortib boradi. Turkiston yoshlarini g‘arb madaniyati, sivilizatsiyasi bilan tanishtiradi, tahsil olish uchun 60 nafar turkistonlik qiz va yigitlarni Germaniyaga yuborish g‘oyasiga boshchilik qiladi. Fitratning bu xatti-harakatlaridan cho‘chigan ruslar, uzoq chidab tura olmay, uni siyosiy mahbus sifatida Moskvaga olib ketishadi. 1925-yilga kelib yana Turkistonga qaytadi.

B.Hayit ham Fitrat va uning asarlari xususida so‘z yuritar ekan, uning asarlari hali jamlanmaganini aytib, yillar kesimida ularni keltiradi. Mustaqillikdan keyingi davrda (2000-2010-yillarda) H.Boltaboyev,

B.Qosimov, N.Karimovlar rahbarligida Abdurauf Fitratning V jildli “Tanlangan asarlar”i chop etildi. B.Hayit Fitratning “Chig‘atoy gurungi” tashkilotiga asos solganiga, uning faoliyatiga ijobiy baho beradi. (E.Olvortda bu jamiyat haqida ma’lumotlar uchraydi.) Uning adabiyotshunoslik ilmiga qo‘shgan hissasini (“Adabiyot qoidalari”) ulug‘laydi. Abduraufning “Chin sevish” asaridan: *Biz musulmonlar, yolg‘izgina aldanmoq uchun dunyoga kelibmiz chog‘i… Boyimiz, ishchimiz, mullomiz, yozuvchimiz, o‘qituvchimiz, shoirimiz, faylasufimiz, kattamiz, kichigimiz Ovruponing gazetasiga, kitobiga, so‘ziga, ishiga, qonuniga, vaziriga, oltiniga, qiziliga aldanmoqdan bo‘lak ishni bilmaydir…* parchasini keltirgan o‘zbek muhojiri B.Hayit Fitrat dunyoning turli burchaklaridan musulmonlarga xiyonat qilinayotganini aytmoqchi bo‘lib, buni asarining bosh qahramoni Karimbaxshxonga gapirib beradi, degan fikrni ilgari surar ekan, davomida taajjubli bir gap aytadi: Fitrat Rossiyani Yevropa deb tushungan deydi, (balki bu ramziy ma’nodadir) buyuk ma’rifatparvarning bilimlari haqidagi biz bilgan ma’lumotlar bizda B.Hayitning ayrim fikrlariga nisbatan shubha uyg‘otadi. Fitratdek buyuk iste’dod sohibi, bilimlar egasining geografiyaga oid qarashlari boshqa fan tarmoqlaridan kam bo‘lmagan. Tadqiqotchi “Fitrat va turkiylik” degan bo‘lim bilan ajratilgan “Sovyetlerde turklugun ve islam’in bazi meseleleri” nomi bilan Turkiyada chop qilingan asarida esa Fitratning turkiy til rivojiga qo‘shgan hissasini, “Temur sag‘anasi” asari bilan esa Sohibqiron shaxsining sovetlar tomonidan buzib ko‘rsatilishiga qarshi chiqqanini yoritadi.

Edvard Olvort “Uzbek literary politics”da Fitratning “Mirrix yulduziga” she’rini allegorik asarlardan biri deb hisoblab, she’r o‘z muxlislari bilan birga bir qator dushman tanqidchilarini ham topganini aytadi:

So‘yla yulduz, holing nadir, nechuk topding dunyoni?
Bizning yerda bo‘lib turgan tubanliklar, xo‘rliklar,
So‘yla yulduz, sening dag‘i quchog‘ingda bo‘lurmu?

Olvort tanqidchilar “Mirrix yulduziga”ni Fitrat Sho‘rolar davrida faqat “tubanliklar” va “xo‘rliklar”ni ko‘rgan, degan ma’noda talqin qilganini ta’kidlaydi.

To‘sib turgan oydinlikning yo‘lini
Shu qop-qora, eski, titrak bulutlar
Kuchli bir yel ko‘rgach turmas, yirtilar,
Umid kuni sening uchun ham tug‘ar.

misralari bilan boshlanuvchi Mirmuhsinga bag‘ishlangan

“Ovunchoq” she’rida ham Fitrat qora bulutni uchirib yuborish uchun kuchli shamol bo‘lishini istaydi. Qora bulut ruslarning O‘zbekiston ustidan hukmronligi ramzi edi. Olim yana bir “Central Asia: 130 years of Russian dominance, a historical overview” asarida ushbu she’rni ingliz tiliga ham tarjima qiladi:

Obstructing the path of the moon-light are
These jet black, trembling old clouds (Russians).
When a strong wind comes, they will break up.
It will bear you a day of hope!

Muallif Fitratning ushbu ijod namunasini aynan allegoriyaga misol ekanini asoslamoqchidek, Oy nurini to‘sib turgan qop-qora, eski, titrak bulutlarni ruslar edi deb tarjimada aynan aks ettiradi.

1920-yilning boshlarida Fitrat va boshqalar o‘z tanqidchilarini tinchlantirishga, bolsheviklar tomonidan adabiyotga qo‘yilgan talablarni bajarishga harakat qildilar. Fitrat “Qiyomat” asarini va “Arslon” nomli katta hajmli dramasini yozish orqali Bolshevik tanqidchilari tomonidan vaqtinchalik ma’qullanish, tinch qo‘yilishga erishdi, deb yozadi tadqiqotchi. Bu she’r haqida shu mazmundagi fikrlarni olimning “Central Asia 130 years of Russian dominance, A history overview” asarida ham ko‘rishimiz mumkin. Olvort Fitrat tomonidan tashkil qilingan “Chig‘atoy gurungi” jamiyati haqida yozar ekan, bu tashkilotning nega “O‘zbek gurungi” yoki “Turkiston gurungi” emas, aynan “Chig‘atoy gurungi” deb nomlangani to‘g‘risida fikr yuritib, isboti uchun asosli manbalarni ham keltiradi, jamiyatning faoliyati, uning tugatilishi sabablariga to‘xtaladi. Shu o‘rinda amerikalik professor Abdurauf Fitratning adabiy til borasidagi xizmatlarini ulug‘lab, u toza turkiy adabiy til uchun kurashdi, deydi. Shuningdek, muallif G‘arbiy Germaniyadagi o‘zbek muhojirlari rahbari sanalgan Vali Qayumxonning ma’lumotlariga asoslanib, Fitrat “Muqaddas qon” nomli pyesa yaratganini aytadi, ammo ushbu asarning ayni yoki boshqa nomda e’lon qilingan-qilinmaganligi haqida ma’lumotga ega emasligini aytadi. U keyinchalik 1990-yilda chop etilgan “The Modern Uzbeks. From the fourteenth century to the present. A cultural history” (“Zmonaviy o‘zbeklar. XIV asrdan hozirgi kungacha. Madaniyat tarixi”) asarida Fitratning “Munozara” asari xususida alohida to‘xtaladi: *Fitrat o‘zining diniy va madaniy qarashlarini ifodalash uchun O‘rta Osiyo va Yaqin Sharqdagi an’anaviy xayoliy sayohatnomani tasvirlashda dialog shaklidan foydalanadi. Hindistonda tasvirlangan voqeada Makkaga diniy ziyorat uchun ketayotgan Buxoro madrasasi muallimi Yevropalik suhbatdoshi bilan bahslashadi. “Munozara” mazmun-mohiyati jihatidan*

yorqin zehn, adabiy iste'dod, didaktiklik, takrorlanuvchi bahslardan ko'ra ko'proq kitobxonni aql va tanish misollar orqali ishontirishga qaratilgan. Olvortning yuqoridagi fikrlarini hindistonlik Sarfroz Xon o'zining "Muslim reformist political thought. Revivalists, modernists and free will" ("Musulmon islohotchi siyosiy tafakkuri. Revivalistlar, modernistlar va iroda erkinligi") asarida ham keltirib o'tadi. Ta'kidlash joizki, ushbu asari "Uzbek literary politics"da keltirilgan fikrlardan farqli, Adib Xolid esa Abdurauf Fitratning "Hind ixtilolchilari" asariga Istanbuldagi eronlik surgun Zayn ul-Obidin Marog'iyning "Ibrohimbek sayohati" asari ta'sir o'tkazganini, "Munozara" asarida esa Eron modernizmida keng tarqalgan dialog usulidan foydalanganini aytadi. E.Olvortning 1983-yilda "Canadian American Slavic studies" jurnalida chop qilingan "The search for group identity in Turkistan, March 1917 - September 1922" maqolasida Fitratning vafot etgan yili 1937-yil deb noto'g'ri ko'rsatilgan. Bizdagi ma'lumotlarga ko'ra, xuddi shu yili "Millati ittihod" aksilinqilobiy tashkilotining a'zosi sifatida hibsga olingan Fitrat qamoqqa olinganidan so'ng ilk bora o'sha yilning 25-oktabrida so'roq qilinadi.

1972-yil Anqara universiteti bosmaxonasida Saodat Chig'atoyning "Turk lahjalari namunalari" 2-kitobi nashrdan chiqdi. Jonli turk lahjalari va shevalarini tanishtirishni maqsad qilgan muallif unda Oybekning "Navoiy", Fitratning "Qor", Cho'lponning "Suhbat", "Ey go'zal Farg'ona", Elbekning "Til" she'rlarini keltiradi. Fitratning "Qor" she'ri birinchi va so'nggi bandlari ayrim o'zgarishlar bilan keltiriladi. 1-banddagi farqlar quyidagicha:

Kuchsiz, titroq, oppoq, kichik tomchilar,	Kuchsiz, titrak, oppoq, kichik tomchilar,
Turmay, tinmay tuproq uza yog'adir.	Turmay, tinmay tuproq uzra yog'adir.
Yel **bizlarni,** bilmam, nechun qamchilar?!	Yel **bunlarni** bilmam nechun qamchilar
Ko'klarda ham **ayozlikdan** oqarg'an	Ko'klarda ham **ayriliqdan** oqargan
Bir ko'z **bormikim, Yoshi**	Bir ko'z**im bor kim: yosh**
Bizni**ng** alam, o'lim bilan sug'or**il**gan	Bizni alam, o'lim bilan sug'organ
Yerimizning **ko'chigiga** oqadir.	Yerimizning **quchog'iga** oqadir.

She'rning oxirgi bandida ham misralardagi ayrim so'zlar farqlidir. Bundan tashqari, oxirgi to'rt misra ham butunlay tushurib qoldirilgan. Olimaning ushbu tadqiqoti tilshunoslik yo'nalishiga doirligini nazarda

tutib, farqli o‘rinlarni keltirish bilan cheklandik. Oxirgi misralarning tushurib qoldirilishi esa uning mazmuni sabablidir. She’rning “Sharq yulduzi” jurnali 1991-yil 6-sonida nashrida ham oxirgi to‘rt misra keltirilmaydi.

Yana bir kun **ko‘k ko‘kragini** ochib,	Yana bir kun, **kun siynasini** ochib
Kula-kula **bunlar** sari boqg‘anda,	Kula, kula **bular** sari boqqanda
…	…
Sho‘r suvlardan chiqib kelgan bu-maymun,	
Tulki, ilon, shayton, aldovchi mal’un	-
Anglizlar!...	-
Hamda uning quyrug‘ini tugkanlar!	-

Bizningcha, olima yuqoridagi she’rlarni keltirishda o‘zbek tilidagi manbalarga tayangan emas, bunday deyishimizga sabab asarda Cho‘lpon, Fitrat va Elbek she’rlari ham tilga olinar ekan, Elbek she’ridan avval muallif Berlinda nashr etiladigan “Milliy adabiyot” jurnali 1943-yil 5-soni deb keltiradi. Bu jihatdan olib qaraganda, Cho‘lpon va Fitrat she’rlarini keltirishda ham ayni shu yoki shunday boshqa bir chet el nashriga tayangan bo‘lishi mumkin.

Amerikalik tadqiqotchilardan yana biri William Hanaway “Munozara” xususida “Farsi, The Vatan and the Millat in Bukhara” maqolasida: “1909-1925-yillarda buxoroliklarda milliylikni anglash hissi bo‘lganmi? Uning tabiati qanday edi?” −kabi savollarga javob izlar ekan, Buxoroda forsiy vatan va millat tushunchalariga to‘xtaladi: fors tilining ahamiyati xususida so‘z yuritib, buxoroliklar foydalangan fors tili bilan eron adabiy tili orasida morfologik, sintaktik jihatdan farqlar borligini (maqola tilshunoslik fani uchun ahamiyatli), shuningdek, Buxoroda ko‘plab eroniy lahjalar mavjud bo‘lganligini aytadi. Odamlarning o‘z tillariga bo‘lgan munosabati, madaniy jihatdan o‘zini qanday deb bilishlarini ko‘rsatishini aytar ekan, Hanaway “Munozara”dan quyidagi parchani keltiradi:

Mudarris: Gumonim borki, forsiyni yaxshi bilmas ekansan. …

Farangi: Yo men (siz aytgan) forscha so‘zlarni xato tushunyapman, yo siz xato gapiryapsiz. …

Hanaway Farangining bu so‘zlarini Fitrat asarning boshida yozgan muqaddimasi bilan isbotlashga urinadi, ya’ni muallif asarni buxoroliklar uchun tushunarli bo‘lsin deb, ularning so‘zlashuv tilida yaratganini eslatib o‘tadi. Buxorolik ziyolilar Buxoro haqida nimalarni his qilishlarini

Fitratning quyidagi so‘zlari bilan izohlaydi: Buxoro bizning muqaddas vatanimizdir, Buxoro bizning mehribon onamizdir. Buxoro bizning nash’u namo joyimiz, Buxoro bizning sajdagohimizdir, Buxoro bizning aziz ma’shuqimizdir, Buxoro bizning jonimiz-la barobar mahbubimizdir, Buxoro bizdandir, biz Buxorodan.

Shu o‘rinda buxorolik yetuk ziyolilar Buxoroni vatan, vatandoshlarini millat, eron tilini esa fors deb ataganlar degan uzil-kesil fikrni aytadi. Bu davr ziyolilari (Fitrat, Ayniy, Behbudiy va boshqalar)ning aksariyati ikki tilli edi deya e’tirof etadi.

Ko‘rinadiki, Abdurauf Fitrat, uning ijodi nafaqat o‘zbek ilm-fanida balki jahon adabiyotshunosligi ilmida ham ko‘plab ijodkorlar tomonidan o‘rganilgan va o‘rganilmoqda. Fitratshunoslik ilmi ko‘plab qimmatli ilmiy ma’lumotlar bilan boyib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Allworth E. The Modern Uzbeks. From the fourteenth century to the Present. Hoover Institution Press. Stanford University, 1990. – P.144.
2. Allworth E. The search for group identity in Turkistan, March 1917 – September 1922. Canadian-American Slavic studies.17, No 4. (Winter 1983). – P.494.
3. Allworth E. Central Asia: 130 years of Russian dominance, a historical overview. Duke university press. Durham and London. 1994. P-415.
4. Болтабоев Ҳ. Номаълум Фитрат//Ёшлик. – Тошкент, 1990, 4 сон, – Б.34-39.
5. Fitrat A. Tanlangan asarlar. I jild. She’rlar, nasriy asarlar, dramalar. Yurt qayg‘usi (sochma). –Toshkent: Ma’naviyat, 2000. – B. 32.
6. Fitrat A. Chin sevish. She’rlar, dramalar, maqolalar. –Toshkent: G‘afur G‘ulom, 1996. – B. 39.
7. Fitrat A. Chin sevish. She’rlar, dramalar, maqolalar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 1996. – B. 39.
8. Fitrat A. Mirrix yulduziga. She’rlar, dramalar, maqolalar. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1996. – B. 26.
9. Фитрат А. Қор. Танланган асарлар. I Жилд. Шеърлар, насрий асарлар, драмалар. – Тошкент: Маънавият, 2000. – Б. 43.
10. Fitrat A.Qor. Čhag‘atay S. Turk lehjeleri örnekleri II. Yaşayan agiz ve lehčeler. Ankara, 1972. – B. 47.
11.Fitrat A. Tanlangan asarlar. I jild. Hindistonda bir farangi ila Buxoroli mudarrisning jadid maktablari xususinda qilg‘an munozarasi. – Toshkent: Ma’naviyat. 2000. – B. 58.

12. Fitrat A. Tanlangan asarlar. I jild. Hindistonda bir farangi ila Buxoroli mudarrisning jadid maktablari xususinda qilg‘an munozarasi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2000. – B. 97.

13.Hayit B. Die jungste O‘zbekische literature. Central Asiatic Journal, 1962. June. – P. 137.

14.Hayit B. Die jungste O‘zbekische literature. Central Asiatic Journal, 1962. June. – P. 137.

15.Hanaway W. Farsi, The Vatan and the Millat in Bukhara. The nationality question in Soviet Central Asia. Praeger publishers. 1973. P-143-150.

16.Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2008, – B. 104-130.

17. Qosimov B. Uyg‘onmoq dunyo bilan barobar yashamoqdir//Jadid. – Toshkent, 2024, 5-yanvar. – № 2. – B. 4.

18.https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/mutavakkil-burhonov-fitrat-va-cholpon-haqida-xotiralar.html

REPRESSİYA İLLƏRİNİN AZƏRBAYCAN JURNALİSTİKASI
(1930-1937-ci illər)

Dr.Akif VƏLİYEV (Aşırlı),
“Şərq“ qəzetinin baş redaktoru,
Bakı Dövlət Universitetinin müəllimi,
Mətbuat Şurası İdarə Heyətinin üzvü,
Əməkdar jurnalist, Bakı
E-mail*: akif-veliyev@mail.ru*

Xülasə: 1930-cu illərin əvvəllərində Sovet İttifaqının hər yerində olduğu kimi, Azərbaycanda da, ölkənin hər yerində olduğu kimi, hər cür təşəbbüsə təzyiqlər, direktiv əmirlikdə, dövlət orqanlarında, yaradıcı təşkilatlarda, partiya strukturlarında Stalin “üslubunun” tətbiqi ölkədə gərgin ictimai-siyasi vəziyyət yaratdı. Bu repressiyalar zamanı yüzlərlə azərbaycanlı və türk ziyalısı sovet işgəncə mexanizmlərinin qurbanı oldu; bəziləri sürgün edildi, bəziləri güllələndi.

Açar sözlər: *Sovet Azərbaycanı, Sovetlər Birliyi, repressiya, sürgün, “Kommunist“ qəzeti, “Ədəbiyyat“ qəzeti, Qırmızı terror*

Abstract: In the early 1930s, as in all parts of the Soviet Union, in Azerbaijan, as well as in other parts of the country, the pressure on all kinds of initiative and the application of the Stalin “style“ in directive amirate, state bodies, creative organizations, and party structures created a

tense socio-political situation in the country. During these repressions, hundreds of Azerbaijani and Turkish intellectuals became victims of the Soviet torture mechanisms; some were exiled, and some were shot.

Key words: *Soviet Azerbaijan, Soviet Union, repression, exile, "Communist" newspaper, "Literature" newspaper, Red Terror*

Giriş

1930-cu illərin əvvəllərində Sovet İttifaqının hər tərəfində olduğu kimi Azərbaycanda da hər cür təşəbbüskarlığa təzyiq, direktiv amirlik, dövlət orqanları, yaradıcılıq təşkilatları və partiya strukturlarında Stalin "üslubu"nun tətbiqi ölkədə gərgin-ictimai siyasi vəziyyət yaratdı. Kommunist Partiyasının XV qurultayı 1927-ci ilin dekabr ayında keçirildi və SSRİ xalq təsərrüfatının inkişafının ilk beşillik planının tərtib edilməsinə dair direktivlər qəbul etdi. Azərbaycan KP MK-sı respublikanın inkişaf perspektivlərini "baş kursa" uyğunlaşdırdı və yaradıcılıq təşkilatları ziyalılar, qəzet redaksiyalarına qəti tələblər qoydu. 1927-ci ilin noyabrında keçirilən AK (b)P-nın XIII qurultayı Azərbaycanın tam inkişafını yox, mərkəzin ona diqtə etdiyi şəkildə neftdən sonra pambıqçılığın inkişafını əsas məsələ kimi diqqətə gətirdi. Direktivlər sovetlərin tərkibində olan respublikaların iqtisadiyyatını planlaşdırarkən İttifaqın ehtiyac və tələbatını nəzərdə tutmağın vacibliyini vurğulamaqla yerli, milli mənafeləri arxa plana keçirir, mərkəzin diqtəsinə zəmin yaradırdı. İ.V.Stalinin beşillik plana müdaxiləsi nəticəsində nəzərdə tutulmuş planı artırırdı ki, bu da zorakı inzibatçılığın genişlənməsinə gətirib çıxarırdı. Partiya bundan istifadə edərək "inkişafa mane olan qüvvələrə" qarşı mübarizə metodu seçdi, milli maraqları, dəyərləri qorumağa çalışan aydınlara qarşı repressiyalara başladı. Bu repressiyalarda yüzlərlə Azərbaycan türk aydını sovetlərin işgəncə mexanizmlərinin qurbanına çevrildi, bir qismi sürgün edildi, bir qismi də güllələndi.

ƏSAS HİSSƏ

1.1. Azərbaycan sovet mətbuatında repressiyalara hazırlıq

1930-cu ilin əvvəllərindən başlayaraq "Kommunist", "Bakinskiy raboçi", "Gənc işçi" qəzetləri, "Komsomol", "Maarif və mədəniyyət" jurnalları və digər partiyalı mətbu orqanlarda mərkəzin yeritdiyi bu siyasət təqdir olunur, fərdi təsərrüfatların ləğvini, kollektiv təsərrüfatçılığı təbliğ edirdilər. Həmin dövrdə çap olunan yazıların başlıqlarına baxmaq kifayətdir ki, zamanın tələbinə uyğunlaşdırılan Azərbaycan mətbuatının vəziyyəti aydın olsun. "Qadınları da yarışa cəlb etməli", "Yeni həyata doğru", "Hücum" kimi sərlövhələr 1930-cu il jurnalistlərinin ən çox

istifadə etdikləri məqalə başlıqları idi.

Jurnalistlər tək təbliğat mahiyyətli yazılar yazmır, kollektivləşmənin əleyhinə olan insanları nəinki tənqid, təhqir edir, hətta bolşevik quruluşunun düşməni elan edirdilər. Jurnalistlər, yazıçı və şairlər bölgələrə ezam olunur, təsərrüfat rəhbərləri ilə birgə partiyanın tapşırıqlarını həyata keçirirdilər. Azərbaycan sovet dövrü mətbuatının ağsaqqallarından olan, bir müddət "Kommunist" qəzetinə redaktorluq edən Əli Vəliyev haqda Mehdi Hüseyn 1930-cu ildə yazırdı: "Əməkçi kütlənin bağrından çıxan Əli Vəliyev kənd həyatını, kənddə sinfi mübarizəni duyaraq, görərək və onda bilavasitə özü iştirak edərək məqalələr yazırdı". (1; səh. 3)

Bolşeviklərin, partiya fəallarının, Azərbaycan jurnalistlərinin zorən inzibati tədbirlərə cəlb olunması müsbət nəticə vermirdi. Azərbaycanda böhran yaşanırdı. Moskvadan ötürülən tapşırıqlar əks-effekt doğururdu.

Böhrandan çıxarmaq yolunu fərdi təsərrüfatları birləşdirməkdə görən Stalin yeni texnika əsasında torpağın elliklə becərilməsini partiyanın XV qurultayında əsas məsələ kimi qarşıya qoydu. Qurultayın qolçomaqlar haqqında qərarında iqtisadi metodlarla onların fəaliyyətini azaltmaq tədbirləri nəzərdə tutulurdu, hətta qeyd olunurdu ki, kollektivləşmə "ancaq zəhmətkeş kəndlilər tərəfindən razılıq olması şərti ilə" mümkün ola bilər. Lakin qurultaydan bir il sonra, 1928-ci ilin fevralında taxıl hazırlığında böhranı aradan qaldırmaq üçün yerli təşkilatlara Stalinin təlimatı göndərildi. Bu təlimatın mahiyyəti kənd təsərrüfatının kollektivləşdirilməsi sahəsində hökm və təzyiq metodunun tətbiqindən ibarət idi. Azərbaycanda aqrar siyasəti səciyyələndirən ən mühüm cəhət 30-cu illərdə tarixi ənənələrin, yerli şəraitin, təsərrüfat xüsusiyyətlərinin, kəndli psixologiyasının nəzərə alınmaması idi ki, bu da vəziyyəti olduqca gərginləşdirirdi.

Partiyanın "təkərciyi və vintciyi" olan Azərbaycan mətbuatı aqrar islahatlara mane olan qolçomaqlara, anti-milli ünsürlərə qarşı davamlı təbliğat aparır, təsərrüfatı, əmlakı zorla kollektivləşdirilən kəndlilərin etirazını "kapitalist təhlükəsi" kimi qiymətləndirirdi. Zora, təqib və təzyiqlərə əsaslanaraq aparılan siyasət ağır nəticələr doğururdu. Kolxoza daxil olmaq istəməyənlər sıxışdırılır, təqib edilir, seçki hüquqları əllərindən alınırdı. Ortabablar antisovet, antikommunist, "əksinqilabi aktiv" adı ilə cəlb olunub güllələnir, ailə üzvləri isə Sibirə, yaxud Orta Asiyaya və ya Qazaxıstana sürgün edilirdi. Onları vaqonlara doldurur, Sibir və Qazaxıstana gedən dəmiryollarında həftələrlə saxlayır, min bir əzaba düçar edirdilər. Kəndlilərin "şübhəli görünən" qismi isə respublikanın daxilində xüsusi yaşayış düşərgələrində saxlanılırdı.

30-cu illərdən başlayaraq Azərbaycan mətbuatı insanların cəzalandırma, represiya olunması alətinə çevrildi. Öz şəxsi əmlakını kolxoza verməyənlər, kollektivləşməyə etinasız yanaşanlar mətbuat səhifələrində xalq düşməni elan edilirdi. Jurnalistlər bu tip insanların aşkarlanıb cəzalandırılmasında partiya-sovet orqanlarının köməkçisi funksiyalarını daşıyırdılar. Stalin şəxsiyyətinə pərəstiş formalaşması da 30-cu illərin ortalarından başlayır, təkcə fəhlə və kəndlilərin deyil, xalqın dəyərli ziyalılarının ədiblərinin, elm adamlarının 37-ci ilin represiya "maşınında" məhv edilməsi prosesinə hazırlıq aparılırdı.

1.2. Azərbaycan mətbuatının "xalq düşməni" obrazının yaradılmasına cəlb olunması.

Stalin şəxsiyyətinə pərəstişin hakimiyyət və partiya üçün ağır nəticələr doğuracağını hiss edənlər və buna qarşı mübarizə aparanlar da da yox deyildi. 1934-cü ilin yanvar-fevralında Moskvada partiyanın XVII qurultayından başlayaraq Stalin özünəmüxalif olanları zərərsizləşdirməyə başladı. Buxarin, Rıkov, Tomski Preobrajenski, Kamenev, Zinovyev, Lominadze və bir çox başqaları Stalinə qarşı mübarizə aparan "ziyankarlar", "təmayülçülər", "trotiskizm tərəfdarları", "müxalifətçi" olduqlarını boyunlarına alaraq, qurultaydakı çıxışlarında Stalin və onun siyasi fəaliyyətinə haqq qazandırdılar. Müqaviməti aradan qaldıran Stalin 1936-cı ilin iyulun 29-da "Trotskiçi-zinoyevçi əksinqilabçı blokun terrorçuluq fəaliyyəti haqqında" gizlin məktubu bütün respublikalara, şəhər və rayon partiya komitələrinə göndərdi. Gizlin məktubda göstərilirdi ki, Moskvada, Leninqradda, Qorkidə, Bakıda, Minskdə, Kiyev şəhərlərində və başqa yerlərdə trotskiçilər-zinoyevçilərin "üstü açılmamış" bir sıra terrorçu qrupları fəaliyyət göstərir. Yerlərə bu cinayət faktlarının üstünün açılması tapşırılırdı. Sənəd Zinovyev və Kamnevin "etirafları" ilə dolu idi və burada anlaşılan o idi ki, partiya rəhbərlərinə və şəxsən Stalinə qarşı irimiqyaslı terror əməliyyatı hazırlanmışdır. Bu terror hərəkətinin təşkilatçıları Trotski və onun adamları olan Kamenev və Zinovyevdir.

Trotskiçi və Zinovyevçi terrorçu dəstənin Bakıda üzvləri axtarılmağa başlanıldı və xalq əleyhinə cəza tədbirləri 1937-ci ildə amansız şəkil aldı.

"Leninizm bütün dünyada qələbə çalacaqdır" şüarını manşet edən "Ədəbiyyat" qəzeti 1937-ci ilin 31 yanvar tarixli sayında "Antisovet trotskiçi mərkəzinin mühakiməsi"ni çap etdi. Dərc olunan materialda 1937-ci ilin yanvarın 23-dən 30-dək keçirilən məhkəmədəki üzləşmələr, şahid ifadələri əksini tapırdı. "Kommunist" qəzeti 1937-ci ilin yanvar ayı boyu bütün saylarında trotskiçi-zinoyevçilərin məhkəmə prosesinin stenoqramını dərc edərək, şərhlərlə birlikdə çap etdi. "Alçaqların ən

alçaqları“, “Antisovet trotskçi banditlərə, ziyankarlara, casuslara ən ağır cəza“, “Faşist köpəkləri yanılmışlar“, “İnsanlıq simasını itirənlər“, “Xainələrə ölüm“ başlıqları 1937-ci ilin qanlı repressiyasının mətbuatdakı əsas şüarları idi. İnsanlığa uyğun gəlməyən, etikadan kənar kəskin ifadələrin, söyüşlərin qəzet səhifələrində əksini tapması represiya illərinin jurnalistikasının prinsiplərinə, yazı üslubuna, ifadə tərzinə çevrildi. “Ədəbiyyat“ qəzetində dərc olunan “Vətən xainlərinə“ məqaləsi mərkəzdə Stalinə, partiyanın rəhbər işçilərinə qarşı “planlaşdırılan“ terrorun izlərini Azərbaycanda axtarırdı: “Azərbaycanda bu nacinslər, bizim xalqımızın qara bayquşu, qəddar düşməni olan Müsavat tör-töküntüləri ilə birləşmişlər. İllərlə Ruhulla Axundov, Hənəfi Zeynallı kimi konturrevolyusyon xəyanətkarların mədəniyyət və ədəbiyyat sahəsində çalışmaları biz yazıçılardan daha artıq sadiqlik tələb edir“. (2; 6 fevral 1937-ci il).

O ağır günlərdə mətbuatda dövlət sirlərini mühafizə edən idarənin rəisi İbrahim Eminbəyli də “əksinqilabi millətçi təşkilatın üzvü, gizli müsavatçı“ kimi həbs olundu. Evində axtarışlar aparıldı və istifadəsi qadağan olunan Zinovyevin “İnqilab ili: kitabına əlavə, “Lenin və Trotskinin “İskra“sı, M.Hüseynovun “Müsavat Partiyası: keçmişdə və hazırda“, Ə.Qarayevin “Yaxın keçmişdən“ kitabları tapıldı. Müstəntiqin ittihamlarından biri də qadağan olunmuş kitabların saxlanılması ilə bağlı idi. “Qlovlitin rəisi kimi mən belə kitabları saxlaya bilərdim“ cavabı və qondarma ittihamları rədd etməsi İ.Eminbəylini xilas edə bilmədi. M.C.Bağırovdan kömək gözləyən İ.Eminbəyli ona məktubla müraciət edərək yazırdı: “Bu məsələ ilə bağlı mənimlə bir neçə gün fasiləsiz 14-15 saat sorğu-sual aparmışlar. Mənə verilən ittihamları qəti rədd edirəm və kömək göstərməyinizi gözləyirəm“.

Ağır psixoloji sarsıntıya, fiziki işgəncəyə məruz qalan İ.Eminbəyli sonda millətçi təşkilatın üzvü olduğunu etiraf etməyə məcbur olur. 1937-ci il oktyabrın 12-də saat 17:45 dəqiqədə son məhkəmə keçirilir və İ.Eminbəyli günahkar olduğunu boynuna alır, son söz olaraq bağışlanmasını və cəzasını yüngülləşdirməyi xahiş edir. İclas saat 18-də başa çatır. Elə həmin gün İ.Eminbəyli güllələnməyə məhkum edilir və 1937-ci il oktyabrın 13-də güllələnir.

Qəzetin həmin sayında sovetlərin ordenli şairi Səməd Vurğunun “Ölüm xəbərçiləri“nə şeiri, Nigar Rəfibəylinin “Mikroblar“, Əli Vəliyevin “Amansız olmalı“ məqalələri dərc olunub.

Azərbaycanda trotskçi-zinoyevçi qrupun başında durub, partiyanın rəsmi siyasətinə müxalifət olduğu üçün xalq düşməni elan edilən Hənəfi

Zeynallı 1896-cı ildə Bakıda dəmirçi-nalbənd ailəsində doğulmuşdu. 1916-cı ildə Bakıda Politexnik Texnikumunu bitirdikdən sonra Moskva Ali Texniki İnstitutunda təhsilini davam etdirmişdi. 1922-ci ildə ADU-ya daxil olmuş, bu ali təhsil ocağını 1927-ci ildə bitirərək təyinatla Azərbaycan Pedoqoji İnstitutunun şərq fakültəsinin Azərbaycan türk ədəbiyyatı tarixi fakültəsinə müəllim kimi göndərilmişdi. 1923-cü ildən Azərbaycan Dövlət Nəşriyyatının əsas yaradıcılarından olmuş və uzun müddət burada baş redaktor vəzifəsində çalışmışdı. 1923-1931-ci illərdə "Kommunist" qəzeti, "Maarif və mədəniyyət", "İnqilab və mədəniyyət", "Maarif işçisi" jurnallarında əməkdaşlıq edərək, öz siyasi-elmi, publisistik yazılarını dərc etdirmişdir. 1935-ci ilədək o, V.İ.Leninin əsərlərinin tərcüməçisi olur, SSRİ Elmlər Akademiyasının Azərbaycan filialında folklor bölməsinə rəhbərlik etmiş və həm də Azərnəşrdə redaktor kimi çalışırdı. Hənəfi Zeynallını 1926-cı ildə yazdığı "Azərbaycan atalar sözləri və məsəllər"inə , 1928-ci ildə çap etdirdiyi "Türk ədəbiyyatı üzrə iş kitabı"na, folklor, terminologiya ilə bağlı məqalələrinə, 1917-ci ildə eserlər partiyasının üzvü olduğuna, Bakıda türk konsulu ilə əlaqələrinə, müsavatçılarla münasibətlərinə görə həbs etmişdilər (4; səh.82).

1937-ci il fevralın 16-da H.Zeynallı terrorda, casusluqda və təxribatçılıqda əli olduğunu "boynuna almış", Azərbaycanı SSRİ-dən ayırmaq üçün fəaliyyət göstərdiyini "etiraf etmişdir". Bu "etiraflara" görə güllələndi.

Azərbaycan ziyalılarının, qələm adamlarının, Azərbaycan Xalq Cümhuriyyəti dövründə müstəqilliyi, istiqlal arzularını yaradıcılığına gətirən ədiblərin "Qara siyahısı" tərtib olunmuşdur. Əhməd Cavad, Hüseyn Cavid, Mikayıl Müşfiq, Seyid Hüseyn barəsində sovet quruluşunun əleyhinə olan burjua təfəkkürlü qələm adamları obrazları yaradılması o dövrün mətbuatının qarşısında əsas məqsəd idi. Repressiya maşınından kənarda qalmaq və bütün haqsız hücumları dayandırmaq üçün Azərbaycanın bu vətənpərvər ziyalıları mətbuatda yazılarla çıxış edir, "bəzi günahları"nı etiraf edirdilər. Seyid Hüseyn də məhz bu cür tale yaşayan qələm sahiblərindəndir. "Mən aprelə borcluyam" məqaləsində o, barəsindəki yazıları, hücumları dayandırmaq üçün bəzi "günahları"nın olduğunu etiraf edirdi: "28 aprel inqilabı mənim üçün gözlənilməz hadisə deyildi. Ancaq mən aprel inqilabını birdən-birə qəbul edə bilmədim. 23-cü ilə kimi tərəddüd etdim. Mən hələ inqilabın birinci günlərindən "Çarxaların hücumu" hekayəsindəki Murad kimi Bakıdan uzaq bir kəndə çəkildim. Mən oktyabr inqilabını anlamamışdım. Mən bolşevizmi, internasionalizmi bütün milli xüsusiyyətləri aradan qaldırılmasında, kiçik

xalqların milli mədəniyyətlərini məhv etməsini təsəvvür etdirdim. 23-cü ildəki 12-ci partiya qurultayında yoldaş Stalinin milli məsələ haqqındakı məruzəsi gözümü açdı. İnsan dəyişə bilər. Bu, bir o qədər də çətin iş deyil. Çox mürəkkəbdir. Bir adamın həyat dünyagörüşünü dəyişməsi üçün müəyyən bir zaman lazımdır. Mənim də dəyişməyim belə oldu. "Gələcək həyat yolunda" adlı hekayəmdə mən bunu qeyd etmişəm. Mən bu iki bayramı özümün iki bayramım ilə birləşdirirəm. Bu bayramlardan biri mənim yaradıcılıq fəaliyyətimin on ili, ikincisi əlli yaşımın tamam olmasıdır". (2; 1 may 1937-ci il. №19. 103)

Sovet siyasi sisteminə, partiyaya bağlı olduğunu etiraf etməyə məcbur edilən, bununla da üzərindən xalq düşməni damğasını götürəcəyinə və dinə inanan Azərbaycanın milli ruhlu qələm adamı Cümhuriyyət dövrü bədii yaradıcılığından da imtinaya sövq edilirdi. Ancaq bu "etiraf" dolu yazının ardınca "Ədəbiyyat" qəzeti Seyid Hüseynin müsavatçı olduğunu, qohumu Azərbaycan Xalq Cümhuriyyətinin qurucu lideri M.Ə.Rəsulzadənin yolunu gözlədiyini, ətrafına gənclər yığıb təşviqat-təbliğat apardığını yazırdı. Bütün bu ittihamların sonu olaraq Seyid Hüseyn güllələnməyə məhkum edildi.

1937-38-ci illər respublikada nəşr olunan bütün mətbu orqanların səhifələrindən qorxu, nifrət və ölüm saçır. İlk səhifədə iri ölçüdə əks olunan Stalinin portreti bu ölüm qoxuyan səhifələrə sanki nəzarət edir, istiqamət verir, Azərbaycanın milli ruhlu şair və yazıçılarını, partiya fəallarını, elm adamlarını izləyirdi.

"Ədəbiyyat" qəzetinin 10 may 1937-ci il tarixli sayında Azərbaycan Sovet Yazıçılar İttifaqı İdarə Heyətinin növbəti iclası barəsində məlumat dərc olunub. Həmin məlumata görə, ədəbiyyatşünas-alim Mikayıl Rəfilinin xalq düşməni olması müzakirəyə çıxarılıb: "Əvvəlcədən məlum olan faktlar və danışıqlar əsasında müəyyən olunmuşdur ki, Rəfili ictimai mənsubiyyət və ictimai vəziyyəti etibarilə tamamilə yabançıdır. M.Rəfilinin atası məşhur mülkədar Hacı Həsən Gəncə üsyanında sovet hakimiyyəti əleyhinə çıxmış, inqilabçıları qətl etmişdir. M.Rəfili aprel inqilabının ilk günlərində atasından qalmış dəyirmanı icarəyə vermiş və orada çalışanlarla heyvancasına rəftar etmişdir".

Məlumatda M.Rəfilinin Müsavat hakimiyyəti dövründə anti-inqilabçı bir təşkilata mənsub olaraq, bir çox gəncləri ətrafına yığdığı, Ruhulla Axundovun vasitəsilə təhsil aldığı, buna görə də anti-inqilabçılara qoşulduğu qeyd olunur. Ata-babasının siyasi mənsubiyyətinə və işğalçı qoşuna qarşı mübarizə apardığına görə övladına qarşı ittiham kimi irəli sürənlər Azərbaycan ədəbiyyatşünaslıq elmində məxsusi yeri olan

M.Rəfilini də represiya maşınının qurbanına çevirdilər. Dəyərli qələm adamları kimi o da güllələndi.

"Ədəbiyyat"ın elə həmin sayında "Dramaturqlarımızın müşavirəsi" məqaləsində açıq-aydın eyni cinahda dayanan sənət dostları üz-üzə qoyulur. Guya, Mirzə İbrahimovun "Həyat" pyesinin səhnəyə qoyulmasına anti-inqilabçı, trotskçi Ruhulla Axundov, Eminbəyli, Əhməd Tirinc, Əli Nəzmi maneçilik törətmişlər: "Bu əclaflar Hüseyn Cavid kimi sənətkar bir dramaturqu səhnədən sıxışdırıb çıxarmışlar. Cavidin yazdığı "Şəhla" pyesini onlar bəyənmirdilər". Ancaq çox keçmir ki, Hüseyn Cavidin özünü "onu səhnədən çıxaranlarla" birgə anti-sovet mövqeyində ittiham edərək pantürkist, panislamist kimi Sibirə həbs düşərgəsinə göndərdilər.

Repressiya illərinin jurnalistikasını səciyyələndirmək, onun tələblərini müəyyənləşdirmək, ölçülərini bilmək üçün "Ədəbiyyat" qəzetində "Pravda"nın 25 illiyinə həsr olunan bir səhifəlik məqalədə əksini tapan faktlara nəzər yetirmək kifayətdir: "Mətbuat işçiləri üçün sayıqlıq başlıca şərtdir. Qəzetdə çalışan adamların nə cür olduqlarını bilmək lazımdır. Yalnız redaksiya işçilərini deyil, qəzetlə əlaqəsi olanların hamısına bələd olmaq lazımdır. Korrektor, yaxud mürəttib gizli düşmən olursa, qəzetin işinə zərər vura bilməzmi?"

Redaksiyalarda əməkdaşların bir-birinə nəzarət etməsi, güdməsi, danosçuluğa cəlb olunmaları adi hal almışdı. Belə çətin, mənəvi-psixoloji durumda çalışmaq çətin olduğu qədər də acınacaqlı idi.

Azərbaycan mətbuatında şərəflə çalışan qadınlara qarşı da represiya maşını işə salındı, onların fəaliyyətində də anti-sovet elementləri aşkarlandı. Əsasən "Şərq qadını" ("Azərbaycan qadını") jurnalında çalışan ziyalı xanımlardan Mədinə Qiyasbəyli, bir müddət jurnalın baş redaktoru olan Gülarə Qədirova (Göylü qızı), Xədicə Qayıbova 37-ci ilin qurbanlarına çevrildilər. Hər üç xanım əksinqilabçı millətçi təşkilatının üzvü və pantürkist ittihamı ilə üzləşdi, müsavatçılarla əlaqədə günahlandırıldılar. (4; səh.55-78.)

Azərbaycan ədəbiyyatının ən önəmli simalarına qarşı da mətbuatda təhqir elementləri ilə dolu hücumlar təşkil edilir, onlar öz səhvlərini etiraf etməyə dəvət olunurdular. "Köhnə düşüncələrə mübtəla olan, deyimlərindən millilik duyulan" Səməd Vurğun da məcburən bu cür etiraflarda bulunurdu: "Bütün bu işdə yazıçılar ittifaqının - onun rəhbər işçiləri, o cümlədən mən özüm partiyamızın və xalqımızın qarşısında cavab verməliyik".

"Ədəbiyyat" qəzetində "Hüseyn Mehdi və Hacıbaba Nəzərlidən cavab gözləyirik" kiçik müraciət 37-nin qanlı ab-havasına uyğun çap

edilən geniş məqalənin sonunda çərçivəyə alınmış şəkildə qara şriftlərlə dərc olunub. Bu iki ədəbiyyat cəfakeşini "proletar ədəbiyyatın sıralarına qoşulan "millətçilərin" tənqidinə cəlb edib, münasibət bildirmələri tələb olunurdu: "Vaxtilə Azərbaycan ədəbiyyatında averbaxçılığı tənqid edən H.Mehdi və H.Nəzərli və onların həmfikirlərinin səhvləri haqqında mətbuatdan qaçmaqda bulunmalarını və biabırcasına susmalarını nə adlandırmaq olar? Nə üçün H.Mehdi və H.Nəzərli öz səhvlərini ifşa etmirlər? Yazıçılar kütləsi onlardan cavab tələb edir". "Yazıçılar kütləsi" adından Mehdi Hüseyn və Hacıbaba Nəzərliyə ünvanlanan tələb, bu iki ədibin qələm yoldaşlarına qarşı çıxış etmək məqsədi güdürdü. İnsanları vicdansızlığa, böhtana, qeyri-etik davranışlara məcbur edərək, "xalq düşmənləri"nin siyahısını genişləndirmək, qorxu yaratmaq, insanları mənəvi sarsıntılara salmaq represiya illərində mətbuatın iş prinsiplərinə zorən daxil edilmişdi.

Təkcə ziyalılara, qələm adamlarına deyil, partiya-sovet işçilərinə, zəhmət adamlarına qarşı da bu cür qarayaxmalar aparılır, onların adı xalq düşmənlərinin siyahısına salınırdı.

"Gənc işçi" qəzetinin 1929-cu il 12 noyabr tarixli sayında dərc olunan "Əhməd Cavadın quyruqlarına mübarizə açılmalıdır" məqaləsində Mikayıl Müşfiq, Məmməd Rahimin poeziyası "saf-çürük" edilir, bu iki şair Əhməd Cavadın təsiri ilə sovet quruluşunun əleyhinə şeirlər yazmaları diqqətə gətirilirdi.

Əhməd Cavadın şeirlərinin Türkiyədə Azərbaycan mühacirlərinin nəşr etdikləri "Yeni Qafqaziya" və "İstiqal" məcmuələrində çap olunması şairin "şura ictimaiyyətindən gizlin fəaliyyəti" kimi qələmə verilir, sonra isə ittiham edilirdi: "Zahirdə özünü şura əfqar ümumiyyəsinə tərəfdar qələmə verib, gizlində isə Cavadın fikirlərini həyata tətbiq edən və onun göz yaşlarını davam etdirməyə çalışanlar yox deyildir. Fəqət biz zəhmətkeş dünyasının sosializm quruluşunda aktiv iştirak edən gənclər nəinki Cavadın hərəkətinə qəti protesto etməli, hətta onun quyruqları ilə də mübarizə aparmalıyıq". Sonra mübarizə aparacaqları hədəfləri də müəyyənləşdirirlər: "25-ci ildə Həbib Cəbiyevin rəhbərliyi altında "Kommunist" qəzeti yanında təşkil olunmuş "Qızıl Qələm" Cəmiyyətini dağıtmağa çalışan Müşfiq və Rahim kimilər uzun mübarizədən sonra bizə yaxın gəldilərsə, yenə də gizlində əsas inqilabi şeir yazmaqdan özlərini ala bilmədilər". Açıq-aydın hücum və təhdid kampaniyası "Gənc işçi"nin digər saylarında da davam etdirilir.

Kolxozlarda mal-qaranın azalması, neft sənayesində hasilatın aşağı düşməsi, kənd təsərrüfatı sahələrində ziyanverici həşəratların artımı da

düşmən fəaliyyətinin nəticəsi hesab edilirdi. "Kommunist" qəzetində dərc olunan "Düşmən ifşa edilməyəndə" məqaləsində istifadə olunan ifadələr, yazı üslubu minlərlə bu cür yazıda təkrarlanır: "Leninneft trestində gündə 300-350 ton neft verən 5-ci mədəni gündəlik neft hasilatı planının 80-85 prosent yerinə yetirə bilmir.

Fondda olan 98 quyudan 71-i işləyir. Bu mədən 6 ayda ölkəyə 17 min 245 ton neft borclu qalmışdır. Bu biabırçı geriləmənin səbəbi göz qabağındadır. Düşmən əməlidir". (3; 2 avqust 1937-ci il. 177 (5105)

Açıq fikirli partiya fəalları, ictimai xadimlər "Trotskçi-zinoyevçi" terrorçu dəstənin üzvləri hesab edilir, onların əsil-nəcabətləri araşdırılır, Müsavata bağlılığı yoxlanılırdı. Əgər kiminsə vaxtilə Müsavata üzv olan qohum-əqrəbası vardısa, onları xalq düşmənləri elan edir, mətbuatda ünvanlarına kəskin yazılar dərc olunurdu. Qonaqkənd rayonunun partiya fəalları, dövlət strukturlarında çalışanlara qarşı "Kommunist" qəzetində 15 avqust 1937-ci il tarixindən 20 avqustadək 10-a yaxın ifşaedici yazılar çap edilib. Bununla kifayətlənməyərək ayrı-ayrı rayonların partiya fəallarının rəyləri, mövqeləri dərc edilib. Bu tip məqalələrin birinə diqqət yönəltməklə "yaradıcılıq taktikası" haqqında tam təsəvvür formalaşdırmaq mümkündür: "Alman-yapon faşizmin alçaq və mundar agentləri trotski-buxarinçi əclaflar və onların quyruqları müsavatçı, daşnak-menşevik zir-zibilləri respublikamızın sənayesini, kənd təsərrüfatını zəiflətməyə çalışırlar. Qonaqkənd rayonunda ifşa edilmiş xalq düşmənlərinin kolxozlarda apardıqları anti-kolxoz, anti-sovet işləri buna misaldır. Bu rayonun sabiq məsul işçilərindən Yusif Cəfərov (Partiya Komitəsi katibi), Əliyev (Rayon İcraiyyə Komitəsinin sədri), Əli Qasımov (rayon torpaq şöbəsinin müdiri), uzun müddət maska ilə işləyərək rayonun sosial-ekonomik və başqa sahələrində ziyan vurmaqdan çəkinməmişlər. Alçaq-xain Yusif Cəfərov hələ 1933-1934-cü illərdə partiya kollegiyasında işləyərkən İsmayıllı, Biləsuvar və başqa rayonlarda sədaqətli sovet-partiya işçilərini uzaqlaşdırmışdır". (3)

Nəticə

1937-ci ildə Sovet hakimiyyətinin apardığı repressiya siyasəti Azərbaycana çox ağır nəticələr verdi. Azərbaycan xalqının yüzlərlə aydını, şair və yazıçısı, istedadlı övladları həbs olundu, bir çoxu sürgünə göndərildi, əksəriyyəti isə güllələndi. Milli ziyalıların soyqırım siyasəti cəmiyyətə ağır zərbələr vurdu, ictimai, ədəbi fikir tarixində yeri doldurulmayacaq boşluqlar yaratdı. Ölkəni bürüyən repressiya nəticəsində pantürkizmdə, panislamizmdə, dövlətə xəyanətdə günahlandırılaraq qətlə yetirilən aydınlar Stalin rejiminin süqutundan sonra bəraət aldılar. Amma

milli ruhlu ziyalıların planlı şəkildə məhv edilməsi Azərbaycanın gələcək tarixində qanla yazılan səhifələr olaraq tarixiləşdi.

Ədəbiyyat:

1. Əli Vəliyev: "Nənəmin cəbhəsi". – Bakı 1930. 120 səh.
2. "Ədəbiyyat" qəzeti, 1937-ci illər
3. "Kommunist" qəzeti, 15 avqust 1937-ci il
4. Ziya Bünyadov: "Qırmızı terror". – "Azərnəşr", 1993. 280 səh.
5. ***Aşırlı, Akif***. Azərbaycan mətbuat tarixi. I h.: 1875-1920. – Bakı, Elm və Təhsil, 2009, s.286
6. ***Aşırlı, Akif***. Azərbaycan mətbuat tarixi. II h.: 1920-1990. – Bakı, Elm və Təhsil, 2010, s.227

AVTOBIOGRAFIK QISSALARDA DAVR VA QAHRAMON

Umurzakov Rustamjon Maxamadovich,
Farg'ona davlat universiteti
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori,
E-mail: Rustamumrzoq1987rum@gmail.com,
Tel: +99 890 230 26 90

Annotatsiya: Ushbu maqolada badiiy obraz va uning tabiati nazariy tahlil qilinadi. Tasvirning individuallashtirilgan umumlashma sifatida namoyon bo'lishi, unda narsa va hodisalarning alohida xususiyatlari hodisaning umumiy tomonlari bilan o'rganiladi. Badiiy obrazning hayotiyligini ta'minlovchi vosita sifatida obrazning muallif tasviri, portreti, badiiy psixologizmi va xarakterli nutqi kabi elementlari o'rganiladi.

Kalit so'zlar: qissa, badiiy obraz, bola obrazi, tipik obraz, prototip, obraz turlari, psixogenetik nazariya, sotsiogenetik nazariya, bola psixologiyasi.

Annotation: This article provides a theoretical analysis of the artistic image and its nature. The manifestation of the image as an individualized generalization, in which things and events are a combination of particular features with the general aspects of the event, is explored. As tool that ensure the vitality of the artistic image, such elements of the image as the author's description, portraiture, artistic psychologism and characteristic speech are studied.

Key words: narratives, artistic image, child image, typical image, prototype, types of image, psychogenetic theory soicogenetic theory, youth psychology.

Bugunga qadar adabiyotshunosligimizda qissachiligimizga oid bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilgan. Lekin ularning hech birida, ayrim fikr va boblarni hisobga olmaganda, bola obrazi davr va ruhiyat nuqtai nazaridan monografik planda maxsus tadqiq etilmagan.

Zamonaviy qissachiligimiz tom ma'noda XX asrda shakllandi. Bunday zamonaviy qissalarni birlashtiruvchi umumiy xususiyat sifatida ularda biografik elementlarning ko'proq qamrab olinishi tushuniladi. XX asrda o'zining yangi bosqichiga ko'tarila boshlagan o'zbek nasrida qissaning o'rni muhimdir. Bu davrga kelib qissachilikda bir talay ishlar amalga oshirildi. Yangi asr qissalarida ijtimoiy-psixologik tasvir yetakchi bo'lganini ko'rsatish lozim. F.f.d. A.Xolmurodovning ta'kidlashicha, XX asr qissachiligi transformatsiya orqali rivojlandi. Asr boshlarida shuning uchun ham mumtoz an'anaviy qissachilikdan chekinildi. Bu – obyektiv omil. Subyektiv omil esa, ijodkorning dunyoqarashidir. Bu asrda butun nasrimizda filtratsiya jarayoni kechdi. Qissachilik ham shu asosda rivojlandi va 30-yillarga kelib, ko'tarilish davri boshlandi. Bu davrda kollektivlashtirish, quloqlar o'tmishini ko'rsatish kuchaydi. 40-yillarda Vatan mudofaasi, 50-yillarda mamlakatni tiklash masalalari birinchi planga olib chiqilgan bo'lsa, 70-80-yillarda yangi to'lqin sezildi. Bu davr qissachilikda burilish davri bo'ldi. Milliylikka intilish kuchaydi, bu esa inson obrazini qalbi, ruhiyati bilan tasvirlash imkonini berdi. Shuning uchun bu davrda qissa janri "hukmron" bo'ldi. Davr nuqtai nazaridan o'zbek qissachiligi shu asosda rivojlandi. Undagi psixologizm esa, asosan 70-80-yillarda inson ichki olamini keng tasvirlash orqali ta'minlandi. Biroq chin san'atkor adiblarimiz har qanday sharoitda ham o'z badiiy-estetik maqsadlarini badiiy psixologizm vositasida amalga oshira olganlarini, siyosiy tazyiq ostida ham badiiy so'z orqali bola timsolida erk va ozodlik obrazlarini yaratib, yumor vositasida davr fojialari ustidan badiiy hukm chiqarganliklarini ta'kidlash joiz.

O'zbek adabiyotida bola obrazi yetakchi bo'lgan qissalar asosan 60-80-yillarda yaratilgan bo'lib, ularda XX asrning 10-20-yillari, 40-50-yillar va 80-90-yillar voqealari tasvirlangan. Voqelikni badiiy idrok etish va ifodalash usuliga ko'ra bola obrazi yetakchi bo'lgan qissalar rang-baranglikka ega. Ularni qissa nomi ostida umumiylik birlashtirib tursa-da, ichki bo'linish asosida nazariy jihatdan bir qancha turlarga tasniflab o'rganish mumkin. Tadqiqot davomida o'rganib chiqilgan, bola obrazi yetakchi bo'lgan, umumiy qissa nomi ostida nashr etilgan asarlarni avtobiografik qissa, biografik qissa (Oybek "Bola Alisher"), tarixiy qissa (Matyoqub Qo'shjonov "Dagish"), sehrli-fantastik qissa (Turob Maqsud

“Pariga oshiq o‘smir”), afsona qissa (Pirimqul Qodirov “Najot”), voqeiy qissa (Tohir Malik “Alvido, bolalik”), hikoyalar turkumidan iborat qissa (Pirimqul Qodirov “Akramning sarguzashtlari”), yumoristik qissa (Pirimqul qodirov “Yayra institutga kirmoqchi”), satirik qissa (O‘tkir Hoshimov “Ikki karra ikki – besh”) va sarguzasht qissa (Abdulla Qahhor “O‘tmishdan ertaklar”) kabi ichki turlarga bo‘lib, tahlil qilish mumkin. Lekin bu bo‘linish nisbiy bo‘lib, janr masalasiga oid tadqiqotlarda alohida o‘rganish talab etiladi.

Sanab o‘tilganlar ichida avtobiografik qissa yetakchilik qiladi. “Adabiyotshunoslik lug‘ati”da ta’riflanishicha, avtobiografik asar – muallifning o‘z hayoti haqida izchil hikoya qilishiga asoslangan adabiy janr. Avtobiografik asar muallifi o‘z hayotini qaytadan yashab ko‘radi, uni bir butun sifatida idrok etishga intiladi. Bu janrning eng ko‘p tarqalgan turi avtobiografik qissa hisoblanadi. Avtobiografik qissalarda, asosan, muallifning bolalik yillari tasvirlanadi. Shu bilan birga, bola obrazi yetakchi bo‘lgan qissalarda avtobiografik ruh ustunlik qiladi. Bunga bir qancha sabablar mavjud. Birinchidan, davr va mafkura taqozosi bilan XX asr yozuvchilari (ayniqsa, asr boshida tug‘ilgan ijodkorlar) inqilobdan avvalgi “qoloq, nursiz” davrni tasvirlash uchun o‘zlarining bolalik yillariga murojaat qilgan bo‘lsalar, ikkinchidan, asar markaziga bola obrazining qo‘yilishi muallifning beixtiyor o‘z bolalik yillari xotiralariga suyanishga majbur qildi. O‘tgan asr qissalari ichida garchi mualliflarning o‘zlari e’tirof etmagan bo‘lsalar-da, Mo‘minjon Muhammadjonovning “Turmush urinishlari”, Sadriddin Ayniyning “Eski maktab”, Oybekning “Bolalik”, Abdulla Qahhorning “O‘tmishdan ertaklar”, Yo‘lmirza Oymirzayevning “Baxt beshigi” (“Yetimning yuragi”), Matyoqub Qo‘shjonovning “Dagish”, Nosir Fozilovning “Saraton” qissalarini avtobiografik qissa sifatida o‘rganish mumkin.

Shu o‘rinda avtobiografik xarakterdagi ijod bilan san’at o‘rtasidagi farqni e’tiborga olish lozim. Avtobiografik asarda muallif obrazi ikkinchi bor reallashganda o‘zida tanlashni, umumlashtirishni aks ettirishini unutmaslik kerak. Avtobiografik faktlardan kuchsiz nusxa yuzaga keladi, u san’at asari bo‘lishi uchun qayta ishlanishi, badiiylashishi talab etiladi. Muallif tasvirlanayotgan xotira va kechinmalarni o‘z shaxsidan ajratishi va ularni obyektivlashtirishi, ya’ni o‘zini voqealar ishtirokchisi emas, xolis kuzatuvchi sifatida tutishi kerak. Shundagina asar kitobxonda muallif hayotining qayta bayoni, degan tasavvur uyg‘otmaydi. Demak, avtobiografik asarda tasvirlangan qahramon bilan hayotdagi muallif-inson o‘rtasida katta farq bor. Garchi “Bolalik”dagi Musa, “O‘tmishdan

ertaklar”dagi Abdulla obrazlari asosida Oybek, Qahhorlarning avtobiografiyalari yotsa ham, ularni Oybek – muallif, Qahhor – muallif bilan aralashtirib yubormaslik lozim.

Adabiyotshunoslikda, xususan, biografik metod nazariyasida har qanday badiiy asar ijodkor qalbi modelidir, degan qarash bor. Tadqiqotimiz yo‘nalishi nuqtai nazaridan ushbu nazariyani yana ham konkretlashtirib aytish mumkinki, har qanday bola obrazi yetakchi bo‘lgan qissa avtobiografiklikdan holi bo‘la olmaydi. Chunki bolalik tasviri va bola obraziga har bir ijodkor bu davrni yashab bo‘lgach, ma’lum davriy masofani bosib o‘tgandan so‘ng murojaat etadi. Negaki, normal kechmagan bolalik, yoshlikda to‘la qondirilmagan istak-mayllar ijodkorga tinchlik bermaydi. Natijada u bola obrazi orqali ikkinchi bolalik davrini qayta yaratadi. Shuning uchun ham bir qancha bola obrazi yetakchi bo‘lgan qissalar, jumladan, o‘zbek adabiyotidagi “Shum bola” qissasini ham avtobiografik qissa deb ataguvchilar (H.Yoqubov, A.Abrorov) topiladi. Buning uchun ma’lum asoslar bor, albatta.

Avtobiografik qissa muallifi biografik qissa muallifi kabi arxiv va tarixiy hujjatlarga emas, o‘z qalb shuuri, o‘tmishi, xotirasi sahifalariga murojaat etadi. Ayniqsa, u bolaligiga murojaat etganda boshdan kechirgan ruhiy hayajonlarni yoritadi. “Biografik qissa esa, bir inson hayotining hujjatlar bilan tasdiqlangan haqqoniy tarixi bo‘lib, unda hayotdan olingan hikoyalarga sayqal beriladi va muallif tomonidan chinakam badiiy asar darajasiga ko‘tariladi”. Shuningdek, o‘zining tabiatiga ko‘ra materialni qamrab olishi jihatidan biografik qissaga tarixiy qissa juda yaqin turadi. Oybekning Alisher Navoiy bolaligiga bag‘ishlangan “Bola Alisher” asari biografik qissa hisoblanadi.

Demak, avtobiografik asar bilan avtobiografik xarakterdagi asarlarni ham farqlab o‘rganish lozim. Shu jumladan, G‘afur G‘ulomning “Shum bola” asari avtobiografik xarakterdagi qissa hisoblanadi. Umuman, avtobiografik, biografik va bola obrazi yetakchi bo‘lgan qissalarda avtobiografiklik unsurlari yetakchi o‘rin tutishini ko‘rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Арасту. Поэтика. Ахлоқи кабир. Риторика. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2011. – Б. 20. (Aristotle. Poetics. His morals are great. Rhetoric. – Тошкент: New age generation, 2011. - P. 20.)

2. Саримсоқов Б. Бадиийлик асослари ва мезонлари. – Тошкент, 2004. – Б. 8. (Sarimsakov B. Fundamentals and criteria of art. – Tashkent, 2004. – P. 8.)

3. Қуронов Д. Адабиёт назарияси асослари. – Тошкент: Навоий университети нашриёти, 2018. – Б. 89. (Kuronov D. Basics of literary theory. – Тошкент: Navoi University publishing house, 2018. – P. 89.)

4. Қуронов Д. ва бошқалар. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2010. (Kuronov D. and others. Dictionary of literary studies. – Тошкент: Akademnashr, 2010.)

5. Голсуорси Ж. Адабиётда характер яратиш // Жаҳон адиблари адабиёт ҳақида. – Тошкент: Маънавият, 2010. – Б. 95. (Golsuorsi J. Creating a character in literature // Writers of the world about literature. – Тошкент: Spirituality, 2010. – P. 95.)

6. UMURZAKOV, R. (2018). Social environment and spiritual world of teenager in narrative "Saraton" by N. Fozilov. Scientific journal of the Fergana State University, 1(4), 104-105.

HABIB SA'DULLA SHE'RIYATIDA POETIK OBRAZ TADRIJI VA TAKOMILI

Ermanbetova Shohsanam Bozorboyevna,
University of Business and Science
katta o'qituvchisi,
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Habib Sa'dullaning Vatan, ona, sog'inch, ayol, tabiat, inson, muhabbat mavzusidagi she'rlarini birlashtirib turuvchi bir nuqta – yetakchi obraz Namangan timsoli ekanligi, shoir ijodi davomida muhtarama onaga bo'lgan hurmat va ehtiromni bir dam ham unutmaganligi qalamga olinadi. "Lirik qahramon" xususida ham so'z boradi. Shoirning yaratgan poetik obrazlari salmog'iga ko'ra uning dunyoni badiiy-estetik idrok qilish tabiatini tushunish mumkinligi asoslanadi.

Kalit so'zlar: Lirik qahramon, obraz, yetakchi obraz, timsol, obrazlilik, lirika, Namangan timsoli.

Annotation: This article explores how a central point – the leading image of Namangan – unites the themes of homeland, mother, longing, womanhood, nature, humanity, and love in the poetry of Habib Sa'dulla. It emphasizes the poet's unwavering respect and reverence for the honored figure of the mother throughout his creative career. The article also discusses the notion of the "lyrical hero." It substantiates that by analyzing the weight and nature of the poetic images created by the poet, one can understand the artistic and aesthetic perception of the world reflected in his

works.

Keywords: Lyrical hero, imagery, leading image, symbol, figurativeness, lyricism, the image of Namangan.

Obrazlilik adabiy ijodning mohiyati, umumiy xususiyatlari, ya’ni adabiy qahramon, voqealar, tabiat, buyumlar, jismlar, narsalar, hayvonot dunyosi kabilar tasvirini o‘z ichiga oladi. Lekin adabiyotning bosh tasvir obyekti inson bo‘lib qolaveradi. Zero, professor Ozod Sharafiddinov ta’kidlaganidek: “Adabiy asar chinakam asar namunasi bo‘lishi uchun realizmga mansub bo‘ladimi, romantizm uslubida yozilganmi yoki qandaydir boshqa modernistik uslubga xosmi, baribir, uning markazida inson turmog‘i kerak, kitobxon insonning taqdiri, tabiati, hayoti haqida muayyan axborot olish bilan birga bu asardan estetik zavq ola bilsin”. Olim ta’kidlagan estetik zavq ola bilish tushunchasi she’riy asarlar uchun alohida ahamiyatli bo‘lib, lirika har bir obraz muallif ichki kechinmalari va uning voqelikka munosabatini original tarzda, boshqa ijodkordan andoza olmagan holda ifodalashga xizmat qilishini taqozo etadi. Aslida, obrazdagi muvofiqlik va o‘ziga xoslik qirralarining bir-biriga to‘qnashuvi, uyg‘unligi, shakl va mazmunning real borliqqa munosabatini belgilash – aniqlashtirish lirikaning asosini tashkil etadi. Ijodkor tarafidan bevosita his qilingan, badiiy fitratga muvofiqlashtirilgan ruhiy kechinma yaxlitligi razmiy-majoziy-umumlashmaviy qirralarni uyushtiradi. Tabiiyki, “go‘zallik ifodasining mohiyat”ga yaqinlashish istagi turfa rang va bo‘yoqlarda aks etadi. Shuur bilan anglashiladigan obrazlar tizimida favqulodda kayfiyat ustuvorligi kuzatilsa, aqliy tafakkur madaniyatida esa ma’noviy qayta ishlanganlik darajasi falsafiy bosimni kuchaytiradi. Ikkala holatda ham ijodkor kechinmaning fikriy takomilini izohlashga majbur emas, balki tuyg‘u mushohada salmog‘ini ko‘rsatishga intiladi. So‘zning umumlashgan-ramziy mohiyati hissiy bo‘yoqdorlik yordamida anglashiladi. Demak, hayotiy tafsilot va uning muqobil shakli o‘rtasida munosabat, ijtimoiylik belgisi va badiiy shartlilik, intellektual daraja va estetik qiymat obrazlilik tizimining tayanch nuqtalari hisoblanadi. O‘z navbatida ijodiy tafakkurning oliy ko‘rinishi poetik ifodada mushohada va tuyg‘u sintezi – badiiy originallikni shakllantiradi. Ma’lumki, poetik obrazini shakllantirishda so‘zning hissiy tuslanishi, qiyosiy, ruhiy muqoyasalar, shakl va mazmundagi uzviylik o‘ziga xos o‘rin tutadi. Tasvir qatiga joylashtirilgan ma’nolar uyg‘unligi, tasavvur chiziqlari aniqligi tashbehning hayot haqiqatiga muvofiqligini ta’minlaydi. Zero, kuzatish ishontira olish qudratiga ega bo‘lsagina, mushohada salmoqdor g‘oyaga aylanadi. Aslida g‘oyaning asosiy xususiyati ham voqelikka nusxa olish

emas, balki, o‘z tabiiyligi hamda samimiyatini qayta inkishof etishdan iborat. Shoir she’rlari orqali insonning ichki olami, xarakteri, orzu-istaklari va tuyg‘ularini ochib berar ekan, unda shu real borliqning ijtimoiy-siyosiy, falsafiy, ruhiy-ma’naviy qiyofasini ham tasvirlaydi. Mana shu tasvirdan qalamga olinayotgan davrning ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy obrazi vujudga keladi. Bu lirik qahramon bo‘lib, unga nisbatan, albatta, shoir tuyg‘ulari, munosabati va bahosi mavjud bo‘ladi. Professor Y.Solijonov ta’kidlaganidek, “So‘z – insonga xos ichki va tashqi dunyoning tarjimoni. So‘zning qudrati, go‘zalligi, ma’nodorligi, ta’sir kuchi, ayniqsa, she’rda aniq ko‘zga tashlanadi.”

XX asr o‘zbek adabiyoti, xususan, she’riyatini Cho‘lpon, G‘afur G‘ulom, Oybek, Usmon Nosir, Hamid Olimjon, Zulfiya, Mirtemir, Asqad Muxtor kabi ijodkorlarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. XX asrning 60-70-yillariga kelib esa ustozlar an’analarini davom ettirgan Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Rauf Parfi, Halima Xudoyberdiyeva, Oydin Hojiyeva, Shukur Xolmirzayev, O‘tkir Hoshimov, Omon Muxtor, Safar Barnoyev kabi iqtidorli ijodkorlar qatorida namanganlik Habib Sa’dulla ham bor edi. Namangan zamini azal-azaldan ulug‘ shoirlar va mutafakkirlar yurti bo‘lib, Zahriddin Muhammad Bobur, Mashrab, Fazliy, Nodim Namangoniy va Is’hoqxon Ibrat, So‘fizoda, Usmon Nosir, Nabixon Chustiy kabi ulug‘ shoirlarni ulg‘aytirdi, kamolotga etkazdi. Bu ulug‘lar qatoridan shu yurt farzandi Habib Sa’dulla ham joy oldi.

Habib Sa’dulla o‘zining qirq yildan ko‘proq umrini samarali ijod bilan o‘tkazdi. Shoir o‘zining she’r va dostonlari, dramatik va nasriy asarlari bilan tanilgan ijodkorlardan biridir. Habib Sa’dulla asarlari, asosan, zamonaviy ruhda yozilganligi bilan ajralib turadi. Shoir she’rlarida insoniyatning ma’naviy dunyosi, o‘y-istaklari, intilishlari o‘ziga xos poetik obrazlar orqali, publitsistik ko‘tarinkilik bilan ifodalangan. Habib Sa’dulla o‘z asarlari orqali o‘zi tug‘ilib o‘sgan yurt sururi-yu tarovatini, samimiyati, ruhiyati va o‘ziga xosliklarini adabiyotimizga bir qadar olib kirishga muvaffaq bo‘lgan adib hisoblanadi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, Habib Sa’dulla va unga tengdosh ijodkorlar katta umidlar bilan qalam ushlab, dil dardlarini qog‘ozga tushirishga kirishgan. XX asrning 60-yillarida ko‘p ijodkorlar o‘ta ehtiyotkorlik bilan yozishga majbur bo‘lganlaridan ko‘z yumish mumkin emas. Ammo shunisi ham muhimki, bu ijodkorlarning deyarli hammasi mehnatkash xalqqa, Vatanga, Ona zaminga muhabbatni ulug‘lashda, ishq-muhabbatni, insoniy fazilatlarni, tabiat lavhalarini kuylashda yakdil edilar. Bunday tuyg‘ular ta’siriga ularda mavzu mushtarakligi bilan bir qatorda,

o‘ziga xos shoirona nigoh va she’riy mahorat qirralari, shirali, rangdor til, yorqin obrazlar yaqqol ko‘rinib turadi. Bu tamoyilni aynan Habib Sa’dulla ijodida ham kuzatamiz.

Bugun XXI asr boshida turib, adabiyotimiz bosib o‘tgan yo‘lga nazar tashlasak, XX asrning 60-yillari adabiyotda tub burilish davri bo‘lganini yaqqol sezamiz. Ayni shu yillarda she’riyat olamida turfa xil o‘zgarishlar ro‘y berdi, inson shaxsini, qalb kechinmalarini kuylash, sevgi dardi, hijron, hayot tashvishlari, turmush murakkabliklari haqida ham cho‘chimasdan yozish tamoyillari ro‘y bera boshladi. Bu ijodiy hodisaning ta’siri tezda o‘z samarasini berdi: adabiyotning barcha janrlarida salmoqli asarlar yaratildi. Ayniqsa, she’riyatda jiddiy o‘zgarish, olg‘a siljish yaqqol ko‘rindi. Poeziya maydonidagi yangilik mevalari haqida adabiy tanqidchilikda ham samimiy mulohazalar bildirildi. Jumladan, professor Ozod Sharafiddinov “Zamon. Qalb. Poeziya” nomli yirik tadqiqotida o‘zbek she’riyatidagi rang-barang izlanishlar, yuksalish va ayrim nuqsonlarni teran umumlashtirib bergan edi. Biz uchun ayni chog‘da muhimi shuki, ana shu kitobda she’riyatga yangi ohang, yangi mavzu va ranglar olib kirayotgan yosh iste’dodlar qatorida Habib Sa’dullaning nomi ham tilga olingan va uning ijodi haqida iliq fikrlar aytilgandi. Bu paytda yosh shoir harbiy xizmatda bo‘lib, she’rlari matbuotda bot-bot ko‘rinib turardi. Binobarin, Habib Sa’dulla ilk mashqlari bilan talabchan munaqqidlarda va atoqli shoir Mirtemirda katta umid uyg‘otgan edi. Oradan ko‘p o‘tmay, “Sharq yulduzi” jurnalining 1962-yil 6-sonida yosh shoirlarning she’rlaridan namunalar berildi. Mana shu she’riy guldastada Habib Sa’dulla she’rlari ham bor ediki, bu adabiyotimizga yangi, o‘ziga xos iste’dod kirib kelayotganining tan olinishi edi. Shoirning ilk she’riy to‘plami 1969-yilda “Okeandan shabada” nomi bilan e’lon qilindi. Keyinroq uning “Bahor bilan suhbat” kitobi chop etildi.

Habib Sa’dulla she’riyatini kuzatish borasida uning poetik timsol yaratish mahorati o‘ziga xos ifoda yo‘sini vositasida tekshirildi:

- portret vositasida;
- so‘z vositasida;
- peyzaj bilan bog‘lash vositasida;
- ruhiyat vositasida;
- ziddiyatli tasvirlar vositasida;
- zamon vositasida;
- makon vositasida.

Lirikada, ko‘pincha, chekinish, hissiyot, aniqrog‘i, his-tuyg‘ular orqasiga yashiringan yangi fikr hukmron bo‘ladi. Davr, vatan,

zamondoshlar haqidagi samimiy va ehtirosli she’rlar shoirning g‘oyaviy-badiiy dunyosini tayin etish bilan barobar, uning hayotiy pozitsiyasini ham belgilab beradi. Shoirning “Bir she’r” sarlavhali she’rida “lirik men” his-tuyg‘ulari shoirlik mas’uliyati bilan uyg‘unlikda ifodalangan. U qalban eng go‘zal muhabbatini, ko‘z nurini bir she’rga jamlashga intilayotganini kuzatamiz. Shoir mana shu she’rga “qalb qo‘ri”ni, “ko‘z nuri”ni to‘kishga tayyor:

Bir she’r yozmoqchiman, bittagina she’r,
Unga to‘kmoqchiman qalbimning qo‘rin.
Unga to‘kmoqchiman ko‘zlarim nurin,
Bir she’r yozmoqchiman, bittagina she’r.

Shoir she’r davomida “Shunday she’r yozayki, aks etsin umrim”, deya ta’kidlaydi. Darhaqiqat, shoir yozganidek uning umri “daryoday toshqin”, “to‘fonday sershovqin”, “vulqonday jo‘shqin” va sermazmun o‘tdi. Shoir butun umr el-u yurt xizmatida bo‘ldi. Eng go‘zal she’rlarini ona yurtiga tuhfa etdi.

Shunday she’r yozayki, aks etsin umrim:
Tunday sokin bo‘lsin, daryoday toshqin.
To‘fonday sershovqin, vulqonday jo‘shqin,
Shunday she’r yozayki, aks etsin umrim.

Habib Sa’dullaning go‘zal she’rlari uning umrini bezab turganidek, shoir ham ana shu she’rlari uchun yaratilgandek, shu she’rlari uchun yashagandek go‘yo. Uning she’r so‘ngidagi fikrlari fikrimizga hamohanglik kasb etadi. Shoir tuyg‘ularini ochishga xizmat qiladi:

Bir she’r yozmoqchiman, bittagina she’r,
O‘sha she’rni istab keldim dunyoga.

Ijod jarayoni g‘oyat sirli va murakkab. Shu boisdan ham tom ma’nodagi ijod doimo individual va betakrordir. Lekin ijodiy jarayon qanchalik individual va betakror bo‘lmasin, shakl va mazmun o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikning umumiy qonuniyati bo‘lganidek, novatorlikning ham umumiy mezoni bor. Ijodning novatorlik xarakteri hayot va voqelikning yangi manzaralarini, yangi-yangi qirralarini, inson qalbining, ma’naviy dunyosining yangi-yangi qatlamlarini badiiy tadqiq etish bilan belgilanadi. Xususan, ana shu jarayonda yuzaga kelgan mazmun yangiligi, estetik ideal hamda g‘oya yangiligi badiiy ijodning novatorlik xarakterini belgilab beradi.

Turli poetik janr va shakllardagi izlanishlar faqat hayot va voqelikning yangi-yangi tomonlari, davr va jamiyat taraqqiyoti bilan, inson va insoniyat taqdiri bilan sinkretik uyg‘unlikda tadqiq etilsa va ana shu

poetik tadqiqot yangi g‘oyaviy-estetik hamda falsafiy umumlashmalarda yoritilsa fayziyob mohiyat kasb etadi. Odatda, poetik soddalik har xil bo‘ladi. Habib Sa’dulla lirikasida yuksak soddalik san’ati borki, bu ilhombaxsh izlanish, ijodiy mehnat samarasidir. Soddalik – bu poetik shakl va mazmunning organik birligi mevasidir. Bu mukammallik va yaxlitlikka erishishda shoirning ulkan ijodiy mashaqqatlari u qadar sezilmagandek, she’r go‘yo shundoqqina yozilib qolgandek, yurakdan oqib tushgandek, ko‘ngilning tub-tubidan quyilib kelgandek bo‘ladi. Vaholanki, bu poetik soddalik shoirning yetuk mahorati hosilasidir.

Shoir zamondoshlarimizning o‘tmish, xalq, kelajak, ona sayyora taqdiri bilan bog‘liq nuqtalarini go‘zal poetik tarzda talqin etarkan, ana shu yo‘sinda inson va insoniyat, ona zamin va butkul yer kurrasi oldidagi ma’naviy mas’uliyatni, ma’naviy-psixologik bog‘liqlik asoslarini ochib beradi va bularning nazdida **Vatan portretini** chizadi.

Habib Sa’dullaning she’rlaridagi lirik obraz – shoirning o‘zi ona Vatanning haqiqiy farzandi bo‘lib kuylaydi. Uning quvonchiga, g‘amlariga sherik bo‘ladi. U yurtini shunchalik sevganidan undan uzoqlashib ketolmaydi. Yurtida muqim bo‘lib qolishni afzal ko‘radi. Ona shahri Namanganni zavq-shavq bilan tarannum etadi. U hamyurtlari bilan faxrlanadi. Ona yurti boshiga tashvish tushganda qayg‘uradi, motam tutadi. Shuning uchun istiqlol tufayli boshi osmonga yetdi. Bu kunlarning qadriga yetishni, O‘zbekistonni ozod ko‘rishni sharaf deb bildi.

Habib Sa’dullaning “Yurtimga” nomli she’rida insonning har bir qilgan ishi, o‘ylagan orzu istaklari uni ko‘nglidan o‘tkazgan yaxshi-yomon niyatlariga bog‘liq, degan fikr ilgari suriladi. Ijodkor nazdida inson qismati ham uning niyatlari bilan belgilanadi. Shoir yaxshi niyatlar mahsuli sifatida dunyoga keldi. Ona yurt uni “yo‘rgakladi”, Quyosh yanglig‘ mehr berdi:

Derlar, niyatingga bog‘liq qismating,
Men ezgu niyatdan keldim dunyoga
Ezgulik istadim,
Mehr istadim,
O‘zing yo‘rgaklading meni ziyoga.
Mehri quyosh yanglig‘ o‘tli onajon,
Mehribon diyorim, jonim Namangon.

Shoir ona Vatanidan minnatdor. Chunki uni bamisoli “nihol” kabi o‘stirdi, ulg‘aytirdi. Ona sutidek “halol” rizq berdi. Shoir bag‘ri keng, mehribon, himmatli vatanini “Buyuk Vatan ichra ey, mo‘jaz Vatan”, – deya ta’riflaydi. Agar u ham munosib farzand bo‘la olmasa, undan rozi

bo‘lmasligini uqtiradi:

Ko‘zlarimni ochding himmating bilan,
Avaylab o‘stirding bamisli nihol.
Buyuk Vatan ichra ey, mo‘jaz Vatan,
Rizq berding, onamning sutiday halol.
Halollikdan zarra chekinsa vijdon,
Aslo rozi bo‘lma mendan, Namangon.

Habib Sa’dulla hayot voqeliklari va zamondoshlarimiz qalbining yangi qatlamlarini poetik tadqiq etish yo‘lida muttasil izlanadi. U she’rlarining keng o‘quvchilar ommasiga yetib borishini ta’minlash maqsadida yangi ifoda vositalarni topadi, ya’ni she’r satrlarini fikriy va emotsional obrazlar bilan boyitishga alohida diqqat qiladi. Shu boisdan ham uning ta’sirli kechinmalar va quyuq fikrlar uyg‘unligi bilan yo‘g‘rilgan lirikasi o‘quvchida chuqur his-tuyg‘ular va o‘y-mushohadalar uyg‘otadi.

Habib Sa’dullaning Vatan, ona, sog‘inch, ayol, tabiat, inson, muhabbat mavzusidagi she’rlarini birlashtirib turuvchi bir nuqta – yetakchi obraz Namangan timsolidir. Shoir ijodi davomida muhtarama onaga bo‘lgan hurmat va ehtiromni bir dam ham unutmaydi. “Lirik qahramon” masjidga borishdan ko‘ra o‘z onasining poyiga sajda qilishni afzal biladi.

Shoirning yaratgan poetik obrazlari salmog‘iga ko‘ra uning dunyoni badiiy-estetik idrok qilish tabiatini tushunish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Белинский В.Г. Сочинения Александра Пушкина. Полн.собр.соч. – М.: 1955. – С.271-272.

2. Султон Иззат. Адабиёт назарияси. – Т.: Ўқитувчи, 1980. – Б.191.

3. Ҳабиб Саъдулла. Танланган асарлар.1- жилд. – Т.: Шарқ, 2002. – Б.59.

MAQSUDA ERGASHEVA SHE’RIYATIDA IJODIY INDIVIDIDUALLIK

Zulayxo Tojimatova Abdug‘affor qizi,
Farg‘ona davlat universiteti, O‘zbekiston
***E-mail*: ztojimatova0224@gmail.com**
Tel: +99891 657-03-06

Annotatsiya: Maqolada ijodkor shaxsiyatining sifat jihatdan shakllanishi, o‘zidan “o‘zligi”ni, ijodiy shaxsiyatini topib, ijodiy

mustaqillik qobiliyatining shakllanish bosqichlari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: individduallik, originallik, xarakter, gradatsiya, biografiya, ijodkor shaxsiyati

Annotation: The article discusses the qualitative formation of a creative personality, the stages of finding one's “identity“, one's creative personality, and the formation of the ability to be creatively independent

Key words: individuality, originality, character, gradation, biography, creative personality

Ijodiy individuallik – yozuvchi shaxsiyatining sifat jihatdan shakllanishi, o‘zidan “o‘zligi”ni, ijodiy shaxsiyatini topib, ijodiy mustaqillik, qobiliyatining badiiy kashfiyot yaratish bosqichiga, ya’ni badiiy-estetik faoliyatining individuallik fazasiga kirishidir. Individuallik bosqichida yozuvchi ijtimoiy hayot taraqqiyoti bilan organik aloqaga kirishib davr badiiy adabiyot oldiga qo‘ygan vazifasini va ularni hal etishni o‘z burchi sifatida anglaydi, o‘z mustaqil “ovozi”, badiiy kashfiyot yarata olish imkoniyatini topadi. Ijodiy individuallikni ko‘rsatuvchi omillar sifatida o‘ziga xoslik, mustaqillik, badiiy kashfiyot yaratish qobiliyati kabilar sanaladi. Aslida o‘ziga xoslik, ijodiy mustaqillik, badiiy kashfiyot yarata bilishlikning negizida originallik turadi. Originallik, avvalo, ijodkor shaxsiyati, talanti, badiiy olamning ko‘rsatgichi. U bizning hayot haqidagi tushunchamizni boyitadi, kuchli badiiy-estetik zavq, joziba bag‘ishlaydi, san’at va adabiyotning g‘oyaviy-estetik ko‘lamini kengaytiradi. Unda ijodkor shaxsi, olamni idrok etishi, badiiy tafakkurning o‘ziga xosligi namoyon bo‘ladi. Originallikning umumiy o‘lchovi yangilik bo‘lib, ijoddagi yangi hodisaning sifat aniqligini ko‘rsatadi. Tadqiqotimiz obyekti bo‘lgan M.Ergasheva she’riyati o‘zining original qirralari bilan zamondoshlari ijodidan ajralib turadi.

Maqsuda Ergashevaning individual uslubini shakllantirgan, poetik mahoratini takomillashtirgan ikki asosga e’tibor qaratish lozim. Birinchisi – shoiraning murakkab hayot yo‘li. Professor Bahodir Karim ta’kidlaganidek badiiy asarni tahlil qilishda asar muallifining tarjimayi holi, shaxsini bilish adabiy tanqidchilikdagi muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. “Yozuvchi biografiyasi qaysidir yo‘sinda uning asarlarida o‘z ifodasini topadi. Va qaysidir darajada san’at asarining originalligini belgilaydi. Yozuvchi hayotidagi o‘zgarishlar, ruhiy kechinmalar, dunyoqarashidagi silkinishlar fonida badiiy asarni talqin qilish o‘zining ijobiy samarasini beradi” [1.65]. Maqsuda Ergasheva 7 yoshida onadan yetim qoldi, shundan keyin yosh qizaloqdan kattalar uchun xos bo‘lgan

barcha og‘ir yumushlar talab etildi. 8-9 yoshlarida hali u, hali bu qarindoshinikida “beminnat dastyor” bo‘lishga majbur bo‘lgan, o‘smirligi ham qishloq dalalarida “qo‘llari tuproq ichinda” kechgan, balog‘at yoshida o‘zi tengi qizni “ona” bilib sochlarini o‘rib o‘sgan bu qizaloq boshiga hayot keyingi yillar davomida ham jiddiy sinovlarni soldi. Shu ma’noda shoiraning bolaligi bir qarashda G‘afur G‘ulomning “Shum bola” asari qahramon taqdirini eslatadi. Biroq, bu kechmishlar, bu dardlar ijodkor ruhiyatini toblaydi, poklaydi. Ota-onadan meros “nekbinlik” bilan shoira har qanday sinovni mag‘rur qarshi oladi. Ko‘p hollarda shoiraga she’rlarining “dardchil”ligi, misralarning “ma’yus”ligi haqida so‘zlashadi. Hatto, “g‘amgin she’rlar odamning yashagisini keltirmay qo‘yadi”, – deguvchilar ham topilgan. Biz esa aynan o‘sha “dardchillik” shoira she’rlarining yuksalish omili deb o‘ylaymiz. Chunki ijodkor dardni qanchalik chuqur his etsa, qalb torlaridan naqadar teran o‘tkazsa, badiiy ifoda shunchalar tabiiy va kechinma tabiatiga monand tus oladi. Qalbida dardi bo‘lgan kishi esa bu she’rlardan o‘ziga hamdard, taskin topadi. Aksincha, tuyg‘usi jo‘sh urib turmagan, shunchaki yozilgan she’r o‘quvchiga hech narsa bera olmaydi. O‘quvchi ham bu she’rlarni o‘ziniki qilib ololmaydi. Maqsuda Ergasheva she’riyati shu ma’noda ko‘pniki, xalqniki bo‘ldi.

Ikkinchisi – adabiy ta’sir. Maqsuda Ergasheva hayoti va ijodiy faoliyatida Uvaysiy hamda Anbar otin singari salaflarga xos xususiyatlarni kuzatamiz. Ayniqsa, Anbar Otinning “Qoralar falsafasi” Maqsuda Ergasheva ijodining g‘oyaviy yo‘nalishiga mos keladi. Oddiy odamlar, ularning turmush tarzi, ruhiyati, jamiyat bilan munosabati, dardlari, turlicha qismatlari ijodkorning qo‘liga qalam tutqazib, yozishga undaydigan motiv deyish mumkin. Ulug‘ Navoiy:

Menga qilsang ming jafo bir qatla faryod aylamon

Elga qilsang bir jafo ming qatla faryod aylaram, – deb yozganidek, shoiraning lirik qahramoni intim mavzudagi she’rlarida itoatkor, ma’sum o‘zbek ayoli sifatida gavdalansa, ijtimoiy mavzulardagi she’rlarida isyonkor, shiddatli qiyofa kasb etadi. Turmushdagi maishiy muammolarga bag‘ishlangan she’rlarini ham falsafiy-estetik ta’sirchanligi tufayli umummilliy darajaga ko‘tara olishi, ijtimoiy-siyosiy hayotdagi hodisalar munosabati bilan yaratilgan ijod namunalariga umuminsoniylik bag‘ishlay olishi Maqsuda Ergasheva ijodidagi an’anaviylik va izdoshlik ko‘rinishlarini tashkil etadi. Bundan tashqari uning ijodkor shaxs sifatida shakllanishida Shavkat Rahmon, Rauf Parfi, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov ijodini sevib mutolaa qilishi o‘z o‘rniga ega. Ayniqsa, Shavkat

Rahmonning ijodiy g‘oyalari shoiraning lirik qahramonida isyonkorlik motivi rivojlanishiga turtki beradi.

Shoira Shavkat Rahmon she’rlari ruhiyatidan, kompozitsion tuzilishidan, olamni va odamni butun murakkab ruhiyat dunyosi va qarama-qarshiliklari bilan yagona nuqtaga jamlab tasvirlash usulidan yaxshi bahramand bo‘ldi, badiiy mahorat sirlarini o‘rgandi. Mana shu ikki asos birlashib yagona poetik manera – Maqsuda Ergasheva individual uslubi yuzaga chiqishiga zamin yaratgan. Ijodkorning o‘ziga xos ifoda uslubi uning boshqa hech kimda uchramaydigan noyob istedod ekanligini, ijodiy individualligini belgilaydi. Uning she’riyati: shakl va mazmun uyg‘unligi, lirik obrazlarning mukammalligi, lirik kechinma teranligi, voqelikning badiiy tasviridagi o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Ijodkorning originalligi, ayniqsa, ayol ruhiyati ifodasida yaqqol namoyon bo‘ladi. Jumladan, “Faryod” she’rida farzandidan judo bo‘lgan ona obrazi va uning iztiroblari ifodalanadi. Ona uchun farzand dog‘i shu qadar og‘irki, butun olam onaga qo‘shilib faryod chekadi. Ona jismining eng chuqur qismida yuzaga kelgan og‘riq keyinchalik ona tabiatga ko‘chadi.

Jon bolam, sendan judo so‘ngaklarim yig‘lar mening,
Egnimga kiygan qaro ko‘ylaklarim yig‘lar mening.
Qo‘llarim yig‘lar mening, barmoqlarim yig‘lar mening,
Barmoqlarim uchidagi tirnoqlarim yig‘lar mening [2.26].

Ma’lumki, suyakning og‘rig‘i jism og‘riqlarining eng og‘iridir. Farzandidan judo onaning iztirobi aynan suyak og‘rig‘i bilan boshlanadi, suyaklardan bo‘g‘imlarga, bo‘g‘imlardan ko‘ylaklarga, barmoqlarga, barmoqlardan tirnoqlarga ko‘chadi. Shu o‘rinda ijodkor qaro ko‘ylak birikmasi orqali ham motamsarolik ham qora qismatga ishora qiladi. Ko‘zlar yoshga to‘lib, kipriklar ham qo‘shilib yig‘laydi. Bunda mubolag‘a bilan ko‘zni ham kiprikni yig‘latish orqali ona iztiroblarini yorqin tasvirlaydi. Bolaning ismi tilga olinar ekan onaning qon to‘la tupuklari ham yig‘laydi. Bunda qon to‘la tupuk farzandi dog‘ida qon yutayotgan ona holatini yanada yaqqolroq namoyon qiladi. Dardning zalvori misralar ketma-ketligida tadrijiy o‘sib, izchil kuchayib boradi. Shu asnoda ifodada gradatsiyaning klimaks ko‘rinishi yuzaga keladi.

Izlaringni izlab sening tovonlarim yig‘lar mening,
Xush bo‘ylarini taratib rayhonlarim yig‘lar mening.
Boshim mudom tizzamdadir, xayollarim yig‘lar mening,
Sho‘r manglayimga bog‘langan ro‘mollarim yig‘lar mening [2.26].

Gradatsiya “mazmunni izchil kuchaytirib borishga asoslangan stilistik figura. Uning ikki xil ko‘rinishi mavjud bo‘lib, birinchisi nutqiy birliklarni ma’nosiga ko‘ra belgi-xususiyat (holat, harakat v.b)ni kuchaytirish (klimaks), ikkinchisi esa susaytirish (antiklimaks) tartibida ketma-ket keltirish orqali voqe bo‘ladi [3.85]. Yuqoridagi misralarda keltirilgan tovonlarda zohirlangan dard tovonlardan yerga, yer orqali butun tabiatga ko‘chadi. Bunda yig‘layotgan rayhonlar, ro‘mollar va tizzasiga bosh qo‘yib xayollari bilan yig‘lab turgan ona tasvirida milliy kolorit ifodalanadi. Aynan ushbu tasvir o‘quvchiga II Jahon Urushi qurbonlari xotirasiga bag‘ishlab Toshkentda o‘rnatilgan “motamsaro ona” haykalini eslatadi. Ushbu she’r shoiraning 1997-yilning noyabr oyida kelinidan, oktabr oyida yolg‘iz qizidan ayrilish voqealariga borib taqaladi. Farzandi azizdan judolik iztirobini o‘z tanida his etgani uchun ham shoira yuragidagi o‘t bilan olamni yoqib yuboradigan ona obrazini bor salobatili gavdalantiradi. Shu ham kechinma ifodasida fojiaviylik, judolik dardining aniq ifodasida zohirlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov B. Abdulla Qodiriy fenomeni. Monografiya. – Toshkent: Info capital group, 2019
2. Эргашева М. Муслима гуллар. – Тошкент: Академнашр, 2019.
3. Quronov D. ba.boshq. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010.
4. Носиров Ў. Ижодкор шахс, бадиий услуб, автор образи. – Тошкент: Фан, 1981. – 199 б.
5. Жўраев Ҳ. Лирик қаҳрамон ва муаллиф шахсияти – Тошкент: Фан, 2008. – 144 б.

MÜNƏVVƏRQORI ABDURƏŞİDOVUN CƏDİDÇİLİK HƏRƏKATINDAKI ROLU VƏ ONUN AZƏRBAYCAN MAARİFÇİLƏRİ İLƏ MÜQAYİSƏSİ

Həqiqət BİNNƏTOVA,

Azərbaycan Respublikası Prezidentin İşlər İdarəsinin yanında “Azərbaycan” nəşriyyatının baş mütəxxəsisi,Baki

E-mail: azer-turkmen-özbek@mail.ru

Xülasə: Bu məqalə Münəvvərqarı Abdurrəşidovun Türkistan jadid hərəkatındakı rolunu və onun Azərbaycan maarifçiləri ilə oxşar və fərqli cəhətlərini araşdırır. Münəvvərqarı, “usul-i cədid” məktəblərinin qurucusu, maarifçi, publisist və ictimai xadim kimi bölgədə milli oyanışın

formalaşmasına mühüm töhfə vermişdir. Onun fəaliyyəti Həsən bəy Zərdabi ilə maarifçilik, Firidun bəy Köçərli ilə pedaqoji fəaliyyət, Əlimərdan bəy Topçubaşov ilə isə siyasi və ictimai mübarizə aspektlərində müqayisə olunur. Münəvvərqarının təhsil və mətbuat sahəsindəki fəaliyyəti, milli kimlik və mədəni muxtariyyət uğrunda apardığı mübarizə Türkistan və Qafqaz regionunda müasir düşüncənin inkişafına əhəmiyyətli təsir göstərmişdir.

***Açar sözlər*:** *Münəvvərqarı Abdurrəşidov, cədidçilik, maarifçilik, Azərbaycan ziyalıları, milli oyanış, mətbuat, usul-i cədid, Türkistan*

Abstract: This article explores the role of Munavvarqori Abdurashidov in the Turkestan Jadidist movement and compares his activities with Azerbaijani intellectuals. As a pioneer of Usul-i Jadid schools, an educator, publicist, and social activist, Munawwarqori made significant contributions to the formation of national awakening in the region. His work is compared with Hasan bey Zardabi in terms of educational reform, Firidun bey Kocharli in pedagogical efforts, and Alimardan bey Topchubashov in political and social activism. Munawwarqori's contributions to education, press, and the struggle for national and cultural autonomy had a substantial impact on the development of modern thought in both Turkestan and the Caucasus.

Key words: Munavvarqori Abdurashidov, jadidism, educational reform, Azerbaijani intellectuals, national avakening, press, Usul-i Jadid, Turkestan

XIX əsrin sonu və XX əsrin əvvəllərində Rusiya imperiyasının Türkistan siyasəti fonunda milli intibah hərəkatlarının, xüsusən də jadidçiliyin təşəkkül prosesinə Münəvvərqarı Abdurrəşidovun (1878-1931) maarifçilik, publisistika və ictimai-siyasi fəaliyyətini kontekstində nəzər salmaq olar. Türk dünyasının tanınmış siması əsas fəaliyyət istiqaməti – maarifçilik fəaliyyəti ilə məşhurlaşmışdır. O, klassik dini təhsillə yanaşı, dünyəvi elmlərə də dərindən yiyələnmiş və həyatını xalqın maariflənməsinə həsr etmişdir. O, yeni tipli məktəblərin yaradılmasına təşəbbüs göstərmiş, müasir pedaqoji metodları tətbiq etmiş və təhsil sahəsində islahatların aparılmasını müdafiə etmişdir. Həmçinin bir sıra dərslik və elmi maarifləndirici əsərlər yazaraq, türk-müsəlman xalqlarının milli və mədəni inkişafına xidmət etmişdir. Qeyd etdiymiz kimi, onun fəaliyyəti, cədidçilik hərəkatının ideyaları çərçivəsində Türküstanda modern təhsilin və milli şüurun formalaşmasına mühüm təsir göstərmişdir.

Orta Asiya cədidçilik hərəkatının lideri, özbək milli mətbuatının və XX əsrin yeni üsullu Milli məktəbinin banisi, yeni milli teatrın

təşkilatçılarından biri, yazıçı və şair kimi türk dünyasında tanınan Münəvvərqarı 1901-ci ildə cədid məktəbi açmış və bu məktəblər üçün xüsusi tədris proqramı tərtib etmiş, dərsliklər yazmışdır. 1903-cü ildən cədid məktəblərində dərs deməyə başlamışdır. Məktəblər üçün "Ədibi əvvəl" ("Birinci müdrik", 1907), "Ədibi sani" ("İkinci müdrik", 1907) adlı əlifba kitablarını yazmışdır. Onun "Əziz yoxsul" adlı şeiri bu oxu kitablarına daxil edilmişdir və bir neçə dəfə nəşr olunmuşdur. 1904-cü ildən ictimai-siyasi və mədəni həyatın fəal iştirakçısı olmuşdur. 1906-cı ildən "Orta Asiya həyatı", "Tərəqqi" – "Taraqqiy" qəzetlərində ədəbi əməkdaş kimi çalışmışdır. Həmin ildə nəşriyyatçı və redaktor kimi "Xurşid" qəzetini təsis etmişdir. 1908-ci ildə onun "Sabazar" (şeir toplusu), "Yer üzü" (coğrafiya kitabı), "Təcvid əl-Quran" ("Quranın oxunuş qaydaları haqqında" kitab) əsərləri çap olunmuş və yeni tipli məktəblərdə dərslik kimi istifadə edilmişdir. O, "Şöhrət" (1907), "Tüjjor" (1907), "Asiya" (1908) qəzetlərinin ideoloji rəhbəri olmuş və bu mətbu orqanlarda ədəbi əməkdaş kimi çıxış etmişdir. Sonralar "Sadoyi Türkistan" qəzetinin məsul redaktor müavini (1914-1915), "Əl-İslah" jurnalının gizli redaktoru (1915-1917), "Nəcat" və "Keneş" qəzetlərinin məsul redaktoru (1917) kimi fəaliyyət göstərmişdir. Münəvvərqarı Abdurəşidxanov müxtəlif cəmiyyət və birliklərin təşkilatçısı olmuşdur. "İmdodiya" (1909), "Turon" (1913), "Türkistan kitabxanası" (1914), "Ümid" (1914), "Məktəb" (1914), "Kömək" (1921) kimi cəmiyyət, təşkilat, şirkət və birliklərin təsisçisi, sədr müavini, sədri və ya üzvü olmuşdur. Şura hakimiyyəti dövründə Türkistan Xalq Maarif Komissarlığının türk şöbəsinin katibi (1918), Daşkənd Xalq Maarif Komissarı, Bakıdakı Şərq Xalqları Qurultayının nümayəndəsi və kollegiya üzvü (1920), Buxara Xalq Maarif Komissarlığının Vəqf şöbəsinin rəisi (1920-1921), Daşkənd şəhərinin Sosial Tərbiyə şöbəsinin müdiri (1921), Akademik Mərkəzin sədri (1922), Nəvai adına məktəbin, Nərimanov adına pedaqoji texnikumun, Qadın Pedaqoji İnstitutunun müəllimi (1923-1925), Səmərqənd Muzeyinin elmi əməkdaşı, Özbək Mədəni İrsin Mühafizəsi Komitəsinin Daşkənd-Fərqanə bölməsinin məsul katibi (1927-1928) olmuşdur.

Münəvvərqarı 6 noyabr 1929-cu ildə milliçilikdə ittiham olunaraq ədalətsiz şəkildə həbs edilmişdir. Moskvanın Butırka həbsxanasında edam olunmuş və Vaqankov qəbiristanlığında dəfn edilmişdir.

Qısa tanıtım məlumatından sonra qeyd edək ki, bəli, Münəvvərqarı Abdurrəşidovun cədidçilik hərəkatında böyük rolu olmuşdur. Belə ki, o, XX əsrin əvvəllərində Türküstanın maarifçi və ictimai-siyasi

xadimlərindən biri olmuşdur. O, cədidçilik hərəkatının fəal iştirakçılarından biri kimi yeni tipli məktəblərin yaradılmasına və türk-müsəlman xalqlarının maariflənməsinə mühüm töhfə vermişdir. Bütün cədidçilər kimi, Münəvvərqarı Abdurrəşidov da elmin, dünyəvi biliklərin və milli oyanışın cəmiyyətin inkişafı üçün vacib olduğunu vurğulayırdı. O, təhsil sistemində islahatların aparılması və müasir elmi biliklərin yayılması üçün mübarizə aparmışdır.

Münəvvərqarı Abdurrəşidovun maarifçilik və milli oyanış istiqamətindəki fəaliyyəti Azərbaycan maarifçilərindən bir neçə şəxs ilə müqayisə oluna bilər. Onun fəaliyyəti xüsusilə Həsən bəy Zərdabi, Firidun bəy Köçərli və Əlimərdan bəy Topçubaşov kimi görkəmli və tarixi şəxsiyyətlərin – Azərbaycan ziyalılarının fəaliyyəti ilə oxşarlıq təşkil edir.

Müqayisə üçün bəzi qeydlərə nəzər salmaq istərdik:

➢ Həsən bəy Zərdabi (1837-1907) ilə müqayisədə –

Maarifçilik və milli oyanış: Həsən bəy Zərdabi və Münəvvərqarı Abdurrəşidov hər ikisi maarifçiliyi milli şüurun formalaşması üçün əsas faktor kimi görürdülər.

Mətbuat fəaliyyəti: Münəvvərqarı Abdurrəşidovun dövrün qəzetlərində yazılar yazması, mətbuat vasitəsilə cəmiyyəti maarifləndirməyə çalışması Həsən bəy Zərdabinin "Əkinçi" qəzetindəki fəaliyyətinə bənzəyir.

Təhsil islahatı: Hər iki şəxs müasir təhsil sisteminin qurulmasının tərəfdarı olmuş və ənənəvi dini tədrisin məhdudiyyətlərini tənqid etmişlər. Münəvvərqarı Usul-i jadid məktəblərinin əsas qurucularından biri olduğu kimi, Zərdabi də dünyəvi məktəblərin açılmasını dəstəkləyirdi.

➢ Firidun bəy Köçərli (1863-1920) ilə müqayisədə –

Təhsil və pedaqoji fəaliyyəti: Münəvvərqarı Abdurrəşidov və Firidun bəy Köçərli hər ikisi maarifçi kimi müəllim və təhsil təşkilatçısı kimi fəaliyyət göstərmişlər. Köçərli Gəncə və Qori seminariyasında pedaqoji sahədə çalışdığı kimi, Münəvvərqarı də jadid məktəblərinin təşkili və dərsliklərin hazırlanması ilə məşğul olmuşdur.

Ədəbi irs və milli kimlik: Münəvvərqarı öz əsərlərində milli oyanışa önəm verdiyi kimi, Köçərli də Azərbaycan ədəbiyyat tarixini araşdıraraq milli özünüdərkin güclənməsinə çalışmışdır.

➢ Əlimərdan bəy Topçubaşov (1865-1934) ilə müqayisədə –

Siyasi və ictimai fəaliyyəti: Münəvvərqarı Abdurrəşidov və Əlimərdan bəy Topçubaşov hər ikisi həm maarifçilik, həm də siyasi fəallıq göstərmişlər. Topçubaşov Müsəlman Xeyriyyə Cəmiyyətləri və "Kaspi" qəzeti vasitəsilə ictimai maarifçiliyə töhfə verdiyi kimi, Münəvvərqarı də

Türkistan ziyalılarının təşkilatlanmasında və qəzet fəaliyyətində mühüm rol oynayıb. –

Rus imperiyasına münasibət: Hər iki şəxs Rusiya imperiyasının yerli xalqlara qarşı siyasətini tənqid etmiş və müsəlman xalqlarının milli hüquqlarının qorunması üçün çalışmışdır.

Ümumi nəticə və müqayisə cədvəli

Fəaliyyət sahəsi	*Münəvvərqarı Abdurrəşidov*	*Həsən bəy Zərdabi*	*Fürudin bəy Köçərli*	*Əlimərdan bəy Topçubaşov*
Maarifçilik və təhsil	*Üsuli-cədid məktəbinin qurucusu*	*Ilk milli qəzet və təhsil islahatçısı*	*Müəllim və maarifşi*	*Maarifçilik təşəbbüslərinin dəstəkçisi*
Mətbuat fəaliyyəti	*"Sadoyi Turküston" və digər qəzetlərdə yazılar*	*"Əkinçi" qəzetinin qurucusu*	*Ədəbi pedaqoji tədqiqatlar və*	*"Kaspi" qəzetinin baş redaktoru*
Siyasi mövqe	*Milli Muxtariyyət tərəfdarı*	*Maarifçilik yolu ilə islahat tərəfdarı*	*Maarifçiliklə milli kimlik formalaşdırma*	*Azərbaycan istiqlalının liderlərindən biri*
Rus imperiyasına münasibət	*Mədəni və siyasi Muxtariyyət tərəfdarı*	*Maarifləndirmə yolu ilə inkişaf*	*Azərbaycan türklərinin milli dirçəlişi*	*Rusiya Dumasında müsəlmanların hüquqlarını qoruyan siyasətçi*
Repressiya və taleyi	*1931-ci ildə sovet rejimi tərəfindən edam olunub*	*Maddi çətinliklər və təzyiqlərlə üzləşib*	*1920-ci ildə bolşeviklər tərəfindən qətlə yetirilib*	*1934-cü ildə mühacirətdə vəfat edib*

Bu müqayisələr göstərir ki, Münəvvərqarı Abdurrəşidov həm maarifçi, həm publisist, həm də siyasi mübariz ruhlu şəxsiyyət kimi Azərbaycan ziyalılarına bənzəyirdi. Onun Həsən bəy Zərdabi ilə maarifçilik, Firidun bəy Köçərli ilə pedaqoji fəaliyyət, Əlimərdan bəy Topçubaşov ilə isə siyasi mübarizə aspektlərində oxşar cəhətləri var.

Ədəbiyyat:

1. Abdulla Avloni. "Turon" teatr cəmiyyəti və onun fəaliyyəti. Daşkənd, 1914.
2. Fazliddin Muhammedov. Özbək ədəbiyyatının tarixi. Daşkənd, 1963.

3. Münəvvər Kari. Ədibi əvvəl. Daşkənd, 1907.
4. Münəvvər Kari. Ədibi sani. Daşkənd, 1907.
5. Şuxrat Sirojiddinov. Cədidçilik hərəkatı və onun nümayəndələri. Daşkənd, 2001.
6. Toshmuhammad Qosimov. Özbək teatrının təşəkkülü və inkişafı. Daşkənd, 1975.
7. Yusufbek Həsənbəy. Cədid məktəbləri və onların əhəmiyyəti. Daşkənd, 1911.

REALIST NƏSRDƏ M.F.AXUNDOV ƏNƏNƏLƏRI

Türkan Mahmudzadə,
Azərbaycan Dövlət Pedaqoji Universiteti
Türkoloji mərkəzin mütəxəssisi
Bakı, Azərbaycan
E-mail: mahmudzadturkan@gmail.com

***Xülasə*:** M.F.Axundovun ədəbi, elmi, estetik prinsipləri, ədəbiyyat, onun janrları, realizm, satira və gülüş haqqındakı görüşləri XIX əsrin sonu, XX əsrin əvvəllərində də davam edirdi. Bunu dramaturgiya və satirik nəsrin inkişafında daha aydın görmək olar. M.F.Axundovun realist satirik nəsr ənənəsindən faydalanan C.Məmmədquluzadə, N.Nərimanov, M.Ə.Talıbov, Z.Marağalı və başqa yazıçılar elə XIX əsrin sonlarından ədəbiyyata gəlməklə böyük sənətkarın satirik, yumoristik nəsr ənənələrini mənimsəyərək, çeşidli bədii nümunələr yaratmışlar.

C.Məmmədquluzadənin "Danabaş kəndinin əhvalatları" əsəri XIX əsrin ikinci yarısı nəsr tariximizdə xüsusi yer tutur. "Aldanmış kəvakib" povestindən sonra milli nəsrimizin yeni uğurları, bizcə, bu əsərlə, əsərin ədəbi ənənəyə çevrilən orijinal poetika xüsusiyyətləri ilə bağlıdır". C.Məmmədquluzadənin M.F.Axundovun irsinə və ilk növbədə onun realizminə münasibəti yaradıcı münasibət olmuşdur. XIX əsrin ikinci yarısı Azərbaycan xalqının zəhmətkeş təbəqəsinin acınacaqlı vəziyyətini, əzab-əziyyət içində keçən güzəranını, bütün həyat tərzini dərindən bilən, görən, müşahidə edən, hadisələrin içində olan yazıçılardan biri də C.Məmmədquluzadə olmuşdur. C.Məmmədquluzadə ilk nəsr əsəri olan "Danabaş kəndinin əhvalatları" ilə bu ictimai ədalətsizliyə, zorakılığa qarşı çıxdı. Azərbaycan kəndinin feodalizm dövründəki tarixi mənzərəsi şəffaf ayna kimi bu əsərdə əks olunmuşdur. İlkin əsərlərindən zamanın qabaqcıl ideyaları mövqeyində durmaq yazıçının əsərlərinin əsas qayəsi idi. Onun əsərlərinin realizm ənənələrindən danışarkən bir cəhətə də xüsusi diqqət

yetirmək vacibdir. Bu ədibin əsərlərində lirik ricətlərlə real hadisələrin vəhdətidir. Realist yazıçı olaraq o, həyata nə qədər fəal, tələbkar, ayıq-sayıq, fəhmli münasibət bəsləyirdisə, bir o qədər də onun ziddiyyətli nöqtələrini hamının nəzərindən qaçan detalları açıb göstərə bilirdi. Belə detallardan (cizgilərdən) biri lirik haşiyədir. Sözü gedən haşiyələrdə soyuq, sərt realizə əvəzinə poetik ruh, zərif və qəlbə təsir edən şirin təsvir üsulu nəzərə çarpır. "Danabaş kəndinin əhvalatları" əsəri bu gün də bədii nəsrimizin ən gözəl nümunəsi sayılmaqdadır.

***Açar sözlər*:** M.F.Axundov, C.Məmmədquluzadə, realizm, realist, satirik

Annotation. M.F. Akhundov's views on literary, scientific, and aesthetic principles, literature, its genres, realism, satire, and laughter continued at the end of the 19th century and the beginning of the 20th century. This can be seen most clearly in the development of dramaturgy and satirical prose. Benefiting from the realistic satirical prose tradition of M.F. Akhundov, J. Mammadguluzade, N. Narimanov, M.A. Talibov, Z. Maraghaly and other writers, who entered literature at the end of the 19th century, adopted the satirical and humorous prose traditions of the great artist and created a variety of artistic examples.

J. Mammadguluzade's work "Stories of the Village of Danabash" holds a special place in our prose history of the second half of the 19th century. "After the story "The Deceived Kevakib", the new successes of our national prose, in our opinion, are connected with this work, with its original poetic features, which have become a literary tradition." J. Mammadguluzadeh's attitude to the legacy of M.F. Akhundov, and primarily to his realism, was a creative one. J. Mammadguluzadeh was one of the writers who deeply understood, saw, observed, and was involved in the events of the second half of the 19th century, the miserable situation of the working class of the Azerbaijani people, their suffering and hardship, and their entire lifestyle. J. Mammadguluzadeh opposed this social injustice and violence with his first prose work, "Stories of the Village of Danabash."

The historical landscape of the Azerbaijani village during the feudal period is reflected in this work like a transparent mirror. From his early works, the main goal of the writer's works was to stand in the position of the advanced ideas of the time. When talking about the realism traditions of his works, it is important to pay special attention to one aspect. This writer's works combine lyrical allusions with real events. As a realist writer, the more active, demanding, vigilant, and insightful his attitude toward life was, the

more he was able to reveal its contradictory points and show details that escaped everyone's attention. One of such details (lines) is the lyrical border. In the aforementioned borders, instead of cold, harsh realism, a poetic spirit, a gentle and sweet way of describing things that touches the heart are noticeable. The work “Stories of the Village of Danabash“ is still considered the most beautiful example of our literary prose.

Key words: M.F.Akhundov, J.Mammadguluzadeh, realism, realistic, satirical.

Ədibin realist təsvirində bədii kontrastlar yaratmaq bir üslubdur. Bir ictimai səhnə, hadisə və ya insanın səciyyəsini müəyyən etmək üçün ədib onu həmcins olan, həm də tamamilə təzad təşkil edən başqa bir ictimai səhnə, hadisə və ya insan ilə qarşılaşdırır və bu müqayisədə özünün məqsədini ifadə etmiş olur. Yazıçının realizmində ilkin tənqid və satira hədəfi müsəlman dünyası, cəhalət və xurafatdır. Bunları o, Ə.Mirəhmədov demişkən, həmişə Avropa mədəni aləmi, mütərəqqi millətlərin məişət, adət və qaydaları ilə müqayisədə götürür. Ələlxüsus da, bu kontrastlı təsvirlər ədibin portret hekayələrində, cəhalət dünyasını ifşa edən əsərlərində daha güclü görünür.

XIX əsrin sonlarında yaranan iri həcmli nəsr əsərlərinə M.F.Axundov ənənələrinin təsiri güclü idi. “C.Məmmədquluzadə, N.Nərimanov, Z.Marağalı kimi yazıçılar tək realist, satirik əsərlər yazmaqda deyil, roman və povest janr formalarına bənzər əsərlər meydana gətirmək, yeni süjet, obraz və tiplər yaratmaq, satirik yumor və gülüşün çeşidli şəkillərindən bəhrələnməkdə də o ustadlarından öyrənirdilər. “Danabaş kəndinin əhvalatları” öz satirik üslubu, həlim yumoru, maraqlı süjet xətti, obraz və tipləri ilə, “Məktubati-Şeydabəy Şirvani”, “Bahadır və Sona” maarifçi ideyası, gənc maarifçi obrazı ilə, “İbrahimbəyin səyəhətnaməsi” güclü, bəzən öldürücü satirik ifşa üsulu ilə M.F.Axundov ənənəsindən qaynaqlanırdı. “Bahadır və Sona”da satira və gülüş yox, geriliyin, düşmənçiliyin tənqidi, insani, bəşəri münasibətlərin təbliği ön plana çəkilir. “Əsər ilk kiçik milli roman nümunəsi olmaqla özündən sonra gələn bir sıra nəsr əsərlərinə qüvvətli təsir göstərmişdir”1 . Bu baxımdan da əsəri yalnız məhəbbət mövzusu ilə bağlamaq doğru deyil. “Həqiqətən, “Bahadır və Sona” problemlər romanıdır”2 . Romanda qarşılıqlı məhəbbət, xalqın maariflənməsi, intibahı, mədəni-mənəvi təkamülü üstünlük təşkil edir.

Sultanməcid Qənizadə (1866-1937) ədəbi yaradıcılığa Bakıda müəllimlik etdiyi 1890-cı illərdən başlamışdır. Xalq nağılları əsasında

uşaqlar üçün yazdığı “Tülkü və caq-caq bəy” mənzum hekayəsi (1894), “Məktubati-Şeydabəy Şirvani” ümumi başlığı altında nəşr etdirdiyi “Müəllimlər iftixarı” (1898), “Gəlinlər həmayili” (1900) və rus yazıçısı A.F.Poqosindən (1816-1874) təbdil etdiyi “Allah divani” (1896) kimi əsərləri həmin illərdə yazılmışdır. Ədib əsərlərdə ədəbi-bədii görüşlərini ifadə etmiş, həyata münasibəti, ədəbiyyatın həyatda ictimai rolu, əhəmiyyəti, əsas vəzifələri haqqında maraqlı fikirlər söyləmişdir. Artıq 1890-cı illər onun elə yaş dövrü idi ki, nəyi necə yazmağı dərk edirdi. “İndi hekayənəvisliyə meyil etmək, oxucunun əxlaqına, tərbiyəsinə müsbət təsir göstərən həyati məsələləri yazmaq lazımdır” - deyirdi.

“Məktubati – Şeyda bəy”, “Sərgüzəşt” kimi maraqlı nəsr əsərləri ədibin bədii yaradıcılığında, həm də nəsrimizin inkişaf tarixində bütün parametrləri ilə, istər ideya-məzmun, istərsə də poetik baxımdan xüsusi əhəmiyyət kəsb edir. “Məkubati Şeyda bəy”də kimin danışması məlumdur. Müəllif də var, təhkiyəçi də.”Müəllimlər iftixarı”nda hekayət naməlum hekayəçi təhkiyəsi ilə başlayır. Amma təsviri və informativ təhkiyə epizodlarında isə hekayəçi Şeyda bəy haqqında kənar bir şəxs kimi danışır. S.M.Qənizadə Şeyda bəyin timsalında ümumiləşdirmə aparmağa müvəffəq olaraq arzu və istəklərini də digər surətlərin timsalında ustalıqla vermişdir. “Allah xofu” hekayəsi də nəsrimizdə dövrü üçün çox qiymətli bir nümunələrdəndir. Oxucu hekayədə Məşədi Əsgərlə bir payız gecəsində küçələrdə ümidsiz gəzərək balaları üçün ruzi axtardığı zaman tanış olur. Qırx yaşında olan bu dərbəndli biçarə on iki yaşında Bakıya gəlib, neft gəmilərinin birində muzdurluğa başlamışdı.

XIX əsrin sonu, XX əsrin əvvəllərində bədii nəsrin inkişafına çalışan yazıçıların çoxu Avropa və rus elmini, mədəniyyətini yaxşı mənimsəmiş, hazırlıqlı qələm sahibləri idi. Bizcə, XIX əsrin II yarısı və XX əsrin əvvəllərinə aid Güney Azərbaycanda da bədii nəsr həmin klassik nəsrin ənənələri üzərində formalaşmışdır. M.F.Axundov ədəbi məktəbinin nümayəndələri Ə.Talıbov və Z.Marağalı Güney Azərbaycandan Qafqaza gəlmiş, Avropa ölkələrində, Rusiyada olmuş, dünya mədəniyyəti ilə yaxından hali olan şəxslər olmuşlar. Onların “İbrahimbəyin səyahətnaməsi”, “Talibinin gəmisi” və ya “Əhmədin kitabı”, “Xeyirxahlar yolu” əsərlərində İranın, xüsusən də Güney Azərbaycanın siyasi-iqtisadi, mədənimənəvi, tarixi vəziyyəti, xalqın istək – arzuları və mübarizəsi, bəşəriyyətdə gedən dinamik dəyişikliklər – elmin, texnikanın inkişafı, ziyalıların maarifçilik ideyaları, despotizmin ifşası, dinə münasibət, qadın azadlığı, əlifba islahatı ideyası və başqa problemlər öz bədii əksini tapmışdır. Xüsusilə, İbrahimbəyin səyahətnaməsi”ndə dövrün ümdə

problemləri önə çəkilirdi. Əsərlərdə kəskin satirik ruh, açıq tənqid, eyhamlar, kinayə, sarkazm dərəcəsinə çatır. Bütövlükdə isə hər iki əsər fars dilində ilk romanlarımız olmaqla maarifçilik istiqaməti, yeni janr xüsusiyyətləri ilə də diqqəti çəkir.

M.F.Axundovun "Aldanmış kəvakib" povestindən sonra M.Ə.Talıbovun "Xeyirxahlar yolu" romanında (bəzi mənbələrdə "Xeyirxahlar məsləki") həm ictimai, əxlaqi, həm də ailə-məişət problemlərinə toxunulur. Əflatun Saraclı əsəri "yarımfantastik roman" kimi qiymətləndirir. Bu, həqiqətən, belədir. F.Köçərli "Məişətimizin ən zəruri işlərini göstərdiyi üçün Azərbaycan oxucularını əsəri oxumağa çağırmışdır". M.F.Axundov ənənələri ilə yetişib formalaşan Z.Marağalı da bir sıra problemlərin qaldırılması və həlli üsulları ilə inqilabçı demokratlara yaxınlaşırdı. Bunu romanın ideya istiqamətində, maarifçi, satirik ruhunda da görürük. Z.Marağalı da Azərbaycanda və İranda haqsızlıqlara qarşı mübarizə aparırdı. Şərqşünas alim Y.E.Bertels "Bu əsərin bütün müasir ədəbiyyata təsiri çox böyükdür. Bu fars dilində Avropa tipli ilk orijinal romandır" - deyirdi. XX əsrin ortalarında (1963) romanın Moskvada buraxılan birinci cildinə yazdığı ön sözdə A.M.Şoytov səyahətnaməni "XX əsrin son rübündə İran varlığının bir növ ensiklopediyası" adlandırırdı. Səyahətnamə ilk nəşrindən sonra Azərbaycan tədqiqatçılarının, yazıçılarının nəzər-diqqətini cəlb etmiş M.Cəfər, M.Cəlal, H.Məmmədzadə, M.Mənafi, Ə.Saraclı, N.Rizvan və başqaları əsər haqqında müsbət fikirlər söyləmiş, Ə.Saraclı isə monoqrafiya yazmışdır

Mirzə Fətəli Axundzadə ədəbiyyat tariximizdə əsərləri milli qeyrət, xalqın acınacaqlı yaşamından gileylənmək, millətin savadlanması, qabaqcıl Avropa mədəniyyətinə qoşulması üçün yorulmadan çalışmaq kimi bir çox realist ideyalarla zəngindir.

M.F.Axundzadə yaradıcılığa şeirlə başlamışdır. Lakin, onun şeir yaradıcılığı bir o qədər də zəngin deyildir. Ədibin ölməz rus şairi A.S.Puşkinə yazdığı "Puşkinin ölümü haqqında şərq poeması"nı, "Zəmanədən şikayət"i və daha bir neçə bu tipli şeirləri istisna etsək yerdə qalan şeirləri əsasən məktublardan, mədhiyyələrdən ibarətdir. Öz dövrünün digər yazıçıları kimi Axundzadənin də yaradıcılığında ziddiyyətlər yetərincədir. Əgər bu ziddiyyətlər ilk olaraq başladığı şeir yaradıcılığını əhatə etsəydi bunu onun gənc olması, yaradıcılığa yeni başlaması ilə bağlamaq olardı. Lakin bu ziddiyyətlər onun bütün yaradıcılığı boyu hiss olunur. Bir yandan mədhiyyə yazan şairləri tənqid edən, "o ədəbiyyatı real ədəbiyyat hesab edirəm ki, orada xalqın real həyatı, dərdləri öz əksini

tapsın”- deyən ədib bir yandan da İstanbulda baş vəzir Fuad paşaya əlifba ilə bağlı yazdığı şeirində onu Süleymanın müdrik vəziri Asəflə müqayisə edirdi. Digər bir mədhiyyəni isə rus çarının vəliəhdi II Aleksandrın Tiflisə gəlişinə həsr etmiş, burada vəliəhdi orta yüzil dünyasının ən nəhəng sərkərdələri olan Əmir Teymurdan və I Şah Abbasdan üstün tutmuşdu. Bundan başqa o, zəmanəsinin şairlərinin, xüsusən də Q.B.Zakirin kəskin tənqid etdiyi, öz zülmkarlığı ilə bütün Qarabağ mahalında məşhur olan Cəfərqulu xana da bir neçə mədhiyyə yazmış, onunla dostluq münasibətləri saxlamışdır. Zənnimcə Axundzadənin Cəfərqulu xanı həcv etməməsini onun bir çar zabiti olaraq rütbəcə Cəfərqulu xandan kiçik olmasında, hərbi intizamın buna yol verməməsində axtarmaq lazımdır.

Göründüyü kimi M.F.Axundovun ənənələri satirik tənqidi sonralar daha çox M.Cəlil, M.Ə.Sabir, Ə.Haqverdiyev, Ü.Hacıbəyov və “Molla Nəsrəddin” ədəbi məktəbinin başqa görkəmli nümayəndələrinin yaradıcılığında inkişaf etdi.

Ədəbiyyat:

1. B.Babayev. ƏDƏBİYYAT MƏSƏLƏLƏRİ. - Bakı: “Müəllim” nəşriyyatı, 2015. - 278 s.

2. Vəlixanov, N. Azərbaycan maarifçi realist ədəbiyyatının inkişafı - Bakı: “Elm” nəşriyyatı (1890-1920-ci illər)

3. İ Zəkiyev, İ. M.F.Axundov və Azərbaycan kitab mədəniyyəti.Zəkiyev; Azərbaycan SSR EA-nın Nizami adına Ədəbiyyat İnstitutu.-Bakı:” Azərbaycan Dövlət” nəşriyyatı, 1971. –256 s.

4. Hüseynova, N. Azərbaycan ədəbi-nəzəri fikrində realizm problemi AMEA Nizami adına Ədəbiyyat İnstitutu.- Bakı, 2007. – 142 s.

DOSTON JANRIDAGI ASARLARNING BADIIY TAKOMILI

Axmedova Shoxista,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Tel:998973277633

Annotatsiya: Ushbu maqolada Omon Matjon uy arxivida saqlanayotgan “Ming bir yog‘du”, “Nega men?!”, “Haqqush qichqirig‘i”, “Qush yo‘li” dostonlarining qo‘lyozma variantlari mavjud bo‘lib, bu dostonlarning qo‘lyozma va bosma nashrlar variantlari qiyoslab tahlil qilingan. Jadvallar orqali dostondagi so‘zlarning o‘zgartirilib, boshqa so‘zlar bilan almashtirilishiga misol keltiramiz.

Kalit so‘zlar: uy arxiv, doston, jadval, sarlavha, qo‘lyozmalar, variantlar.

Abstract: This article contains the manuscript versions of the epics

“Ming bir yogdu“, “Nega me?!“, “Swan's cry“, “Bird's path“ stored in the Amon Matjon home archive, and the manuscript and printed versions of these epics are compared and analyzed. Using the tables, we give an example of how the words in the epic are changed and replaced by other words.

Key words: home archive, saga, table, title, manuscripts, variants.

ijodiy qayta ishlanib, hissiy idrok etish mumkin bo‘lgan shaklda ifodalangan aksidir”[D.Quronov,2018:37]. So’z san’atkorlari borliqni tasvirlar ekan turli obrazlardan, turli ifoda vositalaridan foydalanadilar. She’riyatda eng ko‘p qo‘llanilgan obrazlardan biri gul obrazi hisoblanadi.

“Bilamizki, mumtoz adabiyotda gul obrazi yor timsoli sifatida qo‘llanilgan, ammo shoirlar bu obrazni turli davrlarda turli maqsadlarni ifodalash uchun qalamga oldilar. Masalan, jadid she’riyatida kelajakka umid, yorqin va go‘zal kunlarning nishonasi sifatida yangicha poetik ma’no kashf qildi. Abdurauf Fitratning quyidagi misralari fikrimiz dalilidir:

Kuchli bir yel ko‘rgach, yirtilar.
Umid bizim uchun ham tug‘ar:
Qayg‘urmagil sira, ey haq tuyg‘usi!” [L.Tajibayeva,2023:43]

Yuqoridagi qatorlarda shoir uchun gul uning xayollarini o‘g‘irlagan go‘zal timsoli emas, aksincha, ishonchning, umidning timsoli hisoblanadi.

O‘zbek xalqining sevimli shoiri, Erkin Vohidov ijodida esa gul obrazi bir biridan farqlanuvchi tasvir vositasi sifatida qo‘llaganini kuzatish mumkin. Shoir she’riyatini nafisligi ,badiiy jozibasi, falsafaga yo‘g‘rilgan chuqur ma’no olami, ohangdagi o‘ziga xosligi bilan alohida ajralib turadigan she’riy ummonga qiyoslasak bo‘ladi. “Erkin Vohidov poetik tafakkuri g‘oyat keng va tiniq shoir ekanligini”, uning qalamidan to‘kilgan satrlarda olam-olam ma’no mujassam bo‘lishini juda ko‘p olimlar e’tirof qilishgan. Quyidagi misralarni fikrlarimiz misoli sifatida keltirish mumkin:

Yoshlik – gul-u g‘ulg‘uncha ekan,
Bu gul olam turguncha ekan,
Yoshlik – behad tushuncha ekan,
Poyoni yo‘q garduncha ekan. [E.Vohidov, 2001:37]

So‘z san’atkori yoshlikni gul-u gulg‘unchaga qiyoslar ekan, inson qalbidagi yoshlik hisi uni hech qachon tark etmasligini yáni bu gul olam turguncha yoki insonga butun hayoti davomida hamrohlik qilishini anglatar ekan, yoshlik tushunchasining nuhoyatda kengligini, uning payoni yo‘qligini aytib fikrlarini rivojlantiradi.

Yog‘ar ko‘kdan zar,
O‘yga cho‘mib deding gul yuzin:
“Osmon to‘la sonsiz yulduzlar,
Qaysi ekan mening yulduzim?”
Shu uy meni band etar ko‘pdan,
Shu sababli deyman: gul yuzim,
Yulduz izlab netasan ko‘kdan,

O‘zingsan-ku mening yulduzim. [E.Vohidov, 2001: 51]

Erkin Vohidov she’rlarida gul obrazini bir birini takrorlamaydigan maqsadlarda qo‘llaydi. Yuqoridagi she’riy satrlarda shoir o‘z yoriga gul yuzim deya murojat qiladi. Har bir shoir she’r yozarkan so‘zlar yordamida vaziyat tasvirini chizgandek bo‘ladi. Bu haqda adabiyotshunos Ibrohim G‘ofurov o‘zining “Lirikaning yuragi” asarida shunday tákidlaydi : “Lirik she’r bilan surat chizish ovrtasida juda ham yaqinlik bor. Rassom o‘z yuragidagi bezovta olamni, uning g‘oyalarini, ruhini, tinimsiz talashlarini aniq, muayyan bo‘yoqlar, muayyan chizgilar bilan ifodalaydi. Shoir ham o‘z hissiyotlari, kechinmalari, falsafasi, dunyoqarashi, dardi, alami, iztirob va quvonchlarini muayyan so‘zlar, obrazlar, kartinalar, detallarning haqqoniyligi va nafosati bilan anglatadi”.

Qardosh qoraqalpoq she’riyatida ham gul obrazining turli tasvir ifodasi sifatida qo‘llanishini kuzatishimiz mumkin. Qoraqalpoq xalqining ardoqli shoiri Ibrayim Yusupovning ko’plab she’rlarida ushbu obrazni bir-birini takrorlamaydigan maqsadlarda qalamga oladi. Masalan, shoirning “Qizdiń kewli - qizil gúl” she’rida lirik qahramon qizlar ko‘nglini gulga qiyoslaydi.

Qiz kewlinde qizil gúldiń jilwasi,
Gúl ishqinda sayrar búbúl namasi,
Kókireginde bolsa bàhàr quyashi,
Gúller ǵumshalanip shig'ar da keter. [I.Yusupov, 1999: 57]

Yuqoridagi to‘rtlikda gul so‘zini uch marta qo‘llaydi. Dastlab shoir qiz ko‘nglida qizil gulning jilvasi deya ko‘nglining naqadar go‘zalligi tárif qilsa, keyingi misrada o‘z fikrlarini rivojlantirib, gul ishqida bulbullarning kuylashini tákidlaydi. Uyg‘onish fasli hisoblangan bahor quyoshida gullarning g‘unchalashini qalamga olib tasvirni kuchaytiradi.

So‘z san’atkori o‘zining “Gúller ańlamas” nomli she’rida gurhdan ayrilgan g‘oz nolasini ko‘l anglamagani kabi gul ishqida kuygan bulbul nolasini, bahorda ochilgan gullar anglamas deya fikrini isbotlashga harakat qiladi. Yáni yor ishqida kuygan oshiq holini hech kim anglamasligini ifodalaydi.

Tobinan ayrilǵan tori- ala ǵazdin,
G'ańqildisin aydin kóller ańlamas,
Gúl ishqinda kúygen búlbúl nalasin,
Bàhàrde ashilg'an gúller ańlamas. [I.Yusupov, 1999: 61]

I.Yusupovning “Kelgen boldi ma” nomli she’rida ham yuqoridagi kabi tasvirni uchratish mumkin. Yáni gul ishqida kuyish bulbulga xosligini keying qrashlariga isbot sifatida keltiriladi.

Gúl ishqinda kúymek búlbildiń kári,
Ańsag'anim - tuwg'an jerdiń báhári,
Ádira qalǵan arziw-ármanniń bári,
Jat jurtta túsime kirgen boldi ma.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek va qoraqalpoq she’riyatda gul obrazini turli badiiy maqsadlarda qo‘llashini kuzatishimiz mumkin. Bázan gul deya yorga murojaat qilinsa, bázan yorining qaysidir xususiyatini ushbu obraz yordamida ifoda qiladilar. Obrazlarning ifodasidagi o‘xshashlik bir-birga qon-qardosh bo’lgan ikki xalq orasidagi asrlar davomida shakllangan aloqalarga tayanadigan bo’lsa, ular orasidagi farqni shoirlar tasviridagi o‘ziga xoslik va milliylik ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018 – B. 43.
2. O‘zbek tilining izohli lug’ati. Ikki tomlik. I tom. – M., 1981.
3. G‘afurov I. Lirikaning yuragi. – Toshkent, 1982.
4. Vohidov E. She’r dunyosi. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2001.
5. Yusupov I. O‘mır sag‘an ashiqpan. – No‘kis: Qaraqalpaqstan.
6. Tajibayeva L.Yangi o‘zbek she’riyati genezisi va taraqqiyot tamoyillari. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ..diss. – Urganch, 2023.

YAŞLILARIN SÜRDÜRÜLEBİLİR EĞİTİMİNDE HALK KÜTÜPHANELERİNİN ROLÜ

Aliyeva Aygun Seyfeddin gizi,
Baku State University, Faculty of Information and Document Management, Department of Library Science
Bakü Devlet üniversitesi, Bilgi ve Belge Yönetimi Fakültesi, Kütüphanecilik Bölümü
ORCID ID: 0000-0003-1614-1062

Abstract*:* Libraries occupy one of the leading places among institutions that organize personal education of the elders. Today, the responsibility of modern life falls on the elderly population. That is why the education of the elderly in the international world is considered as the key of the 21st century. The elderly population working in various fields of the national economy try to keep up with the changes and innovations in

the society and improve regularly. For this reason, this group of readers is more inclined towards private education.

Elderly people who prefer private education do not stay out of the processes taking place in the life of society through reading and become its participants. Through personal education, the elderly get to know the culture and the wealth of artistic words and correctly define their vital function. It is known that no higher and secondary educational institution can provide graduates with information in a certain specialty to the extent required by modern life. Because every higher and secondary specialty institution is limited by a certain time and does not have the opportunity to provide all the information.

For this reason, it is necessary to study for a lifetime in the new society and to read regularly in order to integrate the innovations that are happening. Colorful, comprehensive reading should not be occasional, but regular, that is, uninterrupted. The article highlights the social importance of reading, the role of libraries (public libraries) in organizing the reading process. At the same time, the importance of innovations in increasing the effectiveness of the reading process, the necessity of using new forms of propaganda is justified. The importance of public libraries as an organizer of general education reading in the organization of the continuous educational process and the important tasks facing them are noted. In order to help the comprehensive and harmonious development of people, it is a basic condition that these tasks should be carried out in a complex manner.

Public libraries should prioritize the promotion of literature on all areas of spiritual education in order to help the formation and comprehensive development of the personality, should try to raise the intellectual level of the elderly population, improve their professions, and socialize people in connection with the development process of society.

A person with a high culture, intellectual level and worldview reads throughout his life. Serving such people places important specific tasks on libraries and requires special professionalism from librarians. In order to serve readers from this group in libraries, it is necessary to allocate librarians with a high professional level and to specialize them. In order for librarians to adapt to the innovations taking place in society, it is given as an important condition that they improve their professional education and be open to innovations.

Keywords: education of the elderly, sustainable education, public libraries, reading

ÖZET

Yaşlıların şəxsitəhsilini təşkil edən müəssisələr icərisində kitabxanalar aparıcı yerlərdən birini tutur. Bu gün müasir həyatın məsuliyyəti yaşlı əhalinin üzərinə düşür. Məhz buna görə də beynəlxalq aləmdə yaşlıların təhsili XXI əsrin açarı kimi qiymətləndirilir. Xalq təsərrüfatının müxtəlif sahələrində fəaliyyət göstərən yaşlı əhali cəmiyyətdə baş verən dəyişikliklərə, yeniliklərə ayaq uydurmağa, müntəzəm olaraq təkmilləşməyə səy göstərirlər. Bu səbəbdən də bu oxucu qrupu şəxsitəhsilə daha çox meyl edirlər.

Şəxsi təhsilə üstünlük verən yaşlılar mütaliə vasitəsilə cəmiyyət həyatında baş verən proseslərdən kənarda qalmır onun iştirakçısına çevrilir. Şəxsi təhsil vasitəsilə yaşlılar mədəniyyətə, bədii söz sərvətinə qovuşuraq öz həyati funksiyasını düzgün müəyyənləşdirir. Məlumdur ki, heç bir ali və orta təhsil müəssisəsi məzunlara müəyyən ixtisas üzrə müasir həyatın tələbi həcmində məlumat verə bilmir. Çünki, hər ali və orta ixtisas müəssisələri müəyyən vaxtla məhdudlaşdığından bütün məlumatları vermə imkanına malik deyil. Bu səbəbdən yeni cəmiyyətdə ömür boyu təhsil almaq və baş verən yeniliklərə inteqrasiya üçün müntəzəm olaraq mütaliə etmək gərəkdir. Rəngarəng, hərtərəfli mütaliə isə vaxtaşırı deyil, müntəzəm, yəni fasiləsiz olmalıdır. Məqalədə mütaliənin sosial əhəmiyyəti, mütaliə prosesinin təşkilində kitabxanaların (kütləvi kitabxanaların) rolu işıqlandırılır. Eyni zamanda mütaliə prosesinin effektivliyinin artırılmasında innovasiyaların əhəmiyyəti, yeni təbliğat formalarının istifadəsinin zəruriliyi əsaslandırılır. Ümumtəhsil mütaliəsinin təşkilatçısı kimi kütləvi kitabxanaların fasiləsiz təhsil prosesinin təşkilində əhəmiyyəti, onların qarşısında duran mühüm vəzifələr qeyd edilir. İnsanların hərtərəfli ahəngdar inkişafına kömək məqsədilə bu vəzifələrin kompleks şəkildə, bir-biri ilə əlaqədar həyata keçirilməsi əsas şərtdir.

Kütləvi kitabxanalar şəxsiyətin formalaşmasına, hərtərəfli inkişafına kömək etmək məqsədilə mənəvi tərbiyənin bütün sahələrinə dair ədəbiyyatın təbliğini ön plana çəkməli, yaşlı əhalinin intel-lektual səviyyəsinin yüksəldilməsinə, peşələrinin təkmilləşdirilməsinə cəmiyyətin inkişaf prosesi ilə əlaqədar insanların sosiallaşdırılmasına çalışmalıdır.

Yüksək mədəniyyətə, intellektual səviyyəyə, dünyagörüşünə malik olan insan bütün ömrü boyu mütaliə edir. Bu cür insanlara xidmət kitabxanaların qarşısında mühüm spesifik vəzifələr qoyur və kitabxanaçılardan xüsusi peşəkarlıq tələb edir. Kitabxanalarda bu qrupdan olan oxuculara xidmət etmək üçün yüksək profeional səviyyəyə malik kitabxanaçılar ayırmaq, onları ixtisaslaşdırmaq zərurəti qarşıya çıxır.

Kitabxanaçı kadrların cəmiyyətdə başverən yeniliklrə uyğunlaşması üçün peşə təhsilini təkmilləşdirməsi artırması, yeniliklərə açıq olması vacib şərt kimi verilir.

Anahtar Kelimeler: Yaşlıların Eğitimi, Sürdürülebilir Eğitim, Halk Kütüphaneleri, Kitap Okuma

Introduction. There are certain differences between adult education and traditional education. If the main goal of traditional education is to prepare personnel for the development of society and economy, the education of the elderly includes a wide range of activities related to increasing knowledge, skills, and habits. The elderly population constantly strives for development and independence in the educational process and has a leading role as the subject of education. They study to achieve a specific goal. The elderly population has great life experience (social, professional, etc.) acting as an important resource in the educational process of both themselves and their colleagues. Taking into account the characteristics and interests of the elderly, a number of specialized systems are created that provide general and professional education and meet their cultural and educational needs.

The main part. The following population groups can participate in the process of education of the elderly [3]:

- persons who are directed to professional development and retraining in connection with existing innovations and changes;
- those without a profession;
- persons returning to professional activity after a long break;
- housewives, mothers with children;
- persons who are unemployed due to insufficient professional and educational knowledge;
- those dismissed from military service;
- people who want to expand their outlook, cultural level, etc.

Adult education has three main functions as a specific component of the continuing education system [4, p.9]:

- a compensatory function that provides an opportunity for the older segment of the society to study in fields and levels that did not exist before, but whose demand is considered necessary;
- adaptation function that provides new knowledge and skills needed for the elderly due to changes in social conditions and lifestyle;
- developmental function that affects the comprehensive evolution of a person through the enrichment of previously acquired skills and habits

during his independent life.

It is important to have the following factors for the involvement of the elderly population in vocational education in our republic [4, p.10]:

- quality training process;
- strengthening the material and technical base, personnel potential;
- creation and recognition of non-formal vocational education system;
- recognition of equal rights for all students;
- development of educational programs using European experience, etc.

In most countries of the world, it is an undeniable fact that reading plays an important role in satisfying the information needs of the elderly and in developing their outlook. In the general development of society, regardless of age, it is important for every individual, as well as the elderly, to engage in continuous personal education, people should deepen, develop and update the knowledge, skills and habits they have acquired at all ages, which has become the main organizers of reading and personal education. it is appropriate to implement it in libraries that are considered the main base.

The purposes of reading for the elderly can be different:

- education (acquiring experience through personal education; preparation for classes; formation of functional literacy, formation of general education skills)
- information (receiving information; learning new knowledge);
- development (satisfaction of cognitive demand; stimulation of creative activity);
- socialization (social development of the personality through mastering the experience of literary heroes);
- educational/ethical (formation of moral tendencies, ideas about good and evil, norms of behavior in society);
- aesthetic (get aesthetic pleasure from the book as a work of art);
- organization of leisure time and entertainment [1. p.29].

Public libraries, as organizers of general education reading, have an important role in organizing the continuous education process. This important area of activity of public libraries sets the following important tasks before them:

1. He should prioritize serving the strengthening of the sovereignty and state independence of the Republic of Azerbaijan, actively participate in the formation and promotion of the national ideology;

2. In order to help the comprehensive development of the personality, he should expand the dissemination of literature on the economy, culture, and the latest achievements of scientific and technical progress, and should carry out large-scale public events;

3. It should take into account the requests and demands of all reader groups and all citizens living in the region as the basis of personal education and continuous education;

4. In order to raise the general cultural level of the masses, he should provide support for continuous education, lead personal education, and participate in the organization of readers' free time;

5. It should help the development of production, experimental economic activity and the improvement of the state management system by widely promoting scientific and technical and advanced experience [6, p.352].

All tasks should be carried out in a complex manner, in relation to each other, so as to contribute to the comprehensive harmonious development of people. In order to help the formation and comprehensive development of personality, public libraries should prioritize the promotion of literature on all areas of spiritual education, raise the intellectual level of the elderly population, improve their professions, and socialize people in connection with the development process of society [5, p.178].

Libraries of different types, types and forms operating in the republic are divided into different networks. The libraries with the largest library system, which implement the principle of universality and provide library services to a wide group of readers, are subordinate to the structure of the Ministry of Culture. These libraries are managed and financed by the state. Mass libraries that are the object of research - Centralized Library Systems (central library and branches, independent children's libraries) are subordinated to the Ministry of Culture. According to the 2023 State Statistics Committee, in 2022 there were only 2,913 public libraries with a collection of 31.0 million copies in the country, of which 408 are located in cities and 2,505 in rural areas. During the year, 21.9 million copies of books, magazines and other literature are distributed, of which 8.1 million copies belong to city libraries and 13.8 million copies to rural libraries. The number of literature per reader is 9 copies [2. p.401].

It should be noted that the interest of an older reader is deep and stable. The level and quality of interest is related to the general level of human development [57, p. 194]. It is known that every person performs

social activities in the society, and during this activity, various interests are formed in them. These interests also develop in connection with the general development of personality [5, p. 195]. Human interests differ in their scope. The interest of the elderly is a spiritual interest, it arises from general interest and is related to its labor activity, social and individual life conditions, and the system of moral education.

Result. The elderly population engaged in personal educational reading in public libraries can be divided into two groups based on the sources of information they read:

1. Through traditional information carriers;

2. Those who meet their needs through new information technologies.

Readers who use traditional sources of information are mostly retired and do not have the skills to work with new technology. Readers of this age group are more interested in contemporary press samples (newspapers and magazines) and printed works, especially fiction. They eagerly read newspapers and magazines that satisfy their needs for information about political, economic, social and other events. Older people who prefer to use new information technologies are usually expert readers working in science and industry who have the ability to freely use information communication technologies, and they use the Internet and other electronic information carriers to meet their information needs. It should also be noted that in order to more effectively provide information to users in mass libraries, equipping libraries with new technology and creating the necessary conditions for the realization of the remote service process are among the main conditions. For this, the material and technical base of public libraries should be strengthened.

References:

1. Abdullayeva A. Kitabxanalar mütaliə mədəniyyətinin formalaşmasında mühüm mərkəz kimi//Azərbaycan Milli Kitabxanasının Elmi əsərləri. – 2016. – №8. – S. 27-32.

2. Azərbaycanda elm, təhsil və mədəniyyət: Statistik məcmuə. – Bakı, 2023. – 494 s.

3. “Əlavə təhsilin məzmunu, təşkili və əlavə təhsilin hər hansı istiqaməti üzrə təhsil almış şəxslərə müvafiq sənədin verilməsi qaydası”nın təsdiq edilməsi haqqında Azərbaycan Respublikasının Nazirlər Kabunetinin qərarı. Bakı, 6 sentyabr 2010-cu il

4. Əsgərova R. Yaşlıların təhsilinin aktual məsələləri. –Bakı, 2013. – 423 s.

5. Xələfov, A.A. Kitabxana və cəmiyyət/ A.A.Xələfov. – Bakı: Azərnəşr, –2011. – 307 s.

6. Xələfov, A.A. Kitabxanaşünaslığa giriş. Dərslik (3 hissədə. Hissə 1: Kitabxana- şünaslığın nəzəri əsasları; Hissə 2: Kitabxana haqqında təlim)/ A.A.Xələfov. – Bakı: BUN, 2001. – 400 s.

ЭЛДОР ТАТИЕВ ШЕЪРИЯТИДА МИЛЛИЙ КОЛОРИТ ВА ТИЛЛАРАРО АЛОҚАНИНГ БАДИИЙ ИФОДАСИ

Мусаева Азадахан Мубараковна,
Жумабек Ахметули Ташенев университети
катта ўқитувчиси, Қозоғистон
E-mail: *musaevaazada7@gmail.com*
Абдалиев Фаррухбек Наматжанович,
Жумабек Ахметули Ташенев университети
катта ўқитувчиси, Қозоғистон
E-mail: *Farux-1978@mail.ru*

Аннотация: Ушбу мақолада Элдор Татиев шеъриятида миллий колоритни яратишда ҳамда тиллараро алоқанинг бадиий матнга таъсири атрофлича таҳлил этилади. Муаллифнинг ўзбек ва қозоқ тилларига хос лексик, фразеологик ва шевавий сўзлардан санъаткорона фойдаланиши орқали миллий тафаккурни ифода этиши, турли тил элементлари ёрдамида образлилик ва эмоционал таъсирни кучайтириши кўрсатиб ўтилади. Татиев ижоди мисолида тиллараро боғланишнинг адабий нутқни бойитишдаги аҳамияти ва халқ тили билан бадиий тил ўртасидаги уйғунлик тадқиқ этилади. Мақолада ижодкорнинг лингвопоэтик усуллари орқали миллий маънавият ва маданий меросни акс эттиришда эришган ютуқлари таҳлил қилинади.

Калит сўзлар: бадиий сўз, миллий тафаккур, миллий колорит, лингвомаданий код, поэтик тил, адабий тил, бадиий тил, жонли халқ тили, ўхшатиш, образлилик, лингвистик восита, поэтик индивидуаллик.

Abstract: This article provides an in-depth analysis of the creation of national color and the impact of interlingual communication on artistic texts in the poetry of Eldor Tatiev. It explores how the poet skillfully utilizes lexical, phraseological, and dialectal elements specific to Uzbek and Kazakh languages to express national consciousness and enhance

imagery and emotional depth. Through the example of Tatiev's work, the significance of interlingual interaction in enriching literary language and the harmony between vernacular and literary speech are examined. The article also analyzes the poet’s achievements in reflecting national spirituality and cultural heritage through his linguopoetic techniques.

Key words: artistic word, national consciousness, national color, linguocultural code, poetic language, literary language, artistic language, living vernacular, comparison, imagery, linguistic means, poetic individuality.

Бадиий адабиёт ижодкор тафаккури, ҳис-туйғулари ва тили орқали ифода этиладиган дунёқарашининг яққол ифодаси бўлиб хизмат қилади. У нафақат шахсий эҳтиролар ва эстетик идеалларни, балки халқнинг миллий онги, тарихи, маданияти ва маънавиятини ҳам ўзида мужассам этади. Бадиий матннинг юзага келишида тил катта аҳамиятга эга бўлиб, адабий тил, жонли халқ тили ва бадиий нутқ ўртасидаги ўзаро боғлиқлик унинг мазмунан бойишига олиб келади. Адабий тил халқ тилидан озуқа олади, ўз навбатида халқ нутқини ҳам бойитади.

Айниқса, кўпмиллатли жамиятларда тиллараро алоқа ва аралашув жараёнлари лексик бойликни кенгайтиришда, синонимларнинг юзага келишида, образлилик ва таъсирчанликни оширишда муҳим омил ҳисобланади. Элдор Татиев каби ёш ижодкорлар мисолида бу жараёнлар яққол намоён бўлади. Унинг шеърларида қозоқ ва ўзбек тилларининг ўзаро таъсири, шевавий сўзлар, миллий колорит ва фольклор элементлари поэтик ифода билан уйғунлашади. Шоир тилнинг мусиқий ва экспрессив имкониятларидан фойдаланиб, индивидуал услуб яратади. Бу жараёнда у ассонанс, аллитерация, шевавий сўзлар ва маданий кодлардан самарали фойдаланади.

Натижада, Элдор Татиевнинг поэзияси нафақат адабий тилнинг бойишига, балки халқ маданиятининг адабий ифодадаги ўзига хос аксини яратишга ҳам хизмат қилади.

Бадиий адабиёт ижодкорнинг бадиий сўзга, тилнинг сержило имкониятларига бўлган иқтидорини очишга имкон берадиган ва айни вақтда муайян этник тилнинг миллий тафаккур, миллий руҳиятини акс эттирадиган кўзгудир. Ҳар қандай адабий тилнинг ривожи учун бадиий адабиёт тили энг бой манба бўлиб хизмат қилади. Шу жумладан, лексик бойлигимизни ошиши, синонимик қаторини

кенгайишида турли миллатларнинг ўзаро алоқа аралашуви ҳам кучли таъсирини кўрсатади.

Адабий тил, бадиий тил ва жонли халқ тили триадаси ўзаро айланма ҳаракатда бўлиб, бир-биридан озуқа олади ва аксинча, бир - бирини тўлдириб ривожлантириб боради. Дастлаб улар ҳақидаги назарий тушунчаларга бироз тўхталиб ўтиш жоиз деб ҳисоб ҳисоблаймиз.

Адабий тил. Умумхалқ тилининг ишланган, сайқал берилган, маълум норма(меъёр) ларга солинган шакли. (ЎТИЛ,1-жилд,35-б.)

Бадиий тил- бадиий асар тили, сўз санъатининг асосий қуроли,бадиий адабиётнинг образ яратиш воситаси; *поэтик тил, бадиий адабиёт тили* каби шаклларда ҳам ишлатилади. Яъни бадиий адабиёт бирламчи белгилар системаси саналувчи тил воситасида иккиламчи белгилар системасини- бадиий воқеликни яратувчи образлар тизимини яратади... у алоҳида ҳодиса эмас, балки миллий тил базасида воқе бўлиб, миллий тилдан бадиий информацияни шакллантириш ва етказиш мақсадида фойдаланиш шаклидир.(1)

Жонли халқ тили - халқ сўзлашадиган оғзаки, жонли тил.

Пиримқул Қодировнинг “Халқ тили ва реалистик проза” асарида бадиий адабиётнинг жонли халқ тилига яқинлашуви ўзбек реалистик прозасининг шаклланиш жараёни билан боғлиқ жиҳатлари асосида тадқиқ қилинади. Шундай бўлса-да, ёзувчининг “Санъаткорлар томонидан ишланган ёзма адабиёт тили ҳамиша халқ сўзлашадиган оғзаки, жонли тил ҳисобига бойийди”, деган фикри шеърият учун ҳам аҳамиятлидир.

Қозоғистонда яшаб ижод қилаётган ва “Ижодкор” уюшмаси атрофида жипслашган юздан ортиқ истеъдодли ижодкорлар мавжуд. Улар ижодини ўрганар эканмиз, кўпмиллатли халқлар яшаб, истиқомат қилаётган юртимизда турли соҳадаги алоқа аралашув тилга ҳам ўз таъсирини кўрсатиб, қозоқ ва ўзбек тиллари бир-бирини бойитиб, жилолантириб бораётганини гувоҳи бўламиз. Фикримиз далили сифатида шеърларида юксак бадииятни таъминловчи ранго-ранг лингвистик воситалардан маҳорат билан фойдаланиб келаётган ижодкор Элдор Татиев ижодини тадқиқотга тортишга ҳаракат қилдик.

Ёш қаламкаш Элдорбек Татиев ижодида ўзбек тили ҳамда қозоқ тили сўз бойлиги ва ифода имкониятларидан санъаткорона фойдаланиш, ўзига хос услуб яратиш, ёркин, ифодали, образли матн яратишга интилиш кўринади. Ижодкор миллат руҳини, миллий

манзара, миллий қиёфани яратишда анча ютуқларга эришди. Ватан манзарасини ялтироқ сўзларсиз, ҳайқириғу даъватлар, жимжимадор сўзларсиз самимий акс эттирган шоир “Ватан надир, пойимдаги тупроқми?!, Ватан надир, бўғзимдаги титроқми?!, “Ватан надир, этим билан тирноқми?” деб ўз-ўзига савол беради. Шеърларида: Кенг далангда қўбиз чалар жировларинг, Қирда қиздек қия боқар ўтовларинг. Қозонлардан қази илар ўжовларинг”, “Шаршаралар қизларингнинг кулгусидай, Кўлда сувинг, сулувларнинг кўзгусидай” каби мисраларни қўллаш орқали она юрти Қозоғистоннинг назмий тасвирини яратади. Она юртига хос миллий колорит билан суғорилган миллий қадриятлар тасвирини беради, бадиий матнда ифоданинг эмоционаллиги ва таъсирчанлигини оширади. Ўз саволларига жавоб топгандай, Ватаннинг назмий тасвирини чизгандай бўлади. “Чой қайнатиб, сут қўшамиз ичиб кўринг, Кўзни юмиб, бургут бўлиб учиб кўринг. Қир устига тўшак жойса қўноқ дея, Қуроқ кўрпа-ёстиғини қучиб кўринг” деб туриб, “ Етмас журтим таърифингга оқин сўзим” дея иқрорини ажиб халқона усулда етказади. “Халқона жирлов” деб номланган бу шеърда шоир ўзбек ва қозоқ тилидаги “ ўтов, қўбиз, керагаси, жайловида, бовурларим, жун, жов, журтларига, куби, кўпкари, оқсоқол, улги, жойса, журтим, қўноқ, эл-улус, жайлов каби сўзларни усталик билан ўрнида қўллайдики, бу ҳодиса ўқувчисида завқ-шавқ уйғотади. Бу ўринда ижодкорнинг тилдан фойдаланишда ўзига хос йўлдан бориши кўзга ташланади бу эса ижодкорнирнг поэтик индивидуаллигини белгилайди.

Юқорида келтирилган мисолларимизни бир-бир кўздан кечирамиз. “Ватан надир, этим билан тирноқми?” мисраси замирида ўзбек халқига хос бўлган “*Этни тирноқдан ажратиб бўлмайди*” деган ибора мавжуд бўлиб, ижодкор шу иборани ўз шеърида ўзлаштирилган ва янгича, юксакроқ шаклда қўллашга интилди. Яъни, ўзини Ватаннинг ажралмас бир қисми, заррачаси сифатида тасвирлашга эришди. Шу билан бирга шевага хос бўлган *ўжов (ўлжов.вар.- адаб.тил-чўмич), куби (қуви); қозоқ тилидаги қўбиз, жиров, ўтов* каби сўзларни тўғридан тўғри мисрага сингдириб экспрессив стилистик бўёғини оширди. Айни вақтда фонетик фарқи бўлган *жойса-яйса,журтим-юртим* каби сўзлар мисраларни товлантирса, *қўноқ,оқин,сулув* каби сўзлар -*меҳмон,шоир,гўзал* сўзларини валентилигини ташкил этиб ўзбек тилидаги шу сўзларни синонимик қаторини кенггайтиришга хизмат қилди.

Шоир ижодида шевага хос сўзларнинг қўлланиши портретлар, характерлар яратишида жуда қўл келади:

Яйловида бияси, қимиз қилар қизлари,
Чўлларида туяси қумга ботиб излари.
Ҳар **том** бахтнинг уяси қизил олма юзлари,
Қизларида иффат бор азал шундай элимда.

Ёки:

Бий отам, буюк отам, **ўгитни** қилмай канда,
Чеча чанқовуз чалинг, жиров қўбиз чалганда

Элдор Татиев шеърларида эт -гўшт; айрон -қатиқ; гўжа- хўрда; овул – қишлоқ; ўтов, қурдошинг -тенгдошинг, ўсак -ғийбат каби қардош қозоқ халқи ва қозоғистонлик ўзбеклар нутқида учрайдиган ўзбек-қозоқ миллий-маданий кодининг белгиларини кўришимиз мумкин. Масалан гўжа, айрон, эт, ўтов каби сўзлар ҳар икки халқ вакиллари учун бирдай тушунарли. Айни вақтда юқорида берилган сўзларнинг синонимик қатори кенгайди.

Бизнинг мақсадимиз, ёш истедодли шоир Элдор Татиевнинг шеъриятида бадиий асар тилини ўрганиш орқали шоир шеъриятини таъсир кучини оширишга, жозибадорлигини таъминлашга хизмат қиладиган тил бирликларининнг лингвопоэтик имкониятларини очиб бериш.

Шоир шеъриятда аллитерация (ундошлар такрори), ассонанс (унлилар такрори), геминация (ундошларни қаватлаш) каби фонетик усулларга кўплаб мисоллар учратиш мумкин.

Аллитерация – шеърда, жумлада, бандда ва қисман насрий асарлар матнида ҳам бир хил ундош товушларнинг такрорланиши. Бадиий нутқнинг оҳангдорлигини ва таъсирчанлигини таъминловчи воситалардан бири сифатида мумтоз адабиётида ҳам, халқ оғзаки ижодида ҳам, замонавий шеъриятимизда ҳам ўрни беқиёсдир. Элдор Татиев ижодини ўрганар эканмиз, аллитерация ва ассонансга жуда кўп мисоллар топишга муваффақ бўлдик. Кўп ўринларда аллитерация ва ассонанснинг қоришиқ ҳолда келишини кузатиш мумкин. Бу эса ўз навбатида оҳангдошликни юзага келтиришга хизмат қиладиган, нутққа эмоционал-экспрессивлик бағишлайдиган бадиий воситадир:

Дилингда оловлар дилимга кўчгай,
Дилимдан дилларга қақнусдай учгай.
Қанотинг қоратоғ қоясин қучгай,
Олтин қанотингга-қўш қанот бўлай.
(“Олтин қанот “ жамғарма фондига)

Ёки:

Кўнгилни кўмдилар кумуш сўзларга,
Шу сўзлар омонат ўғил-қизларга.
Ошиқмиз муҳаббат ёнган кўзларга,
Махтумқули бизнинг бобокалондир.

Таниқли тилшунос олим, профессор С. Каримов оҳангдорлик ва изчиллик товушларнинг яхлит уйғунлигида юзага келишини таъкидлайди. Ҳақиқатан ҳам, кўп ўринларда аллитерация ва ассонанснинг қоришиқ ҳолда келишини кузатиш мумкин. Бу эса кўпчилик тадқиқотчилар томонидан айтиб ўтилганидек, фонетик такрордаги жарангдорлик ва оҳангдорликни таъминловчи стилистик имкониятни айнан бир товуш такрори юзага чиқаришига юклаш ноўрин бўлар эди. Элдор Татиев ижодида аллитерация ва ассонанснинг қоришиқ ҳолда қўлланиш ҳолатига мисоллар кўп бўлиб, шеърнинг мусиқийлигини таъминлаб, лирик қаҳрамоннинг кайфиятини ифодалашга хизмат қилади.

Ёшгина ёрларнинг ёстиғи ёнтоқ,
Аскарга кетганлар қайта келгунча.
Ярми қолиб кетган насибасининг,
Ҳайкалидек турар деворда кулча.

Ўйланаман, ўйларим ўқдай,
Ўз кўксимни тешиб ўтади.
Энди ерни тўйдирай дея,
Одам жондан кечиб кетади.

ЎТДИМ

Деворларни ёрган бошни энди ғамлар ёролмагай,
Ўз сувратим, ўз кўксима, ўз қонимда чизиб ўтдим.

Ўсак айтиб ўкситдилар,ўзагимни ўртадилар,
Ўзгаларга сездирмайин ич-ичимдан қизиб ўтдим.

Кўзи очиқ эрка қалбим, эркалатдим ёш боладай,
Айтганимга юрмай қўйса, қулоғини чўзиб ўтдим.

Бадиий нутқда, хусусан, шеъриятда **ўхшатиш** тасвирий воситаси ҳам муҳим аҳамият касб этадиган унсурлардан бири бўлиб, образлилик ва тасвирийликни юзага чиқаришга хизмат қилади.

Ўхшатишда бирор нарса – ҳодиса орқали иккинчисининг

белгиси, хусусияти аниқ ва бўрттириб тасвирланади.

Шоир Элдор Татиев ижодида шоирнинг тафаккури, дунёқараши, шоирона поэтик тасаввури, бадиий дидининг маҳсули сифатида юзага келган бетакрор ўхшатишларни учратамиз. Бир шеърида дунё кенгликларини кезган лирик қаҳрамон “Косадай кўнглимни тўлдиролмадим” дея оргинал фикр айтиб, кемтик кўнгил ҳақидаги тасаввурни конкретлаштиради. “Ўхшашлигимиз” шеърида эса “Ўйланаман, ўйларим ўқдай, Ўз кўксимни тешиб ўтади” мисраларида ўхшатиш яратиш жараёнида ассонанс фонетик усулини қўллашга муваффақ бўлади. **Ўйланаман, ўйларим, ўқдай, ўз** сўзларида қўлланган Ў унлиси шеърни ифодавийлигини кучайтиради. Айни вақтда ўйнинг ўқдай эканлиги хаёлнинг учқурлиги қаҳрамоннинг руҳий ҳолатига ишора қилади:

Унган майсалари ўртоқларимдай,
Қору ёмғирлари қўноқларимдай,
Ерни қучган тошлар тирноқларимдай,
Шонли тарихимга салом,нидо эл!

Ёш истеъдодли ижодкор Элдор Татиев бадиий асар тилини халқ ҳаёти билан боғлаб, жонли сўзлашув тили, шевага хос сўзлар туфайли миллий колоритни кучайтиради. Умумтил хазинасидаги сўзларни мисраларда жилолантиради. Ўзига хосликка эришади. Ўзбек-қозоқ тилида бирдай қўлланишга кирган сўзларни дадил мисралар замирига сингдиради. Бу эса халқнинг миллий онги, тафаккури, дунёқараши ва маданиятини тасвирлашда хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент, 2002. – 216 б.
2. Бутунбаева Т.А. Замонавий назмий дискурсда индивидуалликни таъминловчи лисоний воситалар (Аъзам Ўктам ва Минҳожиддин Мирзо шеърияти мисолида) филол.фанл.бўйича фалс.док.(PhD) дисс... – Самарқанд, 2021.– 119 б.
3. Қосимова М. Бадиий нутқ индивидуаллигининг лингвистик хусусиятлари (Тоғай Мурод асарлари асосида) НД, – Тошкент, 2007. – 23 б.
4. Лапасов Ж. Бадиий матн ва лисоний таҳлил. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995.
5. Татиев Э. Бахт келаётир.
6. Татиев Э. Меҳробим –онам.

O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTIDAGI DINIY-MA’RIFIY QISSALARDAGI SHE’RIY JANRLARDAN NA’MUNALAR

Aliyeva Sevinch,
Jizzax davlat pedagogika universiteti doktoranti,
Sevinchaliyeva0@mail.com
+998995679661

Annotatsiya: Maqolada o‘zbek adabiyoti diniy-ma’rifiy asarlarning yaratilishiga hissa qo‘shgan asarlar Sayf uz-Zafar Navbahoriyning “Durr ul-majolis” va Xo‘janazar Huvaydoning “Rohati dil” asarilaridagi badiiy na’munalar tadqiq qilingan.

Tayanch so‘zlar: diniy-ma’rifiy asar, “Durr ul-majolis”, “Tarixi anbiyo va hukamo”, “Rohati dil”, Islom dini, tarbiya axloq-odob, badiiy mahorat, she’riy janrlar, Ibrohim ibn Adham.

Abstract: The article examines artistic examples in Sayf uz-Zafar Navbahori's “Durr ul-majolis” and Khojanazar Huvaido's “Rohati dil”, works that contributed to the creation of religious and educational works in Uzbek literature.

Key words: religious and educational work, “Durr ul-majalis”, “Tarihi anbiyyah va hukamo”, “Rohati dil”, Islamic religion, education, ethics, artistic skills, poetic genres, Ibrahim ibn Adham.

O‘zbek adabiyoti tarixida diniy-ma’rifiy ruhda yozilgan bir qator asarlar mavjud bo‘lib, ularning ma’naviy qimmati hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas. Jumladan, Rabg‘uziyning “Qissasi Rabg‘uziy”, Alisher Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo”, Xo‘janazar Huvaydoning “Rohati dil” asarlaridir, bu ro‘yxatni yana uzoq davom ettirish mumkin. Bu asarlar yaratilishidan oldin ham O‘rta Osiyo adabiyotida hamda fors adabiyotida ham diniy-ma’rifiy ruhda yozilgan bir qancha ma’lum-u mashhur bo‘lgan adabiyotlar bo‘lgan. Ular fors tilida yoki tarjima holatida o‘qib o‘rganilgan. Shulardan biri bo‘lgan Sayf uz-Zafar Navbahoriyning “Durr ul-majolis” (“Majlislar durdonasi”) asarini keng muhokama maydoniga tortmoqchimiz. Ushbu asar fors tilida yozilgan bo‘lib, 33 bobdan iborat, lekin asar qayerda va qachon yozilganligi haqida aniq ma’lumotlar yo‘q. Asar muallifining ismi ham turli manbalarda turlicha keladi. “Sharqda mashhur bo‘lgan Somibekning “Qomus ul-a’lom” nomli qomusiy asarida muallif haqida qisqa ma’lumot bo‘lib, unda shunday deyiladi: “Sayf ul-Zafar Navbahoriy beshinchi qarni hijriy ulamosindan o‘lib, “Durr ul-majolis unvoni-la bir ta’lifi bordur”.

Demak, bu asarga suyanadigan bo‘lsak, bu asar XI asrda tasnif etilgan.”[1] Asarning turli xil qo‘lyozma nusxalari mavjud bo‘lib, Turkiston hududida besh marta o‘zbek tiliga tarjima qilingan. Ushbu nusxalardan to‘rttasi Sharqshunoslik universitetida saqlanmoqda, ulardan uchtasi qo‘lyozma, bittasi bosma holatida, yana bir nusxasi esa Haydarbek Bobobekovning shaxsiy kutubxonasida 163 raqami bilan mavjud. Qo‘limizdagi kitob ham shu beshinchi nusxa asosida tuzilgan bo‘lib, bu nusxa qolgan nusxalardan ko‘ra oldinroq ko‘chirilgan. Bu kitob 1992-yil Toshkent shahrida “Meros” nashriyoti tomonidan Sayf uz-Zafar Navbahoriy “Durr ul-majolis” nomi bilan chop etilgan. Tarjimon va nashrga tayyorlovchilar: Haydarbek Bobobekov, Mahmud Hasaniy bo‘lishgan. Bu kitob asarning nusxasiga qaraganda bir muncha soddaroq va izohlar bilan, o‘quvchiga tushunarli qilib tuzib chiqilgan.

“Durr ul-majolis” asari nasriy qissa shaklida yozilgan bo’lsa ham hikoyatlar davomida masnaviy shaklida baytlar ham keltirilgan. Bulardan 2 misrali 26 ta bayt, 4 misrali 12 ta, 6 misrali 2 she’riy na’munalar keltirilgan. Ularning asosiy vazifasi hikoyatlarni yanada ta’sirchanligi hamda badiiylini oshirish hizmat qilgan. Muallif asarning so’ngini 6 misrali masanviy bilan tamomlagan:

Shu ba tavfiqi Xudoyi lo-yanom,
Chun kitobat ro’zi shanba tamom.
Xatti taqdir ast berun az g’alat,
Az g’alat xoli naboshad hech xat.
Har ki xonad duo tama doram,
Zon ki man bandam gunohkoram[2].

Xo‘janazar Huvaydoning “Rohati dil” asarlari tasavvufiy ruhda yozilgan bo‘lib, asar insonning komillikka intilish yo‘lida islom dinini asos qilmog‘i, e’tiqodini mustahkamlashga qaratilgan. Asarda keltirilgan fikrlar turli hikoyat va rivoyatlar bilan asoslangan bo‘lib, bu hikoyat va rivoyatlarda payg‘ambarlar, Muhammad s.a.v va ularning sahobalari, o‘tmishda o‘tgan shayxlar hayotlari asosisida yaratilgan. Bu hikoyatlarni mag‘zini chaqib, hozirgi yosh avlodga tushunarli qilib, o‘qiganlarida hech qanday qiyinchiliklarga uchramaydigan holda ularga tatbiq qilish bugungi kundagi eng asosiy vazifalardan biri bo‘lib kelmoqda. Fikrimiz isboti sifatida, adabiyotshunos olim Saidbek Hasan asar haqida yozib qoldirilgan qarashlarini keltiramiz: “Rohati dil” asariga kirgan hikoyat va rivoyatlarning asosiy yo‘nalishi islom dinining qisqacha bo‘lsada, tarixiga

[1] Сайф уз-Зафар Навбаҳорий. Дурр ул-мажолис. - Тошкент: «Мерос» нашрёти, 1992. 3-бет.
[2] Сайф уз-Зафар Навбаҳорий. Дурр ул-мажолис.- Тошкент: «Мерос» нашрёти, 1992. 148-бет.

murojaat etish va islom dini asoslarini bayon qiluvchi rivoyatlar, diniy-axloqiy hikoyatlar orqali o‘quvchi ongi va uning tashqi va ichki dunyosini islom ma’naviyati bilan boyitishga qaratilgan[1]. Asarning yana bir diqqatga sazovor tomoni shundaki, asarda g‘azallar janriga mansub namunalar ham uchraydi.

Ma’lumki, “Rohati dil” asaridagi “Ibrohim bin Adham rahmatulloh alayhi” hikoyatining mantiqiy davomi “Dar bayoni Zulhayo imraatu sulton Ibrohim bin Adham Rahimahu-l-lohi”(Sulton Ibrohim ibn Adhamning Zulhayo ismli xotini bayonida) bo‘lib, ushbu bobda ijodkor hikoya davomida g‘azal janriga murojaat etib, voqealar rivojida qahramonlar tilidan g‘azaldan namunalar keltirilgan. Asardagi g‘azallar soni 6 ta bo‘lib, bulardan bittasi 3 baytli, bittasi 4 baytli, ikkitasi 5 baytli, bittasi 7 baytli va yana bittasi 16 baytdan iborat(103-110). Keltirilgan 6 ta g‘azaldan 5 tasi radifli, bittasi esa radifsiz qofiyali g‘azal hisoblanadi. G‘azallarning 4 tasi ramali musammani mahzuf (foilotun, foilotun, foilotun, foilun // -V - - / -V - - / - V - - / - V -), 1 tasi hazaji musammani solim (mafoilun, mafoilun, mafoilun, mafoilun // V - - -/ V - - -/ V - - -/V - - -), 1 tasi esa rajazi musammani solim (mutaf’ilun, mutaf’ilun, mutaf’ilun,mutaf’ilun // - - V- / - - V- / - - V- / - - V-) vaznlarida yaratilgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, adabiyotimizdagi mumtoz qissalarda ham she‘riy janrlarga muroaj etilgan bo‘lib, faqat ular keng muhokama maydoniga tortilgan emas. Bugungi kunda ushbu masala muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Сайф уз-Зафар Навбаҳорий. Дурр ул-мажолис. – Тошкент: Мерос» нашрёти, 1992. – 148 б.

2. Ҳувайдо Х. Роҳати дил.– Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги Халқ нашриёти, 1994. – 119 б.

ABDUG‘ANI ABDUVALIYEVNING “ECHKI SUTI” HIKOYASIDA DAVR ILLATLARINING FOSH ETILISHI

Aliyeva Guljahon Abdullajon qizi,
Namangan davlat universiteti
tayanch doktoranti,
E-mail: galiyeva155@gmail.com
Tel:+99850 900-05-28

Annotatsiya: Ushbu maqola “Echki suti” hikoyasidagi asosiy obrazlarning xarakteristikasiga alohida e’tibor qaratib, ularning syujetdagi

o‘rni, xatti-harakatlari va ijtimoiy kontekstdagi ahamiyatini tahlil qiladi. Hikoya o‘zbek adabiyotidagi satirik an’analarga sodiq bo‘lib, oddiy bir voqea orqali kolxoz tizimidagi byurokratik muammolarni fosh qiladi. Hikoya obrazlari bo’lgan Sotvoldi, buxgalter, zootexnik, ferma mudiri va shofyor – hikoyaning kulgili va tanqidiy ruhini ochib beradi. Har bir obraz syujetning rivojlanishiga o‘ziga xos hissa qo‘shadi va o‘sha davrning ijtimoiy muammolarini yorqin aks ettiradi.

Kalit so‘zlar: Echki suti, o‘zbek adabiyoti, satira, yumor, obrazlar, kolxoz tizimi, xarakter tahlili.

Abstract: This article focuses on the characteristics of the main characters in the story “Goat's Milk“, analyzes their place in the plot, their actions and their importance in the social context. The story is faithful to the satirical traditions of Uzbek literature and exposes bureaucratic problems in the collective farm system through a simple incident. Sotvoldi, the characters of the story, an accountant, a zookeeper, a farm manager and a driver, reveal the funny and critical spirit of the story. Each character contributes to the development of the plot in its own way and vividly reflects the social problems of that time.

Key words: Goat milk, Uzbek literature, satire, humor, images, collective farm system, character analysis.

Abdug‘ani Abduvaliyevning “Echki suti” hikoyasi o‘zbek adabiyotidagi satirik an’analarga mos keladi va oddiy bir maqsad – echki suti izlash – atrofida rivojlanib, kolxoz tizimidagi byurokratik muammolarni o‘tkir satira orqali fosh qiladi. Hikoya qahramonlari – Sotvoldi, buxgalter, zootexnik, ferma mudiri va shofyor – har biri o‘ziga xos xarakter va motivlarga ega bo‘lib, syujetning kulgili va tanqidiy ruhini ochib beradi. Quyida har bir obrazga alohida to‘xtalib, ularning xatti-harakatlari va ijtimoiy kontekstdagi o‘rni tahlil qilinadi.

Hikoyaning bosh qahramoni Sotvoldi bo‘lib, oddiy, soddadil odam sifatida tasvirlanadi. Uning asosiy maqsadi – onasining yo‘tal kasalligiga davo sifatida echki suti topish. Sotvoldining soddadilligi uning kolxoz idorasidagi xodimlar bilan o‘zaro munosabatlarida yaqqol ko‘rinadi. U o‘z iltimosini oddiygina ifodalaydi: “Keksavoyimiz bor, shu kishiga dori uchun ozgina echki suti kerak bo‘lib qoldi” [3]. Ammo bu so‘rov xodimlar tomonidan tekshiruv sifatida noto‘g‘ri talqin qilinadi. Sotvoldining vaziyatni to‘liq tushunmasdan oqimga ergashishi, ichkilik ichib mast bo‘lishi va oxirida o‘zini “santexnik Sotvoldi” deb tanishtirishi uning soddaligi va tizim ichida adashib qolishini ko‘rsatadi. Bu obraz orqali muallif oddiy odamning byurokratik tizim oldidagi nochorligini

tasvirlaydi.

Hikoyadagi buxgalterni byurokratiyaning tipik namoyandasi sifatida ko’rishimiz mumkin. Buxgalter hikoyadagi eng faol obrazlardan biri bo‘lib, kolxoz tizimidagi byurokratik muammolarni aks ettiradi. U Sotvoldining oddiy iltimosini tekshiruv sifatida qabul qilib, vahimaga tushadi: “Bu kimni aldamoqchi? Onasini bahona qilib echkichilikni tekshirmoqchi!” [3]. Uning ichki monologlari uning o‘z manfaatini himoya qilishga urinishi va xatolarini yashirish istagini ochib beradi. Buxgalterning Sotvoldiga haddan tashqari mehmondo‘stlik ko‘rsatishi – ziyofat taklif qilishi, yangi kostyum topib berishi va “Volga”da shaharga jo‘natishi – uning qo‘rquv va ikkiyuzlamachiligini ko‘rsatadi. Bu obraz orqali muallif byurokratlarning mas’uliyatsizligi va o‘z xatolarini yashirish uchun qiladigan “hiyla-nayrang”larini satira qiladi. Buxgalterning harakatlari kolxoz tizimining yuzaki va samarasiz ishlashini fosh qiladi.

Mazkur hikoyamizdagi zootexnik va ferma mudiri esa tizimning ikkinchi darajali vakillari sifatida tasvirlanadi. Zootexnik va ferma mudiri buxgalter bilan birgalikda ishlaydigan, ammo uning soyasida qoladigan obrazlardir. Ularning asosiy vazifasi – buxgalterning ko‘rsatmalariga amal qilish va Sotvoldini “ovora” qilish orqali tekshiruvdan qutulish. Zootexnikning “Do‘g‘ni ketkazamiz” degan so‘zlari va ferma mudirining echki o‘rniga itni ko‘rsatishga urinishi ularning mas’uliyatsizligi va vaziyatning absurdligini ta’kidlaydi. Bu obrazlar tizimning kichik bo‘g‘inlari sifatida tasvirlanadi, lekin ularning harakatlari byurokratiyaning umumiy muammolarini ya’ni mas’uliyatdan qochish va o‘z manfaatini birinchi o‘ringa qo‘yishni yorqin aks ettiradi [1]. Ularning Sotvoldiga qarshi birlashishi tizimning ichki zaifliklarini ochib beradi.

Shofyor hikoyada ikkinchi darajali obraz bo‘lib, uning roli asosan voqealarni bog‘lovchi sifatida namoyon bo‘ladi [2]. U Sotvoldini Mamanning uyiga olib boradi va oxirida uni shaharga qaytaradi. Shofyorning obrazida kulgili yoki satirik elementlar kamroq bo‘lsa-da, uning “Volga”da Sotvoldini olib ketishi va uning mast holdagi gaplariga javob bermasligi voqeaning absurdligini yanada kuchaytiradi. Shofyor tizimning bir bo‘lagi sifatida faoliyat yuritadi, lekin u voqealarga befarq qaraydi, bu esa oddiy xodimlarning tizimga bo‘ysunishini ramziy tarzda ko‘rsatadi.

“Echki suti” hikoyasidagi obrazlar o‘zbek adabiyotidagi satirik an’analarga sodiq bo‘lib, har biri syujetning rivojlanishiga va ijtimoiy tanqidga o‘ziga xos hissa qo‘shadi [2]. Sotvoldi oddiy odamning tizim oldidagi nochorligini ifodalasa, buxgalter, zootexnik va ferma mudiri

byurokratik tizimning ikkiyuzlamachiligini fosh qiladi. Shofyor esa voqealarni bog‘lovchi va tizimning passiv ishtirokchisi sifatida tasvirlanadi. Bu obrazlar orqali muallif kolxoz tizimidagi muammolarni – mas’uliyatsizlik, qo‘rquv va korrupsiyani – o‘tkir satira orqali ochib beradi [1]. Hikoya nafaqat kulgili, balki o‘ylantiruvchi bo‘lib, zamonaviy o‘quvchilar uchun ham dolzarbdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov N. O‘zbek adabiyotidagi satira va yumor. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2005.

2. Umarov A. O‘zbek xalqona hazilning adabiy shakllari. – Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 2005.

3. Abdug‘aniyev A. Qarsaklar davom etadi. – Toshkent: Yosh gvardiya nashriyoti, 1988.

“SABOT UL-OJIZIN”DA DINIY-MA’RIFIY IFODA

Doniyorova Mohinur,
Jizzax davlat pedagogika universiteti doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek mumtoz adabiyotida diniy-aqidaviy asarlarning shakllanishi va bu jarayonda turkona uslubning o‘rni tahlil qilinadi. Xususan, So‘fi Olloyorning “Sabot ul-ojizin” asari misolida diniy g‘oyalarni sodda, xalq tili va tafakkuriga yaqin ifoda etish an’anasining adabiy-estetik jihatlari ochib beriladi. Maqolada shuningdek, turkona uslubning xalq orasida diniy-ma’naviy asarlarning ommalashuvi va ta’sirchanligi uchun qanday vosita bo‘lgani, uning yosh avlodni tarbiyalashdagi pedagogik ahamiyati yoritiladi. Qur’on va Hadisga tayangan holda yaratilgan mazkur asarning xalqchilligi, o‘zbek tasavvuf adabiyotidagi o‘rni va dolzarbligi ilmiy asosda baholanadi.

Kalit so‘zlar: So‘fi Olloyor, Sabot ul-ojizin, turkona uslub, diniy-aqidaviy asar, ma’naviy meros, tasavvuf, Qur’on, hadis, o‘zbek mumtoz adabiyoti, pand-nasihat, xalq tiliga yaqinlik.

Ota-bobolarimiz hayotida Allohga bo‘lgan ishonch, iymon va diniy bilimga intilish azaldan yuksak qadrlanib kelgan an’ana bo‘lib, bu hol bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Xalqimiz azaldan diniy-aqidaviy mazmundagi asarlarga katta ehtiyoj bilan qaragan. Sababi, bunday asarlar milliy ma’naviyatimizning asosi, axloqiy-ruhiy tarbiyaning eng muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, diniy g‘oyalarni xalq

ongiga yetkazishda sodda, oson va tushunarli tildan foydalanish muhim bo‘lgan.

Diniy mazmundagi asarlarning samaradorligi ko‘p jihatdan ularning qanday uslubda yozilganiga bog‘liq. Ommaviy qabul uchun mos, xalq tili ruhiga yaqin ifoda vositalari orqali diniy bilimlarni yetkazish zarurati doim bo‘lgan. Ana shu jihatlar turkona uslubga asos yaratgan. Adabiyotshunos Yo.Is’hoqov ta’kidlaganidek, ”…turkiy she’riyatda turkona uslub — bu murakkab tashbeh va istioralardan yiroq, oddiy va tiniq tilda fikr bayon qilish, milliy poetika, vazn, qofiya va kompozitsiya orqali xalqona ifodani saqlab qolishdir” [7; 37].

Bu kabi uslub diniy-ma’naviy mazmundagi asarlarning keng omma orasida ommalashishiga, ularni oson tushunilishiga imkon bergan. Diniy aqidalarni soddalashtirib tushuntirish esa, shubhasiz, ijtimoiy-ma’naviy barqarorlik uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Shu jihatdan, bunday uslubda yozilgan asarlar doimiy ehtiyojga ega bo‘lgan va bugungi kunda ham dolzarbdir.

Shu nuqtai nazardan, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning diniy-ma’naviy merosni saqlash, uni zamonaviy yoshlar ongiga singdirish borasidagi fikrlari ham o‘ta muhim. U kishi 2018-yil iyun oyida O‘zbekiston Ulamolar Kengashi bilan uchrashuvda shunday deydi: “Xalqimizning asrlar davomida to‘plangan boy diniy-ma’naviy merosi va milliy qadriyatlari yosh avlod tarbiyasida... halollik, sabr-toqat va muruvvat kabi ezgu fazilatlarni shakllan-tirishda asosiy omil hisoblanadi. Bu borada xalqimiz tushunadigan, oson qabul qiladigan tilda diniy asarlarni ko‘proq yaratish lozim” [9].

Sodda va xalq tili ruhiga yaqin ifoda esa diniy mavzularni keng ommaga samarali yetkazishda muhim vositadir. Bu xususda mashhur muhaddis Imom al-Buxoriy hadislar to‘plamida Rasulullоh (s.a.v.)dan rivoyat qiladi: “Insonlarga qodir bo‘lganicha so‘z ayting, chunki sizlar ularni dinidan bezdirib qo‘yishingiz mumkin” [3; 103]. Bu hadisdan ma’lum bo‘ladiki, diniy bilimni murakkab shaklda emas, balki insonlar fahmlay oladigan tilda yetkazish kerak.

Shu bois, diniy-aqidaviy asarlar odatda Qur’on va Hadisga tayangan holda yoziladi va o‘quvchi uchun sodda, obrazli va ta’sirchan shaklda bayon etiladi. Diniy mavzular tabiatan murakkab bo‘lgani sababli, ularni turkona uslubda ifoda etish orqali yengillik hosil qilinadi. Bu esa o‘quvchiga diniy mazmunni to‘g‘ri tushunish va amalda qo‘llash imkonini beradi.

Jumladan, So‘fi Olloyorning “Sabot ul-ojizin” asari ana shunday asarlardandir. Bu asar nafaqat tasavvufiy g‘oyalarning, balki islom aqidasi va umuminsoniy axloqiy fazilatlarning xalqchil, sodda tilda berilgan badiiy talqinidir. Bu doston bir necha asr davomida madrasalarda asosiy darslik sifatida o‘qitilgan [5;5]. Asarning ommaviylashganligi, avvalo, uning sodda tili, xalqona mazmuni, pand-nasihat ruhidagi bayon uslubi bilan bog‘liq.Shoirning:

Bitilsa, turkiy til birla aqida,
Ko‘ngullar bo‘lsa andin oromida [7; 61]

– degan bayti ham asarning aynan xalq uchun, turkiy til ruhida yozilganini tasdiqlaydi.

So‘fi Olloyor Qur’on, hadis va tasavvufiy manbalarni chuqur o‘rgangan holda, ularni badiiylik bilan uyg‘unlashtira olgan shoir sifatida, o‘zbek adabiyoti tarixida alohida o‘rin egallaydi. Asar boshdan oxirigacha pand-nasihat ruhidagi misralardan iborat. Shuning uchun ham yosh zamondoshlarimizni pokiza xulqli qilib tarbiyalashda bu kitobning ahamiyati katta[8;424]. So‘fi Olloyorning butun ijodi islomiy ma’rifat bilan sug’orilgan. Shoir shariat ahkomlarini, tasavvuf ta’limotini o’zbekona sodda so‘zlarda tasvirlashga juda mohir[1;19]. Shu o’rinda aytib o’tish joizki, So’fi Olloyor bu asarni yaratishda ikki buyuk oziq oldi. Bulardan birinchisi, islom ta’limoti va uning muqaddas kitobi Qur’ondagi ezgulik, hadislar, payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalom, boshqa din-tasavvuf namoyandalarining ibratli hayot yo‘li. Ikkinchisi, adabiy an’analar bo‘lib, islom ta’limoti va uning maqsad-mohiyatini targ‘ib qilgan badiiy asarlar. Shu ikki manbaga tayangan holda, shoir nafaqat diniy bilimlarni targ‘ib qilgan, balki o‘z asarida insonlar uchun axloqiy va ma’naviy yo‘l-yo‘riqlar ham ko‘rsatgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Эркабоева Н. Алишер Навоий ижодида муножот. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун езилган диссертация. – Тошкент, 2008.
2. Abdullayev J. So’fi Olloyorning “Sabot ul-ojizin”asari sharhi va uning kishilar ma’naviyatini shakllantirishda tutgan o’rni/ Interdiscipline innavation and scientific research conference . London. 2003
3. Al-Buxoriy, Sahih al-Buxoriy. 1-jild. – Toshkent: Hilol-Nashr nashriyoti, 2001.
4. Al-G’azzoliy. Ilm va ta’lim. – Movarounnahr, 1998.

5. “Hidoyat ut-tolibiyn” – “Sabot ul-ojizin sharhi” Sayyid ibn Habibulloh ibn Sayyid Yaxyoxon :sharhlab nashrga tayyorlovchi: O.Alimov. – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2009.
6. Is’hoqov Yo. Navoiy va o‘zbek she’riyatidagi uslublar masalasi. //O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1990. – №5.
7. Olloyor S. “Sabot ul-ojizin” . Nashrga tayyorlovchi va so‘z boshi muallifi Rashid Zohid. – Toshkent: San’at jurnali, 2007.
8. Suvonqulov I. Buyuk yurt allomalari. /So’fi Olloyor. – Toshkent: O’zbekiston, 2006.

NABI JALOLIDDIN HIKOYALARIDA OBRAZ YARATISH MAHORATI

Abdullayeva Dildoraxon Murodiljon qizi,
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti,
E-mail:dabdullayevamaqdi9195@gmail.com
Tel:+99890 5310851

Annotatsiya: Bugungi kun nasrida o‘zining jadal ijodi bilan namoyon bo‘layotgan mualliflar bir talay. Shulardan biri Nabi Jaoliddin hisoblanadi. Muallif nasrning qissa va hikoya janrida faol va barakali ijod qilmoqda. Maqolada Nabi Jaloliddining “Bayroq” hikoyasidagi obrazlar tahlil qilingan. Yozuvchining obraz yaratishdagi o‘ziga xosliklari ota va bola obrazi misolida tadqiq etilgan. Adibning qabariq qirralari tahlil jarayonida keng ochiladi. Asardagi har bir holat, voqea va unga obrazlar munosabati diqqat bilan kuzatilgan. Hayotiy obrazlar oddiy hayotiy jarayonlar fonida tasvirlangan hikoya tahlilga tortilgan va muallifning fikrlari asosli dalillangan.

Kalit so‘zlar: Hikoya, obraz, obrazlilik, xarakter, uslub, badiiy maqsad, o‘zbek adabiyoti, mavzu, voqelik, dialog.

Annotation: There are many authors actively making their mark in contemporary prose with their dynamic creativity. One of them is Nabi Jaloliddin. The author is productively writing in the genres of short stories and novellas. This article analyzes the characters in Nabi Jaloliddin’s short story **“Bayroq”** (“The Flag”). The writer’s unique approach to character creation is studied through the portrayal of father and son. The author’s distinct features are thoroughly revealed during the analysis. Each situation, event, and the characters’ reactions in the story are carefully observed. The realistic characters are depicted against the backdrop of everyday life. The story has been examined in detail, and the author’s ideas

are supported with well-founded arguments.

Key words: Story, image, imagery, character, style, artistic purpose, Uzbek literature, theme, reality, dialogue.

KIRISH. Dunyo yaralibdiki, insoniyat bilan adabiyot doimo yelkama-yelka yashab kelgan. Adabiyotning obyekti insondir. Ya'ni "O'zining intilishlari, ishlarining butun xilma-xilligi bilan o'zining o'sishi va tanazzulga ketishi jarayoni bilan odam badiiy adabiyotning materiali bo'lib xizmat qiladi"[Umurov,30] degan edi Maksim Gorkiy. Materiali ham, uning foydalanuvchisi ham insonning o'zidir. Har qanday orzu-intilish, ezgu g'oyalar doimo badiiy asarlarga singdirilib, ommaga taqdim etiladi. Adabiyotning har bir turi, janri o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Bugungi, mustaqillik davrida boshqa adabiy janrlar kabi hikoya janri ham o'zining aniq pozitsiyasiga ega. Hikoya – nasrning hajman kichik, ammo katta badiiy g'oya tashiy oladigan qismi.

ASOSIY QISM. Nabi Jaloliddin o'zbek adabiyotida o'z so'zi va qalamiga ega ijodkorlardan biridir. Muallif ijodini kuzatar ekanmiz, uning ijodida mavzular rang-barangligini va jamiyatdagi turli xil qiyofa vakillari obrazini ko'ramiz. Qator hikoya va qissalarida inson taqdiri, uning yashashdan maqsadi, vatan, vatanparvarlik kabi mavzdagi asarlari o'quvchilar qalbidan joy olib ulgurgan.

Nabi Jaloliddin asarlarida ko'p hollarda bosh qahramon biror ism bilan nomlanmaydi. Chunki uning uchun obrazning kim ekanligi muhim emas, balki qanday ekanligi muhim. Bu holat uning qator hikoyalarida namoyon bo'ladi. Shulardan biri "Bayroq" hikoyasidir. Asar g'oyasi ikki asosiy voqea – ota va o'gillarning kino tomosha qilishi va maktabdagi holat orqali ochib berilgan.

Hikoyada vatanni jon-dilidan sevuvchi, farzandlarini ham vatanparvar qilib ulg'aytirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan ota obrazi gavdalanadi. Asarda ota bilan jamiyat to'qnashuvi qarama-qarshi qo'yiladi. Muallif tanlagan mavzu va syujet mazmuni bugungi kundagi eng dolzarb masalalardan biri ekanligini kuzatishimiz mumkin. Balandparvoz so'zlardan holi, yurakning tubiga yetib boruvchi manzara o'quvchisida beixtiyor "men-chi?" savolini berishga undaydi va obrazlar orqali bugungi kunga ko'zgu tutadi.

Hikoyada ota, o'g'li Botirjon va ikki akasi, Tursun cho'loq; epizodik o'rinlarda bolalarning onasi, muallim hamda maktab xo'jalik mudiri kabi turli xarakterdagi obrazlar keltiriladi.

Yuqorida ham ta'kidlaganimizdek, muallif ismsiz ham qahramonni

tashqi va ichki tomondan tasvirlab, o‘quvchiga taqdim etadi. Hikoyada “qorindor” qilib tasvirlangan maktab xo‘jalik mudiri o‘z nutqi va xatti-harakati bilan o‘quvchida salbiy taassurot uyg‘otadi.

“Naryaqqa, spisat (Botir bu so‘zni tushunmagan, hatto, eslab qololmagan bo‘lsa-da, mudirning so‘z ohangidan «keraksiz narsa» degan ma’noni angladi) qilingan bayraq” [Nabi Jaloliddin,2] deyishi bilan obraz hikoyada Botirning otasiga appozitsiyada tasvirlanadi. Ota qanchalik vatanparvar, o‘z g‘oyasini farzandlariga uqtirayotgan bo‘lsa, xo‘jalik mudiri uning aksi. Ta’lim dargohi xodimi bo‘la turib, davlat ramzi bo‘lgan bayroqni hurmat qilmaydi. Uni oddiy buyum kabi uloqtirish uchun joy ko‘rsatadi. Hikoyada yana bir o‘rinda uning ta’rifi ketadiki, o‘quvchi mudirga nisbatan o‘zi xulosa chiqaradi. “Xo‘jalik mudiri o‘z ombori oldidagi so‘rida qornini tizzasiga qo‘yib, yastanib o‘tirardi. — Opamiz jo‘natdi, — deyishdi bolalar. — Hozir senlarga latta oberaman, — degan mudir ombor eshigini ochib, nima qilishini bilmay serrayib turib qoldi”.[Nabi Jaloliddin,2] Bir o‘rinda “qorni tandirday katta” deb ta’riflanuvchi bu obraz jamiyatning loqayd, befaqr, faqat qorninigina o‘ylaydigan, mas’uliyatsiz shaxslari prototipi sifatida namoyon bo‘ladi. Qorin tasviri orqali obrazning xarakteri ochiladi. Bolalar kelganda esa “mudir ombor eshigini ochib, nima qilishini bilmay serrayib turib” qolishida uning mas’uliyatsiz ekani namoyon bo‘ladi. Chunki bolalarning o‘qituvchisi avvalroq mudirdan tozalov anjomlarini so‘ragan edi. U bu narsalarni tayyorlab qo‘yish tugul eshikni nima maqsadda ochganini-da eslolmaydi. Uning qanday shaxs ekanligi keyingi harakatida yaqqolroq ochiladi. Ya’ni “Senga nima bersamiykin? — dedi mudir u yoq-bu yoqqa alanglarkan. Shu payt devor ostida chang bosib yotgan bayroqqa ko‘zi tushdi. Uni qo‘liga olib, dastasidan chiqardi, bir chetini oyog‘i bilan bosib, ikkinchi chetini qattiq siltadi. Bayroq go‘yo ingraganday ovoz chiqarib, yarmigacha yirtildi. Uni yerdan olib, g‘ijimlab o‘ramoqladi-da, Botirga uzatdi.

— Ma, birovga ko‘rsatmay ishlat.”[Nabi Jaloliddin,2] Parcha muallifning eng asosiy g‘oyaviy-badiiy maqsadini ifodalaydi.

Otasidan Vatan, vatanparvarlik, sadoqat, uning ramzlariga hurmat g‘oyalarini qabul qilib o‘sayotgan avlod qo‘liga oyoq bilan bosib yirtilgan bayroq tutqaziladi. “Birovga ko‘rsatmay ishlat” ”[Nabi Jaloliddin, 2] deganida esa uning qanchalar qo‘rqoq, siyosatga ko‘r-ko‘rona ergashuvchi shaxsligi ko‘rinadi.

Hikoyada bolalarning onasi ikki o‘rindagina mavjud. Ammo u otaning g‘oyalari davomchisi. U doim farzandlariga otasi haqida iliq fikrlar

aytadi. Psixologiyadan bilamizki, ona va uning so‘zlari farzandlar uchun muhim hisoblanadi. Mol boqib, ro‘zg‘or tebratuvchi ota, onasining aytishicha: “dadasi asli o‘qimishli odam, “raislarning o‘kishida” (qishloq xo‘jaligi institutida demoqchi) o‘qigan ekan”.[Nabi Jaloliddin, 2] Bundan tashqari, Botirning qo‘lida bayroqni ko‘rganda “yirtib, netib qo‘ymagin”, deya nasihat qiladi.

To‘lqin cho‘loq va u kabilar esa jamiyat tanazzuli omillaridir. Ota bir oyda bir “bo‘shalib, bitini to‘kvoladi”[Nabi Jaloliddin, 2] gan hamsuhbat. Jumlaga diqqat qilsak, “bitini to‘kish” iborasi salbiy jarayon uchun qo‘llanadi. Uning bir oyda bir qilinishi esa ota o‘ziga me’yor belgilay oladigan darajada qat’iyatli ekanidan dalolat. Spirtli ichimlik ichish har qanday insonni zavolga olib boradi, shuni bilgani holda, ota bir oyda bir ichadi. Va dilidagi so‘zlarni ichgandagina tiliga oladi. “Qornimiz oldingiga qaraganda xiyla to‘q bo‘p qoldi. Endi manavilar haqidayam o‘ylashimiz kerak — Dadasi barmog‘i bilan boshi va ko‘ksini ko‘rsatdi. Keyin piyolalarga tag‘in araq quydi. — Mening uchta o‘g‘lim bor. Men ularning, eng avvalo, haqiqiy erkak, haqiqiy vatanparvar bo‘lishlarini istayman! — Shu gapni aytdiyu To‘lqin cho‘loqning ko‘zlariga birpas tikilib qoldi. — Tushunyapsanmi, To‘lqin, haqiqiy vatanparvar bo‘lishini istayman. — So‘ng hafsalasi pir bo‘lganday qo‘lini siltadi-da, — ke, qo‘y... — deya araqni sipqordi”. [Nabi Jaloliddin,2] Hafsalasining pir bo‘lish sababi Botir xayoli orqali beriladi, ya’ni “Dadasining gapidan keyin Botir ham To‘lqin cho‘loqning ko‘zlariga qaradi: ular go‘yo bo‘m-bo‘sh edi, hatto, qorachiqlari ham yo‘qqa o‘xshardi. To‘lqin cho‘loq dadasining gapini tushunmayotganligini u ham payqadi.” [Nabi Jaloliddin,2] Otaning “barmog‘i bilan boshi va ko‘ksini ko‘rsatishi, keyin piyolalarga tag‘in araq quy”ishida juda kuchli tagma’no bor. Ya’ni xalq faqat tirikchilik g‘amida kun kechirish bilan ovora.Endi miya va yurak haqida o‘ylash kerakligi ilgari suriladi.

XULOSA. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, yozuvchi hikoyada obrazlar va ularning ruhiyatiga katta urg‘u bergan. Ularni hayotiy aniq kuzatishlar asosida, real voqelikni tasvirga olgan. Oddiy til, hayotiy lavhalar orqali qalb iztirobi, ongidagi g‘oyalar, xarakter xususiyatlarini ochib bergan. Murakkab jumlalar, ong osti oqimi kabi tushunilishi qiyin o‘rinlar yo‘qligi hikoyaning ravon o‘qilishi va yengil qabul qilinishini ta’minlagan. Asardan chiqarilishi kerak bo‘lgan xulosalar, ota nutqida beriladi. Ota qalbi iztiroblari ham dialoglarda namoyon bo‘ladi. Adib o‘z asarlaridagi ota obrazlarini to‘laqonli yo‘lchi yulduz qilib tasvirlay olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aristotel Poetika. – Toshkent:G‘ofur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1980. – 147 b.
2. Nabi Jaloliddin. Bayroq. Ziyouz.uz
3. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – 406 bet.
4. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi, 2004. – 262 b.

MUHAMMAD YUSUFNING MILLIY XARAKTER YARATISH MAHORATI

Pazliddinov Sherzodbek Qurbonovich,
Namangan davlat unversiteti mustaqil tadqiqotchisi,
E-mail: *sherzodpazliddinov369@gmail.com*
Tel: *+99877 402-82-82*

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy xarakterni shakllantirish jarayonida badiiy adabiyotning, ayniqsa she’riyatning tutgan o‘rni Muhammad Yusuf ijodi misolida tahlil etiladi. Shoirning she’rlarida xalqona ruh, milliy g‘urur, Vatanga sadoqat, tarixiy xotira va insoniy fazilatlar yuksak badiiy darajada aks ettirilgan bo‘lib, ular orqali o‘zbek xalqining milliy xarakteri, ma’naviy dunyosi va qadriyatlari aniq ifodasini topadi. Maqolada Muhammad Yusufning poetik uslubi, milliy obrazlar tizimi, xalq tiliga yaqinligi hamda she’riyatining tarbiyaviy, g‘oyaviy-estetik jihatlari tahlil qilinib, shoir ijodining zamonaviy o‘zbek adabiyotidagi o‘rni va yosh avlod tarbiyasiga ta’siri ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Milliy xarakter, adabiyot, ma’naviyat, xalqona uslub, Muhammad Yusuf, badiiy obraz, vatanparvarlik, o‘zlikni anglash.

Abstract: In this article, in the process of national character, the role of artistic literature, especially poetic, analyzes the work of Muhammad Yusuf. The poet is reflected in the public's works, the national pride, loyalty, and historical memory, high artistic qualities, and the high art, spiritual world and values of the Uzbek people will be reflected in them. The article is analyzed in the poetic style of Muhammad Yusuf, the nearby national image, and educational, ideological and musical aspects of poetry, and the impact on the role of the work of the poe in modern Uzbek literature and the impact on the upbringing of the younger generation

Key words: National character, literature, spirituality, folk style, Muhammad Yusuf, artistic image, patriotism, self-realization.

Milliy o‘zlikni anglash, o‘z tarixiy ildizlariga qaytish va ma’naviy uyg‘onish har bir mustaqil davlatning ijtimoiy-ma’naviy taraqqiyotida muhim omildir. Bunday uyg‘onish jarayonida xalqning asrlar davomida shakllangan ijtimoiy-ma’naviy qadriyatlarini, urf-odatlarini, axloqiy-ruhiy fazilatlarini o‘zida mujassamlashtirgan milliy xarakter tushunchasi alohida o‘rin tutadi. Milliy xarakter xalqning hayotiy tajribasi, tarixiy xotirasi, estetik didi va ruhiy olamining badiiy ifodasidir. Bu xarakter avlodlar ongida mustahkam o‘rnashgan ijtimoiy ong va ma’naviy qadriyatlar asosida shakllanadi.

Shu ma’noda, adabiyot milliy xarakterni shakllantirish va mustahkamlashda eng ta’sirchan madaniy vositalardan biri sifatida maydonga chiqadi. Chunki adabiyot xalq ruhiyatining badiiy ifodasi, tarixiy xotirasining estetik shakli, shaxs va jamiyat orasidagi ma’naviy ko‘prik bo‘lib xizmat qiladi. U inson ongiga bevosita ta’sir etadi, uning his-tuyg‘ularini, tafakkurini, ijtimoiy va axloqiy mezonlarini shakllantiradi. Ayniqsa, o‘zbek adabiyoti tarixida bu jarayon xalq hayoti bilan chambarchas bog‘liq holda, avloddan-avlodga o‘tuvchi ruhiy-ma’naviy meros sifatida shakllanib borgan.

Milliy xarakterning adabiyotdagi badiiy ifodasi asarlar mazmuni, obrazlar dunyosi, til va uslubda, muallifning dunyoqarashida, xalqona tasvirlarda o‘z aksini topadi. Adabiyot o‘quvchini nafaqat estetik zavqqa erishtiradi, balki uni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalaydi, ma’naviy barkamollikka yo‘naltiradi. Aynan shu jihatlarni inobatga olgan holda, bugungi kunda adabiyotning yosh avlod qalbida milliy g‘urur, vatanparvarlik, sadoqat, fidoyilik, mehnatsevarlik kabi xususiyatlarni shakllantirishdagi o‘rni dolzarb masalaga aylangan.

O‘zbek she’riyati tarixida milliy xarakterni badiiy ifodalash, uni xalq ruhiyatining ajralmas qismi sifatida aks ettirishda bir qator ijodkorlar muhim o‘rin tutgan. Jumladan, Muhammad Yusuf ijodi bu borada alohida e’tiborni talab etadi. Uning she’rlari nafaqat badiiy-estetik qiymatga ega, balki o‘zbek xalqining tarixiy xotirasi, milliy o‘zligi, ma’naviy mezonlarini uyg‘otuvchi kuchli g‘oyaviy-ma’naviy zamin hamdir. Shoir ijodida Vatanga muhabbat, xalqga sadoqat, milliy qadriyatlarga sodiqlik, o‘zligiga bo‘lgan iftixor chuqur badiiy tasvirlarda ifodalangan.

Mazkur maqolada aynan shu nuqtayi nazardan, adabiyotning xususan, Muhammad Yusuf ijodining o‘zbek xalqining milliy xarakterini shakllantirishdagi tutgan o‘rni, badiiy-uslubiy vositalar orqali xalq ruhiyatiga qanday ta’sir ko‘rsatgani tahlil etiladi. Bu jarayon adabiyotning faqat san’at emas, balki jamiyatni tarbiyalaydigan, ongni uyg‘otadigan

ma’naviy qudrat ekanini isbotlaydi.

Adabiyot esa, xalq ruhiyatining badiiy ifodasidir. U tarixiy jarayonlar, ijtimoiy o‘zgarishlar, milliy o‘zlik, ma’naviy izlanishlar va umuminsoniy qadriyatlar bilan bog‘liq holda xalq xarakterining shakllanishiga ta’sir etuvchi kuchli madaniy omildir. Aynan adabiyot orqaligina xalq o‘z tarixini, dardini, quvonchini, orzu-intilishlarini badiiy timsollar orqali anglaydi va ularni keyingi avlodlarga yetkazadi. Shu nuqtayi nazardan, adabiyotning milliy xarakterni shakllantirishdagi roli faqat estetik tarbiya vositasi emas, balki ijtimoiy-ma’naviy yetuklik, fuqarolik ongini shakllantirish, vatanparvarlik tuyg‘ularini uyg‘otishda ham beqiyosdir.

O‘zbek adabiyotida milliylik g‘oyasi doimo markaziy mavzulardan biri bo‘lib kelgan. Ayniqsa, istiqlol yillarida bu g‘oya yangicha mazmun va shaklda namoyon bo‘ldi. Mustaqillik davri adabiyoti o‘zbek xalqining tarixiy o‘zligini tiklash, milliy g‘ururini uyg‘otish, istiqlol ruhini mustahkamlash vazifasini zimmasiga oldi. Shu davrda ijod qilgan shoir va yozuvchilar ichida Muhammad Yusufning o‘rni alohida e’tiborga loyiq. U milliy xarakterning eng teran qatlamlarini badiiy ifodalash, xalqning ruhiy holatini, o‘zligini, milliy qadriyatlarini uyg‘otishda salmoqli hissa qo‘shdi. Milliy xarakter, milliy til va milliy mentalitet umumlashgan holda moddiy va ma’naviy madaniyat namunalari, xalqning milliy madaniyati hosil bo‘lishini ta’minlaydi. [Abdullayeva, 2022:15].

Muhammad Yusuf tomonidan yozilgan “Navoiy” she’rida ham milliy xaraterga xos jihatlarni kuzatishimiz mumkin:

Hitoblarga ko‘milib, hotam,
Buyuk shoir, deyish-ku oson.
Hech kimi yo‘q Navoiyni ham,
U ham mendek bir g‘arib inson.

O‘zbek adabiyotida shoir siymosi ko‘pincha nafaqat estetik obraz, balki milliy ruh va ijtimoiy ong ifodasi sifatida gavdalanadi. Shoir ko‘nglining ichki iztiroblari, xalq dardi, tarixiy o‘tmishga munosabat kabi omillar she’riyatning mazmunini belgilaydi. Birinchi to‘rtlikda shoir o‘zini ilm va ma’naviyat bilan yashovchi, lekin ijtimoiy tan olinmagan ijodkor sifatida ko‘rsatadi. “Hitoblarga ko‘milib” – ya’ni so‘z, nutq, ilm olamida yashovchi shaxs. “Hotam” – bu yerda ruhiy saxovat, ichki boylik timsoli. “Buyuk shoir, deyish-ku oson” satri orqali muallif unvonga emas, ma’noga urg‘u beradi.

Uchinchi va to‘rtinchi satrda Alisher Navoiy timsoli yodga olinadi: u ham yolg‘iz bo‘lgan, unga ham ko‘p hollarda jamiyat befarq bo‘lgan.

Shoir o‘zini Navoiyning ruhiy qarindoshi sifatida tasvirlaydi: “U ham mendek bir g‘arib inson.” Bu satrda kamtarlik, taqdirga tan olib yashash, lekin ichki g‘urur va dard ifodasi bor.

Minoradek marmar haykali
Ko‘rinsa ham hatto Hirotga,
Qavmini uyi tursa chayqalib,
To‘yi tatirmikan u zotga?.. [Muhammad Yusuf, 2022:81].

Ikkinchi to‘rtlikda esa tashqi shon-shuhrat va ichki beqarorlik qarama-qarshiligi ochiladi. Minoradek marmar haykal tiklanishi — bu millatning buyuk ajdodga ehtiromini bildirsa-da, muallif shoirona savol qo‘yadi: “Qavmini uyi tursa chayqalib, to‘yi tatirmikan u zotga?” Ya’ni, xalq og‘ir ahvolda yashar ekan, tantanalar, yodgorliklar chinakam ma’no kasb eta oladimi?

Bu o‘rinda shoir tantanali tashqi ko‘rinishga emas, xalqning haqiqiy farovonligi, adolat, barqarorlikka e’tibor qaratmoqda. Bu – jamiyatdagi ikkiyuzlamachilik, shaklga o‘ralash, mohiyatdan yiroqlashuvga qarshi ruhiy norozilikdir.

Milliy xarakterga xos jihatlar, she’rda o‘zbek xalqiga xos quyidagi ruhiy va axloqiy fazilatlar yoritilgan:

Kamtarlik va xokisorlik – Shoir o‘zini ulug‘lamaydi, balki buyuklikning mashaqqatli yo‘l ekanini eslatadi.

Ajdodlarga hurmat bilan tanqidiy qarash – Navoiyni ulug‘lash bilan birga, bu ulug‘lik xalq og‘ushida bo‘lishi lozimligi aytiladi.

Ma’naviyatga sadoqat – So‘z san’ati, ilm va tafakkurga oshno bo‘lish, ruhiy boylikni ustuvor qo‘yish – bu qadimiy o‘zbek qadriyatlarining yorqin ifodasidir.

Adolat va ijtimoiy ogohlik – Shoir xalq uyining chayqalishi orqali milliy farovonlikni birinchi o‘ringa qo‘yadi. Bu – milliy xarakterdagi g‘amxo‘rlik, fidoyilik va tanqidiy qarash timsolidir.

She’r tashqi shakli jihatidan sodda va ixcham bo‘lsa-da, mazmunan chuqur falsafiy va ijtimoiy-estetik yondashuvga asoslangan. Unda shoirlik taqdiri, milliy o‘zlik, xalq dardi va tarixiy merosni hurmat qilish bilan birga, unga tanqidiy baho berish g‘oyalari mujassam. Bu kabi asarlar orqali o‘zbek she’riyati nafaqat badiiy zavq beradi, balki xalq ongini uyg‘otadi, milliy o‘zlikni anglashga da’vat etadi. Muhammad Yusuf ijodining asosiy yo‘nalishlaridan biri xalqparvarlik g‘oyasining badiiy ifodasidir. Shoir o‘zining ko‘plab she’rlarida millat taqdiri, xalq orzusi va tarixiy ong masalalarini chuqur falsafiy nuqtayi nazardan yoritadi.

Xulosa qilib aytganda, har bir millatning taraqqiyoti, o‘zligini

anglashi va tarixiy mustahkamligini ta’minlashda milliy xarakterning shakllanishi hal qiluvchi omillardan biridir. Bu xarakter, avvalo, xalqning ma’naviy merosida, adabiy asarlarida, og‘zaki ijod namunalari va yozma adabiyoti orqali ifodalanadi. Adabiyot esa ushbu jarayonning eng muhim poydevoridir. Chunki u xalq qalbining eng nozik tuyg‘ularini, orzu-intilishlarini, ijtimoiy ongini va tarixiy xotirasini badiiy ifoda etishga qodir vositadir.

Adabiyot fani nafaqat bir avlodga, balki avlodlar o‘rtasida uzviy ma’naviy ko‘prik vazifasini bajaradi. Ulug‘ shoirlar ijodida mujassam bo‘lgan obrazlar, timsollar va poetik g‘oyalar orqali elning ichki olami, iymon-e’tiqodi, qadriyatlari shakllanib boradi. Jumladan, Muhammad Yusuf ijodi misolida ko‘rinib turibdiki, shoir badiiy so‘z vositasida xalq qalbidagi milliy g‘urur, ozodlikka intilish, tarixiy haqiqat va ijtimoiy adolatni ifodalab, milliy ong va xarakterga ta’sir o‘tkazadi. Uning she’rlari bugungi yosh avlodni vatanparvarlikka, insoniylikka, sadoqat va halollikka chorlaydi. Shunday qilib, adabiyot milliy xarakterning shakllanishida passiv aks ettiruvchi emas, balki faol shakllantiruvchi kuchdir. U xalqni uyg‘otadi, ruhlantiradi, tarixini yodga soladi va kelajak sari ilhomlantiradi. Shu bois adabiyotga munosabat faqat estetik mezonlar bilan emas, balki ma’naviy-tarbiyaviy, ijtimoiy va tarixiy ahamiyati nuqtayi nazaridan yondashilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva R. O‘zbek tilida xarakter ifodalovchi birliklar semantikasi. – Toshkent: Poytaxt exclusive, 2022.

2. Muhammad Yusuf. Saylanma. – Toshkent: PHAROS AMBITION, 2022.

3. Pazliddinov Sh. Muhammad Yusuf ijodida milliy xarakter. Til va adabiyot.uz. – Toshkent, 2024, 8-son. – Б. 191-193.

4. Umarova A. O‘zbeklarning milliy mintaliteti va milliy xarakteri. – Toshkent: Tamaddun nuri, 2024, 5-son . – Б. 241-244.

5. G‘ayratova O, Jumayeva S. Milliy xarakter yaratishda badiiy tildan foydalanishning ahamiyati. Raqamlashtirish davrida o‘zbek tilini davlat tili va xorijiy til sifatida o‘qitish masalalari: mahalliy va xorijiy tajriba mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. – Toshkent: 2024 – Б. 362-367.

MAQSUD SHAYXZODANING “JALOLIDDIN” DRAMASIDA “SOCH” RAMZI VA UNING POETIK ILDIZLARI

Mamatvaliyev Muhammad Qo‘ymurodovich,
Namangan davlat universiteti
mustaqil tadqiqotchisi,
E-mail: *Repetitor2008.76@mail.ru*
Tel: +998934024878

Annotatsiya: Har qanday yuksak saviyadagi badiiy asar mohiyatini anglash va uning matnidagi sir-sinoatni ochishda ramzlar tilini tushunish muhim ahamiyat kasb etadi. Afsuski, ko‘pchilikka ma’lum va mashhur bo‘lgan asarlardagi ramzlarga ham adabiyotshunosligimizda alohida e’tibor qaratilmayapti. Yoki ulardagi mavjud ramzlar ilg‘ab olinmayapti. Shunday ramzlardan biri Maqsud Shayxzodaning “Jaloliddin” dramasidagi soch timsolidir. Ushbu maqolada dramadagi soch ramzi, unga yuklangan badiiy g‘oya va ramzning poetik ildizlari tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlar: ramz, timsol, soch, badiiy g‘oya, badiiy to‘qima.

Annotation: Understanding the language of symbols plays a crucial role in comprehending the essence of any high-level literary work and uncovering the mysteries within its text. Unfortunately, in our literary studies, special attention is not being paid to symbols even in works that are well-known and famous to many. Alternatively, the existing symbols in these works are not being recognized. One such symbol is the image of hair in Maqsud Shayxzoda's drama “Jaloliddin.“ This article examines the symbol of hair in the drama, the artistic idea assigned to it, and the poetic roots of this symbol.

Keywords: symbol, image, hair, artistic idea, artistic fiction

Badiiy adabiyot ramzlar, timsollar tilidir. Ramzlar, timsollar tilini tushunmasdan turib, badiiy asarning mohiyatini anglash, uning ruhi va g‘oyasini his qilish qiyin. Shuning uchun ham badiiy asarlarda uchraydigan ramz-timsollar sirini o‘quvchiga ochib berish, uni hayratlar dunyosiga oshno qilish – bugunning dolzarb vazifasidir. Biz mazkur maqolada Maqsud Shayxzodaning “Jalolidddin Manguberdi” dramasidagi “soch” timsoli haqida mulohaza yuritmoqchimiz. Asosiy mulohazalarga o‘tishdan avval, ta’kidlash joizki, O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzaeyi fondida dramaning bir necha nusxasi saqlanadi[M.Shayxzoda, 2015: B.134-139]. Drama dastlab hozirgi O‘zbek Milliy akademik drama teatrida, keyin esa Toshkent viloyati “Yangiyo‘l”

teatrida sahnalashtirilgan. “Yangiyo‘l” teatrida sahnalashtirilgan matn musiqali variant hisoblanadi [Shaxsiy arxiv]. Ushbu variantda Sultonbegimning sochini kesishi bilan bog‘liq epizod uchramaydi. Biz mulohazalarimiz jarayonida Maqsud Shayxzodaning “Dunyo boqiy” nomli kitobidagi matnga asoslanamiz.

Drama matnida tadqiqot uchun ahamiyatli quyidagi parcha mavjud:

Mulozim

(kirib)

Hech qayoqda ko‘rinmas qayiqlar, sardor!

Jaloliddin

Darhol, darhol egarlang chopog‘on tulpor!

Mulozim

Egarlardan uzilgan jangda ayillar,

Daryoning suvi toshqin, quturmish sellar!

Sultonbegim

(birdan xanjarini chiqarib, o‘z kokillarini kesadi)

Arqonga ham yaraydi shu qalin kokil,

O‘n besh otga chiqadi bemalol ayil. (kokilini beradi)

Jaloliddin

Fido etding husningni, bahodir singlim!

Sultonbegim

(qalpog‘ini kiyib)

Kokil yana o‘sgusi, bo‘lmasin o‘lim. [M.Shayxzoda, 1988: 416.]

Xalqimiz odatda ayollar sochiga go‘zallik timsoli sifatida qaraydi. Jaloliddin ham Sultonbegimning sochidan voz kechishini o‘ziga xos tantilik va fidokorlik sifatida olqishlaydi. Dramani mutolaa qilish jarayonida ko‘pincha o‘quvchilarga shu taxlit tushuncha beriladi. Sultonbegimning sochini qirqib, Jaloliddinga berishi akaning singilga ehtiromi, uning uchun husn timsolidan ham voz kecha olishi sifatida izohlanadi. Albatta, drama bilan bog‘liq tadqiqotlarda Sultonbegimning sochi masalasiga alohida e’tibor qaratilmagan. Holbuki, aynan soch timsoli Jaloliddin Manguberdi dramasining bosh g‘oyasini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, soch o‘zbek xalq og‘zaki ijodida xaloskorlik timsoli deya talqin qilinadi. Mo‘tabar ilmiy manbalar bu boradagi fikrimizni tasdiqlaydi. Mana, shunday ilmiy xulosalardan biri: “Shunisi borki, ertaklarda g‘aroyib predmet sifatida obrazlantirilgan supra, dasturxon, xumcha, pichoq, uzuk, qaychi, igna, qayroqtosh, qamchi, soch tolasi va hokazolar, odatda, magik marosimlarda keng qo‘llaniladi va o‘zida insonlarning qadimiy e’tiqodiy qarashlarini, animistik tushuncha-

tasavvurlarini namoyon etadi. G‘arbiy Yevropa xalqlari har bir odamda uchta ruhi bo‘lishi, ulardan birinchi Olori deb nomlanishi va u insonning boshida joylashishini tasavvur qilganlar. Bu ruh insonni hamisha balo-qazolardan himoya qiladi, asrab-avaylaydi, unga foydali maslahatlar berib turadi, deb qaraganlar va unga ko‘pincha uy parrandasini qurbonlik keltirishgan. Qadimgi kishilarning boshga nisbatan e’tiqodiy tasavvur-tushunchalari soch bilan bog‘liq e’tiqodlarning ham shakllanishiga olib kelgan. Soch bilan bog‘liq e’tiqodiy qarashlar esa epik asarlarda sehrli soch tolasi, sehrli yol (tuk, qil), tilla kokil, tilsim teri obrazlari yaratilishiga asos bo’lgan. Ular sehrli-fantastik ertaklar syujetida o’ziga xos poetik vazifa bajarib keladi. Ularning kelib chiqishi bevosita qadimgi insonlarning soch kultiga aloqador animistik qarashlariga borib taqaladi. O‘zbeklarning e’tiqodiy qarashlari tizimida “soch” bilan bog‘liq inonchlar muhim o‘rin tutadi”. [M.Jo‘rayev M.O‘rayeva D., 2019: 55.]

Yuqorida keltirilgan ilmiy manbada o‘quvchining “soch” timsoli haqidagi tasavvurlarini boyituvchi yana bir xulosa uchraydi: “Qizning qalin uzun sochlaridan arqon sifatida foydalanish. Ertak va dostonlarda ko‘p uchraydigan bu motivda qiz uzun sochi bilan sevgan yorini pastdan balandlikdagi ko‘shkiga (yoniga) tortib chiqarib oladi. Bu o‘rinda sochning yordamchi vosita, qurol vazifasini bajarishi kuzatiladi. [M.Jo‘rayev, D.O‘rayeva, 2019: 62]

Ko‘rinib turibdiki, Sultonbegim o‘z sochini akasiga shunchaki kesib bermagan va bu jarayonga faqat tantilik, mardlik va fidokorlik timsoli sifatida qarash Maqsud Shayxzodaning badiiy niyatini anchagina toraytirib qo‘yadi. Xalq og‘zaki ijodi, undagi motivlar va ramz-timsollar tilini puxta egallagan Maqsud Shayxzodadek alloma ijodkor Sultonbegimning sochini kesib, akasiga berish voqeasidan bejiz foydalanmagan. Sultonbegimning sochi – bu o‘rinda xaloskorlik timsolidir. “O‘zbek mifologiyasi” kitobida keltirilgan ilmiy xulosalar ham Jaloliddin Manguberdi dramasidagi mazkur voqea mohiyatiga g‘oyat hamohangdir. Fikrimizni o‘quvchiga yana ham aniqroq tushuntirish maqsadida “Alpomish” dostonidagi ayrim epizodlarni yodga olamiz. Alpomish sakson gaz chuqurlikdagi zindonda yotganda uni Qorajon kabi Tovka oyim ham qutqarishga urinib ko‘radi:

“Tovka aytdi:

-Bo‘lmaydi, mening yurgan, chopgan joyimni qayerdan bilasizlar, sizlar boshqa yerda o‘yinda edilaring. Endi o‘zim topib kelmasam, boshqa kishi topolmaydi, men o‘zi ikki yugurdim, “Otma suyak”ka borishda bir turdim, qaytishda bir turdim, yo borishda tushgan, yo qaytishda tushgan, sekin borib topib kelaman, sizlar shu yerda o‘tiringlar, - deb kanizlarini shu

yerga tashlab, iziga qaytdi. Endi zindon boshiga borib, sunbul sochini tarqatib, gardanining ostidan yana fonus shamni yoqib yuborib, zindonning tagiga bo‘ynini cho‘zib, Alpomishga qichqirib turibdi:

Xilidan ayrilgan lochin,
Bu kelishim sening uchun,
Uzat qo‘ling, ushla sochim.
Makoning bo‘lib, qora zindon,
Yig‘lab, lablaring xandon,
Senga yordam bugun mendan,
Uzat qo‘lni, ushla sochdan.

O‘z elingdan kelding bunda,
G‘arib bo‘lib qora zindonda,
O‘lmay chiq zindondan, zinda,
Uzat qo‘ling, ushla sochdan… [“Alpomish” dostoni, 2018: 190]

Garchand maqsadiga erisholmagan bo‘lsa-da, Tovka oyim ham o‘z sochini Alpomishni zindondan qutqarish vositasi, deb biladi. Ertakdagi ma’shuqa, “Alpomish” dostonidagi Tovka oyim sochdan arqon o‘rnida foydalanishni istaydi. Sultonbegim esa o‘z sochi Jaloliddinning otiga ayil bo‘lishini xohlaydi. Har ikki holatda ham bosh vazifa – xaloskorlik, o‘zi uchun aziz kishini qiyin vaziyatdan qutqarish.

Ma’lumki, insonning sochi, soqoli, mo‘ylovi, otning esa yoli, kokili va dumi tolalardan iborat. Ertaklarda kenja botirga yordamlashuvchi devning mo‘y-qili ham aslida toladir. Demoqchimizki, soch timsoli va uning xaloskorlik bilan bog‘liq jihatiga bir tomonlama qaramaslik lozim. Nafaqat soch, balki dum ham folklorda xaloskorlik vazifasini bajaradi. Xususan, “Alpomish” dostonida bu jihat ko‘zga yorqin tashlanadi: “Boychiborning dobiri (dupuri) gumbirlab bordi. Chohni bir aylandi-da, ikki yarim quloch bo‘ynini cho‘zib, chohning tubiga qaradi. Alpomishni chohda zindonda ko‘radi. Boychibor chohning labiga oyog‘ini tiradi. Besh yarim gaz dumini pilanglatib, tashlab yubordi. Alpomish xursandchilik bilan “Yo, Ali!”, deb o‘zini cho‘rchib otdi. Otning dumiga qo‘li ilindi. Boychibor Alpomishni zindondan tashqariga chiqardi. Boychiborning bo‘ynidan quchoqlab, abrashin kokilidan silab, tavob qildi.” [“Alpomish” dostoni, 2018: 204].

Sultonbegim ayil vazifasini bajarishi uchun o‘z sochini kesganda bundan Jaloliddin ayricha ruhlanadi, vujudida avvalgiga nisbatan kuchliroq qudrat sezadi. Sakson gazdan iborat chuqurlikda yotgan

Alpomish ham Boychibor besh yarim gazdan iborat dumini zindonga tushirib, uni qutqarishga chog‘lanayotganidan o‘zgacha quvvatga to‘ladi va bir sakrab, boychiborning dumiga osiladi. Bu - Alpomish yetmish gaz balandlikka sakragan deganidir. Mulohazalarimizni yana ham kenggaytirsak, soch va dum faqat qutqaruvchilik, xaloskorlik vazifasini bajarish bilan cheklanibgina qolmay, yordamga muhtoj qahramondagi yashirin qudratni uyg‘otib yuboradi. Jaloliddin “Ulug‘vor niyatlarga kor qilmas ajal, kim yurtidan yovni quvsa, mendirman o‘shal!” – deya jasorat bilan hayqirganda u aynan singlisi Sultonbegim vatan ozodligi yo‘lida zarurligidan faxrlanib sochini kesish voqeasidan ta’sirlanganini ta’kidlash joiz. Aslida Sultonbegimning, ya’ni Xonsultonning (Sultonbegimning asl ismi- M.M.) sochini kesishi tarixiy fakt emas. Dramaturg o‘zining ijodiy pozitsiyasi yorqin ifodalash va dramada ko‘zda tutilgan g‘oyani kuchaytirish maqsadida shu to‘qimadan foydalangan.

Xulosa qilib aytganda, badiiy asar talqinini shu yo‘sin o‘rganish kelajakda yosh avlod tafakkur sarhadlarini yana ham kengaytiradi, badiiy didni shakllantirishdek muhim jarayon ro‘yobini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alpomish. – Toshkent: Fan, 2018. – B. 190.
2. “Jaloliddin” dramasining shaxsiy arximizda saqlanayotgan musiqali variant nusxasi.
3. Jo‘rayev J. “Jaloliddin Manguberdi” dramasining tugal matnini tiklash yo‘lida //Shayxzoda M. Jaloliddin Manguberdi. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2015. – B.134-139.
4. Jo‘rayev M. O‘rayeva D. O‘zbek mifologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019. – B.55.
5. Shayxzoda M. Dunyo boqiy. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1988. – B. 416.

MEHNAT MAVZUSIDAGI O‘ZBEK XALQ MAQOLLARIDA SO‘ZLARNING ESKIRISH OMILLARI

Siddiqova NaimaxonAbdurasulovna,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti mustaqil tadqiqotchisi,
E-mail: *siddiqovanaima034@gmail.com*
Tel*: +99893 404 9*5 47

Annotatsiya: Mazkur maqolada tilning o‘zgaruvchan tabiati, til taraqqiyotida eskirgan qatlamning paydo bo‘lishi haqida so‘z boradi.

Maqolada mehnat mavzusidagi o‘zbek xalq maqollaridagi eskirgan so‘zlar tadqiq etilgan va bu jarayonni yuzaga kelishi uchun omillar tavsiflangan.

Abstract: This article talks about the changing nature of the language, the appearance of an obsolete layer in the development of the language. The article examines obsolete words in Uzbek folk proverbs on the topic of labor and describes the factors that cause this process to occur.

Kalit so‘zlar: til taraqqiyoti, til tabiati, eskirgan so‘zlar, arxaizmlar, istorizmlar.

Key words: language development, language nature, obsolete words, archaisms, historicisms.

Til insoniyat tomonidan yaratilgan ijtimoiy hodisa bo‘lib juda murakkab xarakterga ega. Til taraqqiyoti davomida ham makonda ham zamonda juda ko‘p o‘zgarishlarga duch kelishi tabiiy hol. Chunki til mavjud jamiyatga xizmat qiladi. Jamiyat a’zolari esa tilning sofligi, boyligi kabi xususiyatlariga ta’sir o‘tkazuvchi omillardir.

Tilning lug‘aviy qatlami eng ko‘p o‘zgarishlarga uchraydigan sathdir. Sababi jamiyat hayotidagi o‘zgarishlar eng avvalo, uning leksik sathida, ya’ni so‘zlashuvchilarning nutqida paydo bo‘ladi. Masalan, hozirda nutqimizda juda ko‘p qo‘llanayotgan sun’iy intellekt, dasturiy ta’minot, mobil ilova kabi so‘zlar, aytaylik, ellik yil avvalgi jamiyatimiz uchun notanish so‘zlar bo‘lgan. Bunday so‘zlar qatorini juda uzun davom ettirish mumkin.

Tilimizda yana shunday so‘zlar mavjudki, ular ma’lum bir jamiyat a’zolari bilan birgalikda o‘z hayotini yashab bo‘lgan. Bunday so‘zlar tilshunoslik ilmida eskirgan so‘zlar deb nomlanadi. Til tafakkurni ifoda etuvchi ishoralar tizimi, shuningdek, til ma’lum bir jamiyat a’zolarining ehtiyojidagi barcha leksemalarni qamrab olishi kerak.

Eskirgan so‘zlarning paydo bo‘lishi esa aynan shu qonuniyat bilan bog‘liq, ya’ni tildagi qaysidir tushuncha eskiradi va uni ifodalovchi tovushlar tizimiga ham jamiyat a’zolarining ehtiyoji qolmaydi. Shu tariqa ayrim so‘zlar tilning eskirgan qatlamiga mansub bo‘lib qoladi.

Til taraqqiyotining ma'lum bir davrida muomalada faol qo‘llangan, lekin keyinchalik shu so‘z ifodalagan predmet, voqea yoki hodisa o‘zining hayotiy faoliyatini to‘xtatgach, uni anglatgan so‘z ham eskirsa, qo‘llanish darajasini susaytirib, yo‘qotib, tarixiy so‘zga aylanib qoladi. Demak, tarixiy so‘zlar o‘zi atagan narsa yoki tushuncha iste'moldan chiqib ketganligi bois qo‘llanmayotgan leksik qatlamdir . Bu qatlam har bir davrda jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda yuzaga keladi, kamayib

boradi. Istorizmlar, ya’ni tarixiy so‘zlar leksik, semantik, frazeologik xarakterga ega bo‘ladi. Eskirib iste'moldan chiqqan, o‘z sinonimiga ega bo‘lmagan so‘zlarga leksik istorizmlar deyiladi: omoch, cho‘ri, yuzboshi kabi. [Abdurahmonov, 1976: 85]

Istorizmlar tilning leksik tarkibidan tamoman chiqib ketmaydi, zarur payt-da nutqda qo‘llanib turadi, lekin eskirganligi, unutilganligi sababli ma'nosi ko‘pincha izoh talab qiladi. Hozirgi o‘zbek tili leksikasi tarkibidagi batrak, amin, vasiqa, vaqarnoma, mudarris, charx, kansava, tanob, choriq, quloq kabi so‘zlar tarixiy so‘zlar – leksik istorizmlardir. So‘z ma'nosi anglatgan narsa, voqea, hodisalar eskirmay, uning ma'nosida yangilanish yuz berib, oldingi ma'nosi istemoldan chiqsa, semantik istorizm deyiladi. Masalan, arbob – aristokrat, arbob – fan arbobi; saroy – podsho qarorgohi, saroy – san'at saroyi; vazir – podshoning o‘rinbosari, vazir – mi-nistr; rais – shayxlar rahnamosi, rais – jamoa xo‘jaligi boshlig'i kabi. Eskirib iste'moldan chiqqan, o‘z ekvivalentiga ega bo‘lmagan iboralarga frazeologik istorizmlar deyiladi. Masalan, madrasa tuprog'ini yalamoq, tarki dunyo qilmoq holatlari hayotda mavjud bo‘lmasa ham, ularning ifodasi tarixiylik sifatida saqlanib qolgan1 . Jamiyat to`xtovsiz rivojlanib boradi. Yillar o‘tishi bilan mehnat qurollari, kiyim-kechak, uy jihozlarining yangi nusxalari paydo bo‘ladi, eskilarining ba‘zilari ishlatilmaydigan bo‘lib qoladi, natijada ularni ifodalovchi so‘zlar ham bora-bora juda kam qo‘llanadi yoki iste’moldan chiqib ketadi. Masalan, qadimgi o‘zbek qatlamga tegishli ashu (qizil tuproq), ashuq (temir qalpoq, dubulg‘a), aqru (sekin) kabi so‘zlar eskirgan so‘zlardir. Demak, qadimda nutqda faol qo‘llanilgan, bugun esa kundalik hayotda ishlatilmay qolgan so‘zlar eskirgan so‘zlar deb atalar ekan.

Tilshunoslikda eskirgan so‘zlar ikki guruhga ajratiladi: tarixiy so‘zlar; istorizmlar . [Abdurahmonov, 1976: 65]

1) tarixiy so‘zlar – hozirda mavjud bo‘lmagan narsa hodisalarning iste‘moldan butunlay chiqib ketgan nomlaridir; bunda so‘z o‘zi ifodalagan tushuncha bilan birgalikda eskiradi: o`nboshi, ellikboshi, kanizak, olampanoh, eshik og`ası, xalfa kabi.

2) arxaizmlar – hozirda mavjud bo‘lmagan narsa-hodisalarning iste‘moldan butunlay chiqib ketgan nomlaridir; bunda so‘z eskiradi, lekin tushuncha eskirmaydi, boshqa so‘z bilan ifodalanadigan bo‘lib qoladi, bunday so‘zlar iste’moldan chiqish arafasida turgan, hozirgi tilda sinonimi bo‘lgan so‘zlardir. Agar buni ona tilimizda ifodalaydigan bo‘lsak, qavs ichida hozirgi tildagi sinonimlari berilgan: rayon (tuman), ekspress (tezyurar), oblast (viloyat), vrach (shifokor), xirurg (jarroh), injener

(muhandis), redaktor (muharrir), redaksiya (tahririyat), ulus (xalq), bitik (yozuv) va h. Bizning fikrimizcha, ushbu materialni o‘rganayotganda, istorizmlar haqida bir necha so‘z aytish kerak, ya'ni g'oyib bo‘lgan narsalar, hodisalar, tushunchalar nomlari: qo‘riqchi, zanjirli pochta, jandarm, politsiyachi, hussar va boshqalar.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida arxaizmga shunday izoh berilgan. Arxaizm [yunoncha archaios –ilk, qadimgi] tlsh. Ma’lum davr uchun eskirgan, iste’moldan chiqa boshlagan til birligi – so‘z, ibora, Grammatik shakl.Masalan, arz (yer shari), hayon (foyda) lug‘aviy arxaizmlar hisoblanadi. [O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildlik,1-jild. Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2022: 143]

O‘zbek xalq maqollarida ham eskirgan so‘zlar ko‘p uchraydi. Buning ham bir necha omillari bor. Maqolamizda ayni shu omillar haqida ayrim xulosalarimizni bayon etmoqchimiz. “So’z ko’rki - maqol” degan ajoyib hikmat bor. Bu naql nutqimizga xos bo’lgan o’zbekona lutf ham demakdir. Maqollar, hikmatlar bilan bezangan nutq ta’sirchan bo’lishi hammaga ma’lum.

Maqol xalq hayoti tajribalari xulosasini ifodalovchi hikmatli fikrlar majmuasidir. U o’z tabiatiga ko’ra qadimiy va xalqaro janrlardan biridir. Dunyoda o’z maqollariga ega bo’lmagan xalqning o’zi yo’q. Chunki har bir xalq hayotiy tajribalarini maqollar shaklida avlodlarga qoldiradi. [Sulaymonov, Namangan, 2008: 25]

Maqollar xalqning boy hayotiy tajribasini umumlashtirar ekan, demak, maqolning shakllanishi ham ma’lum bir jarayonni qamrab oladi. Shu bilan birga maqolning yashab qolishi unda qo‘llangan tushunchalarning hayotiy faolligi bilan bevosita bog‘liq. Quyida ayrim maqollar izohiga to‘xtalib o‘tamiz.

Ish boshlaganda — ermak,
Bitmay qolsa — emgak.

Mazkur maqolda emgak so‘zi tarixiy so‘z hisoblanadi. U eski turkiy til davrida faol iste’molda bo‘lgan, hozirda mehnat so‘zining sinonim shaklidir. Maqolda avvalo nega aynan emgak shaklidan foydalanilganligi haqida mulohaza qilib ko‘raylik. Birinchidan maqollar odatda xalqni yodida oson saqlanib qolishga xoslangan, ya’ni aytishga va yod olishga qulay shaklda bo‘lishi kerak edi. Buni taminlovchi omil esa soda qofiya. Maqolning birinchi misrasida ermak so‘ziga to ‘liq mos keladigan qofiyadosh so‘z sifatida tanlangan bo‘lishi mumkin. Yoki mazkur maqol dastavval paydo bo‘lgan davrda aynan emgak so‘zi faol iste’molda bo‘lgan.

Emgak etsang, emarsan.
Emgaksiz itdan yomon,
It tugul bitdan yomon.

Bu maqollarda ham emgak so‘zi bilan bog‘liq muayyan xulosalarga kelishimiz mumkin.

Ketmon chopmoq — olmoq-solmoq,
Qo'sh haydamoq — bormoq-kelmoq.

Mazkur maqolda ham qo‘sh so‘zi eskirgan qatlamga mansub. Chunki zamonaviy texnologiyalar hayotimizni o‘zgartirib yuborgan bir davrda mazkur tushuncha ham o‘z faollligini yo‘qotdi.

Kiygiz kimniki — bilak shuniki.

Bu maqol bugungi kun o‘quvchisi uchun bir qaraganda juda tushunarsiz. Boisi kiygiz so‘zining ma’nosi ko‘pchilikka noma’lum. Kiygiz kigiz leksemasining shevadagi shaklidir. Kigiz – yungdan bosib tayyorlanadigan qalin pishiq palos,namat [O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2022: 836] Demak, maqoldagi so‘zning tushuncha sifatida jamiyatimiz hayotida umri tugaganligi uchun eskirgan qatlamga o‘tib qoldi.

Tinmas kampir oyog'i
Oydinda charx yigirar.

Mazkur maqolda ham yuqoridagi omil charx so‘zining eskirishiga sabab bo‘lgan. **Charx** — 1) qo‘lda ip yigirishda foydalaniladigan qad. asbob. Unda, asosan, paxta, jun va boshqa tolalar yigiriladi. Ko‘rinishi dasta bilan aylantiriladigan g‘ildirak shaklida bo‘ladi. O‘rta Osiyoda paxta ekib, ip yigirish milod boshidayoq ma’lum bo‘lgan. Paxta va jun tolasidan ip yigirish uchun oldin urchuq, keyin uni takomillashtirib, charx yasalgan. 18-asrda mashinada ip yigirishga o‘tilgach, charxga ehtiyoj kamaygan, lekin ayrim chekka joylarda undan hali ham foydalaniladi

2) qaychi, pichoq, tesha, ketmon, o‘roq va boshqa kesuvchi asboblarni o‘tkirlash (charxlash) uchun ishlatiladigan asbob. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Charx]

Ko‘rinadiki, charx so‘zining ikkinchi ma’nosi hozirda tilimida faol qatlamga mansub bo‘lsa, maqolda qo‘llangan tushunchani ifodalovchi leksema eskirgan.

Bir dehqon omoch bilan, Yettovlon cho‘mich bilan.

Omoch so‘zi haqida ham yuqoridagi fikrlarni aytishimiz mumkin.

Totli tomoq tamuqqa tushirar.

Tamuq – tamug‘ so‘zining xalq tiliga moslashgan shakli bo‘lib, eski o‘zbek tilida jahannam, do‘zax ma’nolarini anglatgan.

Hozirda bu so‘z ham leksik sathimizning eskirgan qatlamidan joy

olgan.

Tarkibida eskirgan qatlamga oid maqollarni juda ko‘p tahlilga tortishimiz mumkin. Ulardagi so‘zlarning eskirishi uchun omillardan eng muhimi, ko‘rib chiqqanimizdek maqollar tarkibidagi qo‘llangan ayrim tushunchalarning jamiyat hayotida o‘z faolligini o‘tab bo‘lganligidadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдураҳмонов Х. Ўзбек халқ оғзаки ижоди асарларининг синтактик хусусиятлари бўйича кузатишлар. – Тошкент: Фан, 1971; ўша муаллиф. Содда гап синтаксиси хусусиятларининг ўрганилишига доир. Олий ўқув юрти студентлари учун материаллар (Мақол, матал ва топишмоқлар материали асосида). – Тошкент: Ўқитувчи, 1976.

2. Абдураҳмонов Ғ. «Девону луғатит турк» асарининг ўрганилиши тарихидан. //Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент: 2009. – № 6. – Б. 49-51.

3. Девону луғотит турк. Индекс-луғат Ғ. Абдураҳмонов ва С. Муталлибов таҳрири остида. – Тошкент: 1967.

4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildlik,1-jild. – T.: G‘afur G‘ulom, 2022.–Б. 143.

5. https://www.izohli.uz/words/TAMUG%E2%80%98

6. Sulaymonov M. O’zbek xalq og’zaki ijodi. – Namangan, 2008. – B. 25.

MAHMUDXOCA BEHBUDİ VƏ AZƏRBAYCAN MAARİFÇİLƏRİ: ORTAQ İDEYALAR VƏ PARALEL YOL

Atilla Nazim oglu SÜLEYMANLI,
Özbəkistan Respublikası, Termez Dövlət Universitetinin
II kurs magistri, Bakı,
E-mail: *atillanazim@mail.ru,*
ORCİD İD: 0009-0005-7230-5123

Xülasə: Bu məqalə Mahmudxoca Behbudinin Türküstanda cədidçilik hərəkatındakı rolunu və onun Azərbaycan maarifçiləri ilə ideya oxşarlıqlarını araşdırır. M.Behbudinin maarifçilik prinsipləri, milli mədəniyyətin qorunması və müasir təhsil sisteminin formalaşdırılmasına dair fikirləri Azərbaycan ziyalılarının baxışları ilə müqayisə edilir. M.Behbudinin ictimai fəaliyyəti və onun cədidçilik ideyalarının Azərbaycan mühitinə təsiri və əksinə Azərbaycan mütəfəkkirlərinin ideya və əməli fəaliyyətinin Behbudi yaradıcılığına təsiri də təhlil olunur.

Açar sözlər: Mahmudxoca Behbudi, cədidçilik, Azərbaycan maarifçiləri, Türküstan, milli oyanış, müasir təhsil, maarifçilik

Abstract: This article examines the role of Mahmudkhoja Behbudi in the Jadid movement in Turkestan and his ideological similarities with Azerbaijani intellectuals. It analyzes Behbudi's principles of enlightenment, the preservation of national culture, and the formation of a modern education system in comparison with the views of Azerbaijani intellectuals. The study also explores Behbudi's social activities and the impact of his Jadidist ideas on the Azerbaijani context.

Key words: Mahmudkhoja Behbudi, Jadidism, Azerbaijani intellectuals, Turkestan, national awakening, modern education, enlightenment

GİRİŞ

XX əsrin əvvəllərində Türküstanda cədidçilik hərəkatının öncül nümayəndələrindən biri olmuş Mahmudxoca Behbudi (1875–1919) pedaqoq, jurnalist, naşir, dramaturq və ictimai xadim kimi fəaliyyət göstərmişdir. Behbudi , Türküstanda yeni üsullu məktəblərin yaradılması, dərsliklərin hazırlanması, nəşriyyat və teatrların təsis edilməsi işlərinə rəhbərlik etmişdir. O, "Səmərqənd" və "Ayna" ("Oyina") kimi qəzet və jurnallar nəşr edərək, dövrünün aktual məsələlərinə həsr olunmuş əsərlər və məqalələr yazmışdır. Mahmudxoca Behbudi, 1911-ci ildə özbək milli teatrının başlanğıcı üçün ilk pyesini yazaraq, Türküstan ziyalıları arasında böyük diqqət qazanmışdır. 1914-cü ildə "Turan" teatrında səhnələşdirilən "Pədərküş" ("Ata qatili") pyesi vasitəsilə ölkəmizdə teatr sənətinin əsasını qoymuşdur.

Onun publisistik məqalələri həm öz dövründə bədii təhlilə cəlb edilmiş və məqalələrində qaldırılan sosial problemlərə həll yolları təklif edilmişdir. Bundan əlavə, Mahmudxoca Behbudinin maarifpərvər, fədakar ictimai xadim olduğu və söz istifadəsindəki bədii məharəti vurğulanmışdır.

Mahmudxoca Behbudi özbək ədəbiyyatının inkişafına böyük töhfələr vermişdir. Onun həyatı və fəaliyyəti haqqında müasir mənbələrdə, məsələn, "Cədidlər: Mahmudxoca Behbudi" adlı əsərdə geniş məlumat verilmişdir.

ƏSAS HİSSƏ

Cədidçilik hərəkatının əsas ideoloqlarından biri olmuş Mahmudxoca Behbudi, qeyd etdiyimiz kimi, Türküstanda maarifçilik, islahatçılıq və milli oyanışın təşəkkülündə mühüm rol oynamışdır. Onun bu hərəkatdakı rolu aşağıdakı əsas istiqamətlər üzrə dəyərləndirə bilərik:

İlk olaraq, Maarifçilik və yeni üsullu məktəblərin yaradılması – Mahmudxoca Behbudi, Cədidçilik hərəkatının əsas prinsiplərindən biri olan təhsilin yenilənməsi istiqamətində çalışmışdır. O, dini tədris üsullarına əsaslanan köhnə məktəbləri (mədrəsələri) tənqid edərək, dünyəvi elmlərin tədrisini əhatə edən yeni üsullu məktəblərin yaradılmasını təşviq etmişdir. 1903-cü ildə Səmərqənddə ilk belə məktəbi açmış, daha sonra Türküstanın müxtəlif bölgələrində bu cür məktəblərin yayılmasına dəstək vermişdir. Behbudi özü də dərsliklər yazmış və tədris metodlarının müasirləşdirilməsinə xüsusi diqqət yetirmişdir.

Bundan başqa, *milli mətbuatın inkişafı və ictimai fikir formalaşdırması* - Mahmudxoca Behbudi , Cədid hərəkatının əsas prinsiplərindən biri olan ictimai maarifləndirməni həyata keçirmək üçün mətbuatı əsas vasitə kimi görmüşdür. 1913-cü ildə "Oyina" jurnalını nəşr etməyə başlamış və bu jurnal vasitəsilə milli dil, mədəniyyət, qadın hüquqları, iqtisadi inkişaf və təhsil kimi mövzulara toxunmuşdur. O, həmçinin "Səmərqənd" qəzetini nəşr etdirmişdir. Bu nəşrlər vasitəsilə Cədid hərəkatının ideyalarını yaymış və xalqı milli kimlik və mədəni yenilənmə yolunda səfərbər etməyə çalışmışdır.

Daha sonra, dramaturgiya və teatr hərəkatı – Mahmudxoca Behbudi, milli teatrın inkişafında da mühüm rol oynamışdır. 1911-ci ildə "Pədərküş" ("Ata qatili") adlı pyesini yazmış və bu əsər özbək teatrının inkişafında əsaslı dönüş nöqtəsi olmuşdur. Pyes, cəhalət və köhnə ənənələrin cəmiyyət üçün fəlakətli nəticələrini tənqid edirdi. Behbudi , teatrı xalqın maarifləndirilməsi və sosial problemlərin işıqlandırılması üçün vacib bir vasitə kimi görürdü.

Mahmudxoca Behbudi dövrünün ictimai-siyası xadimi olaraq, *Siyasi və sosial islahatçılıq sahəsində*ki xidmətlərini belə ümumiləşdirə bilərik: Mahmudxoca Behbudi, Cədidçilərin siyasi baxışlarını da inkişaf etdirərək, Türküstanın müstəqilliyə doğru addımlaması üçün müəyyən ideyalar irəli sürmüşdür. O, konstitusiyalı monarxiya modelinə meyilli idi və Osmanlıdakı islahatçı hərəkatlardan ilham alırdı. Behbudi , xalqın iqtisadi və siyasi hüquqlarını müdafiə edir, idarəçilik sistemində müasirləşməni və yerli ziyalıların dövlət işlərində iştirakını vacib hesab edirdi.

İslam modernizmi və dinin yenilənməsi sahəsinə gəldikdə isə, o, İslamın mütərəqqi inkişafını dəstəkləyir, dinin elmi tərəqqi və maarifçiliklə uyğunlaşdırılmasının vacibliyini vurğulayırdı. O, fanatizmi və dini xurafatı tənqid edərək, dinin xalqın tərəqqisinə mane olmaması üçün yenilənməli olduğunu bildirirdi.

Türküstanda cədidçilik hərəkatı ilə yanaşı Azərbaycanda maarifçilik

hərəkatı geniş yayılmışdı. Bu kontekstdən yanaşanda Mahmudxoca Behbudinin elmi, maarifçilik, siyasi fəaliyyətini Azərbaycanın görkəmli maarifçiləri, elm və mədəniyyət xadimləəri, mətbuat yaradıcıları olan Mirzə Fətəli Axundzadə (1812–1878), Həsən bəy Zərdabi (1837–1907), Cəlil Məmmədquluzadə (1869–1932) və Üzeyir bəy Hacıbəyli (1885–1948) kimi mütəfəkkirlərlə müqayisə etmək mümkündür.

*Mirzə Fətəli Axundzadə və Mahmudxoca Behbudi*nin ictimai və yaradıcılıq fəaliyyətlərini müqayisə etsək, Axundzadə kimi Behbudi də dini fanatizmə və xurafata qarşı çıxaraq, maarifin və elmin inkişafını cəmiyyətin tərəqqisi üçün əsas vasitə hesab edirdi. Mirzə Fətəli Axundzadə Azərbaycan dramaturgiyasının banisi olduğu kimi, Behbudi də özbək teatrının əsasını qoymuşdur. Onun "Pədərküş" ("Ata qatili") əsəri Axundzadənin "Molla İbrahimxəlil kimyagər" və "Hekayəti-Müsyo Jordan və Dərviş Məstəli şah" pyesləri ilə müəyyən bənzərlik təşkil edir. Hər iki yazıçı cəmiyyətin geriliyi və cahilliyi ilə mübarizə aparmışdır.

*Həsən bəy Zərdabi və Mahmudxoca Behbudi*nin mətbuat və maarifçilik görüşlərini müqayisə etsək, *Mahmudxoca* Behbudinin "Oyina" jurnalı və "Səmərqənd" qəzeti ilə Həsən bəy Zərdabinin "Əkinçi" qəzeti arasında oxşarlıq vardır. Hər ikisi xalqın maariflənməsi üçün mətbuatı ən təsirli vasitə hesab edirdi. Həsən bəy Zərdabi və Mahmudxoca Behbudi cəmiyyətin əsas problemlərini elmin və təhsilin inkişafında görürdülər. Onlar təhsil islahatları təklif edərək, köhnə üsullu dini məktəbləri tənqid edirdilər.

*Cəlil Məmmədquluzadə və Mahmudxoca Behbudi*nin Tənqidi realizm və satira və teatr-maarifçilik baxışlarının müqayisəsində Behbudinin maarifçilik ideyaları Cəlil Məmmədquluzadənin "Molla Nəsrəddin" jurnalında təbliğ etdiyi prinsiplərlə üst-üstə düşür. Hər ikisi cəmiyyətin avamlığına və fanatizminə qarşı çıxmış, xalqı oyanışa çağırmışdır. Cəlil Məmmədquluzadənin "Ölülər" pyesində olduğu kimi, Behbudinin "Pədərküş" ("Ata qatili") əsərində də cəmiyyətin sosial problemləri dramatik şəkildə əks etdirilmişdir. Eləcə də M.Behbudinin teatr sahəsində fəaliyyəti Üzeyir Hacıbəylinin operettaları ilə müəyyən oxşarlıq təşkil edir. Məsələn, "Arşın mal alan" əsərində olduğu kimi, Behbudinin də pyesləri sosial problemlərə toxunur və xalqı maarifləndirməyi hədəfləyirdi. Ü.Hacıbəyli və M.Behbudi hər ikisi ana dilinin inkişafına böyük önəm vermiş, təhsil islahatlarını zəruri saymışdır.

Buradan aydın görünür ki, Mahmudxoca Behbudini Azərbaycan maarifçiləri ilə müqayisəsində onun Axundzadə ilə dramaturgiya, H.Zərdabi ilə mətbuat və təhsil islahatı, C.Məmmədquluzadə ilə tənqidi

realizm və satira, Ü.Hacıbəyli ilə isə milli teatr və dil sahəsində ortaq cəhətlərə malik olduğu görünür. O, Azərbaycan maarifçiləri kimi milli oyanışın və müasir təhsil sisteminin qurulmasının vacibliyini vurğulamış, Şərq cəmiyyətlərinin tərəqqisi üçün çalışmışdır. Doğrudur, Mahmudxoca Behbudi ilə Azərbaycan maarifçiləri arasında ideya və fəaliyyət baxımından böyük oxşarlıqlar olsa da, onların biri digərindən birbaşa təsirləndiyini demək çətindir. Daha çox, bu maarifçi ziyalılar paralel olaraq, oxşar tarixi şəraitdə, oxşar problemlərə cavab olaraq, hər biri öz vətənində maarifçilik hərəkatını inkişaf etdirmişlər.

Tədqiqatlarımızın ümumiləşməsi kontekstindən yanaşanda, XIX əsrin sonları – XX əsrin əvvəllərində Rusiya imperiyasının tərkibində olan Türküstan və Cənubi Qafqaz bölgələrində sənayeləşmə və modernləşmə ehtiyacı, dini-mistik təhsilin cəmiyyəti geri saxlaması, milli kimliyin aydınlaşması və Rusiya hökumətinin assimilyasiya siyasəti kimi oxşar problemlər vardı.

Rus-Türk məktəblərinin açılması, Osmanlı və Avropa modernləşməsinin təsiri, yeni mətbuatın inkişafı, Qərb və Şərq maarifçilik ideyalarının yayılması hər iki bölgədə ziyalıları düşündürürdü. Bu baxımdan, Mahmudxoca Behbudi və Azərbaycan maarifçiləri, məsələn, Mirzə Fətəli Axundzadə, Həsən bəy Zərdabi, Cəlil Məmmədquluzadə və Üzeyir Hacıbəyli eyni dövrdə eyni problemlərə qarşı mübarizə aparırdılar.

M.Behbudi adlarını qeyd etdiyimiz bu mütəfəkkir Azərbaycan maarifçilərindən birbaşa təsirlənmişdimi? Bu barədə açıq mənbələrdə konkret sübutlar azdır. Lakin düşüncə və fəaliyyət oxşarlığı göstərir ki, onlar bir-birindən dolayısı ilə xəbərdar ola bilərdilər. Cəlil Məmmədquluzadənin "Molla Nəsrəddin" jurnalı (1906–1931) yalnız Azərbaycanda deyil, bütün Mərkəzi Asiyada oxunur.

NƏTİCƏ

Mahmudxoca Behbudi cədidçilik hərəkatının görkəmli nümayəndələrindən biri kimi yalnız Türküstanda deyil, ümumilikdə müsəlman dünyasında maarifçilik ideyalarının yayılmasına böyük töhfə vermişdir. Onun milli şüurun inkişafı, müasir təhsil sisteminin qurulması və ictimai islahatlarla bağlı baxışları Azərbaycan maarifçilərinin ideyaları ilə mühüm oxşarlıqlar təşkil edir. Hər iki cərəyanın nümayəndələri ümumi türkdilli xalqların tərəqqisini əsas məqsəd kimi görmüş və bu yolda ən vacib amil kimi maarifçiliyi vurğulamışlar. Behbudinin fəaliyyəti, onun yaratdığı yeni tipli məktəblər və təhsil sahəsindəki təşəbbüsləri, milli mədəniyyətin qorunması və inkişaf etdirilməsi istiqamətindəki səyləri yalnız öz dövrü üçün deyil, həm də müasir dövrdə aktual olaraq qalır.

Onun ideyaları Azərbaycan və digər türk xalqlarının maarifçilik hərəkatı ilə sıx bağlıdır və bu intelektual irs XX əsr boyunca, hətta bu gün də elmi və ictimai diskussiyalar üçün dəyərli mənbə olaraq qalır. Beləliklə, Behbudinin cədidçilik ideyalarının yalnız Türküstanla məhdudlaşmadığını, əksinə, geniş coğrafiyada – o cümlədən Azərbaycanda da əhəmiyyətli təsirə malik olduğunu görmək mümkündür. Bu tarixi və ideoloji bağlılıqlar Türk dünyasında maarifçilik hərəkatlarının ortaq dəyərlər üzərində qurulduğunu bir daha sübut edir.

Ədəbiyyat:

1. Axundzadə Mirzə Fətəli. Əsərləri [3 cilddə]. I cild / tərt. ed. və ön sözün müəl. N.Məmmədov. – B.: Şərq-Qərb, 2005. – 296 s.
2. Axundzadə Mirzə Fətəli. Əsərləri [3 cilddə]. II cild / tərt. ed. Həmid Məmmədzadə; ön sözün müəl. Yaşar Qarayev; red. Əziz Mirəhmədov. – B.: Şərq-Qərb, 2005. – 376 s.
3. Axundzadə Mirzə Fətəli. Əsərləri [3 cilddə]. III cild / tərt. edəni və ön sözün müəl. Həmid Məmmədzadə. – B.: Şərq-Qərb, 2005. – 296 s.
4. Aşırlı Akif. Azərbaycan mətbuat tarixi. I hissə. – Bakı, 2009
5. Behbudi M. irsinin milli ideanin təbiqidənin əhəmiyyəti . Daşkənd: 2014 - səh .
6. Behbudi Mahmudxoca. Gənclərə müraciət . Daşkənd: “Mənaviyat”, 2022 - səh.
7. Camalov Kamal. Mollanəsrəddinçilərin maarifçilik ideyaları. – Bakı: Elm və təhsil, 2015.
8. Hacıbəyli Üzeyir. Seçilmiş əsərləri. İki cilddə. 1 cild. – Bakı, “Şərq-Qərb“, 2005, 408 səh.
9. Hacıbəyli Üzeyir. Seçilmiş əsərləri: 2 cilddə. – Bakı: Şərq-Qərb, 2005.- C.II - 453 s.
10. Həbibbəyli İsa, Cəlil Məmmədquluzadə: Mühit və müasirləri. – Bakı, 1997;
11. Xayrullayev M. Ruhani ulduzlar . “Abdulla Qodiri ad.xalq irsi” nəşriyyati, 1999 - səh.357.
12. Kərimov Naim “Yeni ədəbiyyatın basisi“ . kh-davron.uz .
13. Kərimov Naim. Mahmudxoca Behbudiy. – Daşkənd, 2010 – səh 22.
14. Kho'jao'g'li Temur “Muxtariyyət layihəsi“ . jadid.uz .
15. Kosimov Beqali (1990). “Karvan rəhbəri“ . Gənclik . № 1. Səhifə 64.
16. Kosimov Beqali. “Mahmudxoca Behbudiy”. kh-davron.uz . Xurşid Davron Kitabxanası
17. Qasımov M. M.F.Axundov və XIX əsrin inqilabi-demokratik estetikası. Bakı: 1954, 150 s.

ISTIQLOL DAVRI ROMANLARINING BADIIY-ESTETIK ILDIZLARI

Yaqubov Islomjon Ahmedjonovich,
Nizomiy nomidagi TDPU professori,
filologiya fanlari doktori
E mail: islamjon.yakubov.61@mail.ru
tel: 903219708

Annatatsiya: Ushbu maqolada istiqlol davri o‘zbek romanlari genezisi o‘rganilgan. Unda dunyo xalqlari madaniyatining uyg‘unlashuvi nafaqat ijtimoiy-madaniy balki adabiy hayotda ham yangi shakliy-uslubiy izlanishlarni yuzaga yuzaga kelishi uchun omil bo‘lgani asoslab berilgan. Buni muallif istiqlol davri o‘zbek romannavislari antik falsafaning Suqrot *(Sokrat),* Aflotun *(Platon),* Arastu *(Aristotel)* singari vakillari, shuningdek, XIX asr Yevropa falsafiy yo‘nalishlarida yaralgan asarlardan o‘rganishganliklari misolida yoritgan. Bugungi kunda olamni estetik idrok etish, tasvirlash, badiiy ijodning vazifalari masalasi ancha kengaydi.

Hozirgi o‘zbek romanlarini kuzatar ekanmiz, ularda G‘arbona ong va iroda erkinligi bilan sharqona e’tiqodiy asoslarga tayanuvchi hodisalarni mukammal tarzda anglash va anglatish mumkin emasligi namoyon bo‘ladi. Bunda Sharqu G‘arb falsafiy-estetik qarashlarining konkret badiiy matn poetikasiga muvofiq keladigan usul va vositalaridan samarali foydalanish ijobiy natijalar berishi, shubhasizdir. “Ishq ahli” (O.Muxtor), “Fano dashtidagi qush”, “Pahlvon Muhammad” (A.Dilmurod), “Tangri qudug‘i” (E.Samandar), “Yassaviyning so‘ngi safari” (S.Siyoev), “Muvozanat”, “Isyon va itoat”, “Sabo va Samandar” (U.Hamdam) kabi namunalirini kuzatishning o‘ziyoq fikrimizni dalilaydi.

Kalit so‘zlar: Roman, qahramon, yozuvchi, genezis, tamoyil, matn, adabiyotshunoslik, poetika, madaniy hayot, adabiy jarayon, istiqlol davri adabiyoti.

Abstract: This article examines the genesis of Uzbek novels of the independence period. It substantiates that the harmony of cultures of the peoples of the world was a factor in the emergence of new formal-stylistic studies not only in social and cultural, but also in literary life. The author explained this using the example of the fact that Uzbek novelists of the independence period learned from such ancient philosophers as Socrates (Socrates), Plato (Plato), Aristotle (Aristotle), as well as works created in European philosophical trends. 19th century. Today, the problem of

aesthetic perception of the world, its description, the tasks of artistic creativity have expanded significantly.

If we look at the current Uzbek novels, we will see that it is impossible to perfectly understand and interpret the events based on Eastern religious foundations with Western consciousness and free will. There is no doubt that the effective use of methods and means corresponding to the poetics of a specific artistic text of Eastern and Western philosophical and aesthetic views will give positive results. "People of Love" (O. Mukhtar), "Bird in the Steppe of Fano", "Pahlvan Muhammad" (A. Dilmurod), "God's Well" (E. Samandar), "The Last Journey of Yasawi" (S. Siyoev), "Balance", "Rebel and Obedience", "Sabo and Samandar" (U. Hamdam) prove our opinion.

Keywords: Novel, hero, writer, genesis, trend, text, literary criticism, poetics, cultural life, literary process, literature of the independence period.

Insoniyat tarixida shunday jarayonlar borki, dunyo xalqlari madaniyatining uyg‘unlashuvi yangi hodisalarni yuzaga chiqarganligi kuzatiladi. Masalan, ellinlar madaniyatining sharqdagi mahalliy xalqlarning madaniyati bilan birikuvi o‘sha davrdagi tarixiy vaziyatning, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-madaniy munosabatlarning mahsuli edi. Sharqning yunon va makedon madaniyati bilan, aksincha ularning Sharq madaniyati bilan tanishuvi Bolqon yarim orollari, Egey dengizidagi orollar, Kichik Osiyo, Misr, Old Osiyo, O‘rta Osiyoning janubiy tumanlari, Markaziy Osiyoning bir qismi yaxlit makonga aylanishi tufayli sodir bo‘ldi. Demakki, yaxlitlik nafaqat iqtisodiy, balki madaniy taraqqiyotning ham muhim omili.

Ellinizm davrida adabiyot va san’at ijtimoiy-siyosiy jangavor ruhdan chinakam san’at yo‘nalishiga, ko‘ngil izhoriga, insoniy munosabatlar tasviriga o‘tdi. Alohida odamning kayfiyatini ko‘rsatish muhim sanala boshlandi. Adabiyot va san’at baland didli kitobxon saviyasiga yuksaldi. Menandr *(Afina)* dramalarida ruhiy-psixologik teranlik; shoir Kallimax *(Shimoliy Afrika)* ijodidagi qisqalik, aniqlik, o‘tkirlik, klassik adabiyot an’analaridan qochish, epigramma, epilliya, gimn janrlariga murojaat etish; Feokrit idilliyalaridagi ko‘tarinki romantik ruh; nasriy asarlardagi folklorga yaqinlashish singari belgilar keyingi davr yunon va Rim adabiyotiga poydevor vazifasini o‘tadi. San’at sohasida mahalliy an’analarga, buyuk san’at ustalariga ergashib ish ko‘ruvchi oqimlar yuzaga keldi. Tasviriy san’atda haykal va portret; rassomlikda mozika, manzara, natyurmort janrlariga ahamiyat ortdi. Ellinizm san’ati Yaqin va O‘rta Sharq

mamlakatlarida mahalliy san’atning qadimiy an’analari bilan uyg‘unlikda rivojlandi.

Demak, tarixiy vaziyat, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-madaniy munosabatlardagi globallashuv fikr-tuyg‘uning makoniy kengayib, zamoniy chegaralardan o‘zib, yanada boyib borishi, dunyo xalqlari madaniyatining uyg‘unlashuvini, yangi hodisalarning paydo bo‘lishini ham taqozo etadi. Bu fikr o‘zbek romannavislari antik falsafaning Suqrot *(Sokrat),* Aflotun *(Platon),* Arastu *(Aristotel)* va boshqa vakillari fikrlariga tayanishlari, XIX asr Yevropa falsafiy yo‘nalishlarida yaralgan asarlardan o‘rganishlari, shuningdek, tasavvufiy qarashlarga mayl bildirishlarining ob’ektiv asoslari ham mavjud ekanligini ko‘rsatadi.

Ijod ahli fikrlash madaniyatida gumanistik tamoyillar ustivor bo‘la borishi madaniy merosning turli davr maxsullariga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirdi. Yevropa Renessansi yoxud Sharq Uyg‘onish davrida kuzatilganidek, antik falsafa namoyondalarining asarlarini o‘rganishga bo‘lgan kuchli intilishni yuzaga chiqardi. Zotan erkin fikr yuritish kuni kecha o‘zgarmas deb qaralgan haqiqatlardan voz kechishga, botiniy iste’dod va qobiliyatni ro‘yobga chiqarish, ilmiy-falsafiy merosni o‘ziga xos tadqiq qilish orqali insonning eng oliy qadriyat ekanligini isbotlashga imkon beradi. Zamondosh ijodkorlarimizda fikr teranlashgani, ko‘ngil ingichkalashgani uchun ham bugungi o‘zbek adabiyotida insonning botinini tadqiq etishga e’tibor ortdi.

Adabiyotshunosligimizda G‘arb estetikasi va badiyati tamoyillari bilan zamonaviy adabiy jarayon hodisalarini bog‘lashga kuchli intilish mavjud. Shubhasiz, biz bu harakatning ijobiy jihatlarini inkor etmaymiz. Ammo jonli adabiy jarayon tajribalarini o‘rganish, romanchiligimiz yetakchi tamoyillarini milliy va jahoniy asoslarda tadqiq etish adabiy-nazariy izlanishlarimizning asosini tashkil etadi. Adabiy jarayon ijodiylikka asoslangani bois, plyuralistik yangicha ijodiy tafakkur badiiy ijod tarzida ham ko‘p tarmoqlilikni keltirib chiqardi. Bu esa yondoshuv usullari ham poetik hodisaning murakkab milliy tabiatiga mutanosib bo‘lishini, birinchi navbatda romanda muallif nigohi orqali tasavvur qilingan borliqni tahlil qilishni talab etadi [Yakubov I.].

Illo, yozuvchining insonni tushunish va ifodalash yo‘li milliy-adabiy an’analar zaminiga ijodiy yondoshuv orqaligina o‘tadi. Chunki yozuvchi millat kishisining ma’naviyati qirralarini tekshiradi, uning ruhiyatidagi ko‘z ilg‘amas sezimlarni o‘z ichki ehtiyojidan kelib chiqib tadqiq etadi. Bu jarayonda fikrlash, anglash, ta’sirlanish hamda tushuntirish tamomila milliy asosda va mutlaqo individual tarzda kechadi. Zero milliy istiqlol

davrida o‘zbekning olam hodisalarini qabul kilish va unga yondoshish tarzida sezilarli siljish sodir bo‘ldi. O‘zbek romani o‘z taraqqiyotining oldingi bosqichlariga nisbatan teranroq darajada milliylashdi.

Chunki ijtimoiy va badiiy ong sog‘lomlashdi, fikrlar plyuralizmi tufayli adabiy hodisalar qayta idrok etila boshlandi. Millat nazaridan yashirin bo‘lgan ko‘plab asarlarning estetik olami inkishof etildi. Natijada olamni estetik idrok etish, tasvirlash, badiiy ijodning vazifalari bobidagi qarashlar ancha kengaydi. Adabiyotning ma’rifatchilik va jadidchilik bosqichlari bilan vorisiy aloqadorligi chuqurlashdigina emas, umumo‘zbek adabiyoti yaxlit bir jarayon sifatida anglandi. Milliy ma’naviyatimiz ildizlari va islom tasavvufi asoslari bilan chuqurroq tanishish imkoni yuzaga chiqdi. Tasavvuf nazariyasi va tarixi, tasavvuf va badiiy ijod muammolari, tasavvufiy adabiyotning shakllanishi, taraqqiyoti hamda tasavvuf estetikasi, mumtoz poetika asoslari masalalari o‘rganilmoqda.

Minglab qo‘lyozmalar ilmiy iste’molga kiritildi. Ular orasida qadimgi mif va afsonalardan tortib «Avesto», «Xuastuanift», «Irq bitigi», «Oltin yoruq» dostonigacha; Imom Ismoil al-Buxoriyning «Al-jome’ as sahih», Zayniddin Muhammad G‘azzoliyning «Kimyoi saodat», Yusuf Hamadoniyning «Rutbatu-l-xayot», Xoja Ahmad Yassaviyning «Faqrnoma», Faxruddin Ali Safiyning «Rashahotu ayni-l-hayot», Shayx Najmiddin Kubroning «Usuli ashara», Farididdin Attorning «Ilohiynoma», Mavlono Jaloliddin Rumiyning «Masnaviyi ma’naviy», Abul Muhsin Muhammad Boqirning «Maqomoti Xoja Bahouddin Naqshband», Xoja Ahror Valiyning «Risolai volidiya», Husayn Voiz Koshifiyning «Futuvvatnomai sultoniy», So‘fi Ollohyorning «Maslaku-l-muttaqin», Is’hoq Bog‘istoniyning «Tazkirai qalandaron» asarlari; Fitrat, Cho‘lpon Qodiriy bitiklarigacha uchratish mumkin. Shuning uchun ham umuman o‘zbek adabiyoti, xususan, milliy romanchilik taraqqiyotini F.M.Dostoeskiy, F.Nisshe yoxud Z.Freyd umuman olganda, yevropacha estetik qarashlar ta’siri doirasidagina izohlash uning milliy-estetik hodisa ekanligiga birmuncha putur yetkazadi.

Dostoevskiyning «Bechora odam» (1846) romanida xo‘rlangan, ijtimoiy adolatsizlikka duchor bo‘lgan «kichkina odamlar»ning ulkan qismati, odam haqida kuyunchaklik, ulug‘ insonparvarlik «Stepanchikov qishlog‘i va uning aholisi» (1859), «Xo‘rlanganlar va haqoratlanganlar» (1861), «O‘lik xonadondan maktublar» (_1861–1862) asarlarida jaholat botqog‘iga botib, insoniy qiyofasini yo‘qotgan ruslar hayoti hikoya qilinadi. Yozuvchining «Jinoyat va jazo» (1866), «Telba» (1868) romanlarida ham rus xalqining ma’naviy muammolari qalamga olinadi.

«Jinlar» (1871–1872), «O‘smir»(1875) romanlarida esa rus «oqsuyaklari» tabaqasi, amaldorlar orasidagi ma’naviy qashshoqlik, amalparastlik, ochko‘zlik va xudbinlik kabi illatlar chuqur ildiz otgani ko‘rsatilgan. «Og‘a-ini Karamazovlar» (1879–1880) romanida esa jamiyat va shaxs o‘rtasidagi chuqur ziddiyat, ruhiy inqiroz fojiasi o‘z ifodasi topgan.

Ko‘rinadiki, F.M. Dostoevskiy XIX asrdagi realistik roman janrini o‘ziga xos jihatlar bilan boyitgan. U yaratgan to‘laqonli badiiy obrazlarda nafaqat voqealar oqimi, insonlar taqdiri, qalb kurashi, balki jamiyat ma’naviy hayotidagi fojiaviy konfliktlar ham aks etgan. Yozuvchi har bir ayrim kishining kamoloti va baxt-saodatiga asoslangan ijtimoiy uyg‘unlik haqidagi gumanistik g‘oyalarni ilgari surdi. Xudbinlik, surbetlik, nifoq solish, sotqinlik singari inson ruhiyati va jamiyatdagi axloqiy tubanliklarni dard-alam bilan his etdi. Shu bois ham uning ijodida shaxsning ruhiy-axloqiy mushkulotlari bilan bog‘liq bo‘lgan muammolar yetakchilik qildi. Odam bolasi o‘z amallariga javobgarlikni his qiladigan erkin iroda egasi sifatida idrok etildi.

F.M. Dostoevskiyning axloqiy tamoyillariga ko‘ra har qanday hayotiy vaziyatda ham odam bolasi odam bo‘lib qolmog‘i, har qanday baxtsizlik qarshisida ham ruhan baland turmog‘i lozim. Insonni nafaqat mavjud vaziyatga, hatto aql-farosat izmiga ham butkul bog‘lab qo‘ymaslik jihatidan F.M. Dostoevskiy qarashlari ma’rifatchilik nuqtai nazarini rad etadi. Chunki yozuvchining fikricha, shaxsning erkinligi faqat yaxshilik manbai bo‘lmay, yomonlik manbai hamdir. Yomonlik esa kishilarning normal holati emas. Cheksiz erkinlik yoki vujudga kelgan munosabatlarga qarshi individualistik isyon zulmga olib keladi, shaxsni ma’naviy halokatga yetaklaydi. Inson xokisorlik, sabr-bardosh orqaligina ruhiy uyg‘unlikka erisha oladi.

Xullas, adibning sof dramatik janrga xos keskinlik va liro-publitsistik pafosi bilan ajralib turuvchi intellektual romanlarida fikrlarning keskin kurashi, g‘oya va dunyoqarashlarning fojiaviy to‘qnashuvi mahorat bilan tasvirlangan.

Romanning tabiatini mavzu dolzarbligi, tasvir yo‘siniga xos sarguzashtlilik, voqe-hodisalar qamrovi, hatto til badiyati ham to‘la belgilay olmaydi. Umuman badiiy ijod, xususan roman tabiatida qat’iy va turg‘un belgilar emas, balki muallifning qahramonni tushunish va aks ettirishdagi qarashlar tizimi mohiyati – individual konsepsiyasi muhim omil vazifasini o‘taydi. Chunki konkret roman ortiqcha tafsilotlardan tiyilish, alohida inson shaxsining nechog‘lik teran tadqiq va tahlil etilganligi bilan qimmat kasb etadi.

Nemis faylasufi, irratsionalizm namoyondasi, *“hayot falsafasi”* ning asoschilaridan biri Fridrix Nisshe (1844 – 1900) falsafasida *“hayot”* tushunchasi markaziy o‘rin egallaydi. Nisshe uni faqat intuitiv yo‘l bilan bilish mumkin bo‘lgan reallik deb izohlaydi va mohiyatan irratsional mazmunga ega bo‘lgan hayotiy reallikni bilishning obrazli-simvolik usullarini ilmiy bilishga qarama-qarshi qo‘yadi. Boshqacharoq aytganda, san’at asarlarini hayotni to‘g‘ri in’ikos ettirish va ifodalash vositasi deb bilgan Nisshe falsafasida bilishning aqliy *(ratsional)* usullari o‘rnini estetik intuitsiya va olamni badiiy-estetik o‘zlashtirish usullari egallaydi. Uning ta’kidlashicha, san’at asarlari ma’naviy madaniyatning muhim unsuri sifatida insoniyat taraqqiyoti ilk davrlarida fanga nisbatan birinchi darajali rol o‘ynagan. Faylasuf barcha hayotiy jarayonlarni, jumladan inson aqlini ham turli tizim va jamiyatlarni yaratishdan nariga o‘ta olmasligi, nisbiy haqiqat sanalmish g‘oyalar ifodasi sifatida tasvirlashga urinadi. Chunki u Charlz Darvinning yashash uchun kurash qonuni hamda Artur Shopengauerning olam mohiyatini olamda hukm suruvchi insoniy iroda bilan bog‘lab tushuntiruvchi falsafiy qarashlaridan kuchli ta’sirlangan.

Nisshe olam va odam haqidagi nodir falsafa namoyondalaridan biri sifatida fikrlash kengligini katta miqyoslarga ko‘targan. U odam bolasini maxluqlikdan qutqarib xoliqlikka ya’ni jaydari odamdan yuqoriroq daraja – barkamol *(“sverxchelovek”– “a’lo odam”)* likka ko‘tarishni maqsad qilgan. Ozodlikni, axloqiylik va g‘ayriaxloqiylikni Yevropa falsafasi miqyosida hamma narsani yengib o‘tuvchi va tengsiz uyg‘unlik topuvchi *“buyuk sog‘lomlik”* sifatida tushuntirgan.

Nisshe falsafasining alohida inson fitratiga xos kurashchanlik, ezgulik sari intiluvchanlik, bedorlik, matonat, olamga tiyran nigoh bilan boqish, olomondan boshqacharoq anglash, qalb va diyonatli ruh ozodligi, sezimlar ingichkalashuvi, o‘zlikni topmoq, poklanmoq singari ko‘plab ijobiy jihatlari mavjud. Unda toza hamda sarin havolarga intilish, hur makon – ichki olam xilvatgohi shiddatining ulug‘ suroni, tor ko‘ngillik qavmning masxarabozliklaridan uzoqlashmoq hikmati, didlar turfalashuvi va ruhiy osudalikning muattar iforlari kabi tuyg‘ular mas’umligi bor. Odamni o‘zidan o‘zdirishga, fikran va qalban o‘z-o‘ziga qozilik qilishga da’vat,*“a’lo odam”* tavalludiga umidvorlik, maqsad yo‘lida tuproqqa aylanish ya’ni ona huzurida sokin bo‘lmoq ilinji mujassam.

Nisshe oyog‘i yerdan uzilmagan insonni ulug‘laydi. Vorislikdan emas, balki necha ming yilliklardan beri idrok yetmagan inson va zamin so‘qmoqlaridan yurishdan qanoat tuyar ekan, hayvonlik sifatlaridan voz kechgan *“a’lo odam”* irodasi haqidagi mo‘ljallarini bayon etib: *“Barcha*

*xudolar o‘ldilar, endi biz faqat a’lo odam yashashini istaymiz” [*Fridrix Nisshe. 46*]* deydi va bu yo‘lni har bir kimsa alohida – alohida holda bosib o‘tish orqali o‘zini topishini istaydi. Darhaqiqat, Nisshe *“Odamlar teng emas. Ular teng bo‘lolmasliklari ham kerak” [*Fridrix Nisshe. 15*]*,-degan tezisga asoslanar ekan, ruhning darajalari bo‘lishi, ulug‘vor ruh odamlari ko‘payishi lozimligini nazarda tutadi.

Isyonkor ong vakili o‘laroq borliqning asosiga Yaratuvchini emas, balki har narsaning o‘lchovi va qimmati bo‘lmish *“men”*ligini qo‘yadi. *“Men Yevropaning Buddasiman!”*, - degan Nisshe *“shakkok”*ligida insoniy erk, ezgulik va xoloskor iroda, barcha razolatlar ustidan mag‘rurona kulgi bo‘lsa-da, uni mashhur shayx Mansuri Hallojning *“Analhaq !”* lik da’vosi bilan tenglashtirish mumkin emas.

Mansuri Halloj irfoniy ma’rifat sohibi, Yaratganning vasliga yetgan solih banda. Hol hamda vajd paytida haq jamolini ko‘rgandek bo‘lib o‘zini unutgan Mansuri Halloj ana shu holatdagi sirni fosh etgan, o‘zidagi ruhoniy qudratni qalbiga sig‘dira olmay faryod chekkandi. Bu o‘rinda yaralganlarda yaratuvchining in’ikos etishi – narsalar mutlaq moyaning zarrachalaridir ,-degan panteistik ta’limot amal qiladi. Demak, rabboniy olim ikki olam sarvariga itoatda. Uning fikrlari negizini islomiy ma’rifat, farz va sunnatlarni sobitlik bilan bajarish, bu yo‘lda jonfidolik ko‘rsatish tashkil etadi. Nisshe esa insoniyat nizomi va ehtiyojiga xizmat qiladigan zaminiy ezguliknigina sevadi. U ongning isyonkorligiga xos orzu va ishonchga asoslangan tangriyonalikni keskin inkor etadi. Bu o‘rinda ayrim umumiy jihatlar bilan bir qatorda qalb va hol yo‘nalishidagina emas, fikr-qarashlarda, nuqtai nazarlarda ham ziddiyat mavjud.

Bugungi o‘zbek romanlarining “Ishq ahli” (O.Muxtor), “Fano dashtidagi qush”, “Pahlvon Muhammad” (A.Dilmurod), “Tangri qudug‘i” (E.Samandar), “Yassaviyning so‘ngi safari” (S.Siyoev), “Muvozanat”, “Isyon va itoat”, “Sabo va Samandar” (U.Hamdam) kabi namunalirini kuzatishning o‘ziyoq Fridrix Nisshe estetikasini tadbiq qilish orqali milliy roman badiiy matni mohiyatiga to‘la yetib bo‘lmasligini ko‘rsatadi. G‘arbona ong va iroda erkinligi bilan mohiyatan sharqona e’tiqodiy asoslarga tayanuvchi, ba’zan mistik xarakter kasb etuvchi adabiy hodisalarni mukammal tarzda anglash va anglatish mumkin emas. Bu o‘rinda Sharqu G‘arb falsafiy-estetik qarashlarining konkret badiiy matn poetikasiga muvofiq keladigan usul va vositalaridan samarali foydalanish ijobiy natijalar beradi.

Demak, badiiy ijod tamoyillariga xos xususiyatlar iste’moldagi manbalarning barchasiga tayangan holda, vorisiylik asosida tadqiq

etilmog‘i lozim. Chunki estetik qadriyatlar, xususan badiiy adabiyot odam va qismat, shaxs va uning taqdirbitigi o‘rtasidagi munosabatni milliy ma’naviyat asosida ifoda etgani uchun ham birinchi navbatda milliydir. Aynan shu jihati bilan u jahon adabiyotining tabiiy bir bo‘lagi bo‘la oladi. Bugungi o‘zbek romani esa o‘z-o‘ziga qismat tayin etmoqchi bo‘lib, pirovardida qanoatga keluvchi insonni badiiy ifodalayotgani, adabiyotshunosligimiz bo‘lsa uning zamiridagi adabiy-estetik ma’noni topishga intilishi bilan tamomila milliydir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tara V., Ellinisticheskaya sivilizatsiya. Per.s angl., –M., 1949.
2. Ranovich A.B. Ellinizm i yego istoricheskaya rol., M – L., 1950.
3. Baxtin M. Problemы poetiki Dostoevskogo. Izdanie chetvertoe. – Moskva, 1979.
4. Matyokubova T. The poetic charm of Gafur Gulam’s poetry (on the example of an analysis of the poet’s poems “Observation” and “Health”) // Uzbekistan: language and culture. 2024. – № 2. – P. 88-98
5. Matyokubova, T., & Yakubov, I. (2020) Laboratory works of Gafur Gulam: poetic image and imagery. Journal of critical reviews. No. 7, pp. 28-37.
6. Fridrix Nisshe. Zardo‘sht tavallosi. Ibrohim G‘afurov tarjimasi. // Jahon adabiyoti, 2004. – № 1. – B. 46.
7. Yakubov I. (2024) The image of the transformations in the character’s soul in Erkin A’zam’s film “Zabarjad” // Uzbekistan: yazyk i kultura. № 2. – P. 66-77
8. Yakubova S.I. (2022) The image of poetic images related to landscape in modern poetry // Uzbekistan: language and culture. – Tashkent. № 3. – P. 42-54.
9. Yakubova S.I. (2023) Symbols in Jadid poetry: semiotic and hermeneutic interpretation // Uzbekistan: language and culture. – Tashkent. No. 3. – P. 79-90.
10. Yakubov Islamjon. (2017) Transformation of aesthetic views and modern uzbek novel. Theoretical & Applied Science. 2017. No.12. 120-125

G‘.G‘ULOM POETIK MEROSIDA GUMANISTIK PAFOS

Tozagul Matyoqubova,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universitetidotsenti,
E-mail: tozagulmatyakubova71@gmail.com
Tel:99 8284171

Annotatsiya: Ushbu maqolada G‘.G‘ulom she’riyatidagi shoirona g‘urur va iftixor tuyg‘ularining badiiy ifodasi o‘rganilgan. Unda shoir lirikasidagi vatanimizning ko‘rki-jamoli, betakror tabiati, tabiiy boyliklari aks ettirilgan she’rlari tahlil etilgan. Bu esa bizga G‘.G‘ulom she’riy merosida Vatanimiz tarixi, buguni va kelajagi bir-biri bilan bog‘liq holda tasvirlanganini anglash imkonini beradi.

G‘.G‘ulom she’riyatida milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ulari vatanparvarlik g‘oyalari bilan bilan bog.liqlkda ifoda etiladi. Uning o‘zbekona g‘urur va iftixor tuyg‘ulari mujassamlashgan she’rlarining bir qismi tabiat tasviri bilan bog‘liqdir. Shoir tabiatning so‘lim va betakror manzaralarini, vatanimizning ko‘rki-jamoli va fusunkorligini ko‘rganida qalbi cheksiz sevinchga to‘ladi va bu kechinmalarini she’rlarida mahorat bilan tasvirlaydi. Shoirning «Assalom», “*G‘oliblar*”, “*Ona”,* «*Sharaf qo‘lyozmasi*», «*Barii seniki*», «*O‘zbekiston*» singari bir qator she’rlari tahlili misolida ilgari surilgan fikr-mulohazalar tasdiqlandi. Ushbu she’rlar nafaqat g‘oyaviy yo‘nalishi balki yuksak badiiyati bilan ham alohida e’tiborga molikdir.

Maqoladagi fikr-mulohazalar muxtasar tarzda xulosalangan.

Kalit so‘zlar: she’riyat, badiiy ijod, vatanparvarlik, badiiylik, milliy g‘urur, lirik qahramon, bayt, she’r, tuyg‘u va kechinma.

Abstract: In this article, the artistic expression of poetic pride and pride in G. Gulam's poetry is studied. In it, the poems of the poet's lyrics depicting the beautiful, unique nature and natural resources of our homeland are analyzed. This allows us to understand that the history, present and future of our country are depicted in the poetic heritage of G. Gulam.

In Gulam's poetry, feelings of national pride and pride are expressed in connection with patriotic ideas. Some of his poems embodying the feelings of Uzbek pride and pride are related to the image of nature. When the poet sees the serene and unique landscapes of nature, the beauty and charm of our country, his heart is filled with infinite joy and he skillfully describes these experiences in his poems. The opinions put forward by the

example of the analysis of a number of poems of the poet, such as «Assalom», "*G'oliblar*", "*Ona",* «*Sharaf qo'lyozmasi*», «*Barii seniki*», «*O'zbekiston*» were confirmed. These poems are noteworthy not only for their ideological direction, but also for their high artistic quality.

Opinions in the article are summarized in a concise way.

Key words: poetry, artistic creativity, patriotism, artistry, national pride, lyrical hero, verse, poem, feeling and experience.

XX asr o'zbek adabiyotining yetuk namoyandalaridan biri akademik G'afur G'ulomdir. Uning bir qator she'r, hikoya, qissa va tarjima asarlari yuksak badiiyat namunasi sifatida bugungi kunda ham katta ahamiyatga egadir. G'afur G'ulom she'riyati falsafiy mazmundorligi, tabiat, jamiyat va inson bilan bog'liq muammolarning badiiy ifodasi, nozik tuyg'u-kechinmalar bisyorligi bilan ajralib turadi.

G'afur G'ulom asarlarida o'zbekona g'urur va iftixor tuyg'ulari ifodasiga alohida e'tibor berilgan: *«Men sharq shoiriman. Shuning uchun Sharq klassiklarining hammasi mening hesh-aqrabolarim, desam ajablanarli bo'lmas... Meni ularning merosi va an'analari tarbiyalagan. Hali beshikda yotar ekanman onam Hofiz, Jomiy, Navoiy va Fuzuliy g'azallaridan xonish qilib, meni allalardi. Tabiiyki, ularning asarlari ona suti bilan qonimga singib, jismu ruhimga sayqal berardi"(12. 298,* - deydi shoir. Uning bitganlarida sharqona tafakkur tarzi, ifoda yo'sinlari, so'z qo'llash madaniyati mustahkam o'rin olgan va bu shoir uchun cheksiz iftixordir.

G'afur G'ulom ba'zi she'rlarida "*Va'daga vafoli, axloqda mumtoz, do'stparvar, o'z so'zli, yoriga sodiq"* o'zbek xalqidan faxrlanishini ifoda etadi. Bunday o'rinlarda shoir o'zbek tabiatiga xos fazilatlarni badiiy ifodalash bilan birgalikda vatanparvarlik, mehnatsevarlik xalqimiz qoniga "*sut bilan kirgan"*ligiga alohida urg'u beradi.

G'afur G'ulom o'z xalqining o'tmishi, buguni va kelajagi haqida so'z yuritar ekan, unga bo'lgan cheksiz muhabbatu hurmatini g'afurona ehtirom tuyg'ulari bilan ifodalaydi. U she'rlarining birida:

Men o'zbek shoiriman -
O'z xalqimning tiliman

deb yozadi *(11. 161).* O'zbek shoiri ekanidan iftixor etgan ijodkor o'zini va so'zini shu xalqning ko'ngil talpinishlari nidosi, deb biladi. Millat nomini baland ko'tarar ekan, g'urur va iftixorini yuksak patetika bilan samimiy ifoda etadi. Bu o'rinda "*o'zbek shoiri*" obrazi lirik "*men*"ning

g‘urur va iftixorini, ko‘ngil kechinmalarini, xalqiga va ijodiga bo‘lgan samimiy munosabatini yoritishga xizmat qilgan.

Shoirning «Assalom» she’rida bu mazmun yanada salmoqliroq va kengroq aks etganligini kuzatamiz:

Men sharqli shoirman, ilhomim ufqi
Quril orolidan Afrikagacha.
Fallohlar, kulilar jahon orzusin
Ifodasi bordir she’rimda ancha. (10. 117)

She’rdagi “*sharqli shoir”, “ilhom” va “she’r*” obrazlari asosiy g‘oyani ifodalashga yordam bergan. Lirik qahramon «*ilhomi ufqi»*ning «*Kuril orolidan Afrikagacha*» qamrashini o‘qiganda shoir taxayyul olami sarhadlarining kengliklarini kuzatish mumkin. She’rda fallohlar, kulilar *«jahon orzusi»*ning ifodasi borligi, dunyoning bu chekkasida turib, narigi burchagidagi xalqlar tashvishi, orzu-niyatlari, intilishlariga hamdardlikning aks ettirilishi sharqona bag‘rikenglik, g‘afurona insonparvarlik belgilaridir.

Mazkur bandga adabiy-estetik mazmun ham yuklatilgan bo‘lib, shoir badiiy adabiyotda hamisha umumjahoniy muammolar ifodalanishi, insoniyatning o‘y-xayollari, orzu-umidlari, dard-kechikmalari poetik idrok etilishi lozimligi haqidagi estetik konsepsiyasini ilgari suradi.

Ma’lumki, sho‘ro mafkurasi davrida adabiyot, albatta, ayrim sinf, guruh, tabaqalar manfaatini ko‘zlashi kerak, degan qarash hukmron edi. Yuqoridagi kuzatishlar chinakam iste’dod egalari qatori G‘. G‘ulom ham asl adabiyotning ma’no-mohiyatini teran tushungan holda, umumbashariy muammolarni kuylashga imkon topganini, insoniyat orzu-armonlarini ifodalashga harakat qilganliklarini ko‘rsatadi.

G‘afur G‘ulomning bir qator she’rlari borki, ularda lirik qahramonning milliy g‘ururini koinot qadar yuksakliklarga ko‘tarish, millat tabiatiga xos mehnatsevarlik, vatanparvarlik, so‘zda sobitlik, dushmanga nafrat, vafo, sadoqat tuyg‘ulari ulug‘lanadi. Shoir milliy g‘urur, inson ekanligidan iftixor tuyg‘ularidan ko‘ksi baland kitobxon ruhiyatiga ta’sir etishni ko‘zlaydi. “*G‘oliblar*” she’rida shoirona iftixor tuyg‘ulari shunday tasvirlanadi:

<u>Bizning</u> yantoqlardan halvo pishganday,
<u>Bizning</u> qamishlardan shakar to‘kilur.
<u>Bizning</u> tariqlardan bir to‘ygan chumchuq
Jahonlar aylanib yiroqdan kelur. (10. 53)

Keltirilgan misralarda «*bizning»* so‘zi anafora bo‘lib, milliy iftixor va vatanparvarlik tuyg‘usining mohirona ifodalanishini ta’minlagan. Bu misralar o‘z mohiyatiga ko‘ra Maqsud Shayxzodaning “*Toshkentnoma”*

dostonidagi “*Deydilar: Toshkentda suv ichgan chumchuq Qaytib kelar ekan Makatullodan*” (6.249) satrlariga xamohangdir.

Shoir o‘zining o‘zbek o‘g‘loni ekanligi bilan faxrlanar ekan, bu tuyg‘uni o‘zbek xalqi hayotida muhim o‘rin tutgan kundalik hayot voqealarini she’rga solib, bitganlaridagi har bir detalning xalqona bo‘lishini ta’minlab asarlari milliy koloritini oshiradi. Uning “*Ona”* she’ri 1953 yilda yozilgan. She’rda millat onasining zohiriy va botiniy go‘zalligi ifoda etilgan. Unda lirik qahramonning dunyoni tanishida, o‘zligini anglashida cheksiz sabru qanoat, matonat ko‘rsatadigan onaga bo‘lgan samimiy tuyg‘ulari aks etadi. Onaning rang-barang sifatlari minglab qomusdan baland turadigan kitob ekanligi ifodalanadi. She’rdagi xilma-xil obrazli ifodalar, mubolag‘ali tasvirlar onaning sifatlarini ko‘rsatish, lirik qahramon ruhiy tug‘yonlarini yoritishga yo‘naltirilgan.

Shoir qo‘llagan tashbehlar o‘zining betakrorligi bilan diqqatga molikdir. “*Tanglayim ko‘targan bibim bechora*”, *“Birinchi tamshangan ona sut qadrin*”, “*Mingga kirib o‘lsam ham Quloqda quyma allang*” kabi o‘rinlarda o‘zbekona odat va turmush tarzi bilan bog‘liq o‘ziga xosliklar nozik ilg‘angan hamda koloritli aks ettirilgan. O‘zbek millatigagina xos bo‘lgan jihatlar tasviri vositasida onaga ehtirom tuyg‘ulari ta’sirchan ifodalangan.

O‘zbekona g‘urur va iftixor tuyg‘ulari G‘afur G‘ulomning “*Birinchi she’r*” she’rida shunday ifodalanadi:

Yurt salomat, xalq farovon,
Oila tinch, bor huquq,
Odamzodga xos g‘urur.
O‘zbekmen, deb kekkayganda,
Keng peshonang yop-yorug‘. (10. 95)

She’r yangi 1946 yilga atab yozilgan. Unda shoir dilga murojaat qilib, o‘tgan yilni sarhisob qiladi. Ijod va mehnatga to‘la eski yil muvaffaqiyatlarini esga oladi. Unda yangi turmush va partiyani ulug‘lashga oid misralar uchrasada, she’r shoirona g‘urur tuyg‘usini mahorat bilan aks ettirgani uchun ham e’tiborga molikdir. Shoir lirik qahramoni uchun tug‘ilib o‘sgan yerning har bir giyohi muqaddas. Uning nazarida, yurt salomat, xalq farovon bo‘lsagina tinchlik va xotirjamlik bo‘ladi. Ana shundagina kishi yorug‘ yuz bilan o‘zbekligidan g‘ururlanishi mumkin.

Milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ulari «*Sharaf qo‘lyozmasi*» she’rida yuksak pafoslarda kuylangan. Shoir lirik qahramoni xalqimizning tarixi, o‘tmishi va bugunini kuzatib, uning kelajagiga umid bilan boqadi. Unda

o‘zbek xalqi uzoq tarixga ega bo‘lgan, ijodkor, mehnatkash dehqon inson sifatida namoyon bo‘ladi. Shoir qo‘llagan har bir obraz, tasviriy vosita xalqimizga xos jihatlarni yoritishga qaratilgan:

Qadim o‘zbek xalqisan,
Asl odam avlodi.
Misr ehromlaridan
Tarixing qariroqdir. (10. 63)

O‘zbek xalqining qadimiyligiga urg‘u bergan shoir unga «a*sl odam avlodi*» deb baho berishi bejiz emas. Bu bilan shoir ham millatimiz o‘z ibtidosini Odam otadan olganligini ta’kidlaydi, ham insonga xos ezgu xislatlar o‘zbek xalqining qon-qoniga singib ketganligini aytadi.

Shoir she’rlarida xalqimiz qanchalik og‘ir kunlarni boshidan kechirmasin, uning ruhi tetik, kelajakka umidvor ekani shunday tasvirlanadi:

Ne-ne jafo kunlari
Katta yorug‘ yo‘l sari
Xulkar yulduzi kabi
Yetakladi mehnating

Kelajakka umidvorlik bilan yashayotgan xalqni oldinga intilishida, mutelikka, zo‘ravonlikka chidashida halol manglay terigina unga madad berdi. Mehnatkashlik xalqning oldinga harakat qilishi, ezgu intilishlarida yo‘lini Hulkar yulduzidek yoritib turdi.

She’rning ayrim o‘rinlarida «*ulug‘ rus xalqi*» bilan og‘a-inilik, partiyaga berilgan va’dalar eslatib o‘tilsa ham, ular she’rning umumiy qimmatiga unchalik soya solmaydi. Bu usul shoirning ko‘pgina she’rlarida bo‘lgani kabi o‘sha sharoitda asosiy muddaoni aytishning bir yo‘li edi, xolos. Shoir she’rda o‘z xalqiga bo‘lgan yuksak extiromi va muhabbatini san’atkorlik bilan ifodalay olgan.

Adabiyot tarixida vatan, uning ko‘rku jamoli haqida she’r yozmagan shoirni uchratish qiyin. Bunday she’rlarda O‘zbekistonning go‘zal tabiati, bog‘i, chamani, o‘zbek xalqining turmush tarzi, fe’l-atvori, o‘y-xayollari, orzu-armonlari kuylangan. Shoirlar vatanparvarlik tuyg‘ulari bilan bir qatorda o‘zi ham shu yurtning farzandi ekanligidan cheksiz iftixor sezganlar. G‘afur G‘ulomning vatan haqidagi she’rlarida bu tuyg‘ular oshkora ifodalangan bo‘lsa, boshqa mavzularga bag‘ishlangan she’rlari mohiyatiga ana shunday tuyg‘ular singdirib yuborilgan.

Shoir «*O‘zbekiston*» she’rida vatanining ko‘rkamligi, bog‘u bo‘stoni, shaharlari, san’ati haqida so‘z yuritadi. She’rda o‘tmish biroz qoralanib,

yangi hayot ulug‘langan o‘rinlar uchrasada, xalqimiz «*zahmatkash, do‘stparvar, jangovor, hushyor*», «*ahdida vafoli, quvnoq*» deb ta’riflanadi.

Andijon, Namangan, Qo‘qon, Marg‘ilon,
Xalqimiz chamani, bog‘i bo‘stoni.
Tarixin yozmoqqa kichiklik qilur
Shoir Firdavsiyning katta dostoni. (11. 120)

Gul vodiyning maftunkor bog‘u bo‘stoni, chamani go‘zallikda beqiyos. Bularning tarixini yozmoqqa Firdavsiyning dostoni ham kamlik qiladi. Vatan gulbog‘laridan fayz olgan, uning go‘zalligidan to‘lqinlangan shoir qalbida cheksiz iftixor mujassam. Ba’zi she’rlarida shoir o‘zbekona ifoda va usullar, shu o‘lkaga xos bo‘lgan jihatlar tasvirini o‘zining o‘zbekligi, she’rning O‘zbekistonda yozilganligi bilan bog‘lab talqin etadi: “*Bu she’rim yozildi O‘zbekistonda, Shuning-chun ko‘p so‘zim shu o‘lkaga xos*”. (11. 215)

Shoirning «*Barii seniki*» she’rida lirik «*men*»ning vatanga mehri, muhabbati o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. U o‘z taqdiri va qismatini vatan taqdiri bilan mushtarak holda anglaydi. «*Muncha ham chiroyliksan, aziz Vatanim, Bodomday ming ko‘z bilan sevar badanim*», - degan lirik qahramon joni, yurak qoni, tanini bir butun holda unga baxsh etishga tayyor. Har qadamda loladan poyondoz bo‘lgan vatanda shabadaning ohangiga butun gulshan raqsga tushadi. Gul, sunbulga to‘la chaman, baland-baland tog‘lar, oltin tuproqlarda ungan paxtazor shoirda she’r to‘qishga ishtiyoq uyg‘otadi. U shoirona viqor bilan «*Archalar baxt boshiga tashlaydi soya*», - deydi. Bunday tasvirlar betakrorligi, o‘ziga xosligi bilan e’tiborga molikdir.

G‘afur G‘ulomning tabiat tasviriga bag‘ishlangan she’rlarida lirik qahramon tevarak-atrof go‘zalligiga boqib, qalbida cheksiz iftixor tuyg‘ularini tuyadi. Fikrlarimiz tasdig‘i uchun «*Bog‘*» she’rini misol keltirishimiz mumkin. She’r «*Bir vatanning o‘g‘limenkim, har taraf gul, lola, bog‘, Qalb ko‘ziday eng qorong‘i kechada porlar charog‘...*», «*Suv desang sharbat oqar, iqlim desang qaymog‘u yog‘, O‘z-o‘zini maqtaganda, maqtamay qolg‘aymi men?*» satrlari bilan boshlanadi. Bunda har taraf gul, lola, bog‘ bilan qoplangan vatanning o‘g‘li ekanligidan cheksiz faxr tuygan lirik «*men*»ning qalb kechinmalari ayon bo‘ladi. Bu diyorda suv o‘rnida sharbat oqadi, iqlimi esa qaymoq va yog‘dek yoqimli. Bunday vatanni maqtamaslikning iloji yo‘q.

G‘afur G‘ulomning o‘zbekona g‘urur va iftixor mujassamlashgan she’rlarining bir qismi tabiat tasviri bilan bog‘liqdir. Shoir tabiatning so‘lim va betakror manzaralarini, vatanimizning ko‘rki-jamolini, unga

fusunkorlik bag‘ishlab turgan dala-dashtlar, adir-qirlar, bog‘-irmoqlar go‘zalligini ko‘rganda qalbi cheksiz sevinchga to‘ladi va bu kechinmalarini she’rlarida butun jilvasi bilan betakror tarzda yoritadi.

Demak, G‘.G‘ulom o‘z fikr-tuyg‘ularini kitobxonga milliy, umuminsoniy va umumbashariy ranglarda “yuqtirish”ga intilgan. Shu qobiliyat tufayli “yo‘lini topib” aytilgan konseptual ahamiyatga molik bo‘lgan dil izhorlari, poetik jilolantirilgan jonli obrazlar birinchidan millatni, ikkinchidan jahon erksevar xalqini ezgulik yo‘lida birlashtirish, odamiylik yo‘sinida hamfikr qilishga xizmat qildi. G‘.G‘ulom poetik merosining kuchi va salmog‘i ham o‘sha gumanistik pafos bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Matyakubova T.R. Poetic character and its specific features // Theoretical &Applied Science. – Marseille, 2015.pp. 40-43
2. Matyokubova T. R. Philosophical-Aesthetic Conception: Community And Individuality. Texas Journal of Medical Science. 2024. Vol 29. Pp. 120-122
3. Matyoqubova T. G‘afur G‘ulom badiiyati. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2006
4. Nazarov B. G‘afur G‘ulom olami. – Toshkent: Fan, 2004.
5. Oybek. Mukammal asarlar to‘plami. 14-tom, – Toshkent: Fan, 1979.
6. Shayxzoda Maqsud. Dunyo boqiy. She’rlar. Dostonlar. Drama. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1988. .
7. G‘afur G‘ulom - o‘zbek adabiyotining bayroqdori. – Samarqand: Universitet, 2003.
8. G‘afur G‘ulom - shoir, yozuvchi va olim. – Farg‘ona, 2003
9. G‘afur G‘ulom. Mukammal asarlar to‘plami. 12 tomlik. T.1. – Toshkent: Fan, 1983
10. G‘afur G‘ulom. Mukammal asarlar to‘plami. 12 tomlik. T.2. – Toshkent: Fan, 1984
11. G‘afur G‘ulom. Mukammal asarlar to‘plami. 12 tomlik. T.3. – Toshkent: Fan, 1984
12. G‘afur G‘ulom. Mukammal asarlar to‘plami. 12 tomlik. T.11. – Toshkent: Fan, 1989
13. O‘zbek filologiyasining dolzarb muammolari. – Andijon, 2003
14. Transformation ofaesthetic views and modern uzbek novel. Theoretical & Applied Science. 2017. №12. 120-125

15. Islomjon Yakubov Transformation ofaesthetic views and modern uzbek novel. Theoretical & Applied Science. 2017. №12. 120-125

16. Yakubov I/ Socio-Genetic Factors Of Changes In The Character Of The Main Character. Texas Journal of Medical Science. 2024. Vol 29. Pp. 123-125

HAMZA LIRIK QAHRAMONI TASVIRI

SEVINCHOY YOQUBOVA,
Toshkent amaliy fanlar universiteti katta o‘qituvchisi,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
E-pochta: *sevinchoy.yakubova@mail.ru*

Annotatsiya: Ushbu maqolada taniqli o‘zbek shoiri Hamzaning “Milliy ashulalar uchun milliy she’rlar” majmuasiga kirgan she’rlari o‘rganiladi. Shoir she’riyatida ma’rifatparvarlik g‘oyalarining ifodasi kuzatilib, uning jadid she’riyatiga qo‘shgan hissasi yoritiladi. Shuningdek, maqolada Hamza she’rlaridagi millatparvarlik, erk, hurlik g‘oyalari tahlil etilib, muayyan xulosalar ifodalanadi.

Hamza jadid adabiyotining yirik narmoyondalaridan biri bo’lib, uning she’riyatida bu yaqqol namoyon bo’ladi. Shoirning “Yig‘la, Turkiston”, “Ko‘zni oching, qardoshlar”, “Darmon istariz”, “Millat deganlarning oqar ko‘z yoshi”, “Yaxshi holin yo‘qotgan oqibatsiz Turkiston”, “Yashanglar, yashaylik, Turon” singari o‘nlab she’rlari fikrimizni tasdiqlaydi. Ushbu she’rlarda milliy uyg‘onish g‘oyalari aks etgan bo’lib, musiqiyligi, obraz va ramzlarga boyligi bilan ajralib turadi.

Hamza Hakimzoda Niyoziy millat ongi, tafakkuri, odam va olamga bo‘lgan munosabatini yangilash tarafdori bo‘lmish ma’rifatparvar ziyolilar va jadidlar safida yedi. Uning ye’tiqodi adabiy-yestetik qarashlari, xususan she’riyatida ham yorqin namoyon bo‘ladi.

Shoirning lirik qahramoni o‘z davrining farzandi sifatida razolat, jaholatga qarshi kurashib, jamiyatni adolatli, undagi insonlarni esa ma’rifatli bo‘lishlarini orzu qiladi. Shuning uchun u ilmu urfon tarqatishga butun hayotini bahsh etadi. Ko‘rinadiki, shoirning she’rlarida xalqning milliy va ijtimoiy ongini uyg‘otish, ularni birlashtirish g‘oyalari ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: Jadid, ma’rifatparvarlik, obrazli ifoda, majmua, ramz, kuy, ashula, xalqona ohang, lirik qahramon.

Annotation: The article examines the poems of the famous Uzbek poet Khamza, included in the collection "Folk poems on folk songs". The poet's poetry expresses the ideas of the Enlightenment, his contribution to modern poetry is emphasized. The article also analyzes the ideas of nationalism, freedom and freedom in Hamza's poems and draws certain conclusions.

Hamza is one of the great authors of modern literature, and this is evident in his poetry. Poet's ("Cry, Turkestan", "Open your eyes, brothers", "We want medicine", "The flowing tears of those who call the nation", "Turken, the lost Turkestan without consequence", "Live, let's live, Turan") Shoirning "Yig‘la, Turkiston", "Ko‘zni oching, qardoshlar", "Darmon istariz", "Millat deganlarning oqar ko‘z yoshi", "Yaxshi holin yo‘qotgan oqibatsiz Turkiston", "Yashanglar, yashaylik, Turon" Dozens of poems confirm our opinion. These poems reflect the ideas of national renaissance and are distinguished by their musicality, richness of images and symbols.

Hamza Hakimzada Niazi joined the ranks of enlightened intellectuals and modernists who supported the renewal of the nation's consciousness, thinking, and attitude towards people and the world. His faith is clearly reflected in his literary and aesthetic views, especially in his poetry.

The lyrical hero of the poet, as a child of his time, fights against arrogance and ignorance, dreams of a just society and enlightened people. Therefore, he devoted his whole life to spreading knowledge. It seems that the ideas of awakening the national and social consciousness of the people and unifying them were put forward in the poems of the poet.

Keywords: Jadid, enlightenment, figurative expression, complex, symbol, melody, song, folk melody, lyric hero.

Iste’dodli o‘zbek shoiri, yozuvchisi, dramaturgi va pedagogi Hamza Hakimzoda Niyoziy [1889 - 1929] o‘zining ko‘plab asarlari bilan o‘zbek adabiyoti taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shgan.

XX asr boshlarida yashab faoliyat yuritgan ko‘pgina ijodkorlarimiz singari Hamzaning adabiy va ijtimoiy faoliyati ham jadidchilik harakati bilan uzviy bog‘lagan. Hamza xalqni ma’rifatli qilish maqsadida Qo‘qon va Marg‘ilonda yangi usuldagi maktablar ochadi va bu maktablar uchun darsliklar yaratadi. Uning «Yengil adabiyot», «O‘qish kitobi» va «Qiroat kitobi» singari darsliklari bu jihatdan xarakterlidir.

Hamzaning katta yoshdagilar uchun “Milliy ashulalar uchun milliy she’rlar” majmuasi [1915 - 1917] jadid adabiyoti taraqqiyotida muhim

o‘rin tutadi. Ushbu majmua “Oq gul”, “Qizil gul”, “Yashil gul”, “Sariq gul”, “Pushti gul”, “Safsar gul”, “Atir gul” kabi she’riy kitoblardan tarkib topgan [6]. Ular o‘z davridayoq “adabiyotdagi yangilik”, “eski qayg‘uli kuylarni jonlantirish” uchun yangi yo‘llar qidirish tarzida baholandi [7. 21 b.].

Hamzaning ashulalar to‘plamlaridagi she’rlari aruz va barmoq vaznlarida yozilgan bo‘lib, ular xalq ashulalari kuylariga mosligi bilan ajralib turadi. Bu manzumalarda Hamza yashagan davrining muhim ijtimoiy-ma’rifiy, axloqiy-ta’limiy masalalari o‘z ifodasini topgan. Mavzu nuqtai nazaridan mazkur asarlar xalq dardi va intilishlarini aks ettiradi, ilm-ma’rifatni ulug‘laydi, xurofotni tanqid qiladi.

Jadid adabiyotining yetuk tadqiqotchisi filologiya fanlari doktori N.Afoqova Hamzaning “Milliy ashulalar uchun milliy she’rlar” majmuasiga kirgan she’rlar aruz va barmoq vaznida yaratilgan she’rlar o‘rin olganini ta’kidlab shunday deydi: “Hamzaning barmoq vaznidagi she’rlari ohangning ravonligi, silliqligi, saktaliklarning deyarli uchramasligi bilan xarakterlanadi” [Afoqova N. 16].

Hamzaning lirik qahramoni davr va zamon farzandi o‘laroq, razolat o‘rnini adolat, jaholat o‘rnini ma’rifat egallashini istaydi. Shuning uchun u kuch-quvvatini xalqqa ilmu urfon tarqatishdek xayrli ishga safarbar etadi. Demak, mazkur she’rlarda xalqimiz katta yoshdagi qatlamining milliy va ijtimoiy ongini uyg‘otish, ularni e’tiqod birligi negizida birlashtirish g‘oyasi ustuvorlik qiladi.

Ashula to‘plamlari muallifning 1914-1915 yillarda yaratgan “Yengil adabiyot”, “Boshlang‘ich maktablar uchun o‘qish kitobi” kabi dasrliklaridagi ma’rifatparvarlik g‘oyalarini izchil davom ettiradi. Hamzaning qo‘shiq janriga murojaat qilib, xalq qo‘shiq va kuylarining poetik ohanglaridan barakali foydalanishi, to‘plagan kuylardan o‘ttiztasiga yangi she’rlar yozishi tasodifiy hol emas. Shoir ma’rifatparvarlik g‘oyalarining xalqimiz orasida tez va salmoqli tarzda keng tarqalishini ko‘zlagan. Shuning uchun elning orzu umdlari, fikr va tuyg‘ulari, kurash va intilishlari aks etgan ashulalardan, kuylardan unumli foydalangan.

Muhimi shundaki, shoir ayrim ashulachilar tamonidan buzib aytilayotgan va so‘zlari o‘sha davr talablariga yetarli javob bermaydigan qo‘shiqlarni yangi matnlar bilan boyitgan. O‘zi muhim deb sanagan va kishilarga xushchaqchaq kayfiyat bag‘ishlovchi qo‘shiqlarning badiiy matnlarini yangilagan. Xalq kuylariga she’rlar yozib ularni to‘plam holiga keltirarkan, “eng yaxshi, saralangan” ma’nosida to‘plamlariga “Gul” nomini bergan. Jumladan, shoir: “Dilog‘on”, “Eski Turon”, “Eski

Xorazm”, “Kel menga, shohim, hay-hay”, “Gul-g‘unchalar”, “Do‘st mavlon-ey”, “Yalang davron-ey”, “Jon to‘ralar-ey, Olloh”, “Jon Qo‘zivoy”, “Voy, zolim”, “Aytaylik, o‘rtoq”, “Laylixon, Anorxon yorim-yey”, “Dodimga yetsang-chi”, “Olma-anoringga balli” singari o‘nlab ohanglardagi ashulalar poetik matnini o‘zgartirgan. Hamza o‘zining ijodiy niyati ijrosi xususida to‘xtalib: “...milliy tabarruk ashulalarimizning o‘rni yo‘qolmasun uchun ba’zi kabih she’rlar o‘rniga milliy she’rlar tartib berub hamma ohang va kuylarimizni topub, bir necha bo‘limda nashr etmak niyatidamiz” [6. 7 b.] - deb yozgan, shu boisdan o‘z to‘plamlarini “Milliy ashulalar uchun milliy she’rlar majmuasi” deb ataganini izohlagan edi.

Darhaqiqat, “Majmua”ga kirgan “Yig‘la, Turkiston”, “Ko‘zni oching, qardoshlar”, “Darmon istariz”, “Millat deganlarning oqar ko‘z yoshi”, “Yaxshi holin yo‘qotgan oqibatsiz Turkiston”, “Past ekanmu inqilobimiz muncha”, “Yashanglar, yashaylik, Turon” singari o‘nlab she’rlar g‘oyatda milliy va dardkashligi, musiqiy ohangdorligi bilan alohida ajralib turadi. Bu she’rlarda milliy uyg‘onish g‘oyalari aks etgan. Ana shunday she’rlar Hamzani milliy uyg‘onish davri adabiyotining yirik narmoyondalaridan biriga aylantiradi. Mashhur rus tanqidchisi V. Belinskiy: “Poeziya hayot ifodasidir yoki yanada to‘g‘rirog‘i, hayotning o‘zidir. Bugina emas, poeziyada hayot chinakam voqelikdan ko‘ra hayotiyroq namoyon bo‘ladi” [Belinskiy N. 99], - deydi. Bu fikrlar tasdig‘i uchun Hamza she’riyatidan ko‘plab misollar keltirish mumkin.

Bu Nihon qon yig‘layur millat uchun laylu nahor,
Yoz o‘tub, qish keldi holo, bizga bo‘lgan yo‘q bahor,
Sarsari bodi jaholat qilmak istar toru mor,
Chora shul: maktab ochaylik, shoyad o‘lsun sabzalar,
Ey musulmonlar, qachon bir darda darmon istariz?
Millata shavkat, taraqqiy, sha’nu davron istariz? [14]

Ushbu she’rda millat va xalq kelajagi uchun iztirob chekayotgan lirik “men”ning ichki kechinmalari shoirona ifoda etilgan. Unda shoir fikr qarashlari turli obrazli ifoda va ramzlar orqali tasvirlanadi. Adabiyotshunos H. Boltaboev ramz va ramziylikka xos belgilar to‘g‘risida shunday yozadi: *“Ramz mohiyatan allegoriyaga yaqin, undan farqi shuki, ramz kontekst doirasida ham o‘z ma’nosida, ham ko‘chma ma’noda qo‘llanadi. Ramzning ma’nosi kontekst doirasida va shartdan xabardorlik bo‘lganda reallashadi”.[Boltaboyev H..290].* Bu fikrlarni yuqoridagi misralarga tatbiq etadigan bo‘lsak, unda yoz, qish, bahor so‘zlari ramziy ma’noda qo‘llanilgan. dabiyotshunos T.Matyoqubovaning ta’kidlashicha: “Mumtoz shoirlar ijodida ko‘pincha qish baxtsizlik va musibat, kulfat, bahor yoshlik

va go‘zallik, mehnat va farog‘at ramzi sifatida ifodalansa, kuz - hazon fasli sifatida tushkun bir kayfiyatning, bo‘lajak fojeaning darakchisi tarzida tasvirlanadi” [Matyoqubova T. 90.].

Darhaqiqat, Hamza o‘z fikr-qarashlarini obrazli ifoda va ramzlar orqali talqin etadi. She’rdagi “yoz”, “qish”, “bahor” kabi yil fasllarini anglatuvchi so‘zlar shoirning ijodiy niyatiga ko‘ra ramziy ijtimoiy-ma’rifiy ma’no tashiydi. Nihon [Hamza] tunu kun qon yig‘lashi zamirida qadimiy adabiy an’ana [“Alp Er To‘nga” marsiyasi, “Qish va yoz” munozarasi, O‘rxun-Enasoy toshbitiklari] da kuzatilgan Vatan va millat dardida chekilgan achchiq iztirob va alamli nolalar turadi. Bu hol bizga “Devonu lug‘otit turk” [Mahmud Koshg‘ariy], “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” [Beruniy], “Qisasi Rabg‘uziy” [Rabg‘uziy], “Saddi Iskandariy” [Navoiy] kabi asarlardagi yil fasllari, jumladan, Navro‘z xususidagi zohiriy va botiniy ma’nolarga boy, bahorga intiq bo‘lgan alohida bir mehrga to‘la misralarni eslatadi. Pirovardida, shoir dunyoqarashi ko‘lamli va tahayyul ufqlari yuksak ekanidan ogoh etadi. Zotan, Hamzaning uyg‘oq va yorug‘likka talpinuvchi qalbi tabiatga har qancha hamohang bo‘lmasin, zamoniy o‘zgarishlar shiddati millatdoshlarini uyg‘otmayotgani, muqaddas makonda hamon tutqunlik, zulm va istibdod hukmron ekanidan iztirob chekadi. Binobarin, shoir milliy jipslik, birdamlik va erkni sog‘inadi [Yoqubova S. 490].

Hamzaning “Salom ayting” nomli she’rida mashaqqatli mehnat ostida sog‘ligidan ayrilgan, o‘zi og‘ir xasta bo‘lsa-da, yiroqdagi yaqinlarini ayab, yertadan umidvorlik bilan ularga duoi salom yo‘llayotgan mardikor yigitning tuyg‘u-kechinmalari tasvirlanadi:

Ag‘o, sog‘ borsangiz, avval
Dadamlarga salom ayting.
Yugurib chiqqan ul mushfiq
Onamlarga salom ayting [Hamza. 90].

Hamza salom yo‘llashda lirik qahramon duosi usuli hamda “Sardaftar” musiqasining debochasi bo‘lmish “Savti Chorgoh” ohangidan foydalanadi. Ye’tiqodda sobit mardikor yigit dadasiga Ya’qub alayhissalom bardoshini tilaydi va o‘zining chiroyli sabr sohibi yekanini namoyon yetadi.

Tabiiyki, bunday ishoraviylik Hamza “Qur’oni Karim”ning “Baqara”, “Oli Imron”, “Niso”, “An’om”, “Hud”, “Yusuf”, “Maryam”, “Anbiyo”, “Ankabut” va “Sod” suralarining o‘n olti joyida keluvchi Allohning bandasi va payg‘ambari Ya’qub alayhissalom haqidagi xabarlar bilan yaxshi tanish bo‘lganini ko‘rsatadi.

Kelib qolgay, deng, albatta,
Ochilguncha gulu bog‘lar.

Alar ko‘ngliga ham betob
Debon solmang qora dog‘lar.

O‘tinch qilayotgan mardikor yigit nazdida onasining ko‘zi hamisha *“judolig‘ dasdidan yoshlig‘”,* aka va opalari *“ko‘zi qon”,* millatdoshlari yesa ilmsizlik, bid’at va jaholat girdobida. Shoir “qora dog‘lar” ramzi orqali g‘am, qayg‘u, aziyat ma’nolarini ifodalaydi. Lirik “men”ning tushkun holatini tasvir yetadi.

Akademik N.Karimov ta’kidlashicha, “Hamza jadidchilik harakatiga kirib kelganida, uning asosiy dasturi ishlab chiqilgan, jadid adabiyoti oldida turgan vazifalar esa oydinlashgan edi. Lekin ijtimoiy ongi o‘smagan, parokanda ommani uyg‘otuvchi, uni o‘zini anglashga ko‘mak beruvchi kuchlar hali yetarli emas edi. Hamza o‘zbek jadidlari oldida turgan milliy uyg‘onish jarchisi bo‘lishdek tarixiy vazifani his etish jarayonida o‘z iste’dodining qirralarini kashf etib bordi... “Milliy ashulalar uchun milliy she’rlar” turkumidagi she’rlarida milliy uyg‘onish g‘oyalarini ilgari surdi.” [Karimov N. 11]. Binobarin, Hamza o‘zbek jadid ziyolilari safida faol ishtirok etdi. O‘z ijodining markaziga xalq manfaatini qo‘ya oldi.

1918 yilga kelib Hamza ijodida jadidchilik qarashlaridan chekinish belgilari ham ko‘zga tashalana boshlaydi. Buning ob’ektiv va sub’ektiv sabablari bor edi. Zotan, shoir 1917 yilning 28 noyabrida tashkil topgan “Turkiston muxtoriyati”ga katta umid bilan qaragan. Turkistonning tenglar ichra teng bo‘lib yashashi, o‘lkadagi barcha millatlarning huquqiy daxlsizligi ta’minlanish, mamlakat demokratik asoslarda mustaqil taraqqiy qilishi haqidagi g‘oyalar unga juda ma’qul edi. Agar o‘sha davr milliy matbuotini kuzatsak, Turkistonning taniqli ma’rifatchilari, siyosat va jamoat arboblari o‘z ijodlarida muxtoriyatdan mamnun ekanligini samimiy izhor etganliklarini ko‘ramiz.

Turksitonning o‘z yeriga o‘zi xo‘jayin bo‘lib, tarixini o‘zi yaratish fursati kelganligini yaxshi anglab yetgan Hamza 1917 yilning 25 aprelida “Ulug‘ Turkiston” gazetasida “Turksiton muxtoriyatina” nomli she’rini chop qildiradi. To‘rt yuz yillik Romanovlar davlati tugatilib, asorat va xo‘rlik bitib, millat shavkati qaytganidan astoydil sevingan shoir Turkiston muxtoriyatini olqishlaydi. Ko‘ngil shodiligidan mamnun Hamza g‘ofil qolib fursatni boy bermaslik kerakligidan o‘z eldoshlarini ogoh etadi.

Hamza Sohibqiron Temurning ruhi erk yo‘lida jonini tikkan yurtdoshlarni toptalgan, xo‘rlangan o‘lkani yashnatishga chaqirayotgani, birlashishga da’vat etajagini alohida ta’kidlaydi. Din va millat nomidan so‘zlagan shoir muborak onlarni qadramagan dindoshimiz Muhammadning ummatlaridan emasdir, - degan keskin fikrlarni aytishgacha jur’at etadi. Darhaqiqat, qo‘lga kiritilgan yutuqni shoir tangrining rahmatidan deb biladi. Diniy kelishmovchilik va mazhab bo‘linishlarini bartaraf qilib el-yurt istiqboli yo‘lida butun bir islom millatini birlashishga, yakdil bo‘lishga chorlaydi. Yangi bir zamonni muborakbod qilar ekan, turkiy qavmni avlodlar yaxshi so‘zlar bilan xotirlashlari uchun jahonga tanilgan ulug‘ ajdodlarimizning qutlug‘ nomlari va azaliy qadriyatlarimizni ulug‘lashga chaqiradi. Yoshlarga alohida murojaat qilgan shoir muborak zafar yo‘lida Erk, Ozodlik, Birdamlik uchun to‘kilgan qonlarni qutlug‘ sanaydi. Ozodlikning shonli kunlari o‘z-o‘zidan kelmagani, kurashlar va qurbonlar evaziga erishgan yutuqlarimizni qayta-qayta qutlashdan zinhor charchamaydi:

Bugun qaysi bir ko‘ngul dilshod o‘lmasun?!
Bugun qaysi mironshohlar obod o‘lmasun?!
G‘ofil qolmang bul fursat barbod o‘lmasun?!
Qutlug‘ bo‘lsun Turkiston muxtoriyati!
Yashasun endi birlashub islom millati!

To‘qqiz band, 47 misradan iborat she’rning har bandidan keyin keluvchi xor uchun mo‘ljallangan so‘nggi ikki misra takrorlanib, ma’noni ta’kidlashga, yetakchi fikrni yanada kuchaytirib, da’vat ohangini oshirishga xizmat qiladi: Faqat oxirgi bandning so‘nggi misrasida naqorat turk o‘g‘illari qurayotgan davlatning mangu barqaror bo‘lishiga ezgu tilak bilan yakunlanadi:

Qutlug‘ bo‘lsin, ey yoshlar, to‘kub qoningiz,
Bergan qurboningizga olg‘on shoningiz!
Mangu qoldi dunyoda xush unvoningiz,
Qutlug‘ bo‘lsun Turkiston muxtoriyati!
Yashasun endi birlashub islom millati!
Yashasun bu turk o‘g‘lini mangu davlati!

Umuman, Hamza she’riyatida yozma adabiyotdagi an’anaviy she’r tuzilishi shakli aruz bilangina cheklanib qolmay, xalq she’riy tuzilishiga faol murojaat qildi. Uning boy ifoda vositalari va obrazlar olamidan keng foydalandi. U o‘z she’rlarini xalq tili boyligi va og‘zaki ijodiga imkon qadar yaqinlashishga intildi. Adabiyotimizning g‘oyaviy-badiiy saviyasini kengaytirishga, ijtimoiy muammolarni kuyinchaklik bilan ko‘lamdor

ifodalashga harakat qildi. Bunda u o‘ziga xos obrazli ifodalar va tasvir usullariga murojaat qilganki, bu shoirning o‘ziga xos iste’dod egasi ekanligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Afoqova N. O‘zbek jadid adabiyotida she’riy shakllar taraqqiyoti tamoyillari. Filologif fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2005.
2. Belinskiy V. G. Adabiy orzular. –Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1977.
3. Boltaboev H. Adabiyot ensiklopediyasi. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2014.
4. Karimov N. XX asr o‘zbek adabiyoti taraqqiyotining o‘ziga xos xususiyatlari va milliy istiqlol mafkurasi. Filol. fan. d-ri ... diss. – Toshkent, 1993.
5. Matyoqubova T. Poetik idrok va mahorat. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010
6. Hamza. Besh tomlik to‘la asarlar to‘plamining ikkinchi tom. – Toshkent: Fan, 1988.
7. Husayn S. Hamza Hakimzoda. Hayoti va faoliyati. – Samarqand, 1940.

AZIM SUYUNNING “TILLABURAMASHOX” HIKOYASIDA BADIIY G‘OYA TADRIJI

Qo‘ymurodova Gulruxsor Muhammad qizi,
Namangan davlat unversiteti talabasi,
E-mail: Repetitor2008.76@mail.ru
Tel: +998948651064

Annotatsiya: Mazkur maqolada yozuvchining ijodiy pozitsiyasi va shu ijodiy pozitsiyasiga monand badiiy g‘oyaning tadrijiy holda ifodalanishi, bu asar umidbaxsh g‘oyalar bilan yakunlansa, katta muvaffaqiyat qozonishi tahlil qilingan. Hikoyada yovvoyi qo‘chqor – Tillaburamashox taqdiri orqali yozuvchi erk va ozodlik uchun kurash jarayoni hech qachon oson kechmasligini mahorat bilan tasvirlagan va mana shu jarayonning poetik talqiniga maqolada alohida e’tibor qaratilgan. Azim Suyunning “Tillaburamashox” asari shu ma’noda o‘zbek hikoyachilik maktabining sara namunalaridan biri ekanligi maqolada asosli misollar vositasida isbotlangan.

Kalit so‘zlar: obraz, timsol, badiiy g‘oya tadriji, ijodiy pozitsiya, poetik an’ana.

Annotation: This article analyzes the writer's creative position and the gradual expression of an artistic idea corresponding to this creative stance. It examines how the work achieves great success by concluding with promising ideas. In the story, through the fate of the wild ram - Tillaburamashox, the writer skillfully portrays that the process of struggle for freedom and liberty is never easy, and the article pays special attention to the poetic interpretation of this process. Through substantiated examples, the article demonstrates that Azim Suyun's work “Tillaburamashox“ is, in this sense, one of the finest examples of the Uzbek storytelling tradition.

Key words: image, symbol, evolution of artistic idea, creative position, poetic tradition.

Ma’lumki, saviyasi tom ma’nodagi yuksak ijodkor asarlarida hamisha o’z davrining eng og‘riqli va iztirobli, xalq va vatan dardiga daxldor muammolariga badiiy estetik munosabatini bildiradi. Abdulla Qodiriyning “Uloqda”, G’afur G’ulomning “Mening o’g’rigina bolam”, Oybekning “Fanorchi ota”, Abdulla Qahhorning “O’g’ri”, Shukur Xolmirzayevning “O’zbeklar” kabi durdona hikoyalarida aynan mana shunday konsepsiya o’z ifodasini topgan.

“Uloqda” hikoyasi ilm-fan taraqqiyotidan yiroq, faqat o‘yin-kulgu va bazm-u ziyofatga mukkasidan ketgan xalq holidan iztirobga tushish, bu kabi fojiadan afsuslanish tuyg‘usi Eson chavandoz fojiasi, ota-bobolari izidan borib, yana o‘yin, uloqqa qiziqayotgan tasavvurida o‘zicha Turg‘un chavandoz bo‘lib ketayotgan bola o‘ylari orqali ifodalangan.

“Mening o‘g‘rigina bolam”da esa yo‘qchilik qarshisida chorasiz qolgan va chora sifatida kambag‘al qo‘shnisikiga o‘g‘rilikka tushishdan tortinmagan kishi obrazi orqali xalqimiz xarakterida tobora ildiz otib borayotgan nuqsonlar qalamga olingan. Hikoyadagi o‘g‘rigina bola yo‘qchilikka chora sifatida o‘zi nochor yashayotgan qo‘shnisinikiga o‘g‘rilikka tushishdan or qilmaydi. G‘afur G‘ulom nazarda tutayotgan orsizlik, o‘zi qilayotgan ishdan pushaymon chekmaslik, uyalmaslik kabi illatlar hozir ham hayotimizning bir qismi ekanligi bor gap.

“Fonarchi ota”da zulmatni yoritish uchun qo‘yilgan lampaga tosh otayotgan bezori bolalar aslida taraqqiyotni ko‘rolmayotgan, taraqqiyotdan ko‘ra, o‘z hoy-u havasi yo‘lida nojoiz ishlar qilishdan tab tortmaydigan, xalqimizning yuzini yerga qaratayotgan illatlar timsolidir.

“O‘g‘ri”da o‘z haq-huquqini bilmagan, o‘z qadri uchun kurashmaydigan kishilar xalqimiz orasida ko‘payib borayotgani Qobil bobo obrazi orqali tasvirlanadi. Shu ma’noda qobilllik va mo‘minlik har doim ijobiy ma’noda emas, balki ba’zan salbiy ma’no bildirishi ham hikoyada bo‘rtib ko‘rinadi.

“O‘zbeklar”da o‘zining qo‘zisini o‘g‘irlagan talabalarni olqishlagan Botir cho‘pon obrazi orqali muallif “Bu yuzingga ursa, narigi yuzingni ham tutib ber” qabilidagi xalqimiz tabiatidagi kurashchanlik ruhini sindiradigan noo’rin hikmatlarga qarshi o‘ziga xos raddiya bildiradi.

Azim Suyunning “Tillaburamashox” hikoyasi aynan mana shunday hikoyalar silsilasini davom ettiruvchi, to‘ldiruvchi durdona asardir. Shoir “O‘zlik” nomli maqolasida Mustafo Kamol Otaturkning maqbarasi devoriga yozilgan ushbu yozuvlarni bejiz eslamaydi: “Milliy o‘zligini bilmagan millatlar boshqa millatlarga yemish bo‘lgay”. [Suyun A. 1999, 133.]

“Tillaburamashox“ chin ma’noda shoirning qalbidan otilib chiqishi kerak bo‘lgan, uzoq kutilgan vulqondek asardir. U ko‘p she’rlar, asarlar bitdi. Lekin “Tillaburamashox“ ularning oldida porlab turgan nur kabidir. Undagi falsafiy qarashlar, ramzlar butun adabiyot ahlini hayron qoldirdi. Azim Suyunga umrining oxiriga qadar biror unvon berilmadi. Lekin u hech qachon o‘zining ijodiy pozitsiyasidan qaytmadi. Uni ko‘plar qoraladi, asarlarini tanqid qildi. U baralla aytmoqchi bo‘lgan haqiqatlar asarlarida o‘z ifodasini topdi va o‘quvchiga kuchli ta’sir qiluvchi uslubda yozildi.

Tillaburamashox hech qaysi mavjudodga o‘xshamaydigan, butun borliqqa qarshi chiqa oladigan, ozodlik uchun kerak bo‘lsa, o‘zini qurbon qila oladigan o‘zlik ramzi edi. Buni yozuvchining unga o‘zi ham zavqlanib yozgan ta’rifidan yaqqol anglab olish mumkin: “U juda aqlli, shuurli, ziyrak, tezfahm, idrokli sardor edi. Suruvini har qanday balo-qazolardan yiroq tutar, xavf-xatarlardan omon saqlardi. … Biroq bu tillaburama shoxi… U – barcha yovlarini chorlaguvchi, o‘ziga ohanrabodek tortguvchi, hatto qushlarni ham qiyo boqtirguvchi bir mo‘jizaviy matoh. Gap shundaki, buramashoxining gugurt qutisi joy bo‘lgudek ichki burama belgi joyi tilla suvi yuritilgandek yaraqlab turardi. U kunduzi-ku kunduzi, hatto tunda ham shu’lalanardi” [“Yoshlik”. 2019:12].

Ko‘rinib turibdiki, unda nafaqat asralashi, e’zozlanishi lozim bo‘lgan obrazni, balki xalqning boshi, uni har qanday kunda suruvini asragandek asray oladigan chinakam podshoh obrazini ko‘rishimiz mumkin. Haqiqiy, mard, hech nimadan qo‘rqmaydigan, adolatli podshoh. Ammo unga yuqorida eslab o‘tilgan bir necha asarlardagi bosh qahramonlar kabi

ishonuvchanligi pand berdi. Uning ana shu ishonuvchanligi sabab tutqunlikka olib ketilishi asarda shunday tasvirlanadi: ”O‘sha kuni, ya’ni bundan bir oylar chamasi oldin suruv Beshqoya yonida yoyilib yurardi. Yurti gullab-yashnagan payt, yam-yashillik saltanati. Beqiyos qiyoqlar, giyohlar, g‘unchalar, ko‘plari ochilgan, yaproqlari taranglashgan, qishdan omon-eson chiqib olgan suruv yutoqqan… Peshinga yaqin gazada uch otliq paydo bo‘ldi. Tillaburamashox ikkitasini tanidi, ular kiyimidan ma’lum, doimo mehribon ko‘zlar bilan qarovchi o‘zlarining qadrdon qorovullari edi. Biroq uchinchisi begona, o‘ng qoshining bir yonida bo‘rtib turgan qop-qora xoli bor notanish yigit…Tillaburamashox yuragi allatasin bo‘lib ketdi. Uning shuuridan nimadir sizib o‘tdi. Nimadir yuz beradigandek… Suruvni boshlab Beshqoyaning ters tomoniga yo‘naldi. Ammo ko‘p o‘tmay bir tog‘ begining yolg‘iz o‘zi uning qarshisida paydo bo‘ldi. Nimadir «shirt» etdi. Tillaburamashoxning etiga chippa yopishdi. U qadrdon qorovuldan buni aslo kutmagandi. Keyin… ko‘zini ochganda bo‘rtiq xolli yigit va yana ikki-uch fason bo‘ydor kishilar uning ustida turardi. Tillaburamashoxni o‘sha kuni-tundayoq panjarali mashinada ushbu dargohga keltirishdi” [“Yoshlik”. 2019:14].

Tutqunlikda Tillaburamashoxga u maza qilib yashasa bo‘ladigan sharoit yaratildi, ammo u o‘zining Nur tog‘i etaklarini, kamarlarni sog‘inardi, U qochdi, dastlab uning orqasidan itlar akkiladi. Itlar bu asarda yo‘lto‘sar, sotqin, qaroqchi kishilarning timsolidir. Keyin esa yana yo‘lda u qizil bo‘rilarga duch keldi. Qizil bo‘rilarni ham quvlatdi, olishdi va axiyri g‘alaba qozondi. Bo‘rilar timsoliga nazar tashlasak, avvaliga ularning nega aynan qizil rangda ekanligi bizni qiziqtiradi? Xo‘sh, yozuvchi ularni nega qizil deb tasvirlaydi? Shubhasiz, bu sobiq tuzum davri ramzi. Uni tutib bergan esa Rajabboy ota - Tillaburamashox eng ishongan, suyukli egasi edi. Ha, uni o‘z qo‘llari bilan tutqunlikka topshirgan inson o‘z do‘st deb bilgani orasidan chiqdi, o‘zinikilardan chiqdi.

Tillaburamashox, Qobil bobolar o‘zbek xalqining tipiklashtirilgan obrazi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu xislatlar “Kultegin” bitiktoshidagi xoqon tomonidan ham eslab o‘tilganligini quyidagi parchada ko‘rishimiz mumkin: “Ey, turk xalqi, to‘kis ishonuvchansan. Samimiy, nosamimiyni ajratmaysan, kim qattiq gapirsa, samimiyni ham tanimaysan. O‘shandayliging uchun tarbiyat qilgan xoqoningning so‘zini olmayin har qayerga ketding, bu yerlarda butunlay g‘oyib bo‘lding, nom-nishonsiz ketding”. [Adabiyot. Majmua. 2007:51.] Shu o‘rinda she’riyat mulkining sultoni Alisher Navoiy qalamiga mansub to‘rtlik yodga tushadi va ana shu to‘rtlik mazmunan bosh qahramon holati bilan monand:

G‘urbatda g‘arib shodmon bo‘lmas emish,
El anga shafiq-u mehribon bo‘lmas emish,
Oltin qafas ichra gar qizil gul bitsa,
Bulbulg‘a tikondek oshyon bo‘lmas emish. [Navoiy A. 2021:140]

G‘urbat - Vatandan uzoqda bo‘lgan o‘zga yer. G‘arib esa Tillaburamashox. G‘aribga o‘zga davlatda hech kimsa rahmdil bo‘lmaydi. G‘aribning ichidagi xohishlari bilan qiziqilmaydi g‘urbatda.

Yana bir bor ta’kidlaymiz, o‘zimizga o‘zimiz savol beramiz: Tillaburamashox nima sababdan tutqunlikka tushib qoldi? Yuqorida aytganimizdek, tutqunlikning bosh sababi, undagi tog‘ begiga nisbatan ishonch. Tog‘ begi Tillaburamashox ishonchini suiiste’mol qildi, uni o‘z qo’li bilan qoraxolli kimsaga tutib berdi. Xalqimizning “O‘zingdan chiqqan baloga, qayga borasan davoga?” degan hikmati bor. Shu kabi ichki dushmanlik bir necha asr mobaynida xalqimizning bir butun bo‘lib birlashishiga imkon bermadi. Xalqimiz XVII-XIX asrlarda uchta kichik xonlikka bo‘linib yashadi. Bularning hammasiga sabab xorij elchilari niqobidagi missionerlar va’dalariga uchgan ichki xoinlar edi. Tillaburamashoxni tutib bergan tog‘ begi ana shunday xoin va sotqin kishilarning timsoli. Tillaburamashox esa Alpomish va u kabi xalqi va vatani uchun qon yutishga tayyor va qiyinchiliklardan cho‘chimaydigan xaloskor qahramonlarning yorqin obrazi. Alpomish ham Barchin timsolidagi erk uchun kurash yo‘lida qiyinchiliklardan cho‘chimadi, asirlikdan xalos bo‘lish yo‘lini topdi. Tillaburamashox ham o‘zidagi kuchli ishtiyoq va ehtiyoj sabab tutqunlikdan qutilib ketdi. Har qanday kishi qiyinchiliklardan cho‘chimasa va o‘z maqsadiga erishishiga ishonsa, albatta, ilohiy kuchlar uni qo‘llab-quvvatlaydi. Tillaburamashoxning ozodlik yo‘lidagi harakatlari mana shunday ilohiy quvvat bilan sug‘orilgan. Uning yo‘lida uchragan bu to‘siqlar, ya’ni itlar – ichki dushmanlar va qizil bo‘rilar esa mustamlakachilkning ramzi hisoblanadi. Ma’lumki, Alpomish ham oxir-oqibat ikkiga bo‘linib ketgan xalqni birlashtirdi, bu yo‘lda qiyinchiliklardan cho‘chimadi, Tillaburamashox ham o‘z suruviga yana bosh bo‘lish maqsadida o‘ta murakkab yo‘lni bosib o‘tadi.

Adabiyotshunos Qozoqboy Yo‘ldoshev Azim Suyun she’riyatini tahlil qilar ekan quyidagilarni yozadi: “Bahodirsiz kelar arg‘umoq” she’rida erk uchun jangda shahid bo‘lib, jasadi yov qo‘lida qolgan alp yigit tufayli shoir ruhiyatida uyg‘ongan fojiona tuyg‘ular ifoda etiladi. She’rxon shoir ko‘nglidagi og‘riqlarini jisman his qilganday bo‘ladi. Shoir odam

ko‘nglidagi ruhiy og‘riqni bevosita emas, balki tabiat hodisalari orqali aks ettiradi”. [Yo‘ldoshev Q., 2018:6.] Tillaburamashoxda ham adabiyotshunos ta’kidlagan mana shu poetik an’ana ustuvordir.

Hikoyada muallif nazarda tutgan badiiy g‘oya tadriji tillaburamashoxning ishonuvchanlik tufayli tutqun bo‘lishi, lekin tutqunlikdan qochishi va yana o‘z suruviga qaytishi ko‘rinishida o‘z ifodasini topgan.

Ko‘rinib turibdiki, Tillaburamashox hikoyasi mana shunday ulug‘vor g‘oyani o‘zida mujassam etgan. Zero, asl tiynati tilloga teng bo‘lgan chinakam qahramonlar o‘zlarining ulug‘vor maqsadlari sari dadil borar ekanlar, egri-bugri, burama shox kabi to‘siq va yo‘llar ularni xavotirga solmaydi, qo‘rqitmaydi. Shu ma’noda “tilla“ va “buramashox“ so‘z ramzlarida o‘ziga xos tazod yashirin. Va mana shu qarama-qarshi qutblar birlashuvi ajoyib badiiy obraz yaralishiga sabab bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adabiyot. Majmua. – Toshkent: Cho‘lpon, 2007.
2. Navoiy A. Orazin yopqach ko‘zimdin. – Toshkent: Zabarjadmedia, 2021.
3. Suyun A. O‘zlik. – Toshkent: Sharq, 1999.
4. Suyun A. Tillaburamashox // “Yoshlik”, 2019, 4-son.
5. Yo‘ldoshev Q. So‘z yolqini. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2018.

XOSIYAT RUSTAMOVA SHE’RIYATIDA QUSH POETIK TIMSOLI TADRIJI

Zakirova Gulchehra Baxramovna,
Namangan davlat universiteti
mustaqil izlanuvchisi,
Benazir20160828@gmail.com
Tel:(+99890)275-65-06

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek zamonaviy adabiyotining yorqin vakillaridan biri bo‘lgan Xosiyat Rustamova she’riyatida qush poetik timsolining tadriji, unga mazmun va badiiy ifoda yuzasidan singdirilgan ma’naviy va estetik ma’nolar yoritiladi. Turkiy xalqlar she’riyatida qo‘llaniladigan ramziy timsollar orasida qush obrazi alohida o‘ringa ega ekani, bu borada samarali tadqiqotlar olib borilgani, qushlar vositasida yozilgan asarlarning son va salmoq jihatdan sermazmunliligi ifodalanadi. Qushlarning adabiy obrazga ko‘chishi va genezisi, badiiy interpretatsiyasi, uning tarixiy va milliy an’analardagi o‘rni, shuningdek,

obrazdan timsol darajasiga ko‘taralishi– tadrijiy takomili kuzatiladi. She’rlarda qo‘llangan obrazlar dinamikasi, evolyutsiyasi masalalari ochib berildi. Xususan, bu timsol shoira asarlarida ozodlik, sevgi, orzu, hayot va ona yurtga bo‘lgan mehr kabi tushunchalar bilan uyg‘un holda namoyon bo‘lishi she’riy misollar orqali tahlil etildi. Shuningdek, Xosiyat Rustamova ijodining tub mohiyati psixologik va falsafiy, ijtimoiy-estetik, individual dunyoqarashidagi o‘ziga xoslik – ijodkorning muayyan kayfiyati, betakror uslubi, so‘z qo‘llash mahorati, ifoda yo‘sinidagi orginallik, mazmun va mohiyat mutanosibligi masalalariga atroflicha to‘xtalinadi. Shu orqali Yangi davr o‘zbek she’riatida an’anaviylik va novatorlikning uyg‘unlashib borayotganini shoira she’rlari misolida talqin qilindi.

Abstract: In this article, the poetry of Khosiyat Rustamova, one of the bright representatives of modern Uzbek literature, sheds light on the development of the poetic image of a bird, the spiritual and aesthetic meanings embedded in it in terms of content and artistic expression. Among the symbolic symbols used in the poetry of the Turkic peoples, the image of a bird has a special place, effective research has been conducted in this regard, and the number and weight of the works written with the help of birds is expressed. The gradual improvement of the migration and genesis of birds to the literary image, their artistic interpretation, their place in historical and national traditions, as well as their rise from the image to the level of a symbol is observed. Issues of dynamics and evolution of images used in poems were revealed. In particular, it was analyzed through poetic examples that this symbol is manifested in the works of the poetess in harmony with concepts such as freedom, love, dream, life and love for the motherland. Also, the essence of Khosiyat Rustamova’s work is psychological and philosophical, socio-aesthetic, individual worldview uniqueness –, the specific mood, unique style, skill of using words, originality in the way of expression, proportionality of content and essence of the creator. Through this, the combination of traditionalism and innovation in the Uzbek poetry of the New Era was interpreted as an example of the poet's poems.

Kalit so‘zlar: Poetik timsol, o‘zbek she’riyati, genezis, interpretatsiya, metafora, personifikatsiya, antropomorfizm, allegoriya, obrazlar dinamikasi, timsol tadriji.

Keywords: Poetic symbol, Uzbek poetry, genesis, interpretation, metaphor, personification, anthropomorphism, allegory, dynamics of images, development of symbol.

Qush obrazi – jahon va milliy adabiyotda eng ko‘p uchraydigan, mazmunan boy va ramziy ma’noga ega timsollardan biri hisoblanadi. U inson tafakkurida ozodlik, parvoz, muhabbat, orzu va ruhiy tozalik kabi bir qator tushunchalar bilan chambarchas bog‘langan. O‘zbek she’riyatida ham qush timsoli qadimiy an’analarga ega bo‘lib, u turli davrlarda bir necha xil talqin qilingan. Qushlar vositasida yozilgan asarlar ham talaygina. Alisher Navoiyning “Lisonut-tayr” asarining vujudga kelishiga Fariduddin Attorning “Mantiq ut-tayr”, Abu Ali Ibn Sinoning “Risolat ut-tayr”, Shahobiddin Suhravardiyning “Risolai muammo bu safari Semurg”, Abu Homid Muhammad G‘azzoliyning “Risolat ut-tayr” asarlari xalq o‘zaki ijodining ta’siri katta bo ‘lganini aytish muhimdir. [Bekmatova, 2023: 669]

Qushlar obrazi Sharq adabiyotida samoviy jonzot sifatida ulug‘lanibgina qolmay, ozod ruh timsoli tarzida qo‘llanib kelingan. Zotan, Mustaqil O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbining markazida qanotlarini yozgan afsonaviy Xumo qushi tasviri milliy ramzimiz darajasiga ko‘tarildi.

Yangi davr adabiyoti, xususan istiqlol she’riyatida ham qush obrazi o‘z qadr-qimmati va o‘rniga ega obrazlarlardan sanaladi.

Xosiyat Rustamova she’riyatida bu timsol nafaqat estetik vosita, balki uning ijodiy dunyoqarashi, hayot va inson haqidagi falsafiy mushohadalari, milliy ong va qalb holatining ifodasi sifatida muhim o‘rin tutadi. Uning she’rlarida qush bir paytning o‘zida sevgi orzusining parvozini ham, vatanga muhabbat chorlovni ham ifoda etadi.

Xosiyat Rustamova poetik olami bir-biri bilan uzviy bog‘langan obrazlar tizimidan tarkib topgan. Zotan, adabiyotning o‘zi obrazlar dunyosidir. Har qanday obrazlarga tayanmagan badiiy asar adabiyot ummonida suzayotgan bo‘m-bo‘sh kemaga o‘xshaydi. Shoira ilk to‘plami – “Osmondagi uy”dayoq yorqin obrazlar kashf eta oladi.

Metaforik o‘xshatishlar orqali tasvirlangan ma’joziy obrazlar hamda ramziy timsollar yordamida g‘oyaviy niyatini aniq ifodalashga erishadi. ***G‘amgin bekat, olovrang chimildiq, betizgin yellar, besaranjom tun, besarhad kenglik, bemador ochun, g‘iybatchi kun, kuydirmajon quyosh, ochko‘z zamin, otliq bulutlar, keksa behilar*** kabi tashbeh va jonlantirish san’atlarii yordamida kichik obrazlar yaratadi va bu o‘z-o‘zidan she’rdagi voqelikni jonlantiradi. She’rni yoniq so‘zdan iborat ekanini yana bir karra isbotlaydi. Uning ijodiy labalatoriyasi uslubiy va shakliy izlanishlar – eksperimentlarga boy. Xosiyat Rustamova obrazlarining yorqinligida – personifikatsiya asosiy omil vazifasini bajaradi.

Personifikatsiya (lot.persona–shaxs, qiyofa va facio – yarataman) – hayvonlar, tabiat hodisalari va boshqa mavhum g‘oyalarni jonlantirish, ularni insonlardek harakatlantirish, shaxslantirishdir.

Personifikatsiya antropomorfizm deb ham yuritiladi. Antropomorfizm hodisasi xalq og‘zaki ijodi namunalari ertak, rivoyat. Asotir, masal va boshqa janrlarda kuzatiladi.Mumtoz va zamonaviy he’riyatda badiiy ifoda va tasvir vositasi sifatida qo‘llanib kelinmoqda. [Тимофеев, 1974:67]

Shoira she’riyatida turfa xil obrazlar gavdalanadi. Ammo ular orasida shunday allegorik obrazlar mavjudki, yillar davomida ijodkorning poetik olamida bardavom yashamoqda. Bu davomli obrazlar qush va it majoziy obrazlaridir. Xosiyat Rustamova ilk to‘plamida: ***“Ko‘zimda yulduzlar farzand o‘stirib, qabog‘imda musichalar yuradi…”*** [Rustamova,1997:32] deydi. Lekin undagi musicha hali poetik obraz darajasiga ko‘tarilmagan.

Uchib yurdim qush kabi yengil,
Yuragingga ayladim parvoz.
–Biz tomonga bir bor tikilgin –
Qayerdandir keladi ovoz. [Rustamova, 2005:4]

Ushbu satrlarda endigina inidan chiqib yuraklarga qush kabi yengil parvoz etishni boshlagan qush obraziga to‘qnash kelamiz. Mazkur she’riy matnda o‘quvchiga alohida kuch bilan ta’sir qilish, obraz yaratish uchun tasviriy vosita sifatida, asosan, metaforadan foydalaniladi. Shuning uchun ular orqali insonning turli emosiyasi ekspressiv tarzda o‘z ifodasini topadi. [Nurillayeva,2020 :86]

Shoira “Najot” to‘plamidan joy olgan “Xayot” she’rida ***Bir kuni – Men ko‘kka uchaman tayin – Yulduzlar kimtinib ochadi quchoq,*** [Rustamova,2003:46] deya yurakdagi uchish orzusini samovotga ko‘chiradi. Ijodkorning lirik qahramoni o‘zini oshkora “adashgan qush” ga mengzaydi:

Adashgan qush kabi
Turibman giryon,
Dovullar yo‘limni bormoqda burib.
Chirqirab turibman
Tentib yuribman –
Ko‘ringan oynaga boshimni urib. [Rustamova, 2005:3]

Ko‘ringan oynaga boshini urib, tentib yurgan, chirqirab, giryon turgan, parvozidan adashgan qush hayotiy pastlashlar qarshisida bir zumga bo‘lsa-da orzularidan chekinadi. Va o‘zini-o‘zi inkor qiladi:

Har holda qushmasman
Qafas ichida –
Chirqirab-chirqirab
Kun ko‘rayotgan. [Rustamova, 2005:4]

“Ilhom parisi – osmonda erkin uchib yurgan qush, kutilmaganda ko‘ngil bog‘ingizdagi daraxt shohiga qo‘nib ajabtovur xonish qilib qoladi, keyin esa to‘satdan bir yoqlarga uchib ketadi. qushcha qachon qaytib kelishini kutishdan boshqa ilojingiz yo‘q”. [Rahimjon Rahmat, 2015:34]

Shoraning lirik “men”i endi mudragan yuragini uyg‘otib, o‘sha afsonaviy qushni, ya’ni ilhomni qidiradi.

Bir qush shitirlardi –
Shoxlar ichidan.
Atrofga qaradim
Iymanib, cho‘chib,
Bu go‘yo tush edi-
Eng ajoyib tush.
Sen endi qaylarda yuribsan uchib,
Meni xayolimni o‘g‘irlagan qush. [Rustamova, 2005:15]

She’rning ilk satridayoq lirik qahramonning noma’lum havotiri o‘quvchiga ko‘chadi. Darrov xayolimizda jonsarak qush obrazi gavdalanadi.

Shoir xayolini o‘g‘irlagan qush, “Achchiq chirqiragan noma’lum bir qush” (R. Parfi) balki “ruh to‘tisi”dir (M. Yusuf), balki “Jismimdagi jon degan qumri”mikan?! (Benazir). Qanday qush bo‘lganda ham barchamizning vujudimizda xursandligimizda potirlaydigan, g‘am cheksak chirqiraydigan ko‘ngil qushi yashashi muqarrar.

Xosiyat Rustamova ijodidagi qush obrazi orqali – uning ruhiyatida kamol topayotgan shoirlikning evolyusiyasini kuzatish mumkin:

Qalandar tunlarda
Kuzak uyg‘onar,
Yulduzdan mosuvo.
Oydan mosuvo.
Qushlarning yo‘liga
Mushtoq Xazonlar–
Osmonni hech kimga bermaydi Xudo. [Rustamova, 2005:22]

Hech kimga berilmagan osmonni zabt etish lirik qahramon borlig ‘ini qamrab olaveradi:*“**O‘zimda behavo qoldim muallaq, Ortidan ergashgim keldi qushlarning”*** [Rustamova,2005:25]**, yoki** ***“Adashgan qushlar ham topdi boshpana –Nega joy bo‘lmayman o‘zimga-***

o‘zim”[Rustamova,2005:33]**, yana “*Shomgi havolarga –Patlarin to‘kib –
*Uyini topolmay chirqirar qushlar”*** [Rustamova,2005:29]deya achchiq zorlangan lirik qahramon yoxud ijodkorning “Men”i lahzaga bo‘lsada, ortga chekinadi. Orzusiga yetolmagani, parvozidan qoniqmagani bois osmonni ayblaydi, so‘ngra o‘z yuragiga parvoz etishga ahd qiladi:

Osmon qo‘ygan yurak oldirib,
Shubhalanib boqar har kimga.
Men qushlarni dog‘da qoldirib,
Uchajakman o‘z yuragimga. [Rustamova, 2005:26]

Aslida, shoir yuragi osmonning bir parchasi emasmi, yoki osmon shoir yuragining bir parchasi?! Zero, shoirda ham qushlar kabi erkin parvoz etish istagi mavjud:

Bu qushda
Eng yuksak
Jasorat mavjud,
O‘lsa ham shunchaki
Yerda o‘lmaydi. [Rustamova, 2005:41]

Har qanday erkinlik me’yoridan oshsa, o‘z qiymatini yo‘qotadi. Har qanday qush parvozda o‘z haddini bilgani yaxshi. Aks holda:

Qush go‘yo termular…
Ko‘kka benajot,
O, xiyol ochilib qolgandir ko‘zi.
Unda ham qachondir bo‘lgandi qanot –
Eh, bugun patlari yotibdi to‘zib. **[**Rustamova, 2005:46]

Shoiradagi parvoz istagi hayot zarbalariga bo‘yin egmaydi. Qaytaga maqsad sari qanot qoqadi:

Qaydan paydo bo‘ldi bu qanot,
Buncha shiddat-shodlik qayerdan?!
Meni olib uchmoqda hayot–
Odamlari beshafqat yerdan. [Rustamova, 2005:94]

Inson tabiati qiziq, orzulardan paydo bo‘lgan qanotdan shodlanadi-yu oniy zavqdan so‘ng ikkilanishni boshlaydi:

Xo‘p, mayli, osmonda
Uchdim ham deylik,
Xo‘p, mayli bag‘riga chorlasin chaman.
Meni o‘ziga rom etarmi kenglik,
Men baland uchganda –
Qayga uchaman?! [Rustamova, 2005:96]

yoki:

Uncha ham uchishga arzimas osmon,
Ko‘zingni o‘ziga tortmaydi borliq.
Yuraging qo‘rquvga tushar beomon-
Hech narsa qolmagan sevishga loyiq. [Rustamova, 2005:94]

Ba’zan lirik qahramon o‘z parvozidan qoniqmaydi. Kengliklar qadar ulg‘ayib ovozi samoga ham sig‘may qoladi. Qush bo‘lib uchish istagida yonayotgan qalb orzusi qarshisida og‘ir uyga toladi:

Nihol bo‘lsam – qaydan joy topar edim,
O‘sardim qaysi bir daraxt yonida?
Mabodo qush bo‘lib kelganimda-chi –
Sayrardim kimlarning peshayvonida? [Rustamova, 2006:46]

Lirik qahramonni shu kabi javobsiz savollar bejiz qiynamaydi, chunki bu qush uning hayotiga mazmun baxsh etgan. Endi ijodkor shaxsi bilan bir vujudda yashayapti. Lekin shoira shunda ham “qush”chani tanimaydi: Men yaxshi ko‘radigan, ammo otini bilmaydigan Qushchaga, - deb yozadi u:

Sen hali bilmaysan,
Yerning qahrini.
Bilganing falakdir,
Chinor, terak, tol.
Kichkina bo‘lsang ham
Osmon bag‘rini –
Istagan vaqtingda
Etasan ishg‘ol . [Rustamova, 2011:35]

Shoira ijodidagi qush timsolini tadrijiy o‘rgansak, ushbu poetik timsol dinamikasini kuzatamiz. Qush–Xosiyat Rustamova ruhiyati zamirida ulg‘ayib borayotgan shoirlikning o‘sishidir. Gohi salbiy gohida ijobiy sifatlarga ega bo‘lgan bu obraz shoiraning keyingi she’rlarida ham bardavomlik kasb etadi.

Osmon bag‘rini istagan vaqtida ishg‘ol etadigan, hayotning har qanday sinovlarida pastlashni uddalagan qush timsoli mukammal obraz darajasiga ko‘tariladi.

Xosiyat Rustamova she’riyatida qush timsoli oddiy bir tabiiy obraz emas, balki badiiy-estetik va ma’naviy-mafkuraviy mazmunga ega bo‘lgan kuchli poetik timsol sifatida namoyon bo‘ladi. Uning she’rlarida qush – erkinlik va orzular ramzi, muhabbatning parvozi, ruhiy ozodlikka intilish va qalb sadolarining timsoli sifatida talqin etiladi. Shoira bu timsol orqali o‘zining ichki tuyg‘ularini, ruhiy iztiroblari va orzu-umidlarini ifoda etadi.

Qush obrazining tadriji esa shoira ijodiy kamoloti, fikrlarining chuqurlashuvi va falsafiy qarashlarining yetilish jarayonini aks ettiradi.

Ushbu tahlillar asosida aytish mumkinki, Xosiyat Rustamova o‘z she’rlarida qush timsolini nafaqat an’anaviy ma’nolarda, balki yangi badiiy qirralarda, individual dunyoqarash darajasida talqin etgan. Shu jihatdan, uning poetik obrazlar tizimida qush timsoli alohida o‘rin egallaydi va zamonaviy o‘zbek adabiyotining badiiy salohiyatini yanada boyitadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.D.Quronov, Z.Mamajonov, M.Sheraliyeva. Adabiyotshunoslik lug‘ati.– Toshkent: Akademnashr, 2013.–408 b.

2.Timofeyev L.I,Turayev S.V. Slovar literaturovedcheskix terminov. – Moskva: Prosveshyeniye 1974.– 267 b.

3.R.Rahmat. Adabiyotdan chiqish.–Toshkent: Akademnashr, 2015.–34 b.

4.Olim Oltinbek. Bir qushcha sayraydi mening ruhimda. Sharq yulduzi jurnali.– Toshkent: 2013, 6-son,145 b.

5.Xosiyat Rustamova. Osmondagi uy.–Toshkent: Yozuvchi, 1997.–32 b.

6.Xosiyat Rustamova. Najot.–Toshkent: Ma’naviyat, 2003.– 120 b.

5.Xosiyat Rustamova. “Rido”, “Yangi asr avlodi”, 2005.–118 b.

6.Xosiyat Rustamova. Devor.–Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006.–160 b.

7.Xosiyat Rustamova. Avgust. – Toshkent: 2008 yil.–148 b.

8.Rustamova Xosiyat. Devor.–Toshkent: Akademnashr, 2011.–144 b.

9.Rustamova Xosiyat. 40:0.– Toshkent: Istiqlol, 2011.–224 b.

YOSH HIKOYANAVISLARDA SHAKLLANGAN IJODIY POZITSIYA XUSUSIDA

Ulkanboyeva Matluba Hasanboy qizi,
O‘zbek tili, adabiyoti va folklori institute
tayanch doktoranti,
E-mail: matluba-1990@umail.uz
+998912811819

Annotatsiya: Maqolada globallashuv jarayonida insoniyat qanday aqliy-ruhiy muammolarni boshdan kechirayotgani, ekologik va genetik inqiroz, milliy o‘zlikni saqlab qolish bilan bog‘liq og‘riqlar, iqtisodiy va harbiy zarbalardan jarohatlangan qalb iztiroblari kabi ijtimoiy hodisalarning yosh hikoyanavislar ijodiga ta’siri masalasi tekshiriladi, bu jarayonda yosh mualliflarda shakllanib borayotgan novatorona ijodiy

pozitsiyaning jamiyatdagi o‘rni, xususan, o‘zbek nasri taraqqiyotidagi o‘rni o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: globallashuv, ijodkor pozitsiyasi, ijodiy pozitsiya, adabiy an’ana, novatorlik, hikoya, ijodiy ta’sir.

Annotation: This article examines the impact of social phenomena on the works of young storytellers, such as the mental and spiritual challenges humanity faces in the process of globalization, the ecological and genetic crisis, the struggles associated with preserving national identity, and the anguish of souls wounded by economic and military blows. It also explores the role of the emerging innovative creative position of young authors in society, particularly in the development of Uzbek prose.

Keywords: globalization, creator's position, creative position, literary tradition, innovation, story, creative influence.

Adabiyotshunoslikka oid so‘nggi tadqiqotlarda globallashuv jarayoni va uning badiiy adabiyotga ta’siri masalasiga tez-tez e’tibor qaratilmoqda. Darhaqiqat, butun dunyoni bir maydonga joylay olgan axborot asri ijodkor qarshisiga yangi talablar qo‘ymoqda. “Globallashuv butun Yer sayyorasini qamragan jahoniy jarayon sifatida jahon va milliy adabiyotimizdagi badiiy-intellektual merosni yangi nigoh bilan ko‘rib chiqish hamda ilmiy-badiiy talqin qilishni kun tartibiga qo‘yadi”. [2;4] Shuning uchun ayni masala yuzasidan olib borilayotgan tadqiqotlar soni sezilarli ortdi. O‘zRFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti “Adabiy aloqalar va adabiyot nazariyasi” bo‘limi tomonidan amalga oshirilayotgan “Globallashuv muammolarining badiiy talqini va zamondosh obrazi” nomli fundamental loyiha doirasida nashr etilgan “Globallashuv: badiiy talqin, zamon va qahramon -1”, “Globallashuv: badiiy talqin, zamon va qahramon -2” tadqiqotlari, filologiya fanlari doktori, professor Suvon Meliyevning “Global ilmiy-badiiy talqin poetikasi” nomli doktorlik dissertatsiyalari shular jumlasidandir.

O‘tgan davrda yozuvchi va ijodkorlarning qat’iy pozitsiyasi, irodasi adabiy maydonda ko‘rinib turar, ular ma’lum ma’noda ijtimoiy-siyosiy jarayonni boshqarishar ham edi. A.Qahhor, Oybek, O.Sharafiddinov kabilar o‘z pozitsiyasini namoyon qila olgan alohida shaxslar edi. XX asr boshlaridan istiqlolgacha bo‘lgan badiiy adabiyot ham, adabiy tanqidchilik ham ikki qutbga bo‘lingan: bir tomonda hukmron siyosat va zamonni olqishlaydigan, uning yo‘rig‘i va homiyligida kun ko‘radigan adabiyot bo‘lsa, ikkinchi bir tomon esa rasman mustabid hukumatga bo‘ysunganday

ko‘rinsa-da, aslida qalbida milliy davlatchilik, istiqlol orzusi qaynagan millatning asl adabiyoti edi. Qatag‘on siyosati adabiyot darg‘alarini qirib bitirgach, “Yashasin, Sho‘ro!” shiori va g‘oyasi ostida kun kechirgan rasmiy va siyosiy kuchga ega adabiyotga qarshi pinhona istiqlol dardi bilan og‘rigan A.Qahhor tevaragidagi A.Oripov, E.Vohidov, R.Parfi, O.Matjon, H.Xudoyberdiyeva, Sh.Xolmirzayev, E.A’zamov, Sh.Rahmon, U.Azim, X.Davron kabi ijodkorlarni birlashtirgan oppozitsion adabiyot ham yashadi, ramz va timsollar vositasida o‘z ijodiy kredosini belgiladi va bu borada salaflarining adabiy an’anasini davom ettirdi. Salaflarini qiynagan dardni boshqa libos kiydirib, boshqa shakl va ohang bilan yangilab borishdi. Bu borada munaqqid U.Normatovning qaydlari e’tiborga sazovor: “O‘sha kezlari “Qahhorning odami” degan gap yurardi. Xo‘sh, “Qahhorning odami”, ya’ni Qahhor davrasiga daxldorlar kimlar edi? 1967-yili U.Nazarov A.Qahhor haqida hujjatli film yaratishga chog‘langanida filmda suratga olish uchun adibning shaxsan o‘zi diliga yaqin bir guruh yozuvchi, shoir, adabiyotshunoslarni taklif etdi. Bular – Said Ahmad, O.Yoqubov, P.Qodirov, E.Vohidov, A.Oripov, O‘.Hoshimov, Sh.Xolmirzyev, adabiyotshunos-tanqidchilardan M.Qo‘shjonov, O.Sharafiddinov… ayni shu “Qahhor odamlari” XX asr ikkinchi yarmi o‘zbek adabiyoti va tanqidchiligining qiyofasini belgilaydigan ijodkorlardir. Ne baxtki, filmga taklif qilinganlar orasida men ham bor edim!”[Normatov, 2008: 191] Ushbu ko‘chirma ijodkor pozitsiyasi va jamiyatga ta’siri borasidagi qarashlarimizni tasdiqlaydi. Bugun esa globallashgan axborot asridagi ijtimoiy sharoitda ijodkor alohida ta’sir ko‘rsatish maqomida qola olmadi. Ijtimoiy tarmoqlarda axborot oqimi shunday tezlik bilan aylanadiki, endi nafaqat, ijodkorlar, balki istalgan soha vakili bir videosi, bir chiqishi bilan katta ko‘tarilishlarga sabab bo‘lishi mumkin. Endilikda, yosh ijodkorlar o‘z adabiy pozitsiyasini asarlari orqali ifodalashga urinmoqdalar. Boshqacha aytganda, zamonaviy adiblarning ijodkorlik pozitsiyasi asarlari bag‘rida ijodiy pzoitsiyaga aylangan.

Shakllangan ijodiy pozitsiyaga ega yosh adiblar safida A.Chimirzayevni ham tilga olish o‘rinli. Buni muallifning “Overton” nomli kitobidagi hikoyalari misolida tasdiqlash mumkin. “Overton” – yangi davrning hikoyasi. “Hech qanday qonunni buzmagan holda jinoyat qilishning ming xil usuli mavjud (“Overton” hikoyasi epigrafi) bo‘lgan zamonning badiiy aksi. Hikoyada miyaga joylangan vayronkor g‘oyaning yakson qiluvchi kuchi va uning ishlash mexanizmi ko‘rsatilgan. Poyonov domla darsda sotsiolog olim Jozef Overton tomonidan “Overton oynasi”

yoki “Yo‘q qilish texnologiyasi” deb nomlangan g‘oyaviy-siyosiy dastur ishlab chiqilgani va olimning o‘zi sirli tarzda halok bo‘lgani haqida aytadi va g‘oyalar turli qurollardan ham daxshatli ekanligini ta’kidlaydi. Sodda, dalag‘ay talaba Jobir bunga ishonmaydi, hech zamonda odam g‘oyadan ham o‘lar ekanmi deb qah-qah urib kuladi. Poyonov domla fikrining to‘g‘ri ekanligini isbotlab Jobirning adabini berish uchun guruhdagi boshqa talabalar bilan kelishib uning miyasiga zararli fikrni ekishga harakat qiladi. O‘n yetti kun deganda Jobir OITS yuqtirib olganiga ishonadi va joniga qasd qiladi. Uni qutqarib qolishadi, ammo Jobir indamas va tund qiyofaga kirib qoladi. Biroz vaqt o‘tgach payt poylab yurgan Jobir domla va kursdoshlaridan o‘ch oladi. Poyonov domla va kursdoshlariga taom tayyorlab turish vazifasini zimmasiga oladi va shunday qiladiki ular echki emas it go‘shtidan taom yeyishganiga ishonishadi. Yillar o‘tib, kursdoshlar jamlanganida Jobir shu voqeaga ishora qilib ularni ustidan kuladi. Alamda qolgan kursdoshlar Jobirni kaltaklashadi. Uni faqat xonadoshi Jo‘rayevgina himoya qiladi. Hikoya so‘ngida sir ochiladi. Jobir kursdoshlaridan himoya qilib yonida qolgan Jo‘rayevga haqiqatni aytadi. Ular o‘sha vaqtda haqiqatdan ham echki go‘shtidan taom yeyishganini, Jobir nayrang qilib ularni it go‘shtidan ovqat yeyishganiga ishontirganini bilgan Jo‘rayev bu haqiqatni kursdoshlarga aytish kerak deb hisoblaydi. Jobir esa: “Yo‘-o‘-o‘q, hech qachon! Ularga haqiqatni aytmayman, senam aytmaysan. Chunki ular hali men his qilgan azobni his qilgani yo‘q. Ular tirik, ammo meni o‘ldirdilar”[Chimirzayev, 2024: 127] degancha qorong‘ulik bag‘riga singib ketadi. Hikoya syujetiga diqqat qaratishdan maqsad - u ikki tomonlama aldov, bildirmay zarar yetkazish voqeligi (Avval Poyonov domla boshliq talabalar Jobirga bildirmay, uni aldashdi, ishontirishdi, keyin Jobir ularni aldadi, bildimay zarar yetkazdi) ustiga qurilganiga e’tibor qaratish. O‘zbek nasrida real voqelikdagi yolg‘onni badiiy asarda aks ettirish adabiy an’anaga aylangan. A.Qodiriy Otabekni Usta Alimqulga Shokir deb tanishtirdi, uch o‘g‘rini hech kimga bildirmay yakson qildirdi. Abdulla Qahhor Qobil boboni amaldorlarga laqma qildi. Shukur Xolmirzayevning bir guruh talabalari Botir cho‘ponni laqillatishdi. Nazar Eshonqul Arzixolning kimligini umrining oxirigacha sir tutdi. Shodiqul Hamroning hovlidagi daraxti tagiga g‘alamislar bildirmay zahar dori sepishdi, ildizini quritishdi. Aldash, bildirmay ish qilish gohi ezgulikka, gohi yovuzlikka xizmat qildi. Abdulla Chimirzayevning “Overton” to‘plamidagi aksariyat hikoyalar syujeti ana shunday aldov va bildirmay ish qilish voqeligi ustiga qurilgan. Bu shunday adabiy tendensiyaki, asarda qahramonlar voqelikni

ko‘ringaniday, ularga ko‘rsatishganiday tushunishadi, aslida esa ular ko‘rgan, tushungan voqelik yolg‘on, asl haqiqat boshqacha. Adibning bunday yo‘l tutishi uning adabiy pozitsiyasini belgilaydi. Muallif o‘quvchini voqelikni ko‘ringaniday tushunmaslikka chorlamoqda. Har qanday ko‘rsatilgan tomosha ko‘ringaniday, tushunilganiday bo‘lmasligi haqida ogohlantirmoqda. Vaziyat va hodisalarni tanqidiy, tahliliy fikrlab qabul qilishga undamoqda.

“Overton” hikoyasiga qaytsak. Hikoyaning qudrati syujet tugagandan so‘ng boshlanishida, mutolaadan so‘ng o‘quvchi qarshisiga savollar qo‘ya olishida. “Overton”ni o‘qiysiz, hikoyadan so‘ng o‘z-o‘zidan savollar tug‘iladi. Bizning ongimiz misoli shudgor ekan, xo‘sh, ongimizga qanday g‘oyalar ekilgan? Ekilgan g‘oyalar haqiqatga qanchalik yaqin? Ong-u shuurimiz qanday ishonch-e’tiqod bilan tiklangan? Biz nimalarga ishonamiz? Nimalarni to‘g‘ri deb bilamiz? Bolalarimizning ongiga qanday g‘oyalar ekilmoqda? Biz vayronkor, buzg‘unchi, o‘z-o‘zini yakson qiluvchi g‘oyalardan bolalarimizni asray olyapmizmi? Dunyoni egallash niyatidagi badbin kishilar bolalarimiz ongiga internet orqali nimalarni joylashmoqda? Bolalarimiz sevib o‘ynaydigan o‘yinchoqlar, sevib tomosha qiladigan multfilmlar, turli o‘yinlar alaloqibat ularga nimani o‘rgatadi? Javoblar og‘riqli bo‘lishi tabiiy. Yohud biz nimalarni iste’mol qilyapmiz? Yeguliklarimiz qanchalik bezarar? Qabul qilayotgan dorilarimizchi? “Dok1-maks” tufayli bevaqt o‘lim topgan begunoh go‘daklar uchun kim javobgar? Sun’iy, inson salomatligi uchun xavfli mahsulotlar allaqachon do‘kon-u rastlarimizni egallab olgan bir paytda uning daxshatini adabiyot his qildirmasa, his qilishga majbur qilmasa, ko‘zimiz ochilishi dargumon. Daxshatlar yuz beradi, media olami bong uradi, bugun diqqatini qaratgan mavzu ertaga eskiradi, media o‘ziga bu talotum dunyodan yana boshqa bir fojeani topib olaveradi. Odamlar ham media chiroq tutgan tomonga qarashadi, avvalgi fojealar ustidan parda tortiladi. Adabiyot esa bu og‘riqlarni abadiyatga muhrlashi shart. Og‘riqlar saboq berish uchun ham unutilmasligi kerak “Overton” ana shunday og‘riqlarni bir musht qilib o‘ziga tugib olgan hikoya. “Overton” ortida muallifning badiiy qiyofasi qad rostlab turibdi. Yosh nosirning ijodiga atoqli yozuvchi, adabiyotshunos olim U.Hamdam shunday bahor beradi: “Xo‘sh, uning bitiklari nimasi bilan o‘quvchini o‘ziga tortadi? “Avvalambor hayotiyligi bilan, keyin qisqa (istisnolar ham bor, maslan, “Overton”), lo‘nda va kutilmagan yakuni bilan”, deb javob bergan bo‘lardim”[Chimirzayev, 2024: 3]. Darhaqiqat, adib hikoyalarida mazmun va shaklning o‘zaro uyg‘unligi, tasvir va ifodaning haqqoniyligi, tiniq

badiiy pafosga egaligi hamda yozuvchining o‘zi yaratgan badiiy olamda estetik bahosi aniq ko‘rinishi bilan e’tiborga molik.

“Oqdum” hikoyasi ham yosh adibning muvaffaqiyatli asarlaridan biri. Unda parallel ravishda ikki uchlik gul-bulbul-chaqirtikanak arxetipi chiziladi. Oqdum – qo‘zi – bo‘ri bolasi uchligida qo‘zini himoya qilgan bo‘ribosar Oqdum roviy tomonidan o‘ldiriladi. Toshtemir – Mohinur – roviy uchligida esa bo‘ri kabi ochko‘z nafsi yo‘lida maymunlarcha harakat qilgan Toshtemir ham roviy tomonidan o‘ldiriladi. Birinchi uchlikda roviy ko‘rgan voqeligini notog‘ri talqin qilishi natijasida Oqdumni urib o‘ldirib qo‘yadi va alam bilan haqiqiy aybdor bo‘ri bolasini o‘ldirish maqsadida tayyorgarlik ko‘rayotib bo‘rinafs Toshtemirni otib qo‘yadi. Vaziyat haqida hukm qilish talqinga bog‘liq. Bir hodisa turli taraflar tomonidan turlicha talqin qilinishi mumkin. Olti va to‘qqizning mohiyati qaysi tomondan ko‘rishga bog‘liq. Qancha begunohlarni noto‘g‘ri talqin bilan jazolash mumkin. Oqdum – buning badiiy ramzi. Bugun media olam kimni qora qilishni istasa, qora qiliyapti, kimni oqlashni istasa, oqlayapti. Asl haqiqatni esa faqat fikrlab anglash mumkin. “Overton” va “Oqdum” hikoyalari voqealarni ko‘rsatilgani kabi emas, tanqidiy fikrlash orqali qabul qilishga chorlovchi hikoyalardir. “Chiptasiz o‘g‘ri”, “Oysiz osmon”, “Yolg‘iz kabutar”, “Xiyobon”, “Omonat yulduzlar” kabi qator hikoyalarni ham ayni shunday hikoyalar deb baholash mumkin. Chunki ushbu hikoyalarda ham ayni shu tendensiya – ko‘rsatilganidek, ko‘ringanidek tushunish emas, balki fikrlab anglash lozimligi haqidagi chaqiriq yozuvchining ijodiy pozitsiyasiga aylangan.

Xulosa qilib aytganda, globallashuv jarayonining iztiroblarga to‘la yangi davrida biz ko‘nikkan, xalqimiz o‘rgangan, adabiy jamoatchilik olqishlagan ijodkorlik pozitsiyasiga munosabat ham asta-sekin o‘zgarib bormoqda. Boshqacha aytganda, bir necha bor ta’kidlangan ijtimoiy zarbalar, og‘riqlar ta’sirida ijodkor pozitsiyasi tobora o‘z nufuzini yo‘qotmoqda. Shunday ijodiy taranglik sharoitida, ochiq-oshkora yozish qaltis hisoblanayotgan bir vaziyatda o‘zbek yosh nosirlari o‘ziga xos yo‘l tanlashmoqda. Ularning nazdida, endi ijodkor shaxsiyati va pozitsiyasi uyg‘un bo‘lishi jamiyat uchun muhim ahamiyat kasb etmay qo‘ydi, aniqrog‘i, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ijodkor pozitsiyasining adabiy ta’siri keskin kamaydi. Taraqqiyotniung mavjud g‘alati bosqichidagi holatlarni hisobga olib yosh nosirlar o‘zlarida ijodkorlik pozitsiyasini emas, balki faqat asarlarida bo‘y rostlaydigan ijodiy pozitsiyani shakllantirishga intilishmoqda. Novatorona yondashuv orqali ijodkorlik pozitsiyasining ijodiy pozitsiyaga aylanib borishi yoshlar

hikoyachiligi taraqqiyotida o‘ziga xos ko‘tarilish jarayoni boshlanganidan dalolatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Chimirzayev A. Overton – Toshkent: Anorbooks, 2024. – 152 b.
2. Globallashuv: badiiy talqin, zamon va qahramon -2. – Тошкент: Tamaddun, 2020. – 230 b.
3. Normatov U. Ijodkorning daxlsiz dunyosi – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2008 – 286 b.

AHMAD A’ZAM ROMANLARIDA PEYZAJ TASVIRLARI

Ubaydullayeva Rayxon Abdujalil qizi,
Guliston davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi,

rayhon121274@gmail.com
Tel:+998933207767

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ahmad A’zamning “Ro‘yo yoxud G‘ulistonga safar” romanidagi peyzaj tasvirlarining badiiy-falsafiy va kompozitsion ahamiyati tahlil etiladi. Asarda peyzaj tasvirlari oddiy tabiat manzarasi sifatida emas, balki inson ruhiyati, ichki izlanishlari va jamiyatdagi ma’naviy turg‘unlikni ifodalovchi ramziy vosita sifatida talqin qilinadi. Yo‘l, chang, sukunat kabi tasviriy detallar orqali muallif qahramonning ongiy uyg‘onish ehtiyoji, ma’naviy izsizlik va jamiyatda ezgulik izlarining yo‘qolganini yoritadi. Bu tasvirlar roman g‘oyasining chuqur ochilishiga xizmat qiluvchi muhim poetik-kompozitsion vosita sifatida e’tirof etiladi.

Kalit so‘zlar: Ahmad A’zam, peyzaj tasviri, badiiy-falsafiy talqin, ruhiy turg‘unlik, ramz, ongiy uyg‘onish, kompozitsion vosita, manzara, ichki kechinma, ma’naviy izlanish, jamiyat, adabiy tahlil.

Annotation: This article analyzes the artistic, philosophical and compositional significance of landscape images in Ahmad Azam's novel “A Dream or a Journey to the Land of Chains". In the work, landscape images are interpreted not as a simple landscape of nature, but as a symbolic means of expressing the human psyche, inner searches and spiritual stagnation in society. Through such pictorial details as the road, dust, and silence, the author highlights the hero's need for Awakening consciousness, spiritual abandonment, and the loss of traces of goodness in society. These images are recognized as an important poetic and compositional means that serves to deeply reveal the idea of the novel.

Keywords: Ahmad Azam, landscape image, artistic and philosophical interpretation, spiritual stagnation, symbol, awakening of consciousness, compositional environment, landscape, inner experience, spiritual search, society, literary analysis.

PEYZAJ (fr. paysage - joy, yurt) - adabiy asarda yaratiluvchi badiiy voqelikning muhim komponenti, voqealar kechuvchi ochiq makon (yopiq makon - interyer) tasviri. An'anaga ko'ra, peyzaj deyilganda tabiat tasviri tushuniladi, lekin bu xil tushunish birmuncha torroq, chunki peyzaj nafaqat tabiatni (agar bu so'z ostida birlamchi tabiat tushunilsa), balki u bilan birga inson tomonidan yaratilgan narsalar tasvirini xam ko'zda tutadi. [Д.Куронов, З.Мамажонов, М.Шералиева » 2013, 222-bet]

Peyzaj asardagi badiiy voqelikning muhim unsuri, voqealar kechadigan ochiq makon tasviridir. "Peyzaj" deganda, odatda, tabiat (daryo, ko'l, o'rmon, tog', osmon, dengiz va boshqa) manzarasi tasviri nazarda tutiladi. Bog', ko'cha, hovli singari inson qo'li bilan bunyod qilingan joylar tasviri ham peyzajdir. Uy, o'tov, xona singari yopiq joylar interyerdir. Badiiy asarlarda ana shunday yopiq makonlarning ko'rinishi, undagi narsalarning turishi, joylashishi ham tasvirlanadi. Peyzajning badiiy asardagi o'rni va ahamiyati voqea kechayotgan joy va vaqt haqida tasavvur berishi bilan belgilanadi. Epik asarlarda peyzajga lirika va drama asarlariga qiyoslaganda ancha keng o'rin beriladi. [Ulug'ov A , – 2017:69] Munaqqidning fikriga qo 'shilgan holda shuni aytish mumkinki, peyzaj badiiy asardagi voqelikni yorituvchi muhim badiiy vosita bo'lib, u voqealar kechadigan ochiq makon — tabiat manzaralari yoki inson tomonidan yaratilgan tashqi muhitni tasvirlash orqali o'quvchiga makon va vaqt haqida aniq tasavvur beradi. Daryo, tog', osmon, bog', ko'cha yoki hovli kabi ochiq joylar tasviri orqali muallif asardagi kayfiyat, voqealar rivoji va qahramonlarning ichki kechinmalarini yanada chuqurroq ochib beradi. Shuningdek, yopiq makon — uy, xona, o'tov singari interyer tasvirlari ham badiiy ifoda vositasi sifatida xizmat qiladi. Ayniqsa, epik asarlarda peyzaj tasvirlari keng va batafsil berilib, ular voqeaga real muhit yaratish, obrazlar ruhiy holatini aks ettirish va asarning umumiy g'oyasini yoritishda muhim rol o'ynaydi.

Ahmad A'zamning romanlarida peyzaj tasvirlari o'zining badiiy go'zalligi, ramziy mazmuni va kompozitsion ahamiyati bilan ajralib turadi. Muallif tabiat manzaralarini oddiy bezak sifatida emas, balki qahramonning ruhiy holati, ichki izlanishlari va asarning g'oyaviy yo'nalishini yorituvchi vosita sifatida qo'llaydi. Ayniqsa, "Ro'yo yoxud

G‘ulistonga safar” romanida peyzajlar o‘ziga xos falsafiy-estetik ruhda tasvirlanib, insoniyatning ma’naviy iztiroblari va ongiy uyg‘onish holatlari bilan uyg‘unlashadi. Asarda “Sayohatning eng boshi” nomli bo‘limidanoq peyzaj tasvirining berilishi juda muhim badiiy va semantik yuklama kasb etadi. Romanning boshlanishidayoq o‘quvchi qarshisida sirli, g‘ayritabiiy, hatto bir oz xayoliy manzara ochiladi: “*Men ham shunday ketayotgan edim, bir vaqti diqqat qilsam, yo‘l bo‘yida doim qatorlashib turadigan belgilar yo‘q; yangi shiorlar bor edi, ularning ham birontasi ko‘rinmaydi, asfalt ham oqish, yo‘l qora emas, rezina ishqalanishining doimgi yuqumi bilinmaydi, g‘ildiraklarning shig‘illab-g‘uvillab, yo‘lning palaxsa beton uloqlariga gurs-gurs urilishi yo‘qolgan, mashina yumshoq, mayin bir gilamda ketayotgandek. Sal sekinlatdim, yo‘ldek yo‘l, bir qarashda yaxshi, tep-tekis. Ammo bu yaqin o‘rtada odam o‘tmagan, bir enlik chang bosgandek, orqamda bulutdek karvon-karvon to‘zon turgandir, deb qarasam, yo‘q, faqat yengilgina g‘ubor yer bag‘irlab ergashyapti. Mashinani to‘xtatdim, motorni o‘chirib, eshikni ochdim. Atrof chekichegarasi yo‘q, adoqsiz biyobon. Hech qanday xavf ko‘rinmasa-da, tushishga oyog‘im tortmadi. Yo‘lni bosgan narsa changga ham o‘xshamaydi, sichqon terisidek mayin yiltiraydi, xuddi tegirmondagi un gardidek. Shundan bildimki, bu gard bir-ikki kunlik yo haftalik emas, balki oylar, ehtimolki, yillar bo‘yi shunday yotibdi. Hech bir iz yo‘q, kaft bilan silab chiqqandek sidirg‘a tekis, changga hatto qush panjasining izi ham tushmagan. Atrof tim-tirs, osmon artilgan shishadek tovlanadi, shunaqa tozaki, agar uzoqdan qush uchib o‘tsa, silkinayotgan qanotlarini ham aniq-taniq chizib qo‘ysa bo‘ladigandek. Paustovskiydamidi, «havo jaranglaydi», deb o‘qigan edim, bu yer ham shunday. Lekin o‘lik, yo‘q, allanechuk harakatsiz, qotib qolgan chiroysiz manzara”* [A.A’zam, 2011:32].

Bizga ma’lumki, peyzaj — bu tabiat manzarasi, atrof-muhit tasviri bo‘lib, badiiy asarda ko‘pincha qahramonning ruhiy holatini, ichki kechinmalarini ifodalash, asarning g‘oyasini yoritish uchun xizmat qiladi. Ushbu parcha aynan shunday funksiyani bajaradi**.** Yo‘lning tabiiy holatdan farqlanishi (tasvirdagi g‘alati sokinlik)**:** yo‘l *“oqish”, “chang bosgan”, “rezina hidiyam yo‘q”, “to‘zon yo‘q”* — bu jihatlar inson ongining so‘nishi**,** ruhiy turg‘unlik ramzidir. Asarning asosiy g‘oyasi **—** inson ma’naviy yo‘ldan adashishi**,** ruhiy izlanishga tushishi**,** ongining uyg‘onishi bo‘lsa, bu tasvir ana shu g‘oyaning prologi vazifasini bajaradi. Olamning harakatsizligi va o‘lik sukunati**:** *“Hech qanday xavf yo‘q, lekin tushishga oyog‘im tortmadi”, “havo jaranglaydi”, “qotib qolgan chiroysiz*

manzara” — bu jumlalar orqali inson ruhiyati ichki xavotirda, lekin bu aniqlanmagan, ong ostida yashirin qo‘rquv sifatida aks etmoqda. Bu tushunsizlik va tashvishli holat orqali muallif jamiyatning ichki turg‘unligi, axloqiy muammolari haqida ishora beradi. Ramziy chang va yo‘l – yo‘nalishsizlik belgisi**:** *“...yillar bo‘yi shunday yotibdi”, “...hatto qush panjasi izi ham yo‘q”* – bu umidsizlik**,** ijtimoiy va ma’naviy izsiz yo‘lni ifodalaydi. Asarning g‘oyasiga ko‘ra, bu **—** inson yo‘lidan adashgan**,** jamiyatdagi to‘xtab qolgan tafakkur va ezgulik yo‘lining izsizligi ramzidir. Manzaraning o‘lik sukunati, izsiz yo‘l va chang ramzlari orqali muallif inson ongining uyg‘onishga ehtiyoji borligini ko‘rsatadi. Shubhasiz, bu peyzaj asarning falsafiy-ruhiy g‘oyasini chuqur ochishga xizmat qiluvchi kompozitsion vosita hisoblanadi.

Asarning “Bolaligim qushlari” deb nom olgan 16-bobida shunday peyzaj tasviri beriladi: “*Tavakkal deb tashqariga chiqsam, bu yog’i kengish dala. Unda-bunda har xil mirzaterak, ko‘kterak, tut, tol, jiyda tarqoq o‘sib yotibdi, albatta, olma ham bor, ariqda suv oqadi, bedapoya, polizlar. Nariroqda katta bug‘doypoya. Bug‘doyi o‘rib olingan, ichida dumini yelpib bir ot yuribdi; quruq somonni chimdilash unga nima zaril, tushunmadim, lekin qadrdonimni ko‘rgandek xursand bo‘lib ketdim. Borib bo‘ynidan silasammi deb chog‘lanib turgan edim, birdan qulog‘imga «tra-tra» degan tovush kelib, boshqa hayajonga cho‘mdim. Ha, shu tovushni eshitdim-u, hali nimadan chiqqanini ko‘rmay ham, tug‘ilgan qishlog‘im, Bulung‘urning suviga sho‘ng‘iyvergandan betim to‘rlab ketgan bolaligim yarq etib ko‘z oldimga kelsa!” [*[1] A.A’zam. 2011:123]

Parchada keng dala, turli daraxtlar (mirzaterak, ko‘kterak, tut, tol, jiyda, olma), ariq, bedapoya va polizlar kabi manzaralar hayotiy va realistik ruhda tasvirlangan. Bu detallar o‘zbek qishlog‘i hayotiga xos bo‘lgan elementlar bo‘lib, muallif tabiiy muhit orqali milliy ruhni jonlantiradi. *Otning quruq somonni chimdilashi* — oddiy harakat emas, balki qahramonning otga, bolalikka bo‘lgan mehrini uyg‘otuvchi emotsional detal. *“Qadrdonimni ko‘rgandek xursand bo‘lib ketdim”* degan jumla — nostalgik hissiyotlarning yorqin ifodasi. *“Tra-tra”* tovushi — qahramonni hozirgi zamondan to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zining bolaligidagi muhitga, qishlog‘iga olib boradi. Tovush orqali tasvirlangan bu o‘tish — sensor detallar (eshitish, ko‘rish, sezish) orqali o‘quvchining ongida kuchli ta’sir uyg‘otadi. Tashqi peyzaj aslida qahramonning ruhiy dunyosini aks ettiradi. U osoyishtalik, sokinlik, sadoqat va bolalik ramzidir. Daraxtlar, ariq, bedapoya, ot – bularning har biri o‘zbek qishloq hayoti**,** tabiatga yaqinlik**,** tabiiylik timsolidir. Bu esa yozuvchining milliy ruhni

ulug‘lashdagi asosiy usulidir. *“Bulung‘urning suviga sho‘ng‘ib ketgan bolaligim...”* degan ifoda — ko‘rgan manzara va eshitgan tovush orqali qanday qilib ong osti xotiralar jonlanishini ko‘rsatadi. Ushbu parcha klassik peyzaj tasviri bo‘lib, u shunchaki manzara emas**,** ruhiy, ma’naviy va xotiraviy qatlamlarga ega. Bu peyzaj tasviri orqali qahramonning ichki olami ochiladi**,** milliy muhit yaratiladi va asar g‘oyasi — o‘zlikni anglash, bolalikni eslash, ma’naviy ildizlarga qaytish kuchli ta’sir bilan ifodalanadi.

Endi asarda keltirilgan juda chiroyli tabiat manzarasiga e’tiborimizni qarataylik. Muallif bunday go‘zal manzaralarni asar davomida juda ko‘p tasvirlaydi. Umuman, Ahmad A’zam ajoyib peyzaj tasvirlarini yaratuvchi mohir rassom*: “Bir marta, ko‘klamda Namanganga borgan edim. O‘rik ayni gullagan payt. Rulda, yo‘l bo‘yi o‘rik gullaganini tomosha qilib ketdim. Odamlarning hovlisida, tomorqasida bittadan, yo to‘rtta-beshtadan to‘p bo‘lib gullab yotgan o‘rik odamga boshqacha kayfiyat beradi. Ayniqsa, ko‘m-ko‘k dala yo o‘t bosgan tepaning ustida gullagan yolg‘iz o‘rik xuddi oppoq kelinlik libosiga o‘ralib, yana boshiga fatasini ham tashlab olgan farishta qiz oyog‘i yerga tegar-tegmas uchib kelayotgandek, odamning ichi hovliqib ketadi. Dovonda, tog‘dagi o‘riklar hali gullamagan, lekin dovon oshib tushib, sal yurgandan keyin Pop hududiga kirganda, hayratdan hayqirib yuboray dedim. Mashinada bir o‘zim, tovushimni hech kim eshitmaydi, keyin hayqirdim ham. Nima deganim esimda yo‘q, lekin hayajonda rosa tovush berdim, yo‘q, ashula aytmadim, shunchaki, yovvoyi, tizginsiz na’ra tortaverdim, o‘rikzor ham tugamadi, bir-biriga ulanib ketaverdi, haligi farishta kelinlar to Namangan shahriga etib borgunimgacha tizilishgan, galalashib o‘ynagan, “no’l to’qqiz”ni quvlagan! Tomog‘im bo‘g‘ilib qoldi. Yurtimizda shunday go‘zal manzaralarni ko‘p ko’rganman-u, lekin ko‘klamda Namanganning o‘rikzorlari shunaqa zo‘r bo‘lishini, yana shunaqa bir-biriga ulanib, bu qadar cho‘zilib yotishini bilmagan ekanman”.* [A.A’zam, 2011;102]

Parchadagi o‘rik gullari, tabiat manzarasi bolalikdagi beg‘ubor, sof tuyg‘ularni esga soladi. Muallif tabiat orqali ma’naviy soflik va qutlug‘ yodgorliklarni tilak qilish g‘oyasini ilgari suradi. Bu parchada o‘quvchida ona yurtga muhabbat, bolalikni qadrlash hissi uyg‘otiladi. Tabiatning go‘zal manzarasi qahramonning ruhiy uyg‘onishiga**,** his-tuyg‘ular va qalbdagi tozalikka qaytishiga sabab bo‘ladi. Ushbu peyzaj insonning ichki holatiga ta’sir qiluvchi ruhiy quvvat sifatida namoyon bo‘ladi. Asarda inson va tabiatning uyg‘unligi g‘oyasi ochiladi. O‘rik daraxti, olis qishloq, tabiiy manzara — milliylik va o‘zlikni his qilishga chorlaydi. Bu orqali asarda milliy o‘zligimiz, qadriyatlarimiz, vatanparvarlik g‘oyalari ilgari

suriladi. Go‘zal manzara fonida qahramonda tug‘ilgan “vazmin hayajon”, “ovoz chiqarib quvonish” istagi – yaqin kelajakga ishonch va umid tuyg‘usini ifodalaydi. Bu asarning ijobiy ruhi va umidbaxsh g‘oyasiga xizmat qiladi. Peyzaj nafaqat tabiatning go‘zalligini ifoda etish, balki inson qalbidagi tuyg‘ularni ochish, bolalik va Vatan haqidagi g‘oyalarni yuraklarga yetkazish uchun xizmat qiluvchi muhim vosita sifatida asar g‘oyasini yorqinlashtiradi. Ta’kidlaganimizdek, romanda juda ko‘plab peyzaj namunalari beriladi, 23-bob “Tabiat baribir yurakka yaqin-da”, “Bolaligim qushlari” deb nom olgan 16-bob, “Shu havoda yana yo‘l” nomli 38- boblar to ‘laligicha peyzaj tasviriga bag‘ishlangan. Ushbu boblar asarning umumiy ruhiy-estetik yo‘nalishini chuqurlashtirish, qahramon ruhiyatini yanada chuqurroq anglash hamda inson va tabiat o‘rtasidagi rishtalarni yoritish maqsadida to‘laligicha peyzaj tasviriga bag‘ishlangan. “Tabiat baribir yurakka yaqin-da” bobida tabiat – inson yuragiga yaqin, doimiy hamroh, ma’naviy tayanch sifatida ko‘rsatiladi. Tabiat orqali qahramon tinchlik, xotirjamlik, sobitlik topadi. “Bolaligim qushlari” bobida tasvirlangan manzaralar orqali qahramonning beg‘ubor bolaligi, o‘tmishi yodga olinadi. Bu orqali o‘zlikni anglash, o‘tmishga mehr, ma’naviy ildizlar tasviri yuzaga chiqadi. “Shu havoda yana yo‘l” bobida yo‘l va uni o‘rab turgan manzara – bu hayot yo‘li, tafakkur sayohati ramzi sifatida tasvirlanadi. Yo‘l manzaralari bilan birga ichki iztiroblar, orzular, hayajonlar, yo‘ldagi izlanish holatlari aks ettiriladi. Ushbu boblar orqali muallif tabiatni inson hayoti va ongining ajralmas qismi sifatida ko‘rsatadi.

Ahmad A’zamning “Ro‘yo yoxud G‘ulistonga safar” romanida peyzaj tasvirlari oddiy estetik unsur emas, balki asarning falsafiy va ruhiy qatlamlarini ochuvchi muhim badiiy vosita sifatida xizmat qiladi. Yo‘l, chang, harakatsizlik va o‘lik sukunat orqali muallif inson ruhiyatidagi turg‘unlik, ma’naviy yo‘ldan adashish, ichki iztirob va uyg‘onishga bo‘lgan ehtiyojni ifodalaydi. Bu manzaralar ramziy ma’noga ega bo‘lib jamiyatdagi axloqiy inqiroz va tafakkurdagi to‘xtab qolish holatiga ishora qiladi. Shunday qilib, peyzaj tasvirlari roman kompozitsiyasining ajralmas qismi sifatida asarning asosiy g‘oyasini chuqur yoritishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.A’zam. Ro‘yo yoxud G‘ulistonga safar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2011. – B. 299.
2. Д.Куронов, З.Мамажонов, М.Шералиева Адабиётшунослик лугати. –Тошкент: Akademnashr, 2013. – B.222.
3. Ulug‘ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. – B.158.

MATN VA MANBALARNING TIL XUSUSIYATLARI

O‘TKIR HOSHIMOVNING TIL, NUTQ VA USLUB HAQIDAGI TALQINLARI XUSUSIDA

Uluqov Nosirjon,
NamDU o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori
Tel.+ *99894 154 15 47*
E-mail: *onomastika66@mail.ru*

Annotatsiya. Maqolada mashhur yozuvchi O‘tkir Hoshimovning til, ona tili va uning ulug‘ligi, muqaddasligi, so‘zning qudrati, xususan, o‘zbek tilining boyligi, sehr-u jozibasi, imkoniyatlari, badiiy nutq va uslubning o‘ziga xos xususiyatlari, nutq odobi va madaniyati haqidagi qarashlari xususida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *til, ona tili, nutq, badiiy nutq, uslub, so‘z, so‘z ma’nolari.*

Annotation. The article reflected on the views of the famous writer Utkir Hoshimov on language, native language and its glory, holiness, power of the word, in particular, the wealth of the Uzbek language, magic-it charm, possibilities, peculiarities of artistic speech and style, speech etiquette and culture.

Keywords: *language, native language, speech, artistic speech, style, word, word meanings.*

Til, nutq va uslubiyat masalalarini o‘rganishda yozuvchi, shoirlarning
ham nazariy, ham badiiy qarashlari muhim ahamiyatga ega. O‘.Hoshimovning “Nom ham husn belgisi” (“Toshkent oqshomi” gazetasi,1968), “Til bilgan dil biladi (O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi asoslari haqida)” (“Sovet O‘zbekistoni” gazetasi, 1989, 12-sentyabr), “So‘z qudrati” (“Milliy tiklanish” gazetasi, 2004, 25-iyun), “Abdulla Qahhor saboqlari” (“O‘zbek tili va adabiyoti” jurnali, 1987, № 4. – B. 3-13), “So‘z – eng sehrli san’at” (“Yozuvchi” gazetasi, 1997, fevral), “Reklama ommabop bo‘lsin” (“Xalq so‘zi” gazetasi, 1998, 28-avgust), “Tog‘dek yuksak, dengizdek teran” (“Darakchi” gazetasi, 2008, 3-fevral)

kabi lingvopublisistik maqola hamda suhbatlarida, “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” nomli mashhur hayotiy hikmatlari, falsafiy qaydlari va boshqa asarlaridagi bu boradagi qarashlari, talqinlari ham hayotiyligi, asosliligi, mantiqiyligi bilan tavsiflanadi.

Adib inson uchun ona tilining ulug‘ muqaddas va buyukligini hayotiy dalillar bilan asoslaydi: *“Qancha ko‘p tilni bilsangiz, shuncha yaxshi. Biroq odam ona tilida tafakkur qiladi, ona tilida tush ko‘radi, ona tilida yig‘laydi... O‘limi oldidan onasini ona tilida yo‘qlaydi...”*[1:39] Anglashiladiki, ona tili insonning mavjudligi asosi, tamal toshi. Inson ona tilisi bilan tirik.

Boshqa bir o‘rinda adib haqli ravishda ona tilini onaday muqaddasligiga ishora qiladi: *“Ona tilini unutmoq – o‘z onasini unutmoq bilan teng!”* [1:144]

Adib ta’kidlaganidek, *“So‘z – muqaddas tushuncha”. So‘zning joziba va qudratini adib gavhar va hanjarga mengizadi:*

“ So‘z – chig‘anoq ichidagi gavhar.
So‘z – qin ichidagi hanjar...” [1:175]

Ko‘rinadiki, adib so‘zning ijobiy va salbiy qirralarini obrazli ifodalagan.

Adib nutq odobi masalasida fikr yuritar ekan, odamlar so‘zni ham nonday qadrlashini orzulaydi: *“Odamlar So‘z uvolidan ham Non uvolidan qo‘rqqanchalik qo‘rqsalar olam guliston bo‘lur edi”.* [1:190]

O‘.Hoshimov yozuvchiga so‘z qo‘llash borasida qo‘yiladigan talablar
xususida obrazli qiyos va talqinlar bilan quyidagicha fikr bildiradi: *“Haqiqiy dengizchi ummonda o‘zini qanchalik erkin his qilsa, haqiqiy yozuvchi ham so‘zlar ummonida shunchalik erkin suzishi kerak. To‘rtta jumla yozmay turib, u yog‘iga so‘z topolmay qoladigan odamdan yozuvchi chiqmaydi”* [2:34].

“Har qanday kasb egasining ish quroli va mehnat maydoni bo‘ladi. Deylik, bog‘bonning ish quroli – tokqaychi, mehnat maydoni – bog‘. Dehqonning ish quroli – ketmon, mehnat maydoni – dala, jarrohning ish quroli nashtar, mehnat maydoni – shifoxona degandek... Ijod ahli, birinchi navbatda shoir adiblarning ish quroli – qalam va so‘z, mehnat maydoni, ya’ni tasvir obyekti esa – hayot va odamlar ... [2:96]

Odatda, asar tug‘ilishi jarayonida kerakli so‘zlarning o‘zi quyilib keladi. Biroq “quyilib kelgan” so‘zlarning duch kelganini ishlatish to‘g‘ri emas. Chinakam ijodkor o‘nta muqobil orasidan bitta, eng kerakligini tanlab olish, ya’ni so‘z ummonida suzayotib,“bo‘sh chig‘anoq”ni emas,

“ichida gavhari bor” chig‘anoqni olib chiqishi lozim. Lekin bu har kimning qo‘lidan keladigan oddiy jarayon emas. [2:97]

Adibning talqinicha, *“So‘z – qudratli, ta’sirchan va ma’suliyatli qurol. Ijodkorning so‘z boyligi qancha ko‘p bo‘lsa, yozish jarayoni shuncha tez va tabiiy kechadi.”* [2:96]

Nutqning ta’sir doirasi va kuchi haqida fikr yuritib, yozuvchi va adibning nutqi minglab o‘quvchiga yetib borishini to‘g‘ri ko‘rsatgan holda, unda nutq aytish, so‘z qo‘llash ma’suliyati yuksak bo‘lishi lozimligini ta’kidlaydi:

“Maktab o‘qituvchisining So‘zi o‘ttiz bolaga yetib boradi.
Dorilfunun domlasining So‘zi yuz talabaga yetib boradi.
Notiqning So‘zi ming tinglovchiga yetib boradi.
Qalamkashning So‘zi bir yo‘la o‘n ming, yuz ming kitobxonga yetib boradi. Demak, uning So‘z mas’uliyati ham boshqalarnikidan ming hissa ortiqroqdir”. [2:42]

Adib adabiy til uslublari (turlari) haqida fikr yuritar ekan, badiiy tilning, ya’ni uslubning imkoniyatlari kengligini – til lug‘aviy birliklarining barchasidan foydalanishi mumkinligini quyidagicha izohlaydi: *“Adabiy til harchand boy bo‘lmasin, badiiy tilga teng kelolmaydi. Negaki, sheva, lahja, jargonga oid so‘zlar, kasb-hunar atamalari, so‘kinish va qarg‘ishlar unga kirmaydi. Adabiy til artib, tozalab qo‘yilgan chiroyli idishga o‘xshaydi.*

Badiiy til esa faqat so‘z ma’nosini emas, uning ohangi, “rangi”, “ta’mi”, “isi”ni ham tashishga qodir”. [2:36]

Ko‘rinadiki, adib adabiy tilning ishlangan, sayqallangan va me’yorga soliganligini misoli “yuvib artilgan idish”ga qiyoslaydi hamda badiiy tilda so‘zning qo‘shimcha ekspressiv-emotsional xususiyati – o‘ziga xos “ohangi”, “rangi”, “ta’mi”, “isi” ham namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi. Bu fikrlar ilmiy adabiyotlardagi tilning funktsional vazifalariga doir nazariy qarashlarning asosli, tushunarli va ohorli talqinlaridir.

Kasb-kori, saviyasi, ehtiyoji, ijtimoiy mavqei nuqtai nazaridan farqlanuvchi guruhlar nutqidagi farqlanish va o‘zgachaliklarni ifodalashiga ko‘ra badiiy til boy va jozibador ekanligini ko‘rsatadi: *“Ziyoli oilada o‘sgan o‘n sakkiz yashar qizaloq bilan bozorda somsa sotadigan xotinning so‘z ohangi, madrasada o‘qiydigan mullavachcha bilan o‘n yil qamoqda o‘tirgan odamning gapirishi tubdan farq qiladi. Biroq ularning hammasi yashashga haqli. Badiiy til esa ularni asarga olib kirishga haqli...*

Shu jihatdan badiiy til adabiy tilga nisbatan bir necha marta boyroq va jonliroqdir”. [2:36]

Adib o‘zbek tilining boyligini ta’kidlar ekan, aniq dalillar, yorqin misollar keltiradi: *“Muhabbat” degani so‘z hamma tillarda bor. Inglizlarda – “Lav”, nemislarda – “Libe”, frantsuz tilida “Amur”, rus tilida “Lyubov”... “Lyubov k materi”... “Lyubov k Rodine”, Albatta, barcha tillirda bu so‘zning bir necha xil ifodasi ham bor.*

Ammo o‘zbek tilida “Muhabbat” degan so‘z shu qadar rango-rang ma’nolarga egaki, hayratda qolasiz! “Yoqtirib qolmoq”, “Ko‘ngil bermoq”, “Moyil bo‘lmoq”, “Hushtor bo‘lmoq”, “Oshufta bo‘lmoq”, “Dil bermoq”, “Bedil bo‘lmoq”, “Mubtalo bo‘lmoq”, “Maftun bo‘lmoq”, “Mahbub bo‘lmoq”, “Oshiq bo‘lmoq”, “Yaxshi ko‘rmoq”, “Ishqi tushmoq”, “Ishqi foniy”, “Ishqi boqiy”, “Sevgi”, “Muhabbat”, “Mehr” va hokazolar... Tabiiyki, bular orasida boshqa tillardan kirganlari ham bor. Biroq ularning barchasi – teng huquqli o‘zbek so‘zlari!

Gap faqat bunda ham emas. Bu iboralarning hammasi umumma’noni anglatadi va ... har biri alohida ma’no tashiydi!” [2:38]

Bu o‘rinda adib o‘zbek tilida so‘zlarning ma’no doirasining kengligi va sinonimlarga boyligini ham o‘ziga xos sinchkovlik bilan e’tirof etadi.

O‘tkir Hoshimov tilning lug‘aviy va uslubiy imkoniyatlarini mohir va nozik so‘z san’atkori sifatida tahlil qilar ekan, tilning ichki tabiatiga, xalqning milliy mentalitetiga ko‘ra so‘zlarning ma’noviy va uslubiy jihatdan bog‘lanish xususiyatlariga ko‘ra ham o‘zbek tili o‘ziga xos lisoniy o‘zgachalikka ega ekanligini, bir sinonimik qatorga mansub so‘z va frazeologizmlar o‘z ma’no ottenkasi, uslubiy bo‘yog‘i bilan farqlanishini zukkolik bilan dalillaydi: *“Boshqa tillarda uchrashi mushkul bo‘lgan g‘alati holatlarni ko‘ramiz. “Vatanga moyil bo‘lmoq” degan ibora kulgili tuyuladi. “Vatanni sevmoq” deyiladi. “Ota sevgisi” degani shakkoklikka o‘tib ketadi. “Ona ishqi” degani gunoh hisoblanadi. Farzandning onaga “xushtor bo‘lmog‘i” do‘zaxiylik sanaladi. “Ota-ona mehri”, “Farzandning ota-onani yaxshi ko‘rishi”, “Farzand mehri” deyiladi...*

Shunday qilib, “Yoqtirib qolmoq” bilan “Ko‘ngil bermoq”, “Ko‘ngil bermoq” bilan “Oshiq bo‘lmoq”, “Oshiq bo‘lmoq” bilan “Sevmoq”, “Sevmoq” bilan “Muhabbat”, “Muhabbat” bilan “Yaxshi ko‘rmoq”, “Yaxshi ko‘rmoq” bilan “Mehr” orasida uzoq, juda uzoq masofa bor...

Tilimiz naqadar rango-rang! Tilimiz naqadar boy!” [2:38]

Adib “So‘z boyligini oshirish uchun nima qilish kerak?“ – degan savolga quyidagicha javob beradi: *“Ijodkor qancha ko‘p o‘qisa, so‘z boyligi shunchak oshadi, degani rost. Biroq kitob o‘qish bilan so‘z*

xazinasini to‘ldirish qiyin. Bu xazina xalqning o‘zida yotibdi. Bir so‘zga o‘nta ma’noni yukaydigan askiya degan narsa faqat o‘zbekda bor!

So‘zning tag‘in bir xazinasi – bozor! Bozorga kirib, aqali ikki soat aylansangiz, shunaqangi “tesha tegmagan” gaplarni eshitasizki, bunaqasini yigirma jildli izohli lug‘atdan topolmaysiz”. [1:39]

Yozuvchining yuqoridagi qarashlarini, fikr-u mulohazalarini oliy o‘quv yurtlari, umumiy o‘rta ta’lim maktablari va akademik litseylarda ona tili va adabiyot darslari hamda sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda uslubiyat, nutq madaniyati, lingvopoetika, badiiy asar tili, yozuvchi uslubi masalalarini o‘qitishda foydalanish saboqlar hayotiyligini ta’minlaydi, samaradorligini oshiradi. [3:28-29]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ҳошимов Ў. Дафтар ҳошиясидаги битиклар. – Тошкент: Sharq, 2009.
2. Ҳошимов Ў. Саккизинчи мўъжиза. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2009. – B. 16.
3. Улуқов Н. Сўз – чиғаноқ ичидаги гавҳар// Тил ва адабиёт таълими, 2012. – № 11. – Б. 28- 29.

ЛИНГВОТЕКСТОЛОГИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ДВУЯЗЫЧНЫХ БУХАРСКИХ ЧЕЛОБИТНЫХ И ИХ РУССКИХ ПЕРЕВОДОВ XVII ВЕКА

Кулмаматов Дусмамат Саттарович,
доктор филологических наук, профессор,
Узбекский государственный университет
мировых языков, Узбекистан
E-mail: kulmamatov1956@mail.ru
tel.: (+99891) 589-95-54

Аннотация: В статье исследуются челобитные бухарских послов и гонцов XVII в., написанные арабской графикой на официальных среднеазиатских языках – тюрки и фарси и современные им скорописные русские переводы, хранящиеся в фонде 109 «Сношения России с Бухарой». Посольского приказа Российского государственного архива древних актов (РГАДА) в Москве. На фактическом материале анализируются структура и формуляр (легенда переводчика; начальный протокол; основная часть; конечный протокол), история создания двуязычных – тюрко-персидских текстов челобитных бухарских послов, написанных

язычеями (муллами), а также их русские переводы, выполненные переводчиками Посольского приказа XVII в. Исследуются русские слова, использованные в тюрко-персидских текстах челобитных бухарских послов. Отмечаются, что: 1) переводческое дело со среднеазиатских языков – тюрки и фарси на русский язык и наоборот началось благодаря дипломатическим документам – челобитных послов, ярлыков ханов, адресованным правителям и должностным лицам России, а также грамот русских царей, направленных ханам Бухары и Хивы; 2) регулярная дипломатическая переписка между Московским государством и Бухарским ханством содействовала взаимообогащению словарного состава русского и среднеазиатских (тюрки, фарси) языков.

Ключевые слова: челобитная, посол, гонец, двуязычный, Бухара, Россия, тюрко-персидский текст, русский перевод.

Annotatsiya. Maqolada Moskvadagi Rossiya qadimiy aktlar davlat arxivi Elchilik devoning 109 “Rossiyaning Buxopo bilan aloqalari” fondida saqlanayotgan arab alifbosi bilan O‘rta Osiyo rasmiy – turkiy va fors tillarida yozilgan XVII asr Buxoro elchilari hamda choparlari arznomalari va ularning zamonaviy ruscha tezyozuvli tarjimalari tadqiq qilingan. Faktik material asosida yozuvchilar (mullolar) tomonidan yozilgan turkiycha-forscha ikkitilli buxorolik elchilar va choparlar arznomalarining matni hamda XVII asr Elchlik devoni tarjimonlari tomonidan bajarilgan ularning ruscha tarjimalarini strukturasi va formulyari (tarjimon legendasi; boshlang‘ich protocol; asosiy qism; so‘ngi protokol) yaratilishinig tarixi tahlil qilingan. Turkiycha-forscha ikkitilli buxorolik elchilar arznomalari matnlarida qo‘llanilgan ruscha so‘zlar tadqiq qilingan. Shu bilan birga 1) O‘rta Osiyo – turkiy va fors tillaridan rus tiliga va aksincha tarjima ishlari diplomatik hujjatlar – elchilar arznomalari, Rossiya hukmdorlari va amaldorlariga yo‘llangan xonlar yorliqlari hamda rus podsholarining Buxoro va Xiva xonlariga yo‘llagan gramotalari tufayli boshlangani; Moskva davlati va Buxoro xonligi o‘rtasidagi muntazam diplomatik yozishmalar rus va O‘rta Osiyo tillari lug‘atini o‘zaro boyitishga ko‘maklashgani qayd etilgan.

Kalit so‘zlar: arznoma, elchi, chopar, ikkitilli, Buxoro, Rossiya, turkiycha-forscha matn, ruscha tarjima.

Развитие общества всегда способствовало контактированию языков и в устной, и в письменной форме. Об этом свидетельствуют

дошедшие до нас многочисленные оригинальные и переводные рукописные источники, но недостаточное исследование содержания их не дает возможности воссоздать реальную картину взаимоотношения народов мира и их языков. И порою это ведет к непониманию и недооценке формирования и развития языков в прошлые эпохи. Этот пробел можно восполнить путем введения в научный оборот огромного количества переводных письменных памятников, особенно поздних исторических периодов (XVI–XVII вв.), хранящихся в центральных и местных архивах стран Европы и Востока, в частности, России и Средней Азии. Большое количество подобных бесценных официальных документов содержится в фондах, в частности 109 «Сношения России с Бухарой». Посольского приказа Российского государственного архива древних актов (РГАДА) в Москве. Немаловажный интерес среди них представляют челобитные[3] бухарских послов и гонцов XVII в. Как свидетельствуют их содержание, они писались арабской графикой на официальных среднеазиатских языках – тюрки и фарси после их приезда в Россию язычеями [Кулмаматов, 2018: 105–109], муллами [Кулмаматов, 2023: 130–131], входившими в состав посольства, на имя российских царей. Согласно установленным дипломатическим обычаям в то время, эти посольские челобитные обязательно переводились на русский язык и вручались самим царям или же дьякам Посольского приказа [Кулмаматов, 1995: 105–106].

Челобитные бухарских послов писались в соответствии с правилами, установленными царской канцелярии. Но структура и формуляр старых русских переводов бухарских челобитных XVII в., в отличие от собственно русских, в значительной мере зависят от их иноязычных оригиналов, но и последние, направленные русским царям, уже в какой-то степени оказались приспособленными к русским традициям. Поэтому они имели единую четкую структуру и свой формуляр, которые обычно состоят из 1) вводного протокола («легенды переводчика»[4]), 2) зачина – начального протокола, 3) основной части и 4) концовки – конечного протокола [Волков, 1974: 22; Садыхлы, 1973: 4]. Под термином «структура» мы понимаем общее построение документа. А «формуляр» – это состав и порядок

[3]**Челобитная** – это акт, содержащий в себе просьбу или жалобу о чем-нибудь [Кулмаматов, 1995: 102].

[4] «Легенда переводчика» – условный термин, он был введен в научный оборот нами [Кулмаматов, 1983: 8]. Это заглавие, содержащееся в начале старинных русских переводов дипломатических документов среднеазиатского происхождения, писалось самими переводчиками.

расположения частей акта, состоящих, в свою очередь, из одной или нескольких формул, устойчивых и не устойчивых словосочетаний, а также предложений.

Особый интерес представляют тексты бухарских челобитных, написанных одновременно на двух восточных языках: обращение челобитчика-адресанта к царю-адресату с перечислением титулов – на среднеазиатском тюрки, остальная часть – на фарси. Употребление в одном документе двух разных языков можно объяснить тем, что абсолютное большинство восточных переводчиков и толмачей Посольского приказа хорошо владели тюркскими языками, в силу чего, наверное, ими была выработана устойчивая формула написания титула царя, как явно переведенная с русского языка. Поэтому среднеазиатские писцы – язычеи, муллы при оформлении начального протокола челобитных своих послов и гонцов пользовались этим традиционным титулатурным штампом, выработанным царской канцелярией в XVII в. В этом отношении привлекают внимание челобитные, имеющие при себе современные им русские переводы бухарского посла Ишкузы Ногая [РГАДА, фонд 109, опись 1, 1644 год, дело 1, лист 107 – текст на среднеазиатском тюрки-фарси, л. 108 – русский перевод; соответственно см. лл. 117/118; 129/130; 139/141; 140/143; 156/157; 166/167; 170/171; 174/175; 251/253; 254/255; 259/260], бухарского гонца Шихбабы [РГАДА, лл. 99/100; 213/214].

Вышесказанное можно подтвердить документально одной из челобитных, от 18 февраля 1644 г., бухарского посла Ишкузея Ногая царю Михаилу Федоровичу с просьбой об отпуске его до Казани по санному пути, а в Астрахань судном. Иноязычный текст ее написан черными чернилами, а русский перевод – коричневыми чернилами на бумаге иностранного происхождения, филиграни – гербы – прослеживаются плохо (см. таблицу 1):

Текст челобитной на среднеазиатском тюрки-фарси	Старинный русский перевод челобитной
1. Вводный протокол	
Восточное приветствие, обращенное к Аллаху [hu]	**«Легенда переводчика»** 
2. Зачин – начальный протокол	
 [ūġ pādišāh xān ham ūlūġ biy mīxāylā fūdūrāvīj jomle ūrūsnīk pādišāhī ‘ālam panāhī wa kūb mamlekatlārde būlsā pādišāhī wa homkamdār barā haẓrat nadir mahamad xānrā īljī īš kūzāy nūġāy sar mīzanad]	
3. Основная часть	
 که ما را الحال در ین وقت به جنه تا قزان فرستند که جون یخ شیکسته شود با کمه به حاجی ترخان فرستند رویم که حضرت خان ما را فرموده بودند که تیز کشته	

[ke mā rā ālhāl dar īn waqt bē čane tā qazān farastand ke jūn yax šīkaste šūd bā kame be hājī tarxān farastand rawīm ke haẓrat xān mā rā farmūde būdand ke tīz kašte]	
4. Конечный протокол	
 پناهی امر امر پادشاه عالم پناه است [panāhī āmer āmer pādišāh ‘ālam panāh ast]	

Сличение бухарской челобитной с её русским переводом XVII в. показало следующее.

1. Иноязычный оригинал начинается с восточного приветствия, обращенного к Аллаху. Оно состоит из одного слова, выраженного арабским местоимением 3 л. ед. ч. وه [hū] (‘Он – Аллах’),

2. В старинном русском переводе местоимение هو [hū] (‘Он – Аллах’) оставлено без перевода.

3. Старинный русский перевод начинается с вводного протокола – «легенды переводчика», где даются сведения о его авторе, о характере документа, адресате, доставщике (после, гонце) и дате. Он представляет собой двусоставное предложение и начинается с подлежащего, выраженного существительным – словом *перевод*.

Следует констатировать, что бухарские послы XVII в. в текстах своих челобитных, написанных на среднеазиатских тюрки-фарси, употребляли ряд русских слов: یسر [yasir] – *ясыр*, قوروم [qūrūm] – *корм* [РГАДА, ф. 109, оп. 1, 1644 г., д. 1, лл. 107/108], مسکاو [maskōv] – *Москва* [лл. 139/141], زابس [zābis], پودیاچی [pūdyāčī] (بودیاچی [būdyāčī], بودیاجی [būdyājī]) – *польячий* [лл. 144/145], کوبچین [kūbčīn] – *купчин* [лл. 170/171], کناز [kināz] – *воевода* [лл. 252/253]. Это объясняется тем, что, вероятно, семантика этих слов челобитчикам (послам) была хорошо известна, поэтому они применяли русские слова в весьма точном значении и для того, чтобы употребление их восточных соответствий не вызвало недоразумений из-за неоднозначности последних.

Подводя итог вышеизложенному, можно прийти к следующие заключению:

1)тексты челобитных бухарских послов на среднеазиатских языках – фарси, тюрки, тюрки-фарси писались арабской графикой язычеями и муллами, приезжавшими в Россию в составе посольства;

2)скорописные русские переводы иноязычных бухарских челобитных осуществлялись переводчиками Посольского приказа или съезжих изб (канцелярий) русских городов;

3)переводческое дело со среднеазиатских языков – тюрки и фарси на русский язык и наоборот началось благодаря дипломатическим документам – челобитных послов, ярлыков ханов, адресованным правителям и должностным лицам России, а также грамот русских царей, направленных ханам Бухары и Хивы;

4)регулярная дипломатическая переписка между Московским государством и Бухарским ханством содействовала взаимообогащению словарного состава русского и среднеазиатских (тюрки, фарси) языков.

Использованные литературы:

1. Волков С.С. Лексика русских челобитных XVII века. – Изд-во ЛГУ, 1974. – 163 с.
2. Кулмаматов Д. С. Среднеазиатские деловые документы в русском переводе XVII в. – источник истории русского языка // Вопросы языкознания. – М.: Наука, 1995. – № 4. – С. 101–110.
3. Кулмаматов Д. С. Старые русские переводы хивинских и бухарских челобитных XVII в. как лингвистический источник. Автореф. дисс. … канд. филол. наук. – М.: МПГУ, 1983. – 16 с.
4. Кулмаматов Д.С. Язычей // Русская речь. – М.: Наука, 2018. – С. 105–109. Московских челобитных
5. Садыхлы Н.Е. Лексика московских челобитных XVII в.: Автореф. дисс. … канд. филол. наук. – Баку, 1973. – 22 с.

AZƏRBAYCAN VƏ ÖZBƏK TÜRKCƏLƏRİNİN MÜQAYİSƏLİ FRAZEOLOGİYASI

Hüseynova Mahirə Nağı qızı,
ADPU-nun Beynəlxalq əlaqələr üzrə prorektori
Filologiya elmləri doktoru, professor
Azərbaycan
Email: huseynova.mahira@yandex.ru

Annotasiya. Bu məqalədə Azərbaycan və özbək türkcələrində frazeoloji vahidlərin struktur-semantik xüsusiyyətləri, tarixi və mənşə

baxımından oxşar və fərqli cəhətləri araşdırılır. Frazeologiya termini və bu sahənin tədqiqi ilə bağlı elmi yanaşmalar təqdim olunur. Müəllif frazeoloji vahidlərin leksik və qrammatik modellərini müqayisə edərək, qohum dillər arasında frazeologizmlərin məcazi mənada uyğunluğunu və tərcümə problemlərini izah edir. Əsas diqqət feilli frazeologizmlərə, onların çoxmənalılığına və omonim-sinonim münasibətlərinə yönəldilir. Atalar sözləri və məsəllərin frazeoloji qatın formalaşmasında rolu göstərilir. Tədqiqat nəticəsində müəyyən olunur ki, Azərbaycan və özbək türkcələri frazeoloji sistem baxımından bir çox ortaq cəhətə malikdir, bu da ümumtürk dili baxımından mühüm elmi əhəmiyyət daşıyır. Məqalə dilçilik, türkologiya və müqayisəli frazeologiya sahələri üçün faydalı tədqiqat materialı hesab olunur.

Açar sözlər: Azərbaycan dili, özbək dili, frazeologiya, frazeoloji vahidlər, müqayisəli dilçilik, semantika, idiomlar, türk dilləri.

Annotation. This article explores the structural and semantic features of phraseological units in Azerbaijani and Uzbek Turkic languages, analyzing their similarities and differences from historical and etymological perspectives. The concept of phraseology and scholarly approaches to its study are discussed in detail. The author compares the lexical and grammatical models of phraseological units, highlighting metaphorical parallels and challenges in translation between these closely related languages. Special attention is given to verbal phraseological units, their polysemy, and relationships of synonymy and homonymy. The role of proverbs and sayings in the development of the phraseological layer of language is also examined. The study reveals that Azerbaijani and Uzbek languages share a significant number of common features in their phraseological systems, reflecting a broader Turkic linguistic unity. This article contributes valuable insights to the fields of linguistics, Turkology, and comparative phraseology, serving as a useful source for researchers interested in the cultural and structural aspects of Turkic languages.

Keywords: Azerbaijani, Uzbek, phraseology, phraseological units, comparative linguistics, semantics, idioms, Turkic language.

Dünya dil modelinə “frazeologiya” termini yunancadan daxil olmuş və mənası “ifadə haqqında təlim” deməkdir. Azərbaycan və özbək dilçiliyinin müstəqil sahələrindən biri kimi, “frazeologiya tarixi bir kateqoriya hesab edilir və dilin frazeoloji sistemini öyrənir. Dillərin frazeoloji sistemində onun struktur-semantik xüsusiyyətləri, milli keyfiyyətləri, ümumi və xüsusi cəhətləri tədqiq edilir. Alınma termin kimi,

A.Qurbanov nitq mədəniyyəti məsələlərindən bəhs edərkən nitq və dilin münasibəti məsələsinə toxunmuş, dilin ictimai, nitqin fərdi xüsusiyyətlərindən bəhs etmiş, mədəni nitq üçün iki cəhətin – düzgünlük və kamilliyin əsas olduğunu qeyd etmişdir.

Görkəmli alim düzgün nitqdən danışarkən onun on normasına: fonetik, orfoepik, leksik, onomastik, semantik, frazeoloji, derivatoloji, morfoloji, sintaktik və üslubi normalarına əməl etməyin zəruri olduğunu qeyd etmişdir. O, kamil nitq vasitələrindən yerli-yerində istifadə olunmasını əsas şərt hesab etmiş, dəqiq, zəngin, aydın, təmiz, məntiqi, yığcam, ifadəli, təsirli nitqi «kamil nitq» adlandırmışdır. Deməli, kamil nitq bu xüsusiyyətlər əsasında şərh edilməli və bu zaman vurğu, fasilə, nitqin tempi, mimika və jestlərdən istifadə edilməsi, bədii ifadə vasitələrinin işlədilməsi və s. haqqında məlumat verilməli, bunların hər biri

bədii nümunələr əsasında şərh edilməklə tələbələrdə aydın təsəvvür yaradılmalıdır.

Prof. A.Qurbanov «Nitq mədəniyyəti problemləri və Azərbaycan dilçiliyinin vəzifələri» məqaləsində nitq mədəniyyətini xalqın ümumi mədəniyyətinin ayrılmaz hissəsi adlandırmış, mədəni nitqə verilən tələblərdən bəhs etmiş, sözdən istifadə bacarığına, söz seçiminə xüsusi diqqət yetirməyin zəruri olduğunu qeyd etmişdir.

A. Qurbanov nitq mədəniyyətini müasir dövrdə dilçiliyin aktual problemi kimi qeyd edir. Müəllifin fikrincə, hər bir şəxsin həm şifahi, həm də yazılı nitqi zəngin lüğət tərkibinə malik olmalı, orfoepik və orfoqrafik normalara əsaslanmalı, qrammatik qayda-qanunları, üslubi normaları gözləməlidir. Bunlar ümumilikdə ədəbi dil normalarını təşkil edir. Qeyd etmək lazımdır ki, məktəbə hazırlıq dövründən başlayaraq uşaqlarda nitq mədəniyyəti elementləri aşılanmalıdır.

A. Qurbanov belə hesab edirdi ki, nitq mədəniyyəti təkcə Azərbaycan dilinin incəliklərinin öyrənilməsində yox, həmçinin Azərbaycan ədəbiyyatı fənninin mənimsənilməsində də mühüm rol oynayır. Çünki, praktik məşğələlərin, demək olar ki, hamısında ədəbi-bədii materiallardan istifadə olunur.

Nitq mədəniyyətini şərtləndirən ikinci başlıca xüsusiyyət kamillikdir. Kamil nitqlə bağlı olaraq A. Qurbanovun gəldiyi qənaət də çox dəqiq və düzgündür. O, qeyd edir ki, kamil nitq üçün bir neçə amil mövcuddur: nitqin dəqiqliyi, zənginliyi, aydınlığı, təmizliyi, məntiqiliyi, yığcamlılığı, ifadəliliyi, nitqin təsirliyi və s. Kamil nitq bu xüsusiyyətlər əsasında şərh olunmalıdır. Məsələn, “nitqin ifadəliliyi” anlayışının mahiyyətini izah edərkən şifahi ifadəli nitq vasitələri olan vurğu, fasilə, nitqin tempi, ucadan və alçaqdan deyilməsi, nitq prosesində mimika və əl hərəkətindən istifadə olunması, nitq hissələrinin ifadəlilik imkanları, inversiya, ellipsis, antiteza, anafora, ritorik sual kimi sintaktik ifadə vasitələri barədə məlumat verilməlidir.

Ümumiyyətlə, prof. Afad Qurbanov və nitq mədəniyyəti məsələləri dedikdə, yaradıcı alimin 1956-cı ildən müasir dövrlərə qədər nitq problemləri ilə bağlı apardığı tədqiqat işləri, rəhbərliyilə keçirilən konfranslar müstəsna əhəmiyyətə malikdir.

Ədəbiyyat siyahisi:

1. Afad Qurbanov və onun onomastika məktəbi. /red.N.Xudiyev, Bakı, Gənclik, 1999, 32 səh.

2. Afad Qurbanov-70. Bakı, Elm, 1999, 92 səh.

3. Qurbanov A. Azərbaycan dilçiliyi problemləri. 13 cilddə, I c., Bakı, Nurlan, 2004, 444 səh.
4. Qurbanov A. Azərbaycan dilçiliyi problemləri. 13 cilddə, II c., Bakı, 2009, 280 səh.
5. Qurbanov A. Azərbaycan onomologiyasının əsasları. 2cilddə, I c., Bakı, Nurlan, 2004, 340 səh.

BADIIY MATNDA QISHLOQ XO‘JALIGI TERMINLARI LINGVOPOETIKASI

Jamolitdinova Dilnoza Mirxojiddinova,
Qo‘qon davlat universiteti
filologiya fanlari doktori, professor,
E-mail: *dilnozajamolitdinova@gmail.com*
Tel: *(+99890)556-55-81*
Maxmudova Dilafruz Alijonovna,
Qo‘qon davlat universiteti o‘qituvchisi
E-mail: dilafruzmaxmudova137@gmail.com
Tel: (+99890)567-35-72

Annotatsiya: Maqolada badiiy matnda qishloq xo‘jaligi terminlarining linvopoetik xususiyatlarini matn qurshovida aniqlash maqsadga muvofiqligi ifodalangan.

Kalit so‘zlar: Terminlar, badiiy adabiyot, qishloq xo‘jaligi terminlari, badiiy matn, linvopoetika, metafora, badiiy-estetik butunlik, poetik aktuallashuv.

Annotation: The article highlights the feasibility of identifying the linguistic and poetic properties of agricultural terms in literary texts within the context of the text.

Keywords: Terms, fiction, agricultural terms, literary text, linguopoetics, metaphor, artistic-aesthetic whole, poetic actualization.

Dunyoni obrazli idrok etish san’ati yaralibdiki, bu san’atning ifoda vositasi bo‘lgan so‘z, tilni tugal talqin etmoqday mashaqqatli yumush inson tasavvuri va tafakkurini muttasil band etib keladi.

Ma’rifatparvar adib Abdurauf Fitrat bejizga: “Go‘zal san’atlarda tovar (materiyol) tovush, ohang bulsa, go‘zal san’at musiqiy bo‘ladir; buyovlar, chiziqlar bo‘lsa, rasm bo‘ladir; tosh yo bosh ka turli ma’danlar esa, haykalchilik buladir; tosh, yog‘och, kirpich, ganj, tuproq bo‘lsa, me’morliq bo‘ladir; tan, myg‘a (muqom, mimika) harakatlari esa, o‘yun

(tans) bo‘ladir; gap, so‘z esa, adabiyot bo‘ladir” deb juda chiroyli tarzda adabiyotga ta’rif beradi: “Adabiyot - fikr, tuyg‘ularimizdagi to‘lqunlarni so‘zlar, gaplar yordami bilan tasvir qilib, boshqalarda xam xuddi shu to‘lqunlarni yaratmoqdir.

Badiiy matnda terminlar ijodkorning badiiy tafakkuri bilan bog‘liq holda metafora, o‘xshatish vazifasida qo‘llanilib, lingvopoetik maqsadni amalga oshirishda muhim rol’ o‘ynaydi. Boshqacha qilib aytganda, hech qanday termin alohida olinganda, lingvopoetik qimmatga ega emas, u bu qimmatni faqat matn ichida, boshqa so‘zlar bilan bog‘langandagina o‘zida namoyon eta oladi.

O‘zbek tili texnik terminologiyasi tizimida detallar, mexanizmlar, qishloq xo‘jaligi atamalari, mashina qismlari hamda buyum asboblarini anglatish uchun xoslangan ko‘z, oyoq, qadam, barmoq, qo‘ltiq, to‘siq, qobirg‘a, og‘iz, tirnoq, quloq, pichoq, quti, taroq, qozon, qoshiq, panja, musht, tuynuk, til, tish, ketmon, traktor kabi so‘zlar talay miqdorni tashkil qiladi. Ilmiy matnlarda bu so‘zlar o‘zlarining birlamchi (denonativ) ma’nosini yo‘qotib, yakka ma’noli ilmiy atamaga aylanadi. Badiiy asarlarda ko‘p ma’noli bo‘lib kelishi mumkin.

Jumladan, qishloq xo‘jaligi terminlarini badiiy adabiyotda qo‘llash ushbu soxa terminlariga qo‘shimcha ma’no yuklaydi. Bu o‘rinda qishloq xo‘jaligi terminini alohida qaraydigan bo‘lsak, qishloq xo‘jaligi bu birlamchi tarmoqning iqtisodiy faoliyatidir.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaradigan mahsulot hajmiga ko‘ra quyidagicha tavsiflanadi:

Yordamchi dehqonchilik: ushbu qishloq xo‘jaligining asosiy maqsadi ishlab chiqarishning past darajasini saqlab qolishdir. Yagona maqsad barqaror jamoani boqishdir va bu odamlar sonini kamaytiradi. Bu juda past ishlab chiqarish bo‘lgani uchun, odatda tuproqning katta o‘zgarishiga olib kelmaydi.

Sanoat qishloq xo‘jaligi: bu tuproqdan katta hajmdagi oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishdan iborat. Bu nafaqat inson ehtiyojlarini qondirishni kafolatlaydigan, balki boshqa mamlakatlarga oziq-ovqat mahsulotlarini eksport qilishning ortiqcha qismini tijoratlashtirishga intiladigan sanoatlashgan va rivojlangan mamlakatlarga xosdir.

Qishloq xo‘jaligining boshqa turlari ishlab chiqarish jarayonida suvning ahamiyatiga asoslanadi. Bular quyidagilar:

Sug‘orish: Bu qishloq xo‘jaligining asosiy turi, chunki u sug‘orish tizimiga ega va sug‘orishda turli tabiiy va sun'iy usullardan foydalanadi.

Bu yerdagi barcha turlar doimiy suvga muhtoj. Eng yaxshi ma'lum sug‘orish tizimlaridan biri bu tomchilatib sug‘orishdir.

Yomg‘ir: bu yerda sun'iy ravishda sug‘orish kerak emas, ammo ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan namlik yomg‘ir bilan ta'minlanadi. Fermerning aralashishiga hojat yo‘q.

Amaldagi ishlab chiqarish vositalariga va ularning ishlash ko‘rsatkichlariga qarab qishloq xo‘jaligining boshqa turlari farqlanadi:

Ekstensiv qishloq xo‘jaligi: ekstensiv qishloq xo‘jaligining maqsadi nafaqat iqtisodiy ko‘rsatkichlar, balki tuproqni parvarish qilishdir. Buning sababi shundaki, eroziya yerlarining katta maydonlaridan foydalaniladi va ishlab chiqarish darajasi pastroq bo‘ladi. Ekstensiv qishloq xo‘jaligining asosiy afzalligi shundaki, tuproqlar buzilmaydi va u bunday katta ta'sirga ega emas.

Intensiv qishloq xo‘jaligi: asosiy maqsad yerdagi juda kichik maydonda oziq-ovqat mahsulotlarini ommaviy ishlab chiqarishdir. Madaniyatning bu turi atrof-muhitga zarar yetkazadi, chunki u tuproqning sifatini pasaytirib, unumdorligini yo‘qotishiga olib keladi. Odatda u barcha sanoati rivojlangan mamlakatlarda qo‘llaniladi.

Asosiy maqsadda qo‘llaniladigan texnikaga qarab, qishloq xo‘jaligining boshqa turlari mavjud:

Industrial: Ushbu ishlab chiqarish shakli mahalliy bozorda va ortiqcha eksport qilish uchun ko‘p miqdordagi oziq-ovqat mahsulotlarini olishga qaratilgan.

Ekologik qishloq xo‘jaligi: uning ustuvorligi atrof-muhitni o‘zgartirish va ta'sirlarni minimallashtirish emas. Tuproqni parvarish qilish ustuvor vazifa bo‘lishi kerak va buning uchun tegishli usullar va texnologiyalar qo‘llaniladi.

An'anaviy qishloq xo‘jaligi: Bu asosan ma'lum bir mintaqaning mahalliy texnikasidan foydalanish bilan tavsiflanadi. Ushbu usullarning barchasi joy madaniyati tufayli avloddan-avlodga tarqaldi.

Qishloq xo‘jaligi sohasidagi ba'zi muhim terminlar, badiiy matnni rang-barang va jonli qilishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, “bog‘”, “yerni sug‘orish”, “unib-o‘sish”, “yerning unumdorligi”, “suv” kabi atamalar faqat ilmiy ma'noda emas, balki tasviriy xususiyatlarga ega bo‘lib, yozuvchi orqali qishloq hayotining go‘zalligi yoki ayrim og‘ir jihatlarini o‘qiruvchiga yetkazishda qo‘llaniladi.

Bog‘: Bu termin yozuvchilarga insonning tabiat bilan uyg‘unlashgan hayotini, uning mehnatdagi yuksalishini yoki qisqacha qishloq hayotining tinchligini ifodalashda yordam beradi. Misol uchun: “Bog‘ning qiyaliklari

quyuq yashil va mevali bo‘lib, har bir daraxt go‘zal, ammo har bir mevasi shu qadar o‘simlikdan mustaqil hayot kechirgan edi.“

Suv va Sug‘orish: Suv – yerning hayotini ta'minlovchi asosiy omil bo‘lib, badiiy adabiyotda ko‘plab metaforalarga aylanadi. Yozuvchi tomonidan sug‘orish jarayoni faqat qishloq hayotini aks ettirmay, balki insonning ruhiy holatini ham tasvirlash uchun ishlatiladi. Masalan: “Suvni sug‘orish va to‘g‘ri yo‘naltirish yerning jonli ruhini uyg‘otadi, lekin odam ham o‘zini yangilashni bilishi kerak.“

Unumdorlik: Yerni unumdor qilib, ekinlarni yaxshi hosil olish qishloq mehnatining asosiy maqsadi hisoblanadi. Badiiy adabiyotda bu atama ko‘pincha insonning hayotidagi o‘zgarishlar, ba'zan esa uning yengillik va qiyinchiliklarini ta'kidlash uchun ishlatiladi. Misol: “Yerni unumdor qilish, ko‘ngilni ham xuddi shunday, yengil va yorqin qilishni talab qiladi.“

Mahmud Qoshg‘ariyning (Devonu lug‘otit turk)asarida čanoq so‘zi 1)o‘yib yasalgan kichik hajmdagi yog‘och idish,2)kosa, tovoq, lagancha ma’nolarida qo‘llangan(DTS 1969.138.). Bu leksema eski o‘zbek adabiy tilida hayvonlar suv ichadigan idish(ANATIL.III 1984.450.)ma’nosini anglatgan.

So‘z mulkining sultoni Alisher Navoiy ijodida ham qishloq xo‘jaligida ishlatiladigan terminlar uchraydi. Masalan, besh dostondan iborat bo‘lgan “Xamsa” dostonining “Farhod va Shirin ” dostonida “tesha” atamasi ishlatilganini ko‘rishimiz mumkin:

Bu xoro tesha birla bo‘lmas afgor,

Nechukkim tesha metin aylamas kor.

Bu yerda ustachilik va xo‘jalikda ishlatilgan buyumlarning maydalashda ishlatiluvchi buyum ma’nosida kelganiga guvoh bo‘lamiz.

Shuningdek, O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romanida urush davridagi qishloq aholisining hayoti tasvirlangan. Unda front ortidagi ayollarning mashaqqatli mehnati, qishloq hayotida kerak bo‘ladigan barcha mehnat qurollarini badiiy tilda yorqin tasvirlanganligining guvohi bo‘lamiz. Masalan: Bultur traktor tepib, bir oy azob chekkanim yodimga keldi...

Xulosa shuki, so‘zlar kabi qishloq xo‘jaligi terminlarining ham ma’noviy xususiyatlarini matn qurshovida aniqlash maqsadga muvofiq, chunki,qishloq xo‘jaligi terminlari badiiy adabiyotda katta o‘rin tutadi. Yozuvchilar bu soha atamalarini faqat ilmiy yoki amaliy kontekstda emas, balki chuqur ma'no va tasvirlarni yaratishda qo‘llashadi. Ular yordamida hayotning go‘zalligi, og‘irligi va uning ruhiy tajribalari ta’riflanadi.

Shunday qilib, qishloq xo‘jaligi terminlari nafaqat ilmiy, balki badiiy matnlarda ham muhim ahamiyatga ega va ularni tasvirlash orqali yozuvchi o‘z ijodida yangi ma'no qatlamlarini ochadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hoshimov O‘. Ikki eshik orasi. – Toshkent, 2015.
2. Adabiyot. Darslik 9-sinf.– Toshkent, 2019.
3. Abdushukurov B. Eski turkiy til leksikasi. – Toshkent, 2015.
4. Dadaboyev X. Voennaya leksika. – Toshkent: Fan, 1990. – C. 3-83.
5. Abdulkhayeva, M. The Role of Dictations in the Development of Students' Written Speech in the First Class. International Journal of Innovative Research in Science, Engineering and Technology.

SAID AHMAD IJODINING AYRIM TIL XUSUSIYATLARI

Babaxanova Dilarom Axmatxanovna,
Namangan davlat universiteti
filologiya fanlari nomzodi, dotsent
E-mail: *dilarombabaxanova@gmail.com*
Tel: *(+99890) 599-63-17*

Annotatsiya: Maqolada Said Ahmadning odamlar o‘rtasida tez-tez uchrab turadigan maqtanchoqlik, chalamullalik, manmanlik, yolg‘onchilik, xushomadgo‘ylik, ovsarlik, meshchanlik, kaltafahmlik kabi illatlarni betakror voqealarda, shiddatli to‘qnashuvlarda ochib berishi o‘zbek tilining boy imkoniyatlaridan va o‘zining betakror uslubiga tayangan holda obraz yaratishi ko‘rsatilgan. Shu orqali Said Ahmadning o‘zbek tili va uslubiyatiga qo’shgan hissasi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Said Ahmad, hajviya, o‘zbek tili, uslubiyat, sinonimlar, dialektizmlar, kinoya, ma’naviy kamolot, badiiy nutq, matn, obraz.

Annotation: The article shows that Said Ahmad's exposure of such vices as boastfulness, arrogance, conceit, deceit, flattery, insolence, and short-sightedness, which are often found among people, in unique incidents and violent conflicts, creates an image based on the rich possibilities of the Uzbek language and his unique style. Through this, Said Ahmad's contribution to the Uzbek language and style is highlighted.

Keywords: Said Ahmad, humor, Uzbek language, methodology, synonyms, dialectisms, irony, spiritual maturity, artistic speech, text, image.

O‘zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmad nafaqat o‘zbek adabiyoti, balki o‘zbek adabiy tili, uning nutq madaniyati va uslubiyati sohasi rivojiga ulkan hissa qo‘sha olgan buyuk adibdir. Said Ahmadning hajviy asarlari o‘zbek adabiy tilida muhim o‘rin tutadi. Ona tilimizning rivojlanishi uning umummilliy adabiy til darajasiga ko‘tarilishida badiiy adabiyotning yozuvchi ijodining ro‘li kattadir.

Said Ahmadning “Tortiq” deb atalgan birinchi kitobi hikoyalar to‘plami bo‘lib, u nashrdan chiqqanida Said Ahmad hali yigirma yoshga ham to‘lmagan edi. Bu kitobdagi hikoyalar bir-biridan kulgili, hazilga boy, ko‘ngilochar edi. Zero har bir asar nutq hadisasi, til faktidan iborat. [Солижонов И., 2002: 46]. Badiiy adabiyot – inson faoliyati mahsuli. [Куронов Д., 2006: 25]. U faqat ko‘p yozgani uchungina emas, balki yozganlari san’atkorlik jihatidan ham yuksak darajada bo‘lgani uchun ham ko‘pchilikning diqqat e’tiborini qozondi. Badiiy nutq- matn mazmunini tinglovchiga yetkazuvchi vosita. [Лапасов Ж., 1995: 10]. So‘z nihoyatda murakkab xususiyatlarga ega bo‘lgan til birligidir. Ana shu murakkab til birligidan o‘rinli mahorat bilan foydalanish zarur. So‘z o‘rni bilan qo‘llanilsa, u badiiy ijodda yozuvchining o‘ziga xos usuliga aylanadi. Said Ahmad ham o‘zining badiiy ijodi davrida sinonim va frazeologik birliklardan ko‘p foydalangan. Har bir frazeologik birliklarni hikoyaga, ya’ni hajviyaga mos tarzda, o‘ziga xos usul bilan qo‘llay olgan. Masalan, “Qosimjonning boshi osmonga yetdi”. (“Kataysa”, 31-b.). Bunday frazeologik birliklar o‘rni bilan badiiy-estetik vazifani bajaradi. Said Ahmad bulardan tashqari, kinoya uslubidan ham keng va salmoqli foydalangan. Kinoya hajviy yo‘nalishdagi asarlarda o‘ziga xos kulgili matn hosil qiluvchi uslub bo‘lib, u matn mazmunini tashkil qilgan til birliklarining to‘g‘ri ma’nolariga butunlay qarama-qarshi qo‘yilgan yashirin ma’nolar ifodasi bilan yuzaga keladi.

Ba’zan yozuvchi bamaylixotir kuladi va jiddiy holda gapiradi-yu, ammo so‘zlarni o‘z asl ma’nosiga qarama-qarshi ma’noda qo‘llab, biror kishi, uning qilig‘i yoki hodisa ustidan kesatib, masxaraomuz kuladi. [Кунгуров Р., 1995: 105] Said Ahmad ham o‘zining hajviyalarida qahramonlarni kinoya ostiga oladi. Buni misollar asosida ko‘rib chiqamiz. ... shu kunlarda teatrimiz sahnasida tomoshabin olqishiga sazovor bo‘layotgan gap dramaturg Polvoniyning “Chekilmasin” asari, ayniqsa, xarakterlidir. ... Dramaturg bu yerda novatorlik yo‘lidan boradi, ya’ni asarni to‘ppa-to‘g‘ri birinchi pardadan boshlaydi! To tomosha oxirigacha yozuvchi mana shu metodga amal qila borib, birinchi pardadan keyin ikkinchi, undan keiyn uchinchi pardaga qo‘l uradi.

Allaqaysi bir adabiyotshunosning u yoki bu maqolasidan birida qayd etib o‘tilganidek, qandaydir bir yozuvchi: “Asar yozar ekanman, hamma gaplarni aytavermayman. Aytilmagan sub’yektiv momentlarni kitobxonning o‘zi qo‘shib qo‘yishiga to‘la ishonaman”, degan ekan.

Polvoniy ham dramasida ana shunga amal qilib, deyarli hech gap aytmaydi. (S.A. “Chekilmasin”, 146-b.).

Bu matnda asosiy kinoya hosil qiluvchi markaz “novator” so‘zi hisoblanadi. “Novator“ so‘zining semantik tarkibida “ijobiy”, “yangilik”, “odam” semalari mavjud.

Kinoya yengil kulgi asosiga qurilgan bo‘lishi ham mumkin.

Tovuq tuxumini o‘g‘irlash ustida “qo‘l”ga tushgan Mansurjon baland kelmoqchi bo‘ldi:

– Sudga ber. Melisa chaqir. Somonxonaga o‘g‘ri tushdi, deb dod sol!

– Sizni nega sudga berarkanman? Sizni tovuqlar sud qilishsin. Tilini bilasiz-ku. (S.A. “T.t.b.o.”, 191-b.).

Bu yerda yengil hazilomuz kinoya hosil qilinadi.

Bundan tashqari metaforalar orqali ham kinoya hosil qilish mumkin:

U erining tovushini eshitib, arang boshini ko‘tardi.

– ayoqda edingiz?

Qosimjonning tili kalimaga kelmadi. Dir-dir titrardi. Oxiri, ikki-uchtagina gapni bir amallab og‘zidan chiqardi:

– Ajdarning og‘zida edim. Ammo, kerakli ajdar, xoting. (S.A. “Kataysa”, 34-b.).

Matnda “ajdarning og‘zi”, “kerakli ajdar” metaforalari orqali kinoya hosil qilingan.

Demak, kinoya tilning estetik ta’sirchanligini ta’minlovchi vositalardan biridir.

Badiiy ijodda dialektizmlardan ham foydalanish yozuvchining mahorati hisoblanadi.

Adabiy tilning rivojlanishi jarayoni ko‘p jihatdan uning lug‘at tarkibiga dialektizmlarning o‘zlashib borishi bilan ham bog‘liq. Bu jarayon odatda badiiy asarlar tilida qo‘llangan dialektizmlarning asta-sekin adabiy tilga singib borish orqali sodir bo‘ladi. Bunda, ayniqsa, atoqli yozuvchilar alohida o‘rin tutadi.

Adabiy til va dialektizmlarning o‘zaro munosabati, dialektizmlarning badiiy adabiyot tilida ancha keng qo‘llanishi bu leksik qatlam ma’lum darajada imkoniyatlarga ega ekanligini va ularni stilistik rejada o‘rganish mumkinligini ko‘rsatadi. Said Ahmad voqelikni badiiy-estetik jihatdan yorqin ifodalash uchun tilning fonetik, leksik va grammatik

imkoniyatlaridan o‘ziga xos foydalanadi. Bu yozuvchining individual uslubi so‘zlashuv nutqi imkoniyatlaridan foydalanish va umumxalq tilining chegaralangan qatlamlari boyligini o‘zida aks ettirishi bilan xarakterlanadi. Yozuvchining eng katta quroli so‘zdir. U o‘zining xayolini band etgan butun o‘y-fikrlarini, kechinmalarini bevosita so‘zlar yordamida bayon qiladi.

O‘zbek yozuvchilari tomonidan yaratilgan ko‘pgina badiiy asarlarda dialektizmlar asarda tasvirlangan hodisalar ro‘y berayotgan hududda yashovchi kishilarning xarakteristikasini va mahalliy kolorit yaratish maqsadida qo‘llanganini ko‘rish mumkin. Masalan, Said Ahmadning “Ufq” trilogiyasida qo‘llangan eshik (uy), aya (ena), shaq (shu yoq), shattan (shu yerdan), baqqa, anjan (Andijon) dialektizmlari; hajviyalaridagi shunaqa, gazit (gazeta), otkan (otgan), melisa (milisiya), Maskop (Moskva), fomila (familiya), bacha (bola), shundoq chiqin, oxi (axir), bundoq chiqin, zabon (til) kabi dialektizmlar Buxoro shevasi bo‘lgan qahramonlarning nutqiy xarakteristikasini berish uchun ishlatilgan.

Said Ahmad hikoyalarini badiiy uslubda yaratdi, lekin unda publitsistik va so’zlashuv uslubi elementlari uchraydi. Adibimiz o‘z ijodiy faoliyati davomida o‘zbek adabiy tilini jonli xalq so‘zlashuv tiliga yaqinlashtirishga intildi. U o‘zining barcha asarlarida umumxalq o‘zbek tili lug‘at boyligidan to‘la foydalanish bilan, so‘zlashuv nutqidagi xilma-xil obrazli iboralar, hikmatli so‘z, so‘z shakllaridan ham foydalandi. Adib voqea-hodisalarni jonli xalq tilida tasvirlab bergan va qahramonlarning o‘zlariga xos so‘zlar topib tipiklashtira olgan. Said Ahmad asarlarida inson hayotiga oid so‘z va iboralardan tortib yangi dialektizm hamda olinma so‘zlargacha ishlatilgan. U adabiy tilda uchramagan ba’zi so‘z, atama va iboralarni jonli tildan olib kirgan. Soddalik, badiiy obrazlilik Said Ahmad asarlari tilining o‘ziga xosligini ta’minlaydi. Said Ahmad hikoyalari leksikasida umumadabiy tildagiga o‘xshash va boshqa nutq uslublaridan farqli jihatlar uchraydi. Said Ahmad hikoyalarida vijdonsiz, xiyonatkor, pul uchun, mol-dunyo uchun, shuhrat uchun, o‘z yaqinlarining ham qadriga yetmagan, hatto vatanfurushlikka borib yetgan kimsalargacha tanqid qilinadi. Bu uning hikoyalaridagi badiiy uslub leksikasida, ayniqsa, yozuvchi qo‘llagan sarlavhalardan foydalanish orqali ham yuzaga keladi. Hikoyaning o‘zida esa ibora, maqol, matallar yozuvchi maqsadini, asar g‘oyasini ochib berish, ijodkor niyatini kitobxonga yetkazishga yaqindan yordam beradi. Yozuvchi hikoyalardagi har bir so‘z hatto sarlavha obraz, xarakter, manzara yaratish uchun shunday o‘rinli qo‘llanganki, beixtiyor o‘zingizni o‘sha voqealar ichida turgandek sezasiz. Said Ahmad

hikoyalarida ijobiy va salbiy emotsional-ekspressiv leksikaga keng o‘rin berilgan. Yozuvchining so‘z boyligi personajlarining murakkab xarakterdagilarning ko‘pligi, ular nutqining rang-barangligi bilan izohlandi. Said Ahmad hikoyalarining har bittasidan badiiy uslub leksikasiga xos har bir qirrasini topish mumkin. Negaki, har bir hikoya sarlavhasi va mazmuni hatto bir asar darajasidagi mazmunli, ibratli bir fikrni o‘zida mujassamlashtirgan. Said Ahmad hikoyalarining sarlavhalari sodda va ixcham, tushunilishi osonligi bilan xarakterlanadi. Adib qo‘llagan sarlavhalari orasida so‘z, so‘z birikmasi, gap va frazeologik vositali sarlavhalar uchraydi. Said Ahmad qo‘llagan sarlavhalar o‘ziga xos bo‘lib, “Sarob”, “Borsa kelmas darvozasi”, “Taqdir, taqdir,buncha beshafqatsan”, “Qishdan qolgan qarg‘alar”, “Bir o‘pichning bahosi” kabi sarlavhalar hikoyaning nima haqida ekanligi to‘g‘risida ishora qiladi. Yozuvchi ijodidagi sarlavhalar unga umrboqiylik berdi. Sarlavhani o‘qigan har bir kitobxon, albatta, o‘sha asarning o‘zini ham talpinib, mehr va ishtiyoq bilan o‘qiydi va ijodkorga tan beradi. Said Ahmad ijodini tilshunoslardan Hamid Ne’matov, Abdulhamid Nurmonov, Nizomiddin Mahmudov, Bekmurod Yo‘ldoshev o‘rgangan tilshunoslar, albatta, ular ham adabiyotshunos olim Ozod Sharofiddionovdek xulosaga kelganlar. Millatimiz mangu ekan, Said Ahmad asarlari ham umrboqiydir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Солижонов И. XX асрнинг 80-90 йиллари ўзбек насрида бадиий нутқ поэтикаси. – Тошкент, КДА, 2002. 4-б.
2. Қуронов Д. Адабиёт надир ёки Чўлпоннинг мангу саволи. – Тошкент: Зарқалам, 2006. – 25-бет.
3. Лапасов Ж. Бадиий матн ва лисоний таҳлил. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 10-бет.
4. Қўнғуров Р. ва б. Нутқ маданияти ва услубият асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 105-бет.

YANGI AVLOD DARSLIKLARI VA UNING DIDAKTIK YECHIMLARI

Saidova Muhabbatxon Shukrullayevna,
Namangan davlat universiteti f.f.n., dotsent
E-mail: muhabbatxonsaidova@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada o‘qitishning yetakchi vositasi bo’lgan darslik, uning axborotlashtirish, tizimlashtirish, transformatsiya kabi fazifalarni bajarishi, shuningdek, darslikning kompyuter versiyalari,

darslikning axborotlashtirish, bilim va ko’nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladigan transformatsiya funksiyasilari batafsil yoritilgan. Yangi avlod darsliklaridan samarali foydalanishning didaktik yechimlari, o‘quv jarayonida uning yutuqlaridan unumli foydalanib, kamchiliklarini to‘ldirishi, darsliklarni takomillashtirish bo‘yicha taklif hamda tavsiyalar bera olishi, darslikning yetakchi komponent bo‘lgan matn haqida, o‘quvchilarni darslik matnidan zarur joyni tez topa bilishga o‘rgatishi xususida atroflicha fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: darslik, o‘quv jarayoni, darslik, o‘quv jarayoni, yangi ta’lim texnologiyalari, didaktik yechimlar axborotlashtirish, tizimlashtirish, transformatsiya, yangi avlod darsliklari.

Abstract: The article discusses in detail the textbook, which is a leading tool of education, its functions of informatization, systematization, transformation, as well as computer versions of the textbook, the functions of informatization of the textbook, transformation, which serve to form knowledge and skills. Didactic solutions for the effective use of new generation textbooks, their ability to effectively use their achievements in the educational process and fill their shortcomings, to provide suggestions and recommendations for improving textbooks, the text, which is the leading component of the textbook, and to teach students to quickly find the necessary place in the textbook text.

Keywords: textbook, educational process, new educational technologies, didactic solutions,informatization, systematization, transformation, new generation textbooks, educational process, textbook.

Mashhur olim D.I.Feldshteyn takidlaganidek, “bolalikning makoni va xususiyatlari o‘zgarib bormoqda. Maktabgacha yoshidan boshlab bola o‘zining 20 yil oldingi tengdoshiga qaraganda butunlay boshqacha makonga tushib qolyapti. Bu shunchaki boshqa dunyo emas, balki uning bu dunyoni boshqacha idrok etishidir. Internet va televideniye tufayli keng ochilgan maydon bolaga bir vaqtning o‘zida bir nechta vaqtinchalik makonlarda: tarixiy, geografik, etnomadaniy va boshqa joylarda bo‘lish imkoniyatini ochib beryapti...”

Darslik o‘qitishning yetakchi vositasi xisoblanadi va u bir qator ta’limiy: axborotlashtirish, tizimlashtirish, transformatsiya vazifalarini bajaradi. Bu kitob darslikning kompyuter shakllari bo’lishi mumkin, lekin bugungi kunda ular keng tarqalgan emas, unda ma’lum bir tizimda taqdim etilgan bilimlar, darslikning axborotlashtirish, bilim va ko’nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladigan- transformatsiya funksiyasi amalga

oshiriladi. Darslik tegishli dasturga tayanadi. Agar dastur faqat kursning asosiy tushunchalarini nomlasa, darslik ularni ochib beradi, tasvirlaydi, shuningdek, tegishli o‘qitish ko’nikmalari va ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan mashqlar tizimini o’z ichiga oladi.

Darslikda ko’pincha nafaqat asosiy, balki qo‘shimcha ma’lumotlar ham taqdim etiladi: muayyan lingvistik hodisalarning shakllanish tarixi to’g’risidagi ma’lumotnomalar, taniqli tilshunoslar haqidagi hikoyalar va boshqalar. Nazariy materialdan tashqari darslikda turli xil mashqlar ham kiritilgan.

Ikkinchi o’quv-metodik kompleks nazariy material va mashqlarni turli o’quv kitoblari bo’yicha yaratadi, lekin odatda nazariy va amaliy material bitta darslikda birlashtiriladi. Darslikda asosiy va qo’shimcha material, ta’riflar, topshiriqlar va darslikning boshqa tarkibiy elementlarini ifodalovchi tarkib, sarlavhalar, maxsus piktogrammalar bo’ladi. Har bir darslik uchun bu piktogrammalar o’ziga xos bo’lishi mumkin.

Darslik o‘quvchi uchun ham, o‘qituvchi uchun ham mo‘ljallangan. Darslik o’quvchi uchun axborot manbai va mahorat va ko’nikmalarni shakllantirish vositasi, o’qituvchi uchun esa darsni tayyorlash va o’tkazish bo’yicha metodik ko’rsatmalarning asosiy manbai hisoblanadi darslik mualliflari tomonidan tuzilgan va har bir o’quv majmuasiga hamroh bo’lgan maxsus metodik ko’rsatmalar bilan to’ldiriladi (Архипова А.И., Пичкуренко Е.А., Золотарёв Р.И. Краснодар, 2005)

Har bir sinfning darsligi darslikdan foydalanish bo’yicha qo’llanmadan boshlanadi, unda darslikning tuzilishi tavsiflanadi va shartli belgilar talqin qilinadi. Masalan, 5-sinf darsligini ko‘rib chiqaylik. U 1) mundarijadan, 2) «Sizning darsligingiz» ning muqaddimasidan, 3) asosiy qismidan, 4) izohli lug‘at, «To’g» ri yozing «lug‘ati,» To’g «ri talaffuz qiling» lug‘atidan, diktantlarga tayyorgarlik ko’rish, yozish va yozish bo’yicha eslatmalardan, 5) tegishli material joylashtirilgan darslik sahifasining raqamini ko’rsatgan holda lingvistik tushunchalarning alifbo ko’rsatkichidan iborat. Darslik o’quvchilarga o’quv kitobida yo’l tutishga yordam beradigan quyidagi rangli shartli belgilarni o’z ichiga oladi. Orfografik va punktuatsion qoidalar gorizontal chiziqlar bilan ajratilgan bo’lib, ular raqamlangan va sahifasi ko’rsatilgan holda darslikka kiritilgan.

Orfografik va punktuatsion qoidalar gorizontal chiziqlar bilan ajratilgan bo’lib, ular raqamlangan va sahifasi ko’rsatilgan holda darslikning forzatsiga kiritilgan. Belgilar, paragraf o’rtasiga joylashtirilgan nazariy ma’lumotlar ko’rsatilgan. R- harfi nutqni rivojlantirish mashqlarini anglatadi. To’garak o’rganilganlarni takrorlash uchun topshiriqlar,

shuningdek qo’shimcha topshiriqlar ajratadi. Darslikning jadvali ramka bilan belgilangan. O‘yin va ta’limiy xarakterdagi, shuningdek, nutq odob-axloq qoidalari bo‘yicha topshiriqlar kulgili odamchalar tomonidan ajratilgan. Maxsus satr ustidagi belgilar so’zlar va jumlalarni tahlil qilishning turli turlarini bildiradi. So’zlar qo’ng’ir rangda kursivda yozilgan.

6, 7, 8 va 9-sinflar darsliklari boshqa shartli belgilar va ilovalar xususiyati bilan ajralib tursa-da, bir xil tuzilishga ega. Darslikni qayta nashr etishda mualliflar shartli belgilar tizimini takomillashtiradilar va o’zgartiradilar. Har qanday darslik til nazariyasi bo’yicha materialni, nutqni rivojlantirish bo’yicha mashqlarni va materialni o’z ichiga oladi, ya’ni har bir sinf kursining barcha mazmuni bitta kitobda tuzilgan. Bunday kitob o‘qituvchi uchun asosiy uslubiy qo‘llanma xisoblanadi, chunki kitobning o‘zida materialni taqdim etish usuli o‘ylab chiqilgan.

O'quv qurollari deganda o'quv jarayoni amalga oshiriladigan turli xil bosma yoki elektron ommaviy axborot vositalaridagi materiallar tushuniladi. O'quv qo'llanmalariga maktab darsliklari va o'quv qo'llanmalari, shu jumladan kompyuter dasturlari, darslikni to'ldiruvchi o'quv materiallari (talabalar va o'qituvchilar uchun), har xil turdagi ko'rgazmali qurollar: devor peshtaxtalari, audio va video yozuvlar kiradi. O'quv qurollari tarkibiga o'quv jihozlari: kompyuter, planshet va o'quv qurollari: doska, daftar va boshqalar kiradi (Sobirova, M.Yu, 2022).

O‘quv-uslubiy majmua fanni o‘qitishning asosiy vositasi o‘quv-uslubiy majmua bo‘lib, u an’anaviy ravishda fanni o‘rganish jarayonini ta’minlovchi o‘quv materiallari majmuasi sifatida tushuniladi. O'quv-uslubiy majmuaga 1) asosiy materiallar: dastur, darsliklar, 2) talabalar uchun qo'shimcha materiallar, 3) o'qituvchi uchun yordamchi materiallar kiradi.

Nazariy materialni taqdim etish til va nutq faktlarini tavsiflash, tushunchalar, ta'riflar, qoidalarni shakllantirishda amalga oshiriladi. Nazariy material misollar bilan yoritilgan va ular nafaqat matnlarda, balki jadvallar, diagrammalar va fikrlash algoritmlarida ham bo'lishi mumkin. Darslikda ko'pincha asosiy emas, balki qo'shimcha ma'lumotlar ham taqdim etiladi: ayrim til hodisalarining shakllanish tarixi haqida ma'lumotlar, taniqli tilshunoslar haqidagi hikoyalar va boshqalar. Darslikda nazariy materiallardan tashqari, turli xil mashqlar berilgan.

Darslik ham talaba, ham o‘qituvchi uchun mo‘ljallangan. Talaba uchun darslik ma'lumot manbai va o'qituvchi uchun ko'nikmalarni rivojlantirish vositasi bo'lib, u darsga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish

bo'yicha ko'rsatmalarning asosiy manbai vazifasini o’taydi (Saidova M. Sh,2024). 1-kompleksning istalgan sinfi uchun darslik til nazariyasi, mashqlar va nutqni rivojlantirish bo'yicha materiallarni o'z ichiga oladi, ya'ni har bir sinf uchun kursning butun mazmuni bitta kitobda joylashgan. Ushbu turdagi kitob o'qituvchilar uchun asosiy o'quv qo'llanma hisoblanadi, chunki kitobning o'zida materialni taqdim etishning puxta o'ylangan usuli mavjud.

Turli sinflarning darsliklari ma'lumotlarning taqdim etilishi shaklida farqlanadi. Shunday qilib, 5-sinfda induktiv usul ustunlik qiladi: agar iloji bo'lsa (bu o'rganilayotgan materialning xususiyatiga bog'liq), keyin har bir paragrafning boshida kuzatish uchun material, o'quvchilar uchun ushbu materialni tahlil qilish uchun savollar va xulosa mavjud. Kuzatish materiali rasmlar bilan tasvirlangan bo'lib, bu beshinchi sinf o'quvchilariga xayoliy fikrlashni jalb qilish imkonini beradi. 6 va 7-sinflar uchun darsliklarda materialni taqdim etishning deduktiv usuli juda izchil qo'llaniladi: paragrafning boshida tushuncha yoki ta'rif beriladi, undan keyin ko'nikma va malakarni egallashga qaratilgan mashqlar tizimi beriladi. 8 va 9-sinflar uchun darsliklarda materialni taqdim etishning induktiv-deduktiv usuli qo'llaniladi: yangi material turli funktsional yuklarga ega mashqlar bilan bezatilgan. Tuzilgan tushuncha yoki ta’rifdan oldin keladigan mashqlar o‘quvchilarning sintaksis sohasidagi mavjud bilimlariga asoslanadi, keyingi mashqlar yangini umumlashtirish va mustahkamlashga yordam beradi;

2-majmua 2-o‘quv-uslubiy majmua maktab uchun noan’anaviy tuzilishga ega bo‘lib, uchta komponentdan iborat: 5–9-sinflar uchun yagona nazariy darslik, har bir sinf uchun amaliy topshiriqlar berilgan darsliklar va har bir sinf uchun nutqni rivojlantirish darsliklari. Ushbu majmuaning tuzilishi dasturda mualliflar tomonidan quyidagicha izohlanadi: ushbu o'quv majmuasining asosiy lingvistik-metodik tamoyili nazariyani tizimli chiziqli taqdim etishdir. Yangi turdagi darslik nafaqat o'quv, balki ma'lumotnoma vazifasini ham bajaradi, chunki bitta kitobda o'rta maktabning barcha sinflari uchun fonetikadan sintaksisgacha bo'lgan barcha nazariy materiallar mavjud.

Vazifalar va mashqlar to'plami ko'nikma va malakalarni rivojlantirish, shuningdek, o'rganilgan narsalarni tizimlashtirish uchun mo'ljallangan. Nazariya darsligida ham, topshiriqlar va mashqlar to'plamida nutq madaniyati bo'yicha materiallar mavjud. Mualliflar majmuaning barcha tarkibiy qismlari o‘zaro bog‘langanligini, natijada majmua uch qismdan iborat yagona darslik bo‘lishini ta’kidlaydilar.

Keling, kompleksning har bir komponentining tuzilishini ko'rib chiqaylik. 5-9-sinflar“ darsligi, yuqorida aytib o'tilganidek, o’zbek tili nazariyasi va 5-9-sinflarda o'rganilgan imlo va tinish belgilarining chiziqli taqdimotini o'z ichiga oladi. Darslikning mazmuni quyidagicha: darslik haqidagi ma'lumotlardan keyin boshlang'ich sinfda o'quvchilar tomonidan olingan til haqidagi ma'lumotlarni takrorlaydigan katta “Kirish kursi“ mavjud. Asosiy kurs materiali fonetika, grafika, morfemika, lug'at, morfologiya, sintaksis va tinish belgilari, til haqida umumiy ma'lumot kabi i bo'limlarni o'z ichiga oladi. Asosiy kursdan so'ng qo'shimchalar mavjud: tegishli paragrafga havola bilan o'rganilgan imlo qoidalari ro'yxati, tegishli paragrafga havolasi bilan o'rganilgan tinish belgilari ro'yxati, tahlilning barcha turlari bo'yicha eslatma va misolllar berilgan. Darslikda quyidagi mazmundagi 5 turdagi piktogrammalar mavjud: tushunish uchun nazariy ma’lumotlar; eslab qolish qoidalari; ma'lumotnoma materiali;

Ba'zi paragraflarda nazariyani majoziy va vizual tarzda aks ettiruvchi rasmlar mavjud. Paragraf matni o'rganilayotgan materialga mos keladigan maktab lug'atlarini tasvirlaydigan bir xil turdagi maxsus rasmlarni o'z ichiga oladi. Ba'zi paragraflar sahifasining yuqori qismida taniqli tilshunosning portreti, uning tadqiqot faoliyati haqida qisqacha ma'lumot berilgan.

Aytish joizki, 5–9-sinflar uchun yagona darslik yaratish uning mualliflari oldiga ko‘plab vazifalarni qo‘yadi, jumladan, materialni taqdim etishda o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish kerak. Shunga asoslanib, butun darslik davomida materialni taqdim etish shakli va hatto bo'limlarning grafik dizayni ham o'zgarishi kerak. Afsuski, ushbu darslikda bu muammo yetarlicha hal etilmagan.

Ushbu darsliklar ikki shakli mavjud: har bir sinf uchun alohida yoki (oldingi nashrlarda) 5, 6–7 va 8–9-sinflar uchun. Ushbu o'quv materiallari mavzular tartibi va tartibi bo'yicha darslikka amal qiladi va maxsus belgi bilan ko'rsatilgan mashqlar va masalalardan iborat. Belgilar nazariya darsligidagi kabi. Oxirgi sahifalardalarda imlo va punktogrammalar berilgan. Deyarli har bir paragrafda nazariy materiallar mavjud bo‘lib, muallif qo‘llanmaning so‘zboshida tushuntirganidek, nazariya darsligidagi qoidalardan farqli o‘laroq, yodlash uchun mo‘ljallanmagan. Eng muhim so'zlar ta'kidlangan. Nazariyadan tashqari, qo'llanmada vazifalar va mashqlar mavjud.

Xulosa qilib aytganda, darslik o’quvchi uchun axborot manbai va mahorat va ko’nikmalarni shakllantirish vositasi, o’qituvchi uchun esa darsni tayyorlash va o’tkazish bo’yicha metodik ko’rsatmalarning asosiy

manbai hisoblanadi, darslik mualliflari tomonidan tuzilgan va har bir o’quv majmuasiga hamroh bo’lgan maxsus metodik ko’rsatmalar bilan to’ldirilisi maqsadga muvofiqir. Yaratilgan zamonaviy darslik ustidagi ishlar turli xil metodik usullar yordamida o‘qitish jarayonining barcha bosqichlarida – o‘tilgan mavzularni so‘rash, yangi mavzu bayoni, yangi mavzuni mustahkamlash kabi materialni o‘zlashtirish, bilimlarni mustahkamlash, o‘zlashtirish darajasini tekshirish paytlarida olib boriladi. Darslik matni ustida olib boriladigan ishlar o‘qituvchi bayonini mazmunan boyitadi, dolzarbligini oshiradi, o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiradi va ularning darslik matnini osonroq hamda puxta o‘zlashtirib olishlariga yordam beradi. Darslikning roli va ahamiyati hozirgi axborot kommunikatsion texnologiyalar rivojlangan davrda uning ta’siri bir muncha pasayganligi, bu holat tendensiya tarzida bundan buyon yanada davom etib borishi ehtimolini darslik mualliflari ham, uni o‘qitayotgan o‘qituvchilar ham hisobga olishlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Архипова А.И., Пичкуренко Е.А., Золотарёв Р.И.. Учебник нового поколения: варианты решения проблемы// Школьные годы № 34. Научно-методический журнал с электронным приложением. – Краснодар, 2005.

2.Грушевский С.С., Золотарёв Р.И., Архипова А.И.. Экспресс-обучение педагогов созданию учебных материалов для размещения в сети Интернет // Научно-методический журнал с электронным приложением. – Краснодар, 2011.

3.Saidova. M. Sh. INTERNATIONAL BULLETIN OF APPLIED SCIENCE AND TECHNOLOGY, 3(5), 714–717. https://doi.org/10.5281/zenodo.795617SSN: 2750-3402

4.Saidova M. Sh. Yangi avlod ona tili darsliklari: didaktik yechimlarini izlash yolida. https://cspu.uz/ International Scientific and Practical Conference. Chirchiq davlat pedagogika universiteti, April 23-24, 2024.

5.Sobirova, M. (2021). The use of integrated technology in the teaching of humanism in language education. POLISH SCIENCE JOURNAL (ISSUE 1(34) – Warsaw: Sp.z o.o.“iScience“, 2021. Part 3 – 234 p. https://sciencecentrum.

6.Sobirova, M. (2022). Anthropocentric approach to language. ISJ Theoretical&Applied Science,07(111), http://t-science.org/arxiv DOI/2022/07-111.html – P.36-39.

7. Hamroyev A.R. Ona tili ta’limida o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish. Monografiya. – Toshkent: Durdona, 2018. – B. 187.

KO‘CHMA MA’NOLI LEKSEMALARNING HAJVIY MATNLARDA PRESUPPOZITSIYA IFODALANISHI

Shavkatjon Abduraxmanov,
Namangan davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi, O‘zbekiston

Annotatsiya: Ushbu ko‘chma ma’noli leksemaning matnda, xususan, hajviy matnlarda polisemantik strukturasi asosida pragmatik xususiyatga ega bo‘lishi, so‘zlovchi kommunikativ maqsadidan kelib chiqqan holda o‘ziga xos presuppozitsiyaga ishora qilishi, bunda matn bilan bog‘liq holda ko‘chma ma'no hisobiga ma'no ortishining matn birliklari tuzilishi va matnda ifodalangan axborotning retsipiyentga to‘laqonli anglanishida muhim ahamiyat kasb etishi, matnda so‘zlarning ma’lum bir pragmatik ma'no ifodalab, nutqiy ta'sirchanlikka ega bo‘lishi, ya’ni nutq qaratilgan shaxsga ta'sir etib, unda nutq subyekti va ifodalanayotgan fikrga nisbatan ma’lum bir munosabat hosil qilishi, turli emotsional-ekspressiv holatlarni yuzaga keltirishi, so‘zlovchi yoki yozuvchining pragmatik maqsadi, nutq qaratilgan shaxsga munosabatidan kelib chiqib, presuppozitsiya asosida hajviy matn shakllanishi tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: hajviy matn, presuppozitsiya, polisemiya, bosh va ko‘chma ma’no, til va nutq, metaforik ma’no, leksema, kontekst, emotsional-ekspressivlik, dialog, replika.

Abstract: This article explores how figurative lexemes in texts, particularly in satirical works, gain pragmatic significance through their polysemantic structures. Based on the speaker’s communicative intent, such lexemes often carry implicit presuppositions. These presuppositions, influenced by context and figurative meanings, contribute to semantic enrichment and play a crucial role in shaping textual coherence and in the comprehensive understanding of information by the recipient. Words in satirical texts often convey specific pragmatic meanings, producing rhetorical impact and eliciting certain attitudes in the addressee toward the speaker and the conveyed message. Furthermore, such usage can evoke diverse emotional and expressive states. The study examines how the speaker’s or writer’s pragmatic objectives and their attitude toward the

addressee contribute to the formation of presupposition-based satirical discourse.

Keywords: satirical text, presupposition, polysemy, literal and figurative meaning, language and speech, metaphorical meaning, lexeme, context, emotional expressiveness, dialogue, utterance.

Tilshunoslikda presuppozitsiya hodisasi nutq mazmunini chuqurroq tahlil qilishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi. U ochiq aytilmagan, ammo nutqdagi ifodalar orqali tinglovchi tomonidan kutiladigan yoki tushuniladigan axborotni anglatadi. Ayniqsa, bu hodisa o‘zbek tilida keng tarqalgan ko‘pma’nolilik hodisasi bilan uzviy bog‘liqdir. Tilimizda biror leksema kontekstga qarab bosh (asosiy) yoki ko‘chma (ikkinchi darajali) ma’noda qo‘llanilganda, u o‘zida turli presuppozitsiyalarni yuzaga keltiradi. Ko‘chma ma’noli leksemalar orqali presuppozitsiyaga ishora qilish hajviy matnlarda so‘z o‘yinlarini hosil qilishi mumkin. Kalambur (so`z o`yini)ning tinglovchi yoki o`quvchiga to`liq yetib bormog`i butun ekstrolingvistik konteksdan anglashilgan bilimlarga asoslangan presuppozitsiyasha bog`liq.[6]

Ko‘chma ma’no orqali presuppozitsiyaga ishora qilish metaforalarda, ayniqsa, komik xarakterdagi matnlarda ko‘p uchraydi. Turli hayvon, parranda, hashoratlarning biror belgisiga (ichki) ko`ra ma`no ko`chishi, ya`ni ularning nomlarini metaforik ma`noda insonga nisbatan qo`llash va ular yordamida matndagi presuppozitsiyalarga ishora qilish kinoyali komik matnni shakllantiradi. kulgi hosil qiladi. Kinoya hosil qiluvchi presuppozitsiyaga ishora qiluvchi metaforalarda, asosan, so`zlovchining salbiy munosabati aks etadi. Bunday hodisa ko`pincha dialogik nutqda uchraydi: *Podsho vaziri bilan Afandini olib, ovga chiqdi. Xiyla ov qilgandan keyin podsho ustidagi chakmonini echib Afandiga berdi. Buni ko`rgan vaziri ham chakmonini Afandiga uzatdi.*

Podsho Afandiga tegishdi:

- Afandi, ustingizga biz bir eshakning yukini ortib qo`ydik-a?

- Koshki edi bir eshakning yuki bo`lsa, - dedi Afandi. – Ustimda ikki eshakning yuki bor. (Afandi latifalari. Toshkent, 1983, 214-b.)

Matnda “eshak” so`zining metaforik ma`nosi va u ishora qilgan tag ma`no orqali mot qilish usuli  kulgi uchun asos bo`ladi. Dialogik nutq ishtirokchilarining replikalariga e`tibor berilsa, ularda ikki xil ma`no ifodalanganligi ma`lum bo`ladi. Birinchisi – replikalarda bevosita ko`rinib

[6] Максименко Е.В. Языковые средства создания комического в современной французской художественной прозе. Автореф.канд.дис. –Киев, 1983. 9-б.

turgan to`g`ri ma`no. Ikkinchisi – “eshak” so`zi bilan bog`liq tag ma`no. Ikkinchi ma`no muayyan nutqiy sharoitda gaplarning presuppozitsiyasi orqali anglashiladi. Shuningdek, har ikkala ma`no ham shakliy, ham mazmuniy jihatdan mos:

1. Bir eshakka yuk bo`ladigan yukni ortib qo`ydik.

2. *Siz eshaksiz, shuning uchun yuk ortib qo`ydik* – **presuppozitsiya.**

3. Ustimda ikki eshakka yuk bo`ladigan yuk bor.

4. *Ustimda ikki yaramas, ahmoq odamning yuki bor* – **presuppozitsiya.**

Ko`rinadiki, gaplarning ikkinchi ma`nosi so`zlashuvchilarning o`zaro shartli munosabatlari asosida presuppozitsiya yordamida tushuniladi. Mazkur presuppozitsiyali ma`noga *“eshak”* so`zining metaforik qo`llanishi ishora qiladi. Shuningdek, kulgili matnni yuzaga keltirgan asosiy nuqta ikkinchi so`zlovchi (Afandi)ning mot qilish usuliga asoslangan *“Ustimda ikki eshakning yuki bor”* gapining ishoraviy tag ma`nosidir. Demak, bu gapning ikkinchi – kulgi qo`zg`atuvchi tag ma`nosi *“eshak”* so`zining metaforik qo`llanishida shakllangan bo`lib, u orqali so`zlovchining salbiy munosabati ifodalanadi. Bunday munosabat *“eshak”* so`zining metaforik ma`no tuzilishining ijtimoiy ongda salbiy baholanuvchi semalari bilan bog`liq. *“Eshak”* so`zi metaforik ma`noda *“ahmoq”, “yaramas”, “odam”* semalaridan tashkil topgan bo`lib, eshakka xos befahmlik, ahmoqlik belgilari insonga xos shunday belgilardan ortiq darajada deb baholanadi. Shuning uchun bu belgilar *“eshak”* so`zining metaforik ma`nosida yorqin salbiy emotsional ma`no hosil qilishiga asos bo`ladi. Natijada *“eshak”* so`zining metaforik ma`nosida kulgi qo`zg`alishi bilan birga, salbiy emotsional munosabat ham aks etadi.

Quyidagi misolda metaforik ma`noda qo`llangan ko`makchili konstruktsiyaning tag ma`nosi kulgi hosil qiladi.

Qozi Afandini beda o`rdirgani bog`iga olib bordi. Ish tamom bo`lgandan keyin ziqna qozi Afandining qo`liga ikki bog` beda berib:

- *Mana bu – eshagingizga*, - debdi.

Shunda Afandi qoziga qarab:

- *Ajabo, men ertalabdan kechgacha **eshak uchun** ishlabman-da?* – deb javob beribdi.

(Afandi latifalari. Toshkent, 1989, 189-b.)

Matnda “eshak” so`zi yordamida so`z o`yini qilingan bo`lib, bu so`z o`yinini “uchun” ko`makchisining ma`nolari shakllantiradi. Bunda ham so`z orqali mot qilish usuli bor.

Ma`lumki, “uchun” ko`makchisi ot xarakteridagi so`zlar bilan bog`lanib, maqsad, sabab, atash, belgilash, mo`ljallash, evaz ma`nolarini ifodalaydi. “Eshak uchun” birikmasida “uchun” ko`makchisining ana shu ma`nolarining farqlanishi presuppozitsiyali tag ma`noni vujudga keltiradi. Matnda “uchun” ko`makchisi ikki xil ma`noni ifodalaydi. Bulardan birinchisi atalganlik ma`nosi, ikkinchisi esa evaz, foyda ma`nosi. Ikkala ma`no ham ifodalanish shakli va mazmuni bilan suhbatdosh replikasiga mos reaktsiyani ifodalaydi. Demak, muayyan nutqiy sharoitda har ikkila ma`noni ham tushunish mumkin va bunda kulgi uchun ikkinchi ma`no asos bo`ladi. Shuningdek, ikkinchi ma`no “eshak” so`zining metaforik ma`nosini belgilaydi hamda “men ertalabdan kechgacha eshak uchun ishlabman-da?” – gapining presuppozitsiyasiga ishora qiladi. Bu gapni quyidagicha shakllantirish mumkin:

1. Men ertalabdan kechgacha eshakni boqish uchun ishlabman.

2. Men ertalabdan kechgacha eshak (odam) foydasiga ishlabman – **presuppozitsiya.**

Demak, kinoyali presuppozitsiyaga so`zlovchi (Afandi) gapining presuppozitsiyali axboroti turktki beradi, shu bilan birga mazkur presuppozitsiyali axborot orqali so`zlovchining salbiy munosabati namoyon bo`ladi. Bunda “eshak” so`zining metaforik tag ma`nosi birinchi so`zlovchi (qozi)ning replikasiga bog`liq ravishda yuzaga chiqib, maqsadli tag ma`noli matnni hosil qiladi. Kinoyaviy mazmunga ega bo‘lgan matnlarda kinoya ma'nosini ifodalagan so‘zlar bir-birining ma'nosini oydinlashtirib, kinoyaviy ma'nolar silsilasini tashkil qiladi. B.Umurqulov aytganidek, badiiy nutqda so‘z faqat fikr ifodalovchi, obraz yaratuvchi vosita emas, nutq tarkibidagi boshqa so‘zlarga ta'sir etuvchi vosita hamdir[7]. Ayniqsa, metaforik so‘zlarda emotsional-ekspressivlik, obrazlilik, ta'sir qilish kuchli bo‘ladi[8].

Shunday qilib, o‘zbek tilidagi hajviy matnlarda leksemalarning ko‘chma ma’nolari presuppozitsion axborotni yuzaga keltirishda faol vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, ko‘chma ma’nolar orqali kognitiv bilimlar, tasavvurlar va emotsional holatlar ko‘zda tutilgan holda, bilvosita axborot yetkaziladi. Bunday presuppozitsiyalar tildagi semantik qatlamlarning chuqurligi va tafakkur bilan uzviy bog‘liqligini isbotlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov Sh. Hajviy matnlar lingvopoetikasi. Monografiya. – Namangan: Mashrab nashriyoti, 2025. – 136 b.

[7] Умуркулов Б. Бадиий адабиётда сўз. Тошкент, Фан, 1993, 16-б.

[8] Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивлик ифодалашнинг синтактик усули. Тошкент, 1987 йил, 24-b.

2. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивлик ифодалашнинг синтактик усули. Тошкент, 1987 йил.
3. Максименко Е.В. Языковые средства создания комического в современной французской художественной прозе. Автореф.канд.дис. –Киев, 1983.
4. Умуркулов Б. Бадиий адабиётда сўз. Тошкент, Фан, 1993.

SUBSTANTİVLƏŞMİŞ FEİLİ SİFƏTLƏRDƏ QƏNAƏT

Könül Həsənova,
Filologiya üzrə fəlsəfə doktoru, dosent
ADPU, Filologiya fakültəsinin dekanı, Azərbaycan
Email: *konul.hasanova@adpu.edu.az*

Kalit so‘zlar: lison, til, adabiy til, milliy til, mahalliy til, sheva, dialekt, lingvistik muqobillik.

Abstract. This article presents the ways of enriching the Uzbek literary language and the issues of increasing the status of the Uzbek literary language and the State national language. It discusses the national-mental aspects of Uzbek dialects, in particular, Namangan dialects, which are an internal factor in the enrichment of the literary language.

Keywords: language, language, literary language, national language, local language, dialect, dialect, linguistic alternative.

Har bir millatning tamaddun tufayli unutilgan, iste’moldan chiqqan so‘zlari bo‘ladi. Adabiy tilimiz, aniqrog‘i, ona tilimiz ham bundan holi emas. Tarix qatida qolgan, biz unutgan va unitayotgan, kelgusi avlodimiz e’tiboridan juda ham chetda qolayotgan so‘zlar xalq shevalarida keng qo‘llanmoqda. Afsuski, ularni adabiy tilga olib kirib, adabiy iste’molini yo‘lga qo‘yish muammoligicha qolib ketmoqda.

Bugungi kunlarda millatimiz istiqboli va kelajagi kuyunchaklari bo‘lgan ziyolilarimizning maktab, o‘rta maxsus ta’lim dargohlari, hatto, oliy o‘quv yurtini tamomlayotgan yoshlarimizning ona tilimiz bo‘lgan o‘zbek tilini yaxshi bilmaydi, degan ta’nayu da’volari to‘g‘riga o‘xshab qolyapti. Bir nechta xorijiy tilda biyron gapiruvchi farzandlarimiz ona tilida erkin fikr yuritolmasligi, turkiy o‘zbekcha milliy mental jihatlarimizni ifodaloqchi lisoniy birliklarni to‘laqonli anglab eta olmasliklari, ulardagi lug‘at boyligining juda ham g‘arib ekanligi ko‘zga tashlanib qolmoqda. Jamiyatimiz vakillarining, xoh u katta yoshda bo‘lsin, xoh yosh bo‘lsin kitob va asl milliy adabiyotdan begonalashuvi bir hovuchgina so‘zga andarmonligi, ular o‘rnida ajnabiy – begona til birliklarini qo‘llashlariga sabab bo‘ldi. Axir millatning eng birinchi va asosiy etnik ko‘rinishi uning tili emasmi?! To‘g‘ri, har bir millatning tamaddun tufayli unutilgan, iste’moldan chiqqan so‘zlari bo‘ladi. Ona

tilimiz ham bundan holi emas. Ammo, nazarimda, tarix qatida qolgan, biz unutgan so‘zlar erdami yo ko‘kda qandaydir g‘azabnok porlayotgan ko‘zga o‘xshaydi.

So‘zning joni bo‘lmaganda odamni goh o‘ldirib, goh tiriltirarmidi? Atrofga bunday zakiy va teran zehn bilan qarang: kimningdir og‘zidan chiqqan, siz allaqachon aytmay qo‘ygan birgina shirin kalom vujudingizga nurday singib, beqiyos ruhiy quvvat baxsh etganini payqaysiz. Ana o‘shanda xotiraning qaysidir bir puchmog‘ida bolalikmi tirilib ro‘baro‘ keladi. Sizga qamti turgan o‘tmish bobo-momongizning ovozi kelganday bo‘ladi. Ha, unutilgan so‘z – duotalab ruh kabi.

Demak, fikr va mulohazalarimiz sirli ma’vo – so‘z saltanati, milliy til saltanati haqida bo‘ladi.

Turkistonda Sho‘ro hokimiyati zo‘rlik bilan o‘rnatilgandan so‘ng turkiy urug‘larning urf-odat va shevalarini o‘rganishga jiddu jahd bilan kirishiladi. O‘zak-mag‘zida mustabidlik mafkurasi yotgan bu intilishning xayrli tomoni ham bo‘ldi. Salkam bir asr mobaynida o‘zbek shevalari bo‘yicha o‘nlab nomzodlik va doktorlik ishi qilindi, minglab maqolalar yozildi, So‘zning joni bo‘lmaganda edi, odamni goh kuldirib, goh yig‘latarmidi?! Xalqona, biz allaqachon aytmay qo‘ygan, unitilish arafasidagi kalomni eshitsak, u sizu bizga beqiyos ruhiy quvvat baxsh etishini ilg‘aysiz. Ko‘z oldingizda butun bir moziy gavdalanadi. Ular bobolarimiz, momolarimiz o‘tmishining ovozi – tirik tariximiz. Zotan, o‘zbek xalqi milliy tiliga asos bo‘lgan mahalliy tillar – buyuk bir til va so‘z saltanati.

Fattoh Abdullaevning “Xorazm shevalari”, M.Mirzaevning “O‘zbek tilining Buxoro gruppa shevalari”, I.SHamsiddinovning “O‘zbek tilining Qorako‘l shevasi”, SH.Nosirovning “O‘zbek tilining Qo‘qon shevasi”, Q.Muhammadjonov-ning “Janubiy Qozog‘istondagi o‘zbek shevalari morfologiyasi”, T.Yo‘ldoshev-ning “Tojikistondagi o‘zbek shevalari orfologiyasi”, A.Ishaevning “Qoraqalpog‘istondagi o‘zbek shevalari”, S.Ibrohimovning “Farg‘ona shevalarining kasb-hunar leksikasi”, “O‘zbek tilining Andijon shevasi”, V.Egamovning “Samarqand oblastining G‘allaorol shevasi”, N.Rajabovning “O‘zbek tilining G‘arbiy Samarqand shevalari”, S.Rahimovning “O‘zbek tili Surxondaryo shevalari”, B.Jo‘raevning “YUqori Qashqadaryo o‘zbek shevalari”, A.Shermatovning “Quyi Qashqadaryo o‘zbek shevalari”, Bosim To‘ychiboev va Qozoqboy Qashqirlining “Zominning til qomusi” kitoblari xalqimiz bebaho boyligi bo‘lgan, adabiy tilimizning boyitish manbasi bo‘lgan o‘zbek shevalarini

o‘rganishga bag‘ishlangan tilshunosligimizning eng xayrli ishlaridan hisoblanadi.

1930-40-50-60-yillarda turkiy urug‘larning urf-odat va shevalarini o‘rganishga jiddiy kirishildi. Bu ishlarning xayrli tomoni yuqoridagi ilmiy manbalar bizga me’ros bo‘lib qolganligidir.

O‘tgan asrning 30-40-yillaridan boshlangan izlanishlar natijasida o‘laroq “O‘zbek xalq shevalari lug‘ati” degan salmoqli to‘plam 1971-yilda ikki ming nusxada bosilib chiqadi. YAratilganiga salkam ellik yil bo‘lgan kitob esa o‘z bahosini olmadi, to shu kunga qadar bu kitob o‘zgarmadi. Millatimizning olti mingdan ziyod so‘z va iboralariga yana boshqalari qo‘shilmadi. Aslida xalq shevalarida yuz minglab til birliklari bor.

To‘plamda O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘izistonning janubiy tumanlari hamda Qoraqalpog‘istonda yashovchi o‘zbeklarning qorluq, qipchoq, o‘g‘uz lahjalarida ishlatiladigan ayrim so‘zlar jamlangan xolos. Tanlab olingan areal ham, so‘zlovchilar ham juda katta. Ammo, shevashunos olimlarimiz tizimga solgan aksariyat so‘zlarningi lug‘atga kiritilmaganiga hayron bo‘lasiz, ular kiritilganda edi bugungi adabiy tilimizga ellik-oltimish yil mobaynida singib ketgan bo‘lardi.

Ma’lumki, dunyodagi katta va juda ko‘p tillar adabiy tili xalqning jonli so‘zlashuv tili asosida shakllangan. Zero, o‘zbek xalq shevalarida chinakam milliy ruh va mahalliy-milliy hayot nafasi yaqqol sezilib turadi.

Quyida Namangan viloyati sheva arealida keng iste’molda bo‘lgan lug‘aviy birliklardan ayrimlarini keltirishni lozim topdik: *madda* – sergap, vaysaqi, *oyg‘oq* – chaqimchi, *soyg‘oq* – piyoda, befoyda yuruvchi, *bo‘jama* (omonim) – yosh qizaloqlarning soch o‘rimi, husunbuzar, *jugal* – ikki labning tutashgan joyiga chiquvchi yara, *go‘micha/yignalovgich* – ko‘z mijjasiga bo‘rtib chiqadigan yara, *keskaltirik/kesatki/kalpista* – kaltakesak, *kirpi* – tipratikan, *jukum* – hafa, *tirriq* – hasis, qizg‘anchiq, *gupu* – to‘la (semiz), *muqamoq* – qiynalmoq, *ravi* – hiyol, bir zumda, *ozitqi* – yaxshi, xayrli ishdan qoldiruvchi va qaytaruvchi odam, *irganmoq* – jirkanmoq, *gangir/qang‘il* –anqov, *ko‘hmak* – ko‘m-ko‘k, *lozimat/yo‘ru/yo‘riq* – marosim, *mo‘ndi/yaloq* – kiyimi kir va iflos odam, *ocharmoq* – rangning ochroq tusga kirishi, *to‘qarmoq* – rangning to‘qroq holga kelishi, *hutum* – xazilkash va beozorlik bilan xazil qiluvchi kishi, *chorpoyli* – to‘ladan kelgan erkak kishi, *shop* – to‘y kuni kelinning ukasiga beriladigan sovg‘a. Bu kabi lug‘aviy birliklarning aksari adabiy tilda mavjud emas. Xalq shevalarida esa har bir harakat, vaziyat, holat, narsa-buyum va belgilarning aynan ifodalab bera oladigan ko‘rinishlari bisyor. Bugungi globallashuv davrida sizu bizning – barcha tilimiz jonkuyarlari-

ning asosiy maqsad va vazifamiz – ularni milliy tilimiz birligi sifatida adabiylashtirishdir. Bugungi kunda bunday so‘zlar nafaqat viloyatlarda, balki mamlakatimizga chegaradosh o‘zbeklar istiqomat qiladigan sheva areallarida ham ishlatiladi.

Taklif va xulosa o‘rnida: milliy va adabiy ona tilimizga tegishli ilmiy manbalarni tilshunos tadqiqotchilarga, magistr va bakalavrlarga sidqidildan Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘oti-t-turk” kitobini, Navoiy va Fitratning tilimiz ravnaqi haqidagi fikrlarini, F.Abdullaev (“Xorazm shevalari”), Qosim Muhammadjonov (“Janubiy Qozog‘istondagi o‘zbek shevalari”), Mullatoy Begaliev (“O‘zbek tilining Qorabuloq shevasi leksikasi”), Anvar Bo‘ronov (“Oltoylar”), Saidmuso Rahimov ilmiy izlanishlarini... (bularni istalgancha davom ettirish mumkin) tanishtirib, o‘qitishga erishmog‘imiz zarur. Magistr va bakalavrlar uchun dialektologik ekspeditsiyalarni qayta yo‘lga qo‘yish lozim. Xalqimiz shevalari qarida tarixiy yozma yodgorliklarda qoldirilgan manbalardan ham ortiqroq o‘tmishimiz va tilimiz tarixiy belgilari yashirinib yotibdi. SHuning uchun ham tilimiz – shevalarimiz biz bilan yo‘ldosh bo‘lib yurgan tirik tariximizdir.

Dialektal lisoniy xususiyatlarni bolalar bog‘chasidan boshlab, o‘rta, maxsus va oliy ta’lim tizimida tarbiya va bilim oluvchi farzandlarimizga ularning til kompetentligini boyitish va rivojlantirishga, ular ongiga adabiy til me’yorlarini singdirish va nutq madaniyatini shakllantirish uchun dialektal sharoitlar bu jarayonlarga salbiy ta’sir etmaydigan usullar orqali amaliy tilshunoslik masalalarining dolzarbligini kun tartibi qo‘yish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдураҳмонов Д., Содиқов Т., Носиров Ш., Туробов М. Ўзбек шевалари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1991. – Б. 13.

2. Алиев А.Ю. Наманган диалекти ҳақида. Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. – Тошкент: Фан. 1967. – Б. 37-45.

3. Ashurboyev S. O‘zbek shevashunosligi. Darslik. – Toshkent: Navro‘z, 2016. – 271 b.

4. Ashurboyev S. Areal lingvistika. Darslik. – Toshkent: Bookmany print, 2023. – 280 b.

5. Бегматов Э. Ўзбек тили лексикасининг ижтимоий-тарихий асослари // ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981. – 41-52-бетлар.

6. Дарвишов И. Ареал лингвистика: Жанубий-гарбий Наманган шеваларининг фонетнк-фонологик хусусиятлари, – Тошкент: Наврўз, 1919. – Б. 147.

7. Джураев А.Б. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива. – Ташкент: Фан, 1991. – 220 с.

8. Донёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. – Тошкент: Фан, 1968. – Б. 8-9.

9. Дониёров Х. Эски ўзбек адабий тили ва қипчоқ диалекторлари. – Тошкент, 1976. – 139 б.

10. Муродова Н. Ўзбек тили Навоий вилояти шеваларининг ареал тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2006. – Б. 220.

11. Нурмонов А. Танланган асарлар. – Тошкент: Akademnashr, 2-жилд, 2012. – 425 б.

12. Решетов В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – Б. 166.

13. Тўйчибоев Б., Ҳасанов Б. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ меъроси, 2004. – Б. 5.

O‘ZBEK TILIDA O‘ZLASHMA SO‘ZLARNING MORFOLOGIK ME’YORLASHUVI MASALASI

Qo‘ziyev Umidjon Yandashaliyevich,
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
E-mail: fellow-257@mail.ru
Tel: +998993207752

Morfologik o‘zlashmalar masalasi Shveysariyaning Syurix universitetida F.Gardani, A.Bakus, L.Behrens, Buyuk Britaniyaning Kembrij universitetida B.Bikel, J.Nikols, AQSHning Oksford universitetida J.Blevinslar tomonidan o‘rganib kelinmoqda. Rus tilshunosligida A.V.Superanskaya, O.Axmanova, R.S.Kimyagarova, D.S.Shmidt, S.V.Gornostayev kabi olimlar o‘zlashma so‘zlarning turkumlashish holatlari (substantivatsiya, glagolizatsiya (verbalizatsiya), adyektivatsiya), jins kategoriyasining moslashishi kabilarga e’tibor qaratganlar. O‘zbek tilshunosligida rus tilidan o‘zlashgan so‘zlarning morfologik moslashuvi [2], [3], Urganch davlat universitetida german tillaridan kirgan so‘zlarning me’yorlashuvi [5], Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida fors tilidagi turkiy morfologik o‘zlashmalar [1], [4] o‘rganilgan.

B.Grande o‘zlashtirishda asosan leksik qatlam faolligini, grammatik qoida va hodisalar keyinroq o‘zlashishini qayd etadi. O‘zlashma so‘zning morfologik jihatdan moslashuviga yunon tilidagi-*os,* lotincha-*um* qo‘shimchalarining, hind-yevropa tillaridagi artikllar (the, a, ap, la, le, die, das)ning tushirilishini misol sifatida keltirish mumkin. Artikllar aniqlik-noaniqlik, jins kabi tushunchalarni bildirib, o‘zbek tilida grammatik kategoriya sifatida uchramaydi.

So‘zlarni o‘z yoki o‘zlashma qatlamga ajratishdagi usullardan biri til tahlil qoidalariga mos kelishidir, ya’ni o‘zlashma so‘zlarning tarkibi, tuzilishi kabilar o‘z so‘zlarniki kabi oson kechmaydi. Qisman kalkalab olingan taqdirda ham ortiq qolgan morfema termin-element kabi tushunarsiz qismga aylanadi.

Fan va texnikada kelib chiqishi lotincha yoki yunoncha so‘z, o‘zak morfema, affiks va prefikslarning “terminoelementlar” maqomida ishlatilishi ko‘zga tashlanadi. Xilma-xil atamalar, chunonchi, V. Fludning ko‘rsatishicha, XX asrning 70-yillarida ingliz tilida 1150 ta, D. Xellarning hisobicha 1129 ta, N.V.Yushmanovning ta’kidlashicha, rus tilida 1100 ta mana shu atama yasovchi begona til elementlari qo‘llangan ekan.

Mutaxassislarning hisobicha, rus, ingliz, fransuz tillaridagi neologizmlarning 50% dan 80% gachasini ayni mana shu unsurlar asosida yasalgan, sun’iylik, g‘ayriodatiylik sifati bilan fahmlanadigan terminlar tashkil etadi [7:60-63].

Morfologik o‘zgarishning lisoniy omillari esa quyidagilarda ko‘rinadi:

1. So‘z tartibining o‘xshashligi.
2. Affikslar turining o‘xshashligi: pudratchi.
3. Kategoriya sifatida saqlanib qolishi.
4. Allomorflik.

Rus olimi R.A.Budirov lug‘aviy o‘zlashmalar o‘z tilidagi shakli bilan akseptor tildagi shakli o‘zaro sakkiz turdagi munosabatda bo‘lishini ko‘rsatgan edi:

1. Aniq ma’noga ega bo‘lgan so‘z yangi tilda mavhum ma’noni ham ifodalashi mumkin. 2. Jinsga taalluqli ayrim so‘zlar boshqatilga o‘zlashganda turga taalluqli so‘zga aylanadi. 3. So‘zlar o‘zlashganda bir ma’noli so‘zdan ko‘p ma’noli so‘zga o‘zgaradi. 4. Ba’zi so‘zlar muqobilsiz holda boshqa tillarga kirib keladi. 5. Noarxaik so‘zlar arxaik so‘zga aylanishi mumkin. 6. O‘zlashma so‘zlarning lug‘aviy mustaqilligi yo‘qoladi. 7. Bir tildagi atamalar o‘zlashgan holda so‘zga aylanadi. 8. Ba’zi so‘zlar so‘z birikmasiga aylanadi [6:413].

So‘zlarning morfologik o‘zlashtirilish va me’yorlashtirilishida jins kategoriyasi ham tez-tez ko‘zga tashlanadi. O‘zbek tilida ham arab tilining ta’sirida jins kategoriyasini ifodalashda *-a* morfemasi kuzatila boshlandi. Bunda erkak jinsini ifodalovchi so‘zning ham me’yoriy qo‘llanishda bo‘lishi moslashuv to‘liq kechganini bildiradi: *muallim – muallima, murabbiy* – murabbiya kabi.

Fors tilidagi turkiy o‘zlashmalarni o‘rgangan B.Djafarov va Z.Arifdjanovlar ayrim turkiy o‘zlashmalar arab tilida siniq ko‘plikda qo‘llanishini ko‘rsatib o‘tadi: *xon – xavonin* (xonlar), *turk – atrok* (turklar), *turkman – tarokima* (turkmanlar) kabi [4]. Fors tiliga turkiy tildan o‘zlashgan sifatlar sanoqli va aksari yakka holda qo‘llanmaydi [1]: *oqpar, oqshom, qoranay (klarnet)* kabi.

So‘zlarning o‘zlashuv jarayonida so‘zning o‘zagi bilan birga uning bir qismi – morfemasi ham o‘zlashadi, biroq o‘zakdan farqli ravishda o‘zlashgan affiks semantik asosga ega bo‘lmagani uchun ortiqchalik qiladi. Natijada so‘zning ikki xil varianti vujudga keladi: *agar – agarda, go‘yo – go‘yoki, afsus – afsuski, xayriyatki – xayriyat* kabi.

O‘zlashma so‘zlarda o‘z tilidagi ko‘plik shakllari singimaslik holatlari kuzatiladi: ***Ajda(r)ho* fors tilida ajdarlar ma’nosini bildirib, o‘zbek tilida–*ho* ko‘plik qo‘shimchasi o‘z vazifasini yo‘qotgan, natijada so‘zning ikki xil varianti yuzaga kelgan: *ajdar, ajdarho* kabi.** O‘zbek tilida fors-tojik tiliga xos *-on* shakli fe’llarga qo‘shilib, vazn va ohangdorlikni ta’minlash uchun xizmat qiladigan o‘rinlar mavjud: *debon, aylabon, ko‘rubon,* ***obodonchilik, nogahon*** singari.

O‘zlashma qismli so‘zlar tildagi tejamkorlik tamoyiliga bo‘ysunib, keyinchalik bir qism ikkita qism ifodalash vazifasini bajaradi: *foto– fotografiya, xala – xalacho‘p,* *takya – takyaxona, xarsangtosh – xarsang* kabi. O‘zlashma so‘zlar biror tushunchani ifodalaydi, uning qismlari esa tushunchaning tasnifiy belgilarini bildiradi. Biroq o‘zbek tilida xuddi shu tasnifiy belgiga ega tur mavjud bo‘lmaydi yoki tilda farqlanmaydi. Natijada tushunchaning umumiy nomi va tasnifiy belgi ifodalovchi nom bitta tushunchani ifodalay boshlaydi: *Bodiyon – Arpabodiyon.*

O‘zlashma so‘zlarning lug‘aviy mustaqilligi yo‘qoladi, so‘zlar affiksoidlarga aylanadi, keyingi bosqichda esa:

a) bu affiksoid tushiriladi: *aslahaxona (esk.) – arsenal – qurol-yarog‘ ombori; omborxona – ombor;* ***manqaldon – manqal;***

b) affiksoid affiksga almashtiriladi.

Keyingi bosqichda o‘zlashmaga qo‘shilgan so‘z yasovchining o‘zi ortiqchalik qiladi: *fitna – fitnachi, fitnagar, fitnakor; fisq-fasod (fitna-fasod) – fisq-fasodchi (fitna-fasodchi); changalzor – changal* kabi.

Odatda o‘zlashma so‘zlar narsa, faoliyat turini bildirsa, unga o‘zbek tilida -chi qo‘shimchasini qo‘shish orqali shaxs oti yasaladi. Shu bilan birga ko‘pgina misollarda –chi qo‘shimchasisiz holati ham shaxs ma’nosini ifodalash uchun qo‘llanishi kuzatiladi: abrband – abrbandchi,

O‘zlashma so‘z o‘zagiga ot hosil qiluvchi o‘zlashma qo‘shimcha birikkach, unga sifat yasovchi qo‘shimcha qo‘shilgan natija bilan so‘z o‘zagi sinonimligi yuzaga keladi. Shu jihatdan quyidagi qoliplar vujudga keladi:

1. [sifat (o‘zlashma)]+[ot yas. qo‘shimcha (o‘zlashma)]+[sifat yas. qo‘shimcha (o‘z)] = [sifat (o‘zlashma)]

avtonom+iya+li = avtonom

texnik+a+viy = texnik

2. [sifat (o‘zlashma)]+[ot yas. qo‘shimcha (o‘zlashma)] = [sifat (o‘zlashma)] (semantik qo‘llanish)

avtomat+ik = avtomat

3. [faoliyat oti (o‘zlashma)]+[shaxs oti yas. qo‘shimcha (o‘z)]+[faoliyat oti yas. qo‘shimcha (o‘z)] ± [faoliyat oti (o‘zlashma)]

agressiya + chi + lik = agressiya

4. [ot (o‘zlashma)]+[ot yas. qo‘shimcha (o‘z)] = [ot (o‘zlashma)]

akrobat+chi = akrobat

alt+chi = alt

atletika+chi = atlet

politsiya+chi = politsiya

5. [sifat (o‘zlashma)]= [ot (o‘zlashma)]

antiqiy = antiqa.

6. [ot] = [ot]+[lug‘aviy shakl]

apteka =aptechka

plita = plitka

pech = pechka.

O‘zlashma so‘zlarning me’yorlashuvida so‘z yasovchi qo‘shimchalar, ayniqsa, ot yasovchi *-chi, -lik,* sifat yasovchi *-li* qo‘shimchalari faol. Bunday faol qo‘shimchalar borasida ilmiy maqolalar ham e’lon qilingan [7]. Yakunlovchi xulosa sifatida A.Hojiyevning monografik asari [10]ni keltirish mumkin. Ishda o‘zbek tilidagi eng faol so‘z yasovchi qo‘shimchalar, ularning statistikasi, boshqa tillarga

(jumladan, rus tiliga) qiyosi, qo‘shimchalarning faolligini sun’iy shishirish bilan bog‘liq urinishlar tahlilga tortiladi.

-ist (metodist, kapitalist) affiksi o‘zbek tiliga, shuningdek, boshqa turkiy tillarga oid adabiyotlarda shaxs oti yasovchilar qatorida keltiriladi. A.N.Tixonov ham o‘z maqolasida *-onist (ekspansionist), -yer, -or, -oner (liftyor, aksioner); -ant (-yant), -yent (diplomant, diversant)* kabilar ham o‘zbek tilidagi shaxs oti yasovchilar qatorita kiritiladi [9]. A.Hojiyev fikricha, ularni shaxs oti yasovchilar safiga qo‘shib bo‘lmaydi. Zero, “bunday so‘zlarning ko‘pchiligi so‘z yasalishi nuqtayi nazaridan komponentlarga (yasovchi asos, yasovchi affiks kabi qismlarga) ajralmaydi (Mas., sionist, ateist, shaxtyor, diversant kabilar). Shunday ekan, bularni yasama so‘z deb bo‘lmaydi. Komponentlarga ajraladiganlari ham o‘zbek tilida yasalgan emas, balki tayyor holda o‘zlashtirilgan (metodist, jurnalist, motorist kabilar). Shuning uchun ham bunday so‘zlar ma’nosini uning tarkibidagi mustaqil qismlar kabi ajralib turgan komponentlar ma’nolari bilan izohlab (asoslab) bo‘lmaydi” [10:14].

Quyida o‘zlashma tub so‘z hamda o‘z qatlamdagi yasama so‘z muqobilligi yuzaga kelgan: murab*biy* – *tarbiyachi* juftligida o‘zaro muqobillik yuzaga kelgan bo‘lsa-da, semantik jihatdan o‘zaro farqlarga ega:

murabbiy – “1. ayn. tarbiyachi. Rahmatilla obidiy internatga muallim va murabbiy bo‘ldi. A. Qahhor 2. Ish-faoliyatda rahbarlik, rahnamolik qiluvchi; ustoz, rahnamo. 3. Sportning muayyan turi bo‘yicha yakka va jamoaviy tarzda mashqlar qildirish orqali muayyan ko‘nikmalarga o‘rgatuvchi, tegishli sohadagi malaka-mahoratni o‘stiruvchi ustoz; trener”.

tarbiyachi – “Tarbiya beruvchi shaxs, murabbiy”

Qiyosiy tahlil qilib ko‘rganda, *murabbiy* so‘zida “ma’naviy”, “ruhiyatga mansublik” semalari *tarbiyachi* so‘zidan ajralib turadi. Shu sababli murabbiy so‘zi badiiy, publitsistik uslublarda faol qo‘llanadi. -chi qo‘shimchasi bilan yasalgan so‘zlarda esa aynan “moddiyat”, kasb-mashg‘ulot ma’nosi “aniqlik” xarakterida ekanligi ahamiyatga molik.

O‘zbekistonda yashovchi o‘zbek va fors-tojik tilida so‘zlashuvchi aholi uchun arabcha, rus, yevropacha so‘zlar bir xilda o‘zlashma sifatida qabul qilingan. Ularga muqobil sifatida har ikki xalq deyarli bir xil qolipdan foydalangan: qo‘shma fe’llar hosil qilish, affiks / affiksoid qo‘shib yangi so‘z yasash, o‘zbek va tojik tillariaro o‘zaro muqobil alishtirish. Shu jihatdan, bu ikki tillarning so‘z o‘zlashtirish borasidagi

qiyosini amalga oshirish chog‘ishtirma tilshunoslik uchun yangi topilmalar berishi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Djafarov B. Turkic loanwords in the Persian language and their lexical-semantic groups // Theoretical&Applied Science. – 2020, №7 – C.389-392.
2. Бегматов Э. Ўзбек адабий тилининг мустақиллик даври ривожига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 2006, №4 va boshq.
3. Гулямова Н. Русские лексические заимствования в узбекском языке. – Ташкент: Фан, 1985
4. Джафаров Б., Арифджанов З. Форс тилидаги туркий ўзлашмаларнинг морфологик мослашуви // Шарқ машъали, ОТ. 2022. №2. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/fors-tilidagi-turkiy-zlashmalarning-morfologik-moslashuvi (мурожаат санаси: 17.04.2024).
5. Жуманиёзов А., Ходжаева Г. Ўзлашмаларда норма ва кодификация. Монография. – Урганч, 2023. – 180 б.
6. Мавлонова М. Д. Инглиз тилидан ўзлашган ахборот коммуникация технологиялари терминларини ўзбек тили лексик тизимига мослашиш жараёнлари // Наманган давлат университети “Илмий ахборотнома“си. 2022, №1 –Б.417-421
7. Маҳмудова С. Термин яратишнинг яна бир усули // Ўзбек тилшунослиги: тараққиёт тамойиллари, илмий муаммолар, истиқболдаги вазифалар. Илмий мақолалар тўплами. – Тошкент, 2013. – Б. 60-63.
8. Нуъмонова Ш. Ўзбек тилида -лик аффикси билан ясалган отларнинг семантик классификацияси ҳақида // Тилшунослик ва адабиётшуносликка оид тадқиқотлар – Тошкент, 1965
9. Тихонов А. Н. Влияние русского языка на систему словообразования в узбекском языке// Советская тюркология. – Баку. – 1982. – № 5. – С.20
10. Ҳожиев А. Совет даврида ўзбек адабий тилининг тараққиёти. 3 томлик. 3-т. Сўз ясалиши ва лексика – Тошкент: Фан, 1991. – 101 б.

НУТҚИЙ КЎНИКМА ВА МАЛАКАЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА АДАБИЙ МАТННИНГ АҲАМИЯТИ
(Абдулла Авлоний асарлари мисолида)

Hamidulla Tojiev,
M.Avezov nomli Janubiy Qozog'iston universiteti qozoq tili va adabiyoti kafedrasi katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
To‘maris A’zam Butunbaeva,
O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Аннотация. Мазкур мақолада талабаларда нутқий кўникма ва малакаларни шакллантиришда матннинг ўрни ва аҳамияти Туркистон жадидларининг буюк намояндаларидан бири, атоқли маърифатпарвар-миллатпарвар олим Абдулла Авлонийнинг она юрт ва она тили ҳақидаги асарлари мисолида тадқиқ қилинди.

Калит сўзлар: нутқ, матн, “Шуҳрат”, тамиллий уйғониш, ўзлик, маърифат, мактаб, дарслик, она тили, сўз, қадрият, руҳият, манба.

Миллий уйғониш ва миллий юксалиш жараёнида ҳар бир халқ ўзининг миллий қадриятлари ва маданий анъаналарини умуминсоний қадриятлар билан боғлиқ ҳолда кўриши, уйғунликда ҳис қилиши зарур. Маълумки, ҳар бир даврнинг ўз тараққиёт омиллари, эҳтиёжлари, талаблари ва ўзига хос ижтимоий – ҳаётий тамойиллари бўлади.

Жадидлар ўлка истиқболи, миллат келажаги учун бу мактабларнинг аҳамияти беқиёс эканлигини халққа тушунтиришга , ёшларни ўз ортидан эргаштиришга ҳаракат қилишди. Миллий тараққиётга эришиш, баркамол инсонни тарбиялаш оила ва мактабдан бошланишини яхши билган жадидлар янги услубдаги мактаблар очдилар, ватан тарихини, шарқона тарбия усулларини, бетакрор қадриятларни ўзида тўлиқ қамраб олган дарсликлар яратдилар.

Ўзбек халқининг мард ва миллатпарвар жадидлари - буюк маърифатпарвар олимларидан бебаҳо маънавий-илмий-эстетик хазина мерос бўлиб қолди.Уларнинг юксак иқтидори, тафаккури ва заковати нафақат қадим Туркистонга, балки яқин Шарқ мамлакатларига ҳам зиё сочган.Жадид боболаримиз эрк ва озодлик, миллат ва ватанпарварлик,маънавий жасорат ва матонат каби буюк

ғояларни тарғиб қилдилар. Буюк жадидшунос, профессор Б.Қосимов тўғри таъкидлаганидек, “... Абдулла Авлоний ҳамиша ўз халқига, Ватанига содиқ қолди.Бунинг гувоҳи – унинг ижоди, унинг фаолияти! У ҳамма вақт халқ дарди билан яшади. У ўз халқи дардига ҳамдардгина бўлиб қолмади, унинг истиқболи учун қайғурди, унга озодлик ва бахт қидирди, уни муқаддас ғоялар учун курашга даъват қилди” [20].

Адиб ўткир журналист, моҳир назариётчи педагог, адабиётшунос, тилшунос, драматург, театр ташкилотчиси сифатида майдонга чиқади. Жафокаш халқининг истиқбол йўлига чиқишини, илғор миллатлар қаторидан ўрин олишини орзу қиларди. Миллат зиёлиларини жипслашишга, жаҳолат ва бидъатдан воз кечишга чақирди.Унинг асарлари Туркистон ўлкасида ижтимоий тафаккур уйғотишда ҳал қилувчи роль ўйнади.

“Абдулла Авлоний (1878й.-1934й.) – маърифатпарвар, журналист, давлат ва жамоат арбоби. Тошкент шаҳрида тўқувчи оиласида туғилган.Мактабхона ва мадрасада ўқиган. 1906 йилдан шеърлари билан матбуотда қатнаша бошлаган.Араб, форс, рус тилларини ўрганиб, бу тилларда ижод қилган мутафаккирларнинг асарларини ўқиган, баъзиларини ўзбек тилига таржима қилган.” [21]

Олим “Биринчи муаллим” (1911), “Иккинчи муаллим”(1912), “Туркий гулистон ёҳуд ахлоқ” (1913), “Адабиёт ёҳуд миллий шеърлар”(1909 -1915), “Мактаб гулистони”(1915), “Мардикорлар ашувласи” (1917), “Адабиёт хрестоматияси” (1933) каби асарлар, ўқув қўлланмалари ва дарсликлар муаллифи. Унинг фавқулодда зўр истеъдод билан ёзилган асарларида ХХ аср бошидаги ижтимоий муҳитни жамики ички зиддиятлари ва мураккабликлари билан кўрсатди, асосий эътиборни илм-маърифатга, юксак маънавий-ахлоқий ақидаларга қаратди.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев “Янги Ўзбекистон” газетасига берган интервьюсида “Жадидлар томонидан ташкил этилган янги усулдаги мактаблар, театр, кутубхона ва музейлар, газета ва журналлар, Туркистон фарзандларини чет элларга ўқишга юбориш мақсадида тузилган хайрия жамиятлари халқимизни неча асрлик ғафлат уйқусидан уйғотди, миллий озодлик ҳаракати учун беқиёс куч берди. Афсуски, юртимизда большевиклар

[20] Қосимов Б. Оқ тонгларни орзулаган шоир. Сўзбоши. Авлоний А. Танланган асарлар. Т.: “Маънавият” нашриёти, 2020. Б.-79.
[21] Ўзбекистон Миллий энциклопедияси.1-ж. Т.: “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2000. Б.-73.

диктатураси ўрнатилгани, чор мустамлакачилик сиёсати янгича шаклда давом эттирилгани маърифатпарвар боболаримизга ўз мақсад-муддаоларини тўлиқ амалга ошириш имконини бермади. Лекин уларнинг эзгу орзу-ниятлари халқимизнинг қон-қонида, тарихий хотирасида сақланиб қолди ва ҳануз яшамоқда, десак, айни ҳақиқатни айтган бўламиз.Шу маънода, бугунги кунда бутун халқимизнинг қалбидан чуқур жой олган, умуммиллий ҳаракатга айланиб бораётган **“Янги Ўзбекистон”** ғояси замирида ана шундай улуғ аждодларимиз, умуман олганда, миллий тарихимизда Биринчи ва Иккинчи уйғониш даврларига асос солган аллома боболаримизнинг орзу-интилишлари ва армонлари ҳам мужассам, десак, адашмаган бўламиз”[22], дея жадид олимлари фаолиятига юксак баҳо берди.

Буюк аллома, туғма педагог, донишманд мураббий Абдулла Авлоний асарларининг бош мавзуси она юрт ва она тили, миллат маънавияти ва маърифатидир. У жадидчилик ҳаракатининг етук намояндалари қаторида матбуотга ҳам жиддий эътибор берди. 1907 йил 4 декабрда Тошкентда Авлоний муҳаррирлиги остида “Шуҳрат” газетасининг чоп этилиши Туркистон ижтимоий-сиёсий ҳаётида муҳим воқеа бўлди, тараққийпарвар зиёлилар томонидан ниҳоятда қизғин кутиб олинди.

Серқирра истеъдод соҳиби Авлонийнинг газетага бағишланган шеъри тезда халқ орасида машҳур бўлиб кетади. Унда шундай оловли сатрлар бор эди:

Каломи хуш таккаллум тўтии зебосифат сўзлар,
Мақоми ҳурриятда булбули шайдосифат сўзлар,
Замона гулшанида қумрии танҳосифат сўзлар,
Гулистонларда доим сайр этар сайёрадур “Шуҳрат”.

У газетада ижтимоий-сиёсий, ахлоқий-диний, илмий-фалсафий руҳдаги мақолалар чоп этилишини, улар “мақоми ҳуррият” ҳақида энг холис ва адолатли фикрларни айтишини орзу қиларди. У тинимсиз миллатнинг истиқболи ҳақида ўйлади, шу йўлда курашди, жаҳолат – барча янгиликларнинг, мактаб ва маърифатнинг душмани эканлигини дадил айта олди. Бу пурмаъно ғоялар янги асрда ҳам ниҳоятда долзарб. Зеро, “...биз биринчи марта умумтаъли мактабларида “Тарбия” фанини жорий этдик. Маърифатпарвар бобомиз Абдулла Авлонийнинг асрий қадриятларимиз асосида яратган “Туркий “Гулистон” ёхуд ахлоқ” асари шарқона тарбиянинг

[22] Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг “Янги Ўзбекистон” газетаси бош муҳаррири С.Дониёровнинг саволларига жавоблари. Янги Ўзбекистон демократик ўзгаришлар, кенг имкониятлар ва амалий ишлар мамлакатига айланмоқда. “Янги Ўзбекистон” газ. 2021йил, 17 август.

ноёб қўлланмаси сифатида бугунги кунда ҳам ўзининг қадри ва аҳамиятини йўқотган эмас. Биз “Тарбия” фанининг назарий ва методологик асосларини ишлаб чиқишда мана шундай бебаҳо асарлардан самарали фойдаланишимиз зарур”[23].

“Илм”, “Миллат ҳолиндан бир яъс”, “Истиқболимиз учун бир жигарсўз”, “Ўз миллатимдан рижойи ожизонам”, “Мактаб”, “Мактабга тарғиб”, “Илма тартиб”, “Миллата хитоб”, “Миллий нағма”, “Миллата салом”, “Жигарсўз”, “Шуҳрат”, “Ҳуррият шарафина”, “Ҳуррият марши”, “Оила мунозараси” каби асарларида шоирнинг улуғ мақсади намоён бўлган эди. “Маишатимиздан бир манзара” шеърида у шундай дейди:

Кўб вақтлар ухладук, эмди турайлук,
Тонг отди, уйқудан кўзни йирайлик,
Ўтмасун вақтимиз, илма юрайлук.
Тезгина илмнинг уйига кирайлук.
Эй миллат, ухлама, илм олур чоғи,
Ҳар миллат илм олди – ёнди чироғи.

Буюк адибни миллатнинг қалб кўзини очиш муаммоси қийнайди. Мазкур мураккаб ва мунозарали, оғриқли тушунча унинг барча асарларида бўртиб туради. У мутелик ва нодонликни миллатни емирувчи оғу деб билади. Абдулла Авлоний асарлари миллий руҳ, миллий ўзлик, ватанпарварлик ва маърифатпарварликнинг ҳам илмий-педагогик, ҳам ҳаётий тамойиллар уйғунлигида акс этиши билан муҳим аҳамият касб этади.Ўзбекистон Қаҳрамони, атоқли адабиётшунос олим Озод Шарафиддиновнинг фикрича, “Жадидлар ҳаётнинг бир соҳасини эмас, бутун ҳаётни, уни тебратиб турган ижтимоий тузумни ўзгартиришни, тубдан янгилашни мақсад қилиб қўйган эдилар. Фақат бу мақсадга жамият ҳаётини тубдан алғов-далғов қилиш билан эришмоқни улар рад қилганлар. Улар биродаркушлик йўлини, жамият бошига мислсиз фожиалар олиб келувчи қирғинбарот йўлини қабул қилган эмаслар.Жадидлар ақлга таяниб иш юритишни маъқул кўрганлар.Шунинг учун улар ислоҳотлар йўлини, босиқлик билан амалга ошириладиган тадрижий ривожланиш йўлини танлаганлар.Тарих бу йўлнинг бирдан – бир тўғри йўл эканлигини исботлаб берди”[24].

Абдулла Авлоний маслакдошлари билан бутун умри бўйи шу тўғри йўлни излади. Шу тўғри йўл умидида она юрт ҳақида,

[23]Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. Т.: “Ўзбекистон” нашриёти.,2021. -Б. 19.
[24] Шарафиддинов О. Танланган асарлар.Т.: “Шарқ”, 2019.Б.-411.

миллатнинг руҳи ва ўзлиги бўлмиш она тили ҳақида куюниб ёзди. Олим “Ҳифзи лисон” мақолатида қалби изтироб ва надоматда тўлғониб, “Миллий тилни йўқотмак миллатнинг руҳини йўқотмакдур”, дейди. Унинг наздида тилини йўқотаётган миллат ўтмишини ҳам унутади, ўзининг миллий қадриятлари ва анъаналаридан, удумлари ва истиқболидан ҳам маҳрум бўлади. Бу оғир ўйлар унинг азобига азоб қўшади.”Ҳайҳот! Биз туркистонликлар миллий тилни сақламак бир тарафда турсун, кундан-кун унутмак ва йўқотмакдадурмиз. Тилимизнинг ярмига арабий, форсий улангани камлик қилуб, бир четига рус тилини ҳам ёпишдурмакдадурмиз”, дея алам чекади. Бу сатрлар ёзилганига бир асрдан ошди, лекин бу муаммолар ҳамон долзарблигича турибди. Йигирма биринчи асрда тилимизнинг “бир четига” ёпишган рус тилининг ёнига энди инглиз тили ҳам қўшилди.Авлоний учун миллий тил фақат алоқа воситаси эмас, балки миллатнинг ўтмиши, руҳияти, ўзлиги ва истиқболи билан боғлиқ бебаҳо хазинадир.

Кейинги беш йилда Ўзбекистонда она тили учун янги амаллар ва янги ҳаракатлар даври бўлмоқда. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги Фармонида “Халқимизнинг кўп асрлик маданий, илмий-маърифий ва бадиий тафаккури, интеллектуал салоҳиятининг ёрқин ва бебаҳо маҳсули бўлган ўзбек тили жаҳондаги бой ва қадимий тиллардан биридир... Бугунги глобаллашув даврида ҳар бир халқ, ҳар қайси мустақил давлат ўз миллий манфаатларини таъминлаш, бу борада аввало ўз маданиятини, азалий қадриятларини, она тилини асраб-авайлаш ва ривожлантириш масаласига устувор аҳамият қаратиши табиийдир” [25], дея алоҳида таъкидланган.

Абдулла Авлоний ўсиб келаётган ёш авлод ўз она тилини мукаммал ўрганиши ва уни кўз қорачиғидек асраши шарт, дейди:

Эй она тил, азиз қадрдоним!
Илтифоти руҳим, раҳмоним!
Тузлиғим кундин айладинг улфат,
Ўлгунча айилма, эй жоним!
Менга илму адаб сан ўргатдинг,
Чин адиб, муаллим, шоним!
Миллатинг руҳини кўтаргувчисан,

[25]Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги Фармони. ЎзА, 2019 йил,21 октябрь.

Энг муқаддас карамли султоним!

Она тилининг тақдири халқнинг аччиқ қисматидан ҳам оғирроқ эди. Авлоний она ватанининг, онадек муқаддас тилининг эркин ва фаровон истиқболи келишидан умидвор эди. Бугун мамлакатимизда буюк жадидларнинг барча олий мақсадлари, орзу – умидлари амалга ошаётганлиги ёшларимизга янги имконият эшикларини очмоқда. Муҳтарам Президентимизнинг ташаббуси билан бошланган Янги Ўзбекистонни бунёд этиш ғояси асосида амалга оширилаётган оламшумул ислоҳотлар халқимиз қалбида эртанги кунга, юрт истиқболига ишонч уйғотади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг “Янги Ўзбекистон” газетаси бош муҳаррири С.Дониёровнинг саволларига жавоблари. Янги Ўзбекистон демократик ўзгаришлар, кенг имкониятлар ва амалий ишлар мамлакатига айланмоқда. “Янги Ўзбекистон” газ. 2021йил, 17 август.
2. МЎзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги Фармони. ЎзА, 2019 йил,21 октябрь.
3. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 2020.
4. Алимова Д. Жадидчилик : ислоҳот, янгиланиш мустақиллик ва тараққиёт учун кураш. – Тошкент: Университет, 1999.
5. Ризаев Ш. Жадидчилик: ислоҳот, янгиланиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш. – Тошкент, 1999.
6. Шарафиддинов О. Танланган асарлар. – Тошкент: Шарқ, 2019.
7. Шарипов Р, Жадид адабиётида янгиланиш, ислоҳот ва мустақиллик учун кураш. – Тошкент, 2005.
8. Қосимов. Б. Маслакдошлар. – Тошкент, 1994. – 17-б.

GUL SAYILLARINI IFODALOVCHI GEORTONIMLARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

Solixo‘jayeva Havasxon Zokirjanovna,
NamDU o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
E-mail: solihodjayevaxavasxon@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada gul sayillarini ifodalovchi maxsus atoqli nomlar – geortonimlarning lingvokulturologik xususiyatlari: yuzaga kelishi, nomlanishi, lug‘aviy asosi, tuzilish modellari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *sayil, bayram, gul bayrami, geortonim, lug‘aviy asos, apellyativ, nekronim, gidronim, antroponim.*

Annotation. The lingocultural features of geortonyms – particular names of flower holidays, their origin, naming, lexical basis and their structural (texture) models are given in the article.

Keywords: *event, holiday, flower holiday, geortonim, lexical basis, appellativim, hydoronim, antroponim.*

O‘tmishda Markaziy Osiyo xalqlari, chunonchi, qadimgi xorazmliklar, sug‘dlar va baqtriyaliklar hayotida ham gul bayramlari eng ulug‘ tantanalardan sanalgan. Tarixiy manbalarga qaraganda, Xorazm va Buxoroda *qizilgul*, Farg‘ona vodiysi va Toshkent atroflarida *lola*, Chust va Denov tumanlarida *sunbula*, boshqa joylarda *boychechak* sayillari uyushtirilgan. Gul bayramlari dunyoda keng tarqalgan ezgu an’analardan biridir. Jahondagi bir qancha mamlakatlarda gullarga bag‘ishlangan, jumladan, Gretsiyada – *sunbul,* Yaponiyada – *xrizantema,* Fransiyada – *marvaridgul,* Hindistonda – *atirgullarga* bag‘ishlangan maxsus bayramlar mavjud. Gul bayramlarining mazmun-mohiyati bir-biriga yaqin bo‘lsa-da, biroq ular o‘ziga xos usul, rang-barang shaklda, milliy va mahalliy xususiyatlar bilan uyg‘un tarzda uyushtiriladi.

O‘zbekistonda ham yangi tipdagi gul bayramlari yaxshi taraqqiy etmoqda, chunki bu yangi bayramning rivojlanishi uchun o‘zbek xalqi hayotida uzoq tarixga ega bo‘lgan, tabiat qo‘ynida o‘tkaziladigan gul bilan bog‘liq sayillar: *“Lola sayli”, “Sunbula sayli”, “Guli surx” (“Qizil gul”) sayli* kabi tarixiy va qadimiy an’analar zamin bo‘lgan.

L.A.Tulsevaning ma’lumotlariga qaraganda, Nurota qir-adirlarida gullar ochilgan mahalda *“Qizil gul sayli”,* Farg‘ona vodiysida *“Lola sayli”,* Samarqandda mevali daraxtlar, jumladan, behi gullaganda *“Behi guli sayli”,* Zarafshon vodiysida *“Boychechak gulgardoni”,* Buxoroda gullar ochilib, bulbullar sayragan vaqtda *“Gulgardoni bulbulxon”* kabi bayramlar uyushtirilgan[26]. Hozirda ham bu bayramlar nishonlanadi.

Zamonaviy gul bayramlari keng ma’noda tabiat go‘zalliklarini muhofaza qilish, aholi turarjoylarini obodonlashtirish, ularni bog‘-rog‘, gulzor, chamanzorga aylantirish, ya’ni tevarak-atrofni chiroyli qilishga ko‘mak beruvchi qadriyatlardir. Gul bayramlari, gulga bag‘ishlangan shodiyonalar – go‘zallik ramzidir.

[26]Тульцева Л.А. Современные праздники и обряды народов СССР. – Москва: Наука, 1985. – С.107-108. Бу ҳақида қаранг. Қорабоев У. Ўзбекистон байрамлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1991. – Б.30.

Sunbula sayli – chustliklar, qolaversa, Namangan viloyati xalqi uchun milliy qadriyat va an’anaga aylangan marosimlardan biri. *Sunbula sayli* Namangan viloyatining Chust tumanida aprel oyining oxiri, may oyining birinchi haftasida nishonlangan. Koʻpincha, mazkur sayil 2-may kuni oʻtkazilgan.

Geortonimning lugʻaviy asosiga e’tibor qaratsak. *Sunbul* (a. boshoq). Piyozgullilar oilasiga mansub, lola bargiga oʻxshash uzun bargli oʻtsimon manzarali oʻsimlik va uning gʻuj boʻlib ochiladigan xushboʻy, chiroyli guli. *Sunbul*ning soʻzlashuv tilida *sumbul* fonetik varianti ham qoʻllanadi[27]. Sunbuldan tashqari *sumbulsoch* oʻsimligi ham bor. **Sumbulsoch** *bot.* Soya-salqin joylarda, suv sirqirab turadigan ungurlarda, buloqlar atrofida oʻsadigan koʻp yillik manzarali oʻt.

Sumbulsoch ilmiy manbalarda *suvsumbul, zuhra sochi* ham deb ataladi. *Sumbulsoch* – chin qirqquloqlarga mansub koʻp yillik manzarali oʻt. Atlantika okeani sohillarida, Qrim, Kavkazda, Oʻzbekistonda soya-salqin joylarda, tog‘ soy boʻylari uchraydi[28].

Sumbul sayli geortonimiga ana shu soya-salqin joylarda, suv sirqirab turadigan ungurlarda, buloqlar atrofida oʻsadigan koʻp yillik manzarali oʻtni ifodalovchi *sumbulsoch* soʻzi lugʻaviy asos boʻlgan. *Sunbula sayli* oʻtkazilish oʻrni va tarixiga koʻra Namangan viloyati Chust tumanining *Sunbul siyoh ziyoratgohi*, ya’ni agionimi bilan bogʻliq. Sayil haqida xalq orasida rivoyatlar ham tarqalgan. Ana shunday rivoyatlardan biri ziyoratgoh va Sunbul sayli haqidagi *“Sunbuli siyoh”* rivoyatidir.

Rivoyatda aytilishicha, Xoja Abdurahmon hazratlari mugʻlar tomonidan ta’qibga uchrab, Qizlar buvim koʻmagida mazkur soyga kelib, Allohdan poklanish uchun panoh soʻraganlarida, parvardigorning inoyati, qudrati bilan ilohiy gʻor va uning atrofida hazratning jarohat suvlaridan sunbuli siyoh paydo boʻlgan emish. Sunbul Qizlar buvimning soch tolalaridan yodgorlik emish. Ayrim rivoyatlarda esa sunbul Bibi Fotima onamizning sochlari deb talqin etiladi.

Sayilgohdagi ilohiy gʻor, uning atrofidagi gilamdek toʻshalgan sunbulzor, zilol suvli buloq tabiatning moʻjizaviy in’omlaridir[29]. Sunbul sayillarida ommaviy xalq oʻyinlari, kurash, askiya, she’rxonlik boʻladi, kuy-qoʻshiqlar ijro etiladi. Moʻtabar otaxonu onaxonlarning pand-nasihatlari tinglanadi. Shoʻrolar tuzumi davrida Sunbul sayli 1-may

[27]Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. – 3-ж. – Б. 587.
[28]Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2004. – 8-ж. – Б. 136.
[29] Исмоилов М., Абдусаломов А. Тошқўрғон ва Машҳад қишлоқлари тарихидан лавҳалар. – Наманган: “Наманган” нашриёти, 2006. – Б. 75-77.

Mehnatkashlarning xalqaro birdamlik kuni bayrami soyasida, ya’ni 2-may kuni nishonlab saqlab qolingan.

Farg‘ona viloyati Oltiariq tumani Do‘sti Xudo ziyoratgohida ayollar ishtirokida bahor kirib kelishi vaqtida Respublikamizning boshqa yerlarida uchramaydigan *Arg‘uvongul* yoki mahalliy aholi tilida *Guli armug‘on* deb ataluvchi sayil o‘tkaziladi. Bahorning erta yoki kech kelishiga qarab, mart yoxud aprel boshlarida arg‘uvon gulining pushti rangda ochilishi marosimiy tarzda bayram qilingan va qishloq ayollari tomonidan maxsus taomlar tayyorlangan[30].

Bayramlar tadqiqiga doir manbalarda gul bayramlarining quyidagi ikki turi ajratiladi:

1) an’anaviy gul bayramlari;
2) zamonaviy gul bayramlari[31].

Gul bayramlarining har ikki turi bir-biriga uzviy bog‘liq. Bu bayramlar maqsad-mohiyatiga ko‘ra umumiy bo‘lsa-da, kelib chiqishi, nishonlanish vaqti va shakliga ko‘ra farqlanadi. Xususan, an’anaviy gul bayramlari bahor faslida tabiiy gullar ochilgan vaqtda sayilgohlarda tabiat qo‘ynida nishonlanadi. Shuningdek, an’anaviy gul bayramlari sayillar deb atalgani holda, turli hududlarda ma’lum gulga bog‘liqligi bilan xarakterlanadi. Zamonaviy gul bayramlari XX asrning 50-yillarda shakllangan bo‘lib, yoz faslida, asosan, Namanganda avgust oyida o‘tkaziladi.

Gul sayillarini ifodalovchi geortonimlar nomlanish tamoyili va motiviga ko‘ra umumiy bo‘lib, qanday gulga bog‘liqligiga nisbat berish asosida atalgan. Bunday geortonimlarga gul nomlarini, xususan, bahoriy gul nomlarini ifodalovchi *boychechak, sunbul, lola* apellyativlari lug‘aviy asos bo‘lgan: *Boychechak sayli, Sunbula sayli, Lola sayli* kabi. Chunonchi, o‘simlik nomini ifodalovchi *sunbul* so‘zi gidronim, agionim, geortonim, qolaversa, biblionim uchun lug‘aviy asos bo‘lgan: *Sunbul buloq* (gidronim), *Sunbul mozor* (nekronim), *Sunbula sayli* (geortonim), *“Sunbuli siyoh”* (biblionim) kabi.

Ko‘rinadiki, gul sayillarini ifodalovchi geortonimlar tuzilish modeliga ko‘ra ot+ot modelida bo‘lib, gul nomi va bayram turini ifodalovchi *sayil* indikatoridan tarkib topgan: *boychechak sayli > Boychechak sayli; sunbul sayli > Sunbul sayli; lola sayli > Lola sayli* kabi.

[30] Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси, 2007. – Б. 201.
[31] Қорабоев У. Ўзбекистон байрамлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1991. – Б. 93.

O‘zbek tilida *“sunbul kabi go‘zal qiz; jozibali, yoqimtoy”, “xushbo‘y, guldek go‘zal qiz”* kabi onomastik ma’nolarga ega *Sunbul // Sumbul, Sunbuloy // Sumbuloy, Sunbula* kabi antroponimlar ham bor[32].

Sayil – yilning ma’lum fasllarida o‘tkaziladigan sayr-tomoshalar[33]. O‘zbekiston mustaqillik erishgandan so‘ng xalq sayillari mazmunan o‘zgarib, ko‘proq milliy tus oldi. Demak, gul nomlari *sayil* geortonimik indikatori vositasida bayram nomlariga aylangan.

O‘zbek tili geortonimiyasida sayil nomlari alohida bir guruhni tashkil etadi. Ular mavsumiy, hududiy xoslanganligi bilan xarakterlanadi. Biz yuqorida tahlilga tortgan gul bilan bog‘liq xalq sayillari mavsumiy jihatdan bahor mavsumiga, areal jihatdan ma’lum hududga xos bayramlardir.

Gul sayillarini ifodalovchi geortonimlar o‘zbek xalqining asriy, milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlari, an’analarining mahsuli sifatida lingvokul-teremalardir. Gul sayllarini ifodalovchi lingvokulteremalar o‘zbek xalqining milliy bayramlarining bardavomligini ta’minlash, avlodlardan-avlodlarga yetkazish, odamlarni birdamlikka, hamkorlikka, ezguliklarga chorlash kabi madaniy, ma’naviy, estetik va gul sayillarini bir-biridan farqlash kabi lisoniy vazifalarni bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси, 2007. – Б. 201.

2. Қорабоев У. Ўзбекистон байрамлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1991. – Б. 93. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2004. – 7-ж. – Б. 428.

3. Бегматов Э.А. Ўзбек исмлари маъноси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2098. – Б. 399-400.

4. Исмоилов М., Абдусаломов А. Тошқўрғон ва Машҳад қишлоқлари тарихидан лавҳалар. – Наманган: Наманган, 2006. – Б. 75-77.

[32] Бегматов Э.А. Ўзбек исмлари маъноси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2098. – Б. 399-400.

[33] Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2004. – 7-ж. – Б. 428.

РАЗВИТИЕ ПИСЬМЕННОЙ АКТИВНОСТИ УЧАЩИХСЯ С ПОМОЩЬЮ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ

Абдувалиева Буаида,
к.ped.н., доцент,
Ошский государственный университет
Караева Назира Ормонбековна,
к.филол.н., доцент
Ошский государственный университет
Каразакова Зувайда Жамиловна,
к.пед.н., доцент
Ошский государственный университет
E-mail: buaidaa@mail.ru

Аннотация: В статье даны некоторые приемы, направленные на развитие письменной деятельности учащихся при обучении кыргызскому языку как иностранному. В проекте “чтение и письмо для развития критического мышления” особое внимание уделяется обучению, побуждая всех учащихся писать. В учебнике кыргызского языка для 8 класса узбекских школ (авторы Б. Абдувалиева, М. Исматуллаева.) В работе над текстом “Ореховый лес Арстанбап“ в качестве примера было взято использование таких стратегий критического мышления, как двухчастный дневник, эссе, письмо с перспективой, направленное на написание. В методе двухчастный дневник вы рисуете два столбца, прежде чем читать текст, и пишете первое слово или предложение, которое привлекает особое внимание или впечатляет, в качестве цитаты, а второе-комментарий к нему. Они пишут вместе ассоциацию, которая приходит на ум.

Ключевые слова: письменная деятельность, личное мнение, свободное письмо,критическое мышление, эссе, двухчастный дневник, мотивационное письмо, цитата, комментарий, ассоциация, индивидуально, в парах,в группе, письмо наизусть, эссе, изложение, словарь наизусть, отличная работа, посредственная работа, размышление, свободное письмо.

Annotation: The article presents several methods aimed at developing students’ writing skills in teaching Kyrgyz as a foreign language. Special emphasis is placed on encouraging all students to write within the framework of the “Reading and Writing for Critical Thinking” project. As an example, the article demonstrates the use of strategies such as the two-part journal, essay, and a letter to the future while working with

the text “Arstanbap Walnut Forest” from the Kyrgyz language textbook for 8th-grade Uzbek schools (authors: B. Abduvalieva, M. Ismatullaeva). In the two-part journal strategy, before reading the text, students draw a line down the page to divide it into two columns: the first column is used to record a quote — a word or sentence that caught their attention or made an impression — and the second column for their comments, including any associations that come to mind.

Keywords: Writing activity, personal opinion, free writing, critical thinking, essay, two-part journal, letter to the future, quote, comment, association, composition, retelling, excellent work, average work, reasoning, free expression of thought.

Введение. Развитие письменной деятельности учащихся является ключевой проблемой в процессе обучения. Этому также уделялось особое внимание во время Союза. Орфографическая, пунктуационная грамотность была в центре внимания. Существуют разные мнения о том, как оценить преимущества умения писать и включить письмо в когнитивные процессы. В то время как некоторые исследователи поддерживают ведение дневника и написание собственных мнений для обсуждения идей, некоторые считают важным, чтобы учащийся мог выразить свои мысли через запись личного опыта.

С этой целью регулярно проводятся такие виды письменной работы, как дистантное письмо, словарный диктант, сочинение, изложение, начиная с начальной школы и заканчивая средней школой. Написанная работа будет проверена учителем, и некоторые из лучших работ будут представлены в качестве образцов. Жаль, что работы остальных учеников остаются без внимания. В настоящее время в центре внимания должно быть вовлечение всех учащихся в писательскую деятельность, ее реализация на определенном уровне. Потому что мы не знаем, какие слои общества люди, от рядовых специалистов до высших государственных служащих, не могут широко и свободно выражать свои мысли и допускают ошибки, которые также полны писательских ошибок. Полное вовлечение учащихся в письменную работу – это не только обязанность кыргызских лингвистов. Все предметы, преподаваемые в школе, должны иметь требование писать свою игру или концепцию без ошибок. Только тогда мы сможем добиться определенного успеха.

Метод исследования: педагогико-экспериментальный. Материалы исследования.

В проекте «чтение и письмо для развития критического мышления» особое внимание уделяется полной оценке письменной работы, обучая письму почти всех учащихся. При этом особое внимание уделяется свободе мышления, широкому выражению своих мыслей, взглядов [Курбанова, 2020: 53-63; Саидова, 2012: 300-301].

Контрастная природа Маргариты раскрывается через её отношение к окружающему миру. С одной стороны, она живёт в мире советской обыденности, с другой – принадлежит миру высоких чувств, искусства и мистики. Её внутреннее состояние выражается через описание её душевной пустоты в начале романа: «её жизнь была пуста, словно высохший колодец». Это подчёркивает её разрыв с окружающей реальностью и предвосхищает её метаморфозу [3;338].

Диалоги и речевая характеристика.

Речь Маргариты насыщена экспрессивностью, что отражает её эмоциональность и независимость. В сценах общения с Мастером она говорит просто и искренне, что подчёркивает глубину их связи. В контрасте с этим, её обращение к Воланду отличается уверенностью и твёрдостью, что свидетельствует о её силе духа и готовности противостоять страху.

Ключевым элементом в создании образа Маргариты является сцена её превращения в ведьму и полёта. Мотив полёта, описанный яркими метафорами («потоки воздуха обжигали её тело, как огонь»), символизирует освобождение героини от земных ограничений и её переход в мир духовной свободы. Полёт Маргариты – это метафора её внутренней трансформации и принятия собственного выбора. Полёт – центральный символ в трансформации Маргариты. В сцене полёта Булгаков описывает её как *«парящую свободно и счастливо»,*

«оторванную от земного» [4;58]. Этот символ воплощает её духовное возрождение и освобождение от оков обыденности.

Символика любви и жертвенности. Маргарита представлена как воплощение жертвенной любви, готовой преодолеть любые преграды ради Мастера. Её готовность стать ведьмой и вступить в контакт с Воландом ради спасения возлюбленного иллюстрирует её преданность[5;256]. При этом Булгаков использует символику очищения: проходя через испытания, Маргарита не только сохраняет свою любовь, но и приобретает внутреннюю силу и гармонию.

Психологическая глубина. Булгаков использует внутренние монологи и описание мыслей Маргариты, чтобы показать её внутренний конфликт. На протяжении романа читатель наблюдает, как её отчаяние и тоска постепенно трансформируются в решительность и духовное просветление.

Роль фантастики. Мистические элементы играют важную роль в раскрытии образа Маргариты. Её взаимодействие с Воландом и его свитой демонстрирует её способность сохранять человечность и моральные ориентиры даже в условиях сверхъестественного воздействия. Это подчёркивает её силу и самостоятельность как персонажа [6;316].

Лексические особенности.

Лексика, связанная с описанием Маргариты, насыщена эмоциональными и экспрессивными элементами. В сценах, предшествующих её превращению в ведьму, её внутреннее состояние передаётся через слова с ярко выраженной негативной окраской: *«пленённая», «несчастная», «забытая»* [7;18]. Эти лексемы подчеркивают её тоску по утраченному счастью и любви.

В противоположность этому, после встречи с Воландом и превращения в ведьму язык, описывающий Маргариту, становится более динамичным и экспрессивным. Булгаков использует глаголы движения и восклицания: *«летела», «восторженно», «свободно»*. Такой контраст отражает духовное освобождение героини [8;96].

Символика Луны. Луна является постоянным символом, сопровождающим образ Маргариты. Её магический свет подчёркивает мистическую составляющую героини и её связь с миром сверхъестественного. Луна символизирует также эмоциональную сторону Маргариты: её страсть и стремление к свободе.

Метафоры и эпитеты.

Булгаков активно использует метафоры и эпитеты для создания поэтического образа Маргариты.

- Например, её любовь к Мастеру описывается как *«пламя, согревающее её сердце»*. Эта метафора подчёркивает, что чувства героини являются её движущей силой.
- До превращения Маргарита характеризуется как *«одинокая», «страдающая»*. После обретения магической силы и осознания своей миссии в её описании появляются эпитеты: *«величественная», «неземная», «ослепительная»* [9;76].

Интертекстуальность.

Образ Маргариты включает аллюзии на мифологические и литературные архетипы.

- Архетип ведьмы. Традиционный образ ведьмы в литературе переосмыслен Булгаковым. Маргарита, несмотря на обретение магической силы, остаётся любящей женщиной, чья жертвенность подчёркивает её человечность.
- Связь с Маргаритой из «Фауста». Булгаков использует элементы классической литературы, придавая своей героине глубину. Однако, в отличие от героини Гёте, Маргарита у Булгакова активно борется за своё счастье.

Образ Маргариты в романе *«Мастер и Маргарита»* создаётся с помощью широкого спектра языковых средств, включая эмоционально окрашенную лексику, символику, метафоры и интертекстуальные аллюзии. Эти элементы не только подчёркивают многогранность героини, но и помогают раскрыть ключевые философские темы произведения. Маргарита выступает как символ любви, жертвенности и свободы, а её образ является центральным элементом в раскрытии основной идеи романа. Эти приёмы позволяют Булгакову не только показать многогранность героини, но и подчеркнуть её центральную роль в теме любви, жертвенности и духовного освобождения. Маргарита становится не просто спутницей Мастера, но и символом преодоления земных и духовных границ ради высших ценностей.

Использованные литературы:

1. Булгаков, М.А. *Мастер и Маргарита*. – М.: Эксмо, 2020.
2. Бочкарёв, С.Я. “Символика в романе М.А. Булгакова «Мастер и Маргарита».“ – *Вопросы литературы*, 2003, № 4.

3. Лотман, Ю.М. *Семиотика культуры и искусство*. – СПб.: Искусство, 1998.

4. Ляхова, Н.В. “Философия любви в романе М.А. Булгакова.“ – *Филологические науки*, 2011, № 5.

5. Топоров, В.Н. “Символ и смысл в литературе.“ – *Известия РАН*, 1995, № 3.

6. Шкловский, В.Б. *О теории прозы*. – М.: Гиперборей, 2001.

7. Бархударов, Л. С. (1975). Язык и перевод (вопросы теории перевода). – М.: Международные отношения. (о языковых средствах и стиле художественного текста)

8. Руднев, В. П. (2000). Словарь культуры XX века. Ключевые понятия и тексты. – М.: Аграф. (о символике и психоаналитическом подходе к образу Маргариты)

9. Ахманова, О. С. (1966). Словарь лингвистических терминов. – М.: Советская энциклопедия. (для анализа языковых средств).

10. Земская, Е. А. (2001). Современный русский язык: Введение в грамматический строй. – М.: Логос.

11. Быстрова, А. Н. (2011). Языковая характеристика образа Маргариты в романе М. А. Булгакова // Вестник Тульского государственного университета.

IKKILAMCHI NOMINATSIYANING IQTISODIYOT TERMINOLOGIYASIDAGI O‘RNI

Xabibjonov Ikromjon Toshpulat ug‘li,
Qo‘qon davlat universiteti professori v.b.,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, PhD.
E-mail**:** *mybooks91@mail.ru*
Tel: *+998993639197*

Annotatsiya. Xorij tilshunosligida terminlarning lisoniy tabiati, linvokognitiv, assotsiativ, lingvopragmatik va linvokulturologik jihatlari o‘rganilganligiga qaramay, mazkur masala zamonaviy tilshunoslikning diqqat markazida turibdi. Ushbu tezisda ikkilamchi nominatsiyaning iqtisodiyot terminologiyasidagi o‘rni va ahamiyati haqida qisqacha to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Metafora, terminologiya, tilshunislik, iqtisodiyot, tadqiqot.

Abstract. Despite the fact that the linguistic nature of terms, linguocognitive, associative, linguopragmatic and linguocultural aspects

have been studied in foreign linguistics, this issue remains in the focus of attention of modern linguistics. This thesis briefly discusses the role and significance of secondary nominative in economic terminology.

Keywords. Metaphor, terminology, linguistics, economics, research.

Tadqiqotchi F. Boboqulovning fikriga ko‘ra, adabiy tilda ko‘pchilik so‘zlar ko‘p ma’nolidir. Ushbu xususiyat tilimizning boyligini, undagi ma’no imkoniyatlarining naqadar kengligini ko‘rsatuvchi dalillardan hisoblanadi[Бобоқулов Ф., 2011:17]. Polisemantik so‘zlar metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik ma’no ko‘chish usullari yordamida paydo bo‘ladi [Миртожиев М., 2010:89-112]. Shu qarashlarning isboti iqtisodiyotga oid tushunchalarning metafora, metonimiya, vazifadoshlik kabi usullar bilan hosil bo‘lishida juda aniq ko‘zga tashlanadi:

Tovarni chiqarib yuborish termini. Ushbu termin iqtisodiyotda “bojxona organlarining bojxona rasmiylashtiruvini yakunlovchi va tovarlardan foydalanish, ularni tasarruf etishga ruxsat berilganligini ifodalovchi harakati”[Ўзбекистон Республикасининг Божхона кодекси, 15-модда.] ma’nosini anglatadi. Ma’lumki, chiqarib yuborish jonli narsalarga qarata qo‘llaniladi: *talabani xonadan chiqarib yuborish, kuchukni uydan chiqarib yuborish* kabi. Ammo bu birikma termin iqtisodiyotda jonsiz narsalarga nisbatan ishlatiladi. Buning sababi *chiqarib* komponentida harakat o‘xshashligi asosida ma’no ko‘chgani hisoblanadi: *Bojxona organlari* ***tovarlar chiqarib yuborilgani****dan keyin, basharti bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlari buzilgan deb taxmin qilish uchun yetarli va tasdiqlangan asoslar mavjud bo‘lsa, bojxona nazoratini amalga oshirishga haqli* (Bojxona kodeksi, 201-modda).

O‘zbek tili iqtisodiyot terminologiyasida eng faol qo‘llaniladigan terminlardan biri *soliq solish* termini sanaladi. Soliqchilik faoliyatining asosiy tushunchasi hisoblangan mazkur termin ham harakat o‘xshashligi yordamida hosil bo‘lgan. Dastlab ushbu termin qo‘llangan matnni keltirib, uning ma’no doirasi haqida tushuncha hosil qilamiz: ***Soliq solish*** *majburiylik, aniqlik va soliq organlarining soliq to‘lovchilar bilan hamkorligiga asoslanadi* (Soliq kodeksi, 7-modda). *Soliq solish* terminining *jarima solmoq* kabi qo‘llanishlar asosida yuzaga kelgan.

Mamlakat iqtisodiyotining tarkibiy qismi bo‘lgan jarayonni anglatuvchi ***tovarlarning erkin muomalasi*** (“bojxona hududida tovarlarning belgilangan taqiqlar va cheklovlarsiz aylanishi)[Ўзбекистон Республикасининг Божхона кодекси, 15-модда] birikma terminining *muomala* komponentida belgi o‘xshashligi bilan ma’no ko‘chishi yuz

bergan: *Eslatib o‘tamizki, Bojxona kodeksiga binoan* ***erkin muomalaga chiqarish*** *shunday rejimki, bunda bojxona hududiga olib kirilgan tovar uni ushbu hududdan qaytarib olib chiqish majburiyatisiz shu yerda erkin muomalada qoladi* (https://uztag.info/uz/news/).

Ikkilamchi nominatsiyaning yuqoridagi kabi usullaridan biri bilan termin hosil qilinishi har doim o‘zini oqlaydi, chunki bunday nominatsiyada o‘zbek tilining ichki imkoniyatlaridan foydalaniladi, natijada o‘zbek tilining fan tili sifatida qo‘llanishi kengayadi. Yuqoridagi terminni yasash jarayonida mutaxassis o‘zbek tilining ichki imkoniyatidan unumli foydalangan, aksincha, tayyor terminni ingliz yoki rus tillaridan biridan o‘zlashtirish usulidan foydalanganda esa o‘zbek tilining ichki imkoniyatlari yuzaga chiqarilmagan bo‘lar edi. Yana bir muhim tomoni shundaki, ichki imkoniyatlar yordamida termin yasalishi natijasida ham soliq-bojxona terminologiyasi ichki imkoniyatlar hisobiga boyigan, ham metafora yo‘li bilan termin yasash malakasi mutaxassislarda shakllangan. O‘ylaymizki, soha mutaxassislari va boshqalar ichki manbalar asosida hosil qilingan terminlarning ma’nolarini o‘zlashma terminlarga qaraganda osonroq tushunadilar.

Yaqin vaqtlarga qadar terminologiya nazariyasida terminlarning metaforiklashgani, terminlarning ko‘p ma’noliligi hodisasi sohaning kamchiligi deb baholanib kelgan. Tilshunoslarning asarlarida, chunonchi, A.A. Reformatskiy, L.L. Kutina kabi tilshunoslar terminlarning ko‘p ma’noliligini terminologiya uchun salbiy holat sifatida ko‘rsatadi[Бобоқулов Ф.,2011:17], V.P. Danilenko esa “termin o‘zining aniq ma’nosida muayyan terminologik maydonda qo‘llanar ekan, uning ayni terminologik ma’nosi mustahkamlanib boradi. Bu kabi doimiy, barqaror matnni esa standart matn” deb ta’kidlaydi[Даниленко В.П.,1977:90].

Terminlarning metaforik tabiati bo‘yicha yuqoridagi kabi mulohazalar o‘zbek terminshunosligi bo‘yicha adabiyotlarda ham uchraydi. Masalan, tadqiqotchi F. Boboqulov terminlarda ko‘p ma’nolilik rivojlanishining sabablarini alohida tushunchalarning yetarli darajada o‘rganilmaganligi, aniq bir definitiv xususiyatni belgilashga imkon bermaganligida, deb ko‘rsatadi[Бобоқулов Ф.,2011:17]. Ma’lum bir sohaviy tushunchaning mohiyati yuzasidan atroflicha bilimga ega bo‘linmas ekan, bu tushunchani ifodalaydigan terminning leksikografik izohi mukammal bo‘lmaydi. Biroq tadqiqotchi F. Boboqulov aytib o‘tganidek, terminlar ham xuddi so‘zlar singari til unsuri ekanligi sababli ulardagi polisemantiklikni to‘la bartaraf etishning har doim ham uddasidan

chiqilmaydi. O‘zbek tilining turli sohalari terminlarida hozirgi kunda ko‘p ma’nolilik yoki metaforiklik – ko‘chmalik xususiyatining saqlanib qolayotganining sabablaridan biri sifatida ularning ham umuman so‘z ekanligidir, deya olamiz. O‘zbek tilining oldingi soliq-bojxona terminologiyasida va hozirgi soliq-bojxona terminologiyasida ko‘p ma’noli terminlar, metaforik ko‘chim bilan yasalgan terminlar mavjud bo‘lib kelgan.

Shu jihatdan olib qaraganda, *soliq to‘lovchi* termini ko‘p ma’noli sanaladi. Ushbu termin o‘rni bilan ikki xil ma’noda qo‘llaniladi: *Soliq auditi o‘tkazilayotgan davrda tekshirilayotgan davrning soliq hisobotiga* ***soliq to‘lovchi*** *tomonidan o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.* (“Soliq plus” gazetasidan) ***Soliq to‘lovchi*** *ixtiyoriy ravishda tugatilayotganda soliq auditi soliq to‘lovchining soliq auditi o‘tkazilayotgan yildan oldingi uch yildan ko‘p bo‘lmagan faoliyatini qamrab olishi lozim* (“Soliq plus” gazetasidan). Birinchi gapda *soliq to‘lovchi* termini “ma’lum bir soliqlarni to‘lashi lozim bo‘lgan jismoniy shaxs” ma’nosida qo‘llangan, ikkinchi gapda esa bu ma’noda emas, balki “soliq to‘lovchi korxona, tashkilot” ma’nosida kelgan va unda “jismoniy shaxs” semasi yo‘q. Bunga ikkinchi gapdagi *soliq to‘lovchi* terminiga bog‘lanib kelayotgan *tugatilayotganda* so‘zi ishora qilmoqda, chunki “shaxs” tugatilmaydi, balki korxona, tashkilot tugatiladi.

Yuqorida semantik tahlil qilib o‘tganimiz *soliq to‘lovchi* terminining ko‘p ma’noli xususiyatga ega bo‘lgani tadqiqotlarda ta’kidlanganidek, mazkur termin ma’nosining tushunilishini murakkablashtirgani yo‘q. Buning sababi *soliq to‘lovchi* terminining qaysi ma’noni ifodayotganligi matndan anglashilib turibdi. Terminshunoslarning metafora va ko‘pma’nolilikka munosabati qanday bo‘lishiga qaramasdan, terminlar xuddi adabiy til so‘zlari kabi o‘zining ma’nolaridan birini matnda namoyon etadi. *Soliq to‘lovchi* termini ham o‘zi ishtirok etgan matnlarda terminologik ma’nolarini aniq ifodalaydi. Matn terminologik tushunchaning noaniq ifodalanmasligini ta’minlaydi. Bu holatda polisemantiklikni bir termin o‘rnida ikki terminni yasash bilan bartaraf qilgandan ko‘ra *soliq to‘lovchi* terminining o‘zini qo‘llayverish to‘g‘ri bo‘ladi.

Malumki, muayyan fonetik qiyofaga ega bo‘lgan va biror nazrsaning nomi hisoblangan lug‘aviy birlik yangidan yana nomlashga jalb qilinishi ikkilamchi nominatsiya deyiladi. Ikkilamchi nominatsiyaning asosiy turlari metafora va metonimiyadir[Мирсанов Б.,2015:98]. Yunoncha bu termin “bir predmet, belgi, harakat nomini o‘zaro tashqi yoki ichki bog‘liqlik

asosida boshqa predmet, belgi yoki harakatga nisbatan qo‘llash; shunday qo‘llash asosida bir predmet, belgi, harakat nomining boshqa predmet, belgi yoki harakatga ko‘chishi”[Ҳожиев А., 2002:63], ya’ni eski va yangi tushunchalraro aloqadorlikka asoslanadigan nom ko‘chishini ifodalaydi. Ikkilamchi nominatsiyaning mazkur turi yordamida iqtisodiyot terminlarini yasash kam bo‘lsa-da mavjud. Asosan birikma terminlarda uchraydi. Shunday terminlardan biri *byudjet so‘rovi* bo‘lib, “kelgusi davr uchun byudjetdan ajratiladigan mablag‘larni olishga bo‘lgan ehtiyojni asoslashni nazarda tutuvchi hujjat” (IAIL, 62) ma’nosiga ega. Har bir so‘rov yozma bo‘ladi va hujjat hisoblanadi. Shunday bo‘lgach, byudjet so‘rovi ham hujjat, ularning o‘rtasida aloqadorlik mavjud. Aynan aloqadorlik asli *byudjet so‘rovi yozilgan hujjat* shaklidagi termin tarkibining qisqarishiga sababchi bo‘lgan, aloqadorlik sababli terminning oxirgi komponenti ishlatilmasa ham ma’no tushunilaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бобоқулов Ф. Терминологияда полисемия ва омонимия / Изланиш самаралари. №1. Ўзбекистон ёш тилшунослари ва адабиётшуносларининг Ўзбекистон Республикаси мустақиллигининг 20 йиллигига бағишланган анъанавий илмий анжумани материаллари. – Тошкент, 2011. –17 b.

2. Даниленко В.П. Русская терминология опыт лингвистического описания. – М., 1977. – С . 90.

3. Мирсанов Б. Иккиламчи номланишларнинг айрим хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти. - № 5. – Тошкент, 2015. – Б. 98.

4. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2010. – B. 89-112.

“TEMURNOMA”DA QO‘LLANGAN AYRIM KIYIM-KECHAK NOMLARINING SEMANTIK VA LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Asqarova Manzura Baxtiyor qizi,
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi
E-mail: asqarovam53@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada “Temurnoma” asarida uchraydigan kiyim-kechak nomlarining semantik (ma’no jihatlari) va lingvomadaniy (til va madaniyat bilan bog‘liq) xususiyatlari tahlil qilinadi. Kiyim-kechak

atamalari orqali o‘sha davr ijtimoiy tuzilmasi, tarixiy jarayonlar, estetik qarashlar va madaniy qadriyatlar ochib beriladi. Shuningdek, bu nomlarning o‘ziga xos ramziy ma’nolari va ularning xalq tilida tutgan o‘rni aniqlanadi. Asarda keltirilgan kiyim nomlari Temur zamonining siyosiy-iqtisodiy holatini ham bevosita aks ettiruvchi madaniy belgilar sifatida ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Temurnoma, kiyim-kechak, semantika, lingvomadaniyat, tarixiy leksika, o‘zbek tili, madaniy belgilar, kiyinish madaniyati, ramziy ma’no, ijtimoiy qatlamlar.

Annotation: This article analyzes the semantic (meaning-related) and linguocultural (language and culture-related) features of clothing terms found in the work *Temurnoma*. Through these clothing-related terms, the social structure, historical processes, aesthetic views, and cultural values of that period are revealed. The article also identifies the symbolic meanings of these terms and their place in the vernacular. The names of garments mentioned in the text are examined as cultural markers that directly reflect the political and economic conditions of the Timurid era.

culture, symbolic meaning, social spheres.

Har qanday til yoki dialektda boshqa tilga bir so‘z bilan tarjima qilib bo‘lmaydigan so‘zlar guruhi fanda muqobilsiz leksika termini ostida birlashadi. Muqobilsiz leksika muayyan xalq madaniyatiga xos hodisalarni aks ettiradi. Mazkur qatlam mahalliy xalqqa xos pul, masofa-uzunlik birliklari, ro‘zg‘or ashyolari, kiyim-kechak, yegulik-ichkilik kabi tushunchalarni anglatadigan so‘zlardan tarkib topadi [Usmonova Sh., 2009:49]. Muqobilsiz leksik qatlam milliylikni saqlanishida yetakchi til birligi bo‘lishi bilan birga, o‘zga xalq uchun “begona” leksik qatlam vazifasini bajaradi. Muqobilsiz lisoniy birliklar muayyan madaniy hodisa uchun o‘ziga xos belgi bo‘lib, ular tilning kummulyativ (til egasi tajribasini mustahkamlovchi, yig‘uvchi) funksiyasi natijasidir. Unga so‘zlashuvchilar ongida mavjud bo‘lgan ostbilimlar xazinasi sifatida qarash mumkin. Muqobilsiz leksika 6 turga bo‘linadi [Д.В.Ворошкевич, Д.П.Казанникова, 2015:33]: 1. Uy xo‘jaligi: a) kiyim -kechak; b) oyoq-kiyim; c) bino-inshootlar; e) narsa-buyumlar; f) o‘lchov va pul birliklari. 2.Tabiiy dunyo realiyalari: a) geografik-fizik atamalar; b) endemiklar. 3. Etnografik realiyalar: a) an’ana, rituallar, o‘yinlar; b) mifologiya, kultlar. 4. Ommaviy-siyosiy voqeliklar. 5.Onomastik-antroponomik realiyalar.6. Assotsiativlar.

Salohiddin Toshkandiyning “Temurnoma” asarida uy xo‘jaligi bilan bog‘liq muqobilsiz leksik birliklar tasnifini quyidagicha tasniflash mumkin:

Kiyim-kechak: asarning tili va davrning tarixiy -madaniy xususiyatlari nuqtayi nazaridan “Temurnoma”da kiyim-kechak nomlarini 3 guruhga bo‘lib tadqiq etish mumkin: **a)bosh kiyim nomini bildiruvchi muqobilsiz leksik birliklar:** *...Xon ko‘rdikim, bir turk bacha, egnida chakmon, boshida **telpak.** (Temurnoma, 77-bet) Ammo Nosir shum fidoiylardin o‘n kishig‘a yarog‘ va aslaha berub, boshiga **salla,** egniga janda kiydurub, qalandar kabi bo‘lub, Mukno yig‘ochin atrofida turdilar…(Temurnoma, 69-bet) Mani **sallam** bila jig‘amni tushurding…(Temurnoma, 79-bet). Boshida **bo‘rk** bor edi (Temurnoma, 81-bet). Bo‘rk ─esk. Oshlangan qorako‘l teridan silindr shaklida tikilgan bosh kiyim, telpak. Tilimizda mazkur so‘z qatnashgan bir necha o‘rinlar mavjud: Bosh omon bo‘lsa, **bo‘rk** topiladi(Maqol). Boshsiz **bo‘rk** bo‘lmas, toysiz — turk. (Maqol). Shu payt shiypon ichidan boshiga **bo‘rk** kiygan Botir chiqdi. (P.Qodirov, Yulduzli tunlar). Qilich zarbidan Xonzoda begimning boshidagi **bo‘rki** uchib ketdi-yu, uzun sochlari yoyilib, yelkasiga tushdi. (P. Qodirov, Yulduzli tunlar). Bosh yorilsa, **bo‘rk** ichida, deydilar, — bo‘lar-bo‘lmasga kattalarni ishdan qo‘yib g‘irillayverish xunuk narsa. (S.Ahmad, Hukm) Ehtimol, boshqalarning xotinlari ham shunaqadir, u qayoqdan bilsin: bosh yorig‘i **bo‘rk** ichida, qo‘l sinig‘i yeng ichida. (Shuhrat, Jannat qidirganlar). Xonimcha hayron bo‘lub, so‘fi bila vidolashib, boshiga **telfak**, egniga to‘n kiyub Buxoro sari yuzlandi. (Temurnoma, 112-bet). ...shamol kelub kal Inoq boshidin **to‘ffisini** tushurdi. (Temurnoma, 112-bet). ...Baroqxon egniga janda, boshiga **kuloh,** qo‘lig‘a so‘ta olib, cho‘listonlarni kezib edi (Temurnoma, 120-bet).* Kuloh — qadimiy bosh kiyim. Qalin, dag‘al (ko‘pincha jun) matodan konussimon shaklda, ichiga paxta solib tikilgan. Kulohni ko‘pincha qalandar, shayxlar kiygan[O‘zME. Birinchi jild, 2000].

b) badan uchun kiyim-kechak (ichki, ustki kiyimlar); *...Xon ko‘rdikim, bir turk bacha, egnida **chakmon**, boshida telpak. (Temurnoma, 77-bet)* ***Chakmon*** *—* ustki kiyim turi; erkaklarning oldi ochiq qishki to‘ni. Jun matodan tikiladi. Barlari old etak qismiga qo‘shimcha trapetsiyasimon kiyiq qo‘shilishi hisobiga bir-biriga ustma-ust kirib turadi, uchburchak bo‘yin o‘miziga yoqa o‘rnatiladi, yeng uchi tomon torayib boradi. Chakmonning qo‘ltiq osti (xishtak) qismi ochiq qoldirilgan. Chakmon ham to‘n kabi yoqa, bar, etak chetiga jiyaklar qo‘yib bezatilgan. Bahor, kuzda yaktak ustidan, sovuq oylarda paxtali to‘n, po‘stin ustidan kiyiladi.

Xorazmda chap barlar o‘ng bar ustini yopib turgan. Yaylovlarda hozir ham kundalik kiyim sifatida kiyiladi. Bu hududda movut to‘nlar – chakmoni, sholchakmon, yaktak singari astarsiz tikilgan. Jun mato ensiz bo‘lgani sababli bitta Chakmonga 25 m gacha mato sarf qilingan. Ular, asosan, och jigarrang tuya junidan bo‘lib, 2 andazali yoki 3 andazali bichiqda tikilgan. Samarkand—Buxoro muzofoti movut chakmonlari, asosan, qo‘y juni matosidan tayyorlanganligi tufayli, sidirg‘a och sariqyoki qora tusli bo‘lgan. Sholchakmon (tuya junidan tayyorlangan), movut chakmon(fabrika movutidan tayyorlangan) lar qimmat sotilgan, asosan, o‘ziga to‘q, boy aholi sotib olgan. Chakmon oddiy to‘nlar singari bichilgan, ya’ni 3 andazali to‘g‘ri bichiqda bo‘lib, barlar oldiga kiyiklar solingan. Jiyaklar bilan bezatilgan.Farg‘ona – Toshkent muzofotida qo‘y junidan to‘qilgan movut chakmonlar – qoqma chakmon deyilgan. Eng arzon movut chakmonlar past navli aralash matolardan tikilgan (ko‘k chakmon). Qor va yomg‘irlarda bo‘kib qolmaslik uchun ko‘pincha qaynoq suvga bo‘ktirilgan. Chakmon matosi to‘qilishiga qarab farqlangan. Asosan, ko‘kish rangli bo‘lgan, bichig‘i esa paxtali chopon, to‘nlar kabi 3 andazali to‘g‘ri bichiqda bo‘lgan. Hozirgi kunda chakmonlar kundalik kiyimlar qatoridan joy olgan[Сухарева О. А.,1982]. *Ammo Nosir shum fidoiylardin o‘n kishig‘a yarog‘ va aslaha berub, boshiga salla, egniga* ***janda*** *kiydurub, qalandar kabi bo‘lub, Mukno yig‘ochin atrofida turdilar… (Temurnoma, 69-bet). Xonimcha hayron bo‘lub, so‘fi bila vidolashib, boshiga telfak, egniga* ***to‘n*** *kiyub Buxoro sari yuzlandi. (Temurnoma, 112-bet)….bir eski* ***chopon*** *churukini kelturdi (Temurnoma, 98-bet).* ***To‘n yoki chopon*** – ustki milliy kiyim; astarli, uzun, yengli, tik yoqali, oldi ochiq. To‘n qadimiy kiyim turi bo‘lib, buni O‘zbekiston hududida saqlangan devoriy rasmlardan, miniatyuralardagi tasvirlardan bilish mumkin. Qadimdan xon va amirlar tomonidan boy va amaldorlarga yaxshi xizmatlari evaziga, mehmonlar, elchilar, xorijiy mehmonlarga to‘n kiydirilgan, bu odat hozirgi kunda ham saqlangan. XVIII asrdan to‘n Rossiya, Xitoy, Eron va boshqa mamlakatlarga eksportga chiqarilgan. XIX asrdan Rossiya bilan aloqalarda muhim eksport mahsulotiga aylangan, ayniqsa, Buxoroning zarboft, Samarqandning kimxob to‘nlari mashhur bo‘lgan. O‘rta Osiyo, jumladan, O‘zbekiston to‘nlari Xalqaro ko‘rgazmalar (Parij, Moskva, Nijniy Novgorod, Peterburg va boshqalar)da namoyish etilgan hamda mukofotlarga sazovor bo‘lgan. Bichig‘i to‘g‘ri bichimli bo‘ladi. Ichiga paxta solib qaviladigan paxtali to‘n va paxtasiz (avra-astardan iborat yalang qavat) to‘n xili bor to‘n to‘g‘ri, tik va qiya qaviladi, ba’zan qavilmasdan sirma qilib tikiladi (bunda to‘nning qavilgan astari har joy,

har joyidan avrasiga chatib qo‘yiladi). To‘n avrasi baxmal, bekasam, kimxob va boshqa matolardan tayyorlanadi, astariga chit va satin matolar ishlatiladi. To‘nning tik yoqasi juda mayda qaviq choklar bn ishlangani uchun qattiq bo‘ladi, yoqa, yeng uchlari, etak atroflariga jiyak tikib xoshiyalanadi hamda ulardan popukchalar chiqariladi; etagining ikki yon tomonida o‘tiribturganda qulaylik yaratish uchun «yirtmoch» lari bo‘ladi. To‘nning ichki tomoni (astari)ga gir aylantirib shoyi yoki qora satindan to‘rt enlik adip tutiladi. Yalang qavat (avra- astarli) to‘nlar avrasiga zar iplar bn kashta tikib zardo‘zi to‘n tayyorlanadi. To‘n o‘g‘il bolaga xatna to‘yida, keyinchalik nikoh to‘yida kiydirilgan. Hozirda ham to‘n tikish keng yo‘lga qo‘yilgan. To‘n kundalik (yoshlar orasida uylik) kiyim sifatida kiyiladi, bundan tashqari to‘y bolaga, kuyovga, qudalarga, ulug‘ kishilarga, aziz mehmonlarga to‘n kiydirish, azada motam kiyimlari sifatida ham kiyish udumi saqlangan. O‘zbekiston hududida to‘nning bichimi bir xil, ayrim xususiyatlari (uzunligi, matoning rangi va bezatish usullari) bn bir-biridan farqlanadi, xolos. Toshkent – Farg‘ona to‘ni sipo (ko‘k, yashil, sariq, binafsha) rangli matolardan tikiladi, XX asr boshlaridan qora satin va seylondan tayyorlangan to‘n kiyish urf bo‘lgan. yoshlar esa ochiq rangli (sariq, binafsha, yashil, oq, ko‘k, pushti, qizil) yo‘lli beqasam to‘n kiygan, bunday to‘nni kelin tomon kuyov to‘ni sifatida kuyovga sovg‘a qilib yuborgan, shuningdek, kimxobdan tikilgan to‘n ham nafis, mayda qavib tayyorlanishi bilan boshqalardan farq qilgan. XX asr oxirgi choragidan beqasam to‘nlar bn bir qatorda chiyduxoba, baxmaldan tayyorlangan to‘nlar ham keng tarqalgan. Buxoro to‘nlari keng va uzun, yorqin rangli, yaltiroq, keng yo‘lli va yirik gulli matodan tikiladi; zardo‘zi to‘nlar amir va uning amaldorlarigagina xos bo‘lib, baxmal, kimxob va boshqa matolardan faqat amir saroyida tayyorlangan. Bugungi kunda barcha viloyatlarda zardo‘zi to‘n tayyorlash keng yo‘lga qo‘yilgan. Samarqand to‘nlariuzun va o‘rtacha kenglikda tikiladi, ularda Buxoro va Toshkent – Farg‘ona to‘nlarining ta’siri seziladi. Xorazmning yengil to‘ni (astardesh) o‘rta kenglik va uzunlikda, paxtali to‘ni (do‘n) esa qomatga yopishibroq bichimda to‘q rangli, ingichka yo‘lli matolardan tikiladi; matoga maxsus ishlov beriladi (ya’ni, yaltiroq holga kelguniga qadar kudunglanadi). Tikuv mashinasi paydo bo‘lganidan so‘ng to‘nlar mayda mashina chokida ham qavila boshlandi[34]. *Baroqxon egniga **janda,** boshiga kuloh, qo‘lig‘a so‘ta olib, cho‘listonlarni kezib edi (Temurnoma, 120-bet).* ***Janda (fors. – ko‘hna, eski)** 1) ustki kiyim. Mato bo‘laklaridan (quroq usulida) uzun va keng qilib tikilgan. Asosan qalandar va shayxlar kiygan (xirqa). Hozirgi*

[34] O‘zME. Birinchi jild. –Toshkent, 2000-yil.

ma’noda – juldur chopon, yaktak; 2) qo‘lda to‘qilgan ip mato turi. Asosan qo‘lda, keyinroq fabrikada yigirilgan ipdan yo‘l-yo‘l katak gulli qilib o‘ziga xos tarzda qalin qilib to‘qilgan. Naqsh mujassamoti ingichka yo‘llar mayda kataklardan iborat keng yo‘llar bilan bir maromda almashinib kelishiga asoslangan, har bir rangli ip o‘z yo‘g‘onligiga ega bo‘lgan (qizil rang 2 va qora rang 6 ipdan iborat bo‘lgan). Janda matosi o‘ta pishiqligi va rangining odmiligi bilan ajralib turgan. Turkiston (Tojikiston, O‘zbekiston)da jandadan to‘n tayyorlangan. XX asr 20-yillaridan janda to‘qish deyarli barham topgan.

c) asarda harbiy kiyimlar sifatida sovut, dubulg‘a, qalqon, kabi jangari kiyim nomlari keltirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. С.Тошкандий Темурнома: Амир Темур жангномаси. (Нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва луғат муаллифи П.Равшанов). – Тошкент. Чўлпон, 1990.
2. Madvaliyev A. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.
3. Usmonova Sh. Lingvokulturologiya. – Toshkent, 2009.
4. Д.В.Ворошкевич, Д.П.Казанникова. Пособие по лингвокультурологическому анализу текста. – Москва: МПГУ, 2015.
5. Сухарева О. А., Костюм народов Средней Азии. – М., 1982; Традиционная одежда народов Средней Азии и Казахстана. – М., 1989.
6. O‘zME. I jild. – Toshkent, 2000.

MINGBULOQ QIPCHOQ SHEVALARINING AYRIM FONETIK XUSUSIYATLARI

Usmonov Musurmon Mamirali o‘g‘li,
Namangan davlat universiteti katta o‘qituvchisi, PhD.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Namangan viloyati Mingbuloq qipchoq shevalari areali hamda undagi sheva guruhlarining fonetik-fonologik, leksik va grammatik sathidagi o‘ziga xos xususiyatlar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Areal lingvistika, lingvistik geografiya, sheva, lahja, dialekt, sheva areallari, qipchoq lahjasi.

Abstract: This article discusses the Mingbulok Kipchak dialect area of Namangan region and the specific features of the dialect groups in it at the phonetic-phonological, lexical and grammatical levels.

Keywords: Areal linguistics, linguistic geography, dialect, dialect, dialect, dialect areas, Kipchak dialect.

Namangan viloyati Mingbuloq qipchoq shevalari areali guruhlarining fonetik-fonologik, leksik va grammatik sathida umumqipchoq yoki aynan mazkur shevalargagina xos bo‘lgan belgi-xususiyatlar kuzatiladi.

Hudud qipchoq tip shevalari va tarmoqlarining har ikkalasida ham 8 ta unli mavjud bo‘lib, ular o‘zining miqdor va sifat belgilari bilan markaziy tayanch shahar shevalaridan farq qiladi [13. 3-14].

Shu o‘rinda aytib o‘tish zarurki, turkiy tillardagi “y”lashish va “j”lashish masalasidagi uzoq yillik “ularning qaysi biri birlamchi?” degan savolga haligacha aniq bir yechimga kelinmagan, aniq bir to‘xtamni, tarixiy-lingvistik asosni uchratmadik. Bu masala haqidagi fikrlar, uni ma’lum darajada aniqlashtirib yoritishga bag‘ishlangan ilmiy maqolalar, turkiy tillar fonetik strukturasi bo‘yicha maxsus ishlar amalga oshirilib, turli ilmiy-tarixiy qarashlar e’lon qilingan, biroq ularda ham aniq va ravshan xulosalar keltirilmagan [5. 61-70].

Mingbuloq qipchoq shevalari arealida *j* affrikatining qo‘llanish doirasi bir xil emas. Arealning *Nayman, Chordona, Momoxon, Qolg‘andaryo, Beshserka, Nayman, Qayrag‘ochovul, Ingichka, Qirqchek, Madyorovul* shevalarida so‘z boshida *y* o‘rnida *j* ishlatiladi. Bu yirik qishloqlar aholisi, asosan, Sirdaryo oqimining chap sohilida istiqomat qiladilar [15.27]. Ularni Mingbuloq qipchoq shevalarining lingvistik jihatlarini yoritishda *y* undoshi va *j* affrikati hal qiluvchi belgilardan biri ekanligi haqidagi qarashlarga tayandik [13.5].

1. “Y”lovchi qipchoq shevalari: fonemalar soni 8 ta: **a, o, i, e, u, ü, ö, o‘**; fonema variantlari miqdori esa o‘n ikkita yoki undan ortiq: ***a, ä, ɔ, o, i, ī, ï, ü, u, ö, o‘, e.***

Sheva areali aholisi nutqining voqelanishida quyidagi lisoniy xususiyatlar kuzatiladi:

a) singarmonizm qonuniyati amalda bo‘lib, tanglay uyg‘unligi to‘la saqlangan: *bālïq* (baliq), *taxta* (taxta), *toxta* (to‘xta), *dïdï* (dedi), *nümāvγā* (nega), *nümāŋä* (nimaga), *tāmāŋä* (tomonga); o‘zakdagi unlilarning qattiq yumshoqligiga qarab, qo‘shimcha tarkibidagi unlilar ham uyg‘unlashadi: [*bāllār*] bolalar, [*ātāmdï*] otamning//otamni; [*qāγān*] qolgan, [*bārγān*] borgan, [*ičkän*] ichgan, [*bārdïlār*] bordilar, [*äkäsï*] akasi kabi.

b) nazalizatsiyaga amal qilinadi: *bārïŋ* (boring), *keŋ* (keling), *aŋ* (oling), *tilpānïŋ* (telefon qiling) kabi.

d) so‘z o‘rtasida ***o‘*** (*vö/öv*–w) tarzida (sandhi) sandxi holatda diftonglashadi: *he^{w}ölä* (ha, o‘la), *ötö^{w}v* (o‘taver), *sö^{w}dïsijïr* (sog‘in sigir), *ötö^{w}vr* (o‘taver), *ā^{w}ö^{w}ö^{w}* (olvoraver) kabi.

e) bu tarmoq shevada ï unli tovushining qo‘llanishi kengroq: *äjtïŋ* (ayting), *kïrïŋ* (kiring), *böldïŋïzmï?* (bo‘ldingizmi?) kabi hamma vaqt xam o‘zining til orqa holatini saqlab qoladi.

- [***a>ä***] hodisasi kuzatiladi: *täšläjdï, šäïmäjdï* kabi.

- undosh tovushlarning almashinib ishlatilish hodisasi kengroq: [*p>v*]: *čāv* (chop), *tāv* (top), *jāvïp* (yopib), *tevä* (tepa); [*g‘>g*]: *bājāyï* (boyagi), *āγān* (olgan)**;** [*g‘>v*]: *bāvlā* (nazoratni kuchaytir)**,** *sāv* (sog‘), *tāv* (tog‘), *āvðï* (og‘zi), *suvār* (sug‘or) kabi.

Mingbuloq tuman qipchoq sheva areali “y”lovchi tarmog‘ida morfologik shakllarni qo‘llanishi jarayonlarida ham o‘zbek adabiy tili va boshqa o‘zbek shevalaridan farqli jihatlar uchraydi:

Ko‘plik (son) *-lar* qo‘shimchasining *-när, -när-, lär* variantlari qo‘llaniladi: *qïð+lär* (qizlar), *bāllär* (bolalar); *ken+när* (kelinglar), *ännär* (olinglar), *chïqïnnär* (chiqinglar) kabi.

Tushum va qaratqich kelishigi qo‘shimchasi, barcha o‘zbek shevalarida mavjudligidek, farqlanmaydi: [*-i//-ïn//in//dï*] tarzida qo‘llanishi, umuman, mavjud emas: *qol+ï+nï juv+dï* (qo‘lini yuvdi), *bel+i+nï bāj+lä+dï* (belini boyladi)*, bel+iŋ+dï baj+lä* (belingni bog‘la), *köz+ï+nï āš+tï* (ko‘zini ochdi), *köð+ïŋ+dï āč* (ko‘zingni och) kabi.

Jo‘nalish kelishigi *-ga* [*-γä//-γā//-kä*] shaklida qo‘llanadi: *nümāv+γä* (nega), *nümāŋ+γä* (nima maqsadda), *sij+nï+sï+nï+kä* (singlisinikiga) kabi.

Chiqish kelishigi *-dan,* undoshlar sintagmatikasiga muvofiq, o‘rnida [*-tän, -tān*] varianti qo‘llanadi: *bār+mās+tān qojdï* (bormay qo‘ydi), *qï+mäs+tän ajtmä* (bajarib bo‘lgandan keyin ayt) kabi.

Änä, mänä ko‘rsatish olmoshlariga *šü, bü* olmoshlari qo‘shilganda**:** *ānā+šï, a:šï* (ana shu), *mä+šï, mānāv***,** (mana shu) tarzida qo‘llaniladi.

So‘roq olmoshlaridan [*nima*] olmoshi *nümāv* tarzida qo‘llanadi.

O‘tgan zamon fe’lining [*-(i)b edi*] shaklidagi [*-(i)b*] ravishdosh qo‘shimchasi [*-(ï)p*] holatida qo‘llaniladi: *ket+ïp+tï* (ketibdi), *bārü:dïm* kabi. Bu holat Jizzax: Forish, Xorazm (qipch.) shevalarida ham uchraydi.

“Y”lovchi qipchoq shevalari arealiga Mingbuloq tumanidagi *Dovduq, Terak, Qo‘shqishloq, Sho‘rsuv, Do‘msa, Qorayontoq, Etak, O‘zgarish, Baland Gurtepa, Gurtepa, O‘rtaqishloq, Mulkobod, Uzuntepa, Qayrag‘ochovul, Qumqishloq, Yangi hayot (Attang), Yangobod* kabi yirik qishloqlar aholisining shevasi kiritildi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, Mingbuloq qipchoq shevalari areali “y”lovchi va “j”lovchi tarmoq aholisi nutqi lisoniy (fonetik-fonologik, leksik semantik va grammatik) belgi va xususiyatlarida O‘zbekistondagi barcha qipchoq shevalaridagidagi umumiy o‘xshashlik kuzatiladi.

Xususan, Janubiy Xorazm [1.74-82] Samarqand viloyati (*Nayman, G‘allaorol*) g‘arbiy shevalari [7.73], Yuqori Qashqadaryo qipchoq tip shevalari [1.74-82], janubiy Orolbo‘yi shevalari [8.54], Janubiy Qozog‘iston [10.14] va qoraqalpoq, qozoq tillari uchun hamda boshqa ko‘plab o‘zbek qipchoq shevalariga xos belgi-xususiyatlar Mingbuloq sheva arealida ham to‘la kuzatiladi.

Shuningdek, N.A.Baskakovning ta’kidlashicha, so‘z boshida [***e, ö, o***] unlilarining diftonglashuvi qipchoq-qoraqalpoq tilini boshqa turkiy tillardan ajratib turuvchi o‘ziga xos xususiyat hisoblanadi [4.28]. Bu hodisa, qo‘miq, gagauz, qarachay-balqar tillarida ham mavjud [15.37].

O‘zbek shevalarining qipchoq lahjasiga oid shevalarida qo‘llanuvchi [***ï***] tovushi lablanmagan, til orqa unli bo‘lib, barcha turkiy tillarda uchraydi. Mingbuloq qipchoq areali “y”lovchi tarmog‘i aholisining shevasida, ayniqsa, O‘zgarish, Baland Gurtepa, Gurtepa, O‘rtaqishloq, Mulkobod, Uzuntepa ishlog‘ida qo‘llanish darajasi kengroq: *ajtïŋ, kelïŋ, böldïŋïzmï* kabi. [ï] tovushi hamma vaqt xam o‘zining til orqa holatini saqlayvermaydi. Bu fonema [*y, sh, ch, dj*] tovushlari bilan birga kelganda [*i*] tovushiga moyil talaffuz qilinadi: *bühchäjip* (bukchayib); *jil* (yil), *jilādï* (yig‘ladi); *čirāyïm* (chirog‘im), *šipрïndï* (supirindi), *ǯilmājip* (jilmayib) kabi.

Sheva arealida keyinchalik va hozirgi kunda Dashti Qipchoq til areallarida istiqomat qilgan turkiy etnik komponentli til vakillari bilan yaqin bir asrdan ortiq vaqt mobaynida etnogenetik assimilyatsiya (qorishuv) natijasida shakllangan fors-tojik tilli xalqlar bilan turkiy etnosli shahar va qishloq aholisi vakillarining migratsiyasi natijasida o‘tish va vibiratsiya hodisalari shakllanib ulgurgan. Tadqiqotchilar bunday jarayonni etnik jihatdan bir xil bo‘lmagan, hududlarda fors-tojik tilli xalqlar (xususan, so‘g‘diylar, tojiklar, eroniylar) bilan birga turkiy tilda so‘zlashuvchi etnoslar birga yashaganliklari ijtimoiy zaruriy sharoit sifatida qayd qilganlar. Yangi davrlarga kelib, mazkur hudud aholisi ikki tilda (fors-tojik va turkiy tillarda) so‘zlashganlar. Keyinroq ushbu hududga ko‘plab turkiy tilli etnoslarning ko‘chib kelishi natijasida, bu arealda ham turkiy etnik qatlamning mavqei ortib borgan, oqibatda aholi tilida turkiylashish kuchaygan [2.183-200].

2. "J"lovchi qipchoq shevalari: Mingbuloq qipchoq shevalar areali guruhidagi "j"lovchi shevalarida ham singarmonizm qonuniyati to'la saqlanganligi sababli unlilar miqdori 8 taga yetadi. Chunki Mingbuloq dialektal areali tarkibiga kiruvchi Beshserka, Qizilqum, Qozoqovul, Nayman, Qolg'andaryo, Momoxon, Qirqchek, Ingichka, Kichik Jomashuy, Chordona, Uyurchi-Damko'l, Qo'g'oliko'l, Yakkatol, Bo'ston, Guliston, Baynalminal, Qayrag'ochovul, Tolliovul, Oqqum qishloqlari Sirdaryo oqimi chap sohilida joylashgan bo'lib, bu areallarda yashovchi aholi "j"lovchilovchi qipchoq shevasi vakillaridir.

Ular Qo'qon xonligi tashkil topganidan keyingi davrlarda kelib o'rnashgan chorvador qoraqalpoq va qozoq hamda qirg'iz xalqlarining nayman urug'larining avlodlari hisoblanadi.

"J"lovchi qipchoq shevalaridagi o'ziga xos lisoniy xususiyatlar adabiy tildan quyidagi holatlarda farqlanadi:

a) *y, ch, sh* va *i* tovushi so'z boshida kelgan aksariyat so'zlarda *y* va *i* tovushlari o'rnida *j[ǯ]* talaffuz qilinadi: *ǯila* (yig'la), *ǯür* (yur), *ǯäŋä//ǯeŋä* (yanga), *ǯüjtïp//ǯüjtip* (shunday qilib), *ǯi:pkettï// ǯiγibketti* (chiqib ketdi), *ǯilān* (ilon) va b.;

b) ayrim so'zlarda so'z boshidagi e va a tovushlari *ʸekkïnchi* (ikkinchi), *ʸeshkï* (echki), *ʸekkï* (ikki), *ʷajtvär* (ayt, aytib yubor) kabi diftonglashadi. Lekin bu fonetik jarayon mazkur dialektal arealda sanoqli tub so'zlar doirasida amal qiladi, boshqa qipchoq tip shevalaridagidek, [*ʷöräðä*] [*ʷörāðā//ʷöräðä*] ro'za, [*ʷörämäl*] ro'mol, [*ʷⁱrïðā*] rizo, rozi kabi [3.149] umumiy tus olmagan. Biroq sandhi holatlar doirasida ular miqdori ko'proq.

d) so'z boshida *b* undoshining, o'zlashmalardan tashqari, *p* ga va *m* ga almashadi: *pütün nān* (butun non), *däjräniŋ mojnï* (daryoning bo'yi), *pojïn* bo'yin (odamning bo'yni) kabi.

Turkiy so'zlardagi *b>m* holatini har ikki: "y"lovchi va "j"lovchi guruh sheva so'zlarining boshida kuzatiladi: *mürïn* (burun – inson tana a'zosi), *mürïrrāq* (ilgariroq, oldinroq) kabi.

e) ayrim hollarda so'z boshidagi til o'rta *y* undoshi talaffuz etilmaydi: *ïrik* (yirik), *ïriŋ* (yiring), *ïraq* (yiroq, uzoq), *ïrtïvär* (yirtib yubor), *ïqittiŋ* (yiqitting) kabi.

f) tovushlarning tushishi (eliziya) hodisasi kuzatiladi: *yā:* (yo'q), *pi:lo* (piyola), *u:lï* (o'g'li), *tu:rï* (to'g'ri), o:ur (og'ir), *säri:* (sariq), *qätï* (qattiq), *äčči* (achchiq) kabi.

g) so'zlarda boshqa tildan *r* tovushining tushib qolishi keng tarqalgan: *dästïxān* (dasturxon), *bïnnäsä* (bir narsa), *čäx,* (charx) kabi.

Xullas, professor E.D.Polivanov: “Dunyodagi turkiy tillarning birontasi hali o‘zbek tili singari shevalararo bu qadar keskin farqlanmaydi, demakki, turkiy tillarning birontasi ham bu qadar dialektal turlicha hususiyatga ega emas” [12.7], deganda haqli edi.

Shu nuqtayi nazardan Mingbuloq tuman shevalari areali o‘ziga xos bir qator jihatlarga egaki, bunday o‘ziga xosliklar o‘zbek shevalarining ayrimlarida kuzatilsa, ayrimlarida uchramaydi. Shuning uchun ham o‘zbek milliy tili va uning shevalarida amal qilayotgan rang-barang va juda qadimiy tarixga ega bo‘lgan, hali sof lingvistik tadqiqiga ega bo‘lmagan lisoniy xususiyatlarning qiyosiy-tarixiy genezisini, uning tarqalish va amal qilish maydoni – arealini belgilash va tasniflash ishimizning ustivor mazmunini tashkil etadi.

O‘zbek xalq shevalarini ilmiy asosda o‘rganish, ularning hududiy – areal tasniflariga bag‘ishlangan ko‘plab tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Mazkur ishimiz ham o‘zbek xalq, shevalarining umumiy tasniflarini to‘ldirish, ulardagi ayrim noaniq o‘rinlarga bir oz aniqlik kiritish va takomillashtirishda ulush bo‘lib qo‘shiladi. Zotan, Mingbuloq shevasi o‘zbek shevalarining kichik bir bo‘lagidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдуллаев Ф. Фонетика. – Ташкент: Фан, 1967. – С. 74-82.

2. Абдуллаев У. Фарғона водийсида этнослараро жараёнлар (Х1Х-ХХ аср бошлари). – Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. – Б. 183-200.

3. Боровков А.К. О некоторых очередных вопросах узбекского литературного языка. ЗИВ. АН СССР, VI. – С. 76

4. Баскаков Н.А., Содиқов А., Абдуазизов А. Умумий тилшунослик. – Тошкент, 1975.

5. Гаджиева Н. 3. Проблсма тюркской ареальной лингвистики. – М.: Наука, 1975. – С. 61-70.

6. Джураев А.Б. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива. – Ташкент: Фан, 1991. – Б.82.

7. Донёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. – Тошкент: Фан, 1968. – Б.73.

8. *Иброҳимов Й.М. Жанубий оролбўйи ўзбек шевалари тадқиқи. Фил. фанл. докт. ...дис. автореф. –Тошкент, 2000. – Б. 54.*

9. Ишаев А. Фонетические особенности мангитского говора узбекского языка. – Ташкент, 1962. – С. 16.

10. Муҳаммаджонов Қ. Жанубий Қозоғистон ўзбек шевалари. – Т., 1981. – Б. 14.

11. Неъматов Ҳ. Ўзбек тили тарихий фонетикаси. –Тошкент: Ўқитувчи, 1992.

12. Поливанов Е.Д. Узбекская диалектология и узбекский литературный язык. – Ташкент, 1933. – С.7.

13. Решетов В.В. Ўзбек шеваларининг классификацияси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1966. – № 1.– Б. 3-14.

14. Толстова Л. Каракалпаки Ферганской долины. – Нукус, 1959. – С. 27.

15. Щербак А. Сравнительная фонетика тюркских языков. – Л., 1970. – С. 37.

16. Эргашев А.А. Андижон вилояти этнотопонимларининг ареал-ономастик тадқиқи. Фил. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2012. – Б. 9

LINGVISTIK KORPUS TUZISHDA MATNNI TANLAB OLISH USULLARI

Nuritdinov Abrorbek Sayfiddin o‘g‘li,
University of Business and Science
Til va adabiyot ta’limi kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: nuritdinovabrorbek@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada lingvistik korpus yaratishning nazariy va amaliy asoslari, xususan, matnlarni tanlab olish usullari, korpus tarkibiy tuzilmasi, razmetkalash, qidiruv tizimlari va dasturiy ta’minotlar haqida so‘z boradi. O‘zbek tilining milliy korpusini yaratish zaruratini asoslanishi hamda til materiallarini raqamlashtirish, avtomatik va qo‘lda belgilash, konkordans tuzish kabi texnologik bosqichlarni tahlil qiladi. Shuningdek, lingvistik tizimlar, konkordanserlar va korpus menejerlari kabi dasturiy vositalar roli ochib beriladi. Maqola lingvistik tahlil, tilshunoslikda korpus yondashuvlari va milliy elektron korpus tuzish bo‘yicha metodologik yo‘nalishlarni o‘z ichiga olgan muhim manba hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: lingvistik korpus, korpus tuzish texnologiyasi, matn tanlash usullari, korpus strukturasi, morfologik tahlil, semantik razmetkalash, korpus menejeri, korpus razmetkasi, o‘zbek tili milliy korpusi, konkordanser, matn raqamlashtirish, qidiruv tizimi, korpus qidiruvi, web-ilova, korpus foydalanuvchisi, meta-ma’lumotlar.

Annotation. This article discusses the theoretical and practical foundations of creating a linguistic corpus, in particular methods of text selection, corpus structure, intelligence, search engines and software.

Analyzes the justification for the creation of a national corpus of the Uzbek language and the technological stages of digitization, automatic and manual assignment, concordance formation. It also reveals the role of software tools such as linguistic systems, conchordancers, and corpus managers. The article is an important resource for the analysis of the article, including approaches to corpus in linguistics and methodological trends in the creation of a national electronic corpus.

Keywords: linguistic corpus, corpus technology, text selection methods, corpus structure, morphological analysis, semantic intelligence, corpus manager, corpus intelligence, national corpus of the Uzbek language, concordant, text digitization, search engine, corpus search, web application, corpus user, meta-data.

Hozirgi jamiyatda insonlar o‘rtasidagi muloqot jarayonlari yanada murakkablashib, mukammallashib bormoqda. Kompyuter paydo bo‘lishi bilan muloqotning internet shakli yuzaga kelishi kishilik jamiyati uchun qay darajada qulayliklarni yaratayotgan bo‘lsa, o‘zgarayotgan sharoitlarda inson dunyoni tabiiy qabul qilish ko‘nikmasini yo‘qotmasligi va ona tilini o‘z milliy-madaniy an’analari doirasida saqlab qolishi zarurligini taqozo qilmoqda. Zero, ulkan matn ma’lumotlarini tezkor qayta ishlash imkoniga ega bo‘lgan texnikaning paydo bo‘lishi olam lisoniy manzarasini virtual olamga ko‘chirmoqda.

Kompyuter texnologiyalari vositasida axborotni qayta ishlash, mashina tarjimasi, elektron lug‘atshunoslikni rivojlantirish, tezauruslar tuzish, til korpusini yaratish ishlari dunyo lingvistikasida gegemonlikka erishgan tillar allaqachon amalga oshirganligini ta’kidlagan edik. Ingliz, rus, arab, fransuz, nemis, ispan, tojik kabi tillar shular jumlasidandir. Keyinchalik boshqa tillarda ham milliy til korpuslari yaratildi. Mazkur tillarda til korpusini yaratish masalasining ilmiy-nazariy jihatlari allaqachon mavjudligi o‘zbek tilini ham internet “tushunadigan” tilga aylantirish (ya’ni milliy til korpusini yaratish) sa’y-harakatlarini jadallashtirish zaruratini ko‘rsatdi. Zero, o‘zbek tili dunyoning eng boy va ko‘p sonli aholi gaplashuvchi tillaridan biri hisoblanadi.

Bu borada tilshunos olimlar tilni va u bilan bog‘liq bo‘lgan hamda ilgari ma’lum bo‘lmagan sohalarni o‘rganishda juda muhim tadqiqot imkoniyatiga ega bo‘ldilar [Abduraxmonova N., 2018:49]. Tilni o‘rganishda tilshunoslar nutq faoliyatini ancha to‘liq aks ettiradigan qulay va ixcham nutq materialiga ehtiyoj sezadi. Bu ehtiyoj esa elektron shaklda taqdim etilgan matnlarni, ya’ni lingvistik korpuslarni yaratishni taqozo

qiladi. Lingvistik korpuslar o‘zida til tizimining tilshunoslik izohlarini va boshqa tilshunoslik fanlarida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan matnlarni korpusda o‘ziga xos aks etadigan nutq materiali sifatida tadqiq etadi. An’anaviy tilshunoslikdan farqli ravishda korpus tilshunosligi til yoki nutq hodisalarini o‘rganish bilan shug‘ullanmaydi, balki nutqning korpusda maxsus tanlangan matnlari barcha ko‘rinishlarini (badiiy, ilmiy, muomala tilini) o‘rganadi. Bu o‘rinda mantiqiy fikrlash va an’anaviy tilshunoslik deduksiyasiga nisbatan ehtimollik, statistik va induktiv usullar tez qo‘llaniladi. Bunda uzoq yillar davomida yig‘ilgan tajribalar asosida olingan natijalarga, baholarga va amallarga emas, balki empirik jihatdan to‘plangan materiallarga ko‘proq tayanildi. Korpus tilshunosligi uchun asosiy vosita bir yoki bir necha tillar doirasidagi nutq faoliyati hamda korpusdagi keyingi tadqiqotlarni ixchamlashtirish uchun zarur bo‘lgan korpus materiallarini kodlashtirish hisoblanadi. Quyidagi xususiyatlar korpus uchun muhim omil sanaladi: to‘plangan materiallarni mashina (kompyuterlar) xotirasiga joylashtirish; elektron qidiruvga (morfologik, sintaktik qidiruvlar) imkon beradigan o‘ziga xos belgi; yakuniy o‘lchov birligiga ega va reprezentativlik (tildagi ko‘plab janrlarning asl holida to‘liq aks etishi) xususiyatlari kabi.

O‘zbek tili milliy korpusi – o‘zbek tilining badiiy asarlari hamda variantlari, keng ko‘lamli lingvistik va metamatnli ma’lumotlari bilan ta’minlangan, turli xil uslublarni aks ettiruvchi elektron matnlar majmuasini ifodalay olishi kerak.

Bunday ma’lumotlar mavjudligi korpusning asosiy xususiyatlaridan biri bo‘lib, uni elektron shakldagi hammabop oddiy matnlar majmuidan, xususan, odatdagi internetdan farqli o‘laroq ajralib turadi. Ma’lumotning mukammalligi va aniqliligi, shuningdek, turli xildagi tilga oid fakt va hodisalarning batafsil qamrab olinishi korpusning ko‘p qirrali lingvistik manba sifatidagi asosiy ahamiyatini ko‘rsatadi. Korpus asosan ikki turdagi ma’lumotga ega bo‘ladi:

Katta massivli matn ma’lumoti. Matnni to‘liq ifodalaydigan belgilarni qamrab olgan: muallif nomi, uning jinsi, tug‘ilgan sanasi, matn sarlavhasi, matn yaratilish vaqti, so‘zlar hajmi, tematikasi, matn turi, uslubi, qo‘llanilish sohasi va sh.k.

Leksik ma’lumot. Leksik ma’lumot quyidagi belgilarni o‘z ichiga olgan: alohida so‘zlarni ifodalaydi, ya’ni matnlar korpusida aniq bir joyda so‘z shaklini ishlata oladi. Bunga quyidagilar kiradi:

1. Morfologik belgilar: leksema (so‘z shakli); leksemaning grammatik belgilari (so‘z turkumi, jonli narsalar, o‘tkinchi hodisalar); so‘z shaklning grammatik belgilari (son, kelishik, mayl, vaqt, shaxs).

2. Semantik belgilari:

semantik razryad, taksonomik sinf, mereologiya, baho, kauzatsiya, so‘z yasovchi aloqalar va b. [Аброскин А., 2009:277].

Korpusda matn abzaslar ketma-ketligidan iborat bo‘lsa, abzaslar gaplardan, gaplar esa so‘zlardan iborat. Bunda tahlilning asosiy birligi so‘z deb olinsa, matn birligi esa gap deb qabul qilinadi. Korpusda qidiruv tizimi orqali aniq bir belgiga doir so‘z va so‘z birikmalarni faqat mazkur gapga oid topa olish imkoni mavjud. Qidiruv natijasi gaplar ro‘yxati hisoblanib, unda topilgan so‘zlar ajratilgan shrift orqali ifodalanadi. Kerak bo‘lgan paytda qidiruv matni abzas chegarasigacha kengaytirilishi mumkin, lekin undan ortiq emas.

Shunday qilib, korpusda asosiy strukturali birliklarni ajratish mumkin: so‘z, gap, abzas, matn. Bunda matnda strukturali bo‘linish (qismlar, boblar, bo‘limlar)ni ifodalaydigan, abzasdan tashqarida bo‘lgan birliklar va gapning sintaktik strukturasi (klauz, guruhlar)ni ifodalaydigan birliklar ishlatilmaydi. Ma’lumot faqat strukturaning minimal va maksimal birliklariga yoziladi: so‘zga va butun bir matnga. Sintaktik belgilar (razmetka)ning ba’zi bir elementlari turg‘un so‘z birikmalar (iboralar)ni belgilash uchun qo‘llaniladi [Кустова Г., 2005:155].

Belgining hajmi va mukammalligi jihatidan korpus ikkita teng bo‘lmagan qismga bo‘linadi. Korpusning asosiy qismini matnlar tashkil etib, unda har bir so‘zga avtomatik ravishda turli-tuman morfologik tahlillar yozib qo‘yiladi. Korpusning ma’lum bir kismida mukammalroq belgi (razmetka) o‘z aksini topgan, aniqrog‘i: morfologik omonimiya qo‘lda bajarilib olib tashlangan, so‘zlarga semantik belgilar yozib qo‘yilgan, shuningdek, so‘zlarga urg‘u qo‘yib chiqilgan. Korpusning mazkur qismi aniq ma’lumotni beradi va lingvistik korpuslar uchun etalon vazifasini o‘tashi mumkin. Metamatnli belgi (razmetka) korpusning ikkala qismida bir xil xarakterga ega bo‘ladi.

Hozirgi vaqtda korpus matnlarini qayta ishlash uchun zarur bo‘lgan dasturlar yetarli darajada mavjud. Masalan, «Ekspert lingvistik tizim» korpus-menejer tizimi shunday dasturiy tizimlardandir. Uning asosiy imkoniyatlari kuyidagilardan iboratdir:

– tanlangan matnlar asosida leksema va so‘zshakllarining takrorlanishi lug‘atini yaratish imkoniyati;

– olingan lug‘atning har qanday birligi uchun matnni ko‘rib chiqish imkoniyati;

– grafikli so‘zni bo‘g‘inga ajratish;

– so‘z zaxiralarini saralash;

– bir vaqtning o‘zida cheklanmagan fayllarni qayta ishlash imkoniyati;

– tashqi belgilarga ega bo‘lgan matnlar korpuslarini yaratish imkoniyati;

– yaratiladigan matnlar korpuslari hamda korpusga kiruvchi alohida matnlar uchun statistik ma’lumotlarni hisoblab chiqish imkoniyati;

– dastlabki matnlar bilan txt, doc va rtf formatda ishlash, kodlashtirishni avtomatik tarzda belgilash imkoniyati [7].

Shunday qilib aniq bo‘ladiki, dastur – konkordanser yozish har qanday korpus yaratishning asosini tashkil etadi. Bu korpusning juda katta hajmdagi materiallarni tahlil etishga mo‘ljallangan elektron shakllar va keng ko‘lamdagi statistik materiallarni yig‘ishga yo‘naltirilgan o‘ziga xos jihatlari bilan bog‘liq.

Bu dasturning maqsadi o‘zbek tili Milliy korpusi uchun konkordans tuzishdan iborat bo‘ladi [Рахилина Е., 2009:7]. Korpusga kirish mezoni sifatida foydalanuvchilardan ma’lum bir so‘zshakllarida va korpusning barcha matnlari bo‘yicha qidiruv o‘tkazilib quyidagilar taqdim qilinishi talab etiladi: so‘zshakllarining hujjatli takrorlanishi; janrlar bo‘yicha takrorlanish; so‘zshaklning konteksdagi o‘zgarishi.

Korpus strukturasi[Плунгян В., 2005:9] nima? Bu dastur material tahlili uchun yaratilgan. U fayllarda joylashgan korpus matnlari bo‘lib, to‘rtta janr (badiiy proza, publitsistika, ilmiy adabiyotlar – tahlillar – tafsilotlar, ilmiy ommabop va dramatik adabiyotlar) kategoriyalariga mos kelgan holda taqsimlangan. Bunda qo‘shimcha ravishda har bir guruh ichida fayllar korpusga qo‘shilgan yil hisobi bo‘yicha saralangan. Korpus ≈4 M bayt egallaydi va ≈ 1 mln so‘z ifodalarini o‘zida mujassamlashtiradi.

Korpus matnlari urg‘u belgilariga ega bo‘ladi va so‘zlar orasidagi farqni ajratish uchun imkon yaratadi. Masalan, atl**a**s (urg‘u ikkinchi bo‘g‘inda)– mato, material; **a**tlas (urg‘u birinchi bo‘g‘inda) –xaritalar albomi; olm**a** (urg‘u ikkinchi bo‘g‘inda) – meva, **o**lma (urg‘u birinchi bo‘g‘inda) – buyruq fe’li (...birovning kitobini so‘ramay olma); yang**i** (urg‘u ikkinchi bo‘g‘inda) – sifat (yangi ko‘ylak), y**a**ngi (urg‘u birinchi bo‘g‘inda) – ravish (yangi keldi, ya’ni hozirgina keldi).

Shunga mos ravishda ushbu so‘zlar quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi: atl**a**s (urg‘u ikkinchi bo‘g‘inda) – **a**tlas (urg‘u birinchi bo‘g‘inda), olm**a**

(urg‘u ikkinchi bo‘g‘inda) – **o**lma (urg‘u birinchi bo‘g‘inda), yang**i** (urg‘u ikkinchi bo‘g‘inda) – y**a**ngi (urg‘u birinchi bo‘g‘inda).

Shu bilan birga «tarkibiy so‘zlar» (murakkab so‘z shakllari) degan tushuncha kiritiladiki, unda murakkab so‘z shaklining bir qismini ifodalash uchun qo‘llaniladigan ramz « », ya’ni «ekvivalent so‘zlarga mos kelish» tushuniladi.

Dasturning foydalanuvchi grafik interfeysi (FGI) nima? Dastur FGI RNR tilida web – ilova sifatida amalga oshirilgan bo‘lib, u bir so‘z shakllarini kiritish uchun zarur bo‘lgan muayyan matn maydonidan iborat shakl qidiruv boshlanishining tugmachasidan iborat.

Tanlangan qidiruv operatsiyalarida tarkibiy so‘z shakllarida nafaqat bunga kiruvchi shu shaklning yakka tartibdagi, balki uning murakkab so‘z shaklida paydo bo‘lishi ham izlanadi. Hozircha bu tarkibga uchtadan ortiq bo‘lmagan so‘zshakllari kiritilishiga ruxsat berilgan.

So‘rov urg‘u belgilarini qo‘llash orqali amalga oshirilishi mukin («+» - asosiy urg‘u, «^» - qo‘shimcha urg‘u). Bunday holatda so‘z shakli aynan, ya’ni urg‘ular variantlarisiz shunday ko‘rinishda izlanadi.

Qidiruv tamoyili nima? Hozirgi fayl tizimlari tez o‘qish uchun qulayliligi sababli matn bo‘yicha to‘g‘ridan to‘g‘ri qidiruv qo‘llaniladi. Chunki bunday sharoitda ma’lumotlar bazasidan kerakli matnlar lavhalarini saqlash nisbatan mehnattalab amallardan hisoblanadi. Shablonning topilgan qismiga iqtiboslarni keltirilmasligi sababli doimiy ifodalar qo‘llaniladigan amallar ham materiallarni tezkor qayta ishlashga imkon beradi. Demak, dastlabki matnlarning to‘liq ko‘rib chiqilishi amalga oshiriladi.

Natijalarni keltirib chiqarish texnologiyasi qanday amalga oshiriladi? Qidiruv qulay bo‘lishi uchun olingan konkordans varaqlarga bo‘linadi (har birida 20 matn bo‘ladi). Matnlarda so‘zshakllari paydo bo‘lishining takrorlanishiga oid ma’lumotlarni belgilash uchun matnga navigatsiya (yo‘naltiruvchi) elementlar kiritiladi. Bu o‘sha varaqqa iqtibosdan kelib chiqadigan nomer (raqam tartibi) bo‘ladi. Matnlarning o‘zi esa badiiy, dramatik, publitsistik va ilmiy-ommabop adabiyotlardan iborat kategoriyalarga bo‘linadi. Yanada qulay bo‘lishi uchun har bir kategoriya o‘zidan keyin keladiganiga nisbatan gorizontal chiziqlar bilan chegaralanadi.

Dastur algoritmi nima? Ishdagi o‘zgarishlarni aniqlash va konstant (qayd etish):

– ilgari shu so‘z shakli bo‘yicha so‘rov bo‘lganligi xususida foydalanuvchi izlanishi va tekshiruvi aniqlanadi. “A” ilovada so‘rov aks

etgan tashqi varaq ko‘rinishi keltiriladi. Agar shunday amal amalga oshirilmasa, unda korpus matnlariga murojaat qilib bo‘lmaydi va oldingi natijaning birdan kaytib kelishi ro‘y beradi;

– qidiruv shablonlarini yaratish amali quyidagicha bajariladi: Berilgan so‘z shakliga mos keluvchi variantlarni topish uchun doimiy ifodalardan foydalaniladi. Doimiy ifodalar bu shablon beradigan va qatorlar shaklida matnda uchraydigan shu shablonga to‘g‘ri keladigan lavhalardan foydalanish texnologiyasidir. «Shablon» intuitiv jihatdan tushunarli bo‘lishi kerak. Masalan, agar korrektli e-mail adres xususida o‘ylab ko‘rilsa, shunda ma’lum bo‘ladiki, bu raqamlar, harflar, ramzlar belgisi, keyin «@» ramzi, davomida esa shu bilan bog‘liq + «.» belgilari (server nomi) va oxirida aksariyat hollarda domen zonasini belgilovchi ikkita yoki uchta harflar (ru, com) qo‘yiladi. Endi shu so‘zlar izohlarini kompyuter tushunadigan shaklga keltirsak, uning natijasida shablon yuzaga keladi. Demak, doimiy ifodalar til qoidalari bo‘yicha korpus matnlariga mos keladiganlarini topish uchun shablon yaratiladi (masalan «*» ifodasi oldingi belgi nol va undan ortiq tarzda takrorlanishini bildiradi yoki «[abd]» yozuvi «a», «b», «d» harflari turlicha joylashgan satrlar izlanayotganligini ko‘rsatishga imkon beradi. Doimiy ifoda umumiy ko‘rinishda «/ifoda/» shaklida yoziladi. Agar slesh «/» belgisi ifoda ichida uchrasa, unda uning oldiga qaytuvchi belgi – teskari slesh «\» qo‘yiladi. Shu bilan birga doimiy so‘z ifodalarida ma’noli qismlarga ega bo‘lgan belgilarni, ya’ni «+» (oldingi belgi bir yoki ko‘p marta takrorlanishi mumkin), «*» (oldingi belgi nol yoki undan ko‘p takrorlanishi mumkin), «?» (oldingi belgi nol va bir marta takrorlanishi mumkin), «^» (satr boshlanishiga to‘g‘ri keladi) ekranizatsiya qilish (belgilar oldiga qaytuvchi sleshlarni qo‘yish) zarur bo‘ladi:

– matnlarni ko‘rib chiqish va qidiruv natijalarini saqlab qolish;

– qidiruv natijalarini umumlashtirish va so‘rov bayonnomasini yaratish: qaysi kun va soat nechada qaysi manzildan IP-adres xususidagi ma’lumotlar so‘rovi bo‘lganligi, qanday so‘z shakli izlanganligi, qanday brouzer ishlatilganligi, qanday so‘z shakli izlanganligi va dramatik asarlar, badiiy adabiyotlar, publitsistik va ilmiy adabiyotlarga necha marta kirilganligi – murojaatlari, umuman, murojaatlardan qanchasi aniqlanganligi xususidagi ma’lumotlarni yoritish amallari bo‘lishi kerak. «B» ilovada so‘rov natijasini keltirib chiqarishni aks ettiruvchi tashqi varaq surati keltirilgan bo‘ladi.

Korpus yaratishning texnologik jarayoni to‘g‘risida V.V. Rikov quyidagi asosiy talablarni sanab o‘tadi:

1. Korpus foydalanuvchisi (yakka shaxs, guruh, lingvistik jamiyat).
2. Korpus faoliyatidan ko‘zlagan mantiqiy maqsad.
3. Korpus tuzishda ishlanadigan ma’lumotlar bazasi hajmi hamda buning real, zarurlik darajasi.
4. Matndan foydalanish usuli (parcha, to‘liq ko‘rinish yoki har ikkisi).

Mualliflik korpusini yaratish bo‘yicha Sh.Hamroyeva korpus yaratishning texnologik jarayoni to‘g‘risida quyidagi taklifni beradi:

1. Til materialini tadqiq etish.
2. Matnni skanerlash.
3. To‘liq shakllantirish, korpusni tuzish [Hamroyeva Sh., 2018:45].

Korpus yaratishning texnologik jarayoni xususida, chunonchi,“Rus tili milliy korpusi” matnlari ustida ish olib borgan olim S.Savchuk quyidagi jarayonga ajratadi:

1. Matnlarni qayta kiritish.
2. Elektron shaklda mavjud matnlardan foydalanish.
3. Bosma matnni skanerlash (bunda ko‘plab orfografik xatoni tuzatish kerak bo‘ladi).

Bizningcha, O‘zbek tilining milliy korpusini yaratishning texnologik jarayoni quyidagi bosqichlar yoki qadamlar shaklida namoyish etilishi mumkin:

1) manbalar ro‘yxatini aniqlash;
2) matnlarni raqamlashtirish (kompyuter shakliga o‘tkazish) [Toirova G., 2020:57].

Aytish kerakki, matnlarni kompyuterga kiritish oldinlari qiyin va ko‘p vaqt talab qilar edi, bugungi kunga kelib, bu muammo, hech bo‘lmaganda zamonaviy imlo zamonaviy matnlariga nisbatan juda oson hal qilinmoqda. Ushbu yengillik optik kirish (skanerlash) va matnni aniqlash va zamonaviy hayotni global kompyuterlashtirish, shu jumladan, matnni qayta ishlash bilan bog‘liq sohalarda erishilgan yutuqlarga asoslanadi. Korpuslarni yaratish uchun elektron shakldagi matnlarni turli xil usullar bilan kiritish mumkin. Chunonchi, qo‘lda kiritish, skanerlash, mualliflik nusxalari, sovg‘alar va birjalar, internet, muharrirlarga taqdim etilgan asl maketlar va boshqalar.

Mutaxassislar Y.N. Marchuk va I.A. Melchuk korpus tuzishning texnologik jarayonida quyidagi bosqichlarni ajratishadi:

1. Belgilangan manbaga muvofiq holda matnning korpusga kirishini ta’minlash.
2. Matnni avtomatik o‘qilish shaklida qayta ishlash.

Korpusga kiritiladigan elektron shakldagi matn turli usul bilan olingan bo‘lishi mumkin: qo‘lda kiritilgan, skanerlangan, mualliflik nusxasi, hadya, ayirboshlash, internet, nashriyotlar tomonidan korpus tuzuvchisiga beriladigan original-maketlar.

3. Tahlil, matnga dastlabki ishlov berish. Ushbu bosqichda turli manbalardan qabul qilingan matnlar filologik tekshiruv, tahrirdan o‘tadi.

4. Konversiyalash, grafematik tahlil. Ba’zi matnlar qayta kodlashtirish jarayoni amalga oshadigan ilk mashina ishlovidan qayta-qayta o‘tadi, nomatniy qismlar (rasm, jadval) o‘chiriladi yoki o‘zgartiriladi. Matndagi bo‘g‘in ko‘chirish, chegaralar (MS-DOS matnlarida) bekor qilinadi, tire va boshqa belgilar bir xilligiga erishiladi. Grafematik tahlil korpusga kiruvchi matnni qismga (so‘z, bog‘lovchi) ajratish, nomatniy elementni o‘chirish kabi amallarni bajarishdan iborat.

5. Nostandart (noleksik) elementni belgilash, rasmiylashtirish, maxsus matniy elementni (qisqartma asosida yozilgan nom (ism, familiya), boshqa alifboda yozilgan o‘zlashma leksema, rasmga berilgan nom, izoh, zarvaraq, adabiyotlar ro‘yxati va b.) bir xil mezon asosida qayta ko‘rib chiqish. Albatta, bu amallar avtomatik ravishda matn muharriri tomonidan bajariladi. Mutaxassislar Y.N. Marchuk va I.A. Melchuklar belgilagan texnologik jarayon bosqichlariga tayangan holda quyida o‘zbek tili milliy korpusining texnologik jarayon bosqichlarini taklif etamiz:

1.Matnni oldindan qayta ishlash bosqichi. Ushbu bosqichda turli manbalardan olingan barcha matnlar imloviy tuzatiladi va tahrir qilinadi. Matn bibliografik va ekstralingvistik tavsifga tayyorlanadi.

a) konversiya va grafik tahlil qilish bosqichi. Aksariyat matnlarni dastlabki qayta ishlash jarayonida ko‘rib chiqiladi. Bunda tilining kompyuter formati uchun kodlash va avtomatik tahlil uchun zarur bo‘lmagan elementlar (rasmlar, jadvallar) hamda matndagi tag osti chiziqlar olib tashlanadi.

b) avtomatik markirovka bosqichi. Bunda avtomatik markirovka natijalarini to‘g‘irlash, ya’ni xatolarni tuzatish va ajratish amalga oshiriladi (qo‘lda yoki yarim avtomatik).

2. Matnni belgilash bosqichi. Ushbu bosqichda korpusning zaruriy ma’lumotlari (metadata) kiritiladi. Korpus matnlarining meta-tavsifi: bibliografik ma’lumotlar, matnning janri va uslub xususiyatlarini tavsiflovchi belgilar, muallif haqidagi ma’lumotlar va boshqalarni o‘z ichiga oladi. Ushbu ma’lumotlar odatda qo‘l mehnati orqali kiritiladi. Matnning tarkibiy qismlari (paragraflar, jumlalar, so‘zlarni tanlash) va sof lingvistik belgilari ko‘pincha avtomatik ravishda amalga oshiriladi.

3. Korpusga kirishni ta’minlash bosqichi. Korpus displeyi quyidagi ko‘rinishda: CD-ROMda tarqatilishi va global tarmoq rejimida mavjud bo‘lishi mumkin. Foydalanuvchilarning turli toifalari turli xil huquqlarga va xilma xil imkoniyatlarga ega bo‘ladi.

4. Yakuniy bosqich – tegli matnlarni tez ravishda ko‘p parametrli qidirish va statistik ishlov berishni ta’minlaydigan ixtisoslashtirilgan lingvistik ma’lumot olish tizimining tarkibiga o‘zgartirish (korpus menejeri)kiritish bosqichi.

Albatta, har bir holatdagi bosqichlarning tarkibi va soni yuqorida sanab o‘tilganlardan farq qilishi va real texnologiya ancha murakkab bo‘lishi ham mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduraxmonova N. Z. Inglizcha matnlarni o‘zbek tiliga tarjima qilish dasturining lingvistik ta’minoti (sodda gaplar misolida): Filol.fan.bo‘yicha falsafa doktori (PhD)…dis. avtoref. – Toshkent, 2018. – 49-b.
2. Hamroyeva Sh. O‘zbek tili mualliflik korpusini tuzishning lingvistik asoslari. Filol.fan.bo‘yicha falsafa doktori (PhD)…disser.– Toshkent, 2018. – 45-b.
3. Toirova G. Milliy korpus yaratishning texnologik jarayoni xususida. //O‘zbekistonda xorijiy tillar. Elektron ilmiy-metodik jurnal. – Toshkent. – 2020, –№ 2 (31), – 57- 64-b.
4. Аброскин А. А. Поиск по корпусу: проблемы и методы их решения // Национальный корпус русского языка. Нестор-История, 2009. – 277-282 с.
5. Кустова Г. И., Ляшевская О. Н., Падучева Е. В., Рахилина Е. В. Семантическая разметка лексики в Национальном корпусе русского языка: принципы, проблемы, перспективы // Национальный корпус русского языка. – М., 2005.– С.155–174.
6. Плунгян В. А., Резникова Т. И., Сичинава Д. В. Национальный корпус русского языка: общая характеристика. – 2005, – № 2. – С.9–13.
7. Поляков А.Е. Технология подготовки информации в национальном корпусе русского языка. http://www.ruscorpora.ru/new/corpora-biblio.html

ONA TILIDAN MUSTAQIL ISHLAR

D.Djumashov ,
Fan va texnolgiyalar universiteti
katta o‘qituvchisi,
E-mail: davlatyarjumashov @mail.ru
Tel: +998 97 7305093

Annotatsiya Ona tilidan beriladigan bilimlarni mustaqil ishlarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. O‘quvchilar tilga oid bilimlarni, asosan, dars jarayonida o‘rganadilar. Grammatik qonun - qoidani o‘qituvchi rahbarligida o‘quvchining o‘zi kuzatishi va xulosalashi kerak, o‘quvchining umumiy taraqqiyotida grammatikaning asosiy ahamiyati ana shundan iborat. Darslarda tashkil etiladigan mustaqil ishlar o‘quvchilarda kitob ustida ishlash malakasini shakllantirishning yetakchi omilidir.

Kalit so‘zlar: mustaqil ish, ta’lim, aqliy faoliyat, o‘quvchilarning bilimi, hayotiy tajribasi, individual xususiyati, o‘zak, o‘zakdosh so‘z, so‘z yasovchi qo‘shimchalar, so‘z o‘zgartiruvchi qo‘shimchalar, talaffuz va imlo, punktuatsion qoida, gap, bog‘lovchi, til birligi.

Abstract - It is impossible to imagine mastering the knowledge of a native language without engaging in independent work. Students primarily acquire linguistic knowledge during classroom instruction. Under the teacher’s guidance, students must observe and draw conclusions about grammatical rules themselves. The fundamental importance of grammar in students’ overall development lies precisely in this process. Independent tasks conducted during lessons serve as a key factor in developing students’ skills in working with texts and learning materials independently.

Keywords: independent work, education, cognitive activity, students’ knowledge, life experience, individual characteristics, root, cognate words, word-forming affixes, inflectional affixes, pronunciation and orthography, punctuation, sentence, conjunction, linguistic unit.

Ta’limda fan asoslarini egallash ko‘p jihatdan, ona tili ta’limining qo‘yilishiga bog‘liq. O‘quvchilar tilga oid bilimlarni, asosan, dars jarayonida o‘rganadilar. Ularga ona tilidan beriladigan bilimlarni mustaqil ishlarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi.

Didaktikada mustaqil ishlar muammosi juda uzoq tarixga ega. O‘quvchilarda mustaqillikni shakllantirish K.D.Ushinskiy pedagogik tizimning asosiy muammolaridan biri degan edi. U tarbiyachi o‘z shogirdlarining mustaqil ishlashiga ko‘proq imkoniyat yaratib bermog‘i,

o‘quvchini tayyor xulosalar bilan qurollantirishga ko‘ra, uning o‘ziga xulosalar izlashni o‘rgatmog‘i kerak, - deb ta’kidlagan edi. Grammatik qonun-qoidani o‘qituvchi rahbarligida o‘quvchining o‘zi kuzatishi va xulosalashini istardik, o‘quvchining umumiy taraqqiyotida grammatikaning asosiy ahamiyati ana shundan iborat.[Qosimova K., va b. 2009. 26].

Ta’limda faollik va mustaqillik muammosi bir-birini to‘ldiradigan, o‘zaro uzviy bog‘langan pedagogik kategoriyalar hisoblanadi. Har qanday faoliyat asosida mustaqil aqliy faoliyat yotadi. Mustaqil ishlarsiz hyech qanday faoliyat bo‘lmaydi. Ammo bu faollik va mustaqillik bir xil tushuncha ekan, degan fikrga olib kelmasligi kerak. Faollik mustaqillik tushunchasiga nisbatan gapirganda, o‘qituvchi tushuntirishi ma'ruzani diqqat bilan tinglash, turli xil vositalar: ko‘rgazmali qurol, mustaqil ish yordamida o‘quvchilarning faolligini oshirish, ijtimoiy va ma'naviy hayotda faollik bilan ishtirok etish, moddiy ne'matlarni ishlab chiqarishda ijodkorlik, tashabbuskorlik ko‘rsatish kabilar tushuniladi. Demak, faollik tushunchasi xoh o‘quv-tarbiya, xoh ijtimoiy va ma'naviy hayot sohasida bo‘lmasin, kishining ongli, aqliy faoliyatini ifodalash uchun ishlatiladi. Darslarda o‘tkaziladigan mustaqil ishlar o‘quvchilarning faolligini oshirishining asosiy vositalaridan biri sanaladi.

Kitob ustida mustaqil ishlay olish malakalari, dastavval, boshlang‘ich sinflarda hosil qilinadi, bu malakalar yuqori sinflarda yanada takomillashtiriladi. Darslarda tashkil etiladigan mustaqil ishlar o‘quvchilarda kitob ustida ishlash malakasini shakllantirishning yetakchi omilidir.[Tolipova R., 2007.23].

Didaktika va xususiy metodikaga oid adabiyotlarda mustaqil ishlar muammosi uch tomondan talqin qilinadi. Fan asoslarini egallashdagi mustaqillik - deduktiv prinsip mustaqil ishlash - o‘qitish metodi mustaqil ishlar - darsda tashkil etiladigan topshiriq - o‘quvchi shaxsini shakllantirish vositasi hisoblanadi.

Umumiy ta’lim predmetlaridan biri sanalgan ona tili o‘quvchilarda mustaqillikni taraqqiy ettirish uchun juda boy imkoniyatlarga ega. Ona tili materiallari ustida tashkil qilinadigan topshiriqlar o‘quvchilarni til hodisalarini kuzatish, tahlil va qayta ishlash, induktiv va deduktiv xulosalar chiqarish kabi malakalarni o‘stiradi.

O‘quvchilarning mustaqil ishlari ona tili darslarining barcha bosqichlarida o‘tkaziladigan, o‘qituvchining bevosita ishtirokisiz, ammo uning ko‘rsatmalari va rahbarligida bajariladigan, o‘quvchilarning ongli ravishda faoliyat ko‘rsatishini ta'minlaydigan grammatik vazifalardir.

Ilg‘or o‘qituvchilar darslarni ijodiy uyushtirishda o‘quvchilarning mustaqil ishlariga tayanadilar. Kuzatishlar shuni tasdiqlaydiki, aksariyat o‘qituvchilar mustaqil ishlarning o‘ziga xos xususiyatlariga yetarli ahamiyat bermay, uni nafasni rostlab olish uchungina o‘tkazadilar.

Ona tilidan o‘tkaziladigan mustaqil ishlar o‘quvchilarning bilimi, hayotiy tajribasi, individual xususiyatlarga to‘g‘ri kelmaydi.

Darslarda o‘tkaziladigan mustaqil ishlar dars tipiga dars jarayonining turli bosqichlariga o‘quv materialining mazmuniga bog‘liq bo‘ladi. Ona tilidan o‘rganiladigan har bir mavzu, har bir orfogramma xarakteriga muvofiq mustaqil ishlar uyushtiriladi. Ona tili darslarida o‘tkaziladigan mustaqil ishlarga quyidagi talablar qo‘yiladi: a) mustaqil ishlar pedagogik va psixologik tomondan asoslangan, o‘quvchilarning yosh va shaxsiy xususiyatlariga, bilimiga mos bo‘lishi o‘quvchilarga tilni o‘zlashtirishga qiziqtirishi lozim; b) o‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriq bolalarning o‘quv materialini faol idrok etishini ta'minlashi zarur; d) mustaqil ish hayotiy bo‘lishi, o‘rganilgan nazariy bilimlarni amaliy tatbiq etishning vositasi bo‘lishi kerak.

Ta’lim ilgarilab ketgani sari mustaqil ishlarning hajmi, murakkabligi oshira boriladi. O‘quvchilarning ish tezligi, mustaqillik darajasi o‘sadi. Masalan, 5-9-sinflarda «so‘z tarkibi» mavzusi o‘tiladi. O‘quvchilar 5-sinfda o‘zak, o‘zakdosh so‘z, so‘z yasovchi qo‘shimchalar, so‘z o‘zgartiruvchi qo‘shimchalar to‘g‘risida dastlabki ma'lumotni oladilar. Bu sinfda o‘zak, o‘zakdosh so‘z, qo‘shimcha, so‘z yasovchi va so‘z o‘zgartiruvchi qo‘shimcha, turlovchi qo‘shimcha, negiz kabi terminlar vositasida bolalarning so‘z tarkibi haqidagi bilimlar negizida yanada boyitiladi.

Ona tilidan tashkil qilinadigan mustaqil ishlar hajmi va murakkabligi jihatidan uch guruhga bo‘linadi: tayyorlovchi, yarim mustaqil yoki oraliq, natijasi matnga teng mustaqil ishlar.

1. Tayyorlovchi mustaqil ishlar. Pedagogik-psixologiyadan ma'lumki, dastlab o‘quvchilar vazifalarni mustaqil bajarishga ancha qiynaladilar. Ular berilgan topshiriqlarni taqlid qilish yo‘li bilangina bajara oladi. Ilg‘or o‘qituvchilar dastlabki mustaqil ishlarni quyidagicha tashkil etishadi; avvalo o‘qituvchi o‘quv qurollariga muomala qilish, o‘quv qurollaridan foydalanish, o‘qish va yozish paytida partada o‘tirish qoidalarini amaliy ravishda ko‘rsatib beradi. O‘quvchilar o‘qituvchiga ergashib, uning qilgan harakatlarini takrorlaydi. Bu ishlar murakkablashtirib boriladi. O‘quvchilar o‘qituvchi rahbarligida tovushni bo‘g‘inga, bo‘g‘inni so‘zga birlashtiradilar. Gapni so‘zga, so‘zni bo‘g‘inga, bo‘g‘inni

tovushlarga ajratadilar. O‘quvchilarga tahlil qilishni o‘rgatish maqsadida ularning diqqati aniq narsalarga tortiladi. O‘quvchi rasmni osa turib, «rasmda uzum, anor, shaftoli, limon, o‘rik kabi mevalar ifodalangan» o‘quvchilarga bunday ish beradi: rasmni yaxshilab kuzating. Unda nimalar tasvirlangan? Ularnig nomini eslang. Shirin nordon mevalarning nomini bildiradigan so‘zlarni guruxlarga ajrating. O‘ylang, yana qaysi mevalar shirin va nordon bo‘ladi. Bunday topshiriqlarni bajarishda o‘quvchilar chog‘ishtirish usulidan foydalanadilar. Topshiriq bajarilgach, tahlil uchun «olma» so‘zi ajratiladi. Shu so‘z bo‘g‘inlarga ajratiladi. «Olma so‘zining ikkinchi bo‘g‘inidagi «m», «a» tovushlarining artikulyatsiyasini kuzatish topshirildi (o‘quvchilar bu tovushlarni ayta turib, partadosh o‘rtog‘ining og‘ziga qaraydi)». Suhbat paytida o‘quvchilar «m» tovushini talaffuz qilganda lablarning yumilishi, «a» tovushini aytganda og‘izning ochilishini o‘rganib oladilar. Shunga o‘xshash ishlarni bajarish natijasida o‘quvchilar til dalillarini kuzatish, jamoada ishlay olish malakalarini egallaydi. Bu ishlar o‘quvchilarni bundan keyingi yanada murakkabroq vazifalarni bajarishga tayyorlaydi.[G`ulomova va b.2003.43].

Tayyorlovchi mustaqil ishlar yuqori sinflarda o‘quvchilarni yangi o‘quv materialini ongli o‘zlashtirishga tayyorlash maqsadida o‘tkaziladi. Masalan, 5-sinfda sifat haqida ma'lumot berish ko‘zda tutilgan. Bolalar o‘qituvchi topshirig‘iga ko‘ra, ot bilan bog‘lanib kelgan sifatlarni *(tip-tiniq, muattar, serhosil, ko‘m-ko‘k),* ularning so‘roqlarini aniqlaydilar, sifatlarni o‘zlari bog‘langan otlar bilan ko‘chirib yozadilar *(tip-tiniq jilg‘a, muattar hid, serhosil jiyda, ko‘m-ko‘k daraxt)*. Bu ish o‘quvchilarni sifat mavzusini ongli o‘zlashtirishga tayyorlaydi. Mustaqil ishlarga tayyorlashning bu kabi usullarini har bir mavzu va bo‘limning murakkabligidan kelib chiqib topshiriq berish mumkin.

2. Yarim mustaqil yoki oraliq mustaqil ishlar. Mustaqil ishlarning bu turi yetaklovchi savollar, darslik, bosma asosli tarqatma materiallar, ko‘rgazma materiallardan foydalanish asosida bajariladi. Misollar: o‘qituvchi doskaga *«paxta»* so‘zini yozib, o‘zakdosh so‘zlarni yozib, o‘zakdosh so‘zlarni topishni buyuradi. O‘quvchilar *«paxta», «paxtazor», «paxtachilik», «paxtagul», «paxtali»* kabi so‘zlarni lug‘atdan topib yozadi. Bu ishda yetaklovchilik vazifasini paxta so‘zi o‘ynaydi.

3. Natijasi matnga teng mustaqil ishlar. Ta’lim ilgarilagan sari o‘quvchilar yanada murakkabroq vazifalarni bajara oladilar. Shuni hisobga olib, grammatikadan o‘rganiladigan bilimlarga bog‘langan holda ijodiy diktant, ish qog‘ozlari, bayon, insho va boshqa ish turlaridan mustaqil ish sifatida foydalanish mumkin. Bu ishlar hajmining kattaligi, bajarish uchun

ko‘p vaqtni talab qilishi bilan mustaqil ishning oldingi turlaridan farq qiladi. Bunday mustaqil ishlarning oldingi turlaridan farqlash uchun “natijasi matnga teng mustaqil ishlar” terminini ishlatdik. Buni bog‘lanishli nutqqa ham bog‘lash yaxshi samara beradi. Shunday qilib, ona tili darslarida o‘tkaziladigan mustaqil ishlar tizimini, sinf o‘quvchilarining tayyorgarlik darajasi, mustaqil ishni bajarish uchun ketadigan vaqtga ko‘ra aniqlanadi.

4. Darslik materiallari ustida mustaqil ishlarni tayin etish yo‘llari. Maktab darsliklarining oldiga qat’iy ilmiy - izchillik, milliy istiqlol g‘oyasini singdirish kabi qator vazifalar qo‘yilgan.

“Ona tili” darsliklari materiallari o‘zida grammatik kategoriyalarni, so‘z yasash shakllari va usullari, so‘z o‘zgartirish va gap tuzish yo‘llari, talaffuz va imlo hamda punktuatsion qoidalarni mujassamlantirgan. Darslikdagi qonun - qoidalar o‘zining abstraktligi, umumiyligi bilan xarakterlanadi. Demak, o‘quvchining umumiy taraqqiy qilishda ona tili alohida ahamiyatga ega bo‘lib, uning asosiy vazifalaridan biri, bolalar tafakkurini o‘stirish, ularda kitob ustida ishlash malakalarini takomillashtirishdan iborat.

Grammatik qonun - qoidalar ustida o‘tkaziladigan mashqlar jamoaviy xarakterga ega bo‘lib, o‘qituvchi faqat doskaga chiqarilgan o‘quvchi bilan ishlaydi. Sinf jamoasi esa o‘rtog‘ining doskadagi ishidan nusha oladi. Ta’limda asosiy nuqsonlaridan biri, o‘quvchilarga ma'lum miqdorda bilimlar berilsa ham ammo ularning aqliy taraqqiyotida yetarli e'tibor bermaslikda, bolalarga mustaqil ishlash malakalarini singdira olmaydilar. Bu ahvolni odilona tanqid qilib, Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov shunday yozgan edi: “Agar bolalar erkin fikrlashni o‘rganmasa, berilgan ta’lim samarasi past bo‘lishi muqarrar. Albatta, bilim kerak. Ammo bilim o‘z yo‘liga. Mustaqil fikrlash ham boylikdir”. *(Barkamol avlod orzusi. T., 1999. 16-b.)*

Darslik materiallari ustida o‘quvchilarni mustaqil ishlashga o‘rgatish ikki bosqichda amalga oshiriladi: o‘quvchilarda tashkiliy - texnik malakalarni hosil qilish, o‘quvchilarga darslikdagi grammatik qoidalar va mashqlar ustida ishlash yo‘llarini o‘rgatish.

O‘quvchilarni kitob ustida mustaqil ishlashga o‘rgatishning dastlabki bosqichi bolalarni darslik bilan tanishtirishdir. O‘qituvchi kitob bilan tanishtirayotganda, faqat kitob muqovasi, rasmlarnigina ko‘rsatib qo‘ya qolmay, balki har bir grammatik elementni kitobning nomi, muallifining familiyasi qayerga yozilishi, betlari, mundarijasini ham tushuntirib berishi zarur. Buning uchun kirish suhbati o‘tkaziladi. Suhbatda, avvalo,

o‘quvchilar diqqati darslik muqovasiga tortiladi, o‘quvchilar o‘qituvchi rahbarligida kitob mualliflarini, kitob ona tilini o‘rganish uchun yaratilganligini, uning qaysi nashriyotdan chiqqanligini bilib oladilar. So‘ngra o‘quvchilar diqqati darslik materiallariga tortiladi. Suhbat davomida o‘quvchilar har bir paragrafning grammatik qoida va amaliy mashqlardan iborat ekanligini tushunadilar. Keyin darslik mundarijasidan foydalanish amaliy tushuntiriladi. O‘qituvchi suhbatni yakunlar ekan, bolalarga quyidagi so‘zlar bilan murojaat qiladi:

- Bolalar, kitob - bilim manbai. Uni kishilar mehnat qilib yaratgan. Kitobni o‘qiganda, uni kim yozganligini, qachon yozganligini, nima uchun va kim uchun yozganligini bilish nihoyatda zarur. Kitobdan foydalanganda uni oxirigacha varaqlab turmasdan, oldin mundarijasiga qarab, kerakli paragrafni topib olishga o‘rganing. O‘quvchilarda darslik ustida ishlashning tashkiliy - texnik malakalari hosil qilishi bilan birga, ularga darslik materiallari ustida ishlash yo‘llari ham o‘rgatiladi.

1. Grammatik qoidalar ustida ishlash. Grammatik qoidalar ustida mustaqil ishlashning quyidagi yo‘llari o‘quvchilarga o‘rgatiladi:

A. Darslikdagi qoidani o‘qish va uni misollar orqali tushuntirish. Masalan, “Sifat - so‘z turkumi” mavzusi yuzasidan o‘quvchilarga shunday vazifa berish mumkin: - Qoidani o‘qing, narsaning rangi, mazasi, shaklini bildirgan so‘zlarga misollar o‘ylab toping. Bu so‘zlar qanday so‘roqni oladi.[Миртожиев М., 2004.52]

O‘quvchilar oq, qora, shirin, nordon, katta, baland, uzun, dumaloq kabi sifatlarni o‘ylab topadilar, shu so‘zlarning so‘roqlarini aniqlaydilar. Bolalar darslikdagi qoidadan misolga qarab boradi. Shu yo‘l bilan bolalar deduksiyani o‘rganadilar.

B. Misollardan xulosalar chiqarish va uni darslikdagi qoidalarga taqqoslash. O‘quvchilar avval misollarni kuzatadilar, tahlil qiladilar, so‘ngra xulosa chiqaradilar. O‘zlari chiqargan qoidani darslikdagi qoidaga taqqoslaydi. Bolalar induktiv yo‘l bilan qoidani o‘rganadi, mustahkamlaydi.

V. Grammatik qoidalarni saylab o‘qish. Agar o‘quvchi ma'lum qoidani, grammatik ta'riflarni unutgan bo‘lsa, saylab o‘qish usulidan foydalaniladi. Masalan, o‘quvchilar oxiri “k” undoshi bilan tugagan so‘zlarga jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi qo‘shilganda yuz beradigan fonetik o‘zgarishlarni unutib xatoga yo‘l qo‘ysa, darslikning tegishli betidagi qoidani o‘qiydi, darslikdagi misollarga o‘xshash misollar o‘ylab topadi. Qarmoq, terak, yurak, quloq, kurak, boshoq, o‘tloq kabi so‘zlarga jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasini qo‘shadi, gaplar tuzadi.

G. Grammatik qoidalarni qismlarga ajratish. Darslikda berilgan qoidalarni mantiqiy qismlarga ajratishni ham bolalarga o‘rgatish zarur.

D. O‘rganilgan qoidalarga oid misollarni o‘quvchilar o‘qituvchi topshirig‘iga ko‘ra darslik, o‘qish kitobi, gazeta va jurnallardan izlaydilar. Bular o‘quvchilarga izlanish, o‘rganish havasini uyg‘otadi, ularni ijodkorlikka o‘rgatadi.

II. Darslik mashqlari ustida ishlash. Grammatikadan beriladigan bilimlar darslik mashqlari yordamida mustahkamlanadi. Shunga ko‘ra, mashqlarga bo‘lgan talab juda ham katta. Grammatik mashqlar ustida mustaqil ishlarni o‘quvchilarga o‘rgatish uchun quyidagi ish usullaridan foydalaniladi.

A. Mashqlarni variantlarga bo‘lib ishlash. Bu usul yordamida ish qilinganda o‘quvchilar guruhlarga bo‘linadi. Bajariladigan mashq yuzasidan o‘quvchilarga ikki variantda topshiriq beriladi. O‘quvchilar topshiriqni bajarib bo‘lganlaridan keyin, birinchi variant o‘quvchilari ikkinchi variant o‘quvchilarining, ikkinchi variant o‘quvchilari esa birinchi variant o‘quvchilarining ishlari o‘zaro daftarlarni almashtirib tekshiriladi. Variantlar bo‘yicha ishlash o‘quvchilarning faolligini, qiziqishini, mustaqilligini oshiradi.

B. Mashqlar asosida jadvallar tuzish. Bunday ishlar o‘quvchilarga umumiy tushunchalarni o‘rgatish uchun juda foydali bo‘ladi. Bolalar jadvalni to‘ldirishda anor, nok, olxo‘ri, gilos, behi kabi so‘zlarni bir umumiy nom bilan “*mevalar*” deb aytishni, sabzi, piyoz, karam kabilarni “*sabzavot*” tushunchasi doirasida umumlashtirishni bilib oladilar. Bu ishlar o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurini o‘stiradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ta’limning barcha bosqichlarida mustaqil ish o‘quvchilarning kreativ fikrlashiga ijobiy ta’sir qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G`ulomova va b. 4-sinfda ona tili darslari. – Toshkent: O`qituvchi, 2003. – 160 b.

2. Tolipova R., Is’hoqova M., Ikromova N. O`zbek tili. Ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning 2-sinfi uchun darslik. Qayta ishlangan, 6-nashri. – Toshkent: O`zbekiston, 2007. – 80 b.

3. Qosimova K., va b. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent, 2009.

4. Миртожиев М., Ҳозирги ўзбек адабий тили. 1-қисм. – Toshkent, 2004.

5. Ғуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили синтаксиси. – Toshkent, 1965 – 121-bet.

NUTQIY ETIKET BIRLIKLARINING VAZIFALARI VA KOMMUNIKATIV MAQSADLARI

Saparova Surayyo Baxtiyor qizi,
Urganch davlat universiteti o‘qituvchisi
E-mail: saparovasurayyo25@gmail.com
Tel.: *+998937495775*

Annotatsiya. Ushbu maqolada nutqiy etiketning boshqa muloqot turlaridan ajralib turuvchi belgilari, kommunikativ jarayonlarda bajaradigan vazifalari haqida jahon, rus, o‘zbek tilshunoslarining nazariy qarashlari tahlili asosida muallif fikr-mulohazalari va kommunikativ maqsadlari yoritib berilgan. Shuningdek, nutqiy etiket birliklarini tematik guruhlarga ajratishda farqli o‘rinlarning mavjudligi ilmiy dalillar bilan izohlangan. Nutq odob-axloqi qoidalariga rioya qilinishi uchun nutqiy etiket birliklari bilan bir qatorda kommunikantlarga yuklatilishi mumkin bo‘lgan vazifalar ham sharhlangan.

Annotation. This article analyzes the theoretical views of world, Russian, and Uzbek linguists on the distinguishing features of speech etiquette from other types of communication, the functions it performs in communicative processes, and its communicative goals. Also, the existence of different places in the division of speech etiquette units into thematic groups is explained with scientific evidence. Along with speech etiquette units, the tasks that can be assigned to communicants in order to comply with the rules of speech etiquette are also commented on.

Kalit so‘zlar: nutqiy etiket, nutqiy etiket birliklari, nuqiy etiket belgilari, kommunikativ jarayon, kommunikativ funksiya, kommunikativ maqsad.

Key words: speech etiquette, speech etiquette units, speech etiquette signs, communicative process, communicative function, communicative goal.

“Nutq etiketi – bu muloqot stereotiplarining keng doirasi. Inson tarbiya, ijtimoiylashuv jarayonida shaxsga aylanib, tilni tobora to‘la o‘zlashtirib boradi, atrofdagilar bilan munosabatlarning axloqiy me’yorlarini, shu jumladan nutqiy munosabatlarni o‘rganadi, boshqacha aytganda, muloqot madaniyatini o‘zlashtiradi” [Anchimiuk, 2020: 8]. Nutqiy etiket birliklari, muloqot jarayonidagi pragmatik funksiyalari haqida jahon, rus va o‘zbek tilshunosligida bir qator tadqiqotchilar izlanishlarida kuzatishimiz mumkin. Jumladan, O.Anchimiuk, I.A.Sternin,

N.I.Formanovskaya, V.E.Goldin, M.Hakimov [Hakimov, 2013: 3], Sh.Safarov [Safarov, 2006: 3] va H.Turdiyeva [Turdiyeva, 2020: 32] kabi boshqa tadqiqotchilarning tadqiqotlari ahamiyatlidir. Nutq etiketi kommunikatsiya jarayonida ishtirok etayotgan sheriklarning xususiyatlarini hisobga olgan holda quriladi, ya'ni bunda aloqa subyekti va manzilining ijtimoiy holati, ularning xizmat ierarxiyasidagi o'rni, kasbi, millati, yoshi, jinsi, xarakteri kabilarni aytish mumkin. Bundan tashqari, O.Anchimiuk nutq etiketi qoidalari haqida "muloqot sodir bo'lgan vaziyatga qarab belgilanishi" nazariyasini ilgari suradi [Anchimiuk, 2020: 9]. Shulardan kelib chiqib nutqiy etiketning belgilarini, uning asosiy turlarini, funksiyalarini shakllantirish mumkin.

Nutqiy etiketni boshqa muloqot turlaridan ajratib turadigan belgilari mavjud bo'lib, O.Anchimiuk asosiy belgilar sifatida quyidagilarni keltirib o'tadi: 1) vaziyatli - so'zlovchining o'z suhbatdoshiga nisbatan ma'lum bir munosabatini faqat aniq vaziyatda ifodalaydi; 2) tartibga soluvchilik - muloqotda ishtirok etuvchi odamlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi; 3) izchillik - odob holatida odob-axloq ma'lumotlari almashinuvi bo'lishi kerakligini anglatadi;

4) kommunikativ ramkaning mavjudligi - nutq aktlarida standart boshlanish va tugatish kabi odob-axloq qoidalari mavjud.

Bundan tashqari, I.A.Sternin ham nutqiy etiket belgilaridan asosiylari sifatida 4ta belgini sanab o'tadi [Sternin, 1996: 9]: 1) situatsion; 2) normativ; 3) muvofiqlik; 4) aloqa ramkasining mavjudligi. Bu belgilar:

- ma'ruzachining suhbatdoshiga nisbatan munosabatini faqat ma'lum bir vaziyatda ifodalashida;
- muloqot paytida vaziyatga qarab ishlatiladigan nutqiy etiket formulalarini o'zgartira olishi, o'ziga xos nutq odobi birligini ayta olishida;
- kommunikativ rollarni taqsimlashda, suhbatdoshlarning maqomini va muloqot ohangini belgilashda;
- nutq tartibini yo'lga qo'yish, ya'ni suhbatning boshlanishi ham, yakuni ham hurmat asosida kechishida namoyon bo'ladi.

Ko'rinadiki, O.Anchimiuk va I.A.Sternin tomonidan ifodalangan NEBlarining belgilarida deyarli farq sezilmaydi.

Tadqiqotchi V.E.Goldin nutqiy harakatni tashkil etuvchi majburiy elementlarning mavjudligiga ishora qilgan edi [Goldin, 1987: 76]. Masalan, kelganda salomlashish *"assalomu alaykum"*…, ketishda xayrlashish *"xayr, yaxshi boring"// "maroqli dam oling"*…, qo'ng'iroq qilganda *"alo" // "kim gapiryapti?" // "eshitaman"* va shu kabilar.

Nutqiy etiket formulalari muloqot ishtirokchilarining tanishlik darajasiga, yosh omiliga, oilaviy munosabatlarga, ijtimoiy mavqega va jins omiliga bog‘liq. N.I.Formanovskayaning fikricha, til birliklarining funksional mikrotizimi sifatida nutq odob-axloqining asosini tilning asosiy (immanent) funksiyalari tashkil etadi. Ular dastlab 2 guruhga ajratiladi: 1) aloqa funksiyasi (kommunikativ); 2) fikrni ifodalash funksiyasi [Anchimiuk, 2020: 44].

Tilning kommunikativ funksiyasidan kelib chiqib, nutq odob-axloqining ixtisoslashgan funksiyalari sifatida quyidagi 5 asosiy vazifa keltiriladi: **aloqa (fatik)**, **xushmuomalalik (konativ)**, **tartibga solish**, **ta’sir qilish (imperativ), murojaat (appelyativ).** Bu funksiyalar Rus ensiklopedik lug‘atida ham keltirib o‘tilgan [Ярцева, 1998: 413]. N.I.Formanovskayaning fikricha, **fatik funksiya** birliklarning barcha tematik guruhlariga tegishli. Xususan, ko‘rsatilgan har bir funksiya bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, muloqotning o‘ziga xos xususiyatlarini amalga oshirish jarayonida kommunikantlar o‘rtasida aloqa o‘rnatishga, uni yaxshilashga, o‘zaro munosabatlarni tartibga solishga, vaziyatni so‘zlovchi foydasiga hal qilishiga sabab bo‘lishi kerak. **Konativ funksiya** jamiyatda qabul qilingan muloyim xatti-harakatlarning namoyon bo‘lishi bilan bog‘liq. Turli xil aloqa holatlaridagi birliklar muloqotda xushmuomalalikni ko‘rsatishga xizmat qiladi. Xushmuomalalikning maxsus ko‘rinishlari turlicha bo‘lishi mumkin.

Aloqani o‘rnatishda u yoki bu formulani tanlash munosabatlarning tabiatini tartibga solishi yoki muloqot muhitining o‘zgarishi sababli noto‘g‘ri formulani tanlash aloqani buzishi mumkin. Til shakllarida nutq odobi katta va kichik, o‘qituvchi va talaba, buyruq beruvchi va bo‘ysunuvchi o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi. **Tartibga solish funksiyasi** shu nuqtayi nazardan ham nutq odob-axloqining barcha ko‘rinishlariga taalluqlidir.

Har qanday imo-ishora orqali yoki og‘zaki amalga oshirilgan birlik suhbatdoshning fikrlarini so‘zlovchi foydasiga hal qilishga, unga ijobiy tomondan ta’sir o‘tkazishga sabab bo‘lishi kerak. **Ta’sir qilish funksiyasi** shu jihatdan yetakchilik qiladi. Tadqiqotchi O.Anchimiuk bu funksiyani, ayniqsa, so‘rov, maslahat, taklifnoma, taklif kabi tematik guruhlarda ixtisoslashganligini ta’kidlab o‘tadi [Anchimiuk, 2020: 45]. **Appelyatsiya funksiyasi** ham nutq odobi masalasida barcha tematik guruhlardagi birliklarga xos hisoblanib, kommunikativ vaziyatda suhbatni boshlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Yuqoridagi funksiyalardan tashqari, **hissiy funksiya** ham keltirilgan bo‘lib [Anchimiuk, 2020: 46], u nutqiy etiket

birliklarining hammasiga xos emasligi jihatidan ixtiyoriy sanaladi. O‘z navbatida, u aloqani o‘rnatish va qo‘llab-quvvatlash tabiati bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘plab birliklarga ega: *Sizni ko‘rganimdan qanchalik xursandman! Sizni ko‘rganimdan juda xursandman!* va hokazo.

N.I.Formanovskayaning fikriga ko‘ra, funksiyalar to‘plami nutqiy etiketning o‘ziga xos **funksional maydonini** tashkil qiladi[Anchimiuk, 2020: 46]. Binobarin, nutq odob-axloqi ko‘nikmasiga ega bo‘lgan shaxs o‘z suhbatdoshlariga muloqot odob-axloq me’yorlari va qoidalarini bilmagan kishidan ko‘ra ko‘proq ta’sir qiladi.

Nutqiy etiket vazifalari haqida gapirar ekanmiz, quyida I.A.Sternin ta’kidlab o‘tgan tasnifga ham to‘xtalamiz: 1) odamlar o‘rtasida aloqa o‘rnatish; 2) odamlar o‘rtasidagi aloqani saqlash; 3) suhbatdoshga nisbatan muloyim, hurmatli munosabatni ko‘rsatish; 4) jamiyatda inson xulq-atvorini tartibga solish; 5) mojarolarning oldini olish.

Quyida biz rus tadqiqotchisi I.A.Sternin tasnifi aynan nimaga asoslanganligini, guruhlashtirishda funksiyalarning qaysi jihatlariga e’tibor qaratilganligini qisqacha izohlarda ifoda etamiz:

- nutqiy etiket funksiyalari qandaydir kommunikativ maqsadni amalga oshirishdan oldin odamlarga murojaat qilish orqali e’tiborini jalb qilish, suhbatga undash, agar suhbatdosh notanish bo‘lsa, suhbatdosh bilan tanishish imkonini beradi;

- bugungi kunda kishilar o‘rtasida aloqani saqlab qolish zamonaviy jamiyatda insoniy muloqotning zaruriy qismi hisoblanadi. Buni amalga oshirishga nutq odob-axloqi yordam beradi. Suhbatdoshlar o‘rtasida aloqaning saqlab qolinishi suhbatdoshlarning suhbat jarayonida o‘zini tutishiga, nutqiy vositalardan qanday foydalanganligiga, qarshi tomonda qanday taassurot uyg‘otganligiga bog‘liq;

- nutq odobi vositalarining salmoqli qismi aynan suhbatdoshga muloyim munosabat ko‘rsatish vazifasini bajaradi. Buni kimgadir murojaat qilish, salomlashish, kechirim so‘rash, minnatdorchilik, iltimoslar, hamdardlik bildirish va boshqa kommunikativ vaziyatlarda kuzatishimiz mumkin. Suhbatdoshga ijobiy munosabat ko‘rsatish nutq muloqotining asosiy xususiyati hisoblanadi;

- nutq odob-axloq me’yorlari va qoidalariga rioya qilish muloqot jarayonida odamlarning xatti-harakatlarini oldindan ko‘rsatib beradi, boshqalarga tushunarli qiladi, muloqotdagi u yoki bu ishtirokchining ijtimoiy rolini aniqlaydi. Aloqaga kirishmoqchi bo‘lgan kommunikantga kim bilan muomala qilishini ko‘rsatadi va buni o‘rganuvchi boshqalarga

bunday vaziyatda qanday harakat qilish kerakligini aniqlash imkoniyatini beradi;

- 19-asrning amerikalik yozuvchisi G.Toro yozganidek, odob-axloq bizga jangga qo‘shilish huquqini bermaydi [Стернин, 1996: 12]. Haqiqatan, nutq odob-axloq qoidalariga rioya qilish yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nizolarning oldini oladi. Odobli odam bilan hech kim ziddiyatga tushmaydi. Agar biron sababga ko‘ra mojaro hali ham davom etsa, odob-axloq qoidalariga rioya qilish bizga undan chiqishga imkon beradi yoki uning yanada kuchayishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Har bir inson bilan muloqot qilishda odob-axloq darajasini saqlab turish kerak. Suhbatdoshga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, har qanday noto‘g‘ri xatti-harakatlar uchun o‘z vaqtida kechirim so‘rash, xushmuomalalik qoidalariga va shu kabi boshqa nutqiy etiket me’yorlariga rioya qilish ham suhbatdoshga nutqiy ta’sir ko‘rsatish vositasidir.

Nutqiy etiketning kommunikativ maqsadlarini amalga oshirishda nutqiy etiket birliklari asosiy o‘rinni egallasa-da, nutqdan ko‘zlangan maqsad samarali yechim topishi uchun kommunikantlarga ham bir qator vazifalar belgilab qo‘yilgan. Kommunikativ vaziyat va undan ko‘zlangan maqsadlarni tadqiqotchilar N.I.Formanovskaya [Формановская, 2002: 42] va I.A.Sternin qarashlarida yaqqol tushunib yetishimiz mumkin. I.A.Sternin suhbatda ishtirok etuvchi suhbatdoshlarning vazifalari sifatida bir nechta funksiyani ajratib ko‘rsatadi [Стернин, 1996: 9]: **kontakt funksiyasi, intellektual funksiya, emotsional funksiya, kuzatuvchi funksiyasi**.

Bu funksiyalarning asosiy maqsadi suhbatdosh bilan kommunikativ aloqani saqlashga, o‘z nuqtayi nazarini muhokama qilish, o‘z fikrlarini ifodalash va suhbatdoshning fikrlarini tahlil qilishga, suhbatdoshning his-tuyg‘ulari va sezgilarini qo‘llab-quvvatlash, unga hamdardlik ko‘rsatish, o‘z his-tuyg‘ulari va sezgisini ifoda etishga, suhbatga o‘rinsiz va bevaqt aralashmaslikka, nutq so‘zlayotgan kishini hurmat bilan tinglashga, qolaversa, so‘zlash bilan birga eshitish etikasini ham shakllantirishga qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Анчимиук О. Речевой этикет в произведениях русской литературы XIX века. 2020.

2. Формановская Н.И. Речевое общение: коммуникативно-прагматический подход. – Москва, 2002.

3. Goldin V.E. Odob va nutq. – Saratov, 1987.

4. Hakimov M. O‘zbek pragmalingvistikasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2013.

5. Стернин И.А. Русский речевой этикет. – Воронеж, 1996.

6. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. нашриёти. – Жиззах: Сангзор, 2006.

7. Турдиева Ҳ.К. Нутқий этикет бирликларининг лингвопрагматик тадқиқи. Диссертация. –Тошкент, 2020.

8. Ярцева В.Н. (ред.). Языкознание. Большой энциклопедический словарь. – Москва, 1998.

ONA TILINING ILMIY VA BADIIY TALQINLARI

Musaboyeva Zulxumor,
Namangan davlat univesiteti
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada izohli, ensiklopedik lug‘atlar va yozuvchilar, shoirlar, tilshunos olimlarning lingvopublisistik asarlariga tayangan holda ona tili tushunchasining ilmiy va badiiy talqinlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: til, ona tili, ikkinchi ona tili, milliy til, milliy-madaniy qadriyat, davlat tili.

Annotation: The article covers explanatory, encyclopedic dictionaries and scientific and artistic interpretations of the concept of the native language, relying on the linguistic works of writers, poets, linguistic scientists.

Keywords: language, native language, second native language, national language, national-cultural value, state language.

Insonga eng aziz, suyukli kishi onadir. Shu boisdan *ona* so‘zi qo‘shib tavsiflanadigan sanoqli narsa va hodisalar bor: *ona tuproq, ona Vatan // ona yurt, ona xalq, ona tabiat* kabi. [1:489] Bularning bari inson uchun aziz va mo‘tabar. *Ona tili* ham insonga *ona, Vatan* kabi muqaddas va qadrlidir.

Ona tili bolaning go‘daklikdan kattalarga taqlid qilib o‘rgangan tili, tug‘ma til (odatda, gapiruvchi shaxs mansub bo‘lgan xalq tili). [2:489]

Qomusiy lug‘atlarda *ona tili* quyidagicha ta’riflangan: “Ona tili – har bir elatning, xalqning, millatning o‘z tili. Ona tili lug‘at tarkibi, asosan, shu tilga mansub xalqning turmushi, madaniyati va an’analarini ifodalaydigan so‘z va tushunchalardan iborat bo‘ladi. Ona tili taraqqiyoti har bir elat, xalq va millatning ijtimoiy rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq”. [3:541]

Insonning dunyoga keltirgan, oq sut berib, ulg‘aytirgan, tarbiyalagan shaxs bitta – u ham bo‘lsa, ona! Shunday ekan, “Ona tili bitta bo‘ladi!” [4:489]

Bu haqida fikr yuritgan N.Mahmudov: “Ammo odam har qancha tilni bilmasin, uning mukammal va tamomila o‘ziniki bo‘lgan tili faqat bitta bo‘ladi, bu, tabiiyki, uning o‘z ona tilidir. Faqat shu til onadan bevosita o‘tadi, butun sir-u sinoati, unda tajassum topgan milliy tafakkur tarsi bilan bevosita o‘zlashtiriladi. Boshqa har qanday til esa ayni shu ona tili vositasida o‘rganiladi”, – degan haqqoniy xulosani beradi. [5:12-13]

Sobiq sho‘ro tuzimi davrida ikkinchi ona tili degan soxta tushuncha shakllandi. Shu tarzda hukmron tilni ulug‘lashga urinishlar bo‘ldi, biroq bu siyosat o‘zini oqlamadi. “Milliy o‘zlikni, milliy ruhni muvozanatdan chiqarish uchun butun siyosat mashinasi safarbar qilingan qizil istibdod zamonida “ona tili” degan tushunchaning mohiyatini ham ishdan chiqarishga harakat qilindi. “Ikkinchi ona tili” degan mantiqsiz istiloh taomilga kiritildi. Ona faqat va faqat bitta bo‘lganidan keyin uning tili ham bitta bo‘lishi go‘dakka ham ma’lum…”. [5:15]

O‘zini o‘zbek deb bilgan har bir inson uchun o‘zbek tili ona tilidir. E.Vohidov qayd etganidek, “Ona tili umummillat mulkidir. Demak, til oldidagi mas’uliyat ham ham umummilliydir. Men o‘zbekman, degan har bir inson o‘zbek tili uchun qayg‘urmog‘i kerak”. [6:7] Bu, albatta, har bir o‘zbek uchun ham burch, ham farz, ham qarz!

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev uqtirganlaridek, “Ona tilimiz – milliy ma’naviyatimizning bitmas tuganmas bulog‘idir. Shunday ekan, unga munosib hurmat va ehtirom ko‘rsatish barchamizning nafaqat vazifamiz, balki muqaddas insoniy burchimizdir”. **[7]**

Erkin Vohidov qayd etganidek, “Ona tili – o‘zlik timsoli”. **O‘**z ona tilini sevmagan, til zamirida yotgan tarixni bilmagan, qiziqmagan odam barkamol sanalmas. O‘z tiling o‘z vataningdek aziz, o‘z onangdek tabarruk. [5:7]

Ona tili kishiga g‘urur, faxr tuyg‘usini baxsh etadi. Inson uchun dunyoda undan boyroq, go‘zalroq, qadrliroq, ulug‘roq til yo‘q. Buni O‘zbekiston Qahramoni shoir Erkin Vohidovning quyidagi fikrlari ham tasdiqlaydi: “ O‘zbek tili boshqalarga qandoq, bilmayman, lekin men uchun dunyoda eng boy, eng go‘zal, eng barkamol til. O‘zbekcha gapirib tilim chiqqan, qo‘limga qalam olib o‘zbekcha yozganman, qalbim sevinchlari va iztiroblarini o‘zbekchada qog‘ozga tushirganman. Unga mehrimni, minnatdorligimni izhor etib bir kitob yozsam degan niyatim

bor. Yozganlarim she’r bo‘lmasa-da she’rdek o‘qilsa, deyman. Ona tilimning ko‘rki, barvasta qomati sahifalardan bo‘y ko‘rsatib tursa, deyman.” [5:116]

O‘z ona tiliga hurmati bor odamgina boshqa tilga hurmat ko‘zi bilan qaray biladi, uni sidqidildan o‘rgana oladi. O‘z ona tilini unutsish evaziga o‘rganiladigan til chin odam bolasiga foydadan ko‘ra zarardir. Qolaversa, ona tilisiz insonning ma’naviy-ruhiy ildizlari sog‘lom bo‘lmaydi.

Milliy-ma’naviy olamning ustuvor ustuni, bukilmas tayanchi ona tilidir. Ona tilini tamoman unutish shaxsning etnomadaniy, milliy-ruhiy ildizlardan uzilishga, inson ongi va sajiyasidagi milliy-ma’naviy qadriyatlarning qadrlanishiga olib keladi.

Shu boisdan o‘zbek xalq maqollarida ham ona tili inson uchun jon, dil qadar ulug‘ligi ta’kidlanadi: “Ona tilim – jon-u dilim”.

Ona tiliga muhabbat bolaga alla bilan singdiriladi. N.Mahmudov bu haqida: “Hali tili chiqmagan, hali nafaqat til degan muhtasham olamdan, balki boshqa olamlardan ham mutloqo bexabar murg‘ak jonning ona tilidagi alladan, undagi oppoq ohang va onaning oydin orzu-umidlarini opichlagan so‘zlardan g‘ayrishuuriy bir tarzda huzur tuyub, adoqsiz orom aro sel bo‘lishi hayratli emasmi?” – deya yozadi.

Olimning talqinicha, “Ona tili shu qadar sohir va ilohiy qudratki, uning siyratiga yashiringan sinoatlarni batamom inkishof etmoq uchun inson aqlining sinchilik salohiyati ojizlik qiladi”. [5:9]

Inson borliqni, dunyoni va o‘zini ham ona tili vositasida anglaydi. Fikrimizni shoir E.Vohidovning quyidagi fikrlari ham tasdiqlaydi: “Ona tilini sevmasam, so‘zlariga mahliyo bo‘lmasam, hayratlanmasam menga shoirlik qayda edi!”. [6:9]

Har inson borliqni o‘zini, avlodini, tarixini hamda Vatanni ona tili vositasida anglaydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaga-nidek, “... Ona Vatanga muhabbat va sadoqat – ona tiliga muhabbat va sadoqatdan boshlanadi, desak, yanglishmagan bo‘lamiz. Men mana shunday qarash va tushuncha har bir yurtdoshimizning hayotiy e’tiqodiga aylanadi, bu borada muhtaram ziyolilarimiz, faol yoshlarimiz, keng jamoatchiligimiz barchaga o‘rnak va namuna bo‘ladilar, deb ishonaman”. [8]

Yapon professori Tadanobu Tsunoda: “Men insonning o‘z atrofidagi tovushlarni qabul qilishi, sezishi, o‘zlashtirishi va tushunishini ona tili differensiatsiya qiladi deb hisoblayman. Ona tili miyadagi emotsional (his-hayajon, kuchli tuyg‘u) mexanizmining rivojlanishi bilan bog‘liq. Bolalikda egallangan ona tili har bir etnik guruhning o‘ziga xos, betakror

madaniyati va ruhiy olamining shakllanishi bilan chambarchas bog‘liqdir deb o‘ylayman”, – degan xulosa chiqaradi. [5:1]

“Milliy ruhni shakllantiradigan, muntazam mustahkamlaydigan, uning ardoq bilan avaylab-asralishiga imkon beradigan eng odil omil ona tilidir”.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. III jild. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023.
2. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. VI jild. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопе-дияси, 2003.
3. Маҳмудов Н. Она тили битта бўлади // Тилимизнинг тилла сандиғи. – Тошкент: Ғ. Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2012.
4. Маҳмудов Н. Тил. – Тошкент: Ёзувчи, 1998. – 40 б.
5. Воҳидов Э. Сўз латофати. – Тошкент: O‘zbekiston, 2014. – 152 б.
6. Маҳмудов Н. Она тилимиз камоли // Халқ сўзи, 2015, 21 октябрь.
7. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining 30 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqidan // https: // *www. gazeta*. uz/ oz /2019/10/22/
8. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Она тилига садоқат – Ватанга муҳаббат тимсоли!” мавзусида маънавий-маърифий тадбирдаги нутқидан //https://president.uz/uz/lists/view.

МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ КАК СПЕЦИАЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ-ФИЛОЛОГОВ НА БАЗЕ СОЦИОКУЛЬТУРНОГО ПОДХОДА

Мамадалиева Саидахон Шухрат кизи,
преподаватель кафедры русского языка и литераттуры НамГУ
E-mail: m.saida@ mayl.ru

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы обучения русскому языку как специальности студентов-филологов на базе социокультурного подхода, социкультурные аспекты обучения русскому языку, при котором русский язык как язык-посредник становится инструментом приобщения студентов-филологов к ценностям культуры русского народа.

Ключевые слова: методика обучения, социокультурные аспекты, социокультурный подход ориентация обучаемого, познание, комплексный процесс, ценности культуры.

Annotation. Russian is considered in the article socio-cultural aspects of teaching Russian to students of philology, in which the Russian language as an intermediary language becomes an instrument of familiarizing students of philology to the values of the culture of the Russian people.

Keywords: socio-cultural aspects, socio-cultural approach, student orientation, cognition, complex process, cultural values.

В эпоху глобализации и интенсификации всех интеграционных процессов, неуклонно возрастает интерес к исследованию роли языка в овладении знаниями об объективной действительности, поэтому на современном этапе в преподавании русского языка как специальности повышается значимость социокультурного компонента содержания обучения

Формирование социокультурной компетенции в процессе обучения русского языка приобретает особое значение как средство воспитание вторичной языковой личности студентов, способных эффективно осуществлять межкультурное общение как повседневной жизни, так и в учебной-профессиональной сфере. Толерантность и позитивное отношение к носителям иноязычной культуры, аналитический подход к социокультурным явлениям могут быть привиты в ходе педагогического общения, способствуя проявлениям уважения, открытости, пониманию межличностных различий, отношений и партнёров. Анализ и сравнение фактов и явлений русской и родной культуры выступают важным условием вторичной социализации студентов, благодаря которой они создают уникальность русской культуры и приобретают знания о характерной для неё системе норм и ценностей. [1.8].

Сопоставление русского и узбекского языков в контексте настоящего исследования, ставящего своей целью усовершенствование методики обучения русскому языку как специальности студентов-филологов на базе социокультурного подхода, на данном этапе рассуждения является необходимым и уместным.

Данное сопоставление производится нами с учетом содержания разработанной нами системы кейс-заданий При изучении основ профессионального (учительского и академического) дискурса

русистики практически неизбежно проявляется интерферирующее влияние родного языка и родной культуры, что наблюдается при усвоении всех трех блоков социокультурных знаний: а) блока лингвострановедческих знаний; б) блока социально-психологических знаний; в) блока культурологических знаний. Произведем сопоставление русского и узбекского языков, исходя из содержания данных блоков, предполагаемого с учетом необходимости развития социокультурного подхода к обучению русскому языку как специальности студентов-филологов.

1. Блок лингвострановедческих знаний.

Блок лингвострановедческих знаний охватывает то, что в современной методике принято называть лингвострановедческой лексикой: «Лингвострановедческая лексика – это слова и словосочетания, в которых запечатлены характерные явления общественной жизни и культуры, условия жизни народа-носителя языка, его история, культура, национальные традиции, особенности быта, география страны и др.» [2.140]. Вполне очевидно, что здесь на первый план выступают такое явление, как безэквивалентная лексика. Под этим термином в науке подразумевают следующее: «Лексические единицы иностранного языка, не имеющие равнозначных соответствий в родном языке учащихся. В русском языке, например, выделена безэквивалентная лексика по следующим темам: историзмы; компоненты фразеологических единиц; фольклорная лексика; библеизмы; слова нерусского происхождения и др.» [4. 27]. Данный ряд, очевидно, может быть расширен за счет включения такого явления как этнографизмы. Этнографизмы – это слова, обозначающие специфически русские реалии, такие, как, например, культурные бренды России (типа *хохлома, палехская роспись, кудринская резьба* и под.)

В предпринятой нами разработке в той или иной степени акцентированы историзмы, фразеологизмы и некоторые этнографизмы.

Безэкивалентные слова нередко встречаются в составе фразеологизмов, т.е. устойчиво воспроизводимых в речи сочетаний слов. Заметим, что фразеологизмы сами по себе представляют важный компонент лексической системы, поскольку наравне с лексемами выступают в качестве строевых единиц языка. Для нас наиболее важным здесь является тот факт, что фразеологизмы практически никогда не подлежат дословному переводу, поскольку в

одних случаях имею производно-переносное значение (фразеологические единства), а в других случаях их значение совершенно не мотивировано семантикой входящих в их состав компонентов (фразеологические сращения, или идиомы). Кроме того, в состав фразеологизмов нередко входят безэквивалентные лексемы, ср.: *в Тулу со своим самоваром не ездят, семь пядей во лбу, Тришкин кафтан* и т.п.

Приведенные примеры фразеологизмов принципиально не допускают дословного перевода на узбекский язык. Их понимание возможно только при наличии необходимых фоновых знаний истории русской культуры. Например, фразеологическое сращение *в Тулу со своим самоваром не ездят* требует разъяснения того факта, что русский город Тула славился своим производством самоваров в промышленных масштабах. Тульский самовар есть не что иное, как один из культурных брендов России. При этом и само слово «самовар» является безэквивалентной лексемой и требует разъяснений и иллюстраций.

Как видим, многие фразеологизмы несут в себе символику, понятную только в контексте только в контексте русской культуры. Следовательно, социокультурный и лингвокультурологический аспекты русской фразеологии представляют собой важное измерение языка, в котором отражаются культурные особенности русского народа. В.Н. Телия обоснованно считала, что фразеологический состав языка - это «зеркало, в котором лингвокультурная общность идентифицирует свое национальное самосознание» [3.45]. Фразеология, как часть языка, не просто служит средством передачи информации, но и передает (а нередко и навязывает носителям языка) нравственные принципы и социальные нормы, поскольку абсорбирует в себе исторический опыт, культурные традиции, мировосприятие, общества.

Интерферирующее влияние узбекского языка при изучении русской фразеологии может проявляться, прежде всего, как результат влияния узбекской языковой картины мира в целом. Заметим, что современном узбекском языкознании проблемам исследования узбекской национальной языковой картине мира уделяется весьма глубокое внимание. Так, Т.С. Худайберганова дает этому термину следующее определение: «Языковая картина мира – совокупность привычных и обязательных способов восприятия мира, исторически сложившихся в сознании конкретного языкового сообщества,

зафиксированных в его языке и характерных для этого конкретного сообщества; представляет собой совокупность универсальных и в то же время национально специфических способов восприятия и концептуализации мира” [6.33] (*перевод с узбекского наш – С.М.*). Указываемая здесь спецецифическая форма восприятия и концептуализации мира узбекским этносом в особенности сильно может влиять на процесс изучения русской фразеологии.

2. Блок социально-психологических знаний.

Блок социально-психологических знаний применительно к студентам-филологам, прежде всего, касается употребления лингвистических терминов.

В ходе исследования нами были подготовлены опросные листы, которые были предложены студентам вторых курсов образовательного направления бакалавриата 60230100-Филология и обучение языкам (русский язык) Наманганского государственного университета и Ферганского государственного университетов (Приложение 2). Цель заполнения данных опросных листов заключалась в выявлении имеющегося у студентов понимания тех базовых лингвистических терминов, большинство из которых должно было быть усвоено по школьным программам русского (как родного) либо узбекского (как родного) языков. Для обеспечения достоверности результатов опрос проводился только со студентами первых курсов в сентябре 2022-2023 учебного года. В нем приняли участие 122 студента. По его результатам оказалось возможным сделать ряд выводов общего характера касательно узбекско-русской межъязыковой интерференции, проявляющейся в области лингвистической терминологии. Разумеется, далеко не все из предложенных нами терминов получили в студенческих ответах толкования, являющиеся следствием интерференции, однако их, тем не менее, наблюдается достаточно много. Остановимся на наиболее характерных из них.

Например, давая определение термину *литературный язык*, многие студенты рассуждают о литературном языке, как о языке, «разработанном» или «созданном» по определенным правилам на основе общенародного языка, в то время как литературный язык есть высшая, нормированная форма *развития* национального языка. Это позволяет нам соотнести подобные формулировки с тем определением, которое для данного термина предложено в словаре лингвистических терминов Н. Махкамова: «ADABIY TIL . 1. Ma’lum

bir til qoidalari asosida tuzilgan, ishlangan til. Adabiy tilning ikki shakli bor: l) yozma shakli; 2) og'zaki shakli» [Mahkamov, 2013, c. 12]. Заметим, что примерно в той же парадигме лингвистического мышления находятся и определения, даваемые студентами понятию *языковой нормы*: многие студенты рассуждают о языковой норме как о правилах, которые установлены для “книжного языка” и отличают его от “диалектной речи”. Сами понятия “книжный язык” и “диалектная речь” на самом деле отражают характерные для узбекской концептосферы стереотипические представления о противопоставленных формах существования национального языка – “*китоб тили*” и “*шева*”. Заметим, что в русской концептосфере в текущем ее состоянии на первом плане находится стереотипическое представление о противопоставлении литературного языка и городского просторечия (а не литературного языка и территориальных говоров).

Определяя содержание таких понятий, как *синонимия* и *антонимия*, многие студенты приводили примеры из родного языка. Точно также толкование терминов *архаизм* и *историзм* во многих ответах снабжено примерами из родного языка.

Таким образом, явления многозначности и синонимии во многом реализуют национально-культурную специфику, что также является весомым аргументом в пользу необходимости развития социокультурного подхода к обучению студентов-филологов русскому языку как специальности.

В заключении можно отметить, что социокультурный подход как базисная категория методики преподавания русского языка как иностранного опирается на традиции отечественной и зарубежной методики преподавания иностранных языков и развития лингводидактической науки.

Использованные литературы:

1. Ахмедова Л.Т. Теория и практика обучения профессиональной русской речи студентов-филологов (на материале художественных текстов): Автореф. дисс… д-ра пед.наук. – Ташкент, 2012. – 48 с.

2. Азимов Р.А.,Щукин А.И..Словарь методических терминов (теория и практика преподавния языков). СПб., 1999. – 471 с.

3. Абузяров Р.А.Социолингвистические аспекты обучения русскому языку учащихся национальных школ. – Ташкент, 1986.

4. Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. Язык и культура. Лингвострановедение в преподавании русского языка как иностранного. – М., 1990.

5. Дэвидсон Д., Митрофанова О. Функционирование русского языка: методический аспект // Русский язык и литература в общении народов мира. – М., 1990.

6. Мильруд Р.П. Актуальные проблемы методики обучения иностранным языкам за рубежом. – М., 2004.

7. Чумак Л.Н. Сопоставительное лингвокультуроведение: принципы, методы, словари. – М., 2003.

8. Щукин А.Н. Методика преподавания русского языка как иностранного. – М., 2003. – 78 с.

ILMIY MATNLARDA QO'LLANILUVCHI MIQDOR SO'ZLARNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Egamberdiyeva Nilufar Latibjon qizi,
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti,
E-mail: Egamberdiyevan96@gmail.com
Tel: +998996493796
ORCID iD: 0009-0005-40437121

Annotatsiya: Ushbu maqolada ilmiy matnlarning til xususiyatlari doirasida miqdor ma'nosini yuzaga chiqaruvchi vositalarning ahamiyati va funksiyalari tahlil qilinadi. Miqdor ifodalovchi birliklarning ilmiy matnlardagi vazifasi ko'rsatiladi, ularning matnning obyektivligi, aniqligini ta'minlashdagi va tahliliy imkoniyatlarni yaratishdagi hissasi ko'rsatiladi. Maqolada ilmiy matnlar tilining o'ziga xosligi nuqtai nazaridan miqdor konseptining til vositalari orqali qanday ifodalanishi, bu vositalarning matnning semantik va stilistik tuzilmasiga qanday hissa qo'shishi tahlil qilinadi. Shuningdek, aniq va noaniq miqdor ifodalovchi birliklarning ilmiy matndagi o'rni, ularning pragmatik va kommunikativ funksiyalari yoritiladi.

Kalit so'zlar: matnshunoslik, ilmiy matn, miqdor konsepti, ilmiy uslub, aniq sonlar, noaniq midor ifodalovchi birliklar, hisob so'zlar.

Annotation: This article analyzes the significance and functions of linguistic means that express the concept of quantity within the context of scientific texts. It explores the role of quantitative expressions in scientific discourse and highlights their contribution to ensuring objectivity, clarity, and analytical precision in the text. The article analyzes how the concept of

quantity is expressed through linguistic means from the perspective of the distinctive features of scientific language, as well as how these means contribute to the semantic and stylistic structure of the text. Additionally, it examines the role of precise and imprecise quantifiers in scientific writing, highlighting their pragmatic and communicative functions.

Keywords: text linguistics, scientific text, concept of quantity, scientific style, exact numerals, indefinite quantifiers, classifiers.

Matn tilshunosligi bugungi kunda tilshunoslikning dolzarb sohalaridan biri bo'lib, matnni yaxlit kommunikativ birlik sifatida o'rganadi. Matnshunoslikda matnning tuzilishi, mazmuni, uslubi va funksional xususiyatlari chuqur tahlil qilinadi [Сирожиддинов, 2019: 20]. Ayniqsa, ilmiy matnlarda bu holatlar o'ziga xos ko'rinishda namoyon bo'ladi. Ilmiy uslub o'zining aniqligi bilan ajralib turadi. Bu xususiyatni ta'minlashda miqdor ifodalar muhim rol o'ynaydi. Ayon bo'lganidek, miqdor tushunchasi borliqdagi muhim xususiyatlarni aks ettiradi. Predmet, shaxs, belgi va jarayon kabilarning soni, hajmini bildiradi [Egamberdiyeva, 2023: 465]. Miqdor ma'nosini yuzaga chiqaruvchi vositalar orqali ilmiy matnda keltirilgan dalillar, tajriba va statistik ma'lumotlar aniq va ishonchli ko'rinishga ega bo'ladi.

Ilmiy uslubdagi asosiy mezonlar: aniqlik, mantiqiy izchillik, obyektivlikdir [Begimov, 2024: 59]. Shuningdek, atamalar, rasmiy ifodalar va dalillarga tayangan bayon qilish usuli bu uslubga xosdir. Miqdor bildiruvchi birliklar aynan shu talablarga xizmat qiladi. Ular matnni qisqa va ishonchli, dalillangan holda yozilishiga katta hissa qo'shadi.

Ilmiy matnlarda turli miqdor birliklari ishtirok etadi. Ulardan birinchisi aniq sonlardir. Ular ilmiy matnda markaziy o'rinni egallaydi va uning ilmiylik darajasini belgilovchi asosiy vositalardan biridir [Xaiytbayeva, 2025: 36]. Ko'pincha, aniq sonlar ilmiy matnlarda quyidagi ko'rinishda ishlatiladi: 2 marta, 600 ta namuna, uch karra, 40%, 2025-yil, 1000 nafar ishtirokchi. Bu ifodalar matnni noaniqlikdan xalos etadi va bahslarga imkon qoldirmaydi. Ularni matn orqali tahlil qiladigan bo'lsak, yanada aniq ko'rinishda namoyon bo'ladi.

2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "Farmasevtika sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 3 barovar ko'paytirish va mahalliy bozorni ta'minlash darajasini 80 foizga yetkazish" bo'yicha amalga oshirilishi muhim bo'lgan vazifalar belgilab berilgan [Mamatkulova, 2025: 8].

Keltirilgan matn qismida 2022-2026 sonlari vaqt miqdorini, 3 raqami esa ishlab chiqarish hajmining ko’rsatkichini, 80% ifodasi jarayon darajasini aniq ifodalashga xizmat qilgan. Shu bilan birga ular taqqoslash va dinamikani ko’rsatishga ham hissa qo’shgan.

Sarimsoqpiyozning “Mayskiy VIR” va piyozning ”Ravnaq” navlarini quruq ekstraklari tarkibidagi β-karotinoidlar miqdori mos ravishda 19,40 mg % va 21.46mg % ekanligi spektrofotometrik usulda aniqlangan [Mamatkulova, 2025: 11].

Ushbu jumlada ham sonlar 19,40mg va 21,46mg tajribadan olingan natijalarning aniq ko’rsatkichini ifodalab kelgan. Bu holat ,ayniqsa, tadqiqot, tajriba asosida yozilgan matnlarda muhim o’rin tutadi. Chunki undagi kichik son ham tajribaning ishonchliligini ta’minlashi yoki sifatini oshirishi mumkin. Ikkinchi gapda keltirilgan aniq sonlar asosli natijani hujjatlashtirgan.

Bundan tashqari ilmiy matnlarda noaniq miqdor ifodalovchi birliklar ham qo’llaniladi. Ularga misol qilib bir qancha, asosiy qismi, ko’pchilik, ayrim hollarda, kamchiligi, aksariyat kabilarni keltirish mumkin. Misol uchun: *Ayrim mikroorganizmlar keltirib chiqaradigan teri kasalliklarini davolash, oldini olish xususiyatiga ega bo‘lgan, sarimsoqpiyoz va piyoz kukunlari saqlovchi tabiiy malham hamda oziq-ovqat qo‘shilmalari uchun TIF TN bo‘yicha yangi xalqaro tovar kod raqamlari ishlab chiqilgan. . Ma’lumki dunyo farmasevtikasida, oziq-ovqat sanoati hamda qishloq xo’jaligi sohalarida tarkibida sarimsoqpiyoz va piyoz kukunlari saqlovchi bir qancha mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda. Yuqoridagi ma’lumotlardan ko’rinib turibdiki, sarimsoqpiyoz va piyoz ildizmevasi tarkibida B–guruh vitaminlar umumiy vitaminlarning asosiy qismini tashkil etadi [Mamatkulova, 2025: 15].*

Yuqorida keltirilgan matnda ayrim, bir qancha, asosiy qismi kabi miqdor ma’nosini ifodalovchi birliklar noaniq miqdor ma’nosini ifodalab obyektivlik va ehtiyotkorlikni ta’minlashga xizmat qilgan. Ilmiy matnda har bir fikr dalilga tayanishi kerak [Oqmonova, 2023: 93]. Ammo ba’zida umumlashtirish yoki aniqlashtirilmagan natijalarni bayon qilish zarur bo’ladi. Noaniq miqdor ifodalovchi so’zlar tadqiqot muallifiga ehtiyotkorlik bilan fikr bildirish, taxmin yoki ehtimoliy xulosani ilgari surish imkonini beradi. Har doim ham statistik aniq natijalar mavjud bo’lavermaydi. Bunday vaziyatlarda noaniq miqdor so’zlar mavjud kuzatishlarni ifodalashga yordam beradi. Bu ilmiy halollikni saqlashga xizmat qiladi. Yana shuni aytib o’tish joizki, bu birliklar matndagi fikrlarni umumlashtirish va klassifikatsiya qilish imkoni ham beradi. Yuqoridagi

matnning uchinchi jumlasida aynan shu holat ko’rsatilgan. Faqatgina aniq sonlardan iborat matn ba’zida quruq va statik ko’rinishga ega bo’ladi. Noaniq miqdor birliklari esa ilmiy uslubga biroz yumshoqlik va tahliliy ruh bag’ishlaydi.

Ilmiy matnlarda faol ishtirok etadigan miqdoriy birliklardan yana biri bu hisob so’zlardir. Hisob so’zlar predmet, jarayonlarni hajm, shakl, og’irlik jihatidan miqdorini ko’rsatadi. Miqdor konseptini ifodalashda hisob so’zlar alohida ahamiyatga ega. Chunki ular sondan anglashilgan miqdor ma’nosini yana ham aniqlashtirib, to’ldirib ifodalashga xizmat qiladi [Egamberdiyeva, 2022: 173]. Hisob so’zlar son so’z turkumi bilan birga qo’llanib son orqali ifodalanayotgan miqdor ma’nosini yana ham aniqlashtirishga xizmat qiladi. Miqdor ma’nosini og’irlik, uzunlik, o’lchov va bir qancha o’ziga xos ma’nolar bilan boyitadi. Masalan: *Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, mahalliy sharoitda yetishtirilgan sarimsoqpiyoz va piyozni suvli ekastraktlari tarkibida oltingugurt saqlovchi organik birikmalar miqdori mos ravishda 100 g mahsulotda 0.238 mg, 0.213 mgni tashkil etishi tajribalarda o‘z tasdig‘ini topdi. V0-namuna tajribasida ortib qolgan 0.1 mol/l sulfat kislota eritmasini titrlash uchun sarflangan 0.1mol/l natriy gidroksid eritmasining hajmi, ml [Mamatkulova, 2025: 15].*

Ushbu matnda gramm, milligram, mol, mil kabi hisob so’zlar ishtirok etgan. Ta’kidlab o’tganimizdek, ushbu hisob so’zlar 0.238, 0.213, 0.1 sonlaridan anglashilib turgan miqdor ma’nosini aniq va to’liq ifodalab kelgan. Bu esa miqdoriy tahlil va natijalarga asoslangan sohalarda juda ham muhim o’rin tutadi va matnning aniqlik, ishonchlillik, ilmiylik, dalillanganlik darajalarini oshiradi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, miqdor so’zlar ilmiy matnlarda aniq, asosli va lo’nda bayon qilish vositasi sifatida namoyon bo’ladi. O’zbek tilidagi ilmiy matn asosida olib borilgan tahlillar shuni ko’rsatadiki, miqdor ifodalovchi birliklarning turlari va ularning to’g’ri qo’llanilishi matn sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Сирожиддинов Ш. Матншунослик сабоқлари. – Тошкент: Navoiy universiteti nashriyot matba uyi, 2019. – 128 b.
2. Egamberdiyeva Nilufar. MORFOLOGIK SATHDA MIQDOR KONSEPTINING VOQELANISHI: OT VA SON SO‘Z TURKUMLARI MISOLIDA. Educational Research in Universal Sciences VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 3| 2023, 464-468 b.

3. Odil To’xtamishovich Begimov. “ILMIY VA BADIIY USLUBGA TEGISHLI MATNLARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI“ Academic research in educational sciences, vol. 5, no. 11, 2024, pp. 57-66.
4. Shohista Bahodir Qizi Xaiytbayeva. “ILMIY MATNNING KOMPLEKS TAHLILI“ Central Asian Academic Journal of Scientific Research, vol. 3, no. 1, 2025, pp. 34-37.
5. Mamatkulova O‘gilxon Odilovna. Sarimsoqpiyoz va piyoz asosida xalq tabobatida foydalanish uchun tovarlar olish va ularni sinflash. Avtoreferat. – Antijon: Tabobat akademiyasi nashriyoti, 2025. – 48 b.
6. Oqmonova Sevinchoy Olloyor qizi “ILMIY MATNLARNI TAHLIL QILISHNING AHAMIYATI” CENTRAL ASIAN JOURNAL OF EDUCATION AND INNOVATION Volume 2, Issue 6, Part 3 June 2023, pp. 92-94.
7. Egamberdiyeva Nilufar Latibjon Qizi. “O’ZBEK TILIDA MIQDOR KONSEPTNING IFODALANISHIDA HISOB SO’ZLARNING AHAMIYATI“ Research Focus, vol. 1, no. 2, 2022, pp. 172-175.

RAXSHONA AHMEDOVANING “ORZU VA DENGIZ” HIKOYASI LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

Munavvarova Moxira Abduxalil qizi,
Namangan Davlat Uuniversiteti tayanch doktoranti,
E-mail: *mohiramunavvarova2@gmail.com*
Tel.+*998886221190*

Annotatsiya: mazkur maqolada zamonaviy o‘zbek nasrining rivojlanish yo‘nalishlari va uning badiiy-estetik qirralari yoritib beriladi. Xususan, Raxshona Ahmedovaning “Orzu va dengiz” hikoyasining lingvopoetik xususiyatlari tahlil qilinadi. Ushbu asar orqali muallifning badiiy tasvir vositalari, personajlarning ruhiy holati, ramz va timsollar orqali ifodalangan fikrlarning teranligi ko‘rsatib o‘tiladi. Maqola zamonaviy o‘zbek nasri ijodkorlarining asarlarida milliy qadriyatlar va global masalalarning uyg‘un tasviri qanday amalga oshirilayotganini tahlil qilishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, adabiyotimizning yangi bosqichidagi ijodiy izlanishlar va adiblarning badiiy mahorati yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *zamonaviy o‘zbek nasri, lingvopoetika, Raxshona Ahmedova, “Orzu va dengiz”, milliy qadriyatlar, ramz va timsollar, badiiy-estetik tahlil, ijodiy izlanishlar.*

Annotation: this article highlights the developmental trends of modern Uzbek prose and its artistic-aesthetic dimensions. Specifically, it analyzes the linguistic and poetic features of Raxshona Ahmedova's short story “Orzu va Dengiz“ (“Dream and the Sea“). Through this work, the author’s artistic imagery, the psychological state of the characters, and the depth of ideas expressed through symbols and allegories are examined. The article aims to explore how the works of contemporary Uzbek prose writers harmoniously depict national values alongside global issues. Additionally, it sheds light on the creative endeavors and literary mastery demonstrated in this new phase of Uzbek literature.

Keywords: modern Uzbek prose, linguopoetics, Raxshona Ahmedova, “Orzu va Dengiz,“ national values, symbols and allegories, artistic-aesthetic analysis, creative exploration.

Zamonaviy o‘zbek nasri yangi ijodiy usullar, badiiy ko‘lam va mavzu qamrovi bilan milliy adabiyotning boy xazinasini yanada yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Adabiyotimizning bu bosqichida inson ruhiyati, jamiyatdagi o‘zgarishlar va o‘zbek xalqining qadriyatlari teran ifodalanayotgan asarlar yaratilmoqda. Xususan, adiblar tomonidan zamonamizning dolzarb masalalari, orzu-intilishlar va inson taqdirining murakkab jihatlarini tasvirlash borasida yangi badiiy yo‘nalishlar sinovdan o‘tkazilmoqda. Ushbu jarayonda Raxshona Ahmedova kabi zamonaviy adiblarning ijodi alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur asarning badiiy jihatlarini o‘rganish zamonaviy o‘zbek nasrining rivojlanish yo‘nalishlarini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Har bir adibning o‘ziga xos yozuv uslubi, til boyligi va badiiy tasvir vositalari uning asarlarini boshqalardan ajratib turadi. Ijodkorning “Orzu va dengiz“ hikoyasi – inson orzulari va ularning amalga oshishiga bo‘lgan ishonchning ramzi sifatida yaratilgan asar. Ushbu maqolada hikoyaning lingvopoetik xususiyatlari, ya’ni tilning badiiy ifoda vositalari va poetik unsurlarini tahlil qilamiz.

“Orzu va dengiz“ hikoyasi bosh qahramonning o‘z orzularini amalga oshirish yo‘lidagi kurashini tasvirlaydi. Unda orzu dengiz obrazida gavdalantirilgan bo‘lib, bu dengiz insonning ichki dunyosi, umid va orzularining cheksizligini ifodalaydi. Hikoyada qahramonning ichki monologi va tashqi dunyo bilan bog‘liq voqealar orqali hayotiy masalalar yoritiladi. – ***Keldim, Orolim, keldim. Bugun yana seni sog‘inib keldim. Kelishimni intiq kutdingmi?*** *– ming‘irlaydi ota o‘zi eshitadigan bir ovozda.*

– «Xush kelding!» – degandek to‘lqinlar qirg‘oqqa shoshiladi, ko‘pikli suv otaning tizzalarini bir quchib qo‘ygandek, yana ortga qaytadi. Asarda Amangeldi ota bilan Ayjan xola. Suv to‘lqinlari chekindi, qum barhanlarigina qoldi. Qishda juda sovuq, yozda juda issiq. Tuz bo‘ronlari ichida yashab kelayotgan bu chol-kampir o‘g‘li bilan birga shaharga ko‘chib ketsa bo‘lardi. Yo‘q, ona yurtini boricha sevib, o‘lgunicha Orolning qaytishini kutdilar. [R. Ahmedova, “Soyabon ostida”, 2021: 36] Bu o‘rinda muallif Amangeldi ota ichki monologi orqali quvonch va hayajonlari ifodasini aks ettirgan.

Hikoyada ko‘plab badiiy tasvir vositalari qo‘llangan bo‘lib, ular o‘quvchini asarning mazmuni va qahramonlar his-tuyg‘ulariga chuqurroq singdiradi. Jumladan:

Metafora: “Orzular dengizi“ – bu obraz orzularning beqiyosligi va ularga yetishishning murakkabligini ifodalaydi. Idishdagi suv tugagach, ota bo‘sh idishni orqaroqqa, to‘lqinlar yetolmaydigan yerga uloqtiradi. So‘ng yana Orolga yuzlanadi.– *Senga suv olib keldim-da, Orolim. Senga suv olib keldim. Endi qaytmasang bo‘lmaydi, sensiz ko‘p qiynalib qoldik. Orolim, bizdan xafa bo‘lganing yetar, bizni jazolaganing yetar, bo‘ldi endi qayt, arazingni yig‘ishtir. Sening dengiz bo‘lganingni ko‘rib keyin ketaman, ungacha o‘lmayman, Orolim. Seni ko‘p xafa qildik, bilaman, Sayxun bilan Jayxunning yo‘lini to‘sdik, bilaman, seni o‘ylamadik, bilaman. Sen bizdan arazlading, xafa bo‘lding, bilaman. Qani endi, qo‘limda bo‘lsa ekan, har ikki daryoyingni sengacha olib kelardim. Qani endi qo‘limda bo‘lsa ekan, seni suvga to‘ldirardim. Orolim sen ham ularni tushungin-da. Ularga ham suv kerak, ular ham bolasini boqishi kerak, paxtasiga qaramasa, sholisini sug‘ormasa, qanday turmush kechiradi, axir. Ular ham o‘zini o‘ylaydi, mana men seni o‘ylayman, Orolim. Qayt, yana avvalgidek dengiz bo‘l, Orol, – ota ko‘zidagi yoshni tirish bosgan qadoq kaftlari bilan artarkan to‘lib ketadi. – Bizni kechir, Orolim. Qaytmasang bo‘lmaydi. Bolalarim, nabiralarim-ku mayli, ulg‘ayishdi, sening ertaklaringni aytdik, seni tasavvurlarida jonlantirdik.* [R. Ahmedova, “Soyabon ostida”, 2021: 36]

“Moviy dengiz“, “cheksiz umid“, “yorqin orzular“ kabi epitetlar hikoyaga poetik ruh bag‘ishlaydi. Dengiz obrazi hikoyaning markaziy ramzi sifatida xizmat qiladi. Dengiz orzularning cheksizligini, lekin shu bilan birga ularning amalga oshishida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni ham ifodalaydi. Shuningdek, shamol, to‘lqin va quyosh obrazlari insonning turli xil his-tuyg‘ularini ramziy ma’noda ifoda etadi. *‘‘Ayjan xolaning ko‘zlari yoshlandi. Otaning ham ko‘ngli yumshadi. Biroq Orolini*

tashlab ketarmidi? Yo‘q, tashlab ketmaydi. Shu yerda tug‘ildi, shu yerda ulg‘aydi. Ota-bobolarini bag‘riga olgan shu makonni tashlab ketishga ko‘zi qiyarmidi, yo‘q. Tuz bo‘ronlari tursa, nima bo‘pti. Sahroga aylangan bo‘lsa, nima bo‘pti. Baribir tashlab ketmaydi. Orol bir kuni qayta dengizga aylanishini kutadi”. [R. Ahmedova, “Soyabon ostida”, 2021: 43]. Ushbu parcha insonning vatanparvarlik, mehr va sadoqat tuyg‘ularini ifoda etadi. Ayjan xolaning ko‘zlaridagi yosh va otaning qalbidagi yumshoqlik bu hissiyotlarning teranligini ko‘rsatadi. Ona yurtga bo‘lgan cheksiz muhabbat, uni qiyinchiliklarga qaramasdan tark etmaslik va umid bilan yashashga bo‘lgan intilish badiiy tarzda tasvirlangan. “Orol bir kuni qayta dengizga aylanishini kutadi” degan satrlar orzuga intilish va kelajakka ishonchning ramzi sifatida talqin qilinadi. Ushbu tasvir nafaqat Orolning, balki inson qalbining qudratli sabr va umid kuchini ham aks ettiradi.

Raxshona Ahmedova o‘z hikoyasida sodda va badiiy tilda yozadi. Jumlalarning tuzilishi soddaligiga qaramay, ularda chuqur ma’no yashiringan. Qahramonning ichki monologi va tabiat tasvirlari hikoyaning asosiy mazmunini ochib berishda muhim ahamiyatga ega. *‘‘Orol ko‘pik to‘lqinlarini cholning ortidan yuboradi, qirg‘oqqa yugurgan to‘lqinlar yana shunday tezlik bilan ortga qaytadi. Amangeldi ota buni o‘zicha tushunadi, menga ‘‘xayr’’, demoqda, ‘‘ortingdan boraman’’, demoqda, deb o‘ylaydi’’.* R. Ahmedova, “Soyabon ostida”, 2021: 36]

Hikoya matnida ritmik tuzilishga alohida e‘tibor qaratilgan. Jumladagi ohangdorlik va intonatsiya o‘quvchida ma’lum bir kayfiyatni uyg‘otadi. Masalan, dengiz tasvirlangan joylarda matn ohangdor bo‘lib, qahramonning ichki kechinmalari tasvirlangan qismlarda intonatsiya jiddiylashadi. *– Ey Orol, yig‘lamaysanmi? Endi seni ko‘rgani keladigan, sening mehriboning yo‘q. Senga har kuni suv olib keladigan Xizring yo‘q. Ko‘rgani bormaysanmi, hech yo‘q, qabrini ziyorat qilmaysanmi? Qarzingni to‘lamaysanmi? Seni to‘lganingni ko‘rolmagan otam-a, seni suvga to‘ldirolmagan otam-a. Sening armoning bilan o‘tib ketgan otam-a, otam.*

Ovozi bo‘g‘ilib, kuchi qolmay yuztuban yiqildi. Orol ko‘pik to‘lqinlari bilan uning yuzini chayishga oshiqardi. Orol qoshida bir inson sajda qilib yotardi. Orol esa jim. Hech bir sado bermas, mayus kuzatardi, xolos’’ [R. Ahmedova, “Soyabon ostida”, 2021: 43]. Ushbu parcha ritm va intonatsiya jihatidan o‘ziga xos va chuqur badiiy tuzilishga ega.

Tengliksiz ritm: Matn to‘lqinsimon tuzilgan bo‘lib, qisqa va uzoq jumlalar navbati bilan keladi. Bu usul inson his-tuyg‘ularidagi notinchlik

va qayg‘uni aks ettirishga xizmat qiladi. Masalan, *“Ey Orol, yig‘lamaysanmi?”* so‘rog‘i qisqa va keskin, tinglovchini hushyorlikka chorlaydi. Keyingi jumlalar esa cho‘zilib, ohangdorlik kasb etadi: *“Endi seni ko‘rgani keladigan, sening mehriboning yo‘q”.*

Ritmik takrorlanish: *“Otam-a”* kabi so‘zlarning takrorlanishi matnga musiqiy ohang beradi va ma’noni kuchaytiradi. Bu takrorlovlar qayg‘uni tinglovchiga yanada yaqinroq his qilish imkonini beradi.

So‘roq ohanglari: Parcha ko‘p qismi so‘roq gaplar bilan to‘ldirilgan bo‘lib, har bir savol ijodiy usulda Orolning holatiga chuqur achinishni ifodalaydi: *“Senga har kuni suv olib keladigan Xizring yo‘q.”* Bu his-tuyg‘ulardagi murakkablikni ifoda qiladi.

Tinish va pauzalar: *“Otam-a, seni suvga to‘ldirolmagan otam-a.”* so‘zlari orasidagi pauzalar o‘quvchini o‘yga toldiradi va jumlalarga emotsional ta’sir beradi.

Ohista sustlashish: Matnning yakunida, *“Orol esa jim. Hech bir sado bermas, mayus kuzatardi, xolos”,* degan satrlar bilan intonatsiya pasayadi. Bu jimjitlik va fojeaviy yakunni ramziy tarzda aks ettiradi.

Mazkur parchaning ritm va intonatsiyasi qahramonning ichki iztiroblarini, vatan va tabiatga bo‘lgan muhabbatni, shuningdek, insonning Orolga nisbatan ma’naviy qarz tuyg‘usini chuqur ifoda etadi. Ushbu usullar hikoyaning lingvopoetik qudratini oshiradi va o‘quvchini asar voqealariga yanada yaqinlashtiradi.

Xulosa qilib aytganda, Raxshona Ahmedovaning “Orzu va dengiz“ hikoyasi lingvopoetik jihatdan boy va mazmunli asar hisoblanadi. Unda qo‘llangan tasviriy vositalar, ramziy obrazlar va poetik til o‘ziga xosdir. Bundan tashqari, milliy muhit, milliy qadriyatlar, milliy ijodiy an’ana va milliy dunyoqarashni asarlarida aks ettira olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Yo‘ldashev M. va boshqalar Matn lingvistikasi, o‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2020 .
2. Ahmedova R. Soyabon ostida. – Toshkent, 2021.
3. Ahmedova R. Tushunarsiz sevgi izhori. – Toshkent, 2023.
4. Quronov D. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent, 2010.
5. O‘zbek adabiy tanqidi. – Toshkent: Turon-iqbol, 2001.

YURIDIK NUTQ: TILSHUNOSLIK VA HUQUQSHUNOSLIK KESISHMASIDA

Xamdamova Muyassarxon Nematovna,
Farg‘ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi,
E-mail**:**muassarhamdamova@gmail.com
ORCID 0009-0000-8048-7522
Tel.(+99890) 300-25-86

Annotatsiya: Yangi O‘zbekistonda qonunlar tili va uslubi, huquq terminologiyasi muammolari hamda yuristning nutq madaniyati masalalari tobora muhim ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda. Chunki har qanday islohotlar qonunlarni o‘zgartirmasdan amalga oshirilmaydi. Bu esa o‘z-o‘zidan yangi-yangi til birliklari – so‘z va terminlarning, shakllarning rivoj topishiga yo‘l ochadi. Shu bilan birga, barcha huquqiy hujjatlar, xususan, har bir protsessual hujjat matnlari ham yuridik va lingvistik jihatdan xatosiz, savodli tuzilishi kerak. Huquq va til me’yorlariga muvofiq darajada tuzilgan matnlar huquq va tergov organlarining ham, sud organlarining ham nufuzini oshirib, qabul qilingan qaror mohiyatini tushunarli qiladi. Shu sababli mazkur maqolada soha terminlari asosida shakllanuvchi yuridik nutq fenomeni tilshunoslik va huquqshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Yuridik nutqning kommunikativ funksiyalari, lingvistik strukturalari, ijtimoiy va institutsional kontekstdagi roli o‘rganiladi. Shuningdek, yuridik til va nutqning zamonaviy huquqiy tizimdagi o‘zgarishlari tahlil qilinadi. Yuristning nutq madaniyati va sud ishtirokchilari nutqining o‘ziga xosligi, undagi muhim jihatlarga e’tibor qaratiladi.

Tayanch so‘z va iboralar: yuridik nutq, huquqshunoslik, tilshunoslik, sud nutqi, yuristning nutq madaniyati, adabiy til qoidalari, advokat nutqi, prokuror nutqi.

Annotation: In the new Uzbekistan, the language and style of laws, the problems of legal terminology, and the issues of the lawyer's speech culture are becoming increasingly important. Because any reforms cannot be carried out without changing the laws. This in itself paves the way for the development of new language units - words and terms, forms. At the same time, all legal documents, in particular, the texts of each procedural document, must be legally and linguistically error-free and literate. Texts that are written in accordance with legal and linguistic norms increase the authority of both legal and investigative bodies and judicial bodies and make the essence of the decision made understandable. Therefore, this

article analyzes the phenomenon of legal speech formed on the basis of industry terms from the point of view of linguistics and jurisprudence. The communicative functions of legal speech, linguistic structures, and its role in the social and institutional context are studied. The changes in legal language and speech in the modern legal system are also analyzed. The speech culture of a lawyer and the uniqueness of the speech of court participants, their important aspects are emphasized.

Key words and phrases: legal speech, jurisprudence, linguistics, court speech, speech culture of a lawyer, rules of literary language, lawyer's speech, prosecutor's speech.

KIRISH. Ma’lumki, nutq jamiyatda yashayotgan har bir shaxs uchun xususiy bo‘ladi, ya’ni har kim o‘ziga xos nutq egasidir. Inson nutq so‘zlashi uchun adabiy til qoidalarini mukammal bilishi zarur. Bu boradagi bilimlarni chuqur egallagan insongina kasbiy nutq madaniyatiga ega bo‘ladi. U qay bir soha egasi bo‘lmasin, shifokormi, pedagog, quruvchi – ular o‘z nutqini yuzaga chiqarganda kasb egalaridagi til bilimdonligi, tilga bo‘lgan munosabati namoyon bo‘ladi. Xususan, huquqshunosda ham.

Milliy huquqshunoslik maktabini yaratish, huquq madaniyatini targ‘ib qilish va yoshlar ongiga singdirish, huquqiy demokratik jamiyat qurishda ham bevosita yuristlarning davlat tili va adabiy til me’yorlarini bilish bo‘yicha savodxonligi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki huquqqa oid har qanday tushuncha, harakat-hodisa va munosabat so‘zlar yordamida o‘z ifodasini topadi. Ya’ni bu jarayonda yuridik terminlar va so‘zlardan iborat hamda belgilangan talablar asosida shakllangan matn, nutq orqali huquqiy holatlar, me’yorlar yuzaga chiqadi. Tilsiz, so‘zsiz aniq va tayyor holdagi yuridik fikrni bayon etib bo‘lmaydi. Chunki til huquqning yashashini, kelgusi avlodlarga yetib borishini ta’minlaydigan yagona vositadir. Shuning uchun ham til va huquqni jamiyatga xizmat qiluvchi ijtimoiy, ma’rifiy va ruhiy hodisa sifatida ta’riflash mumkin. Yana bir muhim jihati borki, qonunlarning ustuvorligi, uning ta’sirchanligi bevosita til imkoniyatlaridan, qonuniyatlaridan mohirona foydalanishga ham bog‘liqdir.

Yuridik nutq – bu ikki fan sohasi tutashgan maydon bo‘lib, uni chuqur o‘rganish lingvistik va huquqiy tafakkurning birlashuvini anglatadi.

Yuridik nutqning tilshunoslikda o‘rganilishi, asosan, quyidagi elementlarga tayanadi:

-terminologik qatlam – yuridik leksika o‘zining aniqligi, barqarorligi bilan boshqa sohalardan ajralib turadi. Masalan, “sanksiya”, “norma”,

“fuqarolik javobgarligi” kabi atamalar o‘ziga xos semantik strukturalarga ega;

-sintaktik qurilmalarning murakkabligi – yuridik matnlar, odatda, murakkab qo‘shma gaplar, kiritma gaplar bilan to‘la bo‘ladi. Bu esa yuridik nutqni axborot jihatdan boy, biroq semantik jihatdan murakkablashtiradi.

-pragmatik funksiya – yuridik nutq ko‘pincha buyruq, ta’qiqlash, ruxsat berish kabi mazmunga ega bo‘lib, ularning ifodalanish uslubi aniq va an’anaviydir.

Huquqshunoslik nuqtai nazaridan qaraganda yuridik nutq:

- huquqiy ong va ijtimoiy tartibni ifodalaydi;
- normativ hujjatlar vositasida jamiyatdagi huquqiy munosabatlarni tartibga soladi;
- sud amaliyotida huquqiy qarashlarni asoslash, isbotlash va bahslashish quroli sifatida xizmat qiladi.

Huquqshunoslar uchun nutq – bu faqat tushuntirish emas, balki normani “faollashtirish” vositasi hisoblanadi.

Zamonaviy ilm-fanda yuridik nutqni o‘rganishda bir necha fanlararo yondashuv muhim ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda. Chunki huquqshunos yuridik matnni ishlab chiqishda til me’yorlariga, semantik aniqlikka va to‘g‘rilikka e’tibor berishi kerak. Tilshunos esa matnni tahlil qilishda uning ijtimoiy, huquqiy va muloqotga oid funksiyalarini inobatga olishi zarur. Demak, huquqiy kommunikatsiyaning to‘g‘ri shakllanishi uchun huquqshunos va tilshunos hamkorligi muhim bo‘lib, bu huquqiy tafakkurning yuksalishiga olib keladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Har bir nutq uslubining o‘ziga xos til xususiyatlarini anglash nutq madaniyatining asosiy mezoni sanaladi. Xususan, yuristlar ham nutq uslublarini bilishi va uslublararo til chegaralarini o‘zlashtirishlari zarur.

Rasmiy uslub tilning boshqa uslublaridan o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi hamda vazifasi jihatidan yuridik, diplomatik faoliyatga xizmat qiladigan nutq ko‘rinishidir. Mazkur uslubning ijtimoiy vazifasi hozirgi kunda ham juda keng bo‘lib, barcha rasmiy hujjatlar ayni uslubda yoziladi. Jumladan, qonunlar, qarorlar, farmonlar, buyruqlar, turli diplomatik bitimlar, shartnomalar, deklaratsiyalar, konvensiyalar, sud hukmlari va qarorlari, shuningdek, arizalar, tarjimayi hol, tavsifnoma, tilxat va hokazolar.

Bu uslubning bir qator o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Masalan, hujjatlar aniq bo‘lishi, hech qanday g‘alizliklar va ortiqcha

bo‘yoqdorliklardan xoli bo‘lishi hamda belgilangan qoliplar asosida shakllantirilishi zarur. Ushbu hujjatlarning barchasi o‘ziga xos til xususiyatlariga ega bo‘lsa-da, ularda til ikki xil vazifani bajaradi, ya’ni axborot berish va buyurish.

Qonun tilining yana bir o‘ziga xos belgilaridan biri qonun moddalarining kesimi majhul nisbatdagi fe’llar bilan ifodalanadi. Bu kabi hujjatlarda kishilik olmoshlaridan birini qo‘llab bo‘lmaydi. Chunki har bir qonun jamiyat va davlat nomidan bayon qilinadi. Ya’ni qonun zamirida xalqning xohish-istagi o‘z ifodasini topadi va ustuvorlik qiladi.

Rasmiy uslubda yoziladigan, mamlakat prezidenti, hukumati tomonidan qabul qilinadigan, Konstitutsiya va Kodeks kabi hujjatlar normativ-huquqiy hujjatlar bo‘lib, ular mamlakatda yashovchi barcha fuqarolar ikkilanmasdan, muhokama qilmasdan bajarishlari shart bo‘lgan qonun hujjatlari sanaladi. Qonunlar faqat qabul qilingunga qadar muhokama qilinishi mumkin, lekin qonun kuchga kirgandan keyin bajarilishi shart hisoblanadi.

Qonun osti hujjatlari esa ma’lum bir jamoadagilar va tarmoq hamda sohadagilar uchun amal qiluvchi kuchga ega bo‘ladi. Lekin ular ham yuridik kuchga ega hujjat hisoblanib, buyurish, axborot berish mazmuni mavjud bo‘ladi.

Shuningdek, qonunlar tili xolislik belgisiga ham ega bo‘lishi zarur. Masalan: *Har bir inson o‘z shaxsini erkin kamol toptirish huquqiga ega. Hech kimga uning roziligisiz qonunchilikda belgilanmagan majburiyat yuklatilishi mumkin emas.*

Inson o‘z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, jamiyat hamda davlatning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga putur yetkazmasligi shart.

Insonning huquq va erkinliklari faqat qonunga muvofiq va faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog‘lig‘ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta’minlash maqsadida zarur bo‘lgan doirada cheklanishi mumkin.[O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi]

Tilning ijtimoiy hayotdagi mavqei va qamrovi juda keng. Uni mustahkam ushlab turgan manba tilning huquqiy himoyasi bo‘lsa, uning boyib borishida boshqa soha tilini kamsitmagan holda huquq tili alohida o‘ringa ega.[Ikramov, Mo‘ydinov.2021]

Huquq va til uyg‘unligi masalasi fanlararo tadqiqotlarda yangi yo‘nalish bo‘lib, bu sohada hal etilmagan va bahsli masalalar juda ko‘p. Lekin barcha turdagi yuridik faoliyat uchun tilni benusqon bilish shartdir.

MUHOKAMA VA NATIJA. Yuridik sohada nutqning og‘zaki va yozma ko‘rinishlari ham keng qo‘llanadi. Og‘zaki yuridik nutq so‘zlovchi, ya’ni sud, advokat, prokuror, tergovchi gapirib turgan paytdagina mavjud bo‘ladi. So‘zlash jarayoni tugashi bilan og‘zaki nutq ham tugaydi. Lekin nutq ta’sirida berilgan ma’lumot, tinglovchi ongida uzoq vaqtgacha saqlanishi aniq. Og‘zaki yuridik nutq tezkorlik bilan amalga oshadi. Shu sababli ham huquqshunos ifodalamoqchi bo‘lgan fikriga mos so‘zni, gapni mohirlik bilan tanlay olish qobiliyatiga ega bo‘lishi zarur. Ba’zi hollarda sud jarayonida prokuror, sud yoki advokat hodisani dalillashga munosib so‘z topa olmay qoladi. Chunki og‘zaki yuridik nutq tayyorgarliklarsiz, ya’ni favqulodda yuzaga keladi. Shuning uchun nutqda voqelikdan uzoqroq so‘zni ishlatib yuborish holatlari uchrashi mumkin. Bunday paytda ko‘zlangan maqsad amalga oshmay qolishi mumkin. Sababi og‘zaki nutq jarayonida odam bir vaqtning o‘zida ham fikrlaydi, ham so‘zlaydi. Bu esa voqelikka mos so‘zlarni tanlashda qiyinchilik tug‘diradi.

Rossiyalik huquqshunos, yuridik fanlar nomzodi Y.Usmanova shunday qayd etadi: ayblov va himoyachining nutqi ma’joziy va hayajonli, to'g'ridan-to'g'ri va juda ixcham bo'lishi kerak. Bu, shubhasiz, mahorat talab qiladi, chunki sudda odamlarning taqdiri hal qilinadi. Shuning uchun ham og'zaki nutq yuridik faoliyatning asosiy qurolidir.[Усманова.2005]

Og‘zaki yuridik nutq, asosan, tahrir imkoniyatidan mahrum bo‘ladi. Qolaversa, nutqning tejamkor bo‘lishi uchun ba’zida gap bo‘laklarini tushirib qoldirish, to‘liqsiz gaplardan foydalanish holatlari ko‘p uchraydi. Fikrning tinglovchiga yetib borishida ohang, urg‘u, turli xil imo-ishoralar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, talaffuzning ravonligi ham bunda katta o‘ringa ega. Masalan, sud hukmini o‘qish jarayonida ham har bir so‘z, har bir termin yoki har bir gap ravon talaffuz etilishi zarur.

Aslida og‘zaki natqning qay darajada shakllanishi bevosita yozma nutqning takomili bilan bog‘liq. Yozma nutq talab darajasida bo‘lmasa, og‘zaki nutqni ham ko‘ngildagidek deb bo‘lmaydi.

Yozma yuridik nutqda esa til vositalarini tanlash va qo‘llashda imkoniyat katta bo‘ladi, ya’ni uni istagancha tahrir qilish mumkin. Shuning uchun ham yozma nutqda og‘zaki nutqdagidan ko‘ra ravonlik, aniqlik va izchillik bo‘ladi.

Protsessual hujjatlar tuzadigan huquq-tartibot organi xodimi, odatda, o‘z fikrini yozma ravishda ifodalashdan avval nutq predmetini, obyektini aniqlaydi, ya’ni yuridik ishni ochishda, jinoyatni adolatli hal qilishda zarur va kerakli ma’lumotlarni to‘playdi. Shundan so‘nggina asosiy fikr yuridik matn sifatida o‘z in’ikosini topadi. Matnning shakllanishida o‘zbek yuridik

til qonuniyatlari asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Matnni tayyorlayotgan xodim tergov natijalarini, hukm mazmunini to‘laqonli yoritish uchun til imkoniyatlaridan o‘rinli foydalanishga, yuridik terminlarni o‘z o‘rnida qo‘llashga intiladi. Ushbu jarayonda ham yozma yuridik nutqni grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzish va terminlarning, so‘zlarning munosiblarini tanlay olish uchun bilim, tajriba zarur bo‘ladi. Lekin ba‘zi hollarda huquq-tartibot organlarida faoliyat ko‘rsatayotgan xodimlarning yuridik hujjatlarni tayyorlashlarida bir qator xatolarga yo‘l qo‘yishlarini ham kuzatamiz. Buning sababi xodimlardagi grammatik qoidalar bo‘yicha bilimning yetishmasligi hamda yozma nutqni ifodalash malakasining sustligi bilan bog‘liq. Aslida yozma yuridik nutqda har bir so‘z, termin, har bir gap, jumla yuridik mazmunni to‘liq ifodalashga, muallif aytmoqchi bo‘lgan fikrning mazmunini ochishga xizmat qilishi, gaplar imkon qadar sodda va aniq, izchil va mantiqqa asoslangan bo‘lishi zarur. Ushbu vaziyatda tushunilishi qiyin bo‘lgan yuridik terminlardan iloji boricha foydalanmaslikka harakat qilinishi kerak. Shuningdek, huquqiy hujjatlarni tayyorlashda milliy tilimiz qoidalariga asoslanilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Sh.Ko‘chimov aytganidek: …qonunchilik texnikasi, qonun tili, qonunchilik uslubiyati – bu ilmiy izlanishlarning yangi mustaqil bir yo‘nalishidir. Bu yo‘nalishdagi tadqiqotlar bir vaqtning o‘zida ham lingvistik, ham yuridik bilimlarni taqazo etadi. Shunga ko‘ra respublikamizda bu mavzuni bir vaqtning o‘zida ham huquqiy, ham lingvistik jihatdan yaxlit holatda o‘rganilgan ilmiy tadqiqot ishlari yaratilmagan, qonunchilik texnikasi, qonun tilining lingvo-yuridik xususiyatlari ishlab chiqilmagan. Shu nuqtai nazardan bu mavzuni bir vaqtning o‘zida ham yuridik, ham lingvistik jihatdan tadqiq etish, uning lingvo-yuridik xususiyatlarini aniqlash hozirgi davrning eng muhim vazifalaridan biridir.[Кўчимов.2004]

Yuristlar hayotda ko‘pchilik bilan muloqotda bo‘ladilar. Tergov va sud jarayonidagi ehtiyotkorlik ularning tilga bo‘lgan munosabatida ham yaqqol ko‘rinadi. Qolaversa, turli bayonnomalarni to‘ldirishda, sud hukmi, ayblov nutqini tayyorlashda va boshqa rasmiy hujjatlarni yozishda ham ulardan o‘ta savodxonlik talab etiladi va mazkur jarayonda xodimlarning til imkoniyatlaridan foydalana olish qobiliyatlari namoyon bo‘ladi.

R.Ikramov, Q.Mo‘ydinovlarning fikricha “…sud jarayonida ishtirok etayotganlarning nutqini san’at darajasidagi nutq, ya’ni notiq nutqi deb emas, balki sud nutqi deb munosabat bildirsak to‘g‘riroq bo‘ladi. Sud nutqlarining mazmuni va shakli turlicha bo‘lib, ularning har biri o‘z

ahamiyati, ta’sir kuchi va ishontirish quvvati bilan boshqa nutq turlaridan farqlanadi.” [Мўйдинов.2021]

Sud notiqligi sudlov jarayonida namoyon bo‘ladigan hodisadir. Prokurorning ayblov nutqi, advokatning himoya nutqi, sudlanuvchining o‘z o‘zini himoya nutqi hamda sudyaning hukm shaklidagi nutqi sud nutqlarini tashkil etadi.

Misol uchun, jinoiy ishlarni ko‘rishda birinchi instansiya sudlarida ishtirok etuvchi prokuror dalillarni tekshirish va sudlanuvchilar, jabrlanuvchilar, guvohlar, ekspertlar va jarayonga taklif etilgan boshqa ishtirokchilarga savollar berish vakolatiga ega davlat ayblovchisi sanaladi. Mazkur jarayonda prokuror o‘z nutqini chiroyli, mantiqan izchil, aniq va tiniq ifodalashi zarur. Bunda uning adabiy til qoidalari bilan nechog‘lik tanish ekanligi oydinlashadi. Shuningdek, sudlarda ishtirok etayotgan va davlat ayblovini quvvatlayotgan prokurorlarning notiqlik mahoratiga ega bo‘lishi ham tegishli hujjatlarda ko‘rsatib o‘tilgan.[O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining amaldagi buyruqlar, ko‘rsatmalari, nizom va yo‘riqnomalari to‘plami.1999: 185-186]

Advokat sud jarayonida prokurordan keyin so‘zga chiqadi va uning himoya nutqi ifodalanayotgan fikrni dalillar bilan isbotlashga asoslanadi. Himoya nutqining qanday ifodalanishi advokatning shaxsiy qobiliyati va savodxonligiga ham bog‘liq. Mazkur jarayonda nutqda so‘z va mantiqiy urg‘uning tog‘ri qo‘yilishi ham muhimdir.

Advokat yurisprudensiyani qanchalik yuqori darajada o‘zlashtirgan bo‘lsa, nutq madaniyatini ham undan kam bilmasligi kerak. Agar ifodalanayotgan fikr o‘ta yuqori darajada bo‘lsa-yu, uni til vositalari bilan ifodalash sust bo‘lsa, maqsad amalga oshmaydi…advokat til qoidalarini yaxshi o‘zlashtirmas ekan, uning himoya nutqi ham talab darajasida shakllanmaydi.[Usmonov, Ziyamuxamedova, 2018:182]

Sud ishtirokchilaridan biri – sudya nutqi ham jarayonda muhim sanaladi. Sudya tomonidan savollar berishda til qoidalari va talablariga rioya etilishi kerak. Sud zalida javob talab qilmaydigan ritorik savollarni berishdan ehtiyot bo‘lish kerak. Savol berishda javob beruvchiga tushunarli bo‘lgan til va ekstralingvistik omillardan foydalaniladi.[Usmonov, Ziyamuxamedova, 2018:196]

Jinoiy ishlarni ko‘rish davomida raislik qiluvchining nutqi ham o‘ziga xos bo‘ladi. Masalan, raislik qiluvchi sud majlisini ochadi, e’lon qiladi, tushuntiradi, farmoyish beradi, sudlanuvchining shaxsini aniqlaydi, so‘raydi, ayblov xulosasini e’lon qiladi. Bunda ham nutqiy mahorat va til savodxonligi muhim ahamiyat kasb etadi.

J.Primov sud majlisida so‘zlayotgan notiq nutqining kommunikativ sifatlarini quyidagilar belgilashini qayd etadi:

-nutqning tushunarliligi;

-nutqning mantiqiyligi;

-nutqning yetarli darajada davom etishi bilan birga lo‘ndaligi;

-nutqning his-hayajonliligi;

-nutqda bayon etiladigan fikrlarning o‘z joyidaligi;

-nutqning samimiyligi;

-nutqda aniqlik.[Примов,2024]

Albatta, ushbu talablarga javob beruvchi nutqning ta’sir darajasi ham yuqori bo‘ladi, uni tushunish tinglovchilarga ham murakkablik tug‘dirmaydi.

XULOSA. Yurislingvistika xalqaro huquq maydonida, tilshunoslikda birmuncha taraqqiy etgan tarmoq hisoblanadi. Shuningdek, u tadqiqotchidan ikki soha – tilshunoslik va huquqshunoslik bilimdonligini talab qiladi. Yuridik soha rivojlangani sari til ham hamohang ravishda rivojlanib boradi. Chunki har qanday soha va tarmoqning taraqqiyoti, eng avvalo, tilda aks etadi. Yuridik terminlar nafaqat terminologiyada, balki yurislingvistika sohasida ham o‘rganiladi, tatqiq etiladi. Milliy qonunchilik matnini takomillashtirish jarayonida yuridik til va huquqiy terminlar muhim o‘rin tutishini inobatga olgan holda mazkur sohada qator izlanishlar olib borish dolzarbligini bildirmoqchimiz.

Shunday qilib, yuridik nutq tilshunoslik va huquqshunoslik fanlarining kesishmasidagi murakkab, ammo chuqur ilmiy ahamiyatga ega fenomen hisoblanadi. Uning samarali shakllanishi va rivoji nafaqat huquqiy tizimning ishonchliligini ta’minlaydi, balki fuqarolarning adolatga, qonunlarga bo‘lgan ishonchini ham mustahkamlaydi.

Shunday ekan, yuridik nutqni nafaqat qonunlar doirasida, balki lingvistik tafakkur mezonida o‘rganish – huquqiy madaniyatni yuksaltirish yo‘lida muhim qadamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.https://lex.uz/docs/-6445145.

2. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining amaldagi buyruqlar, ko‘rsatmalari, nizom va yo‘riqnomalari to‘plami. – Toshkent, 1999. – B. 185-186.

3. Бекмирзаев Н. Юрист нутқи маданияти. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2011. – B. 155.

4. Икрамов Р., Мўйдинов Қ. Ҳуқуқ тили ва нутқи. Academic research in educational sciences volume 2 | issue 9 | 2021.
5. Кўчимов Ш. Ҳуқуқий нормаларни ўзбек тилида ифодалашнинг илмий-назарий муаммолари. Филология фанлари доктори илмий даражасини олиш учун дисс автореферати. – Тошкент, 2004.
6. Мирхамидов М., Норпўлатов Н., Хасанов С. Юристнинг нутқ маданияти.– Тошкент: Fan va texnologiya, 2005. – 314 б.
7. Мўйдинов Қ. Ҳукм сўзининг тил ва нутқда ифодаланиши.//Academic Research in Educational Sciences. https://cyberleninka.ru/article/n/ukm-s-zining-til-va-nut-da-ifodalanishi/viewer
8. Назарав К.Н.,Усмонов С.Б., Тоҳиров Қ.Ҳ. Юристнинг нутқ маданияти. – Тошкент: ТДЮИ кичик босмахонаси, 2003. – 215 б.
9. Примов Ж. Адвокатлик фаолиятида нотиқлик санъати асослари. https://nor.uz/?p=17638.
10. Расулов Р., Хусанов Н., Мўйдинов Қ. Нутқ маҳорати. – Тошкент, 2006. – 138 б.
11. Усманова Е. Речевая коммуникация в юридической практике. Автореферат диссертации. 2025. https://lawtheses.com/rechevaya-kommunikatsiya-v-yuridicheskoy-praktike
12. Усмонов С. Юристнинг нутқ маданияти. – Тошкент: ТДЮИ, 2006. – 225 б.
13. Usmonov S.Yuristning nutq madaniyati. – Toshkent: Sharq, 2007. – 197 б.
14. Usmonov S., Ziyamuxamedova Sh. Yurist nutqi amaliyoti. Darslik Toshkent davlat yuridik universiteti, 2018.

MEHNAT MAVZUSIDAGI O‘ZBEK XALQ MAQOLLARIDA SO‘ZLARNING ESKIRISH OMILLARI

Siddiqova Naimaxon Abdurasulovna,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti mustaqil tadqiqotchisi,
E-mail:*siddiqovanaima034@gmail.com*
Tel.*+99893 404 95 47*

Annotatsiya: Mazkur maqolada tilning o‘zgaruvchan tabiati, til taraqqiyotida eskirgan qatlamning paydo bo‘lishi haqida so‘z boradi. Maqolada mehnat mavzusidagi o‘zbek xalq maqollaridagi eskirgan so‘zlar tadqiq etilgan va bu jarayonni yuzaga kelishi uchun omillar tavsiflangan.

Kalit so‘zlar: til taraqqiyoti, til tabiati, eskirgan so‘zlar, arxaizmlar, istorizmlar.

Abstract: This article talks about the changing nature of the language, the appearance of an obsolete layer in the development of the language. The article examines obsolete words in Uzbek folk proverbs on the topic of labor and describes the factors that cause this process to occur.

Keywords: language development, language nature, obsolete words, archaisms, historicisms.

Til insoniyat tomonidan yaratilgan ijtimoiy hodisa bo‘lib juda murakkab xarakterga ega. Til taraqqiyoti davomida ham makonda ham zamonda juda ko‘p o‘zgarishlarga duch kelishi tabiiy hol. Chunki til mavjud jamiyatga xizmat qiladi. Jamiyat a’zolari esa tilning sofligi, boyligi kabi xususiyatlariga ta’sir o‘tkazuvchi omillardir.

Tilning lug‘aviy qatlami eng ko‘p o‘zgarishlarga uchraydigan sathdir. Sababi jamiyat hayotidagi o‘zgarishlar eng avvalo, uning leksik sathida, ya’ni so‘zlashuvchilarning nutqida paydo bo‘ladi. Masalan, hozirda nutqimizda juda ko‘p qo‘llanayotgan sun’iy intellekt, dasturiy ta’minot, mobil ilova kabi so‘zlar, aytaylik, ellik yil avvalgi jamiyatimiz uchun notanish so‘zlar bo‘lgan. Bunday so‘zlar qatorini juda uzun davom ettirish mumkin.

Tilimizda yana shunday so‘zlar mavjudki, ular ma’lum bir jamiyat a’zolari bilan birgalikda o‘z hayotini yashab bo‘lgan. Bunday so‘zlar tilshunoslik ilmida eskirgan so‘zlar deb nomlanadi. Til tafakkurni ifoda etuvchi ishoralar tizimi, shuningdek, til ma’lum bir jamiyat a’zolarining ehtiyojidagi barcha leksemalarni qamrab olishi kerak.

Eskirgan so‘zlarning paydo bo‘lishi esa aynan shu qonuniyat bilan bog‘liq, ya’ni tildagi qaysidir tushuncha eskiradi va uni ifodalovchi tovushlar tizimiga ham jamiyat a’zolarining ehtiyoji qolmaydi. Shu tariqa ayrim so‘zlar tilning eskirgan qatlamiga mansub bo‘lib qoladi.

Til taraqqiyotining ma'lum bir davrida muomalada faol qo‘llangan, lekin keyinchalik shu so‘z ifodalagan predmet, voqea yoki hodisa o‘zining hayotiy faoliyatini to‘xtatgach, uni anglatgan so‘z ham eskirsa, qo‘llanish darajasini susaytirib, yo‘qotib, tarixiy so‘zga aylanib qoladi. Demak, tarixiy so‘zlar o‘zi atagan narsa yoki tushuncha iste'moldan chiqib ketganligi bois qo‘llanmayotgan leksik qatlamdir . Bu qatlam har bir davrda jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda yuzaga keladi, kamayib boradi. Istorizmlar, ya’ni tarixiy so‘zlar leksik, semantik, frazeologik xarakterga ega bo‘ladi. Eskirib iste'moldan chiqqan, o‘z sinonimiga ega

bo‘lmagan so‘zlarga leksik istorizmlar deyiladi: omoch, cho‘ri, yuzboshi kabi. [Abdurahmonov, 1976: 85]

Istorizmlar tilning leksik tarkibidan tamoman chiqib ketmaydi, zarur payt-da nutqda qo‘llanib turadi, lekin eskirganligi, unutilganligi sababli ma'nosi ko‘pincha izoh talab qiladi. Hozirgi o‘zbek tili leksikasi tarkibidagi batrak, amin, vasiqa, vaqarnoma, mudarris, charx, kansava, tanob, choriq, quloq kabi so‘zlar tarixiy so‘zlar – leksik istorizmlardir. So‘z ma'nosi anglatgan narsa, voqea, hodisalar eskirmay, uning ma'nosida yangilanish yuz berib, oldingi ma'nosi istemoldan chiqsa, semantik istorizm deyiladi. Masalan, arbob – aristokrat, arbob – fan arbobi; saroy – podsho qarorgohi, saroy – san'at saroyi; vazir – podshoning o‘rinbosari, vazir – mi-nistr; rais – shayxlar rahnamosi, rais – jamoa xo‘jaligi boshlig'i kabi. Eskirib iste'moldan chiqqan, o‘z ekvivalentiga ega bo‘lmagan iboralarga frazeologik istorizmlar deyiladi. Masalan, madrasa tuprog'ini yalamoq, tarki dunyo qilmoq holatlari hayotda mavjud bo‘lmasa ham, ularning ifodasi tarixiylik sifatida saqlanib qolgan1 . Jamiyat to`xtovsiz rivojlanib boradi. Yillar o‘tishi bilan mehnat qurollari, kiyim-kechak, uy jihozlarining yangi nusxalari paydo bo‘ladi, eskilarining ba‘zilari ishlatilmaydigan bo‘lib qoladi, natijada ularni ifodalovchi so‘zlar ham bora-bora juda kam qo‘llanadi yoki iste’moldan chiqib ketadi. Masalan, qadimgi o‘zbek qatlamga tegishli ashu (qizil tuproq), ashuq (temir qalpoq, dubulg‘a), aqru (sekin) kabi so‘zlar eskirgan so‘zlardir. Demak, qadimda nutqda faol qo‘llanilgan, bugun esa kundalik hayotda ishlatilmay qolgan so‘zlar eskirgan so‘zlar deb atalar ekan.

Tilshunoslikda eskirgan so‘zlar ikki guruhga ajratiladi: tarixiy so‘zlar; istorizmlar. [Abdurahmonov, 1976: 65]

1) tarixiy so‘zlar – hozirda mavjud bo‘lmagan narsa hodisalarning iste‘moldan butunlay chiqib ketgan nomlaridir; bunda so‘z o‘zi ifodalagan tushuncha bilan birgalikda eskiradi: o`nboshi, ellikboshi, kanizak, olampanoh, eshik og`ası, xalfa kabi.

2) arxaizmlar – hozirda mavjud bo‘lmagan narsa-hodisalarning iste‘moldan butunlay chiqib ketgan nomlaridir; bunda so‘z eskiradi, lekin tushuncha eskirmaydi, boshqa so‘z bilan ifodalanadigan bo‘lib qoladi, bunday so‘zlar iste’moldan chiqish arafasida turgan, hozirgi tilda sinonimi bo‘lgan so‘zlardir. Agar buni ona tilimizda ifodalaydigan bo‘lsak, qavs ichida hozirgi tildagi sinonimlari berilgan: rayon (tuman), ekspress (tezyurar), oblast (viloyat), vrach (shifokor), xirurg (jarroh), injener (muhandis), redaktor (muharrir), redaksiya (tahririyat), ulus (xalq), bitik (yozuv) va h. Bizning fikrimizcha, ushbu materialni o‘rganayotganda,

istorizmlar haqida bir necha so‘z aytish kerak, ya'ni g'oyib bo‘lgan narsalar, hodisalar, tushunchalar nomlari: qo‘riqchi, zanjirli pochta, jandarm, politsiyachi, hussar va boshqalar.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida arxaizmga shunday izoh berilgan. Arxaizm [yunoncha archaios –ilk, qadimgi] tlsh. Ma’lum davr uchun eskirgan, iste’moldan chiqa boshlagan til birligi – so‘z, ibora, Grammatik shakl.Masalan, arz (yer shari), hayon (foyda) lug‘aviy arxaizmlar hisoblanadi. [O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildlik,1-jild. Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2022: 143]

O‘zbek xalq maqollarida ham eskirgan so‘zlar ko‘p uchraydi. Buning ham bir necha omillari bor. Maqolamizda ayni shu omillar haqida ayrim xulosalarimizni bayon etmoqchimiz. “So’z ko’rki - maqol” degan ajoyib hikmat bor. Bu naql nutqimizga xos bo’lgan o’zbekona lutf ham demakdir. Maqollar, hikmatlar bilan bezangan nutq ta’sirchan bo’lishi hammaga ma’lum.

Maqol xalq hayoti tajribalari xulosasini ifodalovchi hikmatli fikrlar majmuasidir. U o’z tabiatiga ko’ra qadimiy va xalqaro janrlardan biridir. Dunyoda o’z maqollariga ega bo’lmagan xalqning o’zi yo’q. Chunki har bir xalq hayotiy tajribalarini maqollar shaklida avlodlarga qoldiradi. [Sulaymonov, Namangan, 2008: 25]

Maqollar xalqning boy hayotiy tajribasini umumlashtirar ekan, demak, maqolning shakllanishi ham ma’lum bir jarayonni qamrab oladi. Shu bilan birga maqolning yashab qolishi unda qo‘llangan tushunchalarning hayotiy faolligi bilan bevosita bog‘liq. Quyida ayrim maqollar izohiga to‘xtalib o‘tamiz.

Ish boshlaganda — ermak,
Bitmay qolsa — emgak.

Mazkur maqolda emgak so‘zi tarixiy so‘z hisoblanadi. U eski turkiy til davrida faol iste’molda bo‘lgan, hozirda mehnat so‘zining sinonim shaklidir. Maqolda avvalo nega aynan emgak shaklidan foydalanilganligi haqida mulohaza qilib ko‘raylik. Birinchidan maqollar odatda xalqni yodida oson saqlanib qolishga xoslangan, ya’ni aytishga va yod olishga qulay shaklda bo‘lishi kerak edi. Buni taminlovchi omil esa soda qofiya. Maqolning birinchi misrasida ermak so‘ziga to ‘liq mos keladigan qofiyadosh so‘z sifatida tanlangan bo‘lishi mumkin. Yoki mazkur maqol dastavval paydo bo‘lgan davrda aynan emgak so‘zi faol iste’molda bo‘lgan.

Emgak etsang, emarsan.
Emgaksiz itdan yomon,
It tugul bitdan yomon.

Bu maqollarda ham emgak so‘zi bilan bog‘liq muayyan xulosalarga kelishimiz mumkin.

Ketmon chopmoq — olmoq-solmoq,
Qo'sh haydamoq — bormoq-kelmoq.

Mazkur maqolda ham qo‘sh so‘zi eskirgan qatlamga mansub. Chunki zamonaviy texnologiyalar hayotimizni o‘zgartirib yuborgan bir davrda mazkur tushuncha ham o‘z faollligini yo‘qotdi.

Kiygiz kimniki — bilak shuniki.

Bu maqol bugungi kun o‘quvchisi uchun bir qaraganda juda tushunarsiz. Boisi kiygiz so‘zining ma’nosi ko‘pchilikka noma’lum. Kiygiz kigiz leksemasining shevadagi shaklidir. Kigiz – yungdan bosib tayyorlanadigan qalin pishiq palos,namat [O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2022: 836] Demak, maqoldagi so‘zning tushuncha sifatida jamiyatimiz hayotida umri tugaganligi uchun eskirgan qatlamga o‘tib qoldi.

Tinmas kampir oyog'i
Oydinda charx yigirar.

Mazkur maqolda ham yuqoridagi omil charx so‘zining eskirishiga sabab bo‘lgan. **Charx** – 1) qo‘lda ip yigirishda foydalaniladigan qad. asbob. Unda, asosan, paxta, jun va boshqa tolalar yigiriladi. Ko‘rinishi dasta bilan aylantiriladigan g‘ildirak shaklida bo‘ladi. O‘rta Osiyoda paxta ekib, ip yigirish milod boshidayoq ma’lum bo‘lgan. Paxta va jun tolasidan ip yigirish uchun oldin urchuq, keyin uni takomillashtirib, charx yasalgan. 18-asrda mashinada ip yigirishga o‘tilgach, charxga ehtiyoj kamaygan, lekin ayrim chekka joylarda undan hali ham foydalaniladi

2) qaychi, pichoq, tesha, ketmon, o‘roq va boshqa kesuvchi asboblarni o‘tkirlash (charxlash) uchun ishlatiladigan asbob. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Charx]

Ko‘rinadiki, charx so‘zining ikkinchi ma’nosi hozirda tilimida faol qatlamga mansub bo‘lsa, maqolda qo‘llangan tushunchani ifodalovchi leksema eskirgan.

Bir dehqon omoch bilan, Yettovlon cho‘mich bilan.

Omoch so‘zi haqida ham yuqoridagi fikrlarni aytishimiz mumkin.

Totli tomoq tamuqqa tushirar.

Tamuq – tamug‘ so‘zining xalq tiliga moslashgan shakli bo‘lib, eski o‘zbek tilida jahannam, do‘zax ma’nolarini anglatgan.
[https://www.izohli.uz/words/TAMUG%E2%80%98]

Hozirda bu so‘z ham leksik sathimizning eskirgan qatlamidan joy olgan.

Tarkibida eskirgan qatlamga oid maqollarni juda ko‘p tahlilga tortishimiz mumkin. Ulardagi so‘zlarning eskirishi uchun omillardan eng muhimi, ko‘rib chiqqanimizdek maqollar tarkibidagi qo‘llangan ayrim tushunchalarning jamiyat hayotida o‘z faolligini o‘tab bo‘lganligidadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдураҳмонов Х. Ўзбек халқ оғзаки ижоди асарларининг синтактик хусусиятлари бўйича кузатишлар. – Тошкент: Фан, 1971; ўша муаллиф. Содда гап синтаксиси хусусиятларининг ўрганилишига доир. Олий ўқув юрти студентлари учун материаллар (Мақол, матал ва топишмоқлар материали асосида). – Тошкент: Ўқитувчи, 1976.
2. Абдураҳмонов Ғ. «Девону луғатит турк» асарининг ўрганилиши тарихидан. // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2009. № 6 – Б. 49-51
3. Девону луғотит турк. Индекс-луғат Ғ. Абдураҳмонов ва С. Муталлибов таҳрири остида. – Тошкент, 1967.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildlik,1-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2022. – 143-bet
5. [https://www.izohli.uz/words/TAMUG%E2%80%98]
6. Sulaymonov M. O’zbek xalq og’zaki ijodi. – Namangan, 2008. – 25-bet

LEKSIK SINONIMLAR
(Namangan viloyati qipchoq shevalari misolida)

Darvishaliyeva Mahliyo Rustamali qizi,
Namangan davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: Maqolada Namangan qipchoq shevalari lug‘at fondidagi sinonimlik hodisasiga oid kuzatishlar natijasida to‘plangan so‘zlarga munosabatlar ifoda etilgan. Dialektal sinonimlarning shevada qo‘llanish ko‘lami haqidagi fikrlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Dialektal leksika, sinonimiya hodisasi, sinonim so‘zlar, xususiy – ichki sinonimlar, umumiy – tashqi sinonimlar, sheva va adabiy til sinonimligi, shevalararo sinonimlar.

Abstract: The article expresses the relationship between words collected as a result of observations on the phenomenon of synonymy in the vocabulary of Namangan Kipchak dialects. The ideas about the scope of use of dialectal synonyms in the dialect are highlighted.

Keywords: Dialectal lexicon, phenomenon of synonymy, synonymous words, private – internal synonyms, general – external synonyms, dialect and literary language synonymy, inter-dialectal synonyms.

Namangan viloyati qipchoq shevalarida so‘zlashuvchi aholi juda qadimiy turkiy ko‘chmanchi xalqlardan bo‘lib, ularning tiliga turli turkiy qo‘shni dialektlarning va boshqa areal tillarining ta’siri kuchli bo‘lgan. O‘troqlashish jarayonlarining ilk davridan to oxirgi davriga qadar bunday lisoniy voqeliklar natijasi sifatida ular shakllandi va hozirgi darajada turli areallarda faoliyatdadir. Voqeliklar natijasi sifatida aytish mumkinki, shevalarda ham bir tushuncha – ma’noni bir necha so‘z yordamida, aniqrog‘i, sinonimlar orqali ifodalash yuzaga keldi. Shu bois ham mazkur shevaning dialektal sinonimlari qatoridagi komponent so‘zlar dialektal nuqtayi nazardan turkiy-o‘zbekcha so‘zlar bo‘lsa, ba’zilari kelib chiqishidan qat’i nazar o‘zbek adabiy tilining lug‘at tarkibiga mansub so‘zlardir. Bunday leksik birlik bo‘lgan sinonimlarni ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Namangan viloyati qipchoq shevalaridagi xususiy-ichki sinonimlar.
2. Namangan viloyati qipchoq shevalaridagi umumiy-tashqi sinonimlar.

Namangan viloyati qipchoq shevalaridagi xususiy-ichki sinonimlar.

Namangan viloyati qipchoq shevalaridagi narsa, hodisa, belgi, holat va harakat ma’nolarini ifodalaydigan maishiy so‘zlar o‘zbek adabiy tilida mavjud yoki unga ma’lum bo‘lmagan birdan ortiq dialektal leksik birliklarida ifodalangan sinonimlar ichki sinonimlardir. Ular mazkur shevalarning ichki sinonimlari hisoblanadi. Barcha o‘zbek shevalaridagidek, tadqiq etilayotgan shevada ham birdan ortiq maishiy ko‘lamda qo‘llanadigan dialektal so‘z bir ma’noni yoki bir-biriga yaqin bo‘lgan ma’nolarni ifodalaydi, ularni to‘liq sinonimlik hosil qiluvchi leksik sinonimlar qatoriga kiritsak bo‘ladi.

Ma’nosi deyarli bir xil bo‘lgan maishiy leksik sinonimlarning katta qismi bir predmet, hodisa, belgi, harakat, holat haqidagi tushunchalarni ifodalashda qipchoq shevalari tarqalgan areallardagi aholi nutqida turlicha nomlanishi natijasida yuzaga kelgan deyish mumkin. Ular lisoniy leksik-grammatik motivlarga ko‘ra quyidagi ko‘rinishlarga egadir:

1. Ot so‘z turkumi orqali shakllangan maishiy leksik sinonimlar: ***dimlämä//bosmä//siltämä*** (taom nomlari), ***lagän//čarqï//towoq*** (ovqat suzadigan idish)**,** ***etäk//mälla//čäjšab*** (paxta terish uchun maxsus moslangan mato), ***otkälak//salmä//kopirixča//otkäk*** (ariq va zakanlardan o‘tish uchun qilingan moslama), ***sep//sarpä//kijit//mäjlamä*** (qizlarning uzatish uchun yig‘iladigan matolar va boshqa anjomlar), ***dolta//tolta//totra//toppa*** (kuydirilgan sariq yog‘ qoldig‘i), ***sarimāy//sarämāy//sarjaq//tazajaq*** (saryog‘), ***kämzil// nimčä// jeŋsis*** (nimcha, kamzul), ***botalaŋy//botänä//layqä//girtaŋ*** (loyqa), ***wäräžä//titraq// qaltiraq*** (qaltirash), ***jügurdäk//ičburow//ičketar*** (kasallik), ***azitqï//topbuzär// žijinbuzuqï*** (g‘iybatchi, gaptashuvchi), ***soltämät// baqïbeγäm//bämajlixatir//tumo*** (beg‘am) kabi.

2. Belgi, harakat ifodalovchi maishiy leksemalardan tashkil topgan sinonimlar: ***žа:// žilla// äzna// joγasäm// jömäsä*** (juda bo‘lmasa), ***sänžäp// čipoŋγ// ašinča// tiqïliny// itqïrin, älamžä:än// čäxsa// čäč*** (ko‘p, mo‘l), ***dolap// araläš// alä*** (aralash-quralash), ***dow// kepät// gurzi*** **(**baquvvat), ***xopitmaq// juzmaq// möjlamaq*** (cho‘milmoq), ***oradi// jörgäxladi// mixtiladi// kundäxladi*** (yo‘rgaklamoq), ***saramžalladi// žijindi// jiγindi// tutumlädi*** (yig‘ishtirmoq, tozalamoq), ***ašixma// šäš//howlixma*** (shoshilma), ***setalä//käkalä*** (makkajo‘hori donlarini so‘tasidan ajratish), ***büjüqdaqaγan// büjüquryan// gïzillagän*** (o‘ta sovqatgan), ***jelmaŋnägän // kepčik*** (ochofat),***čemlämaq//čenämaq*** (o‘lchamoq) kabi.

Sheva arealida sinonimik qatorni tashkil etuvchi maishiy ko‘lamdagi so‘zlardan qaysi biri faol qo‘llansa, o‘sha so‘z asosiy lug‘aviy birlik hisoblanadi. Masalan: **sodda**ning sinonimlari ***lahmä, äŋqow, lapäki, merow, jinni, ösow, uwidiq, pälpis*** so‘zlarining salbiy tomoni kuchliroq bo‘lsa, **sodda** belgisining qo‘llanilish doirasi kengroq hisoblanadi.

Yoki ***ā:rriq, qïltiriq, mixti, tirriq, nimžan, irvätin*** sinonimik qatorida o‘zbek adabiy tilida ***oriq*** so‘zi bosh so‘zdir. Chunki u kishilarga ham, hayvonlarga nisbatan ham qo‘llana oladi. Namangan qipchoq shevalarida ***qïltiriq*** so‘zi bosh so‘z bo‘lib hisoblanadi, chunki uning ishlatilish doirasi kengroq.

Eskï//älmisaq **–** tadqiq etilayotgan shevalarda ***älmisaq*** dialektal leksemasi hududiy jihatdan yaxlit tarqalish xususiyatiga ega emas. ***Ke:ti, ärqäsi*** **–** har ikkalasi ham deyarlik teng qo‘llanadi. ***oqoj, γiläj, qïlij*** sinonimlarining ***γiläj*** shakli ko‘p qo‘llaniladi. ***Kommaq, qojmaq, däpn etmaq, žäjiga qojmaq, jergä qojmaq, qojip qäytmaq***– yetakchi sinonim **ko‘mmoq**dir. Boshqalari shu so‘zning sinonimlari bo‘lish bilan birga har birining o‘ziga xos ottenkasi mavjud.

Läpäšäŋ, sansiz, lättä, pandāvāqï//pändäväqï, bošäŋ, šalpajγan//šälpäjgän, lällajgan, pälpis, pijpiq, uwidiq. Bu sinonimik qatorda qipchoq shevalarida **šälpäjgän, bošäŋ** so‘zlari yetakchi sinonim hisoblanadi. Boshqalari shu so‘zlarning qo‘shimcha sinonimlaridir.

Namangan viloyati qipchoq shevalaridagi umumiy – tashqi sinonimlar

Tashqi sinonimlarga shevadagi dialektal so‘z bilan adabiy tildagi so‘z yoki dialektal so‘z bilan adabiy tilda bo‘lmagan, o‘zbek tilining boshqa dialektidan kirgan so‘zning bir xil ma’noda kelishini kiritdik. Bunday sinonimlar qatoridagi so‘zlarni manba jihatidan quyidagi ikki guruhga ajratdik:

1. Namangan viloyati qipchoq shevalari va adabiy tildagi so‘zlar sinonimligi.

2. Namangan viloyati qipchoq shevalaridagi shevalararo sinonimlar.

Namangan viloyati qipchoq shevalaridagi va adabiy tildagi so‘zlar sinonimligi.

Adabiy tildagi leksik birlik mazkur shevalardan birortasida ishlatilib, ularning barchasida ishlatiladigan dialektal so‘z bilan sinonimik qator tashkil etadi. Masalan: adabiy tildagi **yalpiz** so‘zi mazkur shevadagi ***hulva//hulvä*** va **chumoli** so‘zi ***moriγča//čumoli//qumusqä*** ma’nolariga teng. Chunki adabiy til birliklaridan **yalpiz** va **chumoli** so‘zlari Namangan viloyati qipchoq shevalarida adabiy tildagidek ishlatilgani uchun **yalpiz** bilan ***hulva//hulvä*****, chumoli** bilan ***moriγča//čumoli//qumusqä*** sinonim hisoblanadi.

Adabiy sinonimik qator shevalarda ishlatiladigan so‘zlar bilan yanada ortadi. Masalan: adabiy tildagi **bemalol, xotirjam** so‘zlari mazkur areal qipchoq shevalarida ***tinγilixli, bämajlixatir, howlixmastän*** so‘zlari bilan sinonimik qatorni hosil qiladi. Yoki adabiy tildagi **tezda, darrov, shoshilinch** so‘zlari shevadagi ***qïstalaŋ, qoqqïs*** kabi so‘zlar bilan sinonimik qatorni tashkil etib, birga qo‘llaniladi.

Dialektal so‘zlardan iborat sinonimlarning komponentlari ham o‘zbek adabiy tilining leksik sistemasiga mansub bo‘lgan maishiy so‘z bilan o‘zaro qisman farqlanuvchi ma’no ottenkalariga ega bo‘ladi: **kop,** ***ašinča, čiponγ, itqïrin, älamʒä:än// čäxsa// čäč*** (mo‘l, ko‘p ma’nosida) leksemalari o‘zaro sinonimik qatorni hosil qiladi. Bularning barchasi ko‘plik ma’nosi atrofida uyushsa-da, huddi adabiy tilda bo‘lgani kabi ularning nozik farqlari ham mavjud. Bu farq ularni boshqa so‘z bilan biriktirilganda seziladi. Mas.: ***Arixta suw čiponγ axjapti*** *(Ariqda suv to‘la//ko‘p oqyapti).* ***Bozordo odom ašinča// älamʒä:än// čäxsa// čäč***

(Bozorda odam ko‘p) deyish mumkin bo‘lsa, ***itqïrin*** so‘zini bu o‘rinda mutlaqo qo‘llab bo‘lmaydi. Chunki ***kop, ašinča, čiponγ*** leksik birliklari ijobiy emotsional bo‘yo‘qqa ega bo‘lsa, ***itqïrin*** so‘zi salbiy emotsional bo‘yoqqa egaligi sabali yuqoridagi komponentlar o‘rnini bosa olmaydi. Qipchoq areal shevalarida ko‘proq salbiy ma’noda qo‘llanadi. Masalan, ***Tojda it egasini mišix bož̈asini tonimajdi, kegällär itqïrin*** *(To‘yda it egasini mushuk bojasini tanimaydi, mehmonlar (kelgan odamlar) nihoyatda ko‘p)* yoki ***Orixti tägiga ojox wosi bomajdi, šiltaq orik itqïrindi bob jatipti*** *(O‘rik daraxtining ostidan o‘tib bo‘lmaydi, to‘kilgan o‘rik mevalari yer bilan bitta bo‘lib yotibdi)* kabi.

Sinonimik qatorni hosil qilayotgan bosh so‘z (dominant) o‘zbek adabiy tili bilan shevalarda turlicha bo‘ladi. Bosh so‘z sinonimik qatordagi so‘zlar uchun umumiy bo‘lgan ma’noni aniq ifodalashi shart. Masalan: **chiroyli, go‘zal, xushro‘y, husnli, ko‘hlik, ko‘rkam, zebo, barno, suluv, sohibjamol** so‘zlari tashkil etgan sinonimik qatorda adabiy til uchun **chiroyli, go‘zal** so‘zlari dominant so‘z hisoblansa, qirg‘iz, qozoq, qoraqalpoq shevalarida ***suluw,*** Namangan qipchoq shevalarida qiz bolaga nisbatan ***čirajli,*** kattaroq, turmushga chiqqan ayol – juvonga nisbatan ***koxlik*** so‘zi bosh so‘z bo‘lib xizmat qiladi.

Namangan viloyati qipchoq shevalaridagi shevalararo sinonimlar. Boshqa sheva areallarida qo‘llaniluvchi dialektlardan o‘tgan so‘zlar bilan ma’nosi o‘xshash bo‘lgan sinonimlar dialektlararo sinonimlardir. Namangan viloyati Respublikamizdagi eng ko‘p shevaga ega areal hisoblanadi. Bu yerda qipchoq sheva vakillari qarluq sheva areallari bilan bir hududda istiqomat qiladilar. Areologik o‘tish va vibratsion (aralashish – tebranish) zonalari viloyatning har bir sheva arealida ko‘zga yaqqol tashlanadi. Xususan, tuman markazlari va unga yaqin hududlar qarluq lahjasiga mansub bo‘lsa, markazdan uzoqlashgan sari qipchoq lahjalarining o‘rni kuchayib boradi. Aytaylik, To‘raqo‘rg‘on tumanining Namangan shahri, Kosonsoy va Chust tumanlari tomonida joylashgan areallarida qarluqlashish kuchaya borsa, Mingbuloq tumani hududi tomonidagi aholi massivlari qipchoq lahjasi tomon o‘zgarib boradi.

Ma’lum bir shevada mavjud bo‘lgan ko‘plab so‘zlar boshqa shevalarda ham uchraydi. Zero, o‘sha predmet yoki harakatni bildiruvchi so‘z boshqa nom bilan aytilsa ham, ular bir xil ma’noni, tushunchani ifodalaydi va o‘zaro sinonimik qatorni tashkil etadi.

O‘zbek adabiy tilidagi **arqon//arg‘amchi** so‘zi Namangan viloyatidagi qipchoq shevalarida ***arγamči//arqan//bošov//pastrinka*** tarzida

qo‘llanadi va bu sinonimlar qipchoq areal shevalaridagi barcha aholi uchun tushunarli hisoblanadi.

Masalan: ***enä, änä, äpä, opo*** – **oyi** (Toshk.) – **buvi** (And.) – ona; **oshxo‘rda, guruchosh, mastava, xo‘rda** – **xorda** (Toshk.) – **mastava** (Farg‘.) – **oshixo‘rda** (Bux.) – mastava; **vaju, qozonkabob, mohora** – o‘ndan oshiq masalliq solinib tayyorlanadigan suyuq issiq ovqat nomi. **Vaju** (Farg‘.) – **mohora** (Toshk.) – ***qozonkabob –*** (Namangan). ***Challadi, charlar, choqiruv, aytkizuv, kuyavchaqirdi*** – marosim nomi (yangi kuyovning qaynotasinikiga birinchi tashrifi) kabi sinonimik qatorlarni tashkil etgan leksik birliklar Namangan viloyati qipchoq sheva areallarida baravar amalda qo‘llaniladi.

Shevalararo sinonimik qatorni tashkil etuvchi so‘zlardan qaysi biri o‘sha shevada faolroq ishlatilsa, bu so‘z asosiy lug‘aviy birlik hisoblanadi. Masalan, **o‘g‘it** so‘zi bilan sinonimik qatorni hosil qilgan **go‘ng, tezak, qiy** so‘zlaridan **go‘ng** so‘zi Namangan viloyati qipchoq shevalari arealida yetakchi sinonim hisoblanadi. Buxoro, Samarqand, Namangan viloyati qipchoq shevalari qarluq lahjalarida esa **tezak** so‘zi yetakchi sinonim hisoblanadi. Shuning uchun ham bunday sinonimik munosabatga kirishgan so‘zlar dialektlararo sinonimlar deyiladi.

O‘zbek adabiy tili va uning barcha shevalarida sinonimik qatorni tashkil etayotgan so‘zlar tarkibida fors-tojik va arab tillaridan tarixan o‘zlashgan so‘zlar ham bor. Bunday so‘zlar o‘zbek tilidagi so‘zlar bilan birga iste’molda bo‘lib, sinonimik qatorni hosil qiladi. Namangan viloyati qipchoq shevalarida ham bunday jarayonning mavjudligi kuzatiladi.

a) fors-tojikcha + o‘zbekcha so‘zlar sinonimiyasi: toj. **– rapida,** o‘zbekcha – ***jeŋča//jeŋiča,*** toj. – **padar,** o‘zbekcha – ***dädä, otä,*** fors-toj. – **chilla,** o‘zbekcha – ***qïrq,*** fors-toj. – **chillaguzaron,** o‘zbekcha – ***qirqičixti, qirq ušatti,*** fors-toj. – **ro‘(yi)kushod –** (Namangan qipchoq sh. ***rokišan//lokišan),*** o‘zbekcha **–** ***juzošti*** **//** ***betošti*** kabi.

b) arabcha + o‘zbekcha so‘zlar sinonimiyasi: ar. **bashara** – ***juz, äpt, turq, bet, kelbät, kepatä***, ar. – **quvvat** // ***qu:at,*** o‘zbekcha **–** ***silla, kuč*** kabi.

O‘zbek adabiy tili va boshqa o‘zbek shevalarida bo‘lgani kabi Namangan qipchoq shevalarida ham leksik maishiy sinonimlarning quyidagi ko‘rinishlari mavjud:

1. **Turg‘un sinonimlar**. O‘zbek adabiy tilidagi va shevalardagi juda ko‘p so‘zlar o‘z asl ma’nolarini saqlagan holda sinonim sifatida ishlatiladi. Bunday so‘zlar uyushgan holda sinonimik qatorni tashkil etadi. Turg‘un sinonimlar tub sinonimlarning asl mohiyatini tashkil etadi. Masalan, ***šak-***

šubhasiz, xoynä-xoy; nišäp, owi-towi, suvčečak, tašma, gulafšan, qïzilkojlak, qïzamiq, issixliq, ešak jemi, torva kabi.

2. **O‘zgaruvchan sinonimlar**. Bunday sinonimlar kontekstdan so‘zlashuv nutqiga o‘tgach yana boshqa so‘z bilan sinonimik munosabatiga kirishadi. Masalan: ***ziräk*** so‘zi ***isirγä, sirγä, bäldoγ*** kabi so‘zlar bilan sinonim bo‘lib keladi. **Hälqä** sinonimik qatordagi **qurshov, o‘roq, qo‘rg‘on** so‘zlari bilan kelganda ular bilan ham sinonimik munosabatga kirishadi. Yoki **kinchaba, kelinbuvi, yanga, kelinoyi, oya//aya** so‘zlari qarindosh-urug‘ ma’nosida bir sinonimik qatorda tursa, ***oya//äya*** so‘zi ayol o‘qituvchi, muallim, ustoz ma’nosida, **domla** so‘zi esa bir sinonomik qatorda erkak o‘qituvchini anglatsa, boshqa sinonimik qatorda, **mulla,** Qur’ondagi oyatlarni o‘qiydigan erkak kishini anglatadi.

O‘zbek adabiy tili hamda o‘zbek shevalardagi lug‘aviy sinonimik qatorlarni tashkil etayotgan har bir so‘zning o‘z vazifasi bor. Ba’zi sinonim so‘zlar ikkinchi bir sinonimik so‘z vazifasini ham bajara oladi, ayrimlari esa bajara olmaydi.

Xullas, har qanday sinonimik qatorni tashkil etuvchi leksik birliklarning lisoniy jihatdan o‘z o‘rni va bajaradigan vazifasi mavjud. Shu sababdan ham sinonimik qatorlar o‘zbek adabiy tilida, uning ichki omili hisoblanmish o‘zbek shevalarida, yozuvchi va shoirlarning asarlarida muayyan bir vazifani ado etish uchun qo‘llanadi.

Namangan viloyati qipchoq shevalaridagi maishiy leksik sinonimlar ham o‘zbek adabiy tilida bo‘lganidek, kishilar nutqning ta’sirchanligi va jozibadorligini oshiradigan lisoniy vosita hisoblanadi. Sinonimlar, xoh adabiy tilda, xoh shevalarda bo‘lsin, tilimizning lug‘at tarkibini, uning fondini boyitish va yanada mukammallashtirish uchun xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдураҳмонов Д., Содиқов Т., Носиров Ш., Туробов М. Ўзбек шевалари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1991. – Б. 13.

2. Алиев А.Ю. Наманган диалекти лексикасидан кузатишлар. Ўзбек шевалари лексикаси. – Тошкент, 1966.

3. Ashurboyev S. O‘zbek shevashunosligi. Darslik. – Toshkent: Navro‘z, 2016. – 271 b.

4. Ashurboyev S. Areal lingvistika. Darslik. – Toshkent: Bookmany print, 2023. – 280 b.

5. Дарвишов И. Ареал лингвистика: Жанубий-гарбий Наманган шеваларининг фонетнк-фонологик хусусиятлари, – Тошкент: Наврўз, 1919. – Б. 147.

6. Джураев А.Б. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива. – Ташкент: Фан, 1991. – 220 с.

7. Дониёров Х. Қипчоқ диалектларининг лексикаси. – Тошкент: Фан, 1979. – 158 б.

8. Муродова Н. Ўзбек тили Навоий вилояти шеваларининг ареал тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2006. – Б. 220.

9. Решетов В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – Б. 166.

10. Содиқов Т. Сўзларнинг шакл ва маъно муносабатига кўра турлари // Ўзбек шевалари лексикаси. – Тошкент, 1991. – Б. 108-118.

11. Тўйчибоев Б., Ҳасанов Б. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ меъроси, 2004. – Б. 5.

СИНТАКСИС ПРОСТОГО ПРЕДЛОЖЕНИЯ КАК ОСНОВА ГРАММАТИЧЕСКОЙ ЕДИНИЦЫ

Ботабаева Жанна Нуралиевна,
кандидат филологических наук, АО Университет имени Ж.А. Ташенева, г.Шымкент
botabayeva_janna@mail.ru,
https://orcid.org/0009-0009-8406-2113?lang=ru.
Стычёва О.А. к.п.н.
ЮКПУ имени О.Жанибекова,
Бекбаева Аружан Серікқызы,
магистрант Университета им. Ж.А. Ташенева, город Шымкент, Казахстан.

Аннотация: Данная работа посвящена изучению синтаксиса простого предложения – одной из важнейших категорий грамматики. В ней рассматриваются структура, типы, способы выражения главных и второстепенных членов предложения. Особое внимание уделено классификации простых предложений по цели высказывания, интонации и наличию второстепенных членов. Работа направлена на углубление понимания синтаксических норм и развитие навыков правильного построения предложений.

Annotation : This paper explores the syntax of the simple sentence — one of the key components of grammar. It examines the structure, types, and the ways in which main and secondary parts of a sentence are expressed. Special attention is given to the classification of simple sentences based on purpose, intonation, and the presence of secondary

parts. The work aims to deepen the understanding of syntactic rules and to develop the ability to construct grammatically correct sentences.

Аңдатпа : Бұл жұмыс грамматиканың маңызды салаларының бірі — жай сөйлем синтаксисін зерттеуге арналған. Жұмыста сөйлемнің құрылысы, түрлері, бастауыш пен баяндауыштың және басқа сөйлем мүшелерінің берілу жолдары қарастырылады. Сонымен қатар, сөйлемнің мақсатына, интонациясына және тұрлаусыз мүшелердің болуына қарай классификациясы сипатталады. Зерттеу синтаксистік заңдылықтарды терең түсінуге және сөйлемді дұрыс құрастыру дағдыларын дамытуға бағытталған.

Ключевые слова: синтаксис, простое предложение, структура, главные члены предложения, второстепенные члены, классификация, интонация, цель высказывания, грамматика, языковая норма.

Синтаксис является одним из центральных разделов грамматики, изучающим правила построения словосочетаний и предложений, а также их функционирование в речи. Среди синтаксических единиц особое значение имеет **предложение** как основная коммуникативная единица языка, выражающая завершённую мысль. В рамках синтаксической структуры предложения выделяют простое и сложное предложения, причём **простое предложение** рассматривается как исходная, базовая единица синтаксиса, лежащая в основе построения более сложных синтаксических конструкций.

Простое предложение отличается наличием одной предикативной основы, то есть одной грамматической связи между подлежащим и сказуемым, что делает его удобным объектом для синтаксического анализа [1; 36]. Именно с простого предложения начинается обучение синтаксису в школе, а также его активно используют в прикладных задачах, таких как автоматический синтаксический разбор, анализ текста, создание обучающих программ.

Научный интерес к проблеме простого предложения обусловлен не только его центральным положением в системе синтаксических единиц, но и многообразием его структурных и семантических типов, отражающих богатство и выразительность русского языка. В современной лингвистике продолжается обсуждение вопросов классификации простых предложений, уточнение их типов и подтипов, анализ их коммуникативной направленности, а также взаимодействия с контекстом и дискурсом.

Цель данной работы — систематизировать сведения о синтаксисе простого предложения, проанализировать его структурные особенности, классификационные признаки и синтаксические средства выражения членов предложения.

Для достижения цели ставятся следующие **задачи**:

- дать определение простого предложения с точки зрения современной грамматической теории;
- описать основные типы простых предложений по грамматическим и коммуникативным признакам;
- рассмотреть средства выражения главных и второстепенных членов предложения;
- провести анализ примеров простых предложений в живом контексте.

Объектом исследования является простое предложение в системе современного русского языка.

Предметом исследования выступают синтаксические особенности структуры простого предложения, его типология и коммуникативные функции.

Актуальность темы определяется необходимостью глубокого изучения синтаксических единиц в условиях развития когнитивной и корпусной лингвистики, а также важностью применения знаний о простом предложении в образовательной и прикладной лингвистике.

Вопросы синтаксической организации простого предложения занимают важное место в отечественной и зарубежной лингвистике. На протяжении XX и XXI веков были разработаны различные подходы к определению, классификации и интерпретации простого предложения в русском языке. Этот раздел работы посвящён анализу основных научных трудов, в которых рассматриваются теоретические и прикладные аспекты синтаксиса простого предложения.

Классическое понимание структуры предложения сформировалось в трудах представителей московской и петербургской (ленинградской) лингвистических школ. В частности, **А.М. Пешковский** в работе *«Русский синтаксис в научном освещении»* (1956) одним из первых систематизировал типы простых предложений и выделил их грамматические признаки, уделяя внимание интонации и коммуникативной функции [2; 26]. Пешковский подчеркивал, что синтаксис — это не только структура, но и «интонационно-смысловая форма».

В.В. Виноградов в своих трудах акцентировал внимание на стилистических и семантических аспектах предложения, развивая идею взаимодействия синтаксиса и лексики. Он рассматривал простое предложение как минимальную единицу смысловой и коммуникативной завершённости, в которой отражаются особенности речевого мышления.

Большое влияние на развитие синтаксической теории оказал коллективный труд *«Русская грамматика»* [3; 146], подготовленный Институтом русского языка РАН под редакцией Н.Ю. Шведовой. В этом фундаментальном издании предложена чёткая и систематическая классификация простых предложений по структурным, морфологическим и функционально-семантическим критериям. Здесь даётся подробное описание двусоставных и односоставных предложений, включая все их разновидности.

В более поздних исследованиях, таких как труды **Г.А. Золотовой** *«Коммуникативные аспекты русского синтаксиса»*, внимание сосредотачивается на прагматике и дискурсивной роли предложения. Золотова вводит понятие «синтаксической позиции», рассматривает предложения как речевые формулы, которые реализуют определённые интенции говорящего.

Значительный вклад в разработку вопросов типологии простого предложения внесли также **Т.В. Булыгина** и **Н.Д. Арутюнова**. В их совместной работе *«Виды языковых значений»* [4; 99] анализируется соотношение между синтаксической формой и коммуникативной функцией, а также рассматривается статус различных односоставных конструкций с точки зрения логико-семантического подхода.

В последние десятилетия наблюдается активное развитие корпусной и компьютерной лингвистики, что позволяет исследовать синтаксис простого предложения на эмпирической основе. Корпусные данные (например, из Национального корпуса русского языка) позволяют анализировать частотность различных конструкций, выявлять региональные и жанровые особенности употребления простых предложений.

Таким образом, синтаксис простого предложения является предметом многогранного и системного изучения, охватывающего структурные, функциональные, семантические и прагматические аспекты. Современные исследования сочетают традиционные грамматические подходы с новейшими достижениями в области

теории текста, когнитивной и корпусной лингвистики, что делает тему актуальной и открытой для дальнейшего анализа.

Синтаксическая структура предложения традиционно рассматривается как результат взаимодействия лексико-грамматических и коммуникативно-прагматических факторов. Простое предложение, как базовая синтаксическая единица, обладает определённым набором формальных и функциональных признаков, отличающих его от других единиц синтаксиса — словосочетания и сложного предложения.

Развитие письменной речи требует постепенного усложнения заданий: от копирования и списывания к написанию небольших текстов, включающих собственное мнение, описание событий, формулирование выводов. Эффективными методами являются работа с образцами, пошаговое моделирование текста, коллективное редактирование.

Для эффективного развития устной и письменной речи в целях формирования коммуникативных универсальных учебных действий необходима реализация ряда педагогических условий:

Личностно-ориентированное взаимодействие, в котором ученик чувствует себя полноценным участником общения, его мнение важно и принимается во внимание.

Речевая насыщенность образовательной среды, предполагающая использование разнообразных форм речевой деятельности: устные рассказы, диалоги, дебаты, письменные работы, игры, драматизации.

Интеграция речевого развития с другими предметами, что позволяет расширить сферы применения коммуникативных умений и повысить мотивацию к речевому выражению мыслей.

Системность и поэтапность обучения речи, выражающаяся в целенаправленном формировании навыков по принципу от простого к сложному, от имитации к самостоятельному творчеству.

Рефлексия и самооценка речевой деятельности, способствующие развитию осознанности в использовании языковых средств и корректировке речевого поведения.

Практическое применение устной и письменной речи. Тема урока русского языка: «Описание игрушки» (2 класс).

Цель: развитие устной и письменной речи учащихся; формирование коммуникативных УУД через диалог и письменное высказывание.

Ход задания:

1. Устная часть (диалог):

Учитель показывает игрушку (например, медвежонка) и задаёт вопросы:

– Кто знает, как называется эта игрушка?

– Какого она цвета?

– Из какого материала сделана?

– Чем она вам нравится?

Далее ученики по очереди описывают игрушку устно. Затем в парах обмениваются мнениями о своих любимых игрушках.

Формируемые КУУД:

– умение вступать в диалог;

– задавать вопросы и отвечать;

– слушать и учитывать мнение собеседника;

– выражать собственное мнение.

2. Письменная часть:

Ученики получают задание: “Напиши 4–5 предложений о своей любимой игрушке. Постарайся описать её внешний вид и объяснить, почему она тебе дорога.“

Формируемые КУУД:

– построение письменного связного высказывания;

– использование языковых средств в соответствии с задачей;

– самоконтроль (проверка текста по плану).

Результаты выполнения задания. В результате выполнения задания учащиеся:

– Овладели навыками устного диалога, научились задавать вопросы и давать полные развернутые ответы;

– Развили умение слушать собеседника и учитывать его точку зрения при совместной работе в парах;

– Сформировали первичные навыки связного письменного высказывания, описывая предмет по плану с соблюдением логики и последовательности;

– Расширили словарный запас, активизировали в речи прилагательные, существительные и глаголы, соответствующие теме описания;

– Продемонстрировали сформированность элементов коммуникативных УУД: умение выражать мысли в устной и письменной форме, вступать в речевое взаимодействие, учитывать собеседника, корректно высказывать своё мнение.

Вывод: Такое интегрированное задание позволяет развивать как устную, так и письменную речь, одновременно формируя ключевые коммуникативные УУД: умение слушать, высказываться, понимать и учитывать мнение других, формулировать мысли в устной и письменной форм.

Приёмы развития устной речи: Метод «Диалог по ролям»

Ситуация: Учащиеся разыгрывают сценку «В магазине», «У врача», «На почте».

Цель: Развитие коммуникативных умений учащихся через активное речевое взаимодействие в смоделированной жизненной ситуации.

Суть метода: Учащиеся разыгрывают заранее подготовленные или самостоятельно составленные диалоги, в которых каждый выполняет определённую роль. Ситуации максимально приближены к реальной жизни, что способствует повышению мотивации и вовлечённости детей.

Порядок проведения:

1. Учитель объясняет ситуацию и распределяет роли.

2. Ученики получают карточки с речевыми подсказками или готовят реплики самостоятельно.

3. Проводится разыгрывание диалога. Остальные ученики наблюдают, после чего обсуждают услышанное:

– Какие выражения были удачными?

– Что можно было сказать по-другому?

– Как соблюдены нормы вежливости?

Речевые навыки, которые формируются: – постановка вопросов и ответы на них;

– употребление речевых клише (вежливые формы обращения, прощания и др.);

– выражение просьбы, отказа, согласия;

– соблюдение интонации и темпа речи.

Формируемые коммуникативные УУД: – умение вести диалог с учётом речевой ситуации;

– учитывать позицию собеседника;

– корректно выражать мысли и эмоции;

– работать в паре или группе, распределяя речевые роли.

«Микрофон» или «Говорящая палочка».

Упражнения по развитию письменной речи: «Продолжи текст».

Задание: Ученикам предлагается начало рассказа, например:

«Однажды утром Петя проснулся и услышал странный шум за окном…»

Детям необходимо придумать и записать продолжение истории.

Цель: Развитие воображения, логического мышления, умения выстраивать сюжетную линию, а также формирование умений создавать связный и завершённый письменный текст.

Методические особенности:

– Начало рассказа должно быть интересным, с элементом интриги;

– Учитель может предложить план или ключевые слова, чтобы направить мысли учащихся;

– После выполнения задания проводится коллективное чтение и обсуждение работ.

Формируемые умения:

– логическая последовательность высказывания;

– связность текста;

– правильное употребление временных форм глаголов, союзов, местоимений и пр.

Результаты выполнения заданий. В результате выполнения данных письменных упражнений у учащихся наблюдаются следующие положительные изменения:

– Сформированы первичные навыки текстопостроения: учащиеся научились выстраивать логически последовательный рассказ с началом, развитием и завершением сюжета;

– Развиты творческие способности и воображение, что особенно ярко проявляется при создании оригинальных продолжений заданного текста;

– Улучшены грамматические и орфографические навыки, благодаря практическому применению правил в контексте личных письменных высказываний;

– Сформировано представление о жанровых особенностях письма: учащиеся усвоили структуру личного письма, научились использовать речевые формулы обращения, прощания и выражения эмоций;

– Повысилась мотивация к письменной речевой деятельности — дети с интересом выполняют задания, особенно если они связаны с их личным опытом или фантазией;

–Продемонстрирована сформированность элементов коммуникативных УУД, таких как умение ясно и связно выражать свои мысли в письменной форме, учитывать адресата высказывания, структурировать текст в соответствии с речевой задачей.

Вывод: Таким образом, систематическое использование подобных заданий на уроках русского языка является необходимым условием полноценного развития письменной речи младших школьников и формирования их коммуникативной компетентности.

Заключение. Развитие устной и письменной речи младших школьников играет ключевую роль в формировании коммуникативных универсальных учебных действий, обеспечивая основу для успешного усвоения учебного материала и эффективного взаимодействия в образовательной среде. Именно через речевую деятельность учащиеся учатся выражать свои мысли, слушать и понимать других, строить диалог и участвовать в коллективном обсуждении. Использование разнообразных речевых заданий — от устных высказываний до письменных сочинений — позволяет не только обогатить словарный запас и грамматические навыки, но и способствует развитию критического мышления, рефлексии и способности к сотрудничеству. Таким образом, целенаправленное развитие речи на уроках русского языка должно рассматриваться как стратегически важное направление формирования коммуникативной компетенции младшего школьника.

Использованные литературы:

1. Асмолов А.Г. Как проектировать универсальные учебные действия в начальной школе: от действия к мысли: пособие для учителя. – М.: Просвещение, 2010.

2. Бахтин, М.М. Проблемы речевых жанров. – М.: Лабиринт, 2003.

3. Бунеев, Р.Н., Бунеева, Е.В., Пронина, О.В. Методика обучения русскому языку в начальных классах. – М.: Баласс, 2006.

4. Выготский Л.С. Мышление и речь. – М.: Лабиринт, 2000.

5. Давыдов, В.В. Проблемы развивающего обучения. – М.: Педагогика, 1986.

6. Занков, Л.В. Обучение и развитие. – М.: Просвещение, 1975.

7. Зимняя, И.А. Психология обучения. – М.: Логос, 2000.

8. Климанова, Л.Ф., Бабушкина, Т.В. Русский язык. 1–4 классы: методические рекомендации. – М.: Просвещение, 2016.

9. Леонтьев, А.А. Психология общения. – М.: Смысл, 1999.

10. Лепешкина, О.Б. Формирование коммуникативной компетенции младших школьников. – М.: ВЛАДОС, 2012.

11. Матвеева, Е.И. Формирование универсальных учебных действий у младших школьников: теория и практика. – М.: Академия, 2011.

12. Нечаева, Н.В. Развитие речи у младших школьников. – М.: Просвещение, 2003.

13. Рамзаева, Т.Г. Русский язык в начальной школе: Методика. – М.: Просвещение, 2004.

14. Цукерман, Г.А. Как учиться с увлечением: развитие учебной самостоятельности младших школьников. – М.: Вита-Пресс, 2002.

TARİX DƏRSLƏRİNDƏ AKMEOLOJİ BACARIQLARIN ƏSAS PRİNSİPLƏRI

Həsənova Ülkər,
Azərbaycan Respublikasının Təhsil İnstitutunun
Doktorantı, ulker.bdu@bk.ru
Bakı/ Azərbaycan ORCİD: 0009-0009-6054-7503

Xülasə: Məqalədə tarix fənninin tədrisində akmeoloji bacarıqların şagirdlər üçün əhəmiyyətinin vacibliyi təhlil olunur. Akmeoloji bacarıq insanın potensial inkişafını araşdıran elm sahəsi kimi təhsildə- xüsusilə də tarix fənnində, şagirdlərin şəxsiyyət kimi formalaşmasına töhfə verir. Tarix dərsləri vasitəsilə şagirdlər dəyərlərin mənimsənilməsi,tənqidi düşünmə, özünüidarə, kommunikativ və sosial bacarıqlar kimi akmeoloji komponentləri inkişaf etdirə bilirlər. Məqalədə bu bacarıqların formalaşması üçün problemyönümlü təlim, rollu oyunlar və portfoliolar, tədqiqat tapşırıqları kimi üsullar təklif edilir. Akmeoloji bacarıqlar şagirdin şəxsiyyətini, onun məqsədyönlülüyünü və informasiya savadlılığını inkişaf

etdirir. Həmçinin, ümumbəşəri və milli dəyərlərin mənimsənilməsinə də şərait yaradır. Bu bacarıqların qiymətləndirilməsi reflektiv metodlar, debat və portfolio qiymətləndirməsi və başqa vasitələrlə mümkündür. Tədqiqatın nəticəsində qeyd olunur ki, tarix dərslərində şagirdlərin akmeoloji bacarığını inkişaf etdirdikdə, onlar həm elm, tədrisdə uğur qazanır, həm də həyatda sosial, mədəni baxımdan daha yetkin və məsuliyyətli fərd kimi formalaşırlar.

Tarix dərslərində akmeoloji bacarıqlar – yəni şagirdin özünün ən yüksək inkişaf səviyyəsinə çatması üçün zəruri olan bacarıqlar – xüsusi əhəmiyyət kəsb edir. Bu bacarıqların formalaşmasının və tətbiqinin əsaslandığı elmi-nəzəri prinsip və yanaşmalar, onların tətbiq yolları, fənn kontekstində təlimin keyfiyyətinə və nəticələrinə təsiri bu məqalənin əsas mövzusunu təşkil edir.

Açar sözlər: Akmeoloji bacarıq, şagird, müəllim, təlim, metod, debat

Resume: The article analyzes the importance of acmeological skills for students in teaching history. Acmeological skills, as a scientific field that studies the potential development of a person, contribute to the formation of students as personalities in education, especially in history. Through history lessons, students can develop acmeological components such as the acquisition of values, critical thinking, self-management, communicative and social skills. The article suggests methods such as problem-oriented learning, role-playing games and portfolios, and research tasks for the formation of these skills. Acmeological skills develop the student's personality, his purposefulness and information literacy. They also create conditions for the assimilation of universal and national values. The assessment of these skills is possible through reflective methods, debate and portfolio assessment, and other means. The results of the study show that when students develop acmeological skills in history lessons, they achieve success in science and teaching, and also become more mature and responsible individuals in social and cultural terms in life.

Acmeological skills – that is, skills necessary for a student to reach the highest level of his/her own development – are of particular importance in history lessons. The scientific-theoretical principles and approaches on which the formation and application of these skills are based, the ways of their application, and their impact on the quality and results of teaching in the context of the subject constitute the main topic of this article.

Keywords: Acmeological skills, student, teacher, training, method, debate

Müasir təhsil sistemində məqsəd yalnız informasiya ötürmək deyil, eyni zamanda təhlil edən, düşünən, sosial baxımdan aktiv, özünü idarə edən və vətəndaş yetişdirməkdir. Məhz bu baxımdan, məktəb fənlərin tədrisi təkcə bilik qazanmaqdan daha çox, şagirdin şəxsi inkişaf üçün bir vasitə rolunu oynayır. Xüsusilə humanitar fənlər, o cümlədən tarix fənni şagirdin şəxsiyyətinin formalaşmasında əsas rol oynayır. Bu prosesdə akmeoloji bacarıqların inkişafı vacib əhəmiyyət daşıyır. Akmeoloji bacarıqlar insanın özünün zirvə inkişaf mərhələsinə çatmaq yollarını araşdıran elmdir. Onun əsas prinsipləri təhsil mühitinə tətbiq edildikdə, təhsilalanın həm intellektual, həm də sosial və emosional inkişafına xidmət edir.

Akmeologiya (yunanca, "akme" – zirvə, ən yüksək nöqtə) - insanın inkişafında maksimal potensialına çatmasını araşdıran elmdir. Bu elm sahəsi əsasən pedaqogika və psixologiya ilə qarşılıqlı əlaqədə inkişaf etmişdir. Təhsil sahəsində akmeologiyanın məqsədi insanın (burada şagirdin) təkcə elmi biliklərə yiyələnməsi deyil, habelə şəxsiyyət kimi formalaşması, sosial rollarını anlaması, özünü dərk etməsi və özünü inkişaf etdirməsi üçün şərait yaratmaqdır [Маркова, 1996: 28].

Təhsildə akmeoloji bacarıq aşağıdakı məqsədləri güdür:

- Özünü dərk etmə, özünü tənzimləmə və özünü reallaşdırma bacarıqlarının inkişafı;
- Şəxsin potensialının aydınlaşması və inkişafı;
- İnkişaf yönümlü təlim mühitinin yaradılması;
- Məqsədyönlülüyün və motivasiyanın gücləndirilməsi.

Tarix dərslərinin tədrisində bu məqsədlərə çatmaq, təlimin təşkili və akmeoloji yanaşmanın əsas prinsipləri ilə tələb edir.

Akmeoloji bacarıqlar - şagirdin öz potensialını dərk etməsi, inkişaf etdirməsi və həyatda optimal seçimlər etməsi üçün zəruri olan bilik, vərdiş və dəyərlər kompleksidir. Tarix dərslərində bu bacarıqlar aşağıdakı istiqamətlərdə təzahür edir:

• Etik və vətəndaşlıq mövqeyi – tarixi proseslərə ədalətli qiymət vermək;

• Tənqidi və analitik düşüncə – hadisələrin səbəb-nəticə əlaqələrini analiz etmək;

• Sosial ünsiyyət və əməkdaşlıq – debatlarda və qrup işlərində iştirak;

• Özünütəhlil və refleksiya – şəxsi fikirləri əsaslandırmaq və inkişaf etdirmək;

• Tədqiqat bacarıqları – müxtəlif mənbələrdən istifadə etməklə nəticəyə gəlmək [Кузьмина, 1993: 21].

Tarix dərslərində akmeoloji bacarıqların formalaşdırılması aşağıdakı əsas elmi-praktiki prinsiplərə əsaslanır:

1. Şəxsiyyət yönümlülük prinsipi: Tədris şagirdin fərdi xüsusiyyətlərini nəzərə almalı və onun şəxsiyyət kimi inkişafını hədəfləməlidir. Hər bir şagirdin qabiliyyəti, maraqları və öyrənmə tərzi fərqli olduğundan, fərdiləşdirilmiş təlim mühüm əhəmiyyət kəsb edir.

2. Məqsədyönlülük prinsipi: Akmeoloji inkişaf məqsədlərlə bağlıdır. Şagirdin qarşısına yaxın, orta və uzaq məqsədlər qoyulmalı və bu məqsədlərə çatmaq üçün ardıcıl addımlar planlaşdırılmalıdır. Tarix dərslərində məqsədlər həm bilik, həm də bacarıq səviyyəsində müəyyən olunmalıdır.

3. Fəal iştirak prinsipi: Şagird təlimin passiv iştirakçısı deyil, fəal iştirakçısı olmalıdır. Onun fikirləri, sualları, alternativ baxışları dərs prosesində nəzərə alınmalı və təşviq olunmalıdır. Rollu oyunlar, debatlar və tədqiqat layihələri bu məqsədə xidmət edir.

4. Dəyərlərin formalaşması prinsipi: Tarix dərsləri milli, bəşəri və etik dəyərlərin formalaşması üçün əlverişli zəmin yaradır. Şagirdlər tarixi hadisələrə və şəxsiyyətlərə müxtəlif dəyərlər prizmasından baxaraq mövqelərini formalaşdırırlar.

5. Refleksiya və özünüqiymətləndirmə prinsipi: Şagird öz fəaliyyətini təhlil etməyi, qiymətləndirməyi və inkişaf üçün yeni yollar tapmağı öyrənməlidir. Portfoliolar, gündəliklər, özünüqiymətləndirmə anketləri bu prosesə xidmət edir [Əmirov, 2011: 85].

Tarix dərslərində akmeoloji bacarıqların inkişafı təkcə fənn üzrə uğur deyil, həm də həyat üçün vacib olan şəxsiyyət keyfiyyətlərinin formalaşması baxımından əhəmiyyətlidir. Akmeoloji prinsip və yanaşmalar şagirdin şəxsiyyətini, intellektual və sosial potensialını inkişaf etdirərək onu öz həyatının subyekti edir. Bu bacarıqlar gələcəyin cəmiyyətində uğur qazanmaq üçün şagirdlərə lazım olacaq əsas kompetensiyaların – tənqidi təfəkkür, etik mövqe, qərarvermə, empatiya və sosial məsuliyyətin təməlini təşkil edir.

Tarix fənni bu məqsədə çatmaq üçün çox əlverişli imkanlar təqdim edir:

- Hadisələrin təhlili və qiymətləndirilməsi,
- Tarixi şəxsiyyətlərin qərarlarının araşdırılması,
- Etik və sosial mövzular ətrafında düşünmək və fikir bildirmək bacarığı.

Akmeoloji bacarıqlar müxtəlif kateqoriyalara ayrılır və bunların hər biri təhsildə, xüsusilə tarix dərslərində reallaşdırıla bilər:

1. Tənqidi təfəkkür bacarıqları: Tarixi hadisələrin səbəb-nəticə əlaqələrinin qurulması; Müxtəlif mənbələrin müqayisəsi və təhlili;
2. Refleksiya və özünüidarə bacarığı: Öyrənmə prosesini sistemli planlaşdırmaq; Verilən tapşırıqları yerinə yetirmək; Fəaliyyətini qiymətləndirmək sonda nəticə çıxarmaq;
3. Dəyərlərin formalaşdırılması: Tarixi ədalət, vətənpərvərlik, insan hüquqaları kimi anlyaışların öyrədilməsi; Müxtəlif ideoloji baxışlara hörmətlə yanaşma;
4. Sosial və kommunikativ bacarıqlar: Diskussiya və debatlarda iştirak; fikir mübadiləsi aparmaq; Qrup işlərində əməkdaşlıq etmək [Марκова,2004: 102];

Tarix dərslərində bu bacarıqların inkişafı üçün müxtəlif üsul, vasitə və yollardan istifadə olunur:

1. Problemlə əsaslandırılmış təlim- Məsələn: "Əgər sən Çar I Nikolayın yerində olsaydın, hansı qərarları qəbul edərdin?" – və başqa bu kimi suallar şagirdin qərarvermə və empatik düşüncə bacarıqlarını inkişaf etdirir.
2. Tədqiqat yönümlü tapşırıqlar- Şagirdlərə bir hadisə ilə bağlı arxiv sənədləri, memuarlar, müasir mənbələr təqdim edilərək tədqiqat işi aparmaq tapşırılır. Bu, tənqidi təfəkkürü və analitik qabiliyyəti artırır.
3. Debatlar və rollu oyunlar- Tarixi hadisələrə əsasən simulyasiyalar və ya məhkəmə tərzində debatlar keçirilə bilər. Bu üsullar şagirdin həm sosial, həm də emosional bacarıqlarını inkişaf etdirir
4. Portfolio və özünüqiymətləndirmə- Şagirdlərin tapşırıqlarını, analizlərini və nəticələrini toplayaraq öz inkişaflarını izləmələri təşviq olunur. Bu metod reflektiv düşüncə və məsuliyyət hissini gücləndirir [Musayev,2022:72].

Akmeoloji bacarıqların məqsədi şagirdin öz inkişafına nəzarət etməyi öyrənməsidir. Bu bacarıqlar tarix dərslərində aşağıdakı istiqamətlərdə inkişaf edir:

a) Şəxsiyyətin formalaşması: Tarix dərsləri, əxlaqi və sosial mövzularda düşünmək üçün zəngin material təqdim edir. Şagird təkcə hadisəni öyrənmir, onun mənəvi tərəfini də dəyərləndirir.

b) Özünüdərk və məqsədyönlülük: Müxtəlif dövrlərdəki şəxsiyyətlər və onların həyat yolu şagirdə şəxsi məqsədləri planlamaq və onlara nail olmaq üçün motivasiya olur.

c) Milli və ümumbəşəri dəyərlərin mənimsənilməsi: Tarixi öyrənməklə şagird həm öz xalqının milli-mənəvi dəyərlərini anlayır, həm də beynəlxalq müstəvidə insan hüquqları, sülh, azadlıq kimi dəyərləri mənimsəyir.

ç) İnformasiyaya tənqidi yanaşma: Tarixi mənbələri müqayisə edərək dəyərləndirən şagird, eyni yanaşmanı gündəlik həyatda da tətbiq edir – bu isə informasiya savadlılığı baxımından vacibdir.

Bu bacarıqların formalaşdığını müəyyən etmək üçün müəllimlər müxtəlif üsullardan istifadə edə bilərlər:

1. Açıq suallı testlər
2. Təqdimat və debatlarda iştirak
3. Özünüqiymətləndirmə anketləri və gündəliklər
4. Portfolio qiymətləndirilməsi [İlyasov, 2018: 56]

Belə yanaşmalar yalnız biliyin deyil, bacarıqlarında qiymətləndirilməsi mümkündür.

Tarix dərsləri yalnız keçmişin öyrədilməsi üçün deyil, həm də şagirdin şəxsiyyət kimi formalaşdırılması üçün əvəzsiz vasitədir. Akmeoloji bacarıqların dərslərə inteqrasiyası, şagirdin tənqidi düşüncəyə malik, dəyərlərə sadiq, özünü idarə edə bilən və sosial baxımdan aktiv fərd kimi inkişafına şərait yaradır. Bu bacarıqlar müasir cəmiyyətin tələb etdiyi kompetensiyaları formalaşdırır və şagirdin gələcək həyatında - ali təhsildə, peşə sahəsində və şəxsi münasibətlərdə uğur qazanmasına yardım edir.

Ədəbiyyat:

1. İlyasov M.İ. Müəllim peşəkarlığı və pedaqoji səriştəliliyin müasir problemləri: Monoqrafiya. Bakı: Elm və təhsil, 2018, 208 s.
2. Маркова А.К. Психология профессионализма / М.: Междунар. Фонд гуманитарных знаний, 1996. - 308 с.;
3. Маркова А.К. Акмеология, под ред. А.А.Деркач, М.: Издательство РАГС, 2004. 299 с.
4. Musayev.D., Tarixin tədrisində interaktiv metodlardan istifadənin imkanları. Bakı.2022., 232s
5. Əmirov M., TAM ORTA MƏKTƏBDƏ TARİXİN FƏAL/İNTERAKTİV TƏLİMİ METODİKASI, Bakı.2011. 706 s
6. Кузьмина Н.В., Реан А.А. Профессионализм педагогической деятельности. СПб.: Рыбинск, 1993. 54 с.

KO‘CHMA MA’NOLI BIRLIKLARNING MURAKKAB SINTAKTIK BUTUNLIK TARKIBIDA SINTAKTIK VA STILISTIK INTEGRATSIYASI

Amanov Abdijabbor Sattarovich,
Namangan davlat universiteti
dotsenti v.b., PhD

Annotatsiya: Ushbu maqolada ko‘chma ma’noli birliklarning murakkab sintaktik butunlik (MSB) tarkibida qanday sintaktik va stilistik integratsiyaga ega ekani lingvistik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot zamonaviy o‘zbek adabiyoti matnlari asosida olib borilib, metafora, metonimiya va ironiyalarning MSB doirasida qanday pozitsiyalarda joylashishi, gaplararo semantik bog‘liqlikni qanday shakllantirishi hamda stilistik yuklama yaratishdagi roli aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: murakkab sintaktik butunlik, ko‘chma ma’no, sintaktik integratsiya, stilistik funksional yuklama, metafora.

KIRISH

O‘zbek tilshunosligida sintaksis masalalari uzoq yillardan beri tadqiqot markazida bo‘lib kelmoqda. Jumladan, gap birligi, uning tarkibi, sintaktik bog‘lanishlar, gaplar o‘rtasidagi munosabatlar va matn tuzilishidagi murakkab sintaktik birliklarning o‘rganilishi zamonaviy tilshunoslik uchun nihoyatda dolzarb hisoblanadi. Ayniqsa, murakkab sintaktik butunliklar (MSB)ning tabiati, ularning ko‘p qatlamli strukturasi, ifoda mazmuni va stilistik vazifalari lingvistik tahlil nuqtai nazaridan katta qiziqish uyg‘otadi.

Murakkab sintaktik butunliklar, aslida, matn ichidagi sintaktik voqelikning yuksak bosqichini ifodalaydi. Ular faqat grammatika emas, balki semantika, pragmatika va stilistika kabi tilshunoslikning ko‘p sohalari bilan bevosita bog‘liqdir. Ayniqsa, badiiy adabiyot va publitsistik matnlarda uchraydigan MSBlarda ko‘chma ma’nodagi vositalarning ishtiroki til ifoda vositalarining boyligi va ko‘p qatlamli talqin imkoniyatini namoyon etadi. Bunda metafora, metonimiya, ironiyalashuv kabi ko‘chma ma’noli birliklar, murakkab gap tuzilmalarida yangi semantik maydonlar yaratadi.

Zamonaviy tilshunoslikda matn pragmatikasiga asoslangan tadqiqotlar fonida MSBlar orqali yuzaga keladigan ko‘chma ma’nolarning sintaktik va semantik talqini yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki, MSBlardagi ko‘chma ma’nolar birgina grammatik shakllanish natijasi emas, balki muallifning stilistik niyati, kontekstual omillar va idrok

jarayoni bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan til hodisasidir. Bu jihatlar MSB tarkibidagi gaplar o‘rtasidagi semantik bog‘liqlik, sintaktik integratsiya va pragmatik markazlashuv orqali o‘z ifodasini topadi.

Bugungi globallashuv va axborotlashuv sharoitida o‘zbek adabiy tilida yuzaga kelayotgan uslubiy yangilanishlar, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar, yangiliklar va publitsistika matnlarida ko‘chma ma’noli MSBlarning qo‘llanilishida yangi uslubiy tendensiyalarni keltirib chiqarmoqda. Bu esa MSB doirasida ko‘chma ma’noli birliklarning sintaktik realiatsiyasi masalasini yana bir bor dolzarb muammolar qatoriga olib chiqmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Murakkab sintaktik butunlik (MSB) masalasi hozirgi tilshunoslikda turli yo‘nalishlar – funksional grammatika, kognitiv lingvistika, stilistika va pragmalingvistika kesishmasida tadqiq etilmoqda. Avvalo, MSBlar matn birliklari sifatida o‘rganilib, ulardagi semantik izchillik, sintaktik bog‘liqlik va stilistik yuklamaning o‘zaro uyg‘unligi haqida turli nazariy qarashlar shakllangan.

Murakkab sintaktik birliklar nazariyasi asosan XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab shakllana boshlagan bo‘lib, ularning o‘zaro bog‘lanishi masalasi B.I. Peshkovskiy, V.V. Vinogradov, R.A. Budagov kabi rus tilshunoslari ishlarida alohida o‘rganilgan. Jumladan, Vinogradov MSBlarni “stilistik matn strukturasining grammatika orqali beriladigan asosiy ramkasi” deb ta’riflaydi [1]. Uning fikricha, MSB gaplararo izchillikni ta’minlabgina qolmay, ko‘p hollarda semantik va stilistik yuklamalarni ham bir butun holatda taqdim etadi.

B.I. Peshkovskiy esa “sintaktik butunlik” tushunchasini gapdan yirikroq birlik sifatida qaraydi, va bunday birliklarning ifoda darajasini semantik ko‘rsatkichlar bilan izohlaydi [2]. U MSBni matn sathidagi til birligi sifatida talqin qiladi. Bu yondashuv keyinchalik L.P. Chesnokova, L.V. Shcherba, T.A. Komova kabi olimlar tomonidan sintaktik intonatsion struktura orqali boyitilgan.

Xorijiy tilshunoslikda, ayniqsa ingliz tilida olib borilgan tadqiqotlarda MSB masalasi ko‘p jihatdan matn bog‘liqligi (textual cohesion) va matnning kognitiv strukturasiga (conceptual integration) tayanib izohlanadi. M. Halliday va R. Hasan’ning asarida matndagi gaplararo bog‘liqliklar – referensiya, substitutsiya, ellipsis, bog‘lovchilar orqali tashkil qilinadigan MSBlar, stilistik jihatdan ham, semantik jihatdan ham yaxlit birlik sifatida qaraladi [3].

Shuningdek, N. Chafe va V. L. Bennet tadqiqotlarida kognitiv yondashuv asosida MSBlar voqelikni segmentlashtirish vositasi sifatida talqin qilinadi [4]. Ular gaplararo bog‘lanish va ko‘chma ma’noli birliklarning konseptual tuzilmasini pragmatik va diskursiv darajada tahlil qilgan. Ayniqsa, ko‘chma ma’nolar MSB tarkibida faqat stilistik vosita bo‘lib qolmasdan, ko‘p hollarda muallif nutqining kommunikativ strategiyasi sifatida xizmat qilishi e’tirof etiladi.

Ko‘chma ma’nodagi birliklarning MSB tarkibida yuzaga chiqishi, ya’ni metafora, metonimiya, ironiyaning sintaktik struktura bilan uyg‘unlashuvi haqida G. Lakof va M. Jonson tomonidan ishlab chiqilgan “Konseptual metofora nazariyasi” doirasidagi izohlar alohida ahamiyat kasb etadi. Ular til birliklari orqali voqelikning kontseptual xaritasini yaratishda aynan MSBlar asosiy vosita bo‘lishini ta’kidlaydi [5]. Ularning fikricha, metaforik strukturalar ko‘pincha matnning sintaktik sathida, ayniqsa MSB doirasida chuqur semantik yuklamani shakllantiradi.

Rossiya tilshunosligida so‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlarda MSBlar va ularning semantik strukturalari, ayniqsa, publitsistik va siyosiy nutqdagi namunalarda ko‘plab tahlil qilinmoqda. Masalan, V.E. Chernyavskaya “Diskursiv strukturalar” asarida ko‘chma ma’nolarning matn diskursida qanday sintaktik kontekstlarda namoyon bo‘lishini chuqur o‘rganadi [6]. U MSBni muallifning ideologik pozitsiyasini ifodalovchi va ko‘p qatlamli kommunikativ anglatmalarning konteyneri sifatida baholaydi.

Bundan tashqari, A.N. Baranov va I.M. Kobozeva tadqiqotlarida ko‘chma ma’no (metafora, metonimiya)ning sintaktik strukturadagi joylashuvi, ularning intonatsion va semantik kontekstga bog‘liqligi haqida izchil tahlillar mavjud [7][8]. Ayniqsa, ular zamonaviy matnlarda MSBlar orqali stilistik ko‘rinishning o‘zgaruvchanligini ko‘rsatib berishgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Murakkab sintaktik butunliklar (MSB) zamonaviy adabiy til matnlarida faqat grammatika birliklari tizimi sifatida emas, balki muallifning nutqiy strategiyasi, stilistik pozitsiyasi va kognitiv ifoda vositasi sifatida ham faol ishlatiladi. Ayniqsa, MSB doirasida ko‘chma ma’noli birliklarning (metafora, metonimiya, ironik ifodalar va b.) o‘rni va ahamiyati yuqoriligi ularning sintaktik realiatsiyasini alohida tahlil qilish zaruratini tug‘diradi. Tadqiqot davomida o‘zbek nasriy-adabiy matnlaridan tuzilgan korpus asosida olib borilgan kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, ko‘chma ma’noli birliklar MSB tarkibida turli sintaktik pozitsiyalarda joylashib, har bir holatda o‘ziga xos semantik-funksional yuklama hosil

qiladi. Jumladan, ko‘chma ma’nolar ba’zan MSBning kirish qismini tashkil qilib, butun butunlik uchun semantik va emotsional fon yaratadi. Masalan, “Yurak - bir dunyo” singari iboralar MSBning boshlovchi gapida joylashgan holda, nafaqat predmetni ifodalaydi, balki butun fikr izchilligini metaforik tusda davom ettirishga asos yaratadi. Ba’zan esa, ko‘chma ma’nolar MSBning markaziy qismida joylashib, ma’lumotni kuchaytirish, obrazni boyitish yoki baholovchi ohang berish uchun xizmat qiladi. Misol uchun, “Osmon g‘azabini yerga to‘kayotgandek” ifodasi hodisani emotsional konnotatsiya bilan boyitadi va bu orqali ko‘chma ma’no MSBdagi semantik dinamizmdagi muhim omilga aylanadi. MSB yakunida ko‘chma ma’no vositasi sifatida qo‘llanilgan birliklar esa ko‘pincha umumlashtiruvchi, emotsional xulosa yoki falsafiy mushohada shaklida ifodalanadi: “Hayot uni ichidan suzib o‘tgan edi” kabi yakunlar matnga chuqur stilistik va ontologik konnotatsiya beradi.

Ko‘chma ma’noli birliklarning stilistik va pragmatik jihatlari MSB kontekstida ularning gaplararo bog‘lovchi vazifasini ham kuchaytiradi. Mazkur birliklar orqali matn pragmatikasi va emotsional nuqtayi nazari yetkaziladi, chunki metaforalar, metonimiyalar yoki ironiyalar muallifning baholovchi pozitsiyasini yashirin, ammo aniq ko‘rinishda bildiradi. Masalan, publitsistik matnlarda “xalq quvonchdan yuragini tutdi, non narxi esa xotirjamlikda yana yuqoriladi” kabi ironik MSBlar orqali jamiyatdagi qarama-qarshi ijtimoiy-iktisodiy holatlar tahlilsiz va ochiq tanqidisiz, lekin kuchli stilistik ta’sir vositasida beriladi. Bu yerda metaforik va ironik birliklarning MSB doirasida mantiqiy bog‘liqlikda ishlatilishi ularni oddiy stilistik bezakdan ko‘ra, muloqot vositasi va baholovchi kommunikativ strategiyaga aylantiradi. Xususan, bu birliklar orqali matndagi gaplar semantik jihatdan o‘zaro zanjirlashadi, natijada MSB muloqotning yagona akti sifatida mustahkamlanadi. Bunday jarayon V.E. Chernyavskaya [6] tomonidan “diskursiv pozitsiyalashuv” sifatida izohlanadi, ya’ni har bir MSB o‘z ichida baho, pozitsiya va niyat yuklangan struktura sifatida yuzaga chiqadi. Tadqiqot natijalari ko‘rsatadiki, aynan MSBning stilistik va semantik chuqurlashuviga ko‘chma ma’nodagi birliklar asosiy sababchi bo‘ladi.

Gaplararo semantik bog‘liqlik va konseptual integratsiya MSB tarkibida muhim diskursiv mexanizm sifatida harakat qiladi. Ko‘chma ma’noli birliklar gaplar orasidagi bog‘lanish vositasi sifatida ishlatilganda ular Halliday va Hasan [3] tomonidan ilgari surilgan leksik kogerensiya modeliga muvofiq tarzda ishlaydi. Ayniqsa, zamonaviy o‘zbek adabiyoti matnlarida MSB tarkibida “bahorning nafasi”, “hayotning nafasi”,

“bo‘shliqning shovullashi” kabi metaforik obrazlar mantiqan bir-biriga bog‘lanib, semantik zanjir hosil qiladi. Bu zanjir orqali MSBlar sintaktik tuzilmadan matn birliklariga aylanadi. Masalan: *“Ko‘zlarida hayot yashardi. Yuragi xotirjam edi. Bu - yangi boshlanish edi”* kabi MSBlar gaplararo semantik sathda ko‘chma ma’nolar orqali yagona kontseptual struktura yaratadi. Bunday kontseptual integratsiya, Lakof va Jonson [5] ta’riflaganidek, “fikrlash metaforalarining sintaktik realizatsiyasi” bo‘lib, tilning tafakkur bilan uyg‘un ishlash mexanizmini ochib beradi.

Umuman olganda, olib borilgan kuzatuv va tahlillardan quyidagi ilmiy natijalar kelib chiqdi: birinchidan, MSB tarkibida ko‘chma ma’noli birliklar gaplararo semantik va stilistik izchillikni ta’minlovchi asosiy komponent sifatida shakllanadi; ikkinchidan, bu birliklar matndagi sintaktik dinamizmdan tashqari, muallifning baholovchi niyati, emotsional pozitsiyasi va kommunikativ strategiyasini ham ifodalaydi; uchinchidan, MSB doirasida yuzaga chiqadigan ko‘chma ma’nolar nafaqat badiiylik, balki matn pragmatikasining mantiqiy strukturasi stilistik yuklama, semantik integratsiya va sintaktik bog‘liqlikni ham belgilaydi. Demak, murakkab sintaktik butunliklarda ko‘chma ma’nolarning realiatsiyasi chuqur semantik va stilistik mezonlarga asoslanib, zamonaviy adabiy tilning diskursiv va konseptual tabiatini aniqlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot asosida aniqlanishicha, murakkab sintaktik butunlik (MSB) doirasida ko‘chma ma’nodagi birliklarning realiatsiyasi o‘zbek adabiy tilining stilistik boyligi, sintaktik dinamikasi va semantik qatlamlarini aniqlovchi muhim til hodisasi sifatida namoyon bo‘ladi. Tahlil qilingan zamonaviy nasriy matnlar shuni ko‘rsatadiki, metafora, metonimiya, ironik ifoda va boshqa ko‘chma ma’nolar MSB tarkibida mantiqan bog‘langan gaplar zanjiri orqali bir-biriga semantik va stilistik jihatdan singdiriladi. Bunday birliklar MSBning sintaktik strukturasi doirasida turli pozitsiyalarda (kirish, markaz, yakun) joylashib, har bir holatda o‘ziga xos semantik va pragmatik yuklama hosil qiladi. Shu bilan birga, ular muallifning baholovchi pozitsiyasini bilvosita ifodalashda, nutqning emotsional ohangini kuchaytirishda va matnning konseptual yaxlitligini ta’minlashda hal qiluvchi vosita bo‘lib xizmat qiladi. Aynan MSB doirasida yuzaga keluvchi konseptual metafora va stilistik umumlashtirishlar orqali badiiy tafakkurning murakkabligi va til birliklarining ko‘p qatlamli funksionalligi namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari, ko‘chma ma’nolarning MSB tarkibida realiatsiyalashuvi Halliday

va Hasan ilgari surgan matndagi kogerensiya nazariyasiga, Lakoff va Johnsonning konseptual metafora nazariyasiga to‘laqonli mos tushadi, ya’ni o‘zbek tilshunosligida MSBlarning sintaktik tahlilini zamonaviy kognitiv-pragmatik yondashuvlar bilan boyitish dolzarb metodologik yo‘nalish bo‘lib qolmoqda.

Shu asosda quyidagi takliflar ilgari suriladi: birinchidan, o‘zbek tilidagi MSBlarning turlarini zamonaviy korpus lingvistikasi asosida tizimlashtirib, ularning tarkibiy strukturasi va semantik bog‘liqligini aniqlovchi elektron bazalar ishlab chiqilishi lozim; ikkinchidan, adabiy, publitsistik va siyosiy matnlarda MSB tarkibida qo‘llanilayotgan ko‘chma ma’noli birliklarning stilistik-funksional turlari va ularning kommunikativ vazifalari lingvistik-pragmatik nuqtayi nazardan chuqur o‘rganilishi zarur; uchinchidan, MSBda yuzaga chiqadigan ko‘chma ma’no birliklari asosida milliy metaforik konseptlarning modeli ishlab chiqilib, ularni semantik tahlil qilish orqali o‘zbek mentaliteti va diskurs uslublarining ilmiy izohi ta’minlanmog‘i lozim; to‘rtinchidan, o‘quv adabiyotlari va stilistika darsliklarida MSBning ko‘chma ma’noli realiatsiyalari mustaqil mavzu sifatida kiritilib, stilistik tahlilga zamonaviy yondashuvlar tatbiq etilishi ta’minlanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu takliflar o‘zbek tilshunosligida murakkab sintaktik strukturalar va stilistik birliklar uyg‘unligini chuqurroq o‘rganishga, shuningdek, matn tahlilining kognitiv-diskursiv asoslarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Виноградов, В. В. О языке художественной прозы. – Москва: Наука, 1972.

2. Пешковский Б. А. Русский синтаксис в научном освещении. – Москва: Гос. учебно-пед. изд-во, 1956.

3. Halliday M.A. K., & Hasan, R. (1976). Cohesion in English. London: Longman.

4. Chafe, W.L., & Bennett, W. (1970). The discourse use of referential expressions. In Papers from the Sixth Regional Meeting, Chicago Linguistic Society.

5. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). Metaphors We Live By. Chicago: University of Chicago Press.

6. Чернявская, В.Е. (2013). Дискурсивные практики: когнитивный и коммуникативный аспекты. Москва.

7. Баранов, А. Н. (2001). Метафора в политическом дискурсе. Вопросы языкознания, №3, 23–37.

8. Кобозева, И.М. (2004). Лингвистическая семантика: семантика и логика. Москва.

ASSONANS VA EPIFORANING USLUBIY XUSUSIYATLARI

(Xosiyat Rustamova she'riyati misolida)

Xurinisa Xudoyberdiyeva,
Namangan davlat universiteti doktoranti
***Email**:xudoyberdiyevaxurininsa@gmail.com*

Annotatsiya: Maqolada Xosiyat Rustamova she'rlarining g'oyaviy-estetik, semantik-funksional xususiyatlarini oshirishda – assonans va epiforaning lingvostlistik ahamiyati ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: *fonetika, stilistika, fonologiya, fonostilistika, alliteratsiya, assonans, geminatsiya.*

Abstract: This article analyzes assonance and epiphora from a linguistic and stylistic perspective, among the phonostylistic devices inherent to the author, expressed in Khosiyat Rustamova's poetry.

Key words: *phonetics, stylistics, phonology, phonostylistics, alliteration, assonance, gemination.*

KIRISH

Fonostilistika sohasi fonetika, fonologiya va stilistika fanlarining uyg'unligida shakllangan. Mazkur fanlar obyekti nuqtayi nazaridan fonetika va fonologiyaga yaqin tursa, bu til birliklariga xos bo'lgan ekspressivlik xususiyatlarini o'rganilishiga ko'ra stilistika bilan birlashadi. Shu ma'noda fonostilistika va fonetik stilistika atamalari tilshunoslikda teng qiymatga ega [1,68].

Fonostilistika – nutq tovushlarining stilistik imkoniyatlarini o'rganadi. Bunda har bir tovushning nutqni ta'sirchan, e'tiborli qilishdagi o'rni, maqsadni aniq va to'g'ri ifodalash xususiyatiga ega bo'lishi tushuniladi. Fonostilistik vositalar ikki xil bo'ladi:

1. Muallifga xos vositalar.
2. Ijro etishga xos vositalar.

Muallifga xos bo'lgan fonostilistik vositalarga *ritm, vazn, qofiya, alliteratsiya, assonans* va boshqa talaffuzga xos vositalar kiradi. Ijro etishga xos bo'lgan fonostilistik vositalar esa *intonatsiya, pauza, fraza va mantiqiy-logik urg'u, so'zning emotsional-ekspressiv xususiyatlari, to'liq va to'liqsiz talaffuzlar* hisoblanadi[2,38]. Biz ushbu maqolamizda ana shu vositalardan biri bo'lmish alliteratsiyaning lingvostilistik tahliliga to'xtalib o'tamiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI

O‘zbek tilshunosligida fonostilistikaga oid qarashlar ilk bor XX asrning 40-50-yillarida prof. Ayub G‘ulomov tomonidan bildirilgan. X.Doniyorov va B.Yo‘ldoshevlarning “Adabiy til va badiiy uslub” kitobidan o‘rin olgan –“Fonetik stilistikani o‘rganishning ayrim masalalari” nomli qismida o‘zbek tili fonetik vositalarini stilistik tadqiq etish ko‘lamini belgilashga harakat qilingan. [3, 69] Bundan tashqari S.Karimovning “O‘zbek tilining fonetik stilistikasi” nomli monografiyasi ham e’lon qilingan. Fonetik stilistika to‘g‘risidagi nazariy qarashlar S.Sultonsaidova, O‘.Sharipova, A.Shomaqsudovning “O‘zbek tili stilistikasi”, M.Imonovning “O‘zbek tili uslubiyati masalalari” nomli o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarida ham o‘z aksini topgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolaning metodologik asosini falsafaning shakl-mazmun, sabab-oqibat, umumiylik-xususiylik kategoriyalari, zamonaviy tilshunoslikning badiiy-estetik merosni ilmiy baholash, lisoniy tadqiqiga oid qarashlar tashkil etadi.

Ishda, asosan, tavsiflash, qiyoslash, tasniflash va struktur va uslubiy tahlil, lingvostlistik tahlil metodlaridan foydalaniladi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Xosiyat Rustamova she’riyati o‘zining fonostlistik jihatdan xalqonaligi, jozibadorligi bilan ajralib turadi. Ana shunday go‘zallikni uning lirikasida ifodalangan turli vositalar tashkil etadi. Shunday badiiy vositalardan biri assonans hisoblanadi.

Assonans [lot. assonare-uyg‘un jaranglash; fr. Assonance-ohangdoshlik] she’riy nutqda bir xil unli tovushlar takroriga asoslangan ifodaviylikni kuchaytiruvchi vosita, takrorning fonetik sathdagi xususiy ko‘rinishidir. U she’rga xushohanglik bahsh etadi va musiqiylikni kuchaytiradi. Xosiyat Rustamovaning *“Tong otmasdan ko‘cha boshlar tun”* she’rida *o va a* tovushlari takroriga asoslangan assonansning go‘zal na’munasini ko‘rish mumkin:

*T**o**ng **o**tmasdan ko‘cha b**o**shlar tun,*
*B**o**g’lar q**o**lar aqldan **o**zib,*
Qaydan paydo bo‘lar
Bu quzg’un,
*Patlarini hav**o**ga y**o**zib…*

Mazkur misralardagi ***o*** va ***a*** tovushlarining uyg‘unligi she’rga yumshoqlik ohangini baxsh etishdan tashqari, uslubiy jihatdan so‘zlar orasidagi musiqiylik va tovush uyg‘unligini kuchaytirish orqali voqealarni

g‘ayritabiiy, haddan tashqari holatga kelganligini tasvirlashga, ekspressivlikni ta’minlashga xizmat qilgan. Shuningdek shoira ikkinchi va beshinchi misralar so‘ngida *ozib* va *yozib* so‘zlarini qo‘llash orqali nafaqat assonansni, balki, emotsional zo‘riqish holatini misralarda gavdalantirishga erishadi.

Xosiyat Rustamova lirikasida ifodalangan assonanslarni o‘rniga ko‘ra ikki guruhga ajratish mumkin.

1. Misralar tarkibidagi assonanslar:

*G**o**h q**o**laman y**o**mg’ir , q**o**rda,*
*G**o**h**o** **o**m**o**n q**o**lmoq gum**o**n,*
*Ahv**o**lim shu – m**o**z**o**rlarda,*
*Uyulgan bir tupr**o**qsim**o**n,*

[“Bir amallab…” Devor 83-b]

***O‘**rganmoqqa uyg’onar mayli,*
Bilimidan qilmas qanoat,
***O‘**lim **o‘**quvchiga **o‘**xshaydi,*
*Muallimga **o‘**xshaydi hayot.*

[“Hayot” Devor 51-b]

*Z**a**rgar z**a**r, men es**a** j**a**ml**a**ym**a**n h**a**vo,*
*Ko‘t**a**rib yur**a**m**a**n mudom ko‘nglimni,*
*H**a**yot h**a**yrl**a**sh**a**r chog’d**a** h**a**m h**a**tto,*
*Qo‘yib yuborgisi kelm**a**s qo‘limni.*

[“Zargar zar…” Devor 67-b]

*Esh**i**k qayta och**i**lar k**i**r**i**ng,*
*Yerga og**i**r chulg’onar r**i**do,*
*Sen**i**ng esa to‘xtamas y**i**g’**i**ng,*
*Sen**i** to‘xtatolmas **i**lt**i**jo.*

[“Derazadagi gul” Devor 56-b]

*Qaysi aql bilan ekdim b**u** g**u**lni,*
*Ko‘ra-bila t**u**rib singan t**u**vakka,*
*B**u**g**u**n g**u**l qoshida ko‘rdim b**u**lb**u**lni,*
*Vahima, g‘**u**lg‘**u**la t**u**shar y**u**rakka.*

[“Qaysi aql bilan ekdim bu gulni” Ishg’ol. 8-b]

2.Qofiyadosh so‘zlardagi assonaslar:

*Goh yelkamga, goh boshga qo‘n**a**r,*
*Hadiksirab o‘tirmas qushl**a**r,*
*Bu begona kentda dar**a**xtl**a**r,*
*Odamlarni ko‘proq tushun**a**r.*

[“Yuz-ko‘zidan sezdirmasa ham” Rido 88-b]

*Sigareta, gugurt, gul, k**u**ldon,*
*Cho‘g‘ yaltirab ko‘rinar t**u**t**u**n,*

*Qahva, kitob, yashil dast**u**rxon.*
*She’r o‘qishga tushib ketar t**u**n.*

[“Stol. Stul…” Bebosh bulutlar 190-b]

Misollardan ko‘rinadiki, shoira tovushlardan turli uslubiy maqsadlarda foydalana olgan. Uning she’rlarida tovushlar takrori misralarning qaysi o‘rnida kelishidan qat’iy nazar fonostilistik jihatdan she’rga o‘ziga xos jilo, joziba va ohangdorlik bag‘ishlagan.

Umuman shoira ijodi ***o, a, i, o‘, u*** unli tovushlari yordamida hosil qilingan assonanslar va turli tovushlar bilan bog‘liq epiforalarga boyligi bilan ham xarakterlidir.

Epifora – takrorning bir turi bo‘lib, tovushlar tugallanishi ham deb yuritiladi. Demak, epifora she’riy asarda so‘zlar va misralar oxirida ayrim unli yoki undosh tovushlarning takrorlanib kelishidir.

*Mening hayotimni yashashing qiyi**n**,*
*Ko‘zlaring jimirlar turfa xil rangda**n**,*
*To‘polon. Yulduzlar quvib bir-biri**n**,*
*Oymoma chinqirib olar yoqangda**n**.*

[“Mening hayotimni yashashing qiyin” Ishg‘ol. 59-b]

Xosiyat Rustamova epiforalarni hosil qilishda unli tovushlardan ko‘ra undosh tovushlarga ko‘proq murojaat qiladi. Shunga ko‘ra ularni kki guruhga unli va undosh tovushlarga asoslangan epiforalarga ajratish mumkin.

1.Unli tovushlar takroriga asoslangan epifora:

Hilpiramas lozim, ko‘ylagi,
Yo‘l yursa - yo‘l surilar nari,
Ishga solar jonin borini,
Faqat yerning chag’ir toshlari,
Tishlab olar tovonlarini.

[“Yo‘l yoqalab borar bir ayol” Devor 22-b]

Qo‘y majbur qilmagin qasam ichishga,
Sevasanmi meni, dema, so‘rama,
O, tayyor turibdi hozir ko‘chishga,
Bag‘rimda baxtiyor chayqalgan kema,
Menga yo‘l ko‘rsatma,
Menga ko‘rsat kun.

[“Ko‘y, majbur qilmagin qasam ichishga” Ishg’ol 62-b]

2.Undosh tovushlar takroriga asoslangan epiforalar:

Og‘riyman to‘kilsa kipriklaring gar,
Giyohlar bo‘y cho‘zar,
*Qushlar charx ura**r**,*
*Yashaydi biz bilan xaslar, alasla**r**,*
*Bu kecha bizlarni balki tush ko‘ra**r**,*
*Sevilib ko‘rmagan mishmishparastla**r**.*
[“Mening yuragimda…” Bebosh bulutlar 165-b]

*Nahotki kunlaring bilmaydi tini**m**,*
*Sen qachon aytishga ulgurding erka**m**,*
*Chaqirsam uyingni ochmaydi hech ki**m**,*
*Gaplashgisi kelmas telephoning ha**m**.*
[“Nahotki kunlaring…” Devor 55-b]

*Yig’layman u uydan bu uyga chopi**b**,*
*Ko‘chada mashina…(Tura tur poyla**b**)*
*Telefon daftarni shkafdan topi**b**,*
*Kichkina sumkamga qo‘yaman joyla**b**.*
[“Hali tongning otishiga bor…” Devor 29-b]

*Qaraysan, keldimi nimadir degi**ng**,*
*Shundoq ro‘paramda ko‘rinar qora**ng**,*
*Oy, qancha urinma, baribir seni**ng**,*
*Derazamga tushadi soya**ng**.*
[“Qaraysan” Bebosh bulutlar 50-b]

Xosiyat Rustamova she’riyatida tovushlar odiiy eshitilish vazifasinigina bejarmaydi, ular shoira qalamida uslubiy qurolga aylanadi. Yani ruhiyatidagi ichki hayajon, xursandlik va hafalik, rozilik va taajjub, yalinish va hayratlanish, kinoya, piching, kesatiq va olqish, so‘roq va norozilik hamda tilak-istak, qo‘llab-quvvatlash kabi tuyg‘ularni o‘quvchiga yetkazish vositasi sifatida foydalanadi. Bu jihatdan shoira uslubi mahorat maktabi sifatida baholanishga arziydi.

XULOSA

Umuman olganda, assonans va epiforalar badiiy asarning shakliy o‘ziga xosligi bo‘lib, asarning baddiyatini oshirish, ayniqsa, she’riy tilda misralarning ohangdoshlik, musiqiylik, ta’sirchanlik, soddalik va ravonligini ta’minlashga, fikrning mantiqiy hamda uslubiy bahosini oshirishga, biror so‘z yoki tovushga, ular ifodalayotgan mazmunga urg‘u berishga xizmat qiladi. Xosiyat Rustamova lirikasidagi fonostilistik vositalar talaffuzdagi tovushlar uyg‘unligini yuzaga keltirish orqali tasvirlanayotgan narsa-hodisaga o‘quvchining diqqatini jalb qilish,

misralarning badiiy estetik ta’sir kuchini oshirish, ma’lum tushunchalarni takidlab, ajratib ko‘rsatish vazifalarini bajargan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Do‘stmatov H. Uslubshunoslik asoslari. – Farg‘ona, 2022. – 68 b.
2. Sultonsaidova S. O‘zbek tili stilistikasi. – Toshkent, 2009. – 38 b.
3. Do‘stmatov H. Uslubshunoslik asoslari. – Farg‘ona, 2022. – 69 b.
4. Quronov D, Mamajonov J, Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent, Akademnashr, 2010. –.27 b.
5. Юлдашев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фанлари доктори... дисс. автореф. – Т., 2009. – 48 б.
6. Suyun Karimov. O‘zbek tilining fonetik stilistikasi. – Samarqand, 2016.
7. Xosiyat Rustamova. Devor. G‘afur G‘ulom nomidagi nashryot. – Toshkent, 2006.
8. Xosiyat Rustamova. Rido. “Yangi asr avlodi”. –Toshkent, 2004.
9. Uluqov N, Salixodjayeva H. Habib Sa’dulla she’riyati lingvopoetikasi. Namangan, 2017.

HAMIDJON HOMIDIY ILMIY MEROSINING O`RGANILISHI

Sheraliyeva Rohatoy Abdujabbor qizi,
Namangan davlat universiteti
1-kurs doktoranti
Tel: +99 897 376 55 57

Annotatsiya. Mazkur tezisda professor Hamidjon Homidiy ilmiy merosining o`rganilishi haqida bahs yuritilgan. Jumladan, olimning 60, 70, 75, 80 yoshga to`lishi munosabati bilan tayyorlangan biobiblografiyalar haqida atroflicha ma’lumotlar berilgan. Shuningdek, turli yillarda o`tkazilgan anjumanlarning ilmiy to`plamlari va ularga kiritilgam maqolalar to`g`risidagi fikrlar o`rin olgan. Hamidjon Homidiyning ilmiy ishlari samarasi sifatida nashr etilgan maqola, monografiya va risolalar, badiiy tarjimalar doimo keng jamoatchilik tomonidan iliq kutib olingani hamda samimiy munosabatlar bildirilganligi ma’lum bo`ladi. Jumladan, “Zullisonayn olim”, “Bio bibliografik ko`rsatkich”, “Sobitlik”, “Sodiqlik” hamda “Matonat” risolasi to`grisida bildirilgan fikr-mulohazalar diqqatga sazovordir.

Kalit so`zlar. Hamidjon Homidiy, sharq adabiyoti, fors-tojik adabiyoti, tarjimashunoslik, matnshunoslik, manbaashunoslik, mumtoz

adabiyot, Abulqosim Firdavsiy, “Shohnoma”, ilmiy to`plam, maqola, risola, monografiya.

Annotatsiya. This thesis discusses the study of the scientific heritage of Professor Hamidjon Hamidiy. In particular, detailed information is provided about the biobibliographies prepared on the occasion of the scientist's 60th, 70th, 75th, and 80th birthdays. It also contains opinions on the scientific collections of conferences held in different years and the articles included in them. It is known that the articles, monographs, treatises, and literary translations published as a result of Hamidjon Hamidiy's scientific work have always been warmly received by the general public and have been expressed in a sincere manner. In particular, the opinions expressed about the treatise "Zullisonayn olim", "Bio-bibliographic indicator", "Sobitlik", "Sodiqlik" and "Matonat" are noteworthy.

Key words. Hamidjon Hamidiy, oriental literature, Persian-Tajik literature, translation studies, textual studies, source studies, classical literature, Abulkasim Firdawsi, "Shahnama", scientific collection, article, treatise, monograph.

Butun umrini, ongli hayotini Ilm yo‘liga bag‘ishlagan, shogirdlari uchun jonkuyar ustoz filologiya fanlari doktori, professor, “Do`stlik” ordeni sohibi Hamidjon Homidiy hozir hayot bo`lganlarida 90 yoshni qarshilayotgan bo`lardilar. Olim 1935-yil 4-oktabrda Namanganning so‘lim go‘shalaridan biri Kososnoyda madrasada nahsil olgan ziyoli oilasida dunyoga kelganlar.

Zukko matnshunos va manbaashunos, mohir tarjimon, jurnalist, pedagog mehribon va g`amxo`r ustoz professor Hamidjon Homidiy o‘zlaridan ulkan ilmiy va adabiy meros qoldirdilar. Ustoz 89 yillik umrlarining qaryib 70 yili davomida sermahsul ijod qildilar: 1000ga ortiq ilmiy, ilmiy-ommabop maqolalar, risolalar, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar va monografiyalar chop ettirganlar.

Domlaning ilmiy faoliyati haqidagi dastlaki fikr-mulohazalar o`tgan XX asrning 90-yillarida e’lon qilina boshlangan. Bu sohada Homidjon Homidiyning shogirdlari Mo`minjon Sulaymonov va Komiljon Abdullayevlar nashrga tayyorlagan “Zullisonayn olim” [Тўхлиев, 2005: 104] dastlabki to`plam edi.

Mazkur to`plamda 25 ta muallifning olim haqidagi iliq va samimiy fikrlari jamlangan. Shu yili ustozning farzandlari Nazarxurshid Homidov va Muborakxon Homidovlar tomonidan tuzilgan “Bio bibliografik ko`rsatkich” ham chop etildi.

[Ҳомидов, 2005: 36]

2010-yilda ustozning 70 yoshga to`lishi munosabati bilan “Sobitlik” [Собитлик,2010: 211] to`plami nashr etildi. To`plamni Namangan davlat universiteti dotsenti, f.f.n. Mominjon Sulaymonov nashrga tayyorladi. Ushbu to`plamga 40 ortiq shoir, yozuvchi, olimlar hamda shogirdlarning Hamidjon Homidiy hayoti va ilmiy-ijodiy faoliyati haqidagi fikr-mulohazalari kiritilgan.

2015-yilda Hamidjon Homidiyning 80 yilligi munosabati bilan “Sodiqlik” [[Собитлик,2015: 229]] nashr etildi. Mazkur to`plamga olimning ilmiy ommabob kitoblari, muharrirlik, tarjimonlik va manbashunoslik faoliyati, doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalariga rasmiy taqrizchiligi, 600 ga yaqin ilmiy, ilmiy-ommabob maqolalari ro`yxati, hamda 30 ortiq adib, olimlarning fikrlari jamlangan. Ushbu to`plamning nashriga Asror Samad mas’ul muharrirlik qilgan. Tuzuvchi f.f.n. dotsent Mo`minjon Sulaymonov. Aynan shu yili Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida professor Hamidjon Homidiyning 80 yilligiga bag`ishlab “O`zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalari” mavzusida ilmiy-nazariy konferensiya o`tkazildi va anjuman materiallari maxsus to`plam holida chop etildi. [Шермуродов, 2015: 368]

2022-yilda Toshkentdagi “Kitop print company” nashriyotida professor Hamidjon Homidiy va Mo`minjon Sulaymonovlarning “Matonat” nomli risolasi chop etildi. Mazkur risolaning birinchi qismi mualliflarning ustozi O`zbekistonda xizmat ko`rsangan fan arbobi filologiya fanlari doktori, professor Natan Murodovich Mallayevning ilmiy-ijodiy faoliyatiga bag`ishlangan bo`lsa, ikkinchi qismida esa professor Hamidjon Haomidiyning hayoti ilmiy faoliyadi haqida bahs yuritilgan.

Yuqoridagilardan ko`rinib turibdiki, professor Hamidjon Homidovning barakali va sermazmun hayoti, ilmiy hamda ijodiy faoliyati haqida alohida to`plamlar nashr qilingan. Ammo olimning serqirra va sermahsul ilmiy-ijodiy faoliyati maxsus tadqiqot mavzusi sifatida o`rganilmagan.

Galdagi muhim vazifalardan biri Hamidjon Homidiyning ilmiy va ijodiy faoliyatini bir necha yo`nalishda maxsus o`rganishdan iborat. Biz ilmiy tadqiqotmizga Homidjon Homidiyning firdavsiyshunoslik sohasida amalga oshirgan ilmiy tadqiqotlarini o`rganishni mavzu qilib belgiladik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Био библиографик кўрсаткич. Тузувчилаар: Назархуршид Ҳомидов, Муборак Ҳомидова. Компьютерда терувчи ва тартибловчи Севарахон Алимбоева. – Тошкент: 2005. – 36 б.
2. Зуллисонайн олим. Сўзбоши муаллифи ва масъул муҳаррир: ф.ф.д. проф. Боқижон Тўхлиев, тўпловчи ва нашрга тайёрловчилар: Мўминжон Сулаймонов, Комилжон Абдуллаев. – Тошкент: 2005. – 104 б.
3. Собитлик. (тўплам) / тўплаб, нашрга тайёрловчи М. Сулаймонов; масъул муҳаррир А. О. Умаров. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2010. – 211 б.
4. Содиқлик. Масъул муҳаррир: Асрор Самад. Тўпловчи: ф.ф.н. доцент М. Сулаймонов. – Тошкент: Adabiyot uchqunlari, 2015. – 229 б.
5. Ўзбек адабиётшунослигининг долзарб масалалари. Профессор Ҳ.Ҳомидийнинг 80 йиллигига бағишланган илмий-назарий конференция материаллари. Масъул муҳаррир: Тоҳир Шермуродов. – Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ. 2015. – 368 б.
6. Ҳомидий Ҳ., Сулаймонов М. Матонат. – Тошкент: “Kitop print company”. 2022.

TRANSMADANIY MULOQOTDA NON MAVZUSINING SEMANTIK O‘RNI

Erkinova Fotima Mamutxonovna,
NamDU mustaqil tadqiqotchisi
Tel: +99899 989 13 86

Annotatsiya: Maqolada Ozod Sharofiddinovning “Barselonada o‘zbek patiri” hikoyasi tahlilga tortilgan. Mazkur maqolaning arxitektonikasi va syujetini yoritsh bilan birga non mavzusining badiiy adabiyotda xalqlararo integratsiyasi ochib berilgan.

Annotation: The article analyzes Ozod Sharofiddinov's story “The Uzbek Patriarch in Barcelona”. Along with highlighting the architectonics and plot of this article, it reveals the interethnic integration of the theme of bread in fiction.

Kalit so‘zlar: Samarqand patiri, asar kompozitsiyasi, kuliminatsiya, peyzaj, nostalgiya, global dunyo.

Key words: Samarkand Patriarch, composition of the work, culmination, landscape, nostalgia, global world.

Hozirgi o‘zbek adabiy jarayoni tadqiqida dunyo adabiy-nazariy qonuniyatlari, badiiy-estetik tajribalari, milliy-mental qadriyatlarga oid qarashlarni o‘zida birlashtirgan nazariy asoslar yuzaga kelmoqda. Yozuvchilar asarlaridagi mental tasvir namunalarining umuminsoniy mohiyat kasb etilganligi alohida e’tiborga molikdir. Shunday asarlardan biri Ozod Sharofiddinovning *“Barselonada o‘zbek patiri”* voqeaviy hikoyasidir. U nostalgik hikoya sirasiga kiradi. Nostalgiya – bu shaxs o‘tmishdagi baxtli hayot davrni yoki joyini sog‘inish. (Quronov va boshqalar, 2013, 148) Hikoyada nonning faqat hayotiy zarurat emas, balki inson xotirasi, mehr-oqibat, milliy ruh va madaniyat ramzi sifatidagi yuksak talqini berilgan. Asar arxitektonikasi prolog, ekspozitsiya, kuliminatsiya, tugun va yechimdan iborat. Uning barcha bo‘laklari *“Xose va Samarqand noni”* orqali bog‘langan. Personajlar yagona tizimga uyushtirilgan va badiiy g‘oyani ifodalashdagi vazifalariga qarab badiiy syujetdan o‘rin olgan. Bu o‘rinda mashhur rus yozuvchisi A.P.Chexovning quyidagi so‘zlarini eslash joizdir: “qahramonlar… ichidan faqat bittasini tanlaysan, – ermi, xotinmi – uni ma’lum bir holatga solib, faqat uni tasvirlaysan, ta’kidlaysan, boshqalar esa unga fon vazifasini ado etgan holda asarning barcha joylariga sochiladi. Bosh qahramon go‘yo oy, boshqa obrazlar oy atrofidagi mayda yulduzlar…”. (Boboyev, 2001:145) Chunonchi, O. Sharofiddinovning “Barselonada o‘zbek patiri” hikoyasi obrazlari tizimini sayohatchi muallif, Xose, Manuyella, yetim bolalar, novvoy ayollar, mehmonlar, xippilar, fohishalar tashkil etsa-da, hikoya markazida Xose obrazi turadi, qolganalri esa uning taqdirini ochishga ko‘maklashadi. Hikoyadan kuzatilgan maqsad – o‘zbeklarning qadriyati, urf-odatining jahon miqyosida ham qadrli ekanligini ko‘rsatish. Shu niyat Samarqand noni detaliga mujassamlashtirilgan. Unda transmadaniy muloqotda non obrazining semantik kuchi obrazlar tili orqali ochib berilgan. *“Har qancha g‘alati tuyulmasin, chet elga safarga boradigan bo‘lsam, uyda besh-o‘nta patir yoptirib olib ketaman. Negaki, xorijliklar umuman nonni kam iste’mol qilishar ekan va bizni ham o‘zlariga o‘xshagan gumon qilib, har gal ovqat vaqtida bir tishlamgina non berishar ekan. Shuning uchun butun umrlari davomida boshqa narsalardan ko‘ra nonga ko‘proq ruju qo‘yib o‘rgangan odamlar safar davomida bu jihatdan o‘zlarini noshoyista his etishardi. Safar oldidan chemadonga solib olingan besh-o‘nta patir bu muammoni to‘la hal qilishga yordam berardi”.* (Sharofiddinov, 2003:1) Parcha orqali nonning milliy identitetdagi o‘rni va

madaniyatlararo tafovutlar kontekstida qanday ijtimoiy-psixologik ahamiyat kasb etishi ochiladi. Matndagi *“uyda besh-o‘nta patir yoptirib olib ketaman”* birikmasi muallifning shaxsiy tajriba va sezgi darajasida non bilan bog‘langan hissiy munosabatini ko‘rsatadi. Bu yerda o‘z madaniy qadriyatini chet el “standarti”dan himoya qilishga intilish mavjud. Bu madaniy o‘zlikni tashqi bosimdan saqlab qolish istagi bilan birga non chet elga chiqqan odam uchun madaniy tayanch vazifasini bajaradi. Zamonaviy o‘zbek kishisining global dunyo bilan munosabatida non orqali o‘z madaniy “men”ini qanday himoya qilishini ko‘rsatadi. Non bu yerda ma’naviy barqarorlik, o‘zligiga sodiqlik, xotiraning tirik belgisi sifatida xizmat qiladi. Yana parchada sovetlar davridan qolgan odat haqida fikr yuritiladi. Sobiq ittifoq hali parchalanmagan yillarda deyarli barcha respublikalardagi oshxonalar peshtaxtasiga *“Non hamma narsaning boshidir”* degan ibora ilib qo‘yilgan. Non har qanday ovqat bilan iste’mol qilingan. Hattoki uni turli xil xamirli ovqatlar bilan ham yeyishgan. Bu odat hozirgacha davom etib keladi. Ittifoq davrida nonning bunchalik e’zozlanishiga sabab uch jihat bilan asoslanadi: ota-bobolardan qolgan odat, nonning arzonligi hamda ocharchilik qoldirgan jarohat. Hikoya muallif tilidan bayon qilingan. Ekspozisiyada Ispaniya, tarixiy joylar haqida fikr yuritilib, nonushta xonasi tasvirida to‘xtaladi. Shundan so‘ng non ramzi asosiy fonga chiqadi va Samarqand timsoli, milliy madaniyat va tarixiy ong ramziga aylanadi: *“…Men ularga alohida tavoze bilan salom berdim, ammo Xosening alik oladigan siyoqi yo‘q edi. U negadir menga emas, qo‘limdagi patirlarga qarab turar, xuddi sehrlangandek, ulardan nigohini uzmay qolgandi…So‘ng u kishi patirdan ko‘zini olib menga qaradi, yana nonga tikildi. Nihoyat, oradagi sukunat cho‘zilibroq ketganini his qildi, shekilli salomimga javoban menga qo‘l uzatib, so‘z qotdi…Ovrupaning narigi chekkasida birorta ispanning menga o‘zbekcha murojaat qilishini kutmagan edim”.* (Sharofiddinov, 2003:1) Parchadagi bu uchrashuv insonlar orasidagi aloqadan ko‘ra, non (patir) orqali bog‘lanish bilan kuchliroq yoritiladi. Xosening salomga befarq, ammo non qarshisida *“sehrlangandek”* to‘xtab qolishida non inson qalbiga ta’sir etuvchi universal timsolga aylanadi**.** Xose boshqa madaniyat vakili bo‘lishiga qaramay, nonni ko‘rgan zahoti ichki bir eslatma, xotira, ehtiyoj bilan unga mahliyo bo‘ladi. Bu o‘rinda non insoniyatga umumiy bo‘lgan qadriyat sifatida namoyon bo‘ladi. Avval nonni kuzatib, keyin salomga javob berishi shuni anglatadiki: inson qalbi ko‘pincha so‘zdan emas, qadriyatlardan ochiladi. Patir bu yerda “kalit” vazifasini bajargan. Sukunat – madaniyatlararo so‘zsiz muloqot. Muallif va Xose o‘rtasida so‘z o‘rnini

sukunat egallaydi. Biroq bu sukunat befarqlik emas, unda chuqur ruhiy aloqa mavjud. Sukunat orqali non tilsiz aloqa vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. *“Ovrupaning narigi chekkasida birorta ispanning menga o‘zbekcha murojaat qilishini kutmagan edim”* – bu satr global dunyoda milliylik va insoniylikning kesishgan nuqtasini ifodalaydi. Garchi madaniyatlar farqli bo‘lsa-da, non odamlarni birlashtiruvchi kuch sifatida chiqadi. *“ – Siz Samarqanddanmi? Bu patir Samarqandnikimi? – deb so‘radi Xose. Hayajondan uning ovozi titramoqda edi. – Ha, men o‘zbekman. Lekin Samarqanddan emas, Toshkentdanman. Patir ham Toshkentniki. – Toshkentniki bo‘lsa ham, patiringizning bittasini menga berolmaysizmi? – Albatta, albatta! – dedim men va patirning ikkovini ham qo‘shqo‘llab unga uzatdim. – Bitta emas, ikkovi ham sizdan aylansin. Xose bilan xotini dik etib o‘rinlaridan turishdi, bir qo‘llarini ko‘ksilariga qo‘yib, ta’zim qilgandek yengil bosh egishdi. So‘ng Xose bo‘sh qo‘li bilan patirlarni olib, birini xotiniga uzatdi. Keyin ikkovlari ham allaqanday ilohiy ehtirom bilan patirlarni ko‘zlariga surishdi, uning yog‘i yaltirab turgan chekkalariga lab bosishdi. Sayyohlar so‘z qotmay, bu manzarani tomosha qilib turishardi. Shundan keyin Xose xotinining qo‘lidagi patirni olib, o‘zinikiga qo‘shdi-da, xuddi chatnab ketadigan chinni buyumday ularni ehtiyot bilan sochiqqa o‘rab, yelim xaltasiga solib qo‘ydi”.* (Sharofiddinov, 2003:1)

Yuqoridagi parcha nonning (patirning) xalqaro, madaniy, ramziy, va, hatto e’tiqodiy darajadagi timsolga aylanganini nihoyatda chuqur va badiiy tasvirlaydi. Non milliy madaniyat mahsuli emas, global darajada e’tirof etilgan ilohiy ne’mat, muqaddaslikka yetgan qadriyat maqomiga ko‘tariladi. Xose va uning rafiqasi patirni ko‘zlariga surtib, unga ehtiyotkorlik bilan muomala qilishi muqaddas narsani tavof etish darajasidagi ehtiromni bildiradi. Xose: *“Siz Samarqanddansizmi?”* deb so‘raganida, o‘zbek nonini Samarqanddek tarixiy-madaniy markaz bilan bog‘laydi. Patir esa bu yerda tarix, madaniyat, xalq ruhining timsoli sifatida qaraladi. Haqiqatdan ham Samarqand noni azaldan dunyoga mashhur, mazasi bilan dong taratgan. Hozir ham hech kim bu maskandan Samarqand nonisiz qaytmaydi. Folklorda ham Samarqand noni bilan bog‘liq bir nechta afsona va rivoyatlar borligi buning yaqqol isbotidir. Shulardan biri “Amirni yenggan non” rivoyati. Aytish joizki, 2025-yil 6-fevralda *“Samarqand noni”* geografik ko‘rsatkich sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazildi. Bunga Samarqand nonlari xalqaro madaniy aloqalarda asosiy vazifa bajargani sabab bo‘lgandir.

Xose va uning rafiqasi patirni ko‘zlariga surtib, unga ehtiyotkorlik bilan muomala qilishi muqaddas narsaga sig‘inish darajasidagi ehtiromni bildiradi va ularning yuksak ichki ehtirom va qadrlash darajasini ifodalaydi. Bu o‘zbek xalqining o‘zida ham mavjud bo‘lgan qadimiy urf – nonni yerga tushsa, ko‘zga surtish an’anasining xalqaro kontekstdagi yangilanishidir. *“Sochiqqa o‘rash, chinni buyumga o‘xshatish”* kabi harakatlar nonning nafaqat ma’naviy, balki estetik va moddiy qadriyat sifatida ham yuqori baholanishini anglatadi. *“Sayyohlarning sukutda tomosha qilishi”* manzaraning badiiy kuchi va estetik ta’sirchanligini ko‘rsatadi. Bu holat vizual obraz sifatida tasvirlangan: xalqaro maydonda oddiy bir patir vositasida milliy g‘urur, mehmondo‘stlik va insoniylik namoyon bo‘ladi. U epizodda non madaniy aloqalarning markazi, milliy g‘ururning ifodasi, umuminsoniy qadriyatning timsoli sifatida talqin qilinadi. Voqealar rivojida Xose va uning xotini Manuyella urush davrida O‘zbekistonga kelib qolgan ispan bolalari ekani oydinlashadi. *“…O‘sha kuni poyezddan tushib, birinchi ko‘rgan narsam – non bo‘ldi. Samarqand noni! Urush tufayli hamma joyda tanqislik boshlangan, nonlar kartochka bilan o‘lchab beriladigan bo‘lib qolgan edi. Urushning sovuq nafasi Samarqandda ham yaqqol sezilib turardi. Lekin shunga qaramay, uning mo‘jazgina bozorchasida bir-ikkita ayol non sotayotgan ekan. O‘zimizni nonga urdik. Yo, Parvardigor, – ishonasizmi – men umrim bino bo‘lib, bunaqa shirin non yegan emasdim. Ko‘rinishidan oftobga o‘xshab ketadigan Samarqand nonida allanechuk qaymoqlarning ta’mi, xushbo‘y dala o‘tlarining isi kelib turardi. Bu ta’m hozirgacha og‘zimda qolgan… Samarqand osiyolik yarim yovvoyilar yashaydigan maskan emas, “Ming bir kecha” ertaklaridagi mangu yashnagan ulug‘ shahri azim ekan. Uning shakl-u shamoyili, uning noni, uning patiri bir umrga yuragimga muhrlanib qolgan”*[35]. Bu parcha nonning urush, ocharchilik va hayotdagi og‘ir ijtimoiy kontekstdagi ruhiy va estetik qutqaruvchi timsol sifatidagi eng kuchli badiiy talqinlaridan biridir. Urushning eng qora kunlarida – ocharchilik, yo‘qchilik va qo‘rquv muhitida – bosh qahramon poyezddan tushgach, birinchi ko‘rgan va hayratda qoldirgan narsa non bo‘lishi bejiz emas. Bu yerda non hayotning davomiyligini bildiruvchi belgidir. *“Ko‘rinishidan oftobga o‘xshab ketadigan…”* metaforasi orqali yorug‘lik manbai sifatida ko‘rsatiladi. Unda quyidagi ramziy qatlamlar ko‘zga tashlanadi: *Samarqand noni* – milliylikning jozibali timsoli. Xose nonni ko‘riboq, o‘zini “yarim yovvoyi” deb hisoblagan o‘lkada emas, balki

[35] Шарофиддинов О. Барселонада ўзбек патири//Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент: 2003 йил, 31 январь. 4-5-сон. – Б. 2.

afsonaviy, sivilizatsiyalashgan, mo‘jaz va barakali diyorda ekanini his qiladi. Demak, non bu yerda tarix, madaniyat va haqiqatni ko‘rsatuvchi ko‘zgu sifatida talqin etiladi. *Bozorcha* – barakali maskan timsoli. *“Urush vaqtida ham bozorda ayollar non sotishi”* ayollar obrazining hayot saqlovchilik rolini va nonsiz hayotning to‘liq bo‘lmasligini anglatadi. Asarda urush va non konflikt tarzda keladi. Urush hayotni, qadriyatlarni va insoniyligini xavf ostiga qo‘ysa, non hayotiy ruhni, madaniy yodgorlikni va yashash istagini tiklaydi. Samarqand nonga sig‘dirilgan shahar tarixi, xalq badiiyati va sivilizatsiyasining ifodasi. Non orqali nafaqat qorin to‘q, balki ruh ham to‘yadi. Samarqand nonlari azaldan “ming dardga shifo” bo‘ladigan taom hisoblandi.

Hikoyamiz qahramoni Xosening muhabbat rishtalari ham Samarqand nonlari vositasida bog‘lanadi: *“– Sirasini aytganda, Samarqand men uchun yana bir jihatdan ardoqli, – deb gapini davom ettirdi u. – Men bu shaharda baxtimni topganman – umrimdagi birinchi va yagona muhabbatim bilan shu yerda – non bozorida uchrashganman. – Manuyellaning chehrasi ham tabassumdan nurlanib ketdi”. Non bozori* – bu yerda muhabbat maydoni odatiy *“bozor”* tushunchasining funksional roli kengaytiriladi: bu endi his-tuyg‘ular uyg‘onadigan, taqdir kesishadigan joyga aylanadi. Non bozori bu holatda estetik, romantik, ruhiy makon bo‘lib chiqadi. Muhabbat va nonning uyg‘unligi, bitta makonda bog‘lanishi – sevgi va hayot zarurati bir-biridan ajralmasligini anglatadi. Muhabbat ham xuddi non kabi hayotiy zarurat. Xose hayotining eng quvonchli lahzasini non bilan bog‘lab eslaydi. Bu uning uchun nonni shaxsiy tarixining muqaddas belgisiga aylantiradi. Non va muhabbatning bir nuqtada to‘qnashuvi hayotdagi eng samimiy uyg‘unliklardan biridir. *“ – Men bozorga suygan patirimdan olishga borgan edim. Qarasam, novvoy ayolning oldida parilar sultoniga o‘xshagan bir qiz turibdi. U ham patir harid qilayotgan ekan. Uning qosh-ko‘zi, yanoqlari, qoramag‘izligi, qaddi-basti menga juda tanish tuyuldi. Unda ispan qizlariga xos bo‘lgan shaddodlik, olovday joziba sezilib turardi… Mana, o‘shandan beri 30 yildan ortiq vaqt o‘tdi. Doim bir-birimizga hamdam, madadkor bo‘ldik. Eng og‘ir damlarda Samarqandni eslaymiz. Bu qutlug‘ shaharning ruhi bizga yordam beradi”.* Parcha non timsollar boyligi, u inson ruhiy olamidagi chuqur o‘rnini yana bir bor ochib beradi. Ayniqsa, u orqali muhabbat, estetik go‘zallik, madaniyatlararo yaqinlik va ruhiy tayanch obrazlari uyg‘un tarzda namoyon bo‘ladi. Xosening bozorga borishidan ko‘zlagan maqsadi *“suygan patiri”*ni olishining o‘ziyoq nonning shaxsiy-estetik qadriyatga aylanganini anglatadi. Non endi qalbga yaqin, iliq

xotiralar bilan bog‘langan timsolga aylanadi. *“Suygan patir”* iborasi bu yerda nonning shaxsiy xotira va muhabbat timsolidir. *Bozor* – taqdir kesishgan makon. Oddiy non bozori Xose uchun hayotini o‘zgartirgan muqaddas manzilga aylanadi. Bu yerda muhabbat boshlanadi, xotira muhrlanadi. Madaniy va estetik dinamikada o‘zbek noni va ispan qizi madaniyatlararo uyg‘unlik kasb etadi. *“Xose hikoyasini tugatdi… O‘zbekning quyoshi, o‘zbekning mehri, o‘zbekning paxtasi, o‘zbekning patiri dunyoning hamma burchaklariga yetib borganidan, qancha-qancha odamlar qalbiga nur to‘ldirganidan g‘ururlanmaslik mumkin emas edi. Qarangki, o‘zbekning noni nafaqat odamning qornini to‘ydirar ekan, ularni bir-biriga yaqinlashtirar ham ekan, ahil, inoq ham qilar ekan. Bu nonning ilohiyligini isbot qilmaydimi? Hozirga qadar o‘zbek patirining Barselonadagi qismatini o‘ylasam, o‘zimdan-o‘zim yayrab ketaman”.* Yakuniy parcha – asarning eng kuchli ideya-falsafiy yakunlaridan biridir. Unda non obrazining umumiy, insoniyatni birlashtiruvchi, ruhiy va madaniy qadriyatga aylangan shakli ifodalanadi. Xose hikoyasining tugashi bilan o‘zbek noni madaniy ramz va g‘urur manbai sifatida yakuniy bosqichga ko‘tariladi.

Xulosa qilib ytganda, Non – inson qornini to‘ydirishi bilan birga qalbini ham to‘ldirishi asardagi ruhiy katarzis nuqtasi hisoblanadi. Yakunda bu non birlik, mehr, xalqlar o‘rtasidagi ko‘prikga aylanadi. Shunday qilib, atoqli munaqqid Ozod Sharofiddinov nonni umuminsoniy birlik, ruhiy yaqinlik va global qadriyat sifatida ko‘rsatgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adabiyot nazariyasi. Ikki tomlik. – Toshkent: Fan, 1978. – T.1. – 416 b; 1979. –T.2. – 445 b.
2. Балагян Л., Национальные праздники и серемониалные блюда. Гителик, Ер., 1991. 120 с.
3. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001, – Б. 145.
4. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Aabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013.148 b.
5. Шарофиддинов О. Барселонада ўзбек патири//Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент: 2003 йил, 31 январь. 4-5-сон. – Б. 2.

CHINGIZ AYTMATOV HAYOTI PEDAGOGIK TAFAKKUR NIGOHIDA

Akbarov Odiljon Ergashevich,
Namangan Davlat Universiteti dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Chingiz Aytmatov hayoti va ijodi, shuningdek, adibning kamolot cho‘qqisiga yetishiga sabab bo‘lgan omillar pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilingan.

Kalit so’zlar: qirg‘iz xalqi turmush tarzi, oilaviy muhit, ajdodlarining ma’naviy merosi, axloqiy tushunchalar.

Abstract: This article analyzes the life and work of Chingiz Aitmatov, as well as the factors that led to the writer's peak of perfection, from a pedagogical point of view.

Keywords: lifestyle of the Kyrgyz people, family environment, spiritual heritage of their ancestors, moral concepts.

Chingiz Aytmatov biografiyasi adabiyot ixlosmandlariga, shuningdek, mashhur kishilar hayoti bilan qiziquvchilarga yaxshi tanish. Yozuvchining o‘zi avtobiografiyasini yozgan, qator darslik va qo‘llanmalarda uning hayotiga turli darajada chizgilar berilgan. Biz ushbu faslda barchaga ma’lum faktlarni shunchaki qayta bayon etish fikridan yiroqmiz, balki yorqin istedod egasi bo‘lgan bu shaxsning kamolot cho‘qqisiga yetishiga sabab bo‘lgan omillarni pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilamiz.

Kishi hayotining yetukligi chog‘ida nimalarga erishgan yoki nimalarga erishmagan bo‘lsa, jamiyatda qanday mavqeni egallagan bo‘lmasin, uning bolalikda, o‘smirlik va yoshlik chog‘larida ko‘rgan tarbiyasi, olgan tahsili, uni o‘rab turgan muhit hal etuvchi rol o‘ynaydi. Chingiz Aytmatovning ham dunyo miqyosidagi taniqli shaxs darajasiga ko‘tarilishida donishmandlik timsoli bo‘lmish buyuk Sharqning bir bo‘lagi bo‘lgan qirg‘iz xalqi turmush tarzi, oilaviy muhit, ajdodlarining ma’naviy merosi, maktabdagi o‘qish kabi omillar u yoki bu darajada ijobiy ta’sirini o‘tkazgan.

Bolalik yillarida yozuvchining buvisi (dadasining onasi) Oyimxon aya va uning qizi (adibning ammasi) Qoraqiz onaning ta’siri katta bo‘lgan. Aynan shu bir-biriga juda o‘xshash, go‘yo “bir ayolning qarilik va yoshlikdagi ikki yuzi” day bo‘lgan ayollar Chingizga uning ajdodlari to‘g‘risida bilganlaricha ma’lumot berishgan, ona tili bo‘lmish qirg‘iz tili va xalq og‘zaki ijodining sehrli olamini bo‘lajak yozuvchi qalbiga,

xotirasiga muhrlaganlar. Avtobiografiyasida adib ularni zo‘r minnatdorchilik hamda ma’naviy qarzdorlik hissi bilan eslaydi. Maktabgacha ta’lim mutaxassislari buni axloqiy tushunchalar omili deb atashgan: “Nima to‘g‘ri-yu, nima noto‘g‘ri, nima yaxshi-yu, nima yomon va, asosiysi, nima uchun shunday baholanadi? Axloqiy tushunchalarni idrok etib borish bola ongida ma’naviy mezonlarni anglashga yetaklaydi. Buni biz axloqiy tushunchalar omili deyishimiz mumkin. Maktabgacha bo‘lgan davrda axloqiy tushunchalar sekinlik bilan bo‘lsa ham qat’iylasha boradi. Kattalar (tarbiyachi, oiladagi kattalar: ota-ona, aka-opalar) bola uchun taqlid obyekti bo‘lib xizmat qiladilar. Bola ularda nimani ko‘rsa, hech muhokamasiz qabul qiladi, o‘ziga singdira boradi. Ayni paytda axloqiy tushunchalar manbayi bo‘lib ularning ta’lim-tarbiyasi bilan shug‘ullanayotgan kattalardan tashqari bolaning tengdoshlari, badiiy asarlarning qahramonlari ham bo‘lishi mumkin”[Mamadaliyeva H, 2019:98]. Shu sohaning boshqa mutaxassisiga ko‘ra: “Axloqiy tajribalar asosan muloqot, kuzatish, taqlid qilish jarayonida, shu bilan birga kattalarning, ayniqsa, onalarning maqtovi yoki tanqidlari orqali o‘tadi, mustahkamlanadi. Bola doimo baho, ayniqsa, maqtov olishga harakat qiladi. Bu baho va maqtovlar bola shaxsining muvaffaqiyatga erishuvi, uning ma’naviy kamoloti, hatto jismoniy rivojlanishida, shuningdek, shaxsiy hayoti hamda kasb tanlashida ham katta ahamiyat kasb etadi”[Berdaliyeva, 2019:39] .

Yetuk ijodkorlar, olimlarning bolalikda shaxs sifatida voyaga yetishida, iste’dodlarini shakllanishida ularning onalari, buvilari yoki enagalarining ta’siri muhim rol o‘ynaganligi o‘tmishda ko‘p kuzatilgan. Rus poeziyasining quyoshi A.S.Pushkunning enagasi Arina Radionovna, Hamid Olimjonning onasi Komila aya va boshqa tab’i nazmga moyil, yuksak ma’naviyatli hamda idrokli ayollarni insoniyat chuqur ehtirom bilan eslaydi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, Abdulla Avloniy bola uchun birinchi tarbiyachi ona ekanligini ta’kidlaydi: “Tarbiyani kimlar qilur? Qayda qilinur? degan savol keladur. Bu savolga “Birinchi uy tarbiyasi. Bu ona tarbiyasidur…deb javob” beriladi” [Avloniy, 1992:13].

O‘zining tarbiyasi, aqliy va ma’naviy kamolotida oila va qarindoshlarning ta’siri nechog‘liq katta bo‘lganini o‘zbek adabiyotining yirik vakili yozuvchi va shoir Oybek o‘zining “Bolalik xotiralarim” asarida batafsil ochib bergan. Buvisi haqida “…yumshoq, semiz qo‘llari bilan boshimni silab, odaticha, peshonamdan o‘pib qo‘y”ishini; buva (bobo)si esa yelkalariga osilib, quloqlarini ushlab, burishiq yuzlarini silaganida “Hoy, qo‘y, bolam, tek tur! Choyni to‘kding-ku, xumpar!” deb yengil

koyibgina qo‘yishi, buning uchun onasi koyiganida “Sho‘x-da, ayni g‘ayratga kirgan!” deb yonini ham olishini; ota-onasining halol mehnatda, o‘zaro munosabatlarda ibrat bo‘lishini; opasining maktab o‘qishiga havas uyg‘otgan tarbiyachisi bo‘lganini; tog‘asi Rahimberdining maktabdan sira qochmay, astoydil o‘qishga berilish kerakligi haqidagi nasihatini katta zavq va mamnuniyat bilan eslaydi. Ayniqsa, bobosining aytgan qo‘shiqlari, buvisiga har gapda maqollar quyilib kelishi uning yetuk ijodkor bo‘lib shakllanishida o‘z muhrini qoldirgan.

Aynan shunday o‘xshashlik: Chingiz Aytmatovning otasi, onasi, buvisi hamda ammasi birgalikda yaxshi bir tarbiya o‘chog‘i, tarbiya maktabi bo‘lgan deyish mumkin. Oila bo‘lgan bu tarbiya o‘chog‘i, yaqinlari muallimlari bo‘lgan mazkur tarbiya maktabi bola Chingiz qalbida ilmga bo‘lgan katta ehtiyoj, ijodga bo‘lgan so‘nmas qiziqishni yuzaga keltirdi. “Maktabgacha yoshdagi bola tabiatiga xos bo‘lgan kuchli ehtiyojlardan, ya’ni omillardan yana biri – har narsani yangilik sifatida ko‘rib, uni har tomonlama bilib olishga intilish. Har qanday yoshdagi bolalar hayotida va ularning psixologik rivojida qiziqishning o‘rni ham juda katta. Qiziqish ham xuddi ehtiyoj kabi shaxs sifatida shakllanayotgan bolakayni ma’lum bir faoliyatga undovchi omillardan sanaladi” [Mamadaliyeva H, 2019:97]. Shu bois ayrim adabiyotlarda psixologlar qiziqishni bilish jarayonidagi g‘oyat muhim bo‘lgan murakkab psixik hodisa sifatida baholaydilar [Uruntayeva, 2010:36]. Ahamiyatlisi, oilalarda ana shu murakkab psixik hodisani xalqning asriy an’analariga, xalq donoligiga tayangan holda teran tushungan va his etganlar hamda zamonlar osha ularga amal qilib yashaganlar, millatning ertasi bo‘lmish yosh avlodni tarbiyalaganlar. Chingiz Aytmatovning onasi Nagima Hamzayevna Aytmatova, adib o‘zi ta’kidlaganidek, “… savodxon, g‘oyat zamonaviy ayol edi, meni rus madaniyati, rus tili, shu qatori, rus adabiyoti, tabiiyki, bolalar adabiyotiga oshno qilgan edi” [Aytmatov, 1985:445]. Shuni aytish kerakki, yaqinlari o‘zga tilni o‘rgatish asnosida farzandlariga o‘z ona tilidan uzoqlashishiga yo‘l qo‘ymadilar. Agar shunday bo‘lsa edi, buvisining donoligi, xalq hikmatlari ma’dani ekanligi, onasining savodxon va zamonaviyligi yo‘qqa chiqardi. Aksincha, oila muhiti bo‘lajak buyuk yozuvchida, asarlarida milliy til, milliy ruh va tarbiyani tarannum etgan adibni ona tiliga cheksiz muhabbat ruhida tarbiyaladi. Ch.Aytmatov “O‘zim haqimda” maqolasida yozadi: “Ona tili! Bu haqida qanchalar gapirilmagan! O‘z tilingdagi nutq mo‘jizasiga til ojiz. Faqat bolalikda tushunib, anglab yetgan ona tilidagi so‘zlargina xalq tajribalari asosida vujudga kelgan poeziya bilan qalbni sug‘oradi, insonda ilk bor milliy

g‘ururning nish urishiga turtki beradi, ajdodlar tilining ko‘p qirraliligi va ko‘p ma’noliligi bilan estetik zavq beradi. Bolalik nafaqat ajoyib davr, bolalik inson shaxsining yadrosidir. Aynan bolalikda haqiqiy ona tiliga oid bilimlar egallanadi, aynan shu davrda o‘zining atrofidagi odamlarga, o‘rab turgan tabiatga, muayyan madaniyatga mansublik his qilinadi” [Aytmatov, 1985:446]. Mazkur fikrlar bugungi kunda o‘zbek millatining muayyan qatlami uchun katta ibrat bo‘lmog‘i kerak. Zamonga moslashish bahonasi bilan farzandlarining chet tili ta’limiga berib, ona tilidagi tafakkur va nutq malakasi to‘g‘risida qo‘l siltayotgan ota-onalar soni toboro ko‘payib borayotgan bizning tashvishli kunlarimizda (buning yoniga yana ziyoli deb atalmish pedagoglarning loqayd kuzatib turishlarini qo‘shsak) Aytmatov ibratini o‘zimizga shior qilib olishimiz kerak. Ayni paytda adib o‘zga tillarni o‘rganish imkoniyati va zaruratini inkor etmaydi, aksincha, bunga undaydi: “Shaxsiy tajribalarimdan kelib chiqib aytishim kerakki, bolalikda kishi o‘ziga yaqin bo‘lgan ikki, balki undan ortiq tilni, bolalikning ilk kunlaridan bir xil ta’sirga ega bo‘lsa, bemalol chuqur o‘rganishi mumkin”. O‘z ona tili, milliy qadriyatlaridan mosuvo odamlarni u keyinchalik “Asrga tatigulik kun” romanida manqurt obrazi orqali talqin etib, ularning nafratga, jirkanishga loyiq, ayni paytda bolaligidan noto‘g‘ri tarbiya tufayli achinishga mahkum kimsalar sifatida tasvirlaydi.

Yozuvchi o‘z tarjimayi holini yozar ekan, oilada ayol matonati, ibratli ko‘rsatmalari bolalar tarbiyasida betakror namuna bo‘lib qolishini alohida mehr bilan eslaydi. Otalari To‘raqul Aytmatov nohaq qatag‘onga uchraganidan keyin odamlar, ayniqsa, o‘z tengdoshlari orasida bosh ko‘tarib yurishi qiyin bo‘lib qolgan Chingiz va ukasi Ilgizga birov “Kimning o‘g‘lisizlar?” deb so‘rasa, bosh egmay, yuziga tik qarab kimligingizni ayting deb ko‘rsatma beradi. “Qandaydir tarzda savodli bo‘lmagan bu ayol bularning hammasi yolg‘on, bunday bo‘lishi mumkin emas deb bilardi. Lekin o‘zining bu iqrorini qanday tushuntirishni bilmasdi” [Aytmatov, 1985:450].

Shuningdek, o‘qituvchi-pedagogning millat bolalari oldidagi mas’ulligiga yorqin namunani ijodkor maktab ustozlari misolida ko‘radi. Qatag‘on davrida siyosatga ko‘ra bolalarga ham ota-onasidan kelib chiqib munosabat bildirilayotgan bir zamonda yelkasi qisiq, ko‘ngli o‘ksik bolalarni maktabda o‘qishga chaqirgani (bu o‘z hayotini garovga qo‘yish bilan teng edi) bola Chingiz xotirasiga ular haqidagi porloq esdaliklarni muhrladi.

Chingiz Aytmatov mansub bo‘lgan zamin, mintaqa va millat ana shu haqiqatlar bilan yashab kelgan. Ona xalqining qadriyatlari, an’analari

ruhidagi tarbiya ta’siri nasliy omil, shuningdek, oila tarbiyasidan boshlangan bo‘lsa, ular bo‘lajak adibning maktabdagi tahsil olishida ham izchil davom etdi. U avval rus maktabida o‘qidi, so‘ng qirg‘iz maktabida o‘qishini davom ettirdi. Ikkala tilda ham birdek o‘qish, yozish, fikrlash malakasini egalladi. Ikkinchi jahon urushidan so‘ng Avliyo otadagi zooveterinariya texnikumiga o‘qishga kirdi. Qirg‘iston qishloq xo‘jaligi institutini tugatib, uch yil zootexnik bo‘lib ishladi. Ko‘rinadiki, Chingiz Aytmatov o‘z davrida mavjud bo‘lgan o‘rta, o‘rta maxsus hamda oily ta’lim bosqichlarini birin-ketin o‘z vaqtida o‘zlashtirgan. Oila mihitidagi yuksak ma’naviyatga yo‘g‘rilgan milliy tarbiya, tizimli ta’lim uning shaxs sifatidagi kamolotida, hayotda erishgan muvaffaqiyatlarida chuqur iz qoldirdi. “Shunday qilib, u odam qaytib keldi-da, kimning bolalari ekanimizni so‘radi. Bu azobli bo‘lsa ham, nigohimizni tushirmay, men familiyamizni aytdim.

- Qo‘lingdagi qanday kitob? – qiziqdi u.

Bu maktab darsligi, hozirgiday eslayman, jo‘g‘rofiya darsligini belimga qistirib olib yurardim. U kitobga qaradi va so‘radi:

-Maktabda o‘qishni xohlaysizlarmi?

Qaniydi! Yig‘lab yubormaslik uchun labimizni tishlab bosh irg‘adik.

- Yaxshi, albatta o‘qiysizlar! – shunday deb ketdi u.

Bir haftadan keyin maktabga qatnay boshladik. U odam, keyin bilishimizcha, Tinaliyev Usubali ekan. Men Inkamol Joloyeva sinfiga tushdim, o‘sha kunlari u menga hamdardlik bilan munosabatda bo‘lgandi” [Aytmatov, 1985:450-451] .

Bu kabi insonlar bo‘lajak yozuvchi dunyoqarashi, umuman, taqdirida hal qiluvchi o‘rin egalladiki, keyinchalik yozgan asarlarida pedagogik motivning ustuvor bo‘lishiga turtki bo‘ldi. Bu kabi pedagoglarni “Shaxsiy “Men” obrazini faoliyatning faol ishtirokchisi sifatida shakllantirish, o‘z ijtimoiy mansubligi va o‘rnini anglash”[Egamberdiyeva, 2009:87] da boshqalarga namuna, ibrat sifatida ko‘rsatish mumkin.

Katta istedod sohibi Aytmatovning shakllanishida alohida e’tiborga molik yana bir omil bu qirg‘iz xalqining milliy an’analari, Qirg‘iston tabiati, samimiy insonlaridir. U avtobiografiyasida chorvador xalqining yozgi ko‘chishlarini o‘ziga xos urf-odat, bayramona taomil sifatida maroq bilan eslaydi . Asarlarida ona Vatan tabiatini, beg‘ubor insonlarini samimiy muhabbat bilan tasvirlaydi. Qissa va romanlaridagi lirik chekinishlarining aksariyati yurtining o‘zi ko‘rgan, kuzatgan betakror manzaralaridan iborat ekanligi ham bejiz emas. Bularning barchasi Vatan timsoli, vatandoshlar siymosi Chingiz Aytmatovning ichki dunyosiga, ijod

olamiga bolalik, o‘smirlik va yoshlik chog‘larida muhrlanib borganidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Chingiz Aytmatovning yetuk shaxs, haqiqiy vatanparvar hamda betakror adib sifatida shakllanishida to‘rtta omil hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan:

Mazkur tarbiya omillarining ta’siri keyinchalik yozuvchining yaratgan asarlarida bo‘y ko‘rsatishi tabiiy edi. Qadimdan o‘z tasdig‘ini topib kelayotgan haqiqat shuki, yuqoridagi omillar ta’sirida tarbiyalangan va shakllangan adiblar yuksak mahoratli ijodkor bo‘lib yetishadi. Ijodkor qanchalik mahoratli bo‘lsa, u yaratgan asarlarining ma’rifiy, axloqiy, didaktik ahamiyati chuqur, ko‘lami keng bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мамадалиева Ҳ. Мактабгача ёшдаги болаларни мустақил фикрлашга ўргатишнинг психологик омиллари. АДУ “Илмий хабарнома”си, 2019. Махсус сон. 98-бет.
2. Бердалиева Г.А. Мактабгача таълим муассасалари нутқ ўстириш машғулотларида болаларни мустақил фикрлашга ўргатиш методикасини такомиллаштириш. Педагогика йўналиши бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. T.: 2019.39-bet (128).
3. A.Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. T: O‘qituvchi, 1992. 13-b.
4. Мамадалиева Ҳ. Мактабгача ёшдаги болаларни мустақил фикрлашга ўргатишнинг психологик омиллари. АДУ “Илмий хабарнома”си, 2019. Махсус сон. 97-бет.
5. Урунтаева Г.А. Детская психология. – Москва: Академия, 2010. С.36. (368)
6. Chingiz Aytmatov. Эхо мира. Москва: Правда, 1985. С.445.0
7. Эгамбердиева Н. Ижтимоий педагогика. –Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси, 2009. – Б.87.

SOHAVIY LEKSEMALARNING SEMANTIK-FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI

Raxmatullayeva Nigora Erkinpo'latovna,
University of Business and Science
Til va adabiyot ta'limi kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tili lug'at tarkibida uchraydigan arabcha me'morchilikka oid leksemalarning semantik va funksional xususiyatlari tahlil qilingan. Muallif arabcha o'zlashma so'zlarning kelib chiqishi, mavzuiy guruhlarga ajratilishi, ularning leksik qatlamdagi o'rni va zamonaviy nutqdagi qo'llanilish darajasini ko'rsatadi. Tadqiqotda bu so'zlar orqali tilimizga kirib kelgan madaniy, tarixiy va kommunikativ omillar ochib berilgan. Maqola tilshunoslik va leksikologik jihatdan ahamiyatli bo'lib, arabcha terminlarning bugungi til tizimidagi faoliyati yoritilgan.

Tayanch iboralar: Arabcha leksemalar, me'morchilik terminlari, o'zlashma so'zlar, leksik qatlam, semantik-funksional xususiyatlar, madaniy ta'sir, o'zbek tili lug'ati, tilshunoslik tahlili.

Keywords: Arabic lexemes, architectural terms, loanwords, lexical layer, semantic-functional features, cultural influence, Uzbek language vocabulary, linguistic analysis.

Аннотация: В данной статье анализируются семантические и функциональные особенности арабских лексем, связанных с архитектурой, которые встречаются в лексическом составе узбекского языка. Автор рассматривает происхождение заимствованных из арабского языка слов, их тематическую классификацию, роль в лексическом слое языка и степень употребления в современной речи. В исследовании раскрываются культурные, исторические и коммуникативные факторы, способствовавшие проникновению этих слов в узбекский язык. С точки зрения лингвистики и лексикологии статья имеет научную значимость, так как освещает актуальное функционирование арабских терминов в современной языковой системе.

Ключевые слова:Арабские лексемы, архитектурные термины, заимствованные слова, лексический слой, семантико-функциональные особенности, культурное влияние, лексика узбекского языка, лингвистический анализ.

Tilning leksik qatlami eng o’zgaruvchan, xalqlar o’rtasidagi madaniy, iqtisodiy, maishiy, siyosiy aloqalarni aks ettiruvchi sath sifatida ham ahamiyatlidir. O’zbek tilining leksik sathi ham bundan mustasno emas. O’zbek tili lug’at tarkibida salmoqli o’rinni arabcha so’zlar egallaydi. “O’zbek tili leksikologiyasi”da arabcha o’zlashma so’zlarning quyidagi mavzuiy guruhlari qayd etilgan:

1. Ijtimoiy-siyosiy tuzum, huquqqa so’zlar.
2. Ilm-fanga oid so’zlar.
3. Adabiyot va san’atga oid so’zlar.
4. Ishlab chiqarish, sanoat va savdoga oid so’zlar.
5. Harbiy ish, harbiy to’shunchalar, qurol-yarog’lar nomlari.
6. Kitob va nashriyot ishlari bilan bog’liq so’zlar.
7. Maktab, ma’rifat va tarbiyaga oid so’zlar.
8. Kasb-hunar va u bilan aloqador tushunchalar nomlari.
9. Diniy tushunchalar bilan bog’liq so’zlar.
10. Inson va kishilar jamoasi tushunchasi bilan bog’liq so’zlar:.
11. Qarindoshlik, oila, avlod-ajdod va yaqinlik munosabatini ifodalovchi so’zlar.
12. Tug’ilish va o’lim bilan bog’liq tushuncha va narsalar nomi.
13. Odam va hayvon a’zolari nomi:
14. Ba’zi kasalliklar nomi.
15. Turarjoy, o’rin, makon tushunchasi bilan bog’liq so’zlar.
16. Tabiat hodisalari va tabiiy predmetlar nomi.
17. Vaqt tushunchasi bilan bog’liq so’zlar.
18. Tomon, makon anglatuvchi geografik terminlar.
19. Yer, osmon tushunchasi va boshqa xil astronomik tasavvurlar nomi.
20. Ba’zi hayvon, parranda va qushlar nomi.
21. Oziq-ovqat, ichimliklar nomi
22. Ba’zi konkret predmetlar nomi
23. Tovush, nutq bilan bog’liq so’zlar.
24. Hujjat, yozishmalar nomi.
25. Xususiyat, belgi, xossa va holat anglatuvchi so’zlar.
26. Abstrakt tushuncha va tasavvurlar nomi
27. Ba’zi ravishlar.
28. Bog’lovchilar
29. Ba’zi rasm-odat so’zlari
30. Modal so'zlar.[36]

[36] Ўзбек тили лексикологияси. – Т.: 1981. – Б.119.

Mazkur tasnifdan ham ko’rinib turibdiki, arabcha so’zlar jamiyatimiz hayotining barcha soha va tarmoqlari, jabhalariga kirib brogan, o’z so’zimizday qo’llanadi.

Ma’lumki, Lisoniy birliklarning muayyan birlashtiruvchi ma’no asosida ma’lum paradigmalarga blrlashuvi keyinchalik tilshunoslikda maydon nazariyasini vujudga keltirgan. Ma’no (mazmun) umumiylig’i bilan birlashgan va belgilanayotgan hodisalarning tushunchaviy, iredmetlik yoki vazifaviy (funktsional) o’xshashligini aks ettiruvchi til birliklari (asosan, leksik birliklar) yig’indisi ko’pchilik lisoniy adabiyotlarda maydon sifatida belgilanadi.[37] Maydon sifatida ko’rsatilayotgan materiallarning turlicha ekanligi, shuningdek, ayrim tilshunoslar tomonidan bu tushunchaning har xil talqin qilinishiga qaramay, maydonga xos yondashuvda ikkita yo’nalishni ajratish mumkin: paradigmatik va sintagmatik yondashuv. Bular eng keng tarqalgan yondashuvlar sanaladi.[38] Me’morchilik leksikasi o’zbek tili lug’at zaxirasida alohida o’rin egallaydi. Mazkur leksika o’ziga xos semantik maydonni tashkil etadi, uning tarkibidagi leksemalar paradigmatic munosabat asosida umumiy sema ostida birlashadi, shuningdek, differensial belgi-xususiyatlarga ham ega hisoblanadi. Kasb-hunarga oid leksikaga xos jihatlarni qamrab olgani bilan ham ahamiyatli sanaladi. Mazkur leksemalar guruhining bir qismi arab tilidan o’zlashgan va asrlar osha xalqimiz madaniyatidan mustahkam o’rin olgan tushunchalarni aks ettiruvchi so’zlardan iboratdir. Quyida ana shu so’zlardan bir nechtasini semantic-funksionla jihatdan tahlil qilib o’tamiz.

Arabcha o’zlashmalar orasida me’morchilik leksikasida inshootni ifodalovchi umumiy ma’noli leksemalar mavjud. Bular bino, imorat, inshoot leksemalaridir.

Bino – bu arabcha so‘z **binaь (un)** shakliga ega; o‘zbek tiliga cho‘ziq a unlisini a unlisiga almashtirib, so‘z oxiridagi hamzani tashlab qabul qilingan: **binaь> bina (bino).** Bu so‘z ko‘p ma’noli **bana**’ fe’lining ‘qurdi’ ma’nosi bilan hosil qilingan masdar bo‘lib, arab tilida ‘qurish jarayoni’,’qurilish’,’imorat’ ma’nolarini o‘zbek tilida esa ‘imorat’ ma’nosini anglatadi. Bu so‘z bilan o‘zbek tilida **bino bo‘l (quritil-,’yaratil’), bino qil-(‘qur’-,’yarat-‘)** qo‘shma fe’llari tuzilgan.[39] Mazkur so’z me’morchilikka oid umumiste’mol leksemasi hisoblanadi. Bino so’zi imorat, inshoot, uy, muassasa kabi so’zlar bilan ma’nodoshlik hosil qiladi hamda umumlashtiruvchilik xususiyatiga ega.

[37] Лингвистический энциклопедический словарь. – Москва, 1990. С. 300.
[38] Искандарова Ш. Лексикани мазмуний майдон асосида ўрганиш муаммолари. – Т.: 1998. – Б. 40.
[39] Раҳматуллаев Ш. Ўзюек тилининг этимологик луғати. – Т.: 1999.

Imorat so’zi arabcha **ыmarat (un)** shakliga ega; o‘zbek tiliga kasrali hamzani I tovushiga, cho‘ziq a tovushini a tovushiga almashtirib qabul qilingan. ЬImtiyaz>imtiyaz (imtoyoz) asli bu so‘z ko‘p ma’noli **ыmara** fe’lining ‘bino qurdi’ ma’nosidan hosil qilingan I bob masdari bo‘lib[40], **‘bino‘,’katta uy’** ma’nosini anglatadi.

Inshoot bu arabcha so‘z **ыnsa’at (un)** shakliga ko‘ra bo‘lib ko‘pma’noli nasaыa fe’lidan ‘qurdi’ma’nosi bilan hosil qilingan IV bob masdari **ыnsaы (un)** so‘zining **at(un)** qo‘shimchasi qo‘shilgan ko‘plik shakli bo‘lib, ’turli maqsadlarga xizmat qiladigan yirik qurilishlar’ma’nosini anglatadi.[41]

Mazkur leksik guruhda kasb-hunar otlari ham mavjud.

Me’mor bu arabcha so‘z **miьmar(un)** shakliga ega; o‘zbek tilidagi I unlisini e unlisiga,cho‘ziq **a** unlisini **a** unlisiga almashtirib, sukunli ayn o‘rniga **ь** (ayirish) belgisini qo‘yib qabul qilingan; **miьmar>meьmar (me’mor).** Bu so‘z ko‘pma’noli ьamara fe’lining ‘qurdi’ ma’nosidan yasalgan shaxs oti bo‘lib, “**quruvchi usta’,’arxitektor’** ma’nosini anglatadi. Bu so‘zdan me’morlik, **me’morchilik** so‘zlari yasalgan. Me’mor bu qurilish loyihalarini dastlabki konsepsiyasidan oxirigacha mas’ul bo’lgan shaxs. Uning vazifalariga hozirgi kunda binolar loyihasini chizishdan tortib xarajatlarni hisoblash va qurilish jamoalarini boshqarish ham kiradi. Me’mor so’zi majoziy ma’noda muayyan sohaning, jamiyatning yetakchisi, asoschisi ma’nosida ham qo’llanadi. Masalan, mustaqilligimiz me’mori (I.Karimovga nisbatan). *Bu insonning xotirasini nafaqat bugungi, balki kelajak avlodlar ham mustaqilligimiz **me’mori** sifatida yuksak qadrlaydi.* Uza.uz.

Naqqosh bu arabcha so‘z **naqqas(un)** shakliga ega (APC,824); o‘zbek tiliga cho‘ziq a unlisini a unlisiga almashtirib qabul qilingan: **naqqas <naqqash (naqqosh**); o‘yib rang berib bezak hosil qiladi ’ma’nosini anglatuvchi naqasa fe’lidan yasalgan kasb oti bo‘lib, naqsh ustasi; bezak, gul yaratuvchi usta, amaliy san’atning barcha sohalaridagi ustalarga naqsh nusxalari (axta, andozalar) tayyorlab beradigan, gul bosuvchi ustalar uchun naqsh qoliplarini tayyorlab beruvchi ustalarga ham naqsh mujassamotini chizib beradigan kasb egasi ma’nosini ifodalaydi.
Bu so‘zdan o‘zbek tilida **naqqoshlik** faoliyat-jarayon oti yasalgan. Naqqosh so’zi o’rta asrlardan beri tilning faol lug’ati tarkibida qo’llanadi. Badiiy matnlarda ko’chma ma’noda ham ishlatiladi.

[40] Раҳматуллаев Ш. Ўзюек тилининг этимологик луғати. – Т.: 1999.
[41] Раҳматуллаев Ш. Ўзюек тилининг этимологик луғати. – Т.: 1999.

Navoiyning mashhur g’azalida naqsh va naqqosh so’zlari majoziy ma’noda qo’llangan:

Hayrat etmon husni naqshidaki, har hayratki bor,

Barchasi ezid taolo sun naqqoshindadur.

Bu o’rinda naqsh va naqqosh so’zlari ilohiy qudrat, Yaratganning ijodkorligi, cheksiz mo’jizalariga ishora qilmoqda. Oshiq bu qadar husnning barkamolligidan u qadar hayratga tushmaydi, chunki har qanday hayratga soluvchi ijod natijasi, mo’jiza Yaratganning qudrati mahsulidir.

Sharq xalqlarida diniy va dunyoviy bilimlarni o’rganishga bo’lgan qiziqish juda kuchli bo’lgan. Hadislarda ilm targ’ibotiga oid jumlalar ko’p kuzatiladi. Me’morchilik leksikasida ham ana shu ilm o’rganish jarayoni bilan bog’liq inshootlar, ularning tarkibiy qismlarini ifodalovchi leksemalar anchagia. Ulardan biri madrasa leksemasidir.

Madrasa so’zi ham arabcha o’zlashmalar sirasiga kiradi. Mazkur so’z o’quv muassasasi, inshoot ma’nolarida qo’llanadi. Madrasalar musulmon olamida me’morlik inshooti sifatida X—XI asrlarda vujudga kelgan. Ilk madrasalar bir qavatli, o‘rtasi hovli va uning atrofi hujralardan iborat bo‘lgan. Ba’zan gumbazli go‘rxona qurilib, madrasaga homiylik qilgan kishining sag‘anasi qo‘yilgan. XIV—XVI asrlardan boshlab hashamatli madrasa binolari qurish avj olgan. Ular 2—3 qavatli qurilib, odatda, katta va go‘zal peshtoqli, atrofi hujralar bilan o‘ralgan hovlisi, darsxona, kutubxona va masjidi bo‘lgan. Keyinroq, katta madrasalar yoniga minora qurish rasm bo‘lgan. Kirish peshtoqining ro‘parasida, peshayvon bo‘lib, u yozgi darsxona vazifasini bajargan hamda hovliga salobat bergan. Ba’zan madrasalarda hujralarning hovli tomoni ravoqli ayvonlar bilan o‘ralib, hovli o‘rtasida hovuz qilingan. Madrasalarning tashqi va ichki qismi har xil rangli koshinkori va ganchkori bezaklar bilan pardozlangan. Qur’ondan oyatlar va hadislar ko‘chirib yozilgan. Masalan, Buxorodagi Ulug‘bek madrasasi eshiklariga „Bilim olmoq har bir musulmon erkak va ayolning burchidir” degan hadisi sharif bitilgan. Madrasa umumiy qurilish tipologiyasi loyihasi va qurilmasiga ko‘ra, ajralib turadi. Markaziy Osiyo me’morligida masjid va darsxona qoidaga ko‘ra, peshtoqning ikki yon qanotida joylashgan. Mamlakatimizda Buxorodagi Mir Arab madrasasi, Abdullaxon madrasasi, Abdulazizxon madrasasi, Samarqanddagi Ulug‘bek, Sherdor, Tillakori madrasalari, Xivadagi Muhammad Rahimxon madrasasi, Muhammad Amin inoq madrasasi, Toshkentdagi Ko‘kaldosh madrasasi, Baroqxon madrasasi, Abulqosim madrasasi, Qo‘qondagi

Kamol qozi madrasasi, Andijondagi Gumbaz madrasa va boshqalar me’moriy yodgorliklar sifatida mashhur hisoblanadi.[42]

Inson hayotida diniy dunyoqarash muhim o’rin egallaydi. Din ijtimoiy ong shakllaridan biri sifatida insoniyatning eng ibtidoiy davrlaridan buyon unga hamrohdir. O’rta asrlarda ham, zamonaviy dunyoda ham diniy marosimlar, ibodat jarayonlariga alohida ahamiyat berilgan. Buning natijasida diniy ibodat joylariga xos me’moriy obidalar qad rostlagan. Bulardan biri masjidlardir.

Masjid (arab. — sajda qilinadigan joy) — musulmonlar jamoa bo‘lib, namoz o‘qiydigan joy, ibodatxona. Masjidlar, asosan, kundalik besh vaqt namoz o‘qish uchun mo‘ljallangan. Juma va hayit namozlari esa jome masjidlarida o‘qiladi. Masjidlar VII—VIII asrlardan turli musulmon mamlakatlarning mahalliy me’morlik an’analarida yetakchi o‘rinni egallab, o‘ziga xos uslubda qurila boshlagan. Asosan murabba yoki to‘g‘ri to‘rtburchak tarhli, markaziy qismida xonaqohi bo‘lgan, hovli atrofi ravoqli ayvonlardan iborat. 8 qirrali, gumbaz tomli va ko‘p ustunli, galereyali masjidlar tosh, yog‘och, g‘isht, rangli koshin bilan hashamdor bezatilgan. Markaziy Osiyo’da dastlabki masjidlar Buxoro arki ichida 713-yilda Qutayba ibn Muslim tomonidan mahalliy otashgoh butxona o‘rnida qurilgan. Rivoyatlarga ko‘ra, Samarqanddagi birinchi masjid Hazrati Xizr masjidi o‘rnida bo‘lgan. X—XI asrlar masjid me’morligida ganch o‘ymakorligi, g‘ishtni bezakli qilib terish san’ati rivoj topgan.

Ma’lumki, bizning madaniy qarashlarimiz, urf-odat va an’analarimiz diniy qarashlar bilan uyg’unlashib ketgan. Ana shunday diniy va milliy qarashlarni umumlashtirgan so’zlardan biri mehrob so’zidir. **Mehrob** (arab. — harb joyi, janggoh; bu yerda namoz paytida shayton bilan imom o‘rtasidagi urush joyi ma’nosida) — masjidning Makka (Kaba)ga qarata yo‘naltirib devor ichiga ishlangan ravoq shaklli joy, sajdagoh. Yarim aylana, ko‘p qirrali, to‘g‘ri to‘rtburchak shaklda ishlanib, tepasi ravoq yoki yarim aylana shaklida bezaladi, atrofi hoshiyalangan bo‘ladi. Ayrim mehroblar yog‘och, ganch, naqshinkor marmar va koshinlar bilan qoplangan, badiiy bezakli ustunlar va ravoqli hoshiyalar bilan bezatilgan. Mehrob islom dinining dastlabki davrlaridan mavjud. Namoz vaqtida imom Mehrobga o‘tib, qiblaga yuzlanadi va uning orqasidan jamoa bo‘lib namoz o‘qiladi. XX asr o’zbek me’morchiligida ham an’anaviy uylar qurilishida qibla tomonda mehrobga o’rin ajratilgan (Farg‘ona vodiysida). Mehrobga sandiq qo’yilib, ustiga ko‘rpa-to‘shaklar, ko‘rpachalar taxlangan.

[42] https://uz.wikipedia.org/wiki/Madrasa

Ma’lumki, bizning madaniy qarashlarimiz, urf-odat va an’analarimiz diniy qarashlar bilan uyg’unlashib ketgan. Mehrob o’zbek madaniyatida “muqaddas joy” semasiga ega. “Mehrobdan chayon” asari sarlavhasidagi birikma ana shu muqaddaslik, tabarruklik ma’nosi asosida o’ta salbiy semaga ega ‘chayon’ leksemasi bilan birikib, oksyumoronni yuzaga keltirgan.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, me’morchilik semantik maydoniga oid so’zlar safida arab tilidan o’zlashganlari anchagina. Mazkur leksemalar tarixan xalqimizning ijtimoiy-madaniy hayoti, diniy qarashlarini asosida yuzaga kelgan tushunchalarni o’zida mujassam etadi. Leksemalarning aksariyati bir ma’noli, ammo ko’chma ma’noda ishlatiladigan so’zlar ham mavjud.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Mavzu yuzasidan Matnni jahon tilshunosligida J.Jenett, M.Fuko,J.Derrida, Ye.Agrikola, R.DeBeaugrande, V.U.Dressler, Y.Mistrik, V.A.Kox, M.P.Ionitse, A.A.Metsler, L.G.Fridman, Y.M.Lotmanlar tomonidan o’rganilgan.

O’zbek tilshunosligida ilmiy asarlar, gazeta va jurnallar matni haqida O.Saidov va A.Shomaqsudov; badiiy asar tiliga oid I.Q.Qo’chqortoev, A.Yu.Aliev, S.To’rabekova, R.Q.Qo’ng’urov, H.Nazarova, A.S.Karimov, F.Nasriddinov, E.Qilichev, P.Qodirov va boshqalarning tadqiqotlarini aytish joiz. A.Mamajonov matn tilshunosligida ko’rilishi mumkin bo’lgan bir talay masalalarga yetarlicha munosabat bildirgan, M.To’xsonov mikromatn va uni tashkil etuvchi birliklarni tadqiq etgan, N.Turniyozov turli vazifaviy uslubdagi matnlarni statistik metodlar asosida o’rgangan. M. Xakimov ilmiy matnining sintagmatik va pragmatik xususiyatlarini, B.Yo’ldoshev badiiy matnni lingvopoetiksini, M.Abdupattoyev matn sintaksisi, S.Boymirzaeva esa matn hodisasi mazmuniy tuzilishining kognitiv mohiyatini tadqiq qilgan. I.Azimova psixolingvistikadagi matnning mazmuniy pertseptsiyasiga oid umumnazariy qarashlarni sharhlagan, M.Qurbonova badiiy matnni tadqiq etish tamoyillari va usullari, D.Muhamedova matn va uning turlari, I.Xojaliev tasvir nutq tipining lingvistik xususiyatlari, Sh.Shahobiddinova matnni bog’lovchi vositalarni o’rganganlar.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Mazkur maqolada diaxron tahlil, qiyosiy tahlil, semantik tahlil, stilistik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:
1. Искандарова Ш. Лексикани мазмуний майдон асосида ўрганиш муаммолари. – Тошкент: 1998.
2. Лингвистический энциклопедический словарь. – Москва, 1990.
3. Раҳматуллаев Ш. Ўзюек тилининг этимологик луғати. – Т.:1999.
4. Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: 1981.

IDEONIMLARNING LINGVOSTILISTIK VA LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

Jonbo'tayeva Zumradxon Abdujabborovna,
Turan International University o'qituvchisi

Annotatsiya: Matnda ideonimlar, ya'ni tilning noyob obrazli tizimi, adabiyotshunoslik va lingvistikaning muhim tadqiqot ob'yekti sifatida tahlil qilinadi. Ideonim lar muallifning aqliy va badiiy faoliyatining mahsulidir, shuningdek, ular tilning badiiy va estetik xususiyatlarini ham aks ettiradi. Matnda ideonimlarning lingvo stilistik va lingvopoetik tahlili orqali, ularning semantik, grammatik va fonetik jihatlari, shuningdek, badiiy matndagi ramziy funksiyalari o'rganiladi.

Kalit so'zlar: ideonimlar , lingvostilistika, lingvopoetika ,badiiy matn, madaniy konseptlar ,ijodiy tafakkur

Annotation: The text discusses ideonyms, a unique figurative system of language, which serves as an important object of study in literary studies and linguistics. Ideonyms are a product of the author's intellectual and artistic activity and reflect the aesthetic and stylistic properties of language. The analysis covers the linguistic-stylistic and linguistic-poetic aspects of ideonyms, their semantic, grammatical, and phonetic features, as well as their symbolic functions in artistic texts.

Keywords: ideonyms, linguostylistics, linguopoetics, literary text, cultural concepts, creative thinking

Ideonimlar – ma'naviy-madaniy sohalarda muallif tomonidan maxsus yaratilgan yoki tanlangan nomlar – tilning noyob obrazli tizimi sifatida adabiyotshunoslik va lingvistikaning muhim tadqiqot ob'yektlaridan biridir. Bundan ma'lumki, ideonim shaxsning aqliy, g'oyaviy va badiiy tafakkur faoliyati mahsuli bo'lgan elementlar bir donasining atoqli oti hisoblanadi. Ular nafaqat qahramon, joy, hodisa yoki predmetlarni

aniqlash vositasi sifatida, balki muallifning badiiy dunyoqarashi, obrazli tafakkuri va tilda eksperiment qilish uslubini ham aks ettiradi. Ideonimlarning lingvostilistik tahlili ularning tarkibiy-semantik, grammatik, fonetik va frazeologik jihatlarini o‘rganishga, lingvopoetik yondashuv esa ularning badiiy matn kontekstidagi ramziy, obrazli va poetik funksiyalarini tushunishga imkon beradi.

Ideonimlar orqali muallifning til san’ati, obrazlar yaratishdagi mahorati va asarning umumiy badiiyligi namoyon bo‘ladi. Masalan, O‘zbek adabiyotida Abdulla Qodiriy, Oybek, Cho‘lpon kabi yozuvchilarning asarlarida qo‘llangan ideonimlar ularning tarixiy, ijtimoiy va madaniy mavzularga bo‘lgan munosabatini hamda tilga nisbatan nozik hissiyotini ifodalaydi. Shu nuqtai nazardan, ideonimlarni lingvostilistik va lingvopoetik jihatdan tahlil qilish badiiy matnlar tuzilishini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Ideonimlarning tildagi va adabiyotdagi o‘rni, ularning semantik xususiyatlari, badiiy matn kontekstidagi funksiyalari hamda turli adiblar asarlaridagi qo‘llanilishini ko‘rib chiqish ularning funksional xususiyatlari xususida muayyan fikrni shakllantirish imkonini beradi.

Ideonimlarning **perseptiv funksiyasi** deganda, ularning inson ongiga ta’sir etishi, ma’lum bir kayfiyat, tasavvur yoki assosiatsiyalarni uyg‘otishi tushuniladi. Bu xususiyat ularning badiiy, madaniy va psixologik ta’sirchanligini belgilaydi.

Ideonimlarning perseptiv funksiyasi uning alohida ta’sir kuchini ta’minlaydi. “Mashhur rejisser Stanislavskiy fikricha, teatrga keladigan tomoshabin spektakl nomini ko‘rganida, dam olishga, kayfiyatni ko‘tarishga, muammolarini unutishga imkoniyatni ko‘radi.”[1]Stanislavskiy ta’kidlaganidek, teatr spektakllarining nomlari tomoshabinlarda avvalo, dam olish istagini (*"Kulgili voqea"* – hazil va yengillik hissi), kayfiyatni oshirishni (*"Sehrli to‘p"* – mo‘jizaga ishonch) muammolarni unutishni (*"Abadiy sevgi"* – romantika va orzu-umidlar) stimullaydi. Ideonimlarning perseptiv funksiyasi ularning nafaqat ma’noli, balki psixologik-emosional jihatdan ham samarali bo‘lishini ko‘rsatadi.

Z.R.Muqimova O‘tkir Hoshimovning “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” asaridagi leksik birliklarning poetik imkoniyatlarini tahlil qilar ekan, undagi biblionimlar (sarlavhalar)ning deyarli barchasi zid ma’noli so‘zlardan hosil bo‘lganiga e’tibor qaratadi: “*Inson va Shayton”*, “*Kamol va zavol”*, “*Kulgi va yig‘i”*, “*Duo va qarg‘ish”*, “O*q va qora”*, “*Rost va yolg‘on” va hokazo.[2]*

Yaxshi tanlangan nom – badiiy asar, spektakl yoki filmning muvaffaqiyatining kalitlaridan biridir. O‘tkir Hoshimov asaridagi *antitetik biblionimlar* uning badiiy uslubining asosiy xususiyati bo‘lib, ular orqali insoniyatning abadiy ziddiyatlari yoritiladi, matnning semantik qatlamlari zichlashadi, o‘quvchining idroki faollashadi.

Z.R.Muqimova tomonidan qayd etilganidek, O‘tkir Hoshimovning *"Daftar hoshiyasidagi bitiklar"* asaridagi biblionimlar (bo‘lim sarlavhalari) asosan qarama-qarshi ma’noli so‘z juftliklaridan tuzilgan. Bu usul nafaqat badiiy ifodani kuchaytiradi, balki asarning mazmuniy chuqurligini ham ochib beradi. Bu usul yozuvchining psixologik realizmga bo‘lgan intilishini va tilning poetik qudratidan mohirona foydalanishini ko‘rsatadi. Shu tariqa, “asar nomi o‘quvchi diqqatini o‘ziga tortadi. Asar o‘qib chiqib bo‘lingandan so‘ng o‘sha asar sarlavhasi (ideonim) ma’nosi, unga yuklangan mazmun to‘la va aniq reallashadi.” [3]

Tilshunoslikka oid tadqiqotlarda, odatda, badiiy va publisistik matnga xos sarlavhalar xususida fikr yuritiladi .

Agar turdosh otlar bir-biriga o‘xshash narsalarni umumiy nom bilan belgilash vazifasini bajaradigan bo‘lsa, ideonimlar esa aksincha, shunday narsalarning har bir alohida vakilini individual tarzda nomlash zaruriyatidan kelib chiqadi. Tilning rivojlanishida bu ikki qarama-qarshi tendensiya - bir tomondan umumlashtirish va ikkinchi tomondan, individuallashtirish – bir-birini to‘ldiruvchi muhim jarayonlardir. Ayniqsa, madaniyat, tarix va ilm-fan sohalarida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan noyob ob’yektlar (badiiy asarlar, ilmiy kashfiyotlar, tarixiy hujjatlar), shuningdek, tarixda chuqur iz qoldirgan voqealar va davrlar uchun maxsus nomlar yaratish tabiiy ehtiyojdir.

Ana shunday nodir va yagona ob’yektlar, hodisalar yoki asarlarga berilgan maxsus nomlar tilshunoslikda "ideonimlar" termini bilan ifodalanadi. Ularning paydo bo‘lishi nafaqat tilning kommunikativ funksiyasini, balki insonning dunyoni idrok etishidagi individual va ijodiy jihatlarini ham aks ettiradi.

Lingvostilistik jihatdan ideonimlar matnni uslubiy jihatdan boyitadi va kontekstga xos ma’no yuklaydi.

Ideonimlar, ko‘pincha, faqat nomdan foydalanish bilan cheklanmay, qo‘shimcha ma’no (tarixiy, madaniy, emosional) yuklaydi. Masalan, *“Pahlavon Mahmud – Bahodirlar o‘yini“ Xalqaro turniri* ideonimi nafaqat o‘zbek xalqi tarixida o‘ziga xos nom qoldirgan tarixiy shaxs nomini, balki qahramonlik, jasorat, pahlavonlik ramzini ham anglatadi.

“To‘maris” (M.Osim) ideonimi o‘zbek xalq eposida nafaqat ayol nomini, balki qahramon ayol, jasorat timsoli ramzini anglatadi.

Ideonimlar matnda muayyan pragmatik maqsadlarga xizmat qiladi. Ular muallifning niyatini ifodalash, o‘quvchida emosional yoki ma’naviy reaksiya uyg‘otish uchun qo‘llaniladi. Masalan, “Inson qadri” teleloyihasi nomi ijtimoiy-axloqiy mavzuga qaratilgan bo‘lib, axloqiy normalarga rioya qilish, insonning o‘z-o‘zini hurmat qilishi, obro‘-e’tiborini saqlashi kabi masalalarni yoritishni nazarda tutadi, qabul qiluvchilar ongiga axloqiy mulohaza yuklovi uchun xizmat qiladi.

Ideonimlar ba’zan umumiy ma’noda qo‘llanadi. Masalan, “Farg‘ona tongi” gazetasi nomidagi Farg‘ona so‘zi tabiiy geografik joy bilan birga uning xalqi va madaniyatini ham anglatadi. *“Toshkentnoma*” (M.Shayxzoda)dagi Toshkent so‘zi ham shunday hususiyatga ega.

Ideonimlar (badiiy, tarixiy, madaniy yoki ilmiy nomlar) nafaqat to‘g‘ridan-to‘g‘ri murojaat qilish uchun ishlatiladi, balki metonimik va metaforik usullarda ham qo‘llaniladi, bu esa ularning ma’no doirasini kengaytiradi va badiiy ifodani boyitadi.

Metonimiya – bir ob’yektning nomi bilan unga bog‘liq boshqa narsani ifodalashdir .[4] Ideonimlar metonimik tarzda quyidagi usullarda qo‘llaniladi:

a) asar nomi bilan muallifni tushunish

“*O‘zbekistonda hamma Navoiyni o‘qigan, degan tushunchaning mazmuni shuki, o‘zbek o‘quvchisi maktabda uch-to‘rt sinfda Navoiyning besh-o‘nta she’rini o‘rgangan, dostonlaridan ikki-uch bob namuna ko‘rgan.” .[5]* Bunda Alisher Navoiy g‘azal va ruboiylari hamda “Hayratul abror”, “Farhod va Shirin” dostonlari nazarda tutilgan.

b) asar nomi bilan matnni nazarda tutish

"Hamlet”da insoniy qiyinchiliklar aks etgan. (Internetdan olindi.) Jumlada ellipsis orqali Shekspirning “Hamlet” asari nazarda tutilgan.

v) brend nomi bilan do‘konni ifodalash

"Ular “Zara”dan yangi kiyim olib kelishdi. Bu o‘rinda metonimiya orqali do‘kon ham brend nomi bilan “Zara” deb atalganligi anglashiladi.

Metafora – bir narsaning nomini unga o‘xshash boshqa narsaga nisbat berishdir. [6] Madaniyatning bizni o‘rab turgan predmetlar (ham tabiiy, ham inson tomonidan yaratilgan) haqida tasavvurimizni shakllantiradigan predmetli kodi boshqa madaniy kodlar singari ma’lum etalonlar tizimini belgilaydi, biz ularga asosan atrofimizdagi olamni qismlarga ajratamiz, tizimlashtiramiz va baholaymiz. Demak, ushbu kod borliqdagi narsa-buyumlar bilan bog‘liq bo‘lgan holda muayyan

kontseptlarning madaniy konnotativligini ifodalaydi va bu o‘z tabiatiga ko‘ra ham universal fenomen, ham ma’lum bir lingvomadaniyatda metafora tufayli milliy o‘ziga xos tarzda reallashuvi mumkin. [7]

1)*“Sharq Napoleoni” – Ibrohimbek Laqay haqida [8]* Mazkur ideonimda dunyo tarixida mashhur shaxs Napoleon nomini tilga olish orqali Ibrohim laqayning hukmronlik qilish xususiyatining ko‘lamini ifodalash maqsad qilib olingan.

2) *Ingliz xalqining "**Alpomishi**"i bo‘lmish "*Beowulf*" dostoni ham katta mavzuni qamrab oladi.* [9]Bu jumla orqali muallif o‘zbek til tashuvchisining milliy ongiga tanish bo‘lgan “Alpomish” dostonini eslatish orqali ingliz folkloriga oid dostonning kuch va qahramonlikni ifodalashdagi ahamiyatini metaforik tarzda ifodalagan.

Ideonimlarning lingvopoetik xususiyati badiiy matnlarda muhim estetik va obrazli ta’sirni kuchaytiradi. Lingvopoetika tilning badiiy matndagi estetik va obrazli vazifalarini o‘rganadi. Ideonimlarning lingvopoetik xususiyatlari ularning badiiy matndagi obrazlilik, simvolizm va estetik ta’sirni ta’minlash xususiyati bilan belgilanadi. Ular muayyan madaniy konseptlarni poetik shaklda ifodalaydi.

“Humo parvozi” (M.Abdulxakim) asaridagi qush nomi o‘zbek adabiyotida mifologik obraz sifatida ozodlik, ma’naviy yuksalish va komillikni ifodalaydi. U badiiy matnda murakkab poetik obraz yaratish uchun xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.. Shamaqsudova S.X.. Mediamatn sarlavhasi retsipient bilan nutqiy kontakt o’rnatishning birlamchi vositasi // “O’zbekistonda xorijiy tillar” ilmiy-metodik electron jurnal// journal.fledu.uz №1/2019. – B. 94-101

2. Muqimova Z.R.O’tkir Hoshimov asarlari tilining lingvopoetik va lingvomadaniy xususiyatlari: filol.fan.bo’yicha fals.dokt(Phd) diss..avtorefer.-T,2020

3.Yo’ldoshev B.”O’zbek onomastika masalalari **“** tanlanma fanidan o’quv-uslubiy qo’llanma.-Samarqand:SamDU nashri,2011-B 60

4. https://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/download/7834/5056/4852

5.Vahob Rahmonov. So‘z jahongiri. // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati, 2003, 6-son.

6. https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbek-tilida-ma-no-kochish-usullari-metafora

7. Ismailov F.M. Turkiy tillar frazeologizmlarida madaniyat kodlarining losoniy maqomi // «Ұлы дала» III-ші Гуманитарлық ғылымдар

форумынын материалдары (Материалы III форума гуманитарных наук «Великая степь») – Т.: Alisher Navoiy nomidagi O’zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti,2008.-B.
8. https://daryo.uz/2021/05/24/sharq-napoleoni-ibrohimbek-laqay-haqida
9.Shermamatova S. O’zbek va ingliz xalq og’zaki ijodidagi umumiy jihatlar. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 3(4), April, 2023. –B. 953-959

МЕТАФОРА КАК ФОРМА ВОСПРИЯТИЯ И ОСМЫСЛЕНИЯ ДЕЙСТВИТЕЛЬНОСТИ

Ботабаева Жанна Нуралиевна,
кандидат филологических наук, старший преподаватель,
АО Университет имени Ж.А. Ташенева, г.Шымкент
Арынбаева Р.А.,
доктор PhD, ЮКУ им.М.Ауэзова
Альмуратова Әсем Алмасқызы,
магистрант Университета им. Ж.А. Ташенева,
город Шымкент, Казахстан.

Abstract: Metaphor as a form of perception and understanding of reality is an important tool in human cognitive and linguistic activity. It allows for perceiving and interpreting the world through the lens of figurative meanings, enriching everyday perception and thought processes. A metaphor is not only an expressive language tool but also a way of understanding abstract concepts, creating a bridge between different fields of knowledge and experience. This topic explores various aspects of metaphor, including its role in meaning-making, expanding understanding of phenomena, and strengthening the connection between language and thought. Special attention is given to the cognitive function of metaphor, which helps individuals navigate the complex reality and establish connections between phenomena that were previously unconnected. Research into the metaphor in the context of perception and understanding of reality opens new horizons for understanding the dynamics of language and thought, as well as their interaction in communication and the process of knowing the world.

Anotatsiya: Metafora sifatida haqiqatni idrok etish va anglash shakli insonning kognitiv va lingvistik faoliyatida muhim vositadir. U dunyoni tasviriy ma'nolar orqali qabul qilish va talqin qilish imkonini beradi, kundalik idrokni va fikrlash jarayonlarini boyitadi. Metafora nafaqat tilning ifodalovchi vositasi, balki mavhum tushunchalarni anglash usuli

sifatida xizmat qiladi, bilim va tajriba sohalari o'rtasida ko'prik yaratadi. Ushbu mavzu metaforaning turli jihatlarini, jumladan, uning ma'no yaratishdagi o'rni, hodisalarni tushunishni kengaytirishdagi roli va til va fikr o'rtasidagi bog'lanishni mustahkamlashni o'rganadi. Metaforaning kognitiv funksiyasiga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, bu insonlarga murakkab haqiqatda yo'l topishga va ilgari bir-biriga aloqasiz bo'lgan hodisalar o'rtasida bog'lanishlar o'rnatishga yordam beradi. Haqiqatni idrok etish va anglash kontekstida metafora tadqiqoti til va fikr dinamikasini, shuningdek, ularning muloqot va dunyoni bilish jarayonidagi o'zaro ta'sirini tushunishda yangi ufqlarni ochadi.

1. **Ключевые слова:** Метафора как явление, интеллектуальной силы языка, эстетический язык, когнитивные метафоры, концептуальный перенос, языковая практика метафоры, лексическая метафора.

Метафора как явление является одной из важнейших составляющих языка. В языке метафоры выполняют не только функцию украшения речи, но и служат важным средством познания мира, способом передачи абстрактных понятий через конкретные образы. Знание метафоры и её подтипов помогает более глубоко понять механизмы функционирования языка, а также раскрывает особенности мышления носителей того или иного языка. В данной статье рассматриваются метафора и ее подтипы в русском языке, а также их роль в процессе формирования и выражения мысли.

Метафора является основным средством создания образности в языке. Она представляет собой перенос значений с одного объекта на другой на основе их сходства деятельности, поскольку обеспечивает точность и системность знаний в области изучения языка [1;68]. В классическом понимании метафора объясняется как фигура речи, в которой слово или выражение употребляется в переносном значении, образуя ассоциацию с чем-то другим. Метафора играет важную роль в раскрытии эстетической и интеллектуальной силы языка, поскольку позволяет воспринимать мир через призму новых, необычных и ярких образов.

Метафора происходит от греческого слова «мета» (перенос) и «фереин» (нести), что в свою очередь указывает на сущность метафоры — перенос значения. В русском языке метафора, как и в других языках, активно используется в литературе, риторике и повседневной речи [2;74].

В зависимости от специфики образа, который они создают, можно выделить несколько подтипов метафор. Рассмотрим основные из них.

2. Когнитивные метафоры.

Когнитивные метафоры — это метафоры, которые служат основой для построения более сложных мыслительных конструкций. Они выражают не только эмоциональную окраску, но и помогают организовать восприятие действительности. Когнитивная метафора опирается на те принципы, которые лежат в основе человеческого восприятия мира.

Пример: «жизнь — это путь». В этом случае понятие жизни переносится в категорию пути, что подразумевает движение, цель, переход из одного состояния в другое.

Когнитивные метафоры являются важным элементом в изучении языка и мышления, так как они играют ключевую роль в процессе познания мира и формировании представлений о действительности [3;98]. В отличие от традиционных лексических метафор, которые основываются на переносе значений между отдельными объектами или явлениями, когнитивные метафоры связаны с глубинными структурами нашего восприятия и осознания окружающего мира.

Когнитивная метафора — это метафора, в которой абстрактные концепты описываются с помощью более конкретных и знакомых понятий. Суть когнитивных метафор заключается в том, что они помогают нам понять сложные и абстрактные идеи через образы, которые основаны на нашем опыте с физическим миром. Этот процесс включает в себя концептуальный перенос, где одно понятие используется для объяснения другого [4;47].

Когнитивные метафоры исследуют не только языковые средства, но и отражают особенности человеческого мышления. Они помогают организовать наше восприятие действительности, формируя ментальные структуры, которые оказывают влияние на наши решения, действия и интерпретации.

Примеры когнитивных метафор.

1. Жизнь как путь. Один из самых известных примеров когнитивной метафоры — это концепция «жизнь как путь». Эта метафора помогает человеку воспринимать жизнь как путешествие, которое имеет начало, развитие, препятствия и конечную цель. Все эти элементы, такие как выбор направления, встреча с препятствиями, достижение целей, становятся понятными через образ пути.

Структура когнитивных метафор.

Когнитивные метафоры часто имеют определенные элементы, которые можно выделить в структуру метафоры. Обычно это:

1. Исходный домен (source domain) — это концептуальная область, откуда переносится значение. Например, в метафоре «жизнь как путь» исходный домен — это физический путь.
2. Целевой домен (target domain) — это концептуальная область, в которую переносится значение. В метафоре «жизнь как путь» целевой домен — это сама жизнь.
3. Метафорическая связь — это принцип, который связывает исходный и целевой домены. Например, связь между движением по пути и движением в жизни.

Роль когнитивных метафор в языке и культуре. Когнитивные метафоры не только помогают организовать мышление, но и влияют на культуру, поскольку они отражают особенности восприятия мира в разных культурах[6]. Например, в культурах, где активное взаимодействие с природой является важной частью жизни, распространены метафоры, основанные на элементах природы — земле, воде, огне.

Кроме того, когнитивные метафоры могут быть не только универсальными, но и специфическими для определенной языковой и культурной среды. Важно отметить, что они помогают не только в коммуникативной практике, но и в научных дисциплинах, таких как психология, философия и лингвистика, где они служат инструментом для изучения процессов познания и восприятия.

Когнитивные метафоры играют важную роль в организации человеческого мышления, позволяя нам понять и выразить абстрактные и сложные концепты через конкретные образы. Они оказывают влияние на наше восприятие времени, пространства, разума и других категорий, что делает их неотъемлемой частью языка и культуры. Понимание когнитивных метафор помогает не только в изучении языка, но и в более глубоком осмыслении того, как мы воспринимаем и интерпретируем окружающий мир.

2. Лексические метафоры

Лексическая метафора — это метафора, выраженная через отдельное слово. Она основана на переносе значения слова на другой объект, который имеет схожие черты.

Пример: «Огненный взгляд» — здесь «огненный» переносится на «взгляд», создавая образ сильной эмоциональной реакции.

Лексическая метафора — это метафора, в которой слово или выражение употребляется в переносном значении, создавая новую смысловую нагрузку через ассоциацию с другим объектом, явлением или состоянием [7]. В отличие от когнитивных метафор, которые обычно более абстрактны и касаются концептуальных моделей восприятия, лексическая метафора фокусируется на переносе значений на уровне конкретных слов, которые приобретают новые значения в контексте речи.

Лексическая метафора заключается в переносе смысла с одного объекта на другой на основе сходства, контекста или ассоциации. При этом слово, которое обычно обозначает один предмет или явление, используется для обозначения другого, с которым оно связано каким-либо качественным или функциональным сходством. Таким образом, лексическая метафора становится мощным инструментом для создания выразительности речи, обогащая её образностью и смысловой многозначностью.

Механизм функционирования лексических метафор. Лексическая метафора создается за счет особого восприятия одного объекта через призму другого, более знакомого, часто имеющего символическое значение [8;179]. Этот процесс переносит качество одного явления на другое, и результатом становится создание новых образов и понятий. Основой для создания метафоры является не только сходство, но и контекст, в котором используется метафорическое выражение. При этом метафора не всегда осознается как таковая носителями языка, становясь частью устойчивого употребления слов и фраз.

Основные механизмы создания лексических метафор:

- Сравнение: метафора основана на ассоциации двух объектов, которые кажутся сходными по определенному признаку. Например, сравнение «горячее сердце» — это перенос характеристик тепла (горячее) на эмоциональное состояние человека (сердце).
- Перенос качества: одно свойство объекта переносится на другое явление. Например, «твердый характер» использует характеристику твердости, свойственную материи, для описания личных качеств человека.
- Символика: объекты или явления, которые символически ассоциируются с определенными характеристиками. Например, «железная рука» или «огненный взгляд» используют элементы символики силы и яркости для описания человеческих качеств.

Многие лексические метафоры становятся настолько распространенными и устойчивыми, что теряют свою изначальную метафорическую природу. Такие выражения воспринимаются как обычные фразы, а не как фигуры речи. Они становятся частью повседневной речи и переходят в разряд устойчивых выражений или фразеологизмов. Примером может служить метафора «стать каменной стеной», которая изначально была метафорой, а теперь воспринимается как стандартная фраза, описывающая непреклонность человека.

Лексическая метафора и литература.

В литературе лексическая метафора играет важную роль в создании художественных образов. Писатели и поэты используют метафоры для того, чтобы передать чувства, настроения и мысли персонажей, а также создать выразительные образы. В литературных произведениях метафора становится не только средством выразительности, но и способом формирования уникального стиля автора.

Например, в произведениях Ф.М. Достоевского или Л.Н. Толстого часто встречаются метафоры, которые помогают передать внутренний мир героев, их страдания и переживания через яркие образы. Метафоры также служат для создания уникальных художественных миров, в которых переплетаются конкретное и абстрактное [9;213].

Лексическая метафора является важным инструментом языка, который помогает не только создавать выразительные образы, но и организовывать восприятие и понимание мира. Она является мостом между реальным и абстрактным, позволяя передавать сложные идеи с помощью конкретных слов и образов. В литературе и повседневной речи лексические метафоры обогащают язык и делают его более гибким, ярким и многозначным.

3. Грамматические метафоры.

Грамматические метафоры связаны с изменением грамматической формы слов для выражения метафорических значений. Этот тип метафор чаще всего используется в поэзии и литературных произведениях.

Пример: употребление страдательного залога, когда действие представляется как нечто пассивное, хотя на самом деле оно является активным.

4. Метафоры-метафоремы. Метафоры-метафоремы — это устойчивые метафорические выражения, которые в языке уже стали привычными и воспринимаются как единое целое. Эти метафоры не требуют дополнительных пояснений, поскольку они вошли в язык как неизменные фразы [10;241].

Пример: «стать каменной стеной» — выражение, которое означает стать неприступным, непреклонным, и которое в повседневной речи воспринимается уже как нечто стандартное.

Роль метафоры в языке. Метафоры играют ключевую роль в языке, поскольку они не только делают речь более яркой и выразительной, но и оказывают влияние на восприятие мира. Через метафоры человек выражает абстрактные понятия и идеи, что позволяет гораздо глубже понять как самого себя, так и окружающий мир.

Метафора может влиять на сознание человека, формируя восприятие реальности. Например, метафора «время – это деньги» переносит экономические категории на восприятие времени, что в свою очередь влияет на отношение человека к этому абстрактному понятию.

Метафора и культура.

Особое внимание стоит уделить тому, как метафоры отражают культуру и мышление народа. Метафоры часто обнажают скрытые аспекты культуры, общественного сознания и мировоззрения. Например, метафоры, связанные с природой, часто используются в культурах, где природа играет важную роль в жизни людей. В русском языке распространены метафоры, связанные с природой, такие как «горячее сердце», «стужа чувств». Это отражает сильную связь с природными явлениями и их интерпретацию в контексте человеческих переживаний.

Таким образом, метафора – это не только лексическое явление, но и важный инструмент познания и выражения мысли. Метафоры помогают расширить границы языка, придавая ему глубину и многозначность. Понимание метафоры и ее подтипов в русском языке позволяет глубже понять не только язык, но и особенности мышления и восприятия мира носителями этого языка. Метафора служит связующим звеном между абстрактным и конкретным, между чувственным и логическим, создавая новые формы восприятия и осмысления действительности.

Использованные литературы:

1. Апресян, Ю.Д. "Семантика. Опыт фоносемантического анализа". - М.: Наука, 1999. Одна из работ Ю.Д. Апресяна, посвященная вопросам семантики и метафоры как элемента языковой структуры.
2. Ивин, А.В. "Метафора в русском языке". — М.: Наука, 1986. - Классическое исследование, посвященное метафоре и ее подтипам в русском языке, а также её когнитивным и культурным аспектам.
3. Козырев, А.А. "Метафора в лексике и текстах русского языка". - М.: Высшая школа, 2005. - Книга, в которой рассматриваются разные аспекты метафоры в лексике и дискурсе русского языка, а также типология метафор.
4. Лейчик, А.Г. "Метафора в языке и речи". - М.: Логос, 2001. Работы по метафоре в языке, в том числе её функции и роль в различных языковых уровнях.
5. Винокур, В.М. "Семиотика и лексика: Метафора и символ в языке". — М.: Наука, 1977. Исследование, посвященное символике и метафоре в языке, роли метафоры в создании смысловых слоев.
6. Беляева, И.В. "Метафора в художественной речи: Текстовые и речевые аспекты". М.: РГГУ, 2009. Работа, в которой рассмотрены метафоры как элемент текстового и речевого строя, а также их функционирование в различных контекстах.
7. Лурье, В.И. "Метафора как феномен языка и сознания". — М.: Языки славянских культур, 2010. Исследование, которое сочетает лингвистический и когнитивный подход к метафоре, а также её подтипам в русском языке.
8. Тахо-Годи, С.Г. "О классификации метафор в языке". — Вестник ЛГУ, 1967. Статья, посвященная классификации метафор в языке и их особенностям.
9. Крылова, М.М. "Метафора как метод когнитивного анализа языка". — СПб.: СПбГУ, 2003. Работа, в которой рассмотрены когнитивные аспекты метафоры и её использование в русском языке.
10. Иванова, Н.И. "Метафора в речи: Типология и функции". — М.: Изд-во МГУ, 2012. Подробное исследование различных типов метафор в языке и их функциях в речевой практике.
11. Лакофф, Дж., Джонсон, М. (2004). Метафоры, которыми мы живем. — М.: Изд-во Едиториал УРСС.

BADIIY MATN TARJIMASIDA ERGONIMLAR BILAN ISHLASHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Nuriddinova Nozima Avazxonovna,
Namangan viloyati pedagogik mahorat markazi,
katta o‘qituvchisi
+99899-929-29-71

Annotatsiya: Mazkur maqolada badiiy matn tarjimasida ergonimlar — ya’ni korxona, muassasa, tashkilot va brend nomlarining tarjima jarayonidagi o‘ziga xosliklari tahlil qilinadi. Ergonimlar, odatda, faqat axborot yuklamasiga ega emas, balki ularning orqasida sotsiokulturniy va semantik konnotatsiyalar mavjud bo‘ladi. Shu sababli, tarjimon ularni oddiy nom sifatida emas, balki kontekstda madaniy belgilar sifatida idrok etib, mos usulda ko‘chira bilishi zarur. Maqolada ergonimlar bilan ishlashda qo‘llaniladigan transliteratsiya, transkripsiya, izohli tarjima, aralash yondashuv kabi usullar ko‘rib chiqiladi. Bundan tashqari, badiiy matndagi ergonimlar o‘zbek va jahon adabiyotlari misolida tahlil qilinib, tarjimadagi uslubiy, semantik va estetik muvozanat muhim jihat sifatida ko‘rsatib o‘tiladi. Tarjimonning madaniyatlararo vositachi sifatidagi roli ham keng yoritiladi.

Kalit so‘zlar: ergonim, badiiy tarjima, onomastika, kontekstual muvofiqlik, transliteratsiya, transkripsiya, izohli tarjima, madaniy konnotatsiya, tarjimon strategiyasi.

Annotation: This article analyzes the peculiarities of the translation process of ergonyms in the translation of literary texts - that is, the names of enterprises, institutions, organizations and brands. Ergonyms, as a rule, do not only have an informational load, but also have socio-cultural and semantic connotations behind them. Therefore, the translator must be able to perceive them not as simple names, but as cultural symbols in context and translate them in an appropriate way. The article considers methods used in working with ergonyms, such as transliteration, transcription, explanatory translation, and a mixed approach. In addition, ergonyms in literary texts are analyzed using the example of Uzbek and world literature, and the stylistic, semantic and aesthetic balance in translation is indicated as an important aspect. The role of the translator as an intercultural mediator is also widely covered.

Keywords: ergonym, literary translation, onomastics, contextual compatibility, transliteration, transcription, explanatory translation, cultural connotation, translator's strategy.

Kirish. Badiiy matn tarjimasi til va madaniyatning eng nozik qatlamlarini aks ettiruvchi murakkab jarayonlardan biridir. Ushbu jarayonda tarjimon faqatgina so‘z va gap darajasidagi muvofiqliklarni emas, balki madaniy, stilistik va konnotativ qatlamlarni ham hisobga olishi lozim. Ayniqsa, tarjimada onomastik birliklar, xususan ergonimlar bilan ishlash alohida e’tiborni talab qiladi. ugungi globallashuv davrida badiiy asarlarning boshqa tillarga tarjima qilinishi tobora kengayib bormoqda. Til o‘z mohiyatiga ko‘ra, jamiyatning ijtimoiy-madaniy hayotini ifodalaydi.[Rustamov, 2025: 87-90] Shu nuqtayi nazardan qaralganda, badiiy matnlar tarjimasi nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik va sosiolingvistika yo‘nalishlarida ham chuqur tadqiqotlarni talab etadi. Ayniqsa, matn tarkibidagi onomastik birliklar, jumladan ergonimlar bilan ishlashda tarjimon yuqori darajadagi lingvomadaniy tayyorgarlikka ega bo‘lishi kerak. Tarjimada onomastik birliklar — ismlar, joy nomlari, brendlar va boshqa to‘g‘ri otlarning to‘g‘ri va kontekstga mos ko‘chirilishi alohida dolzarb masaladir. Ayniqsa, ergonimlar, ya’ni faoliyat yurituvchi tashkilot, korxona, firma nomlarini tarjima qilishda ko‘plab lingvistik va madaniy muammolar yuzaga chiqadi.[Abdurakhmonov, 2025: 220] Ushbu maqola ana shu muammolar va ularning yechimlariga bag‘ishlanadi.

Ergonim tushunchasi va uning tabiati. Tilshunoslikda ergonimlar — bu korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, firma va boshqa faoliyat yurituvchi yuridik shaxslarning nomlari hisoblanadi. Bu atama yunoncha “ergon” — “ish”, “faoliyat” degan so‘zdan olingan bo‘lib, turli faoliyat shakllari bilan bog‘liq nomlarni anglatadi. Masalan: “O‘zbektelekom”, “Toshkent davlat universiteti”, “Hilton”, “Samsung”, “Coca-Cola”, “British Museum” va boshqalar. Ergonimlar nafaqat informativ yuklamaga ega, balki ularning orqasida madaniy, tarixiy va sotsiologik ma’lumotlar ham mavjud. Shuning uchun ham, tarjima jarayonida ergonimlarni to‘g‘ri anglash va tarjima qilish semantik aniqlik, kontekstga moslik va madaniy ekvivalentlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

- ✓ *Kasbiy terminologiya* – muayyan soha mutaxassislari ishlatadigan maxsus atamalar (masalan, tibbiyotda "stetoskop", qurilishda "beton qorishmasi").
- ✓ *Lavozim va unvon nomlari* – "direktor", "muhandis", "stajyor" kabi so‘zlar.
- ✓ *Korxona va tashkilot nomlari* – "Google", "Tesla", "O‘zbekiston Temir Yo‘llari".
- ✓ *Ishlab chiqarish jarayonlari va texnologiyalar* – "3D-bosma", "agrokimyo", "biologik qayta ishlash".

- ✓ *Professional jargon va sleng* – masalan, dasturlashda "bug" (xato), jurnalistikada "lead" (kirish qismi).

Ergonimlarni tarjima qilishdagi asosiy muammolar. Ergonimlarni tarjima qilishda tarjimon bir nechta dolzarb muammolarga duch keladi: Ekzotik yoki notanish madaniy birliklar – Mahalliy korxona yoki tashkilot nomi boshqa til o‘quvchisi uchun begona bo‘lishi mumkin. Misol uchun, "Yulduz Savdo Markazi" degan ibora ingliz tilidagi o‘quvchi uchun hech qanday konnotatsiyaga ega bo‘lmasligi mumkin.

Transliteratsiya va transkripsiya muammolari – O‘zbekcha nomlarni aynan fonetik jihatdan tarjima qilish, ba’zan esa transliteratsiya qilish kerak bo‘ladi. Ammo bu har doim ham tushunarli yoki qabul qilinadigan yechim bo‘lavermaydi. Brend va huquqiy masalalar – Ayrim ergonimlar xalqaro ro‘yxatdan o‘tgan brendlar bo‘lib, ularni tarjima qilish emas, balki to‘g‘ridan-to‘g‘ri asl shaklida ishlatish talab etiladi.

Stilistik moslik – Badiiy matndagi ergonimlar, ayniqsa, obrazli tilda ishlatilganda, ularning tarjimasi matnning ohangiga mos bo‘lishi kerak.[Sapaniyazova, 2023: 1362]

Ergonimlar bilan ishlash strategiyalari. Ergonimlarni tarjima qilishda bir necha uslubiy yondashuvlar qo‘llaniladi:

- ➢ Transliteratsiya – ergonim asl til shaklida saqlanib, boshqa alifboga o‘tkaziladi. Masalan, “O‘zbekenergo” → Uzbekenergo.
- ➢ Transkripsiya – tovushlar asosida moslashtirilgan shakl beriladi: “Hilton” → Xilton (lekin bu adabiy emas).
- ➢ Tarjima (kalqoni) – ayrim hollarda ergonim to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilinadi, ayniqsa agar u umumiy ma’noga ega bo‘lsa. Masalan, "Yoshlar markazi" → Youth Center.
- ➢ Izohli tarjima – ergonimning ortidagi ma’noni tushuntirish orqali o‘quvchiga kontekst beriladi: “Mahalla” — community-based neighborhood organization (Mahalla).
- ➢ Aralash usul – ergonim asl holatda beriladi, lekin orqasidan qisqacha izoh keltiriladi. Bu ilmiy yoki publitsistik tarjimalarda keng qo‘llaniladi.

Ergonimlar badiiy matn obrazlar sistemasida. Ko‘plab badiiy asarlarda ergonimlar oddiy nom emas, balki obrazli ifoda, ideologik belgilar yoki sotsial fon sifatida ishlatiladi. Masalan, “McDonald’s” so‘zi ba’zan G‘arbiy hayot tarzining ramzi sifatida qo‘llaniladi. Shuningdek, “Bolshoy teatr”, “British Library” kabi ergonimlar milliy madaniyatning timsoli sifatida qabul qilinadi. Tarjimon bu hollarda shunchaki nomni emas, balki u bilan bog‘liq assotsiatsiyalar, kontekst va madaniy yukni

ham ko‘chira bilishi kerak.[Siddiqov, 2022: 1001] Badiiy matnning estetik qiymati aynan shunday mayda-lekin-muhim detallarda namoyon bo‘ladi.

Ilmiy qarashlar. Tilshunos L. V. Uspenskaya o‘z tadqiqotlarida shunday deydi:

“Ergonimlar tarjimasi nafaqat lingvistik, balki madaniy translatsiyaning o‘ziga xos shaklidir. Ular orqali xalqning ijtimoiy hayoti, mehnat faoliyati va ideologiyasi aks etadi.” Yana bir tarjimashunos A. V. Fedorov shunday fikr bildiradi: “Onomastik birliklarning badiiy matnda ishlatilishi tasvirning real va emotsional fonini belgilaydi. Shu bois, tarjimon ularni befarqlik bilan ko‘chira olmaydi — har bir nom orqasida madaniy konnotatsiya yotadi.”[Yangiboyeva, 2022: 66]

Xulosa. Badiiy matn tarjimasida ergonimlar bilan ishlash — bu til vositalarini ko‘chirish emas, balki madaniy semantikalararo ko‘prik qurish jarayonidir. Tarjimon ergonimning tashqi shakli bilan emas, balki uning ichki ma’nosi, sotsiokulturniy vazifasi va matndagi estetik o‘rni bilan ishlashi kerak. To‘g‘ri yondashuv, kontekstni chuqur tahlil qilish, o‘quvchi ehtiyojini inobatga olish orqali badiiy tarjimada ergonimlarning asli ma’nosi va funksiyasini saqlab qolish mumkin bo‘ladi. Bu esa tarjimani chinakam san’atga aylantiradi. Ergonimlar tarjimasi badiiy matn kontekstida murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, tarjimonning ehtiyotkorlik, tafakkur va madaniy sezgirlik bilan ishlashini talab etadi. Ularni tarjima qilishda nafaqat lingvistik, balki sotsiokulturniy tafovutlarni ham hisobga olish lozim. To‘g‘ri tanlangan tarjima usuli nafaqat matnning aniqligini, balki uning estetik va stilistik butunligini ham saqlab qoladi. Ergonimlar bilan ishlash tarjimada umumiy leksik birliklarni ko‘chirishdan ko‘ra murakkabroq jarayondir. Bunda tarjimon lingvistik bilim, madaniyatlararo kompetensiya, kontekstni tahlil qilish va kommunikativ samaradorlik mezonlarini uyg‘unlashtirgan holda ishlashi kerak. Ayniqsa, badiiy matn doirasida ergonimlar obraz va kayfiyat yaratishda ishtirok etgani uchun, ularni lozim darajada tarjima qilish san’at darajasidagi yondashuvni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rustamov, Akbar. "BUXORO ERGONIMLARINING O ‘ZIGA XOS FUNKSIYALARI." Международный журнал научных исследователей 10.2 (2025): 87-90.
2. ABDURAKHMONOV M. INGLIZ VA O ‘ZBEK TILLARIDA ERGONIMLARNI IFODALASH VOSITALARI //«ACTA NUUz». – 2025. – Т. 1. – №. 1.3. – С. 220-221.

3. Saparniyazova, Muyassar. "STRUCTURAL-SEMANTIC CLASSIFICATION OF ERGONYMS OF THE UZBEKI LANGUAGE." Modern Science and Research 2.5 (2023): 1361-1365.
4. Siddikov J. ERGONIMLARNING SHAKLLANISH TAMOYILLARI VA TURLARI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 6. – С. 1000-1003.
